94
T 39

IBN ARABSHOH

# AMIR TEMUR TARIXI



Книга должна быть
возвращена не позже
указанного здесь срока

| Количество предыдущих выдач ________ | |
|---|---|
| | |

94
T 39

IBN ARABSHOH

# AMIR TEMUR TARIXI

AJOIB AL-MAQDUR FI TARIXI TAYMUR

I–II QISMLAR

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
TOSHKENT VILOYATI CHIRCHIQ
DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
AXBOROT RESURS MARKAZI

«Fan» nashriyoti
Toshkent–2019

UO‘K: 94 (575.1): 355.091 (575.1) (092)
KBK 63.3(2U)
T39

**Ubaydulla Uvatov** – Tarix fanlari doktori

Taqrizchilar:
**N. Ibrohimov** – filologiya fanlari doktori, akademik;
**A. Hasanov** – t. f. d., professor.

Mas'ul muharrir
**A. O‘rinboyev** – tarix fanlari doktori.

**Ibn Arabshoh**

T39 **«Amir Temur tarixi» Ajoib al-maqdur fi tarixi Taymur.** I–II qismlar / Arab tilidan tarj. va izohlar, so‘zboshi mual. U. Uvatov; Mas'ul muharrir A. O‘rinboyev. K. II. – Toshkent: «Fan» nashriyoti, 2019. – 512 b.

Sohibqiron Amir Temur va u hukmronlik qilgan davr haqida ko‘plab tarixiy asarlar yaratilgan. Ular mualliflarning nuqtayi nazari va Temur shaxsiga munosabatiga ko‘ra bir-biridan farq qiladi. Ibn Arabshohning ushbu asari esa muallif guvoh bo‘lgan, o‘zi bevosita ishtirok etgan voqealarni tasvirlagani bilan ham g‘oyat muhim tarixiy ahamiyatga egadir.

Birinchi jildda sohibqironning bolaligi, Samarqand taxtini egallashidan vafotiga qadar bo‘lib o‘tgan voqealar tasviri o‘rin olgan. Ikkinchi jildda Amir Temurning vafotidan keyingi davr voqealari, toj-taxt uchun talashlar bayon etilgan. Izohlar, geografik joylar va ismlar ko‘rsatkichi asarning ikkinchi jildida berilgan.

Keng kitobxonlar ommasiga mo‘ljallangan.

UO‘K: 94 (575.1): 355.091 (575.1) (092)
KBK 63.3(2U)

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI TOSHKENT VILOYATI CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI AXBOROT RESURS MARKAZI

ISBN 978-9943-19-426-7

© «Fan» nashriyoti, 2019



## MUNDARIJA

So‘zboshi ........ 14

## I QISM

Ibn Arabshohning hayoti ........ 20
Ibn Arabshoh tarixnavis va adib ........ 23
«Ajoib al-maqdur» o‘rta asr tarixnavislari asarlarida ........ 31
«Ajoib al-maqdur»ning qo‘lyozmalari va nashrlari ........ 33
«Ajoib al-maqdur»ning tarjimalari ........ 38
«Ajoib al-maqdur» ilmiy adabiyot sahifalarida ........ 39
«Ajoib al-maqdur»ning tili va uslubi ........ 44
«Ajoib al-maqdur» tarixiy manba sifatida ........ 46
Tarjima va izohlardagi tartiblar haqida ........ 71
Temurning nasabi va uning mamlakatlarni birin-ketin zabt etishi va buning boislari haqidagi bo‘lim ........ 74
Temurning shoshilinch Jayhundan o‘tishi va bunda qanchadan qancha ko‘z yoshlari to‘kilgani bayoni ........ 83
Qarshiga kirish vaqtida Temur boshidan kechirgan zarba va uning bu tanglikdan qutulishi bayoni ........ 84
Temur asoratiga kimlar asir olingani va u atrof hur podshohlaridan kimlarni bo‘ysundirgani bayoni ........ 86
Mo‘g‘ullarning Sultonga qarshi qo‘zg‘olishi va qanday qilib uning (hukmi) ruknlarining bo‘shagani bayoni ........ 86
Temur ishlatgan hiyla va u o‘ylab topgan aldov bayoni ........ 87
Temurning Badaxshonga otlanishi va u yerdagilardan Sulton (Husayn)ga qarshi madad so‘rashi bayoni ........ 89
Dasht va Turkiston Sultoni To‘xtamishxonning hamlasi bayoni ........ 90
Alisher va Temur orasida voqe bo‘lgan ixtilof va fasodliklar bayoni ........ 92
Temur bilan Samarqand buzuqlari va shuttorlari orasidagi mojaro va qanday qilib Temur ularni do‘zaxga joylashtirgani bayoni ........ 92
Samarqand yerlari, Badaxshon va Xo‘jand daryolari o‘rtasida bo‘lgan (yer)lar tafsiliga oid bo‘lim ........ 93
Movarounnahr yerlarini o‘ziniki qilganidan keyin Temurning saltanat yo‘lida boshlagan zo‘ravonliklari bayoni ........ 94
Temurning atrof va, eng avval, Xorazm yerlarini birlashtirishga niyat qilib, qat'iy qarorga kelgani bayoni ........ 95

Temurning Xorazmga ikkinchi marta qaytishi bayoni ..... 96
Temur uchun o‘z otasini yo‘ldan urib, uni chormixga tortishlaridan xalos qilgan Hirot sultoni G‘iyosuddinga Temurning maktubi bayoni ..... 96
Temurning Shayx Zaynuddin Abu Bakr al-Xavofiy bilan uchrashuvi bayoni ..... 98
Temurning Xurosonga qaytishi va Sajiston viloyatlarini xarob etishi bayoni ..... 100
Temurning Sabzavor yerlariga yurishi va shaharning unga bo‘ysunib, hokimining uning huzuriga kelishi bayoni ..... 100
Bo‘lim ..... 101
Sabzavorda Temur va firibgarlar guruhining boshlig‘i Sharif Muhammad o‘rtasidagi mojaro bayoni ..... 101
Ushbu dovyurakning Ajam Iroqi sultoni Abul-Favoris Shoh Shuj’oga yo‘llagan maktubi bayoni ..... 104
Temurning bebosh va ziyonkor qo‘shin bilan uchinchi marta Xorazmga otlanishi bayoni ..... 108
Temurning to‘rtinchi marta Xorazmga tavajjuhi bayoni ..... 109
Temurning Mozandaron yerlari amiri Shoh Valiga yuborgan maktubi bayoni ..... 109
Shoh Valining Iroq sultonlariga maktubi va bu borada nizo va noittifoqlikdan nimalar voqe’ bo‘lgani bayoni ..... 110
Abu Bakr Shosboniy va Temur o‘rtasida sodir bo‘lgan voqealar bayoni ..... 111
Temurning Ajam Iroqiga yurishi va Shoh Mansurning ushbu sersuv dengiz (Temur qo‘shini) girdobiga sho‘ng‘ishi bayoni ..... 113
Shoh Mansur maqsad qilib halqasini bog‘lagan hiylaning zohir bo‘lishi va u (halqa)ning tarqalishi bayoni ..... 115
Tun og‘ushi ostida Shoh Mansurning Temur askariga nisbatan qilgan urushi va (etqizgan) kulfati haqidagi naql bayoni ..... 116
Shoh Mansur bilan (bo‘lgan) jangdan keyin yuz bergan ishlar va yomonliklar bayoni ..... 121
Temur Isfahonga qo‘nganda zamon unga nimalar ko‘rsatgani bayoni ..... 121
Temurning Mo‘g‘ul va Jato tarafini zabt etishi va bu joylarda uning tomonidan sodir bo‘lgan ishlar bayoni ..... 125
Temurning Fors va Xuroson yerlariga qaytishi va Ajam Iroqi podshohlarini qatl etishi: o‘sha viloyatlar va xalqlarnibatamom egallashi bayoni ..... 126







Bo‘lim ..... 129
Bo‘lim ..... 130
Garchi Temur (bostirib) kirish uchun sabab va bahonaga muhtoj bo‘lmasa-da, uning Arab Iroqiga kirishi sababi ..... 133
(Avvaliga) atrof (yerlari)ga osoyishtalik berib, keyin ularni (o‘zi) xohlaganicha vayron qilish va bevafo qismatga tashlash uchun bu bo‘ronli shamolning (vaqtincha) to‘xtab, bu to‘lqinli dengizning tinchlanishi bayoni ..... 134
Temurning o‘z askarlari dengizida cho‘milib, ba’zi ishlarga sho‘ng‘ishi, keyin esa fasod (ishlari) bilan jo‘shqin urishidan bir namuna. Shular jumlasidan uning Movarounnahrdan shung‘ib Lur yerlaridan chiqishi ..... 134
Temurning Ozarbayjon va Arab Iroqi yerlarini xarob (etishi)ning boshlanishi ..... 136
Alinjo qal’asining tavsifi ..... 139
Bag‘dod sohibi haqida xabarlar, uning ota-bobolarining ismlari va Temurning qay tariqa bu yerlarga kirishi bayoni ..... 142
Arzinjon va Diyorbakr yerlarida Temur ishlatgan aldov va makr bayoni ..... 145
Mordin sultoni Iso Malik Zohirga Temur tomonidan qanday g‘am-g‘ussa va balolar kelgani bayoni ..... 146
Temur yashirgan hiyla va uning badg‘araz niyatlari chaqmoq toshidan uchqun chiqmaganligi izohi ..... 149
Bo‘lim ..... 150
Temurning Diyorbakr va Iroqdan qaytib Qipchoq Dashtiga tomon tavajjuhi zikri. Qipchoq podshohlari va yerlarining vasfi. Qishloq va yo‘llarining bayoni ..... 153
Ushbu to‘fonning kelishi va uning To‘xtamishxonni yenggandan keyin Dasht xalqlarini oqizib ketishining bayoni ..... 161
Jang paytida To‘xtamish askari o‘rtasida voqe’ bo‘lgan ixtilof bayoni ..... 162
Bo‘lim ..... 163
Idiku va u qilgan ish hamda qay tariqa u Temurga chap berib, uni aldagani bayoni ..... 164
To‘xtamish va Idiquning ishi va ahvoli o‘zgarmagunicha ularning (ikkovi) o‘rtasida shimol tomonlarda bo‘lib o‘tgan jang-u jadal tamomining (bayoni) ..... 166
Temur ishlari-yu uning falokatlari haqidagi hikoyamizga qaytdik ..... 170

Shom yerlariga mansub joylarda Temur chang-to‘zonlarining ko‘tarila boshlashi ... 171
Sulton Abu Yazid ibn Usmonning Sivos yerlari sultoni Qozi Burhonuddin Abu-l-Abbosga javobining zikri ... 173
Fasl ... 177
Temurni daf etish uchun Shom askarlarining otlanishi bayoni ... 177
Temurning qaytishi va Hind yerlarini xolis (o‘ziniki) qilishga qasdi bayoni ... 178
Fasl ... 179
Ushbu fillarni qo‘rqitish uchun Temur ishlatgan firib bayoni ... 180
Ikki podshohning: Abu-l-Abbos Ahmad va Malik az-Zohir Barquqning vafoti xabarining Temurga yetishi bayoni ... 183
Temur Hindistonda ekanida unga kelgan bir maktub ma’nosi: gumon qilishlaricha, bu xatni Temurga o‘g‘li Amiranshoh yuborgan ... 184
Sivos va Shom sultonivafotidan keyin qanday fitna-yu bid’atlar voqe’ bo‘lgani vafasodliqlar uchun qilich yalang‘ochlangani bayoni ... 191
Qozi (Burhonuddin) ishlaridan bir shingil va uning qay tariqa Sivos va o‘sha yerlarni egallagani bayoni ... 191
Adovat izhor qilib, isyon holati o‘ylaganligi sababli Qorayluk Usmonning Sulton Burhonuddin nurlari izlarini mahv etishi va zamon unga xiyonat qilib, g‘adirlik bildirganda uni tutib olishi bayoni ... 194
Qoraylukning (boshda) to‘g‘ri fikrga niyat qilishi va ko‘ngli xiraligidan Shayx Najib vositasida undan qaytishi bayoni ... 195
Qorayluk Sulton Burhonuddinni qatl etgandan keyin dunyo va dinda voqe’ bo‘lgan fasod bayoni ... 199
Qanday yo‘ldan yurish va kimni (o‘zlariga) hokim qilish borasida Sivos ahli qilgan kengash bayoni ... 200
Bo‘lim ... 200
Temurning Sivos va unga yondosh diyorlarga otlanishi bayoni ... 201
Ushbu tamomiy balo yashinlarining zararli bulutlardan chiqib Shom yerlari to‘dalari ustiga yopirilishi bayoni ... 203
Temur Ayntobda ekanida Halabdagi noiblarga yuborgan xunuk xitobi va maktubi bayoni ... 205
Temur Ayntobda ekanida Halabda noiblar unga qarshi qilgan maslahat bayoni ... 206
Halabga kelganida Shom askarlari ustiga qilich va qalqonlardan Temur chaqnatgan yashin bayoni ... 209





Ibn ash-Shihna tarixidan bu kulfat xususida men naql qilgan qo‘shimcha izoh ... 212
Bu tashvishli xabarning yetishi va Asanbug‘o Davodor va Abdul Qassorning Jilliqga kelishi bayoni ... 221
Sulton Malik an-Nosirning islom qo‘shin va askarlari bilan Qohiradan chiqishi bayoni ... 222
Bo‘lim ... 223
Hikoya ... 223
Bo‘lim ... 225
Yuz bergan bir jang va garchi naf qilgan bo‘lsa ham, saflarni tarqatgan ma’raka bayoni ... 227
Bo‘lim ... 228
Temur hamshirasining o‘g‘li Sulton Husayn ishlatganmakr va firib bayoni ... 229
Bo‘lim ... 229
Islom askarlari o‘rtasida hosil bo‘lgan nifoq va noittifoqlik bayoni ... 230
Bo‘lim ... 230
Bo‘lim ... 231
Bo‘lim ... 232
Sulton ketgandan keyin (shahar) a’yonlarining chiqib Temurdan omonlik tilashlari bayoni ... 232
Bo‘lim ... 233
Bo‘lim ... 235
Bo‘lim ... 240
Bo‘lim ... 240
Bo‘lim ... 241
Hiylakor odamlardan birining o‘ziga shiddat kelishidan xavflanib qilgan ishi va uning o‘z nafis (boylik)lari yordamida boshqa odamlar jonlari-yu qonlarini saqlagani bayoni ... 242
Bo‘lim ... 245
(Misr qo‘shinlari) Temurdan qochganlaridan keyin Baysaq orqali Temurga yuborilgan maktub ma’nisining bayoni ... 246
Bo‘lim ... 247
Bo‘lim ... 248
(Damashq) izlarini uchirish uchun ularning shaharga o‘t qo‘yishlari bayoni ... 249
Ushbu kulfatlarning qo‘porilishi va gunoh-u uvollarni orqalab, ushbu balo va falokatlar bulutlari (Temur)ning Shom yerlaridan tarqab ketishi ... 250

Bu xabarlar eshitilib, ushbu dahshat va xatarlarni aniq bilgach
Misr va boshqa o'lkalarda yuz bergan ishlar bayoni ........ 251
Damashq a'yonlaridan qazo o'qiga uchraganlar va
Temur asri changaliga tushganlar bayoni ........ 251
Temurdan keyin chigirtka keltirgan ofat bayoni ........ 254
Temurning haybat bilan Mordinga kelishi va uni qamal
qilgandan keyin noumid ketishi bayoni ........ 256
Bu qal'aning tavsifi ........ 256
Temurning qal'a qamalida inod va qaysarlikni tark qilib,
o'z qo'shini bilan Mordindan Bag'dodga yuzlanishi bayoni ........ 256
Bo'lim ........ 258
Temurning o'ziga tomon yuzlanganligini eshitgach,
Sulton Ahmad ibn Shayx Uvaysning qilgan ishi bayoni ........ 259

## II QISM

Bu tug'yonchining orqaga qaytishi va Qorabog'da qo'nishi bayoni ........ 264
Temurning Rum Sultoni Yildirim Boyazidga (yuborgan)
maktubi bayoni ........ 264
Temurning Rum yerlarini xarob qilishni niyat qilib uchishi bayoni ........ 268
Kamox qal'asining tavsifi ........ 269
Bu to'fon o'ziga tomon qo'yilganda Ibn Usmonning unga
qarshi qilgan azmi bayoni ........ 272
Totor qo'shinlarini Ibn Usmondan qaytarish borasida
Temur qilgan bag'oyat bezakli ish bayoni ........ 273
Ibn Usmon o'ylagan foydasiz fikr va uning ko'p askar bilan
Temur muloqotiga yuzlanishi bayoni ........ 276
Temurning Ibn Usmon va uning askariga nisbatan
ishlatgan firibi bayoni ........ 277
Bo'lim ........ 278
Bo'lim ........ 281
Ibn Usmon ag'darilgandan keyin har bir joy-u rabotda voqe' bo'lgan
toptash bayoni ........ 281
Ibn Usmonning o'g'illari va qay tariqa zamon ularni to'zitib,
tugatgani bayoni ........ 283
Temurning avval zikr etganimiz ishlari va kulfatlariga qaytamiz ........ 284
Ibn Usmondan Temur olgan bir qasos bayoniki, o'z qabih
sifatlari bilan u dunyo boricha (mavjud) bir hiqoyatdir ........ 285





Isfandiyorning Temur huzuriga kelib, itoat izhor etib,qulluq qilishi
bayoni ........ 287
Bo'lim ........ 288
Izmir qal'asining fathi va uning yo'q qilinishi.
Bu qal'a ajib surati va vasfidan bir shingil bayon ........ 289
Temur Rum yerlaridaligida nimalar qilgani: uning Xitoy yeriga
(yurishga) rag'bati; Turk va Jato yerlarini xolis o'ziniki qilishi; o'zi
g'arbda mashg'ul bo'la turib mo'g'ul va boshqa sharq viloyatlarini
batamom o'ziniki qilishni fikrlashi; qanday qilib qazo-yu mubram
(o'z) tushishi bilan Temurga inodlik ko'rsatib, uning qalbiga o't
qo'yib yondirishi; zamon unga g'addorlik qilib, maqsadiga
akslik ko'rsatishi bayoni. ........ 290
Bu sayyod g'azabining Ollohdod ustiga kelishi va
uni mamlakatning eng chekkasiga surgun qilishi bayoni ........ 292
Bu dengiz muhiti chuqurligini ko'rsatuvchi va uning o'tkir
fikri g'avvosi yetgan joyidan dalolat beruvchi bir namuna ........ 293
Rum ishini nihoyasiga yetkazayotgan vaqtda Temurning totorlarga
qilgan firibi bayoni ........ 294
Bo'lim ........ 296
O'z balosi yashinlari bilan ushbu bulutning
Rum yerlaridan ko'tarilishi bayoni ........ 300
Bu azobning suv va olov bo'lib Kurj yerlari va Nassoriylar
shaharlari ustiga quyilishi bayoni ........ 300
Temurning bu manoatli qo'rg'onni olish sababi va
shu orada bo'lib o'tgan badoatli bir ish ma'nosining bayoni ........ 303
Kurjlarni oqsoqlar shayxi Temur bilan mojarosining tamomi ........ 306
O'z qo'shnilari Shirvon hokimi Shayx Ibrohim vositasida
kurjlarning Temurdan omonlik tilab shafoat so'rashi bayoni ........ 306
Temurning o'z jilovini vataniga qarab burishi va fasodini
Kamoliga yetkizgach, o'z mamlakatiga yuzlanishi bayoni ........ 308
Bu atrof podshohlarining Temur istiqboliga chiqishi, kelgusi
holatining afzal bo'lishini tabriklab, uning huzuriga kelishlari bayoni ........ 309
Temurning totorlarni sharq-u g'arbga va o'ng-u so'lga
to'da-to'da (qilib) tarqatishi bayoni ........ 310
Bo'lim ........ 312
Temur bid'at etgan qirdikorlari va (o'z) muhri bilan bosgan
yomonliklari xotimalari va uning vafoti talabgorining kelishi bayoni ........ 312

Bo'lim ........ 315
Bo'lim ........ 317
Bo'lim ........ 321
Temurga aloqador oldin o'tgan ba'zi hodisalar bayoni ........ 322
Nukta (latifa) ........ 323
Bo'lim ........ 324
Avvalgidek Temurning Xitoyga azm etishi, «haq o'lim ajali kelib», undan yopiq (parda)ni ochishi, keyin uning safardan saqar (do'zax)ga ko'chishi bayoni ........ 326
Ollohdodga Temur yo'llagan bir farmon, u (farmon) bilan jigarlar-u qalblarni tilka-pora qilib, madorsizlantirishi va Ollohdod ustidagi (mavjud) kulfatni (yangi) mashaqqatlar bilan oshirishi bayoni ........ 330
Ushbu jabbor yengilishining sababi va uning do'zaxga ko'chib, asfalasofinda qaror topishi bayoni ........ 332
Temur vafotidan keyin voqe bo'lgan hodisalar va ishlar, zohir bo'lgan surur va yomonliklar bayoni ........ 334
Baxt kulib boqib, Temurdan keyin taxtga egalik qilgan (kishi)ning bayoni ........ 334
Askarlarning banddan xalos bo'lishi va Temur jasadini olib Samarqandga qaytishi bayoni ........ 337
Temur vazirlari sir tutgan va ulardan har birining diliga tuygan (yashirin) o'ylari bayoni ........ 338
Xalil Sultonning (o'zi) erishgan saltanat bilan vataniga yetib kelishi bayoni ........ 340
Temurning ko'milishi va go'r qa'riga tashlanishi bayoni ........ 341
Zamon mo'tadilligi va Xalil Sulton xabarlari haqida bo'lim ........ 342
Bo'lim ........ 342
Amir va vazirlardan (Xalil Sultonga) inod izhor qilib, tan olmay, ixtilof va isyon etagiga yopishganlar bayoni ........ 343
Ashpara sohibi Ollohdod xabarlari bayoni: uning Ashparani qoldirib, o'z diyoriga otlanishi; mulk tadbirida so'zu amalda nimalar qilib, nimani afzal ko'rgani. Bular jarayonida uning o'z halokati-yu vayroniga yetishiga ishora ........ 344
Bo'lim ........ 345
Ollohdodga Xalil Sulton va Xudoydoddan ikki maktub kelishi, bu maktublar ma'nosining (bir-biriga) aks va zidligi bayoni ........ 346
Ollohdod Ashparada qoldirgan toifalar va u ketgandan keyin ular o'rtasida voqe bo'lgan zidlik va ixtilof bayoni ........ 347





Ollohdod bilan Xudoydod o'rtasidagi aloqa tamomi va Ollohdod qanday qilib uni aldab o'ziga moyil etgani, aqlini olib, jinni qilgani bayoni ........ 349
Bo'lim ........ 350
Ollohdodning Xalil Sulton bilan uchrashuvi va vatanida unga izzat-ikrom kelishi bayoni ........ 351
Xudoydod Ollohdodning g'am-g'ussa-yu kulfatlar bilan aqlini chalg'itganini fahmlashi bayoni ........ 353
Temur vafotidan keyin Turonda zamon hodisalaridan sodir bo'lgan voqealar bayoni ........ 354
Idikuning totorlar bilan qo'zg'olib Movarounnahr va o'sha diyorlarga tomon yuzlanishi bayoni ........ 355
Temurning nabirasi va vorisi Pirmuhammad bayoni; u bilan Xalili va valiysi o'rtasida bo'lib o'tgan mojaro ........ 356
Xalil Sultonning Pirmuhammadga qarshi Sulton Husaynni jo'natishi; uning Xalil Sulton izmidan chiqib, Amirlarini qabz qilib, muxolifat bildirishi bayoni ........ 358
Ollohdodning Sulton Husaynga (ko'rsatgan) firibi va makr-u hiyla bilan o'limdan qutulishi bayoni ........ 359
Sulton Husaynning amirlardan ahdu paymon olishi va ularni o'z huzurida kishanda tutib, Xalil Sultonga qarshi yurishi bayoni ........ 362
Sulton Husayn muloqoti uchun Xalil Sultonning o'z qo'shin toifalari bilan Samarqanddan chiqishi va Sulton Husaynning o'z murodidan hech narsaga erisholmay quruq o'zi qaytishi bayoni ........ 363
Pirmuhammad niyat qilganidan voqe bo'lgan g'am-u shodlik tamomi; qanday qilib bu (niyat) uni zahmat-u g'ussaga olib kelib, keyin uni qulatgani ........ 364
Xalil Sulton askarlarining Qandahor qo'shinlarini «sodiq niyat» bilan uchratib, ularni eng dahshatli baloga giriftor qilib mag'lubiyatga uchratishi bayoni ........ 365
Iroq askarining Xalil Sultonga qarshi chiqishi va xurujda jidd-u jahd ko'rsatib, o'z vatanlariga yo'l olishi bayoni ........ 367
Mag'lubiyatidan so'ng o'z Qandahoriga yetgandan keyin Pirmuhammad qilgan ishlari bayoni ........ 368
Pirmuhammadning Xalil Sulton bilan to'qnashuvga ikkinchi marta otlanishi; (shunda) to'xtovsiz hujumdan unga nima bo'lgani va birinchi galdagidek orqasini o'girib qochishi bayoni ........ 369
Pirmuhammad ishlatgan bir hiyla bayoni: yaramasligi va foydasizligi sababli ushbu (hiyla)ning uning o'ziga qaytishi ........ 370

Pirmuhammad o‘z noxaqligini e’tirof etishi va Xalil Sultondan sulh so‘rab, u bilan murosa qilishi bayoni ..... 371
Pir Ali va Pirmuhammad o‘rtasida voqe bo‘lgan muxolifat va adolatning ular ikkisidan ham hayot libosini yechib, muxoliflariga orom berishi bayoni ..... 372
Xalil Sulton g‘oyibligida zamon hodisalaridan voqe bo‘lgan ishlar bayoni ..... 373
Xalil Sultonning qo‘shin to‘plab Shayx Nuruddin va Xudoydodga qarab yuzlanishi bayoni ..... 373
Shayx Nuruddin va Xudoydodning Xalil (Sulton)ni kuydirish uchun olov yoqishi; Tangri taolo u (olov)ni o‘chirib, Xalilni saqlagani bayoni ..... 374
Shayx Nuruddinning Xudoydoddan ajralishi va o‘sha yerlarni taqsimlab olishlari bayoni ..... 374
Shayx Nuruddinning uzr so‘rashga tutinishi va Xalil Sulton huzurida yuz bergan ishlardan o‘zini oqlashi bayoni ..... 375
Bo‘lim ..... 375
Chingizxon xarob qilgan Termizni tiklash haqida Xalil Sultonning buyrug‘i va bu ish uchun askarlar yuborishi bayoni ..... 376
Xalil Sulton kirishgan (ish)ga muqobala tarzda Xuroson tomondan Shohrux qilgan harakat bayoni ..... 378
Eron iqlimlarida sodir bo‘lgan hodisa va ushbu to‘fonning kelishida oqqan qon sellariga bir ishora ..... 378
Odamlarning qurshovdan chiqishi va o‘z vatanlarini qo‘msab Movarounnahrdan jo‘nashi bayoni ..... 379
Bevafo zamon qanday vayronalik va halokat keltirib, Xalil (Sulton)ni olovga uloqtirishi bayoni ..... 380
Ollohdod Xudoydodga yozgan maktubida nimani o‘ylab, nimaning tadbirini ko‘rgani bayoni ..... 382
Xudoydod o‘ylagan aldov va Xalil Sultonning ov tuzog‘iga tushuvi bayoni ..... 384
Bo‘lim ..... 385
Bo‘lim ..... 385
Xudoydod kelganda Samarqandda yuz bergan fasod (ishlar) bayoni ..... 386
Bu ishlar Temurning o‘g‘li Shohrux (qulog‘i)ga yetishi va uning bu hodisalarni yo‘lga solib, buzuqliklar maddasini bartaraf etishi bayoni ..... 386
Bo‘lim ..... 387







Jand qo‘shinlari chiqqanidan va Shohrux qirg‘iylarining yetib kelishidan oldin Samarqandda yuz bergan mojaro bayoni ..... 388
Xalil davrining quyoshi g‘urubidan keyin Movarounnahr osmonida Shohrux davlati to‘lin oyining (porlab) chiqishi bayoni ..... 388
Bo‘lim ..... 389
Bo‘lim ..... 389
Xudoydodning (bu) kulfat-u fasodni tugatish uchun nimalarni ko‘zda tutgani va to unga o‘lim kelgunicha qayerlarga borib yotgani bayoni ..... 390
Xalil (Sulton) bilan Xudoydodga o‘lim (etib) kelguncha ular o‘rtasida bo‘lgan bitim, ahd-u paymon va do‘stlik ta’kidlanishining bayoni ..... 390
Xalil Sultonning Andikon yerlaridan qaytib, amakisi Shohrux huzuriga borishi va jonini tikib, u rux bilan o‘ynashi bayoni ..... 392
Temurning badoatli sifatlari va unga ato qilingan tug‘ma xislatlari va tabiati haqida bo‘lim ..... 393
Bo‘lim ..... 397
Bo‘lim ..... 399
Bo‘lim ..... 401
Bo‘lim ..... 408
Bo‘lim ..... 410
Bo‘lim ..... 410
Bo‘lim ..... 412
Bo‘lim ..... 412
Bo‘lim ..... 413
Bo‘lim ..... 413
Bo‘lim ..... 416
Bo‘lim ..... 418
Bo‘lim ..... 420
Bo‘lim ..... 422
Bo‘lim ..... 424
Bo‘lim ..... 425
Izohlar ..... 437

## SO'ZBOSHI

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan qayta qurish sharofati tufayli o'tmish avlodlardan meros qolgan yozma manba'lar, madaniyat yodgorliklarini har tomonlama chuqur va tanqidiy o'rganishga alohida e'tibor berilmoqda.

Ma'lumki, jahon madaniyati xazinasining tarkibiy qismlaridan biri hisoblangan arab tilidagi adabiyot faqatgina arablar emas, balki ko'pgina xalqlar namoyandalari tomonidan yaratilgan o'lmas yodgorlik bo'lib, u o'z taraqqiyotida uzoq va murakkab yo'lni bosib o'tdi. Abbosiy xalifalari (750–1258) davrida, ayniqsa dastlabki uch asrda fan va adabiyot, shuningdek, tarixnavislik ham ravnaq topdi. Xalifalikning poytaxti Bag'dod shahri adabiyot va ilmiy tafakkurning markazlaridan biriga aylanib, arab tili esa ilm va fan ahllari uchun asosiy vosita rolini o'ynadi. Chunonchi, G. Sh. Sharbatov ta'kidlaganidek, «arablar hamda madaniyat va ilm-u fanda arab tilini xalqaro til tariqasida qo'llagan O'rta Osiyo, Eron, Kavkaz va Sharqning boshqa xalqlari tomonidan yaratilgan ko'pdan ko'p badiiy, tarixiy, jug'rofiy, ilmiy va diniy asarlar ham mana shu davrning mahsulidir».

Ilmiy qiymati jihatidan qay darajada bo'lmasin, arab tilida yozilgan manbalardagi xarakterli xususiyat shundaki, ularda arablar tarixigina hikoya qilinib qolmay, balki o'tmishi qisman bo'lsa-da, ular bilan aloqador boshqa xalqlar tarixiga doir ham qator ma'lumotlar keltiriladi. Jumladam, turli zamonlarda yaratilgan arab tilidagi manbalarda hozirgi O'rta Osiyo tarkibiga kirgan o'lkalar va xalqlar haqida ko'pgina qimmatli faktlarni uchratamiz. Mana shu xildagi jug'rofiy ma'lumotlar Ibn Xurdodbeh, Istahriy, Ibn Xavqal, Maqdisiy, Ibn Batuta va boshqa arabiynavis geograflar asarlarida mavjuddir. Vatanimiz xalqlari tarixini o'rganishda Ibn Hajar al-Asqaloniy, Ibn Do'qmoq, ad-Maqriziy, Badruddin al-Ayniy, Ibn Arabshoh, Ibn Tag'riberdi, Ibn ash-Shihna, Ibn Iyos kabi o'rta asr arab tarixnavislarining asarlari muhim ma'lu-





motlar beradi. Shuni ta'kidlash kerakki, mazkur asarlarda keltirilgan ma'lumotlarning hammasi ham bir xil ahamiyatga ega deb bo'lmaydi. Chunonchi, bu hol ko'pgina sabablarga, xususan, asar muallifi ixtiyorida bo'lgan faktik ma'lumotlarning miqdori, uning maqsadi va voqealarga sinfiy yondoshish tarziga ham bog'liqdir. Mana shu jihatlardan qaraganimizda, XV asr arab tarixnavisi Ibn Arabshohning «Ajoib al-maqdur fi tarixi Taymur» («Temur tarixida taqdir ajoyibotlari»)[1] nomli asari boshqa asarlardan farqli o'laroq mamlakatimiz xalqlari tarixini yoritishda alohida ahamiyat kasb etadi. 1436–1437-yillarda yozilgan bu asar, asosan, XIV asrning oxiri va XV asrning birinchi yarmidagi O'rta Osiyo va O'rta Sharq mamlakatlari tarixiga doir muhim tarixiy manbalardan biri hisoblanadi. Asarning aksar hollarda muallif Samarqandda yashaganda olgan taassurotlari hamda Movarounnahrdan jo'nab ketgach, ilgariroq Temur tomonidan zabt etilgan bir qancha shahar va mamlakatlarda sayohatda bo'lib, u joylarda ko'rgan va eshitganlari, shuningdek, muallif zamondoshlarining hikoyalari tarzidagi faktik ma'lumotlarga asoslanib yozilishi uning ishonchli tarixiy manba ekanligidan dalolat beradi.

Shu boisdan ham «Ajoib al-maqdur» XVII asrdan boshlab qator (fransuz, lotin, turk, ingliz) tillarga tarjima qilinib, unda keltirilgan ma'lumotlar ko'pgina tadqiqotlarda o'z izini qoldirgani ham fikrimizni tasdiqlaydi.

«Ajoib al-maqdur» ni tanqidiy o'rganib, undagi ma'lumotlardan ilmiy tadqiqotlarda foydalanishda olimlarning xizmati ham kattadir. Mazkur asarda keltirilgan ma'lumotlar turli yo'nalish va darajada jalb qilinib yozilgan yirik tadqiqotlar, risolalar va ilmiy-ommabop maqolalar olimlarimizning Ibn Arabshoh asaridan samarali foydalanganidan dalolat beradi. Lekin shu bilan birga rang-barang faktik ma'lumotlarga boy bo'lgan bu asarni har tomonlama mukammal o'rganilgan deb hisoblash[2] hozircha uncha to'g'ri emas. Tarixiy adabiyotlarda hozirgacha mazkur asarga bag'ishlangan birorta maxsus maqolaning yo'qligi fikrimizning asosli ekanligiga dalildir. «Ajoib

[1] Bundan keyin «Ajoib al-maqdur» deb keltiramiz (tarj.).

[2] «Ajoib al-maqdur»ning Sanders tomonidan bajarilgan inglizcha tarjimasiga I. Y. Krachkovskiy yozgan taqriz bundan mustasno.

al-maqdur»da hali tadqiqotchilar diqqatidan chetda qolgan ilmiy, tarixiy, jug'rofiy, madaniy ahamiyatga molik talaygina ma'lumotlarning mavjudligi ushbu asarning turli soha mutaxassislari, jumladan, tarixchilar, geograflar, san'atshunoslar, tilshunoslar tomonidan yanada chuqurroq o'rganilishini taqozo etadi. Buning amalga oshishiga esa, bizningcha quyidagi sabablar salbiy ta'sir ko'rsatmoqda: bir tomonidan, hanuzgacha «Ajoib al-maqdur»ning Vatanimiz xalqlari tillaridan birortasiga ham to'lig'icha tarjima qilinmaganligi bo'lsa, ikkinchi tomondan asarning g'oyatda murakkab til va nafis uslubda yozilganligi har xil soha mutaxassislarining undan bemalol foydalanishiga ma'lum darajada noqulaylik tug'diradi. Darvoqe, Ibn Arabshoh asarining shu paytgacha ilmiy asosda bajarilgan mukammal tarjimasi yo'qligiga ham, akademik I. Y. Krachkovskiy ta'biri bilan aytganda, uning «badiiy nafisligi aybdordir»[3].

Yuqorida aytilganlardan ko'rinib turibdiki, Ibn Arabshoh asari tarixiy manba sifatida katta ahamiyatga ega bo'lib, maxsus tadqiqotni taqozo qiladi. Mana shu mulohazalarni e'tiborga olib, biz ushbu asarni o'z tadqiqotimiz mavzui sifatida tanlab, uni to'lig'icha o'zbek tiliga tarjima qilishni lozim topdik. Shu bilan birga, asar muallifining hayoti va ilmiy faoliyati haqida ham mufassalroq bayon qilishga intildik. «Ajoib al-maqdur»ni maxsus o'rganishdan oldnmizga qo'ygan asosiy vazifalardan biri – asarda keltirilgan faktik ma'lumotlarni o'sha davr rasmiy tarixchilari va boshqa mualliflari asarlaridagi ma'lumotlar bilan muqoyasa qilib, yuz bergan voqealarni haqiqatga yaqinroq tarzda aniqlashga harakat qilishdir. Chunonchi, O'rta Osiyo xalqlari tarixining XIV asr oxiri va XV asr birinchi yarmiga oid davri xilma-xil yo'nalishda yozilgan tarixiy manbalarning ko'pligi bilan xarakterlanib, ularning aksariyati bizgacha yetib kelgan.

Shu bois, akademik V. V. Bartold bu davr tadqiqotchisi «materiallarning tanqisligidan emas, balki ko'plab kutubxonalarga tarqalib ketgan, tanqidiy yondashish, eng avvalo tanqidiy nashr etishni taqozo etadigan materiallarning ko'pligidan qiyinchilikka duch keladi»[4], deb ta'kidlagan edi.

---

[3] И. Ю. Крачковский, Избр. соч. т. IV, 513-bet.
[4] В. В. Бартольд, Соч. т. II (2), 199-bet.





Yana shuni qayd qilish kerakki, ushbu davr haqida asar yozgan o'rta asr mualliflari yaratgan asarlarining xarakteri va mohiyatiga qarab asosan ikki guruhga bo'linadilar. Birinchi guruhga o'z davri rasmiy tarixnavislik an'analariga rioya qilib yozilgan solnomalar mualliflari G'iyosuddin Ali, Nizomuddin Shomiy, Sharafuddin Ali Yazdiy, Hofizi – Abru, Abdurazzoq Samarqandiy, Mirxond, Xondamir, Muiniddin Natanziy kabi mahalliy tarixnavislar mansub bo'lsa, ikkinchi guruh mualliflari esa turli mamlakatlar vakillaridan iboratdir. Diplomatik xizmat yuzasidan XV asrning boshlarida Temur va uning avlodlari hukmi ostida bo'lgan ko'p shaharlarda, jumladan, Samarqandda ham bo'lgan ispaniyalik (Kastiliya) elchi Klavixo, shuningdek, o'z mamlakatiga Temur yurishlari ziyon-zahmatlarining alamini chekkan arman tarixchisi Foma Metsopskiy, rus solnomachilari hamda yuqorida zikr qilganimiz o'z tarixiy asarlarida mazkur davrdagi voqealarga keng to'xtab o'tgan XV asr arab tarixchilari shular jumlasidandir. Shuni ta'kidlash lozimki, ikkala guruh asarlarida keltirilgan ma'lumotlarni bir xil ahamiyatga ega deb bo'lmaydi. Yuz bergan voqealarning guvohi yoki bo'lmasa egallagan mavqelari tufayli sodir bo'lgan ishlardan yaxshi xabardor birinchi guruh tarixnavislaridan ko'pchiligi keltirgan tarixiy ma'lumotlar to'laligi, aniqligi va izchilligi bilan ajralib tursa, ushbu imkoniyatlarga to'liq ega bo'lmagan ikkinchi guruh mualliflari asarlarida esa, bu qadar to'lalik va izchillik saqlanmay, voqealar jarayoni birbiriga uzviy bog'lanmagap, chalkash tarzda yoritilgan hollar ham uchraydi. Shu boisdan ham biz «Ajoib al-maqdur» ning ushbu o'zbekcha to'la tarjimasida Ibn Arabshohning ma'lumotlarini mahalliy mualliflar ma'lumotlari bilan muqoyasa qilib, ilmiy ahamiyatga ega bo'lgan farqlarni izohlarda izchil ko'rsatib berishga intildik.

Ibn Arabshohning ilmiy jamoatchilikka azaldan ma'lum bo'lgan bu tarixiy-badiiy asari Temurning hayoti va faoliyati hamda XIV asrning oxiri, XV asrning birinchi choragida sodir bo'lgan voqealarni o'z ichiga oladi. Mazkur asar Temur va uning siyosatiga tanqidiy munosabatda yozilganligi bilan shu xildagi boshqa manbalardan ham alohida ajralib turadi. Darvoqe, muallifning shaxsiy hayotiga nazar

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
TOSHKENT VILOYATI CHIRCHIQ
DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
AXBOROT RESURS MARKAZI

tashlansa, bu ahvol boisi muayyan darajada ravshanlashadi. Dastlab 1401-yilda o'n ikki yoshli Ibn Arabshoh o'z ona yurti Damashqning Temur qo'shinlari tomonidan ayovsiz vayron qilinib, xarobaga aylanganligining shohidi bo'lgan, so'ngra onasi va birodarlari bilan Samarqandga tutqun sifatida zo'rma-zo'raki olib ketilishi ham uning dilida alamli dog' qoldirgan edi. Samarqanddan ketgach, Xorazm, Mo'g'uliston, Dashti Qipchoq, Saroy, Astraxan, Turkiya kabi Temur qo'shiilari tomonidan birma-bir zabt etilib, bosib olingan mamlakatlar va shaharlardagi xarobaliklarni o'z ko'zi bilan ko'rib, mahalliy aholidan bu xususda xilma-xil hikoyat va rivoyatlarni eshitgan tarixchining bu tarzda hikoya qilishini, tabiiy hol deb hisoblamoq lozim. O'z davrining o'qimishli va yetuk mulohazali kishisi sifatida muallifning o'z ko'rganlari va eshitganlari asosida tanqidiy ruxda yozilgan hamda o'sha davr hayotining turli tomonlariga oid ilmiy ahamiyatga molik ko'pgina faktik ma'lumotlarni jamlagan bu asari, bir tomondan Temur shaxsi va faoliyatini madhiyali tarzda yoritgan boshqa asarlardan ma'lum darajada ajralib tursa, ikkinchi tomondan, unda muallifning shaxsiy adovati yoki badiiy bezakka berilib ketishi tufayli ba'zan chalkash faktlar, taxminiy talqin qilingan hollarning uchrashi mazkur asarga g'oyatda tanqidiy yondoshish zarurligini taqozo etadi.



IBN ARABSHOH

# AMIR TEMUR TARIXI

## AJOIB AL-MAQDUR FI TARIXI TAYMUR

I QISM

1432) huzurida ko'p muddat tahsil etdi. So'ngra Ashtarxon shahriga borib, ancha muddat u yerda yashadi.

Uning Abdulvahob ismli o'g'li 813 (1410)-yilda Ashtarxonda dunyoga keldi. Keyin Ibn Arabshoh Qrimga o'tib, unda bir qancha ulamolarning suhbatida bo'ldi. Bu joyda uni g'oyatda quvontirgan narsa turkcha «Munis al-ushshoq» («Oshiqlar do'sti») nomli asar sohibi shoir va adib Abdulmajid bilan bo'lgan uchrashuvi edi.

1411-yilda Ibn Arabshoh Qora dengiz orqali o'tib, Adrianopolga, turk sultoni Muhammad I ning (1413–1421) saroyiga keldi. Dastlab u, sultonning o'g'li Murod II o'qishi uchun fors va arab tillaridan turkchaga kitoblar tarjima qilish bilan mashg'ul bo'lib, bir nechta asarlarni tarjima qildi.

Shu paytda sulton saroyida xizmatda bo'lgan Shamsuddin ibn Hamza al-Fanoriy va Burxonuddin Haydar al-Havofiy kabi tasavvuf va mantiq ilmidagi mashhur olimlar bilan do'stona munosabat o'rnatdi. Adabiyot ilmidagi qudratini ifodada ko'rsatishi, inshosining zarif va nafisligi hamda birmuncha xorijiy tillarni mukammal bilganligi bilan sultonning hurmat-ehsoni va iltifotiga muyassar bo'lgan Ibn Arabshoh, nihoyat sulton hukumatida kotib us-sir («shaxsiy kotib») darajasiga ko'tarildi. Muhammad 1 ning kotibi sifatida uning nomidan uzoq va yaqin mamlakatlar bilan bo'ladigan yozishmalar arab, fors, turk va mo'g'ul tillarida Ibn Arabshohning inshosi bilan bitilar edi. Turklar poytaxtida o'n yilcha bo'lgach, Ibn Arabshoh 1421-yil Muhammad I ning vafotidan keyin o'z ona yurtiga qaytishga qaror qiladi. U 1421-yil Halabga, 1422-yilning yozida esa Damashqqa yetib keldi[11]. So'ng Ibn Arabshoh uzoq muddat o'z ona yurtida yashadi, u yaratgan asarlarning ayrimlari shu davr mahsulidir.

1429-yil Ibn Arabshoh Makkaga hajga boradi, 1436-yilda esa Qohiraga kelib, unda bir qancha muddat yashadi. Uning Qohiraga kelishini Ibn Hajar al-Asqaloniy[12], As-Sahaviy va Abu-l-Mahosin Ibn

[11] As-Saxaviy, Ad-dav' al-lomi', 2-jild, 127-bet.

[12] **Ibn Hojar al-Asqaloniy** (1372–1449) – XV asr Misr tarixchisi. U bir qancha asarlar muallifi bo'lib, «Inba al–g'umr» nomli tarixiy asarida ushbu tadqiqotimiz mavzuiga oid ko'pgina ma'lumotlar mavjuddir.





Tag'riberdi[13] kabi tarixchilar ma'qul topib, u bilan do'stona munosabatda bo'ldilar.

Qohirada bo'lgan vaqtida Ibn Arabshoh sulton Zohir Chaqmoqning (1438–1453) da'vatiga binoan bir qancha muddat uning saroyida yashadi. Mana shu asnoda u sulton Zohir Chaqmoqqa bag'ishlab, uni madh etib bir asar ta'lif etdi[14] va mahalliy adib va shoirlarning mushoara va mushoiralarida ishtirok etdi. Uning do'stlaridan tarixchi Ibn Tag'riberdining aytishicha, Ibn Arabshoh Qohiraga bir necha marta kelgan va har dafa kelganda nasriy va nazmiy asarlaridan unga parchalar o'qib bergan[15]. Lekin so'nggi keluvida sulton tomonidan ilgarigidek samimiy muomala ko'rmadi. Aksincha, Ibn Arabshohning g'animlari tomonidan yetkazilgan asossiz ig'volarga ishongan sulton, uni hibsga olishlarini buyurgan. Ibn Arabshoh hibsda faqat besh kun bo'lgan, hibsdan chiqqach, o'n ikki kundan keyin, ya'ni 1450-yilning 23 avgusti kuni vafot qildi va o'sha yer (Qohira)da dafn etildi.

### Ibn Arabshoh tarixnavis va adib

Hayotining aksar qismini o'zga yurtlarda g'ariblikda va sayohatlarda o'tkazgan Ibn Arabshoh muttasil o'z bilimini oshirishga harakat qildi, mashhur ilm ahllari bilan uchrashdi va ulardan imkoni boricha istifoda etdi. Ko'pgina ilmlardan mukammal bilimga ega bo'lganligi sababli Ibn Arabshoh o'z davrining yetuk tarixnavisi, adibi, shoiri va fiqh olimi sifatida mashhur bo'ldi. U fazilatli go'zal xulqli, xush suhbatli kishi bo'lib, fasohat[16] bilan nasr va nazm insho qilib, ko'pdan ko'p maqbul she'rlar yaratganki[17], muallifning «Ajoib al-maqdur» asarini varaqlar ekanmiz, buning shohidi bo'lamiz. Undan ortiq tarixiy-adabiy asarlar Ibn Arabshoh qalamiga mansubdir. Shular jumlasidan, muallifning «G'urrat as-sayar fi duval at-turk va t-totor» («Turk

[13] **Ibn Tag'riberdi** (1411–1465 yoki 1469) – mashhur Misr tarixchisi. «An-Nujum az-Zohira», «Al-Manhal as-sofiy» kabi qator asarlarning muallifidir.

[14] Al-Muarrixun, 22-bet.

[15] Al-Manhal as-sofiy, 2-jild, 711-bet.

[16] **Fasohat** – so'zga ustalik, chechanlik.

[17] «Sho'ro» jurnali, 673-bet.

va totor sulolalaridagi) mashhur kishilar (siyratlaridan namunalar) asari o'z nomidan ham ko'rinib turganidek, qimmatli manba bo'lishi kerak edi. Chunki muallif Oltin O'rda va Turkiyada shaxsan bo'lganligi ustiga, bir necha yil davomida turk sultoni Muhammad I ning shaxsiy kotibi sifatida, uning nomidan Oltin O'rda xoni va Dashti Qipchoq hokimlari bilan bitilgan edi. Afsuski, bu asar bizgacha yetib kelmagan[18].

«Mir'ot ul-adab fi-l-bayon va-l-maoniy» («Ma'no va bayonda adabiyot oynasi»)[19] Ibn Arabshohning har bobi mustaqil qasida sifatida go'zal uslubda yozilgan 2000 baytdan iborat nazmiy asaridir. Uning «Jilvat al-amdah al-jamoliya fi xullatay al-aruz va-l-arabiya» («Arab tili va aruz libosi bilan bezangan go'zal madhlar jilvasi») nomli ta'lifi ba'zi davlat arboblarining madhiga bag'ishlangan 183 baytdan iboratdir.

Ibn Arabshoh o'z umrining so'nggi yillarida Qohirada bo'lgan paytida shoir Burhonuddin Bouniy va qozi Homiduddin kabilar bilan munozaralarga kirishganda o'z bilimi va adabiyot masalalaridagi ustunligi bilan ularni hayratda qoldirib, oqibatda ularning hasadiga uchradi. Ularni g'iybatga olib kelgan mana shu hasadchilik Ibn Arabshohnipg o'limiga sabab bo'lgandi[20]. Mazkur shaxslar bilan mushoaralar jarayonida muallifning «Xitob al-ihob an noqib va javob ash-shihob as-soqib» («Badan teshuvchi hitobga uchar yulduzdek (tez) javob») nomli asari vujudga kelgan edi. Muallifning tarjimayi holiga oid «Unqud an-nasiha»[21] (Bir shingil nasihat) risolasidan parchalar Misr tarixchisi Abu-l-Mahosin ibn Tag'riberdining «al-Manhal – as-sofiy («Musaffo chashma») nomli asari sahifalaridan o'rin olgandir. Shuningdek, nazmiy usul bilan yozilgan tavhid ilmiga[22] doir «Al-aqd al-farid fi ilmi-t-tavhid» (Tavhid ilmida yagona shoda») nomli risola ham Ibn Arabshohning qalamiga mansubdir. Yuqorida

[18] В. Тизенгаузен, СМИЗО, т. I, 455-bet; Xoji Halifa, Kashf az-zunun, 4-jild, 311-bet.
[19] Xoji Xalifa, Kashf az-zunun, 2-jild, 412-bet.
[20] As-Sahaviy, Ad-dav' al-lomi', 2-jild, 129-bet.
[21] Ba'zi adabiyotlarda «Uqud an-nasiha» deb keltirilgan.
[22] **Tavhid ilmi** – falsafiy qarashlarda«vahdati vujud»ga oid ta'limot.





zikr qilinganidek, 1436-yilda Ibn Arabshoh Qohiraga kelib bir qancha muddat sulton Zohir Chaqmoqning da'vatiga binoan uning saroyida istiqomat qiladi va sultonni madh etib bir asar yaratadi. Bu asar «At-Ta'lif at-tohir fi shiyam al-malik az-Zohir al-qoim bi-nusrat al-haq Abu Sayyid Chaqmoq») «Haqiqat g'alabasi yo'lida fidoyi Malik Zohir Abu Sayyid Chaqmoqning go'zal sifatlari xususnda beg'ubor ta'lif» nomi bilan atalib, muallif bunda sulton Zohir Chaqmoqning fazilatlarini madh etib, uni hatto avliyolar va muqaddas shaxslar martabasigacha ko'targan. Asar sulton madhidan boshqa bir qancha qimmatli tarixiy voqealarni, yuz bergan hodisalarni, ko'pgina hukmdorlar, olim va arboblar haqidagi batafsil ma'lumotlarni ham o'z ichiga oladi.

Muallif o'z asariga yozgan so'z boshisida Temur ishlari xususida «Ajoib al-maqdur fi tarixi Taymur» deb atagan ilgarigi kitobidagi yomonliklar bayonida bulg'angan qalamini tozalash uchun ushbu kitobni yozganligi haqida gapiradi[23].

Umrining oxirgi yillarida, ya'ni 1448-yilda Ibn Arabshoh «Foqihat al xulafo va mufokihat az-zurafo» («Xalifalar ovunchog'i va zariflar ermagi») nomli saj' bilan bitilib masallar, «Kalila va Dimna» shaklida yozilgan badiiy-nasihatomuz asarini yaratdi[24]. Bu asar fors tilidagi «Marzbon-noma»ning qayta ishlangan shakli bo'lib, o'n bobdan iboratdir. Mazkur asarning 1307 (1889–1890) yilgi Qohira nashrida[25] muallif ushbu asarni 858-yil rabi ul-avval (1454-yil, mart) oyida tugatgani haqida yoziladi. Albatta bu xatodir. Asar oldinroq zikr qilganimizdek, 1448-yilda ta'lif etilgandir. Asarning arabcha matni va lotincha tarjimasi.

1832-yilda Bonnda baron Freytag tomonidan ikki jildda nashr qilingan.

Ibn Arabshohning yana bir asari «Tarjimon al-mutarjam bimuntah al-arab fi-l-lug'at at-turk va l-ajam va-l-arab» («Turk, ajam va arab tillari tarjimoni uchun g'oyatda kerakli so'zlarni tushuntiruvchi ki-

[23] Al-Muarrixun, 22-bet.
[24] Sankt-Peterburgda ushbu asarning bir nusxa qo'lyozmasi (inv. № S 651 (682) mavjuddir. Ilmiy tavsifi haqida qarang: Каталог арабских рукописей, I. стр. 90–91.
[25] Bu asarning bir nusxasi O'zFA Sharqshunoslik institutida (inv. № 13046) ham saqlanadi.

tob») XV asr turk tili grammatikasiga oid eng nodir asarlardan biri bo'lib, til sohasida qimmatli yodgorlikdir. Mazkur asarning birinchi jildi Parij milliy kutubxonasida, ikkinchi jildining yagona nusxasi To'pqopu saroyi (Turkiya) kutubxonasida saqlanmoqda. Fe'llar qismini tashkil etgan ushbu nusxa alifbo tartibiga ko'ra arabcha masdarlar va har masdar bobolarining so'zlari bir-biridan ajratilib, ularning turkcha va forscha muqobillari ko'rsatilgandir. Muallifning 200 baytdan iborat go'zal tartibda yozilgan «Muqaddima fi-i-nahv» ta'lifi ham ma'lumdir»[26].

Tarix va adabiyotga oid mustaqil asarlar yozish bilan birga, turk va fors tillarini mukammal bilganligi sababli Ibn Arabshoh faoliyatida tarjimonlik iste'dodi ham katta o'rin tutadi. Uning bu sohadagi ijodi ayniqsa Adrianopolda, Muhammad I saroyida bo'lgan paytda keng ko'lam kasb etdi. Mana shu davrda XIII asr fors adibi Jamoluddin Muhammad Avfiyning «Javomi' al-hiqoyot va lavomi' ar-rivoyot» (Tanlangan hikoyatlar va yorqin rivoyatlar»)[27] nomli antologiyasini bir necha jildda fors tilidan turkchaga tarjima qildi[28]. X asr ikkinchi yarmida mashhur faqihlardan sanalgan Abu-l-Lays Samarqandiyning[29] mashhur «Tafsiri»ni ham fors tilidan nazm bilan turkchaga ag'dardi[30].

Abu Sa'd Dinovariy tomonidan abbosiylar xalifasi Qodir billohga (991–1031) atab ta'lif etilgan «Ta'bir al-Qadiriy» nomli asarining nazm bilan turk tiliga qilingan tarjimasi ham Ibn Arabshoh qalamiga mansubdir. Yuqorida zikr qilingan asarlar va tarjimalar Ibn Arabshohning sermahsul tarixnavis va adib bo'lganligini ko'rsatadi. Shu bilan birga, muallifning Temur va temuriylar davri hayotiga bag'ishlanib yozilgan «Ajoib al-maqdur fit-tarixi Taymur» nomli tarixiy asari uning muhim ta'lifi hisoblanadi. «Ajoib al-maqdur»ning K. Marks

[26] Mu'jam al-muallifiyn, 2-jild, 122-bet.

[27] Mazkur asarning bir qo'lyozmasi O'z FA Sharqshunoslik insti- tutida (inv. № 2836) saqlanmoqda. Uning ilmiy tavsifi haqida qarang: Собрание восточных рукописей т. II. 402-bet.

[28] И. Ю. Крачковский. Изб. соч. т. IV. IV. 329-bet.

[29] U haqda kengroq ma'lumot olish uchun qarang: I. Abdullayev, H. Hikmatullayev, Samarqandlik olimlar, 16–18-betlar.

[30] Hoji Xalifa, Kashf uz-zunun, 1-jild, 305-bet.





nazariga tushishi[31] ham mazkur asarning qimmatli manba ekanligini ko'rsatadi. Ingliz sharqshunosi X. A. R. Gibbning (1895-yilda tug'ilgan) «Temur haqida yozilgan «Ajoib al-maqdur» asari Ibn Arabshh nomini uzoq vaqt Yevropada doston qildi»[32], degan ta'biri ham o'sha davrda asarga bo'lgan qiziqish katta ekanligidan dalildir. Muallif o'z asarini «Ajoib al-maqdur fi navoib Taymur» («Temur keltirgan musibatlarda taqdir ajoyibotlari») nomi bilan atagan bo'lsa-da, ushbu asar keyingi barcha nashrlarida, biografik ma'lumotlarni o'z ichiga olgan qomuslarning ko'pchiligida «Ajoyib al-maqdur fi axbori Taymur» («Temur haqidagi xabarlarda taqdir ajoyibotlari») nomi bilan zikr qilinadi. O'z asarida qofiyaga qat'iy rioya qilgan Ibn Arabshoh sarlavhadagi «ajoib» so'ziga qofiya tarzida «navoib»ni keltirganligi shubhasiz. Shu xususdan ham ushbu asar noshirlari keyinchalik asarning mazmuniga binoan sarlavhadagi «navoib» («musibatlar») o'rniga oddiy qilib «axbor» («xabarlar»)ni qo'yganlar. Hozirgi vaqtda Damashqdagi (Suriya) Az-Zohiriya kutubxonasida (6893–raqami ostidagi ushbu qo'lyozma 1492-yilda ko'chirilgan) saqlanayotgan qadimiy nusxalaridan biri «Ajoib al-maqdur fi tarixi Taymur» («Temur tarixida taqdir ajoyibotlari») nomi bilan keltirilgan. Asarning boshqa tillarga (masalan, fransuz, lotin, ingliz) qilingan tarjimalarida ham Ibn Arabshoh asari «Temur tarixi» nomi bilan atalgan. Asar mazmuni jihatdan ham shu nomga mos bo'lgani uchun biz uni qisqacha «Amir Temur tarixi» deb atadik.

Muallif talay o'rinlarda[33] «shu kunlarda, ya'ni 840-yilda (1436-yil iyul–1437-yil iyun)» deb zikr qilishicha, asarning mazkur yilda yozilganligi ayon bo'ldi. Mana shunga asoslanib V. V. Bartold «Ajoib al-maqdur»ni 840-yilda (1436–1437) ta'lif etilganligini ta'kidlaydi[34]. I. Y. Krachkovskiy esa, asar 1436-yilga yaqin vaqtda yozilgan deydi[35]. Ibn Arabshoh o'zi ko'rib chiqqan nusxadan uning vafoti, ya'ni

[31] Архив Маркса и Энгельса, т. VI, 185-bet.

[32] Х. А. Гибб, Арабская литература, 102-bet.

[33] Ajoib al-maqdur, 56, 151, 221-betlar.

[34] В. В. Бартольд, Соч. т. 2/1. 797-bet. т. III, 74-bet.

[35] И. Ю. Крачковский, Английский перевод Истории Темура, 293-bet.

1450-yildan so'ng ko'chirilgan qo'lyozma nusxani[36] 1887–1888-yilgi Qohira nashri bilan solishtirilganda, muallif keyingi tahrirlarida ayrim qo'shimchalar kiritgani ma'lum bo'ldi. Jumladan, nashrda Rum yerlari podshohlaridan biri Isfandiyorning 845 (1439–1440) yilda vafot etganligi haqida zikr qilingan qism qo'lyozmada noqis-dir. Qo'lyozmaning yana bir qancha o'rinlarida ham shu tarzdagi noqisliklar bo'lib, 36 varaqdan keyin esa Bag'dod hokimi to'g'risidagi «zikr» butunlay yo'q. Alouddin al-Buxoriy degan shayx Ibn Arabshoh bilan yaqin munosabatda bo'lgan. Mazkur shayxning vafoti haqida qo'lyozmada hech narsa deyilmasdan nashrda u marxum kishi sifatida zikr qilinadi[37]. Holbuki, Al-Buxoriy ibn Arabshoh o'zining boshqa bir asarida yozishicha, 841-yilning 2 ramazonida (1438-yil 27 fevral), tarixchi Ibn Hojar al-Asqaloniyning ko'rsatishicha[38] esa, 841-yil 23 ramazonda (1438-yil 19 mart) vafot etgan. Mana shu faktlar garchi, asar asosan 940 (1436–1437) yilda ta'lif etilgan bo'lsa-da, keyinchalik (1437-yildan so'ng) unga ayrim qo'shimchalar kiritilgan, deb aytishimizga asos bo'la oladi.

Ibn Arabshohning manbalariga kelsak, muallif o'z kitobining muqaddimasida «o'zim ko'rib mushohada etganlarimu o'zgalardan eshitganlarimni hikoyat qilishga jazm etdim»[39] deb o'zi foydalangan manbalari haqida hech narsa yozmaydi. A. Yu. Yakubovskiy fikricha, ham mazkur asar uchun asosiy manba muallifning shaxsiy kuzatishlari va o'sha davr voqealariga aloqador bo'lgan va ishtirok etgan shaxslarning hikoyatlari hisoblanadi[40]. Garchi shu tarzdagi mulohazalar yuritilsa ham, muallif boshqa manbalardan ma'lum darajada istifoda etganligiga ba'zi dalillar mavjuddir. Umuman, «Ajoib al-maqdur»ni yozishda muallif tayangan manbalarni to'rt qismga bo'lish mumkin:

[36] Bundan keyin uni «qo'lyozma» deb zikr qilib, mufassal tavsifini so'ngroqda keltiramiz.

[37] Shu tarzdagi qo'shimchalarning ba'zilari «keyin uning holi ne kechganini bilmayman», «buni to'g'ri deb gumon ham qilmayman» yoki «bu yog'ini yana tangri biladi» qabilidagi iboralar bilan tugallanishi ushbu qo'shimchalar muallifning o'ziga mansub deb fikr yuritishimizga asosdir.

[38] Inba al-g'umr, v. 335ᵃ.

[39] Ajoib al-maqdur, 3-bet.

[40] А. Я. Якубовский. Тимур, 46-bet.





o'sha davr (ya'ni XIV–XV asrlar)da yaratilgan arab va fors tilidagi ba'zi asarlar; Temur haqida xalq orasida tarqalgan rivoyat-u hikoyatlar; muallif zamondoshlarining hikoyalari va nihoyat, muallifning shaxsiy mulohazalari.

Temur Hindistonga qilgan yurishi haqida tarixchi G'iyosuddin Ali «Ro'znoma-i g'azavot-i Hindiston» («Hindiston yurishi ro'znomasi») (1403-yil) nomli asar yozib, ushbu yurishni mufassal yoritadi. G'iyosuddin Ali keltirgan ma'lumotlar muhim tarixiy ahamiyatga molik bo'lib, mazkur davrning ba'zi mualliflari, jumladan, Nizomuddin Shomiy, Sharafuddin Ali Yazdiy kabi mashhur tarixchilarning asarlari uchun ham muhim manba rolini o'tagan[41]. Shuningdek, Ibn Arabshoh ham G'iyosuddin Ali keltirgan ma'lumotlardan bir qadar foydalangan. Masalan, Temur bilan Fors va Iroq hokimi Shoh Mansur (1387–1393) o'rtasida 1393-yili Sheroz yaqinida yuz bergan jang tafsiloti muqoyasa qilinsa, bu ahvol yaqqol namoyon bo'ladi[42]. G'iyosuddin Ali ta'kidlaganidek, jang oxirida uch kishining qolishi va Shoh Mansurning yalinib-yolvorishiga qaramasdan, Temur navkarlaridan biri uning boshini kesishi ayrim badiiy bezaklar bilan tasvirlapsa-da, Ibn Arabshohda ham shu tarzda aks ettirilgan[43]. Bundan tashqari, Nizomuddin Shomiyning 1404-yil kuzigacha bo'lgan voqealarni qamrab tugallangan «Zafarnoma» nomli asari ham o'zidan keyin Temur va uning avlodlari davriga bag'ishlanib yozilgan ko'pgina tarixiy asarlarda o'z izini qoldirdi. Bu jihatdan qaralganda, o'sha paytda Samarqandda yashab, shu joyda ta'lim olgan va fors tilini mukammal bilgan Ibn Arabshoh, shubhasiz, mazkur asardan xabardor bo'lgan. Ba'zi tadqiqotchilarning bu xususdagi fikrlari ham ushbu mulohazalarni tasdiqlaydi. Yana shu faktni e'tiborga olish kerakki, Ibn Arabshoh kitobining xotimasida o'zi keltirgan ma'lumotlarni to'g'ri (haqiqat) deb, undan oldin ta'lif etilgan asarlarni esa yolg'on va uydirma deb yozadi[44]. Bu fikrni e'tiborga olsak, muallif hukmdorlarga

[41] Дневник похода (изд. 1915 г.), 56-bet.

[42] Дневник похода 51–55-bet; Ajoib al-maqdur, 24–25-betlar.

[43] Solishtiring: Дневник похода, стр. 52, 110, 115, 120: Ajoib al-maqdur, 68–71-betlar.

[44] Ajoib al-maqdur, 242-bet.

nisbatan xayrixohlik bilan yozilgan rasmiy asarlarni ko‘zda tutayotgan bo‘lsa kerak. Bundan xulosa qilish mumkinki, u ushbu tarixlardan xabardor bo‘lgan. Shuningdek, Ibn Arabshoh ko‘pgina mamlakatlarda, jumladan, O‘rta Osiyoda sayohatda bo‘lgan XIV asr mashhur arab sayyohi Ibn Batutaning (1304–1378) «Rihlatu Ibn Batuta» («Ibn Batuta sayohatnomasi») nomli asaridan ba’zi o‘rinlarda bevosita foydalangan. Masalan, Tarobulis amiri Saidmur, bir ayolga tegishli sutni ruxsatsiz ichgan o‘z mamlukiga nisbatan qo‘llagan chora[45] Ibn Arabshohda ham takrorlanib, bu voqeaning u turk sultoni Boyazid bilan yuz berganini ta’kidlaydi[46]. Yoki arab xafoja[47] qabilasidan bo‘lgan yo‘lto‘sar talovchi Jamol Luk haqidagi hikoya ham garchi birqadar farq bilan bo‘lsa-da, Ibn Batuta o‘z «Sayohatnomasi»da keltirgan hikoyaga o‘xshab ketadi[48], o‘z asarini yozishda Ibn Arabshoh boshqa manbalarga murojaat qilganligiga yana bir dalil mavjuddir. Temurning Shomga qilgan yurishini to‘laroq bayon qilish maqsadida muallif o‘sha paytda yuz bergan voqealarning shohidi bo‘lgan arab adibi va fikh olimi Ibn ash-Shihnaning (1338–1414) «Ravzat ul-manozir fi axbor al-avoil va-l-avoxir» («Avval o‘tgan va keyingi (mashhur kishi)lar hayotidan habar beruvchi chamanzor[49]») nomli kitobidan shu davrga oid bir bobni o‘z asariga kiritib, «ushbu hikoyani qanday bo‘lsa, shundayligicha naql qildim»: deb uni to‘lig‘icha keltirgan.

Avval zikr qilganimizdek, Ibn Arabshoh taxminan 1408-yilda Samarqanddan jo‘nab ketib, Xorazm, Astraxan, Saroy, Qrim va Adrianopolda bo‘ldi. Muallif o‘sha joylardagi hokimlar va mahalliy aholidan Temur va uning qo‘shini haqida eshitganlarini o‘z asarida keltirgan. Masalan, Ibn Arabshoh o‘zining boshqa bir asarida 814 (1412–1412)-yilda, Saroyda To‘xtamish o‘g‘li Jaloluddinxon Temur qo‘shinlari ko‘rsatgan yomonliklar haqida o‘ziga hikoya qilgani

[45] I b n  B a t u t a, Rihla, 1-jild, 38-bet.
[46] Ajoib al-maqdur, 128-bet.
[47] Xafoja – Iroq yerlarida yashab, Makkaga, hajga o‘tuvchilarning yo‘lini to‘sib, talash bilan mashhur bo‘lgan bir qabila.
[48] Rihla, 175-bet. Ajoib al-maqdur, 22-bet.
[49] Bu asar arab tarixchisi Ibn-al-Asirning (1160–1234) «Tarix ul-Komil» («Mukammal tarix») kitobining 9-jildi hoshiyasida keltirilgan. Bu haqda yana 708-izohga qarang.





to‘g‘risida yozadi[50]. Muallif voqealarning shohidlari hikoyasidan ham unumli foydalangan. Jumladan, Sijistonda Temur qo‘shinlari qilgan vahshiyliklar haqidagi o‘z bayonini 833 (1429–1430) yilda Damashqda shayx Zaynuddin Abdulatif ibn Muhammad ibn Abu-l-Fath Kirmoniydan eshitganlari bilan to‘lg‘izadi[51]. Shuningdek, Bag‘dodda hokim bo‘lib turgan qozi Tojuddin Ahmad an-Nu’mon (muallif yozishicha, u 834-yil mukarram oyining boshida (1430-yil, sentyabr) Damashqda vafot etgan) hikoya qilgan xabarlarga asoslanib, Temur qo‘shinlari tomonidan Bag‘dod ahli boshiga solingan bedodliklarni tasvirlaydi[52].

### «Ajoib al-maqdur» o‘rta asr tarixnavislari asarlarida

Ibn Arabshoh asari XIV–XV asr Sharq mamlakatlari tarixini yoritishda qimmatli manba sifatida o‘zidan so‘ng yozilgan bir qancha tarixiy asarlar, biografik qomuslar uchun ham bosh manbalardan biri sifatida qo‘llanilib keldi. Jumladan, XV asr arab tarixchisi Ibn Hajar al-Asqaloniy (1372–1449) o‘zining «Inba ul-g‘umr biabno il-umr» («Shu zamon (mashhur) o‘g‘lonlari haqida g‘o‘r (kishi)larga xabar») nomli asarida «Ajoib al-maqdur»dan ko‘p o‘rinlarda foydalangan[53]. XV asr o‘rtalarida ijod etgan arab tarixchisi Ibn Tag‘riberdi (1411–1469) «An-Nujum az-zohira fi muluk-i Misr va-l-Qohira» («Misr va Qohira hokimlari (tarixi)dan porloq yulduzlar») nomli[54] (1465–1466-yilda yozilgan) tarixiy asarida «Ajoib al-maqdur»dan keng foydalanib, Temur hayoti va ishlariga oid qismini to‘la to‘kis Ibn Arabshoh ma’lumotlariga asoslanib yoritgan[55]. Shuningdek, Ibn Tag‘riberdi o‘zining «al-Manhal as-sofiy va-l-mustavfiy ba’d al-

[50] At-ta'rif at-tohir, v. 6.
[51] Ajoib al-maqdur, 19-bet.
[52] Ajoib al-maqdur, 119-bet.
[53] Solishtiring: Inba ul-g‘umr, 512, 518, 530, 535-betlar, Ajoib al-maqdur, 82, 84, 86, 87, 88-betlar.
[54] Uning tavsifi haqida qarang: Католог арабских рукописей, выпуск № 3, стр. 85–86.
[55] An-Nujum az-zohira, 260–270-betlar.

Vofiy» («al-Vofiy»dan[56] keyingi to'liq va musaffo chashma») nomli biografik qomusda Temurga oid bo'limini Ibn Arabshoh ma'lumotlari asosida yozgan. Shuni qayd qilish kerakki, o'sha davrda yaratilgan biografik qomuslarning ko'pchiligida «Ajoib al-maqdur» dan istifoda etilgan. Jumladan, XV asrning birinchi yarmida ijod qilgan tarixchi al-Maqriziy (1364–1442) «Durar al-uqud al-fariyda fi tarojim al-a'yon al-mufiyda» («Ibratli a'yonlar tarjimayi hollarida benazir shodalar durlari») nomli biografik qomusning Idikuga[57] oid qismini boshdan oxir Ibn Arabshoh asariga tayanib yozgan. Shuniigdek, tarixchi as-Saxoviy (1427–1496) «Ad-Dav' al-lomi' li-abnoil qarni-t-tosi'» («To'qqizinchi asr (ulug') kishilari hayotini yorituvchi yorqin nur») deb atalgan biografik qomusidagi ba'zi ma'lumotlarni «Ajoib al-maqdur» asosida keltirgan[58]. Bulardan tashqari keyinroq yaratilgan ba'zi tarixiy asarlar uchun ham «Ajoib al-maqdur» bosh manba vazifasini o'tagan. Jumladan, XVI asr oxirlarida ijod qilgan tarixchi Amir Abu Muhammad Mustafo al-Jannobiy (vafoti 1591-yil) o'zining «Tarix al-Jannobiy» yoki «Tuhfat ul-arib va hadiyat ul-adib» («Zukko odamning tuhfasi-yu adibning hadiyasi») nomli[59] asarining ko'p o'rinlarida Ibn Arabshoh ma'lumotlaridan istifoda etib, to'g'ridan to'g'ri unga ishorat qiladi[60]. Mazkur asardan Idikuning To'xtamish huzuridan qochib Temurga kelishi va uni To'xtamishga qarshi yurish qilishga undashi to'g'risidagi kichik bir parchasi rus tiliga tarjima qilingan. Shuningdek, al-Jannobiy tarixining Temurga oid qismi J. Podesta tomonidan lotin tiliga tarjima qilinib, 1680-yilda Venada nashr etilgan. Ibn Arabshoh ma'lumotlariga asoslanib yozilgan asardan boshqa tarixchilar foydalanib kitoblar ta'lif etgan hollari ham uchraydi. Ma-

[56] Arab adibi va olimi Xalil ibn Aybek as-Safadiyning (1296–1363) «al-Vofiy bi-l-vafayot» («Ulug' kishilar vafotiga doir komil asar» nomli o'n to'rt mingga yaqin mashhur kishilar tarjimayi holini o'z ichiga olgan g'oyatda katta biografik qomusi ko'zda tutilayotir.

[57] Idiku (vafoti 1419) – Oltin O'rda amirlaridan biri. O'z beqarorligi bilan mashhur bo'lgan bu amir haqida kengroq ma'lumot olish uchun qarang: Б. Д. Греков, А. Ю. Якубовский. Золотая Орда и её падение, 374–405-bet.

[58] O'sha joyda.

[59] Bu asar haqida qarang: А. Е. Крымский, История Персии, 43-bet. Mazkur asarning bir qo'lyozmasi Sankt-Peterburgda (inv. № D–173) saqlanmoqda.

[60] В. Тизенгаузен, СМИЗО, т, SMIZO, t. I. 535-bet.





[illegible] SSSR FA Sharqshunoslik instituti Leningrad bo'limida V 978 inv. raqami ostida bir qo'lyozma saqlanmoqda. Mazkur qo'lyozma «Tarjim ul-ulamo va-l-udabo va-l-mashohir nuqilat min al-Manhal as-sofiy li-ibn Tag'riberdi va g'ayruho» («Ibn Tag'riberdining «al-Manhal as-sofiy» va boshqa (kitoblardan olingan olimlar, adiblar va mashhur (kishi)larning tarjimayi hollari») nomi bilan atalib, 53b, 54a varaqlarda yozilishicha[61], u 1210 hijriy yil rabi ul-avval oyining to'qqizinchi (1795-yil 24-sentyabr) kunida Konstantinopol shahrida tugallangan. Garchi, katalog muallifi uzil-kesil aytmasa-da, mazkur qo'lyozmaning 5ab, 6ab varaqlarida keltirilgan «Tarjimatu Temur va axboruhu» («Temurning tarjimayi holi va u haqdagi xabarlar») nomli qismi Ibn Tag'riberdining «al-Manhal as-sofiy» asaridan aynan ko'chirilgan. Avval zikr qilganimizdek, Ibn Tag'riberdi o'z navbatida Ibn Arabshohdan foydalangan. «Ajoib al-maqdur» dan muxtasar holda olingan ushbu xabarlar ayrim xatolardan ham xoli emas. Masalan, Temur tug'ilgan Xoja Ilg'or[62] qishlog'ining nomi xuddi Ibn Tag'riberdi o'z asarida xato keltirganidek, mazkur qo'lyozmada ham (5a varaq) Xoja Ilg'or deb xato ko'chirilgan. Asarda bundan boshqa yana ayrim xatolar ham uchraydi. XVII asr turk tarixchisi Kuja Husayn (vafoti 1650-yil) o'zining 1644–1645-yillarda yozilgan «Badoyi' al-vaqoi» («Ajoib voqealar») nomli asarini yozishda tayangan tarixchilari qatorida Ibn Arabshohni ham zikr qiladi[63]. Mana shu faktlar Ibn Arabshoh asari o'rta asrlarda yozilgan boshqa qator asarlar uchun ham asosiy manba bo'lganidan dalolat beradi.

### «Ajoib al-maqdur»ning qo'lyozmalari va nashrlari

«Ajoib al-maqdur»ning talaygina qo'lyozmalari mavjud bo'lib, ular dunyoning turli kutubxonalarida saqlanmoqda. Asarning muallif hayoti vaqtida ko'chirilgan ikki nusxasi Turkiyada, Ahmad as-Solis kutubxonasida mavjuddir. Ulardan biri (inv. № 3049) 852 (1448–49)

[61] 54a varaqda ko'rsatilishicha, qo'lyozma Muhammad Amin ibn Shayx Ahmad ibn Shayx [illegible] al-Mousuliy degan kishi tomonidan ko'chirilgan.

[62] Ajoib al-maqdur, 3-bet.

[63] Описание турецких рукописей, стр. 181.

yilda Ismoil ibn Abdurahmon al-Isfahoniy tomonidan chiroyli nasx xatida ko'chirilgan[64], ikkinchisi (inv. № 3050) esa 850 (1446–47) yilda tamomlanib, ushbu nusxani muallif ko'rib chiqqanligi haqida uning dastxati bilan qo'lyozma oxirida zikr qilingan[65].

Ibn Arabshoh asarining bir qancha qo'lyozmalari muallifning vatani – Suriya kutubxonalarida ham bor. Jumladan, Damashqdagi al-Ahmadiya kutubxonasida «Ajoib al-maqdur» ning ikki qo'lyozmasi bo'lib, biri (inv. № 6893) 1493-yildan oldin, ikkinchisi (inv. №7133) esa 1779-yilda ko'chirilgandir[66]. Shuningdek, asarning boshqa nusxalari Halabda hamda Ibn Arabshoh o'z umrining oxirida yashagan Qohirada ham mavjudligi fixristlarda zikr qilingan[67].

Shuni qayd qilish kerakki, mamlakatimiz (asosan Leningrad) kutubxonalarida ham Ibn Arabshoh asarining bir necha qo'lyozmalari saqlanmoqda. Jumladan, «Ajoib al-maqdur»ning to'liq bo'lmagan bir nusxasi (inv. № 434) Leningrad Davlat universiteti kutubxonasida saqlanadi[68]. Mazkur qo'lyozma 1855-yilda Odessadagi Rishelyev litseyidan Peterburgda sharq tillari fakulteti tashkil bo'lishi munosabati bilan Peterburgga keltirilgan edi. Qo'lyozma «Ajoib al-maqdur»ning birinchi qismini tashkil qiladi va I. Y. Krachkovskiyning ta'kidlashicha, XIX asrning boshlarida ko'chirilgan bo'lib, u qadar ilmiy ahamiyatga ega emasdir[69]. Asarning yana ikki nusxasi Saltikov-Shchedrin nomidagi Lepingrad xalq kutubxonasida saqlanadi[70].

Parij Milliy kutubxonasida «Ajoib al-maqdur»ning 1440-yilda ko'chirilgan bir nusxasi bo'lib, qimmatli tomoni shundaki, unda muallifning tarjimayi holi keltirilgan. Afsuski, ushbu tarjimayi hol kim tomonidan yozilganligi va qo'lyozmani ko'chirgan hattot haqida hech narsa deyilmagan. Ibn Arabshoh asarining yana bir nusxasi Manchesterda Jon Raylandga qarashli kutubxonada saqlanmoqda. Qo'l-

[64] Fixrist, 2-qism, 105-bet.

[65] Fixrist, 1-qism, 179–180-betlar.

[66] Majallat, 126-bet.

[67] Majallat, 126-bet.

[68] U haqda yana qarang: В. И. Беляев, П. Г. Булгаков. Арабские рукописи, 28-bet.

[69] Английский перевод Истории Тимура, 297-bet.

[70] Ulardan biri (inv. raqami ap. н. c.) арабская новая серия 187 bo'lib, 1853-yilda Xanna Jirjis degan shaxs tomonidan ko'chirilgan.





yozma hind «ta'liq» xati bilan taxminan 1800-yillarda ko'chirilgan. «Ajoib al-maqdur»ning 1573-yilda Muhammad Ibn Ahmad Suqaykir ad-Damashqiy tomonidan ko'chirilgan bir nusxasi Gota kutubxonasida mavjuddir. Shuningdek, Ibn Arabshoh asarining yana ikki nusxasi Londonda mavjudligi ham qayd qilinadi.

«Ajoib al-maqdur»ning Qohira Milliy kutubxonasida saqlanayotgan bir nusxasidan (inv. № 658 yoinki 3543) olingan mikrofilmdan ishlangan fotosurat tadqiqotimiz uchun asos qilib olingan nusxalardan biri bo'lib, uni to'la-to'kis tavsiflab, tahlil qilish imkoni bo'lmasa-da, ba'zi mulohazalarimizni aytib o'tmoqchimiz. 198 varaqdan iborat qo'lyozma chiroyli nasx xatida qora siyoh bilan boshdan oxir bir xattot tomonidan ko'chirilgan bo'lib, sarlavhalar, nuqta, zikr, fasl va ayrim (muhim) so'z yoki iboralarning matnga nisbatan xirarang ko'rinishi ularni qizil siyoh bilan ajratib yozilganligini bildiradi. Har bir sahifada (shu jumladan, nazmiy qismlarda ham) 17 qator matn bo'lib, sahifa oxirida keyingi sahifa boshlanadigan so'zni ko'rsatuvchi paygirlar berilgan. Harflar barcha o'rinlarda butun nuqtalari bilan to'lig'icha yozilib, faqat so'zning oxirida keladigan «ta marbuta» nuqtalari aksar hollarda qo'yilmagan. «Hamza» deyarli barcha o'rinlarda qo'yilmay, tashdid va madda kabi belgilar ham kamdan kam hollarda keltirilgan. Qo'lyozmaning qimmatli tomoni shundaki, matndagi harakatlar, nuqtalar (xiraligidan ular ham qizil siyohda yozilgan ko'rinadi) bilan ajratib berilganki, shubhasiz, bu hol tekst ma'nosini to'g'ri talqin qilishda katta yordam beradi. Shuni ham aytish kerakki, kamdan kam o'rinlarda xattotning qiyin yoki chalg'itadigan ma'noli so'zlarga bergan (176, 193-varaqlarga qarang) qisqacha tushuntirish izohi yoki muallif yozganiga (161, 180-varaqlarga qarang) o'z munosabatini bildirgan hollar uchraydi. Ko'chirish jarayonida tushirib qoldirilgan yoki xato yozilgan ayrim so'zlar shu qator yonida keltirilib, maxsus belgi bilan ko'rsatilib, o'z o'rniga qo'yib o'qilishiga ishorat qilingan. Qo'lyozma titul varag'i va oxirgi sahifada mavjud ayrim yozuvlar buzilib, o'chib ketgani sababli ularni tiklab, bir aniq ma'no chiqarish mumkin bo'lmadi. Fikrimizcha, bu yozuvlar qo'lyozmani o'qigan shaxslar yoki uning sohiblariga mansub bo'lsa kerak. Xattotning nomi, ko'chirilgan vaqti

va makoni xususida hech narsa deyilmaganligi tufayli bular borasida aniq va qat'iy fikr aytish imkoni bo'lmasa-da, ba'zi taxminlar qilish mumkin. Qo'lyozma nihoyasida ko'chiruvchi o'zi ko'chirgan nusxa oxirida muallifning dastxatida yozilgan «tolaahu muallifuhu min avvalihi ilo oxirihi» (uni qo'lyozmani) avvalidan oxirigacha (asarning muallifi ko'rib chiqdi) degan iborani aynan keltiradi. Demak, hattoki ushbu nusxasi muallif hayot (1450-yilgacha) vaqtida yozilgan yoki u ko'rib chiqqan biror nusxadan ko'chirgan. Qohirada nashr qilingan fixristlarning birida Ibn Arabshoh asarining bir qo'lyozmasi Turkiyada, Ahmad as-Solis kutubxonasida (inv. № 3050) saqlanishi xabar qilinib, uning qisqacha tavsifi keltirilgan[71]. Bu tavsifga ko'ra mazkur qo'lyozma 850 (1446–47) yilda «nasx» xatida ko'chirilib, uni muallif o'qib chiqqanligi va bu haqda o'zi qo'lyozma oxirida yozib qoldirganligi zikr qilinadi. Shunga asoslanib qo'limizdagi nusxa mazkur qo'lyozmadan ko'chirilgan va xattot esa muallifning ushbu yozuviga ishora qilayotir deyish mumkin. Xattotning mazkur yozuvidan keyin noma'lum bir shaxs tomonidan «imkonutoqat qadricha muqobala etildi» degan jumlaning keltirilishi ikkala nusxa bir-biriga muqoyasa qilinganligiga dalildir. Qo'lyozmaning ko'chirilgan vaqti haqida esa shuni aytish kerakki, uning titul varag'ida «rahimahu Ollohu taolo»[72] deyilib, Ibn Arabshoh marhum kishi sifatida zikr qilinadi. Bundan xulosa shuki, mazkur qo'lyozma muallif vafotidan, ya'ni 1450-yildan so'ng ko'chirilgan.

Garchi ko'chiruvchi xattotning ismi ma'lum bo'lmasa ham, asardagi «favoil» shaklidagi so'zlarning fors tiliga xarakterli «fayoyil» shaklida yozilishi (masalan, katoib-katoyib, navoib-navoyib, rasoil-rasoyil va hokazolar) ushbu nusxa eronlik kishi tomonidan ko'chirilgan, degan fikrga kelishimizga asos bo'ladi. Yuqorida qayd qilganimizdek, «Ajoib al-maqdur»ning muallif hayot vaqtida, ya'ni 1448-yilda ko'chirilgan va Turkiyada (Istanbul) Ahmad as-Solis kutubxonasida (inv. № 3049) saqlanayotgan bir nusxasi Ismoil ibn Abdurahmon al-Isfahoniy tomonidan ko'chirilgan. Shuningdek, Ibn Arabshohning Leningradda saqlanayotgan «Fokihat al-xulafo va

[71] Fixrist, 2-qism, 179–180-betlar.
[72] Fokiqat al-xulafo, v. 272-bet.





mufokihat az-zurafo» nomli boshqa bir asarining (inv. S 651 (682) ko'chiruvchisi ham mazkur al-Isfahoniydir[73]. Ushbu nusxa «Ajoib al-maqdur»ni qo'limizdagi nusxasiga solishtirilganda xatlari bir kishiniki ekanligi ma'lum bo'ldi. Demak, mazkur nusxaning ko'chiruvchisi ham al-Isfahoniy bo'lsa kerak.

Yuqorida aytilganlardan ko'rinib turibdiki, «Ajoib al-maqdur» o'z davri o'quvchilari diqqatini jalb qilgan va ko'p nusxalarda ko'chirilgan, shuning uchun ham bizning davrimizgacha uning talay nusxalari yetib kelgan.

Ibn Arabshoh asari garchi XV asrda (1436–1437) yozilgan bo'lsada, Ovrupo olimlari XVII asrdan boshlab u bilan tanishishga muyassar bo'ldilar. Diplomatik xizmat yuzasidan bir qancha muddat arab mamlakatlarida (Marokash, Suriya) yashagan gollandiyalik olim Yakob Golius (1596–1667) Leydenga qaytgach[74], «Ajoib al-maqdur»ning arabcha matnini darslik sifatida 1636-yilda nashr qildirdi[75]. Golius nashri asarning dastlabki nashri hisoblanib, bu bilan Ibn Arabshoh Ovrupoda al-Makindan (1305–1373) keyin yozma ravishda tanilgan ikkinchi arab tarixchisi bo'ldi[76]. «Ajoib al-maqdur»ning S. Manger tomonidan tayyorlangan arabcha matni lotin tiliga tarjimasi bilan birgalikda 1767–1772-yillarda Leyvardenda nashr etildi[77]. Ma'lum darajada tekstologik ishga asoslanib bajarilgan ushbu nashr hozirgi paytgacha ham o'z qimmatini yo'qotmasdan kelmoqda. XIX asrga kelib esa Ibn Arabshoh asari bir necha bor nashr qilindi. Jumladan, 1285 (1868–1869), 1305 (1887–1888) yillarda Qohira, 1812, (1818, 1840) yillarda esa Kalkutta nashrlari paydo bo'ldi. Mazkur nusxalar ichida 1818-yilgi Kalkutta nashri qimmatli hisoblanib, u boshdan oxir harakatlar bilan ta'minlangan va o'sha paytda Hindistonda istiqomat qilgan arab adibi Ahmad al-Yamaniy ash-Shirvoniy tomonidan nashrga tayyorlangan edi[78].

[73] Fokihat al-xulofo, v. 272-bet.
[74] E. Крымский. История новой арабской литературы, 115-bet.
[75] Kitob «Ajoib al-maqdur fi axbori Taymur», ta'lif Ahmad ibn Arabshoh.
[76] И. Ю. Крачковский. Английский перевод Истории Тимура, 293-bet.
[77] Manger. I–II jildlar
[78] И. Ю. Крачковский. Английский перевод Истории Тимура, 293-bet.

## «Ajoib al-maqdur»ning tarjimalari

Muhim tarixiy manba sifatida shuhrat qozongan «Ajoib al-maqdur» ko'p tillarga tarjima qilingan. Dastlab 1636-yilda asarni nashr qilgan Ya. Golius «Ajoib al-maqdur»ning lotincha tarjimasini ham tayyorlagan edi. Garchi ayrim tadqiqotchilar (Brokelman, Krimskiy) Golius tarjimasining chop etganligini qayd qilsalar-da, biroq, mazkur tarjima nashr qilinmasdan qo'lyozma holida qolib ketgan[79]. Lekin asarga bo'lgan qiziqish tobora ortib 1658-yilda «Ajoib al-maqdur», unchalik qoniqarli bo'lmasa-da, fransuz arabshunosi P. Vatye (1621–1667) tomonidan fransuz tiliga tarjima qilinib, Parijda nashr etildi[80].

S. N. Manger tomonidan lotin tiliga qilingan tarjimasi haqida yuqorida qayd qilgan edik. Mazkur tarjima o'z davri talabiga javob beradigan saviyada bajarilgan bo'lib, u qisqacha izohlar va kirish so'zi bilan ta'minlangan. Bulardan tashqari, Ibn Arabshoh asarining turk olimi Nazmizoda Murtazo (vafoti 1722-yil) tomonidan 1699-yilda bajarilgan turkcha tarjimasi 1730-yilda Stambulda chop etildi. Ammo ushbu tarjimaning 1860-yilgi qayta nashri qoniqarsiz bo'lib, tarjima g'oyatda qisqartirilgan holda berilgan[81]. Va nihoyat «Ajoib al-maqdur»ning M. I. Sanders tayyorlagan inglizcha tarjimasi 1936-yilda Londonda nashr etildi. Garchi, mazkur tarjima haqida ba'zi ijobiy fikrlar bo'lsa-da, Sanders tarjimasi qoniqarsiz darajada bajarilgan bo'lib, I. Y. Krachkovskiy ta'kidlaganidek, Sanders o'z tarjimasida faqat zikr qilingan Mangerning lotincha tarjimasiga tayangan, xolos[82]. Sanders kitobida ham Mangerda uchraydigan xatolarning aynan qaytarilishi tarjimonning «Ajoib al-maqdur» qo'lyozma va nashrlaridan mutlaqo foydalanmaganini ko'rsatadi. Shuni qayd qilish kerakki, hozirgi vaqtda asosan bizning Vatanimiz tarkibiga kirgan mintaqalar va xalqlari tarixiga doir voqealarni o'z ichiga olgan ushbu asardan ayrim qismlari

[79] Bu haqda yana qarang: И. Ю. Крачковский. Английский перевод Истории Тимура, 293-bet. «Ибн Арабшах и его книга» degan maqolamizda biz ham ushbu xatoga yo'l qo'yib, Golius tarjimasini nashrdan chiqqanligini yanglish qayd qilganmiz.

[80] И. Ю. Крачковский. Английский перевод Истории Тимура, 293-bet.

[81] Tarix-i Timurlang; Bu haqda yana qarang: А. Х. Рафиков. Из истории книгопечатания, 117-bet.

[82] Н. В. Пигулевская и др. История Ирана, 215-bet. prim. 6.





[illegible] tiliga ham tarjima qilingan. Jumladan, Ibn Arabshoh asarining [illegible] O'rdaga oid qismi V. Tizengauzen tomonidan rus tiliga o'girilib tadqiqotchilar diqqatiga havola qilingan[83]. Shuningdek, «Ajoib al-maqdur»dan To'xtamish bilan Temur o'rtasida sodir bo'lgan jang [illegible] oid g'oyat kichik bir bo'lagi (2 bet) ham ruschaga tarjima [illegible][84]. Ba'zi tadqiqotchilar XIV–XV asr O'rta Osiyo tarixiga oid ayrim tadqiqotlarida Ibn Arabshoh asaridan qisqa-qisqa tarjimalar [illegible] fikr yuritganlar[85]. Mana shu o'rinlarda «Ajoib al-maqdur»dan [illegible] tarjimalar professor A. E. Shmidtga mansubligi ko'rsatilgan. [illegible] «Ajoib al-maqdur» tarjimasi bilan A. E. Shmidt ham bir qadar [illegible]. O'z FA Sharqshunoslik institutining kutubxonasida Ibn Arabshoh asari birinchi qismining ruscha tarjimasi (inv. № 102) [illegible] holda (qisman mashinkada bosilgan) saqlanmoqda. Institut [illegible] ilmiy xodimlari, filologiya fanlari doktori U. I. Karimov va [illegible] fanlari nomzodi D. G. Voronovskiylarning fikricha, mazkur tarjima marhum M. A. Salyega mansubdir. Tarjima, hech qanday [illegible] izohlarga ega bo'lmay, ayrim kamchiliklardan ham xoli emas. [illegible], ushbu tarjimada Sandersning inglizcha tarjimasi (yoki Manger tarjimasi) asosiy rol o'ynagan[86]. Shunday qilib, Ibn Arabshoh [illegible] mamlakatimiz xalqlari tillariga qilingan tarjimasi zikr etilgan kichik-kichik qismlardangina iborat, xolos.

## «Ajoib al-maqdur» ilmiy adabiyot sahifalarida

«Ajoib al-maqdur» XIV asr oxiri va XV asr birinchi yarmi O'rta [illegible] Yaqin Sharq mamlakatlari, xususan O'rta Osiyo xalqlari tarixiga [illegible] muhim manba sifatida azaldan chet el, rus va sovet olimlarining [illegible] o'ziga tortib kelmoqda. Ayniqsa, yuqorida qayd qilganimiz [illegible] qator nashr va tarjimalari paydo bo'lishi tufayli Ibn Arabshoh asariga bo'lgan qiziqish yanada ortdi. I. Y. Krachkovskiy «Ajoib

[83] В. Тизенгаузен, СМИЗО, т. I, 455–474-betlar.

[84] [illegible] Казахстана в источниках. 73–74-betlar.

[85] А. М. Гуревич. О классовой борьбе, стр. 5; Якубовский, Самарканд при [illegible]. 47–53-betlar.

[86] [illegible] 101-betida Manger va Sanders tarjimalaridagi «Jonibekxon Qipchoq yer[illegible]...» degan ortiqcha jumlaning takrorlanishi fikrimizga dalildir.

al-maqdur» mukammal badiiy asar sifatida XVIII asrda Yevropada shuhrat topgani, til, bayon, uslub jihatdan ayrim olimlar tomonidan Qur'on bilan bir qatorga qo'yilgani, hatto 1784-yilda Qur'on, Haririy maqomatlari va «Ajoib al-maqdur»ga bag'ishlangan Villmetning maxsus qomusi chiqqanligini qayd qiladi[87].

«Ajoib al-maqdur»dan o'z tadqiqotlarida foydalangan dastlabki olimlardan biri G. Vamberi bo'lib, u o'zining Buxoro tarixiga bag'ishlangan kitobida Ibn Arabshoh asaridan istifoda etib, undan ayrim misollar keltiradi[88]. Boshqa nemis olimi A. Myuller esa «Islom tarixi» nomli kitobining uchinchi jildidagi «Tamerlan» deb atalgan qismini bayon qilishda manbalardan biri «Ajoib al-maqdur» bo'lganligi yaqqol ko'zga tashlanadi[89].

XIX asr oxirlaridan boshlab Ibn Arabshoh asari rus olimlarining ham e'tiborini o'ziga jalb qila boshladi. Ayniqsa asardan Oltin O'rdaga oid qismining V. Tizengauzen tomonidan rus tiliga tarjima qilinishi[90] «Ajoib al-maqdur»ning ayrim qismlaridan kengroq foydalanishga imkoniyat yaratdi. Mazkur tarjima hozirgacha ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan.

XX asrning boshlaridan Ibn Arabshoh asari rus olimlari P. M. Melioranskiy, V. V. Bartold, L. Ziminning diqqatini o'ziga tortib ularning O'rta Osiyo tarixining turli masalalariga doir qator ilmiy tadqiqotlariga kiritildi. Jumladan, P. M. Melioranskiyning «Arab filologi turk tili haqida» degan tadqiqotida Ibn Arabshohning uyg'ur yozuvi haqida keltirgan xabarlariga e'tibor berilgan. L. Zimin esa o'zining 1914-yilda yozilgan «Temur vafoti tafsilotlari»[91] degan maqolasida Temurning kasali va o'limiga oid «Ajoib al-maqdur»da keltirilgan ma'lumotlarni o'sha davr boshqa manbalaridagi ma'lumot bilan muqoyasa qilish natijasida Ibn Arabshoh keltirgan faktlar katta ilmiy ahamiyatga ega degan fikrga keldi[92].

[87] Английский перевод Истории Тимура, 293-bet.
[88] История Бохари, 186, 215–216-betlar.
[89] История Ислама, 294–295-betlar.
[90] СМИЗО, т. I, 455–474-betlar.
[91] Подробности смерти Тимура, 41–51-betlar.
[92] O'sha asar, 46–60-betlar.





Shu bilan birga, Rossiyada Ibn Arabshoh asarini har tomonlama chuqur o'rganib, undan unumln hamda tanqidiy foydalanib ilmiy jamoatchilikka havola qilgan dastlabki olim, shubhasiz, akademik V. V. Bartold hisoblanadi. O'rta Osiyo tarixining yirik mutaxassisi V. V. Bartold o'zining shu o'lka tarixiga bag'ishlangan ko'pgina asarlarida Ibn Arabshoh ma'lumotlaridan unumli foydalangan. Ayniqsa, olimning 1915-yilda yozilgan «Ulug'bek va uning davri», «Temurning dafn qilinishi haqida» kabi yirik asarlari XIV–XV asrga oid qator manbalar bilan solishtirilgan holda «Ajoib al-maqdur»dagi faktlarga ham tayanib yozilgan muhim tadqiqotlardir. «Ulug'bek va uning davri» nomli tadqiqotida V. V. Bartold «Ajoib al-maqdur»da keltirilgan Temurning dastlabki faoliyati, uning olimlar va tarixchilar bilan bo'lgan suhbatlari[93] hamda Samarqand atrofida qurilgan qasabalar haqida»gi[94] ma'lumotlarni ta'kidlaydi.

Temur vafoti, uning dafn marosimi va maqbarasining holati haqida Ibn Arabshoh keltirgan ma'lumotlarni V. V. Bartold o'zining Temur dafniga bag'ishlangan asarida batafsil bayon qilib, Temur maqbarasi ichki manzarasining bezagi va keyinchalik maqbarada yuz bergan o'zgarishlar haqidagi ma'lumotlarni faqat Ibn Arabshoh keltirganini ta'kidlab, o'z asarida ushbu faktlarga tayanib fikr yuritadi[95]. Ibn Arabshoh asarini o'rganib, ilmiy tadqiqotlarga tortishda mashhur sovet sharqshunosi A. Yakubovskiyning ham xizmati alohida e'tiborga molikdir. A. Yakubovskiy o'zining O'rta Osiyo, Samarqand va Oltin O'rda tarixiga bag'ishlangan ilmiy ishlarida boshqa mualliflar bilan bir qatorda Ibn Arabshoh ma'lumotlaridan ham keng foydalangan. Jumladan, 1933-yilda nashr qilingan «Temur va temuriylar davrida Samarqand» nomli kitobida Samarqand qurilishlari va bog'-bo'stonlari haqida Ibn Arabshoh keltirgan ma'lumotlar olim diqqatini o'ziga tortgan[96]. Temur hayoti va faoliyati xarakteristikasiga bag'ishlab 1946-yilda yozilgan maxsus tadqiqotda esa A. Yakubovskiy «Ajoib

[93] Соч. т. II (2) 28-bet.
[94] O'sha asar, 61–62-betlar. Bu haqda V. V. Bartold boshqa asarlarida ham bir necha bor zikr kiladi. Qarang: Соч. т. III 195, 272-betlar.
[95] О погребении Тимура. Соч. т. II (2), 445, 450, 451-betlar.
[96] Самарканд при Тимуре и Тимуридах, 22–23, 47, 52–53-betlar.

al-maqdur»dan bir qadar keng foydalangan. Ayniqsa, Temurning yoshlik yillari, uning dastlabki faoliyati, Temur jismi va qiyofasining vasfi, ulamolar bilan munozara-yu suhbatlari va nihoyat Temur maqbarasining ichki bezagi haqida Ibn Arabshoh keltirgan ma'lumotlar olimning e'tiborini tortgan. «Ajoib «al-maqdur» da keltirilgan Oltin O'rdaga oid ma'lumotlar esa A. Yakubovskiyning «Oltin O'rdaning qulashi» nomli tadqiqotiga singdirilgan. Ushbu asardagi To'xtamish bilan Temur o'rtasidagi jang va Oltin O'rdaning Temur tomonidan zabt etilishi, Idiku bilan To'xtamish o'rtasidagi mojaro, shuningdek, Idikuning o'ziga oid ko'pgina masalalar «Ajoib al-maqdur» da keltirilgan faktlardan foydalangan holda yoritilgan[97]. Shuni qayd qilish zarurki, tadqiqotchi barcha o'rinlarda yuqorida zikr qilingan V. Tizengauzen tarjimasidan foydalangan. XIV–XV asr O'rta Osiyo shaharlarida kosib va hunarmandlarning to'y-u tomoshalarda ishtiroki masalasini o'rgangan olim A. M. Belenitskiy, Ibn Arabshohning bu xususdagi mufassal bayoniga alohida to'xtalib, tarixchi keltirgan faktik ma'lumotlarni yuqori baholaydi[98]. Shular bilan bir qatorda «Ajoib al-maqdur» chet el olimlarining ayrim tadqiqotlarida ham asosiy manba sifatida o'z aksini topgan. Jumladan, 1885–1886-yilda Stambulda nashr qilingan «Mashohir-al-islom» («Islomning mashhur kishilari») deb atalgan to'plamning birinchi jildidan o'rin olgan «Temurlang» nomli maqola to'lig'icha Ibn Arabshoh ma'lumotlari asosida yozilgan[99]. Shuningdek, Iroq olimi Abbos al-Azzaviyning 1936-yilda Bag'dodda nashr etilgan ikki jildli «Iroq ikki okkupatsiya o'rtasida» deb atalgan tadqiqotidan Jaloyiriylar[100] davrida oid va ayniqsa Temurning qisqacha tarjimayi holiga bag'ishlangan qismi «Ajoib al-maqdur»dagi faktlar asosida sharhlanadi.

Yana shuni ta'kidlash lozimki, keyingi yillarda ham «Ajoib al-maqdur» olimlar diqqatidan chetda qolgani yo'q. Jumladan, Ibn

[97] Золотая Орда и её падение, 366, 374–375, 384, 386, 404-betlar.

[98] А. М. Беленицкий. Из истории участия, 196–197-betlar.

[99] Mashohir ul-islom, 1-qism, 320, 352-betlar. Mazkur to'plam O'zFA Sharqshunoslik institutida bor. (inv. № 15014) b.

[100] Jaloyiriylar – Eron elxonlarining (1256–1353) Iroq va Ozarbayjondagi mulklarini meros qilib, u joylarda hukm yuritgan sulola (1333–1432).





Arabshohning garchi, oz bo'lsa-da, Samarqand sarbadorlari haqida keltirgan ma'lumotlari olimlar A. M. Gurevich va L. V. Stroyevaning tadqiqotlariga kiritildi. L. V. Stroyeva ham tadqiqotida[101] Ibn Arabshoh ma'lumotlaridan foydalangan. «Ajoib al-maqdur»da Idiku va To'xtamishga oid keltirilgan ma'lumotlar V. M. Jirmunskiyning ilmiy ishlarida ham ko'p uchraydi[102].

«Ajoib al-maqdur»dan o'z tadqiqotida istifoda etgan O'z FA akademigi Y. G'ulomov Ibn Arabshohning «Temur o'z nabirasi Muhammad Sulton bilan birga uning madrasasiga ko'milgan, deb ko'rsatishi asossiz emas», – deb ta'kidlaydi[103]. Tarix fanlari doktori M. Abduraimov temuriylar davlati ijtimoiy-iqtisodiy hayoti tarixiga bag'ishlangan maqolasida ham Ibn Arabshoh ma'lumotlariga tayangan holda fikr yuritib, misol tariqasida «Ajoib al-maqdur»dan ayrim parchalar keltiradi.

«Tamerlan» deb atalgan kitobda «Ajoib al-maqdur» dan foydalangan fransuz olimi A. Shampdor Ibn Arabshohning Temurning yoshlik yillari hamda Hindiston yurishiga oid keltirgan ma'lumotlarini yuqori baholaydi. Shu bilan birga mazkur tadqiqot ba'zi juz'iy xatolardan ham xoli emas. Jumladan, Shampdor Ibn Arabshohni fors tarixchisi deb ataydi.

XIV–XV asr O'rta Osiyo tarixining turli masalalariga bag'ishlab keyingi yillarda yaratilgan asarlarda Ibn Arabshoh ma'lumotlaridan istifoda etilishi «Ajoib al-maqdur» o'sha davr hayotini o'zida to'laqonli mujassam qilgan manba ekanligiga yana bir asosdir. Jumladan, XIV–XV asrda Movarounnahrda, xususan Samarqandda [illegible] hamda o'sha paytda bunyod etilgan hashamatli qasrlar, bog'-bo'stonlar haqida Ibn Arabshoh keltirgan ma'lumotlar qisman [illegible], hozirgi zamon adabiyotlarida o'z aksini topgan[104]. Shuningdek, «Ajoib al-maqdur» da keltirilgan ba'zi iqtisodiy masala[105],

[101] Возникновение государства Тимура, 69, 73, 75-betlar.

[102] В. Жирмунский. Народный героический эпос, Р. М. 230-bet.

[103] XV asrda O'rta Osiyo shaharlarida binolar ansamblining traditsiyasi, 216, 219-betlar.

[104] Г. А. Пугаченкова, Л. И. Ремпель, История искусств Узбекистана, 243, [illegible]-betlar.

[105] Н. Махмудов, Земледелие и аграрнне отношения, 40-bet.

diplomatik munosabatlar xususidagi ayrim ma'lumotlar[106], Temurning xulq-atvori va tashqi qiyofasi[107] hamda uning dafni bilan bog'liq masalalar haqidagi faktlarning so'nggi yillarda nashr qilingan tadqiqotlarda aks etishi asarga bo'lgan qiziqishning kattaligidan dalolat beradi. Shu bilan birga «Ajoib al-maqdur»da keltirilgan ko'pgina ma'lumotlardan «O'zbekiston SSR tarixi», «Samarqand tarixi» kabi yirik tarixiy asarlarda ham istifoda etilganligi diqqatga sazovordir. Va nihoyat, Ibn Arabshoh asarlarida keltirilgan faktik ma'lumotlar chet el olimlarining so'nggi yillarda yaratilgan ba'zi ilmiy-ommabop kitoblarida ham o'z aksini topgan.

## «Ajoib al-maqdur»ning tili va uslubi

XV asrning birinchi yarmida ta'lif etilgan «Ajoib al-maqdur» boshqa ko'pgina asarlardan farqli o'laroq g'oyat nafis va murakkab tilda, nasriy saj' uslubida yozilgan tarixiy-badiiy asardir. Muallif bayonida sezilarli iz qoldirgan bu holatni XV asr fors tarixchilari tomonidan keng qo'llanilgan uslub ko'rsatgan ta'sir, deb izohlash haqiqatga yaqindir.

Ibn Arabshoh asari XV asr arab tarixnavisligi va badiiy adabiyotning nodir va ajoyib yodgorligi sifatida o'z mazmuni va uslubi jihatidan boshqa asarlardan ajralib turadi. Asar boshdan oxir qat'iy saj' uslubida yozilganligi muallifning yetuk shoir ham bo'lganligidan dalolat beradi. Darvoqe, «Ajoib al-maqdur» da keltirilgan Ibn Arabshoh qalamiga mansub talaygina nafis she'rlar, ruboiylar, maxsus ikkilik, to'rtlik ushbu fikrimizning asosli ekanligiga dalildir. Muallif biror voqea yoki shaxs haqida hikoya qilib, ushbu hikoyasini o'zining ruboiy yoki baytlari bilan yanada to'laroq ifodalaydi. Ba'zi hollarda esa o'z baytidan keyin «yana aytilgan» («va qiyla») deb boshqa shoirning xuddi shu mavzuga oid baytini ham keltiradi. «Ajoib al-maqdur»da keltirilgan nazmiy tasvirlarning aksar qismi Ibn Arabshoh qalamiga mansub bo'lib, ba'zi o'rinlarda esa an-Nobig'a az-Zubyoniy

[106] С. Закиров, Дипломатические отношения, 95-bet.

[107] I. Mo'minov. Amir Temurning O'rta Osiyo tarixidagi roli. 44-bet.





(535–604), Abu Nuvos (762, 814), Al-Kindiy (vafoti 874-yil), al-Mutanabbiy (915–965) kabi arab shoir va faylasuflarining asarlaridan ham istifoda etilgan[108].

Ibn Arabshoh asarining uslubi haqida to'xtalar ekanmiz, quyidagi faktni qayd etish zarurdir. Ba'zi o'rinlarda muallif biror voqeani tasvirlashda badiiy bezaklarga berilib ketib voqe'likni buzib ko'rsatadi[109]. Jumladan, muallif yozishicha, Temur Hindistonda bo'lgan paytida o'z o'g'li Amiranshohdan olgan maktub fikrimizga yaqqol dalildir. Ushbu uzundan uzoq maktub naqadar ko'p tarixiy faktlar, diniy va dunyoviy masalalarni qamrab olganligi bir tomondan muallifning ko'p voqealardan xabardorligini ko'rsatsa, ikkinchidan ushbu ma'lumotlarning to'g'riligiga beixtiyor shubha tug'diradi. Afsuski, bu tarzdagi misollar asarda talay o'rinlarda uchraydi. Mana shu yo'sindagi hamda boshqa badiiy bezaklarga berilib ketgan muallif ayrim o'rinlarda lo'nda qilib aytish mumkin bo'lgan xabarlarni keraksiz, ortiqcha tafsilotlar bilan tavsiflab cho'zib yuborgan.

«Ajoib al-maqdur» avval zikr qilganimizdek, boshdan oxir saj' uslubida yozilgan bo'lib, imkon boricha bu qoidaga qat'iy rioya qilingan. Shuningdek, muallif Damashqni Temur tomonidan vayron etilgan tarixni «xarob» (raqamlar qiymati 803 hijriy (1400–1401) yili deb to'g'ri ko'rsatib, unga qofiya qilib Xorazm vayron etilgan tarixni «nazob» (raqamlar qiymati 773 hijriy (1371–1372) yili deb[110] noto'g'ri talqin qiladi. Holbuki, Xorazm poytaxti Urganch Temur qo'shinlari tomonidan 1388-yilda zabt etilgan edi[111].

Har qanday holatda ham qofiyaga rioya qilgan muallif atoqli otlardan fe'llar yasab jumlalar tuzgan. Masalan, «u (Temur) Damashqda bo'lib, Mordinga[112] o'tgan (undan) Bag'dodda borishga jazm qildi» jumlasi «tadamshaqa va tamarrada summa azama an yatabag'dada» tarzida bayon qilinganki, bu jumlani so'zma-so'z: «u (Temur) av-

[108] Bu haqda tegishli o'rinlarda izohlarda ko'rsatilgan.

[109] O'sha davr arab tarixiy adabiyotiga xos bo'lgan bu «illat» haqida yana qarang: Ханна ал-Фахури, История арабской литературы, стр. 305, 306.

[110] «Ajoib al-maqdur», 24-bet.

[111] O'zbekiston SSR tarixi, 355-bet., Б. Ахмедов. Из политической историн Хорезма XV в. 147-bet.

[112] Mordin – Turkiyaning sharqida joylashgan shahar.

val Damashqlashgach, Mordinlashdi va so'ngra Bag'dodlashmoq[illegible] bo'ldi», – deb tarjima qilish mumkin. Qofiyadan chiqmaslik uchu[illegible] deyarli aynan bir ma'noni anglatadigan sinonim so'zlarni takrorla[illegible] muallif ifodasidan keng o'rin olgan. Ba'zi hollarda esa boshqa [illegible] lardan jumladan forscha (sur, losh, taxt) va turkcha (tekir, javm[illegible] yazak, batrak) so'zlar ham ishlatilgan.

«Ajoib al-maqdur»da keltirilgan turli tarzdagi voqealarni [illegible] etishda muallif qo'llagan yana bir uslub-bir fikrni to'la-to'kis [illegible] lab, ikkinchi bir maqsadga ham ishora qilgan holda fikr yuriti[illegible] Mazkur holat asarda ko'p o'rinlarda uchraydi, bunga bir necha [illegible] sollar keltiramiz[113]. Asarning 87 betida arab tili nahvu sarfi (gra[illegible] matikasi)ga oid (hidoya, kifoya, bidoya, nihoya, qofiya, shofiya [illegible] shu kabi) mashhur kitoblar nomini; 37 va 130-betlarda Qur'on[illegible] bir necha suralari nomlarini; 139-betda bayon ilmidagi (xashv, [illegible] nob, tatviyl kabi) istilohlarni; 160-betda (Asad, Javzo, Savr, Sun[illegible] la, Saraton kabi) yulduz burjlarini; 99-betda Misr sultoni Faraj [illegible] Temur qo'shinlari o'rtasidagi jang tavsifiga aruz va balog'at ilmid[illegible] (haqiqat, majoz, zarub, sadr, ajaz va shu kabi) istilohlarni; 172-be[illegible] Xalil Sultonning surat va siyratlarini madh qilish uchun arab alifbo[illegible] dagi (alif, bo, jim, dol, sin va shu kabi) harflarni qo'llab ustalik bil[illegible] jumlalar tuzganki, ular matn mazmunini ham to'la-to'kis ifoda[illegible] di. Shu bilan birga Ibn Arabshoh asari benihoya aniq iboralar, no[illegible] ishoralar, nafis istiora va o'xshatishlar, kinoyalar, masallar, hikm[illegible] so'zlar, badiiy bezaklar, ko'pdan ko'p Qur'on oyatlari, shuning[illegible] turli davrlarda bo'lib o'tgan tarixiy voqealarga ishoratlar bilan to'[illegible] toshganki, shubhasiz, bu hol muallifning g'oyat bilimdon, so'z[illegible] va mulohazasining keng ekanligini ko'rsatadi.

## «Ajoib al-maqdur» tarixiy manba sifatida

Deyarli yarim asrlik davr voqealarini o'z ichiga olgan «Aj[illegible] al-maqdur» ko'p sonli «zikr» (bayon)lardan iborat bo'lib, voqea[illegible] jarayoniga binoan muallif ularni tadrijiy ravishda keltirishga hara[illegible] qilgan. Mana shu «zikr»larning joylashuvi hamda asarning kompo[illegible]

[113] Tarjimaning tegishli o'rinlarida shu tarzdagi ishoratlarga izohlar berilgan.





[illegible] asoslanib, bizningcha, uni to'rt bo'limga ajratish maqsadga [illegible]. Birinchi bo'limda Temurning nasabi, bolalik va o'spirin[illegible] yillari dastlabki faoliyatiga oid ma'lumotlar keltiradi. Ikkinchi [illegible] Temur Movarounnahrda hokimiyatni mustaqil egallagan[illegible] (1370-yil) boshlab deyarli umrining oxirigacha olib borgan har[illegible] [illegible] so'zlanadi. Temur vafotidan (1405-yil) keyin taxminan [illegible] bo'lgan voqealar uchinchi bo'limda bayon qilinadi. [illegible] to'rtinchi bo'lim esa, Temurning sifatlari, shakl-shamoyillari [illegible] haqidagi ma'lumotlarni o'z ichiga oladi.

[illegible] tadqiqotchilar XIV–XV asr O'rta Osiyo, shuningdek [illegible] tarixini to'liq tasavvur qilish uchun o'sha davrdagi [illegible] tarixchilar yaratgan asarlarni «Ajoib al-maqdur» bilan qiyosiy [illegible] haqqoniy ravishda ta'kidlaganlar. Darhaqiqat, [illegible] voqealarning qanchalik to'g'riligini aniqlashda yor[illegible]. Shu nuqtayi nazardan Temurning bolalik va o'spirinlik [illegible] haqida Ibn Arabshoh keltirgan ma'lumotlar diqqatga sazovor[illegible] [illegible] birorta ham manbada ko'rsatilmasada[114], Ibn Arabshoh [illegible] Kesh (Shahrisabz) yaqinidagi Xo'ja Ilg'or[115] qishlog'ida [illegible] zikr qiladi. So'ngra muallif Temur va uning otasi [illegible] hayotidan bir talay rivoyatlar keltiradi hamda keyincha[illegible] [illegible] o'z atrofiga tengqurlarini to'plab o'lja tushirish bilan [illegible] haqidagi ma'lumotlarni keltiradiki, bu xabarlarni u [illegible] paytida eshitgan bo'lsa kerak. Chunki bir tomon[illegible] [illegible] hayotini maqtovlar bilan bayon qilgan rasmiy tarixchilar[illegible] [illegible] va o'spirinlik yillari haqida hech narsa yozmasdan [illegible], ikkinchi tomondan esa, Ibn Arabshohga aloqador [illegible] Kastiliya elchisi Klavixoning ham shu yo'sinda yozishi[116], [illegible] solnomasida ham aynan shu tarzdagi xabarlar kelti[illegible] [illegible] fikr ma'lum darajada haqiqatga yaqin bo'lib, o'sha payt-

[114] [illegible] В. В. Бартольд. Соч. т. II (2) прим 18, 39-bet.
[115] [illegible] 3-bet, А. Якубовский, Тимур, прим. 45, 53-6. Ibn Arab[illegible] Xo'ja Ilg'or qishlog'i ushbu qishloq hoqimining nomi bilan atalgan, [illegible] bizga noma'lum.
[116] [illegible] Дневник. 240-bet.
[illegible] летопись, 151-bet.

da bu hikoyalar xalq orasida keng tarqalganligidan dalolat ber[illegible] Darhaqiqat, Ibn Arabshoh yozganidek, «bir qarashdanoq tashqi [illegible] susiyatiga qarab otlarning zotli yoki zotsizligini ajratadigan» Te[illegible] yoshligidan epchil chavandoz hisoblanib, kamalakdan yaxshi otg[illegible] U harbiy ishni puxta egallab asta-sekin o‘z atrofida to‘plangan un[illegible] ko‘p bo‘lmagan otliq askarlarni o‘z qo‘shnilarining yerlarida o‘[illegible] tushirish va o‘tib borgan savdogarlar karvonlarining yo‘lini to‘s[illegible] mol-mulkini tortib olish uchun yuborgan.

Shaxsiy botirlik hamda boshliqqa xos xislatlari bilan Temur yo[illegible] ligiga qaramasdan o‘z qabilasi barloslar, ayniqsa chig‘atoy ko‘[illegible] manchi yoshlari orasida shuhrat qozona boshladi. Ibn Arabshoh, un[illegible] hamrohlari soni tobora oshaborib, qisqa vaqtda uch yuz kishiga y[illegible] ganligini zikr qiladi. Shundan keyin sodir bo‘lgan voqealar xusus[illegible] «Ajoib al-maqdur»da keltirilgan ma’lumotlar garchi forscha m[illegible] balarda tasvirlanganidek mukammal va tarixlari ko‘rsatilib aniq bay[illegible] etilmasa-da, hokimiyat yo‘lida Temur bilan uning raqiblari o‘rtas[illegible] yuz bergan kurashlarni qisman aks ettiradi. XIV asrning 60–70-y[illegible] larida sodir bo‘lgan bu kurashlar hozirgi zamon tarixiy adabiyot[illegible] batafsil yoritilgan bo‘lib, biz bu masalaga mufassal to‘xtalmaym[illegible] Shu kurashlarning xotimasiga to‘xtalib, hokimiyat talabida Tem[illegible] o‘zining asosiy raqibi, shu paytgacha Balxda turgan amir Husayn[illegible] yengib, 771-yil sha’bon (1370-yil, fevral-mart) oyida uni Samarqan[illegible] ga keltirib, shu joyda qatl qildi[118], deb muallif qisman xatoga y[illegible] qo‘ygan. Holbuki, amir Husayn Balxning o‘zida qatl qilingan edi[illegible] Kezi kelganda shuni qayd qilish kerakki, Temur Movarounnahr [illegible] yosiy hayotiga XIV asr 50-yillarining oxiri va 60-yillarining bos[illegible] larida kirib keldi. Bu vaqtda Chng‘atoy ulusiga qarashli bo‘lgan M[illegible] varounnahr tarqoq mayda-mayda feodal davlatlarga bo‘linib ketg[illegible] edi. Kesh (Shahrisabz), Buxoro, Termiz, Badaxshon, Xo‘jand, Sho[illegible] (Toshkent) va boshqa qator viloyatlar hokimlari o‘rtasida adovat, [illegible] nimsiz urush-janjallar davom etib kelardi. Bir tomondan mo‘g‘ul xo[illegible] lari o‘tkazayotgan zug‘umlar, ikkinchi tomondan mahalliy hokiml[illegible]

[118] «Ajoib al-maqdur», 11–12-betlar.
[119] Bu haqda 88-izohga qarang.





[illegible] nizolar mamlakatni mushkul ahvolga tushirib, [illegible] ommasi ahvolini og‘irlashtirib qolmay, balki hokim [illegible] manfaatlariga ham putur yetkazardi. Mana shunday [illegible] siyosat maydoniga chiqqan Temur Movarounnahr- [illegible] mustaqil, kuchli markazlashgan davlat tuzil- [illegible] tuzatish mumkin emasligini to‘la angladi va bu [illegible] bel bog‘ladi. Temurning bu g‘oyasini mam- [illegible] manfaatdor bo‘lgan barcha sotsial kuchlar, [illegible] katta nufuzga ega bo‘lgan feodal zodagonlar [illegible] quvvatladilar.

[illegible] siyosiy vaziyatdan ustamonlik bilan foydala- [illegible] olib borgan Temur XIV asrning 70-yillariga kelib [illegible] mavjud feodal tarqoqlik, mo‘g‘ullar hokimligi- [illegible] nisbatan markazlashgan, kuchli va mustaqil feodal [illegible] O‘rta Osiyo (Movarounnahr) xalqlari hayotida [illegible] voqeada, shubhasiz, Amir Temurning xizmati [illegible]

[illegible] o‘ziga bo‘ysundirib, hokimiyatni mustaqil o‘z [illegible] Temurning bundan keyin uyushtirgan harbiy yurishlari [illegible] urushlar bilan qo‘shib olib borildi. Mana shu [illegible] dastlabkisi Temurning Xorazmga qilgan (1372- [illegible] Hozirgi zamon ilmiy adabiyotida qayd qilinganidek[120], [illegible] Temur Xorazmga to‘rt marta yurish qilgandan ke- [illegible] poytaxti Urganchni xarob etgani haqida yozadi[121].

[illegible] boshlab Temur avval o‘zi yordamida Oq O‘rdada [illegible] so‘ngroq esa Oltin O‘rdani ham o‘ziga qo‘shib olib [illegible] ulusida[122] o‘z hukmini o‘rnatishga muvaffaq bo‘lgan [illegible] (vafoti 1406) bilan uzoq muddat urush olib bordi. Ibn

[120] [illegible] tarixi, 352–343-betlari; Б. А х м е д о в, Из политической истории [illegible]
[121] [illegible], 24-bet.
[122] [illegible] Chingizxonning (vafoti 1227) katta o‘g‘li Jo‘chi hukmida bo‘lgan [illegible] Qipchoq yerlari Jo‘chi ulusi deb atalardi. Keyinchalik, ya’ni XIV [illegible] Jo‘chi ulusi ikki mustaqil davlatga – Ko‘k O‘rda (yoki Oltin O‘rda) va [illegible] ketgan edi. 46–47-betlar.

Arabshoh ham Temur bilan To‘xtamish o‘rtasida 1395-yilda so-dir bo‘lgan hal qiluvchi jangni batafsil bayon etib, To‘xtamishnin-g yengilib qochishi va Temur qo‘shinlari tomonidan Oltin O‘rdanin-g poytaxti Saroy hamda Astraxan, Saroychiq, Azov kabi shaharla-r vayron etilganini zikr qiladi[123]. Temur bilan To‘xtamish to‘qnashu-vi bayoni munosabati bilan muallif Dashti Qipchoq ahlining urf-odat-lari, xislat-u fazilatlari, shuningdek, Saroy shahrining tarixiga doi-r ko‘pgina ma’lumotlar keltirganki, shubhasiz, bu faktlar Oltin O‘rda tarixi bilan shug‘ullanuvchi tadqiqotchilar, tarixchi etnograflar uchun ma’lum qimmatga egadir. Shuningdek, XV asrning boshlarida Olti-n O‘rda hayotida yuz bergan siyosiy voqealarni ham muallif garch-a tarixnavis Abdurazzoq Samarqandiy kabi to‘la-to‘kis yoritmasa-da asosan to‘g‘ri bayon kiladi[124].

Temurning Xorazm va Oltin O‘rdaga qarshi kurashib, ularni yengi-shi O‘rta Osiyoni kuchli bir davlatga birlashtirish bilan bog‘liq bo‘lsa uning Eron (XIV asrning 80-yillari), Ozarbayjon (1385–1386), Iroq (1393, 1400), Hindiston (1398–1399), Suriya (1400–1401) va Turki-yaga (1401–1402) qilgan yurishlari esa to‘g‘ridan to‘g‘ri istilochilik va bosqinchilik maqsadidagi yurishlar edi[125].

Ibn Arabshoh yuqorida zikr qilingan yurishlarning har qaysisi-ga alohida-alohida to‘xtalib o‘tsa-da, lekin Temurning Shom, Iroq va Turkiyaga qilgan yurishlarini mufassal bayon qiladi. Bu haqdagi ma’lumotlar to‘la-to‘kis va barcha o‘rinlarda aniq tarixlari bilan kelti-rilib, muallif ulardan yaxshi xabardor bo‘lganligi sezilib turadi. Jum-ladan, Temur qo‘shinlari tomonidan 804-yil avval (1402-yil, may) oyida Kamox[126] qal’asining ishg‘ol qilinishi Ibn Arabshoh asarida batafsil yoritilgan bo‘lib, Nizomuddin Shomiy esa bu haqda umumiy tarzda hikoya qilish bilangina kifoyalangan. Ba’zan esa muallif o‘zi

[123] Ajoib al-maqdur, 57–59-betlar.

[124] Solishtiring: Abdurazzoq Samarqandiy, Matlai sa’dayn, 180–181-betlar; Ibn Arabshoh, Ajoib al-maqdur, 62–63-betlar.

[125] Н. В. Пигулевская и др. История Ирана. стр. 230–232, История Азербайджана, т. I, стр. 198–200. А. Д. Новичев, История Турции, 36–37-betlar.

[126] **Kamox** – Firot daryosining chap sohilida, Arzinjondan janubroqda joylashgan g‘oyatda mustahkam qal’a.





guvohi bo‘lgan voqealar haqida yozadi. Jumladan, 839-yil rabi ul-av-val oyining boshlarida (1435-yil, sentyabr) Rum yerlari tomon yo‘l olganida o‘zi Hamoda, Nuriy masjidi devorida Shomga borayotib Temur qoldirgan bir xatni ko‘rganligini hikoya qilib, uning to‘liq matnini keltiradi. Shomda, xususan Damashqda Temur qo‘shinlari qilgan beboshliklar, talon-toroj haqida muallif o‘zi shohidi bo‘lgan-lar asosida hikoya qiladi. Shu bilan birga talon-toroj vaqtida Temur askaridagi tartib haqida Ibn Arabshoh keltirgan ma’lumotlar g‘oyat diqqatga sazovorki, bu xususda boshqa manbalarda hech qanday ma’lumot uchratmadik. Muallif bayonicha, ommaviy talon-torojga ruxsat bo‘lgandan keyin qo‘shindagi barcha xos-u avom bab-baravar huquqqa ega bo‘lib, kimki bir narsaga oldin qo‘lini uzatsa, u o‘sha-niki bo‘lgan.

Ammo talashga ruxsatdan oldin esa nahb-u g‘orat qilish tugul, hattoki, u haqda so‘z ochgan kishi ham qattiq jazolangan.

«Ajoib al-maqdur»da keltirilgan ma’lumotlarga qaraganda katta o‘lja olishga umid bog‘lagan Temur o‘zining so‘nggi, Xitoyga qilgan yurishiga zo‘r tayyorgarlik ko‘rgan. Bu paytda Samarqandda yasha-gan Ibn Arabshoh bu voqealardan yaxshi xabardor bo‘lganligi uchun uning bu haqda keltirilgan ma’lumotlari o‘zining originalligi, to‘laligi bilan alohida ilmiy ahamiyat kasb etadi.

Masalan, Ibn Arabshoh, Temur o‘zi avval Ashparaga[127] jo‘nat-gan[128] amiri Ollohdoddan Xitoy yerlarigacha bo‘lgan butup yo‘llaru manzillar, suvloqlaru sahrolar va shularga o‘xshash ma’lumotlarni mufassal tarzda yuborishini so‘raganligini zikr qiladi, shubhasiz, bu ma’lumotlar Temurning Xitoyga yurishida istifoda etilishi ko‘zda tutilgan. Shuningdek, muallifning Temur vafoti va uning vafotidan keyin darhol sodir bo‘lgan voqealarga oid keltirgan ma’lumot-lari tarixchilar tomonidan yuqori baholanib, qator ilmiy tadqiqot-lar yaratilgan[129]. 1404-yil noyabr oyining oxirlarida Xitoy tomonga

[127] **Ashpara** – hozirgi Sirdaryo bilan Yettisuv o‘rtalarida chegara bo‘lib turgan daryo va joy Ashpara (hozirgi tilda Choldevor) deb atalgan.

[128] Bu haqda yana qarang: Sharafuddin Ali Yazdiy, Zafarnoma, 389-bet.

[129] В. В. Бартольд, Улугбек и его время: О погребении Тимура; Л. Зимин, Подробности смерти Тимура; Я. Г. Гулямов. К вопросу о традиции; А. А. Семёнов. Надписи на надгробиях Тимура; К. Шахурин. Ещё раз о погребении Тимура.

yurish boshlagan Temur qahraton qish va qor bo'roniga qaramasd
1405-yilning 14-yanvarida O'trorga kelib to'xtadi. Ibn Arabshohni
yozishicha, sovuq natijasida Temur ibrida[130] kasaliga chalinib, uni d
etish uchun u tarkibida isitadigan moddalar, xush bo'yliklar va rez
vorlar bo'lgan araq ichimligi tayyorlatib me'yorsiz darajada shund
iste'mol qiladi. Bundan uning ahvoli og'irlashib, tabiblarning davo
ga qaramasdan 1405-yilning 18-fevralida vafot etadi. Temur kasali v
uning o'limiga ko'p miqdorda iste'mol qilingan aroq sabab bo'lgan
gi haqida tarixchi Hofiz-i Abru ham yozadi. Garchi rasmiy tarixchil
(xususan, Sharafuddin Ali Yazdiy) bu fakt haqida hech narsa yozm
sa-da, bu bir-biriga bog'liq bo'lmagan ikki tarixchining bir xil yo
shi yuz bergan voqealarning to'g'ri ekanligiga dalildir. Shuningde
Temur qabrining ichki jihozi haqida «Ajoib al-maqdur»da keltirilga
ma'lumotlar san'atshunoslar, etnograflar uchun katta ahamiyatga eg
dir. Boshqa manbalarda bu xususda hech narsa yozilmaganligi esa[131]
Ibn Arabshoh keltirgan ma'lumotlarning qimmatini yanada oshiradi.

Ma'lumki, Temur vafotidan keyin uning avlodlari o'rtasida ta
uchun boshlanib ketgan kurashda ko'p amirlar qo'llab-quvvatlaga
va poytaxtga yaqinroq bo'lgan nabirasi Xalil Sulton g'olib chiqi
Samarqand hokimligida qaror topdi. Ibn Arabshoh Xalil Sulto
hokimiyat tepasida turgan (1405–1409) yillarda Movarounnahrd
sodir bo'lgan siyosiy voqealar, shuningdek, mamlakat ichki hayo
tidagi ahvol va Xalil Sultonning o'zi haqida ko'pgina ma'lumotla
keltiradi. Shuni qayd etish kerakki, garchi mazkur (1405–1409) dav
ayrim tadqiqotchilar diqqatini o'ziga tortgan bo'lsa-da, hali chuqur
roq o'rganishni taqozo qiladi. Movarounnahr tarixining ushbu davrin
o'rganishda esa «Ajoib al-maqdur» asosiy manbalardan biri sifatid
qaralmog'i kerak.

Ibn Arabshoh asarida tarixiy voqealar bayoni 1409-yilda Temur-
ning kenja o'g'li, 1397-yildan beri Xurosonda hokim bo'lib turgan
Shohrux kelib Samarqandni egallagani va o'z o'g'li Ulug'bekni Mo-
varounnahrda qaror topdirib, Xurosonga qaytgani hamda Temur bar-

[130] Bu kasal haqida 1081-izohga qarang.
[131] В. В. Бартольд. О погребении Тимура. Соч. т. II (2), 445-bet.





pa qilgan saltanatga mansub bo'lgan chegaralarning deyarli barchasi Shohrux hukmi ostiga o'tganligini zikr qilish bilan tugallanadi.

Ibn Arabshoh asarida keltirilgan tarixiy ma'lumotlarning aksar qismini siyosiy voqealar tashkil etsa-da, o'sha davr hayotining boshqa tomonlariga doir ham ko'pgina faktik ma'lumotlar uchraydi. Jumladan, «Ajoib al-maqdur»da keltirilgan Samarqand sarbadorlari[132] haqidagi xabarlar diqqatga sazovordir.

XIV asrning birinchi yarmidan boshlab Xurosonda sarbadorlar harakatining[133] kengayishi natijasida boshqa o'lkalarda, jumladan, Samarqandda ham bu harakat keng tarqalgan edi. Ibn Arabshoh sarbadorlarni «shuttorlar» ya'ni «buzuqlar», «talovchilar» deb atab[134], o'z asarida bayon qilishicha, Samarqand sarbadorlari, turli-tuman toifadagi kishilardan tashkil topgan va ikki guruhga bo'lingan bo'lib, mudom oralarida adovat va muqotala sodir bo'lib turgan. Shunchalik qudrati bo'lishiga qaramasdan Temur ulardan xavotirda bo'lib, bir necha marta (muallif yozishicha, to'qqiz martacha) ular bosh ko'tarib o'ziga qarshi xuruj qilgach, Temur firib bilan ularni qatl etib, ziyonu zararlaridan amin bo'lgan.

Lekin muallifning 1409-yil voqealarini sharhlashda ham sarbadorlarni zikr qilishi tadqiqotchilar diqqatini o'ziga tortmog'i lozim. 1409-yilning mart oyida amir Xudoydod Xalil Sultonni yengib, Movarounnahr ustidan hokimlikka ega bo'lgani xabari Xuroson hokimi Shohruxga (1397–1447) yetgach, u Movarounnahr tomon yuzlandi. Shohruxning Samarqandga tomon yo'l olganini eshitgan Xudoydod Xalil Sultonni olib Andijonga qarab yo'l olgach, Ibn Arabshohning yozishicha, hali Shohrux shaharga yetib kelmaganda Samarqandni vaqtincha idora qilayotgan shayx ul-islom Xoja Abdulavval Shohrux istiqboliga chiqmoqchi bo'lgan amirlar Ollohdod va Arg'unshohga

[132] Samarqand sarbadorlari haqida qarang: R. N. Nabiyev, XIV asrda O'rta Osiyoda sarbadorlar qo'zg'oloni; Л. В. Строева, Сербедари Самарканда.
[133] Xuroson sarbadorlari haqida qarang: И. П. Петрушевский, Земледелие, 424–467-betlar.
[134] XIV asr mashhur arab sayyohi Ibn Batuta (Rihla, 2-qism, 248-bet.) ham shu tarzda fikr yuritib, ularni Iroqda «shuttor» (buzuqilar, talovchilar), Mag'ribda esa «suqura» («quzg'unlar») deb atashlari haqida yozadi.

qarshi shahar sarbadorlari madadiga tayangan. Garchi muallif shu tariqa yozsa-da, boshqa manbalarda bu paytda (1409-yilda) Samarqandda sarbardorlar bor bo'lib, ular muayyan kuch hisoblangani haqida hech qanday ma'lumot uchratmadik.

Temur hukmronlik qilgan yillarda Movarounnahrning turli tomonlarida ko'pgina inshootlar barpo etildi. Bunga bir tomondan mamlakat siyosiy hayotida hosil bo'lgan vaqtinchalik nisbiy osoyishtalik imkon yaratgan bo'lsa, ikkinchidan esa mahalliy hunarmandlar bilan bir qatorda zabt etilgan turli mamlakatlardan Movarounnahrga, asosan Samarqandga keltirilgan mutaxassis hunarmandlar, me'morlar, naqqoshlar keng ko'lamda qurilishga jalb qilinishi ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Chunonchi, Temur o'zi istilo etgan mamlakatlardan nafaqat qimmatbaho boyliklarni, shuningdek mahalliy ustalarni ham Movarounnahrga olib keltirdi. Ibn Arabshoh, Temur Damashqdan fazlu-hunar egalarini, turli-tuman san'at ahllari-to'quvchilar, tikuvchilar, sangtaroshlar, duradgorlar, chodir to'quvchilar, mol tabiblari, naqqoshlar, yoy yasovchilar, qirg'iydorlar, xullas har qanday hunar ahllarini Samarqandga olib ketganligini xabar qiladi. Bu haqda Sharafuddin Ali Yazdiy ham yozib, tabiblardan mavlono Jamoluddin va Sulaymon ham olib ketilganligini qayd qilsa, Ibn Arabshoh Jamoluddinni Shomda tabobat raisi edi[135], deb bu fikrni to'ldiradi. Yana shunisi xarakterliki, Temur Samarqandga olib ketgan shaxslardan ba'zan oddiy hunarmandlarning nomlari ham zikr qilinadi. Ibn Arabshoh, shaxsan o'zi bilgan sovut yasovchi usta Shahobuddin Ahmad shular jumlasidandir. Chet o'lkalardan Samarqandga keltirilgan hunarmand va ustalar hamda mahalliy aholining samarali mehnati va noyob san'ati bilan o'sha davrda bunyod etilgan Masjidi Jome'[136], Shohizinda, Go'ri Amir kabi sharq me'morchilik san'atining ajoyib namunalari bo'lgan muhtasham imoratlar, bir tomondan shuhratparast hokimlarning o'z davlati qudratini namoyish qilishga jiddu jahd ko'rsatganliklarini anglatsa, ikkinchidan feodal zulmi sharoitida madaniy boylik yaratib, keyingi avlodlarga meros qoldirgan o'sha xalqlar mushtarak ijodining samarasini ham ifodalaydi. Darvoqe, ushbu fikrimizga Ibn Arabshoh o'z asarida keltirib, ilmiy adabiyotlarga keng olib kirilgan bir ma'lumot yaqqol misol bo'la oladi. Muallif o'sha paytda Samarqand atroflarida bir qancha qishloqlar bunyod etilib, ular Sharqning Misr (Qohira), Dimashq (Damashq), Bag'dod, Sultoniya va Sheroz kabi mashhur shaharlari nomlari bilan atalganligini hikoya qiladi[137]. Mohir hunarmandlar va xalq ommasining peshana teri bilan Samarqand atroflarida bunyod qilingan bu qishloqlarga dongdor shaharlar nomini berishda ko'zda tutilgan asosiy maqsad, go'yo u shaharlarni Samarqandga nisbatan oddiy bir qishloq misolida «tasavvur» qilish edi.

[135] Ajoib al-maqdur, 115-bet.

[136] Hozir u Bibixonim masjidi nomi bilan mashhurdir.





Shuni qayd qilish kerakki, «Ajoib al-maqdur»da o'sha davrda qurilgan xilma-xil qurilish inshootlari haqida yana birtalay ma'lumotlar keltirilgan. Jumladan, yuqorida zikr qilingan Masjidi Jome' haqida Ibn Arabshoh keltirgan ma'lumotlardan ma'lum bo'lishicha, ushbu imoratga boshchilik qilish Muhammad Jald degan a'yon zimmasiga yuklatilgan. Lekin Jome' imoratidan norozi bo'lgan Temur Muhammad Jaldni qatlga tortib, mol-mulkini musodara qildirgan[138]. Bu jazoning sabablari bir nechta bo'lib, ularning eng asosiysi mazkur jome'ning Katta Malika (Bibixonim) qurdirgan madrasaga[139] nisbatan pastroq qurilganligi edi, deb hikoya qiladi muallif boshqa tarixchi sayyohlarning aynan shu tarzdagi fikrlarini quvvatlab.

XIV–XV asrlarda bog'-rog'lar barpo etish g'oyatda taraqqiy etib, yozma manbalarda o'sha davrda o'ndan ortiq bog'-bo'stonlar bunyod etilganligi zikr qilinadi. Ibn Arabshoh shulardan beshtasining nomini keltirib, ularni o'z xotirida qolgani bo'yicha aytadiki, ulardan biri Bo'stonu Eram, ikkinchisi Ziynat ud-Dunyo, boshqasi Jannat ul-Firdavs, unisi Bo'ston ush-Shimol, bunisi Jannat ul-Ulyo deb atalganli-

[137] «Ajoib al-maqdur», 220-bet. Shu narsa diqqatga sazovorki, muallif ushbu qishloqlarning ayrimlari haqida ba'zi ma'lumotlarni ham keltiradi. Jumladan, u Damashq qishlog'ini o'zi ko'rganligi va qishloq shaharning g'arbida - undan yarim kunlik masofada ekanligini hikoya qiladi (Ajoib al-maqdur, 14-bet).

[138] Sharafuddin Ali Yazdiy (Zafarnoma, qo'lyozma № 1514, v. 482 a, 483 b) va Fasihiy (Mujmal, 2-jild, 151-bet) Temur mazkur jome' ishining Muhammad Jald va Xoja Mahmud Dovud degan ikki yordamchisi zimmasiga yuklanganligi va ularning ishlaridan norozi bo'lib, ikkovini ham qatl etganini yozadilar.

[139] Hozirgi vaqtda u mavjud emas.

gini hikoya qiladi. Shuningdek, Ibn Arabshoh, Temur va uning qo'shini g'oyibligida ushbu soya-salqinlar bog'u rog'larda shahar ahlidan boy-u faqirlar sayr qilib, hordiq chiqarganliklarini yozadi.

Kezi kelganda shuni ham qayd qilish kerakki, turli-tuman hunar ahllarining aql zakovati, tinimsiz mehnati-yu noyob san'ati tufayli bunyod etilgan bu muhtasham imoratlarning ayrimlari bizning zamonamizgacha yetib kelgan bo'lib hozirgacha o'z ulug'vorligi-yu nafosati bilan kishini hayratda qoldiradi. Afsuski, yozma manbalarda bu muhtasham imoratlarni bunyod qilishda o'z hissalarini qo'shgan oddiy hunarmand va ustalar haqida deyarli hech qanday ma'lumotlar keltirilmay, hatto ularning nomlari ham zikr qilinmaydi. Shu nuqtayi nazardan qaralganda, Ibn Arabshohning hunarmand-u ustalar haqida keltirgan ma'lumotlari muayyan darajada qimmatga ega bo'lib, hanuzgacha tadqiqotchilar diqqatidan chetda qolib kelmoqda. Masalan, muallif o'sha davrdagi zargarlardan al-Xoj Ali Sheroziy, al-Xoj Muhammad Hofiz Sheroziyning nomlarini keltiradi. Sangtaroshlardan katta bir guruhi bor bo'lib, ularning eng ustuni Oltun bo'lganini qayd qiladi va u o'z hunarida bir mo'jiza bo'lib, qimmatbaho toshlarga naqsh solar, yashmga, aqiqqa Yoqutning[140] xatidan ko'ra ham go'zal xat bilan o'yib yozardi[141], – deb uning g'oyat mohirligini ta'riflaydi. Ibn Arabshoh naqqoshlarning ko'p bo'lganligini ta'kidlab, ularning eng mohiri Abdulxay al-Bag'dodiy ekanligini yozadi va uni «san'atida mohir edi» deb tavsiflaydi. Shuningdek, muallif bog'dorchilik ishida mashhur mutaxassis Shihobuddin Ahmad az-Zardkashiy haqida ham zikr qilib, mis va shishaga naqsh soladiganlar esa sonsiz-sanoqsiz ko'p edi, deb yozadi. Ibn Arabshoh o'zi keltirgan ushbu hunarmand-u ustalarning har birini o'z davrining allomasi-yu asrining mo'jizasi deb, «bu kishilar men bilib, zikri-yu ismi xotirimda qolganlar, ammo men bilmaganlaru yoyinki bilsam ham ismi esimga kelmaganlar esa behad darajada ko'p bo'lib, hisobkitobdan xorishdir»[142], – deydi.

[140] **Yoqut Musta'simiy** – Abbosiylardan bo'lgan xalifa Musta'sim (1242–1258) saroyida yashagan mashhur xattot. U olti xil yozuvni husnixat bilan yozishda nom chiqargan bo'lib, «qiblat al-kuttob» (kitoblarning peshvosi) degan laqab olgan. Yoqut yuz yildan ko'proq umr ko'rib, 1296 yoki 1299-yili vafot etadi.

[141] «Ajoib al-maqdur», 222-bet.

[142] «Ajoib al-maqdur», 225-bet.





«Ajoib al-maqdur»da yangi qurilgan inshootlar bilan bir qatorda o'sha davrda tiklangan ba'zi shaharlar, qal'alar va qo'rg'onlar haqida ham talay ma'lumotlar keltiriladi. Ma'lumki, mo'g'ullar istilosi davrida (1219) xarobaga aylantirilgan Banokat Temur zamonida tiklanib, uning o'g'li Shohruh sharafiga Shohruxiya deb atalgan edi. Sharafuddin Ali Yazdiy shahar tiklanishini 794 (1391 –1392) yil, Fasihiy esa 784 (1382–1388) yilda bo'lganligini qayd qilib, ikkala tarixchi ham uni Fanokat deb zikr qiladilar. Ibn Arabshoh, shahar tiklangan tarixni ko'rsatmay, uni Shohruxiya deb atalishini Temur o'g'li Shohruh tug'ilishiga bog'lab, bunga sabab Temur bilan uning yaqin kishisi o'rtasidagi shaxmat o'yini paytida hosil bo'lgan vaziyatni rivoyat qiladi[143]. Shohrux 1377-yilda tug'ilgan bo'lib, «Ajoib al-maqdur»da shaharning tiklanish hikoyasi Temur 1387-yilda Isfahonni egallagandan keyingi voqealar bayonidan so'ng keltiriladi. Aslida esa Banokat, Sharafuddin Ali Yazdiy ko'rsatganidek, Temur farmoniga binoan 1392-yilda tiklanib, uning o'g'li Shohrux sharafiga Shohruxiya deb atalgan. Shu bilan birga, Ibn Arabshoh asarida ba'zan boshqa manbalarda zikr qilinmagan ma'lumotlar keltirilgan hollari ham uchraydi. Jumladan, «Ajoib al-maqdur»da Ashpara shahrining tiklanishi va Ashparadan o'n kunlik yo'lda bo'lib, mo'g'ullar bilan Temur yerlari o'rtasida nizoli makonda joylashganligidan xarobaga aylangan Bosh Xumra deb ataladigan qal'ani tiklash uchun birqancha amirlar bilan qo'shin toifalari jo'natilganligi zikr qilinadi. «U guruhning (Samarqanddan) chiqishi 806-yilning oxiri, 807-yilning boshlarida (iyun, iyul, 1404-yil) bo'lib, bu bilan ular Xitoyga borishi va qaytishlarida o'zlariga boshpana, makon va ishonchli qo'rg'on bo'lishini ko'zda tutgan edilar»[144], – deb yozadi tarixchi bu haqdagi hikoyasini davom ettirib.

Shuni ta'kidlash kerakki, Temuriylar davrida olib borilgan istehkom qurilishlari (garchi harbiy maqsadlar ko'zlanib bo'lsa-da) haqida ham «Ajoib al-maqdur»da ba'zi ma'lumotlar mavjuddir. Temur vafotidan (1405-yil) keyin taxt uchun boshlanib ketgan kurashda Xalil Sulton g'olib chiqib, Movarounnahr taxtida qaror

[143] «Ajoib al-maqdur», 35-bet.

[144] «Ajoib al-maqdur», 159–160-betlar.

topganligini yuqorida qayd qilgan edik. Taxt yo'lida o'zinin asosiy raqiblari – 1397-yildan buyon Xurosonni idora qilib turga Shohrux hamda G'aznada, Samarqanddan uzoqda bo'lganligi tufay tezda taxtni egallay olmagan qonuniy valiahd Pirmuhammadni hujumidan xavotirlangan Xalil Sulton shoshilinch ravishda o' mulkining janubiy chegaralarini mustahkamlashga kirishd Shu maqsadda 1407-yilning iyulida o'z harbiy boshliqlarid biri bo'lgan Ollohdod boshchiligida mo'g'ullar istilosi davri (XIII asr) vayron qilingan Termiz shahrini tiklash uchun o' qo'shinlaridan jo'natdi. Ibn Arabshoh eski Termizning g'oy tez muddatda – o'n besh kun deganda qayta tiklanib, natijada Chingizxon istilosi davridan buyon shahar ahli yashab kelayotga yangi shaharga nisbatan mustahkam bo'lganligini hikoya qiladik bu hol shahar tiklanishi g'oyat zudlik bilan olib borilgani ko'rsatadi. Bu xabarni eshitgan Shohrux ham o'z chegaralari tiklab, pishiqlashga kirishgan. Ibn Arabshoh, yozishicha, Shohru amir Mirzob[145] boshchiligida Xuroson qo'shinlaridan bir toifa jo'natib, Balxning Hisn al-xunud («Hindlar qo'rg'oni»)[146] de ataladigan qo'rg'onini tiklatgan.

Ibn Arabshoh asari o'sha paytda bo'lgan bazmlar, to'y- tantanalar haqida ham ma'lum darajada tasavvur hosil qilis imkonini beradi. Jumladan, muallif «Ajoib al-maqdur»da keltirilga Ulug'bekning nikoh to'yiga bag'ishlab o'tkazilgan tantanala vasfi bunga yaqqol misol bo'la oladi. Shu paytda Samarqandd yashagan Ibn Arabshoh, shubhasiz, bu tantanalarning shohid bo'lib, o'z ko'rganlarini jonli va maroqli tarzda hikoya qiladi[147] Muallif keltirgan ma'lumotlar feodal hokimlarning dabdabali hayo kechirib, aysh-ishrat surishlarini yaqqol ifodalaydi. Darhaqiqat vaqti-vaqti bilan o'tkazilib turgan marosimlar bir tomondan hokim sinflar shon-shuhratini namoyish qilishga qaratilgan bo'lsa ikkinchidan mehnatkash xalq ommasining ishtirok etishi bilan

[145] Nashrda Mizrob deb xato berilgan.

[146] Ajoib al-maqdur, 199-bet. Balhning Hinduvon qal'asi ko'zda tutilayotir. U haqda yana qarang: Abdurazzoq Samarqandiy, Matlai sa'dayn, 109-bet.

[147] Bu haqda yana qarang. A. M. Беленицкий. Из истории участия, 196–197-bet.





bu tantanalar ommaviy tus olgan. Muallif bayonicha, Temur o'z raiyatlaridan zulmu kulfatni ko'tarib, solig'u to'lovlarni bekor qilishni va barcha xaloyiqqa fazl-u ehson bilan muomala etishni buyurib, shahar oldidan har bir xos-u avomga-yu katta-kichikka holi-qudrati yetguncha zeb-u ziynatga burkanib, Samarqand yaqinidagi Konigilga chiqib, toifa-toifasiga qarab tartib bilan chodir-o'tovlarini tikishni amr qilgan. Tantanalar paytida har bir hunar ahli va san'atkor o'z san'atini namoyish qilishda jidd-u jahd ko'rsatib, muallif yozishicha, bir qamish to'quvchi faqat qamishdan mukammal asbob-anjomi-yu qurol yarog'i bilan jihozlangan bir suvoriy jangchini yasab namoyish qilgan. Hunarmand uni shu qadar mohirlik bilan kamoliga yetkazgan ediki, deb yozadi tarixchi, hatto tirnog'i, kipriklarini ham qamishdan yaqqol tasvirlagan edi. Muallifning bu tantanalarda turli-tuman hunar va san'at ahllarining ham o'z san'atlarini namoyish etganliklarini zikr qilishidan, bu tarzdagi marosimlar o'sha davr hunarmandchiligi va san'ati erishgan yutuqlarning o'ziga xos bir ko'rigi bo'lganligini ham anglatadi.

Ibn Arabshoh ushbu tantanalarda qatnashgan Misr sultoni Nosir Farajning elchilari qimmatbaho tuhfay-u armug'onlar, shular jumlasidan jirafa va tuyaqushlar keltirganligi, shuningdek, Xitoy, Hind, Iroq, Dashti Qipchoq, Sind, Frank (Ispaniya) va ularda boshqa iqlimlaru o'lkalar elchilari ishtirok etganini hikoya qiladi. Konigildagi marosimlarda ayollar ham qatnashgani to'g'risida Ibn Arabshoh, (ziyofatda) Temurning chap tomoni ayollar va malikalar uchun (maxsus) edi, chunki ayollar erkaklardan bekinmasdilar, xususan, ommaviy majlislaru xursandchilik marosimlarida[148], – deb o'sha paytda odat tusiga kirib qolgan tartib haqida qisman bo'lsa-da, kishida tasavvur hosil qiladi.

«Ajoib al-maqdur»da tarixiy ma'lumotlarga keng o'rin berilgan bo'lsa-da, ayrim hollarda jug'rofiy xarakterdagi xabarlar ham uchraydi. Jumladan, muallif XIV asrning oxirlarida Samarqand va unga qarashli joylar yetti tumandan, Andijon va uning atroflari

[148] Ajoib al-maqdur, 157-bet

to'qqiz tumandan iborat bo'lganligini qayd qilib, «tuman deb o ming jangchi chiqadigan (joy) ga aytiladi»[149], – deb yozadi.

Avval zikr qilganimizdek, Ibn Arabshoh Samarqanddan jo'n ketgach, uzoq vaqt sayohat qilib bir necha mamlakatlar va shaharla bo'ldi. O'zi ziyorat qilgan joylar va ular ahlining urf-od madaniyati, ijtimoiy ahvoli to'g'risida muallif «Ajoib al-maqdur» keltirgan ham tarixiy, ham jug'rofiy tarzdagi talaygina qiziq ma'lumotlar ko'p o'rinlarda muallifning shaxsiy kuzatuvlari asoslangan. Masalan, muallif Xorazm, uning poytaxti Gurga haqida ma'lumotlar keltirib, uning odamlari haqida «Xoraz ahli ham latofatda Samarqand ahli kabidir», deb ular adabiyot v mushoiraga inoyatli bo'lib, musiqa san'atida g'oyat mohirliklar ta'riflab, «Bu borada ularda har bir xos-u avom ishtirok etadi», – de yozadi. Muallif shu kabilda Dashti Qipchoq haqida ham ko'pgi ma'lumotlar keltirganini yuqorida zikr qilgan edik. Shuningde muallif Marg'ilon, Xo'jand, Termiz, Qarshi, Shahrisabz, Buxor Dehli, Sivos kabi shaharlar vasfiga ham qisqacha to'xtalib o'tga Ibn Arabshoh, o'sha davrda dong'i ketgan Alinja, Kamox, Izmi Mordin, Kartin kabi mustahkam qal'alar vasfini keltirib, ularnin joylashgan o'rni, me'moriy jihatlari haqida o'quvchini muayya tasavvurga ega qiladi.

«Ajoib al-maqdur»ning yana bir qimmatli tomoni shundaki, asa faqat O'rta Osiyo tarixiga oid bo'lib qolmasdan, balki XIV–XV as lar Oltin O'rda, Ozarbayjon, Eron, Hindiston, Iroq, Suriya, Turkiy kabi mamlakatlar tarixiga oid muhim manba hisoblanadi. Chunon chi, asarda mazkur mamlakatlar tarixi, ayniqsa, hokimlari, davlat ar boblari va a'yonlari hayotiga doir talaygina ma'lumotlar uchraydi Masalan, muallif Dashti Qipchoqning sultoni Baroqxon (1257–1267 haqida yozib, uni ilm-u fanga qiziqqan kishi, o'z poytaxti Saroyd ko'p olimlarni yiqqanini qayd qiladi. Bag'dod hokimi Sulton Ah madning (1332–1410) otasi Sulton Uvays (1356–1374) fuqarolarg rahmdil, olim-u ulamolarga e'tiqod qo'ygan, «yomonligi kamu, yax-

[149] Tuman haqida 112-izohga qarang.





chiligi ko'p» odil podshoh sifatida tavsiflansa, Shirvon voliysi Shayx Ibrohim esa, hozirgi zamon ilmiy adabiyotlarida qayd qilinganidek, ziyrak va tadbirkor hokim sifatida gavdalanadi. Shuningdek, asarda Sheroz va Ajam Iroqi sultoni Shoh Shuj'o (1364–1384), Oltin O'rda amiri Idiku (vafoti 1419-yil) to'g'risida ham ma'lumotlar keltirilgan. Ba'zi hollarda esa muallif o'zi hikoya qilayotgan hokimlar hayotiga oid muhim ilmiy ahamiyatga molik bo'lgan nodir faktlarni keltiradi. Masalan, Sivos hokimi Qozi Burxonuddinning (vafoti 1393 yoki 1399-yil) olim, fozil, shoir bo'lib, uning ba'zi tasniflari borligini zikr qiladi. Shuningdek, uning Abdulaziz[150] degan nadimi haqida ham ishonchli kishining ma'lumotlariga asoslanib bir tarix ta'lif etgani va bir jilddan iborat bo'lgan bu tarixni Qaromon[151] yerlarida mavjud bo'lib, o'z uslubining nafisligi va mazmunining boyligi jihatidan u (tarix) G'aznaviylar sultoni Mahmud ibn Sabuktakinga (998–1030) bag'ishlanib, XI asrda yashagan tarixchi Abu Nasr al-Utbiy (961–1035 yoki 1039) «Kitob al-Yaminiy» asaridan ko'ra ustunligini xabar qiladi.

Ibn Arabshoh o'z asarining dastlabki uch bo'limida aksar hollarda siyosiy voqealar bayoniga to'xtalgan bo'lsa-da, ko'rib o'tkanimizdek, o'sha davr hayotining turli tomonlariga oid ko'pgina ma'lumotlarni keltiradi. "Biroq asarning oxirgi, to'rtinchi qismi Temurning sifatlari va tabiiy xislatlari haqidagi bo'lim deb atalsada, XIV asr oxiri va XV asr birinchi yarmi Movarounnahr madaniy hayotiga doir juda ko'p ma'lumotlar ham uchraydi. Avvalo Temur va uning shaxsiyatiga oid Ibn Arabshoh keltirgan ma'lumotlarga qisqacha to'xtalib o'taylik. Mashhur sharqshunos A. Yakubovskiy ta'kidlaganidek, Ibn Arabshoh, garchi Temurning istilochilik

[150] Bu asar «Tarix al-Qoziy Burxonuddin as-Sivosiy» deb atalib, u 800-yilda (1398–1399) yozib tamomlangan. Shu narsa diqqatga sazovorki, XVII asrda yashagan turk olimi va adibi Hoji Halifa (1608–1657) o'zining mashhur «Qashf uz-zunun» nomli bibliografik asarida Abdulaziz va uning mazkur tarixiy asari haqidagi ma'lumotlarni to'la-to'kis Ibn Arabshoh yozganlari asosida keltiradi (Kashf uz-zunun, 1-jild, 228–229-betlar) Abdulazizning bu tarixi haqida kengroh ma'lumot olish uchun qarang: Ч. А. Стори, Персидская литература, часть II, 1253–1254-betlar.

[151] **Qaromon** – Turkiyaning janubida joylashgan shahar.

siyosatiga batamom salbiy munosabatda bo'lsa-da, lekin muallif uning aql-idroki, davlat arbobiga xos qobiliyati, harbiy mahoratini hech bir o'rinda inkor qilmaydi. Aksincha, bir necha o'rinda uning xislat-u fazilatlarini bo'rttirib tavsiflaydi[152]. Darhaqiqat, «Ajoib al-maqdur»da Temur haqida shu qadar ko'p va rang-barang ma'lumotlar keltirilganki, bu jihatdan Ibn Arabshoh asari haqli ravishda boshqa manbalarga qaraganda aloqida o'rin tutadi. Muallifning ko'p hollarda o'zi ko'rgan va eshitganlariga asoslanib yozishi u keltirgan ma'lumotlar ahamiyatini yanada oshiradi. Chunonchi, Ibn Arabshoh o'sha davrdagi boshqa tarixnavislardan farqli o'laroq Temurning xarakteri, xulq-atvori, jismoniy tuzilishi va tashqi qiyofasi haqida keltirgan mufassal bayon tadqiqotchilar tomonidan yuqori baholanib, qator ilmiy hamda ommabop ishlarga sabab bo'lgan. Haykaltarosh M. M. Gerasimov esa Ibn Arabshoh keltirgan faktlarga va bosh suyagining tuzilishiga asoslanib Temur qiyofasini tiklagan, suratini tasvirlagan[153].

Ibn Arabshoh, Temur tamg'asining naqshi «rosti rasti», ya'ni «haq bo'lsang najot topasan» bo'lib, otlarining tamg'asi va dinor dirhamlariga bosiladigan belgisi mana shunday ooo uch halqadan iborat edi, deb yozadi. Harbiy tarix Temurni Osiyoning o'rta asrdagi yirik lashkarboshlari qatoriga qo'yadi. Darhaqiqat, «Ajoib al-maqdur»da keltirilgan faktlar ham Temurning o'z davri harbiy ishini mukammal bilganligidan dalolat beradi. K. Marks ta'kidlaganidek Temur harbiy razvedkaga g'oyat katta e'tibor bergan. Binobarin, Ibn Arabshoh, Temur turli-tuman kasbdagi odamlardan har tomonga o'z xabarchi va josuslarini yuborishi, biron tarafga yurishdan oldin o'sha joylar haqida imkoni boricha ma'lumotlar to'plashi hamda har doim dushmanlarga chap berib chalg'itishga harakat qilishi haqida yozadi. «Ajoib al-maqdur»da keltirilishicha, Temur qo'shini saflarida turli millat vakillari, shuningdek, «ayollar ham bo'lib, ular erkaklardan ham shiddatli jang qilganlar. Qo'shinlar ho'kizlarga yuk ortib,

[152] Bu haqda yana qarang: И. А. Гафаров, Из области персидской историографии, стр. 1—70; А. Крымский, История Персии, 53-bet.

[153] Л. В. Строева. Возникновение государства Тимура. 73-bet.





qo'shaklarni yuganlab minganlar; tuyalarga it va qo'zichoq go'shti ortib, safarda ko'pincha otlar arpasi uchun bug'doy, guruch, tariq, kishmish va yosmiq olishib, ulovlarini daraxt po'stlog'i bilan ham boqqanlar».

O'z muddaosiga erishish yo'lida Temur diniy mazhablar-u e'tiqodlardan ham ustalik bilan foydalangan. V. V. Bartold ta'kidlaganidek, «siyosiy maqsadlarga erishishda din Temurga qurol bo'lib xizmat qilgan»[154]. Keng xalq ommasi orasida o'z obro'-e'tiborining yoyilishiga xizmat qilgan musulmon ruhoniylari bilan Temur yaqin munosabatda bo'lganiga Ibn Arabshoh keltirgan ma'lumotlar ham yaqqol misol bo'ladi. Jumladan, muallif Temur o'zi qo'lga kiritgan barcha yutuqlari Shayx Shamsuddin al-Foxuriy, Shayx Zaynuddin al-Xavofiy va Sayyid Barakaning madadida bo'lganligini takrorlardi, deb ushbu shaxslarning Temur ishlarida qo'shgan hissalarini ta'kidlaydi. Arab tarixchisi Ibn Do'qmoqning (vafoti 1407-yil) yozishicha, Temur Damashqni muhosara qilganda shahar qal'asidagilar uzoq muddat Temurga taslim bo'lmay, qarshilik ko'rsatayotgan paytda Muhammad payg'ambar haramlaridan biri Umm al-Habibaning qabrini tashlandiq holda ko'rgan Temur qabr ustiga gumbaz qurishlarini buyurganda, itoat bildirgai shahar ayonlari Temurning bu fe'lini maqtaydi va isyonkorlarni qarshilikni tugatib, u bilan sulh tuzishga tashviqot qilganlar[155]. Bu haqda Ibn Arabshoh ham yozib, Temur amri bilan payg'ambar haramlari qabri ustiga bir-biriga yondosh ikki qubba qurilganini hikoya qiladi. Shuningdek, muallif, Temur Xomsni talon-toroj qilmay, uni shu shaharda dafn qilingan Xolid ibn Valid ruhiga baxsh etganligini zikr qiladi.

O'sha paytda mavjud siyosiy vaziyatni hisobga olgan Temur bir qancha mamlakatlar bilan diplomatik aloqalar bog'lagani haqidagi ma'lumotlar tadqiqotchilar diqqatini jalb qilib, bu masala ma'lum darajada o'rganilgan. Temur davlatining diplomatik aloqalari haqida «Ajoib al-maqdur»da keltirilgan ma'lumotlar-itoat talab qilib yuborilgan maktublar va ularga javoblarni hisobga olmaganda-chet

[154] В. В. Бартольд, соч. т. II (2) 45-bet.

[155] Aqd al-javohir, 245-bet.

di. Temurga tarixlar va qissalar o'quvchi qissaxon Mavlono Ubay
ni zikr qilib, o'sha paytda saroy xizmatida bo'lgan samarqand
mashhur olim Abdujabbor haqida Shom ulamolari bilan suhbatda:
Temurning tarjimoni bo'lib, barcha masalalarda uning nomidan su
bat yuritardi», deb uni fozil olim, komil faqih, mashhur tadqiqot
bo'lganligini ta'kidlaydi. Uning otasi Nu'monuddinning ko'zi o
bo'lganini aytib, uning Nu'mon as-Soniy («Nu'mon Ikkinchi») deg
laqab bilan atalganini yozadi.

Muallif o'z asarida qorilardan Mavlono Faxruddin, qiroatli hof
lardan Abdulatif ad-Dimg'oniy, Mavlono Asaduddin, Mahmud a
Muhriq al-Xorazmiy, Jamoluddin Ahmad al-Xorazmiy va musi
ilmida ham katta ustoz bo'lgan Abdulqodir al-Marog'iylarni zi
qiladi. O'sha paytda Samarqandda yashagan mashhur va'zxon v
xatiblardan saroylik Mavlono Ahmad ibn Shams ul-Aimmani zi
qilib, u arabiy, forsiy va turkiyda so'z podshosi (Malik ul-kalom) d
atalib, zamonining bir mo'jizasi bo'lganligini xabar qiladi. Shunin
dek, va'zxonlardan mavlono Ahmad at-Termiziy, mavlono Man
al-Qog'oniylarning ham nomlarini keltiradi. Mashhur xattotlard
Sayyid xattot Bandgir, yuqorida zikr qilingan Abdulqodir va Tojudd
as-Salmoniylarni ataydi.

Muallif o'sha davrda qo'llanilgan uyg'ur yozuvi haqida ham t
laygina qiziqarli ma'lumotlar keltirgan.

Ibn Arabshoh ushbu yozuv o'n to'rt harfdan iborat ekanligi
harflarning bu darajada kamligiga sabab, xalqumdan chiqib, maxr
da bir-biriga mutaqorib bo'lgan «bo» va «fo», «zo», «sin» va «so
va hakazo harflar bir xilda yozilib, shu zaylda talaffuz qilinishi d
harflarning alohida ko'rinishi va qo'shilib yozilgan holatlarini am
da tasvirlab keltirganki, ushbu ma'lumotlar turkiy tillar tarixi bil
shug'ullanuvchi mutaxassislar tomonidan chuqurroq o'rganilib, m
nosib baholanmog'i kerak. Muallifning buyrug'i farmoyishlar, ris
la-yu yozishmalar, tarixlaru nazmlar, qissalar-u solnomalar, shunin
dek, devon ishlari bilan bog'liq barcha xabarlar shu yozuvda bitil
unga mohir kishi uchun rizq kaliti bo'lib hisoblanardi, deb yozishid
bu yozuvning o'sha paytda keng qo'llanilgani ayon bo'ladi.





Shu bilan birga, bir o'rinda muallifning o'z fikriga o'zi zid kelgan hol ham uchraydi. Asarning 22-betidagi muallif munajjimlardan ulardan birining ismi xotiramda qolmagan, deb shu sahifaning oxirida esa munajjimlardan bir guruh mohir kishilar bo'lib, ulardan Mavlono Ahmaddan boshqasining ismini bilmasligini aytadi, hamda uning tabib, misgar, yulduz kuzatib hisob oladigan olimligini ta'riflab, 808 (1405–1406) yilda o'ziga «men yulduzlarni kuzatib, ikki yuz yilga hukm (tole') chiqardim», – deb aytgan gapini keltiradi.

«Ajoib al-maqdur»da o'sha davrdagi mashhur san'atkorlar haqida ham ayrim ma'lumotlarni uchratish mumkin. Jumladan, benazir mutrib va musiqachi Abdulqodir al-Marog'iy, uning o'g'li Safiuddin, Qutbi Nasriyn hamda Ardasher al-Changiylar zikr qilinib, ularning san'ati tavsiflanadi. Shuningdek, muallif Tabrizda, Temurning o'g'li Amiranshoh huzurida bo'lgan mashhur musiqachi va mutrib Qutb al-Mousuliy haqida batafsil hikoya qilib, uning maqomlarga bag'ishlangan tasniflari, u bilan Abdulqodir al-Marog'iy o'rtasida bahslar yuritilganini qayd qiladi.

Ibn Arabshoh asarida o'sha paytda qo'llanilgan shaxmat va mashhur shaxmatchilar haqida keltirilgan ma'lumotlar ayniqsa diqqatga sazovordir. Mashhur shaxmatchilardan Muhammad ibn Uqayl al-Haytiy va Zayn al-Yazdiylar zikr qilinib, lekin muallif ta'kidlashicha shatranj o'yinining allomasi faqih va hadis olimi Alouddin at-Tabriziy bo'lgan. Ibn Arabshoh, o'sha davrning birinchi shaxmatchisi degan ulug' nomga sazovor bo'lgan[160] bu benazir mohir o'yinchining shaxmat o'yiniyu, uning mansuba (kombinatsiya) lariga oid sharhi borligini qayd qiladi. Muallif Alouddin bilan shaxsan tanish bo'lib, uning o'yin paytidagi fazilatlariga to'xtalarkan Temur bilan katta shaxmatda o'ynaganlarini, uning huzurida doirasimon va uzunchoq shaxmat ko'rganini hikoya qiladi. Shuningdek, boshqa tarixnavislardan farqli o'laroq, Ibn Arabshoh o'sha zamonda keng tarqalgan 120 xonalik katta shaxmat taxtasining shaklini va undagi donalarning joylashish tartiblarini keltiradiki, shubhasiz, bu xildagi ma'lumotlar O'rta Osiyo shaxmat tarixini o'rganishda ilmiy ahamiyatga molikdir.

---

[160] I. Ходжаев, Ф. Дюммель, Новые даннне по истории шахмат, 341-bet.

Yuqorida qayd qilingan mulohazalar «Ajoib al-maqdur» XIV asr oxiri va XV asr boshlari O'rta Osiyo va O'rta Sh mamlakatlari xalqlari hayotining siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy madaniy tomonlarini yoritishda muhim manbalardan biri sifati baholashni taqozo qiladi.

«Ajoib al-maqdur» Ibn Arabshoh Samarqanddan jo'n ketgandan keyin taxminan o'ttiz yilcha vaqt o'tgach, talay o'rinla muallifning xotirida qolgan ma'lumotlarga asoslanib yozilganligid ham, mualliflari Movarounnahr hayoti bilan yaqindan tan bo'lgan ba'zi forscha manbalarda kuzatilganidek, maml hayotining barcha tomonlarini to'liq qamray olmagan, alba Muallif bir talay hollarda, ayniqsa asarning boshlang'ich qism ba'zi voqealarni «aytilishicha», «hikoya qilinishicha» so'zla bilan boshlab, o'zi keltirayotgan xabarning aniqligiga ishonc komil bo'lmay, o'zgalar hikoyasiga yoki o'z xotiriga tayangani ishorat qilgan holda bayon etadi. Bu holni muallifning o'zi ha e'tirof etib, kitob xotimasida «Temurning xilma-xil va naqada ko'p ishlaridan parishon xotiramdayu, uziq fikrimda qolganlari jamlab bir asar ta'lif etdim», deb yozadi. Mana shu boisdan ha asarda ayrim xatolar, chalkashliklar uchraydi. Jumladan, Temu bilan Oltin O'rda xoni To'xtamish o'rtasida 1391-yilning yozid Uralning g'arbida, Qunduzcha degan mavzeda yuz bergan biriic jangni Ibn Arabshoh (taxminan 1370–1371-yillarda) Xo'jan (Sirdaryo) yaqinida, Turkiston atroflarida bo'ldi deb chalkashlikk yo'l qo'yib, bu jangda Temur Sayyid Barakaning yordamid g'alaba qozongani haqidagi rivoyatni keltiradi. Shuningdek, «Ajoi al-maqdur»da ba'zan voqelikni bo'rttirib, xilma-xil afsonavi tafsilotlar bilan bezab tasvirlangan hollar uchrashini yuqorida qay qilib, Temur Hindistonda vaqtida (1399) o'g'li Amiranshohda unga kelgan maktubni misol keltirgan edik. Xurosonning marka bo'lgan Hirot Temur tomonidan 1381-yil va so'ng, shahar aholis qo'zg'olon ko'targanligi sababli, 1383-yil qayta bosib olinib, sh vaqtlardan boshlab butun Xuroson yerlari Temurning uchinchi o'g'l Amiranshohning ulushi hisoblanib keldi. Keyinchalik, 1397-yilda





boshlab esa Xuroson Temurning kenja o'g'li Shohrux ixtiyoriga berilib, u to vafotigacha (1447-yil) hukm yuritdi. Sharafuddin Ali Yazdiyning yozishicha, 1399-yili Samarqandga Amiranshohning xotini Sevinbek kelib, o'z erining nodurust xatti-harakatlari ustidan Temurga shikoyat qilgan va Amiranshohni mulk ishlariga e'tibor bermay, ichkilikka ruju qo'yib ayshu safoda vaqtini o'tkazayotganini hamda unga (Temurga) muxolifat bildirish niyatidaligini xabar bergan. Ibn Arabshoh esa, aftidan, mana shu fikrni maktub haqidagi ilmnaga yo'ygan bo'lsa kerak. 1401-yilda Damashq yaqinida Temur bilan arab tarixnavisi Ibn Xaldun uchrashuvini ham xilma-xil tafsilotlar bilan tasvirlagan.

Asarning saj' uslubiga rioya qilinib yozilishi tufayli ham ba'zi bir tarixiy va jug'rofiy xarakterdagi xatolarga yo'l qo'yilganligini yuqorida qayd qilgan edik. Fikrimizcha, qofiya uslubi asar xarakteriga ham bir qadar ta'sir ko'rsatgan. Jumladan, muallif o'z asarida Temurni ba'zan haqoratomuz so'zlar bilan atashi ham garchi qisman muallifning Temurga nisbatan munosabatini bildirsa-da, aksar holda mazmundan ko'ra saj' uslubini saqlashga ko'proq e'tibor berilganligidan sodir bo'lgan. Zaruratdan keltirilgan mazkur so'zlar ko'pincha qofiyaga haddan tashqari amal qilingan sarlavhalarda uchrashi fikrimizni tasdiqlaydi. Masalan, Mozandaronga qofiya uchun «jon» Shosboniy – «Joniy» (jinoyatkor, Rum – «bum») qarg'a, quzg'un) totor-makkor, Tiflis – «iblis» va shu kabilar. Darhaqiqat, Ibn Arabshohning o'z asarida saj'ga qat'iy rioya qilib mazmunga bir qadar putur yetkazganligi boshqa olimlar tomonidan ham qayd qilingan.

XIV asrning oxiri va XV asrning boshida Movarounnahrda nisbiy siyosiy osoyishtalik o'rnatilganligi mamlakat iqtisodiy hayoti hamda ishlab chiqarish kuchlarining bir qadar rivojlanishida ijobiy omil bo'ldi. Natijada, savdo-sotiq taraqqiy qilib, qishloq xo'jaligini rivojlantirish yo'lida qator tadbirlar amalga oshirildi, sug'orish inshootlari tiklanib, ariq – zovurlar va kanallar o'tkazildi. Shu nuqtayi nazardan qaraganimizda Ibn Arabshoh mamlakatning iqtisodiy hayoti, qishloq xo'jaligini tiklash va rivojlantirish yo'lida qilingan ishlar, dehqonchilik, savdo-sotiq va hunarmandchilikning qay darajada o'sgan-

ligi kabi qator sotsial-iqtisodiy masalalar haqida deyarli hech nars yozmagan. Shuningdek, mamlakat iqtisodida muayyan rol o'ynagan hunarmandlar, kosiblar, dehqonlar, oddiy mehnatkash ommaning ah voli, o'sha paytda mavjud feodal ekspluatatsiyasining shakllari, soliq va to'lovlarning miqdori va xillari kabi muhim masalalar ham muallif nazaridan chetda qolgan.

Qayd qilingan ayrim kamchiliklarga qaramasdan, «Ajoib al-maq dur» XIV asr oxiri va XV asr boshlari O'rta Sharq mamlakatlari, xu susan O'rta Osiyo tarixining siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy tomonlarini aks ettiruvchi muhim tarixiy asar ekanligi yuqoriga kelti rilgan mulohazalarimizdan ham ravshandir. XVII asrdan boshlab Ibn Arabshoh asarining turli tillarga (lotin, fransuz, turk, ingliz) tarjima qilinishi, sharq-u g'arbda qayta-qayta nashr etilishi, dunyoning tur li burchaklarida saqlanayotgan talaygina qo'lyozmalar mavjudligi, bular hammasi tasodifiy hol bo'lmay, balki asarning muhim tarixiy manba sifatida jahon miqyosida keng shuhrat taratganini ko'rsatadi. Darhaqiqat, Temur va uning avlodlari hukm yuritgan XIV asr oxiri va XV asr boshlaridagi Movarounnahr tarixini yoritishni «Ajoib al-maq dur»siz tasavvur qilish qiyin. Mana shu davrga oid boshqa tarixchilar tomonidan yaratilgan asarlar tanqidiy nuqtayi nazardan yozilgan Ibn Arabshoh asari bilan birgalikda o'rganilgan taqdirdagina mazkur dav hayotini to'la va har tomonlama chuqur yoritish mumkin. Zotan, Ibn Arabshoh asarida ba'zi forscha manbalarda kuzatiladigan hokimlar ni maqtab, ko'klarga ko'tarishdan asar ham bo'lmay, voqealar aksar o'rinlarda muallifning shaxsiy mushohadalari yoki o'sha voqealar ishtirokchilari va jonli guvohlarining so'zlariga asoslanib keltirilgan. O'rta Osiyo xalqlari hayotining qariyb yarim asrlik tarixidan so'zlov chi bu qimmatbaho asar maxsus o'rganilib, hanuzgacha Vatanimiz xalqlari tillaridan birortasiga ham tarjima qilinmagan. Garchi mash hur arabshunos akademik I. Yu. Krachkovskiy bundan yarim asr bu run «Ajoib al-maqdur»ni rus va sovet xalqlarining boshqa tillariga tarjima qilish zarurligini uqtirgan bo'lsa-da[161], afsuski, bu ish arab

[161] Английский перевод Истории Тимура, 296-bet.





...olimlar va manbashunoslar diqqatidan hanuzgacha chetda qolib keldi. Mazkur mulohozalarga e'tiboran qo'l ur... ...imiz «Ajoib al-maqdur»ning o'zbekcha tarjimasi va tadqiqoti foyd...dan xoli bo'lmas, degan umiddamiz.

### Tarjima va izohlardagi tartiblar haqida

Muhtaram o'quvchilar diqqatiga havola qili...nayotgan tarjima «Ajoib al-maqdur»ning 1305 xijriy yil muharram... (1887-yil dekabr) oyida Qohirada chop etilgan nashriga asoslanib bajarildi. Mazkur nashr tanqidiy bo'lmay, unda so'zboshi yo'q...ligi va bu haqda hech qanday tushuntirish keltirilmaganligi tuf...ayli uni (qanday qo'lyozmalar asosida nashr qilinganligini ani...lashning imkoni bo'lmadi. Biroq, nashr matnining to'laligi, mu...allif keyinchalik ma'lum darajada qo'shimcha kiritib to'latgan n...usxaga (yoki bir necha nusxalarga) asoslangan degan fikrga keli...shimizga dalildir. Chunonchi, tarjima jarayonida ushbu nashr mazku...r asarning Kohira Milliy kutubxonasida saqlanayotgan qo'lyozma...si bilan muqoyasa qilinib, matn ifodasi jihatidan bu ikkala nus...xa orasida aytarli tafovut sezilmasa ham, ammo ushbu nashrga aso...s bo'lgan keyingi tahrirlarga muallif kiritgan qo'shimchalar hisob...iga nashrning bir qadar to'laligi aniqlandi. Shuningdek, zarurat tug...ilganda «Ajoib al-maqdur»ning 1636-yilgi Ya. Golius nashri va 1...767–1772-yillarda chop etilgan S. G. Manger nashridan ham istifo...da etildi. Tarjima jarayonida asarning mavjud inglizcha (Sander...s) tarjimasi bilan solishtirilib, ba'zan undan ham foydalanilgan holda, tarjimada uchragan mazmunga aloqador ayrim xatolar haq...ida izohlarda qayd qilindi.

Asar hozirgi zamon o'zbek tiliga tarjima qilinib, umumiy iste'molda saqlanib qolgan, ayniqsa klassik adabiyotda ko'p uchraydigan, XV asr tiliga mos ayrim so'z va iboralarni saqlash maqsadga muvofiq topildi. Garchi muallif uslubi...ni to'la saqlashning imkoni bo'lmasa-da biroq, arabcha matndan ch...etga chiqilmasdan, to'liq mazmun saqlangan holda hech bir o'rind...a sukut bo'lishiga yo'l qo'ymaslikka harakat qilindi. «Ajoib a...l-maqdur» nasriy

saj' uslubida yozilib, ma'nodosh (sinonim) so'zlar qayta-qayta takrorlangani sababli, tarjimada ham shu xildagi so'zlarning to'l aks etishiga ahamiyat berildi. Nazmiy o'rinlarda ham mazmunning to'liq bo'lishiga e'tibor qilindi. Hijriy sana hisobida berilgan barcha tarixlar (yil, oy, kun) tarjima matnining o'zida milodiyga aylantirilib, kichik qavsga olinib keltirildi. Qur'on oyatlari va ulardan iqtiboslar I. Y. Krachkovskiy tomonidan bajarilgan ruscha tarjimasiga[162] moslashtirilib o'girildi va matnda qo'shtirnoq ichiga olinib, izohlarda sura va oyat raqamlari ko'rsatildi. Ma'lum darajada ilmiy ahamiyatga ega bo'lgan tarixiy voqealar, jug'rofiy va tarixiy nomlar, mashhur shaxslarga izohlar berilib, ular xususida bir qadar mufassalroq bayon qilindi. «Ajoib al-maqdur»da bayon etilgan voqealarni sharhlashda XV asr ayrim arab tarixchilari asarlaridan keltirilgan ma'lumotlardan ham muayyan darajada foydalandik. Ammo tadqiqotimizga oid u asarlardan faqat kichik-kichik qismlargagina egamiz[163]. Ushbu qismlar fotonusxasi Sharqshunoslik instituti fotokopiyalar va mikrofilmlar fondida mavjud bo'lib, quyidagilardan iboratdir:

1. Ibn Hajar al-Asqaloniy, Inba ul-g'umr.
2. Ibn Duqmoq, Iqd ul-javohir.
3. Badruddin al-Ayniy, Iqd ul-jumon.
4. Ibn Tag'riberdi, an-Nujum az-zohira.
5. Abbos al-Azzaviy, Tarix ul-Iroq bayn al-ihti lolayn.

«Ajoib al-maqdur»da ko'p uchraydigan har xil tarixiy voqealarga ishoratlar imkoniyat boricha sharhlanib, ba'zi istilohlar, iboralar va masallarga ham qisqacha izohlar berildi. Alohida izohni talab qilmaydigan so'zlar, iboralarga tushuntiruvchi, qisqa izohlar esa o'rta qavs ichida tarjima matnida keltirildi. Tarjima ravon va tushunarli bo'lmog'i uchun matniga biz kiritgan qo'shimcha so'zlar kichik qavs ichiga olingan holda berildi. Birdaniga ham nashr, ham

[162] Коран. Перевод и комментарии И. Ю. Крачковского (издание второе) Изд-во «Наука», Москва, 1986.

[163] Ixtiyorimizda Qohirada saqlanadigan ushbu qo'lyozmalarning mazkur qismlarigina mavjuddir.





qo'lyozmada uchragan kamdan kam xatolar imkoni boricha tuzatilib, xatolar haqida izohlarda qayd qilindi. Jug'rofiy nomlarni ifodalashda prof. H. Hasanov qo'llagan tartiblarga[164] tayanilib, shaxsiy ismlar bilan esa o'zbek tilidagi tarixiy adabiyotlarda qo'llaniladigan amaldagi qoidalarga[165] rioya qilindi.

Murakkab til va uslubda yozilgan «Ajoib al-maqdur»ni o'zbek tiliga ag'darishda amaliy yordam ko'rsatgan marhum ustozim, filologiya fanlari nomzodi Abdufattoh Rasulevning tabarruk nomlarini minnatdorchilik tuyg'usi bilan eslashni shogirdlik burchim deb hisoblayman. Shuningdek, asarni nashrga tayyorlashda qimmatli maslahatlar bergan tarix fanlari doktori Asomuddin O'rinboev, Ibn Arabshoh asarining Qohirada saqlanayotgan qo'lyozmasi mikrofilmini lutfan taqdim qilgan tarix fanlari nomzodi Abduljon Hasanovga o'z tashakkurimni bildiraman.

*U. Uvatov*

[164] H. Hasanov. Geografik nomlar imlosi: O'rta Osiyo joy nomlari tarixidan. Toshkent, «Fan», 1965-yil.

[165] Ma'lum darajada arabshunos olim H. Hikmatullayev («Yozma yodgorliklarni yozish qoidalariga doir», «O'zbek tili va adabiyoti» jurnali, 1966-yil, № 6) tavsiyalaridan istifoda [illegible].

## Rahmli va mehribon Alloh nomi bilan!

Allohga shukurlar bo'lsin! Uning iroda-yu tadbiriga muvofiq (b… dunyo) uzuq ishlari ulanib, asrlar-u davronlar selobi uning qazo… manbayidan qadari girdobgacha oqgusidir. Alloh odamzotdan «qa… birlari amalda yaxshiroq ekanini sinamoq uchun ularga ba'zi bir azo… va qiyinchiliklarni tattirdi. U aziz va afv etguvchidir»[1].

U hijratning sakkizinchi asrida ular (odamzot) ustiga alg'ov… dalg'ovlar dengizini yubordiki, u zimiston kechadan bir parcha kal… (paydo) bo'lib, (odamlarga tomon) yuzlandi. Buning nima ekanligin… hech kimsa fahm etolmasdi. U Temur bo'lib chiqdi[2].

Bu ishlar olovi jari yoqasida bo'lgan kishi hamdi bilan tangriga ham… dlar aytaman, chunki u o'sha kishini uning olovidan qutqargan edi»… O'z adolatliligi tufayli musibatga duchor bo'lgan kishi sifatida tangrig… shukurlar aytaman, chunki tangrining marhamatli qo'llari uni bu musi… batdan xalos qildi. Men adolatli hukm yurituvchi xudodan boshqa xud… yo'q deb guvohlik beraman, chunki u qiyomat kuni zolimdan mazlum… ga qasos olib beruvchidir. (Bizning) sayyidimiz Muhammad (s. a. v.) tangrining bandasi va elchisi (ekan) ligiga shahodat keltiraman, tangr… uni barcha olamga rahmat tariqasida yuborgan. (Tangri) uni o'zining elchisi va «payg'ambarlar muhri»[4] qilgan va unga xudoning salomi va rahmatlari yog'ilsin, pinhoniy sirini ochib, azalda nimalar bo'lganin… va «to qiyomat kunigacha»[5] nimalar bo'lajagini xabar bergan. (Yana payg'ambar) qarz ko'payishidan, kishilar qahridan, tiriklikdagi va o'lim oldidagi fitnadan hamda al-Masih ad-dajjol[6] vasvasasidan (xu… dodan) panoh tilagan. Tangri Muhammad(s. a. v.)ga kitoblar va tarix… lar avvallarida o'tkir (hidli) mushk taratadigan o'z rahmatini yubors… in. Bu rahmat qiyomat kuni[7] o'z so'zlovchisiga eng baland shohdag… xayr-u ehson samaralarini yaqin keltiruvchidir. Muhammad (s. a. v.) nasl-nasablariga uning sahobalariga ham salovat bo'lsin, chunki ular barcha iqlimlarga fath sellarini toshirib, u iqlimlarni allohning mar… hamatiga serob qilganlar, islom ruknlarini mustahkamlaganlar, yerni iymon bilan mavj urdirganlar va u (er)ni adlu ehson bilan obod qilib…





…laridan avval obod qilganlardan ko'ra ham yashnatib yuborgan-…[8]. Tangri payg'ambarga o'z rahmatini benihoya va abadiy qilg'ay!

Hamdu sanodan keyin, garchi tarixlarda ibrat oluvchilar uchun …, mulohaza yurituvchilar uchun fikrlash, bu dunyoda yashovchi …larning safar ustida turgandek (omonat)ligi xabari va tuproqqa …langan kishining nimalarga qodir bo'lgani-yu, nimalar qila olgani, …larni) nimadan qaytarib nimalarga buyurgani, nimalar bino … nimalar qurgani, kimlarni aldab, kimlarga xiyonat qilgani, kim… ustidan g'alaba ko'rsatib, kimlarga qahrini sochgani, kimlarga shi… yetkazib kimlarning (shikastini) butlagani, nimalarni jam' qilib, nimalarni g'amlagani, qanchalik kibrlanib, qanday faxrlangani, qan… qo'pollik qilib, badmuomala bo'lgani, nimalardan kulib, nima… sevingani, ibrat qo'llari[9] biryoqlik qilgunga qadar bolaligidan … alg'aygungacha o'z atvorida qanchalar beqaror bo'lgani va o'zini … xavf-xatarsiz deb bilgan bir vaqtda qazo va qadar changal… uni qanday qilib yulib ketgani, nihoyat uning farovon (bo'lgan) hayoti qudratga qorishib, hatto undan (hayotning) achchiq-chuchuk… yiroqlashib g'am-g'ussaga botgandagi ahvoli ne kechishi yaqqol …moyon-haqiqatda shu (narsa)larda ibrat oladigan kishi uchun ibrat, mulohazali kishi uchun eslatma, ko'ruvchi kishi uchun ko'rgazma …laturib yuz bergan ajib savdolardan biri, balki balolarning eng kat… shu alg'ov-dalg'ov bo'ldiki, unda idrokli kishi hayratda qolib, aqlli kishi uning qorong'u zulmatida dahshatga tushadi, halim (kishi) devona, aziz (kishi) xor, saxiy (kishi) pastkash bo'ladi. (Bu) sharq-u g'arbda g'ulg'ulani oyoqqa turg'azgan fosiqlar boshlig'i, dajjol oqsoq Temur qissasidir. Bevafo dunyo Temurga (tomon) boqdi, u hokimi-yatga egalik qilib, yer yuzida yelib-yugurdi, dunyoni alg'ov-dalg'ov-ga to'ldirib, ekin-tikin va naslni halok etdi. Temur avvalo pok yerni o'z hukmiga bo'ysundirib, tuproqdan tayammum qildi, so'ng shuhrat-li ulug' kishilarni[10] tug'yon qilichidan o'tkazib, ular qonidan g'usl qilib, shu tariqa o'zini tozaladi.

Men bu qissadan o'zim ko'rganlarimni eslab, bu to'g'rida bosh-qalardan rivoyat topganlarimni bayon qilishni irodat etdim, chunki bu (ish) katta voqealarning biri, ibratli hodisalarning onasi bo'ldi

va shunday bir ishlarki, uni shu qadar vasf qilgan bilan taqdir ro bo'lmaydi.

(Bu voqealarni bayon qilishda) menga rostgo'ylikni ato qilish va haqiqat yo'lida javlon urishimda ilhom baxsh etishni tangrida so'rayman. Albatta, tilakka yetkazuvchi va maqsad o'qini nishong bexato yo'llovchi tangrining o'zidir.

(Bu yo'lda) tangri «men uchun eng sodiq va g'oyatda yaxsh yo'lboshchidir»[11].

## Temurning nasabi va uning mamlakatlarni birin-ketin zabt etishi va buning boislari haqidagi bo'lim

Temurning ismi yozilishi (ustida ikki og'iz so'z): ustida ikk nuqtali va kasrali «T», sukunli «Y» tagida ikki nuqtasi bilan; o'rtas da dammali «U» bo'lgan «mim» bilan nuqtasiz «R» dan iborat. Bu uning ismining to'g'ri yozilishi va til qoidalariga asosan qurilishidir Lekin arab tilining xossasi o'z (so'z) tuzilishidagi vaznlariga asosan ajam[12] so'zlari sharini yumalatib, o'z tili maydonida istagan tomo niga qarab yuritadi. Shu sababdan uni ba'zan «Tamur», ba'zan «Ta murlang» deb tilga oladilar[13]. Bu (holat) uchun (odamlarni) koyish va gunohkor qilish kerak emas. Bu, turkcha «temir» demakdir.

Temur ibn Tarag'ay ibn Abag'ay[14] bo'lib, uning tug'ilgan joy Xo'ja Ilg'or[15] deb ataladigan qishloqdir. Xo'ja Ilg'or Keshga[16] qa rashli joylardandir – Alloh u yerdan har qanday yomonlikni daf etsin!

Kesh Movarounnahr[17] shaharlaridan (biri) bo'lib, Samarqanddan taxminan o'n uch farsax[17] (masofa)dadir. Hikoya qiladilarki, (Temur) tug'ilgan kechasi havoda qandaydir uchib yurgan temir qalpoqcha- ga o'xshash bir narsa paydo bo'lgan. Keyin u keng bo'shliqqa tarqa- lib, yer yuziga yoyilib ketgan emish. Undagi cho'g' va uchqunga o'xshash narsalar har tomonga sachragan va uyilib, hatto o'troq va badaviy joylarni ham to'ldirib yuborgan emish. Yana aytishlaricha, Temur tug'ilganda uning qo'llari yangi qonga bo'yalgan ekan. Bu ahvol tavsiri folbinlar va azayimxonlardan, karomat ko'rsatuvchi jo- dugar-u kohinlardan so'ralganda, ulardan ba'zilari: «u shurta[19] bo'la- di», boshqalari «U o'g'ri va yo'lto'sar bo'lib ulg'ayadi» desa, yana bir





guruhi «yo'q, u qassob va qonxo'r bo'ladi» debdi, yana bir xillari esa «yo'q, undan jallod va kallakesar chiqadi», debdilar. Bu so'zlar uning ishlari Temur kelib yetishgan narsasiga yetishmaguncha birbirini qo'llab-quvvatlayverdilar.

(Yana aytishlaricha), Temur va uning otasi baqiroq cho'ponlar- dan bo'lib, na aqli-yu na dini bo'lmagan avom kishilar toifasidan ekan. Yana aytadilarki, u mulozim odamlardan, past tabaqa tanballar- dan bo'lgan. Ularning panohgohi Movarounnahr bo'lib, o'sha atrof- lar esa qishlov joylari bo'lgan. Yana aytishlaricha, Temurning otasi benihoya faqir etikdo'z, o'zi esa puxta va keskin bir o'spirin bo'lgan. Lekin (oiladagi) yetishmovchilik to'fayli u noxush ishlar bilan kun kechirib, shu «o'rtanish» sababidan g'azablanar va ich-ichidan ku- yinar ekan. Kechalarning birida u bir qo'yni o'g'irladi va uni orqa- siga o'ngarib oldi. Shunda cho'pon kamon o'qi bilan uni yelkasidan urib yaraladi va yana bir o'q bilan uni sonidan jarohatlab, holdan toyg'izdi. Natijada, faqirligiga mayiblik, alamiga razillik qo'shilib, qabohati (avvalgidan ham) oshib fasodga intilib, bandalaru o'lkalarga qarshi adovati kuchaydi[20]. Bu borada u o'ziga o'xshashlar-u tengqur- lar izladi va rahmdil tangri zikridan yuz o'girdi. Alloh unga Abbos, Jahonshoh, Qumori, Sulaymonshoh, Idiku Temur, Joku va Sayfud- dinga[21] o'xshash qirq chog'li na dunyosiyu, na diyonati bo'lmagan tengqur gumashtalarni yubordi. Qo'li qisqaligiga, adadi va udadi[22] ozligiga, vujudi va ahvoli zaifligiga, boyligi-yu odamlari yo'qligiga qaramasdan Temur ularga: «Men hokimiyatga talabgorman va dunyo podshohlarini halokat buloqlariga keltiruvchiman», deyar edi. Ular esa Temurning bu so'zlarini bir-birlariga naql qilishib, buni katta ahmoqatga va aqlsizlikka yo'yardilar. Uni masxara qilib kulish uchun oldiga kelib, o'zlarini Temurga yaqin tutardilar. She'r:

> Agar taqdir madad bersa.
> Zaif (kimsa) kuchlidan ustun kelur.

Keyin Temur o'zi qasd qilgan (ish)ga kirishdi. Qazo unga murshid bo'lib, qadar unga nashida etdi:

Shon-shuhratning uzoqligi unga yetishishdan seni noumid qilma sin, chunki u (shon-shuhrat) ning peshma-peshligi-yu mashqi bor. Se ulug'vorligini ko'rib turgan kanap quvurma-quvur ko'tarilib o'sib bo raveradi.

Kesh shahrida Shamsuddin al-Foxuriy[23] ismli bir shayx bor edi. U o'sha yerlar (xalqi) e'tiqod qo'ygan kishi bo'lib, barcha o'z ning diniy va dunyoviy ishlarida nimaiki narsaga bel bog'lasa, ung e'timod qilardi. Zikr qilishlaricha, Temur faqir va ojiz bo'lib, u xayo liy (mavhum) ulug'vorlik va batamom qashshoqlik oralig'ida turgan da uning paxtalik kiyimidan bo'lak hech narsasi bo'lmagan. U o'sh (yagona kiyimini ham sotib (yuborib) puliga bir bosh echki xarid qild va o'z maqsadiga yetishishga tayangan holda, zikr qilingan shayxning huzuriga yo'l oldi. U arqonning bir uchini echkining bo'yniga, ikki chi uchini o'z bo'yniga bog'lab, xurmo shoxidan yasalgan hassag tayanib (shayxga) yuzlandi. Temur ushbu foydali shayxning huzur ga kirganida u o'zining muridu muxlislari bilan chuqur fikrga tolga holda Allohning zikri bilan band edi. Ular o'zlariga kelib zikr-samo laridan to'xtagunlaricha Temur tik turaverdi. Shayxning nazari o'zi tushishi bilan Temur uning qo'llarini o'pishga shoshildi va oyog'i bosh urdi. Shayx bir dam o'ylab turgach, boshini ko'tarib o'z ja moasiga qarab: «Bu odam go'yo izzatu irzini va boyligini fido qilib tangri-taolo nazdida pashshaning qanotiga ham arzimaydigan nars uchun bizdan madad tilab kelibdi. Biz unga madad berishimiz, u dan (uni) mahrum etib rad qilmasligimiz lozim. Ey jamoat! Siz unin haqiga duo qilib, istagan murodiga yetishi uchun (unga) madad beri giz!» – dedi. Natijada, uning qissasi ham Saalaba bilan sodir bo'lga voqeaga o'xshab ketdi[24].

Temur shayxning huzuridan qaytib chiqdi va avvaliga oqsaga dan keyin yetishgan narsasiga yetishmaguncha (darajasi) to'xtovs ko'tarilaverdi.

Hikoya qilishlaricha, o'z tug'yonlarining birida, go'yo (avvalda o'z ma'no va xulq-atvorida adashgan kabi Temur rostakam yo'lida (ham) adashib, oz bo'lmasa ochlik va tashnalikdan o'layozdi. Sh ahvolda bir hafta yurganidan keyin, sultonning[25] otlariga duch kel





qildi. Otboqar[26] uni lutfu ehson bilan qarshi oldi. Temur otlarning ishqi xususiyat va belgilariga qarab, bir qarashdanoq ularning zotdor yoki zotsiz (ekanli)ligini aniqlay oladigan kishilar jo'mlasidan edi. Otboqar Temurning bu san'atini sezib undan bu xislatni o'rgandi va unga (rag'bati) yanada ortdi va uni o'zi bilan birga otboqarlik qilishini so'radi. So'ngra sulton so'ratgan otlar bilan uni sultonning huzuriga jo'natdi va sultonga Temurning fazilatini va o'zi shohidi bo'lgan fazilatini xabar qildi. Sulton Temurga in'om-ehson qildi va unga (shohida) e'tibor berishni tayinlab, Temurni otboqar yoniga qaytardi. Oradan ko'p o'tmay otboqar vafot etib, (uning) vazifasini Temur egalladi. Sulton nazarida obru-e'tibori tobora o'sib borgan Temur nihoyat uning singlisiga uylandi. (Kunlardan birida) Temur o'zining xatti-harakatlari va gapirgan gaplari bilan xotinining g'azabini keltirdi. Shunda xotin Temurning ilgarigi ishlari-yu ahvolini yuziga solib ta'na qildi. Temur qilichini sug'urdi va xotini o'zidan qochadi deb o'ylagan holda uning tomoniga tashlandi. Lekin xotini unga e'tibor ham bermadi, burilib ham qaramadi. Shunda Temur bir zarb bilan uning nafasini o'chirib, qabrga joylashtirdi[27]. Temur uchun endi xuruj va isyon, qaysarlik va tug'yon qilishdan boshqa chora qolmadiki, uning (bu) ishlaridan bo'lgan voqealar yuz berdi.

Bu sultonning ismi Husayn edi. U podshohlar zotidan[28] bo'lib, bir so'zli (keskin) kishi edi[29]. U podshohligining taxti[30] Balx[31] shahri bo'lib, u Xurosonning[32] eng uzoq shaharlaridan (biri) edi. Lekin bu sulton amrlarining dengizlari Movarounnahr yerlarida, to Turkiston[33] sarhadlarigacha ham joriy edi.

Yana aytishlaricha, Temurning otasi zikr qilingan sulton huzurida yuzboshi[34] bo'lib, botirligi va oliyjanobligi bilan o'z tengqurlari orasida mashhur edi. Agar falak gardishining aylanishi, taqdir va ahvolning o'zgarib turishini nazarga olinsa, ushbu (aytilgan) so'zlarni (bir biriga) jamlash mumkin. Ammo eng to'g'risi shuki, Temurning nasl zikr qilingan Tarag'ay sulton[35] davlatining arkonlaridan biri edi. «Men sal-Muntaxab»[36] deb ataladigan forscha bir tarixning zaylida ko'rdimki, – bu tarix dunyoning boshlanishidan to Temur davrigacha (bo'lgan voqealarni o'z ichiga olgan) bo'lib ajib bir narsadir-nasabi

jihatidan shayton sirtmoqlari (bo'lgan) xotinlar tomonidan[37] Tem
Chingizxonga bog'lanadi. Temur Movarounnahrni egallab, o'z raqi
laridan ustun chiqqach, xonlarning[38] qizlariga uylandi. Natijada, uni
laqablari ustiga «ko'ragon» so'zini qo'shdilar. Bu (so'z) mo'g'ul t
lida «xatan» (xon kuyovi)[39] demakdir. Bu, uning xonlar bilan qudal
shib, ularning uylarida yashash va harakatda bemalol tasarruf yuri
ganligi sababidan edi.

Mazkur sultonning to'rt vaziri bo'lib; (mamlakatning) foydali-y
zararli ishlari ularning zimmasida edi. Ular mamlakatning (ko'zg
ko'ringan) a'yonlari hisoblanib, boshqa har bir kimsa ular fikrlari
iqtido etardi. Arablarda qancha bo'lsa turklarda ham qariyb shuncha
lik qabila va guruhlar bordir. O'sha vazirlardan har qaysisi[40] bir qab
laga mansub bo'lib, o'z fikr chirog'i bilan u qabila uylarini yorituvch
bir uzun pilik misoli edi. Ulardan birining qabilasi orlot, ikkinch
siniki jaloyir, uchinchisiniki qovchin, to'rtinchisiniki barlos deb at
lardi. Temur to'rtinchi qabila o'g'loni edi. U yoshligidan aqlli, ochi
ko'ngil, jur'atli, qat'iy kuchli va qobiliyatli bo'lib o'sib, tengqurlari
vazirlarning o'g'illari bilan suhbat qurar va amirlarning o'g'illarida
o'ziga o'xshashlar bilan vaqtini o'tkazardi. Nihoyat, kechalarning
birida Temur ularga (shunday) dedi: – ular xilvat bir joyda to'planish
gan bo'lib, ishrat va xursandchilikka sho'ng'igan o'rtalaridagi siru as
rorlar pardasi ko'tarilib, aysh-u safo bisoti to'shalgan edi. – «Mening
buvim falonchi, – u folbin va kohinlardan edi, – bir tush ko'rib, bu
tushi unga shirin xayollar baxsh etmagan[41]. U tushini ta'bir qilgani
da (shu narsalar ayon bo'lgan): uning bolalari va nabiralari orasidan
biror kimsa chiqib mamlakatga egalik qiladi, odamlarni bo'ysundi
rib sohibqiron[42] bo'ladi va uning oldida zamona podshohlari bo'yin
egadi. Ana o'sha (kimsa) men bo'laman. Mana shu fursat yaqin kel
di. Sizlar menga yordamchi va madadkor, men uchun tayanch va
suyanch bo'lishga ahd qilinglar va mendan abadul-abad yuz o'gir
maslikka ont ichinglar», – dedi. Tengdoshlari Temur da'vatiga rozi
bo'ldilar hamda xursandchiligu g'amginlikda u bilan (birga) bo'lib,
unga qarshi turmaslikka o'zaro qasamyod qildilar. Ular har doim va
har joyda bu kalom atrofida gap yuritdilar va har bir shahar[43] va qish
loq[44] ahli Temur chaqmog'iga o'rganmaguncha uning hovuzi suvini





... tortinmay va sir tutmay baralla gapirib toshirdilarki, hatto
... iborat eskidan oldiqochdi gap qilib yuradigan har bir
... Temur haqidagi suhbatga sho'ng'idi. Sulton buni sezib[45],
... daraxtida (Temurning) xilof novdasi ko'ringanligini
... Temurning hiylasini uning o'z bo'g'ziga (qarshi) qara-
... dunyoni[46] uning yomonligidan, bandalaru yurtlarini uning or va
... qutqarib, ushbu aytilgan (bayt)ga muvofiq ish tutmoqchi
...

Oliy sharaf aziyatdan xalos bo'lmaydi,
Toki uning atroflarida qon to'kilmaguncha[47].

Bu haqda (samimiy) nasihatgo'ylardan biri Temurga xabar yetkaz-
... u xuruj qildi va isyon qa'riga qarab yiqildi-yu, lekin sog'-sa-
... qolib martabasi) ko'tarilaverdi. Ehtimol, Temur shu orada va
... holatlar asnosida (avval) ishora qilingan shayx Shamsuddin-
... va zikr qilinganidek, istagan murodi xususida shayxdan
... tilagandir. Chunki Temur doimo: – «Saltanatdan erishgan
... narsam va mustahkam makonlarni fath qilishim – bular ham-
... shayx Shamsuddin al-Fohuriyning duosi, Shayx Zaynuddin
... Xavofiyning[48] himmati tufayli va barcha topgan barakatlarim esa
... Sayyid Baraka[49] yordamida bo'lgan», – deyar edi. Zaynuddin
... Barakaning zikri keyinroq keladi. Shuningdek Temur: «Baxtu sao-
... va mol-u mulk eshiklarining menga ochilishi, fath qilingan dunyo
... kelinchaklarining menga kulib boqishi faqatgina Sajiston[50] o'qlari sa-
... bo'ldi. O'sha vaqtdan, ya'ni u o'qlar meni noqis etganlaridan
... to hozirgi vaqtga qadar men faqat ziyoda bo'lishda davom eta-
...», – deyar edi.

Aftidan, Temur ishining boshlanishi va uning o'sha guruhga bosh
bo'lib xuruj qilishi yetti yuzinchi yilning oltmishinchi va yetmishin-
chi (1358–1368) yillari oralig'ida bo'lgan. Mening ustozim bilimdon
va serg'ayrat imom, komil-u fozil, davrining benaziri, asrining yak-
ka-yu yagonasi, insoniyat allomasi, dunyoning ustozi, din-u diyonat-
ning cho'qqisi, muhaqqiq va mudaqqiqlar shayxi, o'z zamonasining
qutbi, davrlarning murshidi, Damashqda yashovchi Abu Abdulloh
Muhammad ibn Muhammad, ibn Muhammad al-Buxoriy[51] – tangri

taolo uning umrini uzoq qilsin! va u islom va musulmonlar (duny ga o'z saodatli barakatlari bilan madad bersin! – 836 (1433) yil onlarida menga aytishicha, Temur mazkur sulton Husaynni 771 ning sha'bon oyida (28-fevral – 29-mart 1370-yil) o'ldirgan[52] va o' vaqtdan boshlab mustaqil ravishda hokimiyatga egalik qilib, keyin eslatib o'tilajagidek, 807-yilning sha'bon (1405-yil, fevral) oyida fot etdi. Uning xurujini va hokimiyatni qo'lga olguncha o'z atrof to'dalar to'plagan vaqtini xorj tutilsa, Temur mustaqil ravishda o' olti[53] yil hukm yuritgan.

Temur xurujga kirishgach, o'z hamrohlari bilan Movarounn yerlarini qatag'on yuritib, aholiga adovat va qahr bilan muom qila boshladi. Shunda har bir ko'chmanchi va o'troq (aholi) ul daf qilishga qo'zg'alib, ushbu uylaru joylarni ular uchun tor qil siqib qo'ydilar. Shu sababli Temur va uning sheriklari Jayhunni ko o'tdilar va u yerlar ulardan forig' bo'ldi[54]. Keyin ular Xuroson y larida, xususan, Sajiston atroflarida nohaq ishlar bilan shug'ullan lar. Ularning Xuroson dashtlarida[55], Bovard[56] va Moxon[57] sahrolar qanday ishlar qilganliklarini so'ramayoq qo'yaqol.

Shu orada, kechalarning birida ular yurish qilganida ochlik qa rab, ochlikdan oralarida alanga ko'tarilgan edi. Shunda Temur Saj ton hovlilaridan biriga kirib, unda cho'ponlardan qay biri o'z ota bilan tunayotgan edi–bir qo'yni orqalab qochdi. Cho'pon buni sezi ko'rib qoldi va shu on Temurning orqasidan quvlab unga (kamonida ikki o'q uzdi: o'qlardan biri Temurning soniga, ikkinchisi esa kifti tegdi[58]. U Allohning madadida ushbu to'g'ri zarbi bilan Temurnin yarim (tanas)ini ishdan chiqargan. Keyin cho'pon uni ushlab orqasi ko'tarib, Malik Husayn[59] deb ataladigan Hirot sultoni huzuriga ol bordi. Sulton Temurni urdirganidan keyin uni salb etishni buyurd Sultonning fikri betayinroq bir o'g'li bo'lib, uning ismi Malik G' yosuddin[60] edi. U otasidan Temurga shafqat qilishini, uni bir qoshi qonidan kechishini o'tinib so'radi. Sulton o'g'liga: «Sendan chiqa yotgan bu ish aqling rasoligini ko'rsatmaydi, na nasabing tozaligidan va tole'ligingdan dalolat bermaydi. Axir bu chig'atoy, yomonlikla maddasi bo'lgan kimsadir. Agar u tirik qolsa, albatta odamlaru mam





halok etadi» – dedi. O'g'li otasiga: «Yarim tanasidan kulfatga uchragan odamning qo'lidan nima ish ham kelar-di, yo'qki, uning ajali yaqinlashgan, uning o'limiga zomin nima darkor», – deb e'tiroz bildirdi. Natijada, Malik Husayn Temurni tortiq qildi. G'iyosuddin Temurga qaraydigan ki-... yaralari bitib, jarohatlari tuzalguncha davolattirdi. Keyin ... Hirot sultoni o'g'li xizmatida bo'lib, uning eng dono xizmat-... va eng ishonchli yordamchilaridan biri bo'lib qoldi. G'iyo-... huzurida uning hurmati ortib, darajasi oshdi va so'zlari inobat-... boshladi. Shu orada sulton noiblaridan biri – Sajiston hokimi ... qarshi isyon ko'tardi. Sulton Temurni chaqirib, isyonchiga ... otlanishini so'ragach, Temur rozi bo'ldi va sulton unga tayanib ... yordamchilar qo'shdi. Temur Sajistonga yetib borib isyonda ... ko'rsatgan noibni qo'lga tushirdi va u joylar mol-dunyosini ... xolis qilib oldi. Itoat bildirgan qo'shinlarini ham olib isyon ... baralla tilovat qildi va o'zi bilan birga bo'lganlar ila Mo-... nahrga qarab yo'l oldi.

Yana aytishlaricha, Temur G'iyosuddinning otasi hayot bilan vi-... (bu dunyodan) o'tguncha va o'g'li uning o'rnini egallab, ... mustaqil qaror topguncha sulton o'g'li (G'nyosuddin) ... xizmatida bo'lgan va shu orada u Movarounnahrga qochib ket-... Shu paytda uning beli-yu boshi kuchayib, gumashtalari atrofi-... to'planishgan, uning tarafiga o'tgan guruhlar va do'stu birodar-... unga qo'shilishgan edi. G'iyosuddin ularning orqasidan qo'shin ... yetmoqchi va musulmonlarni ularning kulfatlar-u tug'yoni-... qutqazmoqchi bo'ldi. Hayhot! «Qilich malomatdan o'zib ket-...»[62], «yoz kuni sut achib qolgan» edi![63].

### Temurning shoshilinch Jayhundan o'tishi va bunda qanchadan qancha ko'z yoshlari to'kilgani bayoni

Temur va uning jamoasi Jayhunga yetib keldilar. Daryoning ham ... o'xshash tug'yoni tutgan mahali edi. Ularning imillab harakat qilishga fursatlari yo'q, chunki dushman orqalaridan quvlab kelmoq-da edi. Shunda Temur o'z hamrohlariga:

– Qutulishning yagona yo'li: har bir kimsa o'z otining yugan[illegible] va yoliga osilib o'zini suvga tashlasin, – dedi. Ular qirg'oqning n[illegible] gi betidagi qandaydir bir joyda uchrashishga o'zaro va'dalashdi[illegible] – Hech bir imillamasdan harakat qilinglar. Agar kimda-kim va'da [illegible] lingan joyga yetnb kelmasa, demak, u yo'qoldi hisob.

Shundan so'ng Temur odamlari otlari bilan birga hayqirib-pi[illegible] qirib to'lib-toshib mavjlanayotgan oqimga urib, o'zini shamga ur[illegible] parvonadek suvga tashladilar. Ulardan biri ikkinchisining, oldin k[illegible] gan keyingisining holi ne kechganini bilmadi. Ular boshlaridan o'[illegible] dahshatini kechirib qo'rqinchli halokat shohidi bo'ldilar. Shunga q[illegible] ramay, birontasi ham talafot ko'rmay qutulib qoldi va o'sha va'[illegible] lashilgan joyga to'plandilar. Bu, o'sha yerlar ulardan tinchib har [illegible] kelib-ketuvchi o'z yo'lida xotirjam bo'lgandan keyin sodir bo'l[illegible] edi. So'ngra ular so'rab-surishtirib (yangi) xabarlar to'plab, iz qu[illegible] boshladilar. Ular tangri va uning payg'ambariga muhoraba boshl[illegible] (xudoning) bandalariga aziyat yetkazib yo'llarini to'sa boshladi[illegible] Ular Qarshi shahriga yetmagunlaricha[64] shu zayilda ish tutaverdila[illegible]

**Qarshiga kirish vaqtida Temur boshidan kechirgan zarba[66] va uning bu tanglikdan qutulishi bayoni**

Kunlarning birida Temur o'z hamrohlariga (bu payt qismat u [illegible] unga o'xshashlardan zarar ko'rib, fasod yeri ular «hosillar»idan bal[illegible] olib yashnagan edi):

– Bizning yaqinimizda xudoning rahmati yog'ilgur Abu Tur[illegible] al-Nahshabiyning[67] shahri Naxshab[68] shahri bor. Bu shahar qo'riql[illegible] nib, u baland devorlar ichida yashiringandir. Agar biz bu (shaha[illegible] ni egallasak, u bizga tayanch, mudofaa joyi, boshpana va panohg[illegible] bo'ladi. Shaharning hokimi Muso (degan kishi) bo'lib, agar biz u[illegible] qo'lga tushirsak, mol-u mulkini olamiz va o'zini o'ldiramiz. D[illegible] haqiqat, uning boyliklari, otlari va qurol-aslahalari bizga kuch-quvv[illegible] bo'ladi. Natijada, shiddatdan so'ng bizga shod-xurramlik keladi. M[illegible] shaharga suv o'tadigan tarnov orqali kiriladigan yo'lni bilaman. B[illegible] yo'l o'tishga juda qulay bo'lib, keng va kattadir, – dedi.





Temur odamlari etaklarini shimardilar va (noma'lum) bir joyda otlarini qoldirdilar hamda o'z murodlariga yetmoq uchun tun (qorong'isi)dan foydalandilar. Ular shahar suv yo'liga kirib, amirning [illegible] mo'ljallab yurdilar. Keyin qo'llarini ko'targanlarida o'z (odam)larining qo'llari-yu, hovuzga duch keldilar. Amir (esa) shahar tashqarisidagi bog'da edi. Ular uning qurol-aslaha va anjomlaridan qo'lga [illegible] oldilar, otlarini minib, uning odamlari-yu akobirlaridan [illegible]larini o'ldirdilar. Ularga qarshi shahar ahli to'planib, (bu [illegible]) amirga xabar yubordilar. Natijada, madad bilan amir yetib keldi. Oqibatda Temur odamlari ustiga ochiq-oydin va yashirin (har [illegible]) balo yog'ildiki, ular g'oliblarga taslim bo'lishdan boshqa [illegible] topolmadilar. Temurning hamrohlari unga:

– Bu majoz[69] bilan biz o'zimizni o'zimiz haqiqiy[70] halokatga tashladik, – dedilar.

Temur dedi: «Sizning hech (bir) aybingiz yo'q, chunki mana shunday janglarda er kishi imtihon qilinib, sinaladi. «Butun hiyla-firibingizni jamlanglar, keyin saf bo'lib kelinglar[71]» va shahar darvozalari tomon go'yo bir kishidek bo'lib tashlanib, fursatni qo'ldan bermay, hech bir ikkilanmasdan dushmanni yanchinglar. O'ylaymanki, hech narsa sizga bardosh qilolmaydi va biror (tirik) jon sizning oldingizda turish bera olmaydi».

Temur odamlari uning amriga amal qildilar va ovozlari boricha hayqirishib shahar darvozasi tomon tashlanib, o'lim girdobiga sho'ng'idilar va sherdek bo'lib dushman askarlari ustiga hujumga yopirildilar va chelaklab quyayotgan yomg'irdek, balki undan ham ortiq darajada ular ustiga quydilar va shahar darvozasini ochishda g'alabaga erishdilar, chunki bu ishni – sabablarining (birinchi) sababchisi (tangri) – irodat qildi. Ularning oldida hech bir kishi boshqa kishiga qaramadi, adadlari va aslaha-anjomlari ko'pligi ularga foyda bermadi.

So'ngra ular (Temur odamlari) o'z joylariga sog'-salomat qaytdilar va hamishagidek o'z ishlarini davom ettirdilar. Ular atrofiga do'stlari yig'ilib fasoddagi sheriklari (ham) ularga qo'shildi. G'azabli ahllardan yana bir guruhining ularga qo'shilishi natijasida[72] ularning soni uch yuz kishiga yetdi. Sulton hech bir e'tibor bermay ularga

qarshi arzimas qo'shin yubordi. Ular qo'shinni tor-mor keltirdilar ... qo'rg'onlardan birini egallab, uni o'zlari qo'lga kiritgan (narsa)lar... saqlaydigan qo'rg'onga aylantirdilar[73].

Men dedim:

Dushman imkoni-yu hiylasini kamsitma,
Chunki ko'pincha tulki sherdan g'olib kelgan.

Yana aytganlar:

Pashsha sher bo'g'izidan [74] qon chiqaradi.

Yana boshqalar aytganlar:

(Shaxmatda) ko'pincha shoh piyodadan yengiladi.

**Temur asoratiga kimlar asir olingani va u atrof hur podshohlaridan kimlarni bo'ysundirgani bayoni**

(Keyin) Temur Badaxshon[75] hokimlariga maktub yubordi. Unin... hokimi ikki aka-uka bo'lib, ular hukmronlikni otasidan meros oli... mustaqil edilar. So'ngra sulton Husayn hokimiyatni ularning qo'lida... tortib olgan va ularni o'z amri ostida bo'lishlarini shartlashib, u yerd... (ularni) hokim qilib qo'ygan, bolalarini esa o'z huzuriga garovga ol... gan edi. Natijada, ular sulton Husayn qahriga asir bo'lib qolgan edilar... Temur maktub yuborib, o'z itoatiga chorlaganda ular rozi bo'ldilar va uning amri ostiga o'tdilar.

**Mo'g'ullarning Sultonga qarshi qo'zg'olishi va qanday qilib uning (hukmi) ruknlarining bo'shagani bayoni**

Shuningdek, sulton Husaynga qarshi sharq tomondan mo'g'ullar qo'zg'aldi[76]. U mo'g'ullarga qarshi tayyorgarlik ko'rib Jayhundan o'tdi va ikki tomon o'rtasida jang bo'lib, sulton yengildi. Shu paytda Temur mo'g'ullarga ham xat yubordi. Ular hokimining ismi Qamarud-dinxon[77] edi. Mo'g'ullar Temur irodasiga bo'ysunib, uning tilagiga amal qildilar. Sulton yerlarini uning qo'lidan xolis olishi uchun va uning (sulton) ustidan hukm yuritishini mo'g'ullar Temurga topshir-dilar va u bilan qudachilik qilishga hamda unga har tomonlama ma-





...va'da qildilar[78]. Mo'g'ullar hukmronlik jilovini unga ...laridan keyin o'z yerlariga qaytdilar. Natijada bu bilan ...shavkati kuchaydi va odamlar undan xavotirga tushdilar. ...o'zining butun jidd-u jahdi-yu imkonini ishga solib, Temur ...o'chirishga va uning payini qirqishga tushdi va uni yo'qo-...o'z oldiga (maqsad qilib) qo'ydi. So'ng u mavjlangan dengiz ...sonsiz-sanoqsiz qo'shin bilan, o'zi bosh bo'lgan holda unga ...yo'lga tushdi va nihoyat Qag'alg'ar[79] deb ataladigan joyga ye-...kelguncha yurdi. Bu joy ikki baland tog' qoyasidan iborat bo'lib, ...o'rtasida darband bor edi. Ushbu darband katta va keng yo'l edi-... yo'lovchi undan bir soatlar chamasi yurardi. Bu yo'l o'rtasida bir ...darvoza bo'lib, agar u yopilib himoya qilinsa, mustahkamlikda bun-...teng keladigan hech narsa topilmasdi. Uning atrofida bir qancha ...lar bo'lib, har biri (u joyning yuqori) ko'kka ko'tarilgan burni ...barqarorlik uchun yerga mahkamlangan oyog'i kabi edi. Agar u ...haqida shunday deyilsa, juda to'g'ri bo'lar edi: «Osmongacha ko'tarilgan burun va suvga botirilgan tagdir»[80]. Sulton (askarlari) Sa-...marqand tomonidan darbandning og'zini to'sib turdilar, Temur esa ...(dushmanini) o'rab va siqib turganday darbandning boshqa to-...monida turar edi.

**Temur ishlatgan hiyla va u o'ylab topgan aldov bayoni**

Temur o'z hamrohlariga dedi: «Hu anavi yerda maxfiy va o'tish mashaqqatli yo'l borligini bilamanki, u yerga hech bir kimsaning qa-dami yetmagan va qato (qushi) ham yo'l topa olmaydi. Kelinglar ot-larimizni yetaklab kechasi bilan yuramiz va dushman hech narsadan xavotir olmagan bir vaqtda orqasidan unga yaqin kelamiz. Agar ular-ga tongda yetishsak, unda biz g'oliblarmiz». Temurning odamlari (bu gapga) rozi bo'ldilar va egri-bugri tik yo'llarni kesib o'tib, tuni bilan yo'l yurdilar. Fajr tongga yetishib ularni (Temur odamlarini) subh (quvib) yetdi-yu, lekin ular sulton askarlariga yeta olmadilar. Shunchalik kengligiga qaramasdan yer-dunyo ularga tor ko'rinib[81], yashash azob-uqubatday bo'lib qoldi. Chunki ularga orqaga qaytish mumkin bo'lmadi. Quyosh o'z tulu'ini e'lon qilgach, ular dushman

askarlariga yetdilar – bu paytda askarlar ulovlariga) yuklarini ortib ketishga jazm qilayotgan edi. Shunda hamrohlari Temurga: «Ahmoqona ish qilib dushman changaliga tushdik, uning qarmog'iga ilindik, o'zimizni o'zimiz o'z qo'limiz bilan halokatga tashladik», – dedilar.

– Zarari yo'q – dedi Temur, – dushman askargohiga qarab yuring va ularga ko'rinarli joyda otlaringizdan[82] tushing. Otlarni o'tlashga (qo'yib) yuborib, o'zlaring dam olib, kechasi bekor ketgan uyquning o'rnini to'ldiring».

«Ular go'yo o'likdek[83]» o'zlarini tappa-tappa otlaridan tashladilar va otlarni o'tlashga qo'yib yubordilar. She'r:

> Agar baxt-saodat ko'zlari senga kulib boqsa,
> uxla, barcha qo'rqinchlar sen uchun xatarsizdir,
> Baxt bilan anqo qushni ovlagin, chunki u o'zi bir durdir.
> Orqangdan Javzo[84] yulduzini boshlagin, chunki u baxt jilovidir».

Dushman askarlari ularni o'z guruhlaridan xayol qilib, Temur qo'shinlari yonidan o'ta boshladi. Temur odamlari dam olib bo'lgach,otlariga mindilar va dushmanning yelkalariga minib oldilar. Qiyqiriq ostida ular ustiga qilich soldilar va ularni dahshatli o'limga duchor qilib, ularni o'lik va majruh holatida qoldirdilar. Bu mudhish ofat ko'pchilikni qamrab oldi va bu balo qay tarzda kelganini hech kimsa bilmadi.

Bu xabar sultonga borib yetdi, lekin u bu ahvolni tuzatish imkonidan xorij edi. U Balxga qarab qochdi[85]. U mamlakat (hokimiyati)dan yulib olindiki, o, bu qanday yulinish edi! Temur nahb-u g'orat va bosqinchilikni boshlab yubordi. Keyin u qimmatbaho boyliklarni zabt etib, mol-dunyo jam qildi. So'ngra atrofiga qora xalqni va past tabaqani to'pladi. Ulardan qay birlari rozi, qay birlari norozi holda Temurga itoat qildilar. Temur Movarounnahr yerlariga egalik qilib, odamlar ustidan shovqin-suron va qahr bilan hukm yurgizdi. U qo'shin va askarlarni tartibga solib, qo'rg'onu qasrlarni egallab ola boshladi. Sulton tomodidan Samarqandga noib qilib qo'yilgan kishi Alisher[86] degan shaxs bo'lib, u (davlat) arkonlaridan biri edi. So'ngra Temur unga maktub yo'llab, Movarounnahr yerlarini ikkisi o'rtasida teng taqsimlashni va sulton Husaynga qarshi kurashda o'zi bilan





birga bo'lishini xabar qildi. Alisher bunga rozi bo'lib, viloyatlar va yerlarning yarmini unga bo'lib berdi hamda Temur huzuriga kelib, qo'l qovushtirib turdi. Temur uning izzat-ikromini oshirib, g'oyatda hurmat ko'rsatdi.

### Temurning Badaxshonga otlanishi va u yerdagilardan Sulton (Husayn)ga qarshi madad so'rashi bayoni

Temurning Alisherga ishonchi oshgach, uni qoldirib, o'zi Badaxshonga ravona bo'ldi. Temurni Badaxshonning ikki hokimi qarshi olib uning huzurida qo'l qovushtirib turdi hamda unga ko'pdan ko'p hadyalar va xizmatkorlar taqdim qilib, qo'shin va sipohilar bilan unga madad berdi. Keyin Temur ular ikkovini o'zi bilan birga olib Badaxshondan chiqdi va sultonni muhosara etishga qasd etib, Balxga qarab yurdi. Shunda sulton ulardan mustahkamlanib oldi. Ular uni hamma tomondan o'rab oldilar. So'ngra sulton Badaxshon hokimlarining o'z huzurida garovda bo'lgan bolalarini olib chiqdi, padarlari ko'z o'ngida ayamay va hech bir rahm-shafqat qilmay boshlarini oldi. Keyin sultonning ahvoli zaiflashib, otliq va piyodalari kamayib ketdi. Natijada, u qazo va qadarga taslim bo'lgan holda qal'adan chiqib, tangridan sodir bo'lgan shirin va achchiq hukmlarga rozi bo'ldi. Temur uni qo'lga olib, (Balx) ishlarini zabt etdi. So'ngra Badaxshon amirlarini izzat-ikrom bilan yurtlariga qaytarib va sulton Husaynni o'zi bilan birga olib Samarqandga ravona bo'ldi. Bu (voqea) 71-yilning sha'bon oyida, ya'ni hijriydan 700-yil o'tgandan keyin (28-fevral – 29-mart 1370-yil bo'lgan) edi[87]. (Keyin) Temur Samarqandga kelib, uni o'ziga dor ul-mulk deb qabul qildi va podshohlik qonun-qoidalarini yo'lga qo'yib, ularni o'z siyosati va tutgan nizomiga asosan tartibga soldi. So'ngra u Sulton Husaynni o'ldirib[88] (taxtga) o'zi tomonidan Chingizxon zurriyotidan bo'lgan Suyurg'otmish degan bir shaxsni qo'ydi[89]. Faqat Chingizxon qabilasidan bo'lganlargina xon va sulton nomi bilan yuritilardilar. Chunki ular turk qurayshlari[90] hisoblanib, hech bir kishi ulardan oldin o'ta olmas va ular qo'llaridan bu sharafni tortib olishga biron kimsa qodir emas edi. Agar biror kishi bunga qodir bo'lsa, shubhasiz, u Temur bo'lardi, chunki u bu yerlarni to'la zabt

etib, ular yo'llarida «javlon urgan edi. Shu sababli Temur (o'zi... ta'na qiluvchilarni daf etish va har bir pesha qiluvchining tilini ke... uchun Suyurg'otmish (martabasi) ni ko'tardi. Garchi uning amri... har bir amr qiluvchi-yu amrni tinglovchi bo'lsa ham, Temurning la... bi faqat «Ulug' Amir» edi. Xon esa uning asoratida go'yo loyga bo... qolgan eshak misoli bo'lib, shu zamonda go'yo sultonlarga nisba... ularning xalifalari kabi edi.

Temur Alisherni Samarqandda noiblikda davom ettirib, unga i... zat-ikrom ko'rsatar, o'z ishlarida u bilan maslahatlashib, uni muqa... dam tutar edi.

**Dasht[92] va Turkiston sultoni To'xtamishxonning hamlasi bayo...**

Dasht va Totor sultoni To'xtamishxon Temur bilan sulton Husay... o'rtasida bo'lib o'tgan mojaroni ko'rgach, qoni qaynab g'ayirligi k... di. Bu ularning nasabi va qo'shnichiligi sababidan edi. U ko'p so... li askar, deng'izdek hayqirgan qo'shin to'pladi hamda Sig'noq[94] ... O'tror[95] tarafidan Temur lashkargohi tomon yo'l oldi.

Temur unga qarshi Samarqanddan chiqdi va ular Xo'jand da... yosi[96] yaqinida, Turkiston atrofida to'qnashdilar[97], U daryo Sayhun... daryosidir. Samarqand esa Sayhun va Jayhun daryolarining o'rta... dadir. Ikki askar o'rtasida urush «bozori» qizidi. Ushbu bozorda ul... o'rtasida jang oldi-sotdilari avj oldi va nihoyat, Temur askari (u... bo'lib) yanchilmaguncha, muhoraba tegirmon toshlari aylanaverdi... Temur askarlari tarqab, uning qo'shin tuguni yechilayotgan bir pay... da birdan Sayyid Baraka nomli (bir) kishi paydo bo'ldi, Temurga ya... qinlashdi[99]. Temur – u g'oyatda tang holatda qolgan edi, – unga «E... afandim, Sayyid! (Mening) qo'shinim yengildi» – dedi.

– Qo'rqma, – dedi unga Sayyid (Baraka). Keyin u otidan tushib... yerdan bir siqim tuproq olib, o'zining bo'z otiga yana qaytib mindi... Keyin o'sha tuproqni (Temurni bostirib kelayotgan dushmanlari yu... ziga sepib, «yog'i qochdi[100]», deb baqira boshladi. Temur ham yo... dam qo'lini cho'zgan ushbu shayxning ketidan takrorlatib shunday... deb baqiraverdi. Temur Abbos[101] tovushi bilan baqirganda go'yo u... chanqoq tuyalarni «jut», «jut»[102] (suvga) deb chaqirayotganga o'xshar...





...Temur askarlari, go'yo sigir o'z buzoqlariga mehr bilan ..., unga qaradilar va o'z dushmanu raqiblariga qarshi dadil ... tushdilar. Uning qo'shinidagi barcha zaifu kuchli jang... «yog'i qochdi» degan iborani takrorlab baqirmagani qolmadi. ... ular bir-birlarini (qat'iy) qo'llab-quvvatlab va (bir-birlariga) ..., tilab, dushman ustiga hamla qildilar. To'xtamish qo'shinlari ... uchradi va «orqasini o'girib tiraqaylab qochdi»[103]. ... askarlari ular bo'yniga qilich qo'yib, bu g'alabalari bilan ular... qadahlarini ichirdilar. Ularning ko'p mol-dunyo va chorvalarni ... o'rta (hol) boshliqlari-yu hoshiyalarini asir oldilar. Shundan ... Temur Samarqandga qaytdi – u Turkiston va Xo'jand daryosi ... yerlar ishlarini tartibga solgan edi.

Temur nazarida Sayyid Barakaning e'tibori oshdi va o'sha qo'lga ... egallagan barcha joylarga uni hokim qilib tayinladi. Bu Sayyid ... gaplar turli-tumandir[104]. Ba'zilar uni mag'ribli bo'lib, ... yashab (zuluk bilan) qon quyuvchilik qilgan, keyin Samar... kelib o'zini sayyid qilib ko'rsatib qadr-qimmati ortgan va ... yoyilgan desa, ba'zilari uni Madinayi sharifa ahlidan deydi: ... ba'zilari esa uni Makkayi munavvara ahlidan deydilar. Har ... u Movarounnahr va Xuroson shaharlarida eng ulug' zotlar... biri, ayniqsa, Temurga zikr qilingan madadni ko'rsatib qazo va ... ushbu latif tasodifi tufayli Temurni bu shiddatdan xalos ... keyin bo'ldi. So'ngra Temur unga – «Mendan istagan ... so'ra va murodingni tila» – dedi. U Temurga: – Ey mav... Amir! Muqaddas va tabarruk shaharlar (Makka va Madina)ga ... vaqflar (turli) iqlimlarda serob. Shular jumlasidan Xuroson ...dagi Andxoy[105] (ham) bor. Men va mening bolalarim ana shu ... sazovor kishilar jumlasidanmiz. Agar o'sha yerlarning foyda ... aniqlanib, mayda-chuydalari ma'lum qilinsa hamda vaqflari hi... kirim-chiqimlari belgilansa mening va bolalarimning hissasi ... vodiydagi mana shu qasabadan kam bo'lmaydi. Ana o'shani men... siqto'»tariqasida ber», – dedi.

Temur ushbu joyni va unga qarashli muzofotu qishloqlarni unga ...iqto'» tarzida tortiq qildi. Bu yerlar hozirgacha uning avlodlari, ...'lari va nabiralari qo'lidadir.

### Alisher va Temur orasida voqe bo'lgan ixtilof va fasodliklar bayoni

Keyin Temur bilan Alisher o'rtasida ixtilof chiqib, ulardan h qaysiga (tarafdor) guruhlar qo'shildi. Temur Alisherga (qarshi) fi ishlatib aldadi va uni tutib olib qatlga tortdi. Natijada, mamlakat viloyatlar yolg'iz Temurning o'ziga qoldi. Avval yuz o'girib o'zi orqaga tortib yurgan (odam)lardan har bir yuzu bosh Temur itoati shoshildi.

### Temur bilan Samarqand buzuqlari va shuttorlari[106] orasidagi mojaro va qanday qilib Temur ularni do'zaxga joylashtirgani bayoni

Samarqandda ko'pdan ko'p buzuqilar toifasi bo'lib, ular ichi har xillari: polvonlar, nayzabozlar[107], mushtlashuvchilar va shifokor lar bor edi. Ular go'yo Qays va Yaman (qabilalari)[108] kabi o'zaro ikki guruhga bo'lingan bo'lib, mudom oralarida adovat va urush yuz beri turar edi. Har bir guruhning o'z boshlig'i, tayanadigan kishilari, yo damchilari va yugurdaklari bor edi. Yetarli haybati borligiga qar masdan, ular tomonidan o'ziga (qarshi) biron qaysarlik va xilof(ish bo'lishidan Temur xavfsirab yurardi. Agar u biror tomonga yuris qilmoqchi bo'lsa, zinhor o'rniga Samarqandda noib (tayinlab) qoldi rar edi. U shahardan uzoqlashishi bilanoq, albatta, o'sha jamoadan bi toifasi xuruj qilib, noibni ag'darib tashlar yoki u bilan (birgalashib xuruj qilar hamda (Temurga) muholafat bildirardi. Temur har safa qaytganida (o'z podshohligida) tartib-intizom ishlari buzilganini, ish lari chalkash holga kelib (o'z) martabasi tebranib qolganini ko'rardi Shu vajdan ishlarini yangidan tuzatish, buzib boshqatdan qurishga majbur bo'lardi. U (birovlarni) o'ldirar, (birovlarni) ishdan bo'shatar di, boshqalarga esa in'om-ehson qilib, hadyalar ulashardi. Keyin yana yo'lga tushib, o'z yerlarida tuzatish va yo'llarni mustahkamlash bilan mashg'ul bo'lardi. Buzuqilar esa o'zlarining jirkanch ishlarini davom ettirar, yana aldov va makrlariga kirishardilar. Bu ahvol to'qqiz marta- cha takrorlanadi. Temurning buzuqilar va fasodchilarga qarshi nima qilishga boshi qotdi. Keyin u ushbu buzuqilarni o'ldirib, tag-tomiri





...qurib, ularning aziyatidan qutulish uchun hiyla ishlatdi. U bir ...fat[109] uyushtirib, unga katta-yu kichik (barcha) xaloyiqni chaqirdi ...kelganlarni toifa-toifasiga qarab har bir hunarmandni o'z sarko- ...qo'shib o'tqazdi. Haligi buzuqilar va ular boshliqlarini ajratib, ...o'tqazdi va Anushirvon ibn Kayqubod[110] dinsizlarga nisbatan ...ish qilgan bo'lsa, Temur ham ularga nisbatan (xuddi) shun- ...ish qildi. Temur o'z yordamchilaridan chetroq bir joyga pistir- ...qo'ydi va oldilariga yuborilgan har bir kimsani o'limga mahkum ...ular bilan kelishib oldi. Ular yoniga yuborilgan kishi uning ...lozimligiga ishora edi. Keyin Temur ziyofatga kelganlar- ...boshliqlarini birma-bir chaqira boshladi va ularga o'z qo'li bilan ...quyib, (ularga) qimmatbaho sarpolar ulasha boshladi. Navbat ...buzuqilardan birontasiga kelsa, Temur unga qadahni ichirar ...qimmatbaho sarpo kiygizib, uni pistirmadagilar oldiga olib bo- ...ishora qilardi. U kishi pistirmadagi odamlar oldiga kelishi ...ular uning ustidan nafaqat kiydirilgan sarponi, balki hayot ...ham yechib olib, uning tanasi tillosini fano kursiga solib eri- ...qo'yardilar. Shunday qilib, Temur ularning bittasini ham qo'ymay ...va shu bilan ildizlarini quritdi, izlarini o'chirib, olovlarini ...Natijada Temur uchun yo'llar tozalanib, podshohligi raqibu ...lardan xoli bo'ldi. Movarounnahrda unga qarshilik qiluvchi ...oldini to'suvchi biron kimsa qolmadi[111].

### Samarqand yerlari, Badaxshon va Xo'jand daryolari o'rtasida bo'lgan (yer)lar tafsiliga oid bo'lim

Shular jumlasidan Samarqand va uning viloyatlari: Samarqand ...tumondan[112], Andikon[113] va uning atroflari esa to'qqiz tumondan ...undan o'n ming jangchi chiqadi[114].

Samarqand Movarounnahrning mashhur shaharlaridan va zikr qi- ...mo'tabar joylaridandir. Aytishlaricha, qadim zamonda Samar- ...va uning devorlari o'n ikki farsaxdan[115] iborat bo'lgan. Bu Chin- ...bilan kurashib o'tgan Sulton Jaloluddin[116] zamonida bo'lgan. Men Samarqand devorlarining haddida, g'arb tomondan Temur bino ...va Dimashq[117] deb atagan bir qasabani ko'rdim. Ushbu qa-

sabaning masofasi Samarqanddan taxminan yarim kunlik (yo'l)di. Odamlar hozirgacha qadimgi Samarqandni[118] kavlaydilar va kufiy xati bilan tamg'alangan dirhamlar va filslar qazib oladilar va filsu tam- galarini eritib, undan kumush ajratib oladilar.

Shuningdek Marg'iynon[119] ham Movarounnahrning shaharla- ridandir. Qadim zamonda u poytaxt bo'lib, unda Ilikxon[120] turgan. «Hidoya» (kirish)ning sohibi jalolatli shayx, alloma Burhonuddin al Marg'iynoniy[121] – tangri-taolo u (kishi)ni rahmat qilsin, – Marg'iynon- dan chiqqan.

(Movarounnahr shaharlaridan) Sayhun sohilida Xo'jand, Jayhun sohilida Termiz joylashgan. Shunngdek, Naxshab – u (avval) zikr qilingan Qarshidir va yana Kesh, Buxoro, Andikon. Bular hammasi mashhur joylar bo'lib, ulardan boshqalari ham bor.

(Movarounnahrning) viloyatlaridan Badaxshon, Xorazm yerlari, Sag'oniyon[122] iqlimi va bulardan boshqa o'lkalar-u poyonsiz tevarak atroflar. Bu yer ahlining e'tiqodicha, Jayhun[123] orqasidan sharqqa qa- rab cho'zilgan yerlar Turon[124], g'arbga tomon cho'zilgan bu tomonda- gi yerlar esa Eron deb ataladi. Kaykovus[125] va Afrosiyob[126] bu mam- lakatlarni o'zaro taqsim qilganlarida Turon Afrosiyobga, Eron esa Kaykubod o'g'li Kaykovusga tekkan. Iroq (esa) Eron mag'ribidir[127].

## Movarounnahr yerlarini o'ziniki qilganidan keyin Temurning saltanat yo'lida boshlagan zo'ravonliklari bayoni

Movarounnahr yerlari sof o'ziniki bo'lib[123], zamon qaysarlari uning amrlariga bo'yin ekkach, Temur o'zga mamlakatlarni egallash-u bandalarni qul qilishga boshladi. Iqlimlar podshohlarini va ufqlar sultonlarini sayd qilish uchun u hiyla-nayrang barmoqlari bilan tur- li-tuman to'rlar va tuzoqlar to'qiy boshladi. Eng avval u mo'g'ullar bilan apoq-chapoq bo'lib, ular bilan og'iz-burun o'pishdi va tinchlik haqida sulh tuzib, sovg'a berib, sovg'a oldi hamda ular podshohi – Qamaruddin qiziga uylandi. Shunday qilib Temur ularning ta'qib va tazyiqidan amin bo'ldi. Mo'g'ullar sharq tomondan uning qo'shnisi bo'lib, ular bilan Temur o'rtasida hech qanaqa farq yo'q edi. Chunki ikki tomondan ham sodir bo'lgan jinsiyat, qudachilik[129] va qo'shnich- ilik bunga sabab edi. Dinlari esa ikkala davlatda ham joriy bo'lgan





Chingizxon tavroti edi. Shu sababdan Temur mo'g'ullar yomonlikla- ridan bexavotir bo'lib, ular makru zararlaridan amin edi[130].

## Temurning atrof va, eng avval, Xorazm yerlarini birlashtirishga niyat qilib, qat'iy qarorga kelgani bayoni

Mo'g'ullar makridan amin bo'lib, sulh bilan ular (og'zi) chegara- sini to'sgach, Temur Xorazm yerlari tomon yuzlanishga azm etdi[131]. Xorazmliklar g'arbdan, chap (tomondan) Temur bilan qo'shni bo'lib, ular islom qoidalarining yuritilishi jihatidan undan ajralib turar- dilar. Gurganj[132] shahri ularning poytaxti bo'lib, eng azim shaharlaridir. Umuman bu mamlakat (Xorazm) azim shaharlar va keng viloyatlarga boy. Uning poytaxti fozil kishilar jam bo'ladigan, ulamolar manzil tutadigan, zariflar va shoirlar makoni, adib va ulug' kishilar chashma- si, izzat-ikromli ulug'lar tog'ining koni, yo'lini topganu adashganlar- dan haqiqat izlovchi kishilar dengizining manbayi edi. Xorazmning noz-ne'matlari bitmas tuganmas, tabiiy boyliklari behisob bo'lib, fazilatlarining yuzi nur taratib turuvchidir. (Bu mamlakat) sultonining ismi Husayn So'fi bo'lib, u soxta e'tiqodlardan xoli kishi edi.

Movarounnahr shaharlarining surati bir-biriga yaqindir, chun- ki ularning hammasi (to'g'ridan to'g'ri) xom yoki pishiq g'ishtdan yer (beti)ga qurilgandir. Latofatda Xorazm ahli ham Samarqand ahli singari bo'lib, hishmat-u zarofatda ular Samarqand ahlidan afzalroq- dir[133].

Ular mushoira va adabiyotga inoyat qo'yganlar hamda yaxshi si- fatlar va oliy fazilatlar san'atida, xususan musiqa va nag'malar ilmi- da ajib ash'yolar yaratganlar. Bu borada ularda har bir xos-u avom ishtirok etadi. Xorazmliklar haqidagi (ajib) narsalardan shu (narsa) mashhurki, agar ularning beshikda yotgan (chaqaloq) bolasi yig'lasa yoki «oh» desa, bu tovushdan «Dugoh» maqomining kuyi yangraydi.

Temur Xorazmga yetib kelganda Husayn So'fi g'oyib edi. U Xo- razm atroflarini va undan o'z qo'li yetgan joylarini taladi[134]. Lekin Xorazmni egallashga muvaffaq bo'la olmadi. Bu ishga unchalik ahamiyat berib ziyoda e'tibor qilmadi va o'z hoshiya-atroflarini yig'ib mamlakatiga qaytdi.

## Temurning Xorazmga ikkinchi marta qaytishi bayoni

So'ngra Temur jur'at kamarini mahkam bog'lab, batamom tayyo garlik va ko'p qo'shin bilan Xorazmga ikkinchi marta yurish qild Uning sultoni hamon g'oyib edi[135] Temur Xorazm go'zal kelinchagi ing kuyovi[136] misoli bo'ldi. U shaharni qurshab, hisor etib oldi va Xor zmning yo'llari bo'yinlariga yoqalarini mustahkamladi va oz bo'lma (mamlakat kiyimi) etaklariga o'z changallari bilan yopishib olayozd Shunda shahar a'yonlaridan biri – u savdogar bo'lib, «o'z sultoni old da sodiq qadam[137]», ismi Husayn Surij edi, – Temurga peshvoz chiqi undan bu mushkul ishlarni o'zlari ustidan ko'tarishni va buning ev ziga talab qilganicha asir va o'lja berishlarini (bildirib) iltimos qild Temur undan ikki yuz xachirga yuk bo'ladigan kumush berishni v uni jaranglagan tanga tariqasida o'z xazinasiga yetkazishni talab qild Lekin Husayn Surij Temurga murojaat etib, lutf bilan e'tiroz qila-qil nihoyat Temur so'ragan (mol-dunyo)ning to'rtdan biriga uni ko'ndird Husayn Surij talab qilingan boylikni o'z (shaxsiy) mol-mulkidan ajr tib, o'sha on (kumushni) o'lchab berdi. Shundan so'ng Temur jo'nash hozirligini ko'ra boshladi va o'z qo'shini lashkarlariga xorazmliklarg aziyat yetkazishni man etib, Samarqandga tavajjuh etishga azm qild

## Temur uchun o'z otasini yo'ldan urib, uni chormixga tortishlaridan xalos qilgan Hirot sultoni G'iyosuddinga Temurning maktubi bayoni

Keyin Temur Hirot sultoni Malik G'iyosuddinga – o'z xaloskor ga, go'yo payg'ambarning: «Tangri har bir kimsa yomonligini o'zig yozib qo'ygandir»[138] – degan so'zlariga amal qilib, maktub yubord Temur G'iyosuddindan o'z itoat halqasiga kirishini va holi-qudratig yarasha mulozimlaru hadyalar keltirishini talab qilib, aks holda unin diyoriga borishni va unga halokat keltirishni bildirdi.

Malik G'iyosuddin Temurga o'z elchisi bilan maktub yubori unda: «Sen mening xizmatkorim emasmiding va men senga yaxshili qilmabmidim?! O'z xayr-u ehsonim va ne'matim[139] etagini ustinga yopmaganmidim?! Sen bo'lsang makr-hiyla ishlatib fitna qilding (odamlarni) o'ldirib tiraqaylab qochding va «qilg'ilig'ingni qil





...[140]. Bu, men seni zarbadan va chormix etishdan qutqarganimdan ...? Agar sen ehsonni bilguvchi inson bo'lmasang[141], unda (hech ...) yaxshilikni bilguvchi it kabi bo'l», – deb yozdi.

Natijada, Temur Jayhunni kesib o'tib, G'iyosuddin tomonga ... ravona bo'ldi. G'iyosuddinning Temurga qarshi tura oladi-... kuch-quvvati yo'q edi. U o'z urug'lari va qishloqdagilariga xat ..., ular o'z ulovlari bilan Hirot atrofiga jam bo'ldilar. G'i-...ddin bo'stonlar atrofiga handaq qazdirib, bu bilan nogiron va zaif ...larni himoyaga oldi va o'zi esa qal'aga[142] bekinib, shu tariqa ...dan saqlanib qolaman, deb hisobladi. Bu G'iyosuddiining av-... ham, oxiri ham fahm-mulohazasi zaifligidan, qobiliyati nochor-...dan, aql farosati kamligidan, fikr va davlatining in'ikosidan (dalil) ... Men (bu to'g'rida) she'r aytdim:

Kimiki baxti (uning) taqdiriga muvofiq ermas, tadbiri (uning) ... halokat keltirur.

Temur G'iyosuddin bilan jang qilishga va uning muxosarasiga ...di, lekin askarlari imkonlari qadricha va rohatda turar, (uning) ...ni esa kenglikdan tor joyga tushib qolgan edi. (Sultonning) ...lari va hoshiyalari sarosimaga tushdilar, hayvonlar va mollar ..., qarovsiz qoldi, shahar izdihomiga toshdi. Ularni noxushlik ... toydirib, ochlik tinkasini quritdi, xos-u avomlar halok bo'lib, ...) dod-faryod va figon qamrab oldi.

Natijada, sulton omonlik tilab Temurga maktub yubordi. U faqat-... uning sababidan tanglikda qolganini angladi va unga bosh-... homiylik ko'rsatib, (endi) undan azob chekayotganini tushundi. U Temurga avvalgi tanishliklarini va o'zi unga ko'rsatgan ehson-u ...larini eslatdi hamda Temurdan o'ziga beriladigan omonlikni iy-... keltirib ta'kidlashni talab qildi. Temur (uning) ilgari ko'rsatgan ...ligini (qalbida) saqlashni bildirib, uning qonini to'kmaslik-... yu, terisini tilka-pora qilmaslikka qasamyod qildi. Shunda sulton ...ib, Temur huzuriga kirdi va uning oldida qo'l qovushtirib turdi. Temur shaharga kirdi[143] hamda Hirot qo'shinlari va o'z yordamchilari ...nidan o'rab olingan sulton hamrohligida shahardagi mustahkam qal'aga ko'tarildi. Shu payt Hirot sohibining botirlaridan biri sulton-

ga: Temurni o'ldirib, o'zini (bu yo'lda) fido etishni ishorat qilib, u quyidagi mazmunda gap qildi: «Men o'zimni va molimni musulmonlar uchun fido qilib, bu cho'loqni o'ldiraman, nima bo'lsa bo'lar». Sulton uning maslahatiga rozi bo'lmay Tangri taoloning hukmi irodasiga taslim bo'lib, dedi: – «Darhaqiqat, tangri-taolo o'z bandalari taqdirida o'zi tasarruf yuritadi. Albatta, u o'z murodi o'qini qay bo'lmasin (o'z) bandalariga tegizadi. Qismatdan qochib bo'lmaydi, tangri-taolo bo'lishi muqarrar deb hukm qilgan narsadan hech kishi qutula olmaydi».

Misra:

> Agar senga taqdir buyurgan biror ish kelsa-yu, sen
> undan qochsang, bilib qo'yki, sen o'sha tomonga qarab yurasan.

Bu bir sirki[144], u zohir bo'lmog'i kerak va uni (Temur) ishlash ning haqiqatini surishtirmay qo'yaqol. Agar kimki qismatdan g'olib kelmoqchi bo'lsa, u mag'lub bo'lgan, kimki zamonini talamoqchi bo'lsa, o'zi shilingan, kimki taqdir oqimidan kuchli kelmoqchi bo'lsa, o'zi g'arq bo'lgan, kimki g'aflatda bo'lib ayshu ishrat sharabiga moyil bo'lsa, uning tomog'iga tiqilgan.

Shu damda G'iyosuddin otasining (unga) aytgan so'zlarini esladi va uning aytganlari haqiqat ekanini fahmladi. Lekin kamon o'qi otilgan bo'lib, uni kamalak ipiga qaytarishning iloji yo'q edi.

### Temurning Shayx Zaynuddin Abu Bakr al-Xavofiy bilan uchrashuvi bayoni

Xurosonga qilgan yurishlarining birida Temur Xavof[145] qasabasida tangri-taolo o'z lutflari bilan taqdirlagan, bilimdon, olim, ulug' va fozil, zohir karomatli, bag'oyat ezguliklar egasi, shirin suxan, sof maqom, sodiq kashfiyot, Alloh bilan muomalalari sidqidil bir kishi borligini eshitgan edi. U Shayx Zaynuddin Abu Bakr[146] deb atalib, uning ijtihod qushi uchun Quds[147] bog'ida eng oliy go'sha (bordir).





Temur shu shayx ruiyatini niyat qilib, o'z jamoasi bilan uning tomoniga yuzlandi. Shayxga, «Temur seni diydoringni ko'rish va barakangni tilash uchun huzuringga kelayotir», – dedilar. Lekin shayx bir so'z ham aytishga ulgurmasdanoq Temur yetib keldi va otdan tushib, shayxning huzuriga kirdi. Shayx esa o'z odaticha gilamchasi ustida (boshini) fikrga cho'mgan holda o'tirar edi. Temur uning oldiga yaqin kelganida shayx (o'rnidan) turdi. Temur emaklab borib shayxning oyog'iga bosh urdi. Shunda shayx Temurning orqasiga ikki qo'lini qo'ydi. Temur (keyinchalik) dedi: «Agar shayx orqamdan tezlik bilan qo'lini olmaganda chindan ham meni bosib qoladi deb o'ylagan edim. Men go'yo osmon yerga uzilib tushgan-u men yer-u osmon o'rtasida mayda-mayda bo'lib ketgandek tasavvur qildim». Keyin bu mumtoz kishi huzurida odob bilan tiz cho'kdi va o'z suhbatini munozara tarzida emas, balki savol tariqasida tuzib, lutf bilan unga: «Ey mening sayyidim, shayx! nega siz o'z podshohlaringiz jabr va qayg'u-g'asiga moyil bo'lmay, adolat va insof yuzasidan ish tutishlarini amr qilmaysiz?», – dedi.

Biz ularga shu (narsa)ni amr qilib, bundan muqaddam shuni ishor etgan edik, – dedi shayx, – lekin ular bu amrga quloq tutmadilar, shu tufayli ular ustidan hukmni senga topshirdik[148].

O'sha on Temur shayxning huzuridan chiqdi, endi uning bukirligi to'g'ri bo'lib qolgan edi va dedi: «Ka'ba egasi nomi bilan qasam ichamanki, endi men (butun) dunyoga egalik qildim».

Bu shayx o'sha zikri (keyinroq) kelishi va'da qilingan kishidir.

So'ngra Temur Hirot podshohini qo'lga olib, uning hukmidagi barcha narsalarga egalik qildi va Hirot viloyatini birin-ketin zabt etib, har bir viloyatga o'z noibini qo'ydi. O'zi esa imkoni qadar boyliklarni olib[149] orqaga, Samarqandga qaytdi[150]. Temur Sultonni shahar[151] (ichiga solib ustidan hibs) eshigini yopdi hamda shahar sohiblariga uni qo'riqlashni topshirib, ularga o'zining poyloqchi sherlari-yu qo'pol va bag'ritosh mirshablarini qo'shdi. Bu Temurning mayli, boshingni kesmayman, deb imon keltirgan va'dasiga muvofiq edi. Chindan ham Temur uning qonini oqizmadi, lekin hibsda ochlik va tashnalikdan o'ldirdi.

## Temurning Xurosonga qaytishi va Sajiston viloyatlarini xarob etishi bayoni

Keyin Temur (yana) Xurosonga qaytdi – u Sajiston ahlidan qasos olishga azm qilgan edi[152]. Sajiston ahli sulh va osoyishtalik so'rab Temur qarshisiga chiqdi. Temur ularning o'ziga qurol-yarog' bilan yordam berishlari evaziga bu talabga rozilik bildirdi. Natijada, Sajiston ahli o'zlaridagi bor aslahalarni unga chiqarib berdilar va shu bilan ushbu shiddatdan qutulishga umid bog'ladilar. Shaharlari qurol-asla-hadan batamom xoli bo'lganligi to'g'risida Temur ularga ont ichirib balog'atli qasamlar aytdirdi. Temur bu ishning rostligiga ishonch hosil qilgach, ularning bo'yniga qilich qo'yib, bittasini ham qoldirmay o'lim qo'shinlariga olib borib qo'shdi. Keyin u shaharni (shunchalik) xarob etdiki, unda na bir daraxtu na bir uy qoldi. Uni (er yuzidan) mahv qildiki, unda na biron ko'zu na biron iz qoldi. So'ngra Temur undan jo'nab ketganda, shaharda hech bir kimsa qolmadi. Temur bu ishlarni sajistonliklardan ilgari ko'rgan zahmati sababidangina qilgan edi[153].

Damashqda, Chaqmoq madrasasida istiqomat qiluvchi hanafiy mazhabidan bo'lgan faqih shayx Zaynuddin Abdullatif ibn Muhammad ibn Abulfatx al-Kirmoniy 883 (1430) yili menga (shunday) hikoya qilgandi: «Sajistonliklardan qochgani yoki g'oyibligi sababli, shuningdek Tangri taoloning qandaydir lutf-karomati bilan Temurning o'limidan qutulib qolganlari, u ketgandan keyin shaharga qaytib kelganlarida juma namozini o'qimoqchi bo'ldilar. Lekin ular kun-dan yanglishib juma kunini aniqlay olmadilar. To Kirmonga[154] odam yuborib, u yerdagilar juma kun ekanini aytmagunlaricha uni bila olmadilar».

## Temurning Sabzavor[155] yerlariga yurishi va shaharning unga bo'ysunib, hokimining uning huzuriga kelishi bayoni

Temur Sajistonda mo'ljaldagi ishlarini ado qilgach, o'z askarlari bilan Sabzavor shahriga tomon yuzlandi. Uning hokimi Hasan Juriy[156] deb atalib, o'zi rifiziy[157] bo'lsa ham hokimiyatda mustaqil edi. Uning itoat qilishdan va imkoni yetguncha unga hadya va xizmatkorlar taqdim





qilib peshvoz chiqishdan boshqa iloji yo'q edi. Temur uni o'z viloyatida qaror toptirib, homiylik ko'rsatdi.

### Bo'lim

Temurning odati va makridan[158] (biri) shu ediki, agar u mehmon tariqasida birorta (kishi) nikiga qo'nsa, eng avval u uy egasining avlod-ajdodini surishtirar va uning ismini hamda nasl-nasabini esida saqlab qolib, unga: «Agar sen mening (mutlaq) hokim bo'lib, mustaqil hukm yuritishim xabarini eshitsang, unda huzurimga falon belgi bilan kelgin. O'shanda seni mukofotga sazovor qilaman», – derdi. Natijada uning nomi tillarda doston bo'lib, (qilgan) ishlari chor tarafga yoyilgach, dovrug'i va xabari dunyoga tarqalgach, (o'sha) kishilar (shartlashilg'an) belgilar bilan «har tarafdan»[159] uning huzuriga shoshildilar. Temur ulardan har birini o'z o'rniga qo'yib, martabasiga loyiq joy topardi.

## Sabzavorda Temur va firibgarlar guruhining boshlig'i Sharif Muhammad o'rtasidagi mojaro bayoni

Sabzavor shahrida shuttorlardan bir sharif kishi bo'lib, u Sayyid Muhammad as-Sarbadol deb atalardi. U bilan bir jamoa odamlari bor ediki, hammasi firibgarlar bo'lib, ular «sarbadoliya»[160], ya'ni shuttorlar deb atalardilar. Bu sayyid mashhur odam bo'lib, (o'z) fazilati va himmati saxovatlari bilan tilga olinadigan (ma'lum) kishi edi. Shu tufayli ham Temur: «Uni mening huzurimga keltiringlar, chunki men faqat uni deb keldim. Uning diydoriga ishtiyoqmand bo'lib, undagi (bor) ilmni bilmoqqa ilhaqman», – dedi.

Natijada, Sayyidni Temur huzuriga chorladilar. U kirgach Temur o'rnidan turib borib uni quchoqladi hamda ochiq chehra bilan kutib oldi, unga izzat-ikrom ko'rsatib o'ziga yaqin tutdi va gap orasida (unga shunday) dedi: «Ey mavlono sayyid! Sen menga aytchi, nima qilsam Xuroson yerlarini batamom egallayman va o'zimga bo'yin egdirib, uning uzog'u yaqin (joylar)ini o'z ixtiyorimga olaman? Bu holat menga nasib bo'lishi va qing'ir-qiyshiq, mashaqqatli yo'ldan yuqori ko'tarilmoq, uchun men nima qilay?».

Sayyid unga dedi: «Ey mavlono amir! Men payg'ambar banda... ridan bo'lib, bir faqir va muhtoj kishiman. Bunday yuqori fazilat q... yerdayu, men qayerda. Garchi (meni) sharif deb atasalar ham, me... ojiz va zaif (bir) kimsaman. Halokat chashmalaridan suv ichish... menda toqat yo'q. Men kim bo'libmanki, podshohlik ishlariga ar... lashib, biror yo'l ko'rsatay? Agar kimda-kim podshohlar (ishlari)... daxl qilib, (ularning) ishlariga aralashsa yoki ularga e'tiroz bildiri... monelik ko'rsatsa, u ikki dengiz birikadigan joyda suzgan va suzish... yotgan ikki qo'chqor orasida (qotib) turgan kishiga o'xshaydi. Ag... (kimki) begona tilda gapirsa u (ko'p) g'alat suzlaydi. Ma'mup[161] bila... tegirmonchi o'rtasida qanchalik farq bor?»

Temur unga dedi: – «Sen menga bu niyatga erishish yo'lini al... batta ko'rsatmog'ing va ushbu haqiqatga yetishish (yo'li)ni xab... qilmog'ing darkor. Agar men senda ushbu xislatlar borligini pay... qamaganimda va odamlarim seni mulohazang ko'rsatgan (to'g'ri) yo'llardan javlon, urishlarini karomat qilmaganimdayu, sen ushb... ma'rifatga ega bo'lmaganingda, unda men senga bir so'z ham dema... gan bo'lardim va bechora (kishi) boydan hojat so'ragandek men sen... dan buni so'ramasdim. Chunki mening farosatim Iyasiy[162], barcha mulohazalarim qiyosiydir. Shunda ushbu yo'l ko'rsatuvchi Temurga – «Ey amir, bu masalada sen mening gapimga quloq tutib ko'rsat... gan yo'l-yo'rig'imga amal qilasanmi?» – dedi. Temur unga: «Faqat sen ko'rsatgan yo'ldan boraman deb men sendan maslahat so'rab sen... bilan hamqadam yuraman deb huzuringga chopib keldim», – dedi. Sayyid Temurga: «Agar (sen) bu ish[163] o'zingga sof bo'lishini xohlab, hech bir mashaqqatsiz ushbu mamoliklarni egallashni istasang, unda sen zinhor bu yerlar falakining qutbi-yu bu yo'llar doirasining marka... zi Xoja Ali ibn Muayyad at-Tusiyga[164] bormog'ing lozim. Basharti, u senga o'zini zohiran yaqin tutsa, unda albatta botinan ham sen bilan birga bo'ladi. Agar u sendan yuz o'girsa, u vaqtda undan (boshqa biror kimsa senga foyda bermaydi va (hech kimning) nafi tegmaydi. Uning qalbini o'zingga rom qilishga intilib, huzuringga keltirishga jidd-u jahd ko'rsatgin. U qat'iy kishi bo'lib, zohiri-yu botini bir (xil)dir. Dar... haqiqat, odamlarning itoat (qilish)lari uning itoatiga bog'liq bo'lib,





...harakati uning ishoratiga binoandir. U nima qilsa odamlar ... qiladilar, agar u to'xtasa-to'xtaydilar, yursa-yuradilar». Bu ..., ya'ni zikr qilgan Xoja Ali shiy'a (mazhabidan) bo'lib, Alining ...laridan edi. U o'n ikki imom nomi bilan[165] pul zarb etib, ular ... tutib xutba o'qitadi. U qo'rqmas va botir (kishi) edi.

Keyin Sayyid davom qilib: «Ey amir. Sen Hoja Alini chaqirgin. Agar u da'vatingga «labbay» deb javob qilib, huzuringga hozir bo'lsa, ... unga hurmat-ehtirom ko'rsatgin hamda izzat-ikromni ziyoda etib, ... kim unga yetkazmagan tavqir-takbirlarni yetkazgin. Chunki u ... nisbatan bu narsalarni yodida saqlab, xotirida qoldiradi. Hurmatlash, ulug'lash va e'zozlash borasida uni go'yo ulug' podshohlar ...mida ko'rgin. Unga nisbatan yuqori martabangga loyiq bo'lgan ... ham narsa xotirangdan ko'tarilmasin. Bularning hammasi ...ning va ulug'vorligingning oshishiga oiddir», – dedi.

Keyin Sayyid Temur huzuridan chiqdi va zikr qilingan Xoja Aliga o'zi uning uchun birqadar (muhim) ishlar tayyorlaganini, agar Temurdan unga chopar kelsa o'ylab-netmasdan itoat qilishini va hech ... solmasdan uning huzuriga jo'nashini hamda Temurning ...dan o'z holi-yu moliga (hech qanaqa ziyon yetishidan) amin bo'lib, qalbi ravshan bo'lishini tayinlab o'z choparini jo'natdi.

Xoja Ali birtalay xizmatlar, tuhfalar va tortiqlar tayyorlab choparning (kirib) kelishini kuta boshladi va Temurning hamda o'z homiysining ismi bilan tanga-yu tillolar zarb etib, shaharlar jome'ilarida ...lar ikkisining nomi bilan xutba o'qitdi. Xoja Ali bu ishlarini tugatib, o'zining tez orada chaqiriluviga hozirlanib turgan paytda birdan Temurdan chopar kelib, unga maktub uzatdi. Maktubda eng latofatli kalimalar va yoqimli xitoblar bo'lib, Temur sidqidillik, hurmat-u e'tibor va mehru muhabbat bilan shayxni o'z huzuriga chorlar edi. Shayx o'z itoati lisoni bilan o'sha zahotiyoq «labbay» deya o'rnidan qo'zg'oldi. Vaqtini faqat yo'ldan o'zga narsaga ketkazmay, cheksiz orzu-umidlar va ishonchli ahdu paymonlar bilan yetib keldi. Shayxning (etib) kelganini Temurga xabar qilganlarida uning istiqboliga o'z qo'shini suvoriylarini ajratib, go'yo yangitdan mulkka ega bo'lgan kishidek bag'oyat sururga to'ldi. Shayx yetib kelgach, Temur unga

qimmatbaho hadyalar, cheksiz tuhfalar, ajoyib va g'aroyib shoh... va xusravona buyumlar, podshohlarga munosib tengi yo'q sarpo... taqdim qilib, uni ta'zim-tavoze' bilan e'zozladi va (uning) ust... benazir in'om-ehsonlarni yog'dirdi. Temur shayxning orzu umi... qomatiga o'z izzat-ikromi xil'atlarining keng etaklarini tushirib, ... o'z (viloyati) voliyligida davom ettirdi va unga bo'lgan muruvvati ... karomatini ziyoda etdi. Natijada, Xurosonda Temur huzuriga kelm... gan va unga murojaat qilmagan na biror shahar amiri, na biror mu... tahkam qal'a noibi yoki birorta mashhur odam qoldi. Ularning ... ulug'lari Bovard hokimi amir Muhammad[166] va Saraxs hokimi[167] am... Abdullodir[168]. Temurning haybati (barcha) ufqlarga yoyilib, qud... satvoti Mozandaron, Kiylon (Gilon), Ray[169] yerlari va Iroqqacha bor... yetdi. Odamlar qalblariyu, quloqlari uning xabari bilan to'lib tosh... uzoq-yaqindagilar, ayniqsa Shoh Shujo'[170] undan xavflandi. Bu (is... lar hammasi qisqa muddatda, oz kunlar ichida, Temur sulton Husay... ni qatl etgandan keyin ikki yil chamasi o'tgach (sodir bo'ldi)[171].

## Ushbu dovyurakning Ajam Iroqi[172] sultoni Abul-Favoris Shoh Shuj'oga yo'llagan maktubi bayoni

Xuroson yerlari xolis o'ziniki bo'lib, har bir uzog'u yaqindagil... uning itoatiga bo'yin eggach, Temur Sheroz[173] va Ajam Iroqi sulto... Shoh Shuj'oga maktub yuborib, undan (o'ziga) bo'ysunib, itoat q... lishni va mol-dunyo hamda xizmatkorlar yuborishni talab qildi. O'... maktubi jumlasi-yu xitobi ma'nosida u: – «Darhaqiqat, tangri-tao... sizdek zolim hokimlar va (odamlarga) jabr qiluvchi podshohlar u... tidan saltanatni menga berdi. Kim menga qarshilik qilgan bo'lsa, tan... ri undan meni baland tutdi hamda men bilan muholafaga borib, ad... vat qilganlarga qarshi (meni) qo'llab-quvvatladi. Sen buni ko'rdin... va eshitding. Agar (sen) shunga rozi bo'lib itoat qilsang, durust i... qilgan bo'lasan. Aks holda bilib qo'yginki, mening qadamim (kelish... da) uch narsa; xarobalik, qahatchilik va vabo mavjuddir. Mana shula... hammasi sening boshingga tushadi va senga mansubdir», – dedi.

Shoh Shuj'oning tinchlik to'g'risida bitim tuzib, sovg'a beri... sovg'a olishidan, u bilan qudalashib, appoq-chapoq bo'lishidan bosh...





... qilmadi. U o'z qizini Temurning o'g'liga unashtirdi. Lekin ... bo'lgan qabih ishlar bu sururatni tamomiga yetkazmadi. Vosi... ...ning fasodi, sovchining haqorati, pardozchi (ayolning ziyoni tu...) ... shod-hurramlik g'amginlikka aylandi. Men bu haqda badihan ... she'rni aytdim:

Biror zarur ish uchun vositachi tanlasang,
Uning dahosidan ehtiyot bo'lib, (undan) xavotirda bo'l.
(Shuni) bilginki, insonlar tabiatan makr,
jafo, daxl (qilishdan) yaratilgan.
Vositachiga hech vaqt ishonma va hech kimga
ishonmasdan o'z ishingni o'zing qil.
Dunyodagi eng haqiqiy va tengi yo'q er kishi,
(bu) dunyoda boshqa kishiga tayanmaydigan kishidir.

Bu o'rinda so'z jilovining cho'zilishi (bizni) maqsuddan horij... Lekin (ular oralarida) muhabbat bo'stonlari gullab-yashnadi, ... g'unchalari rivoj topaverdi. Ikki taraf[174] o'rtasida sadoqat ... maktublar karvonlari to'xtovsiz sayr qilib, ular shu zaylda hech ... to Shoh Shuj'o vafot etgunga qadar davom etdilar. Shoh ... olim, fozil kishi bo'lib, «al-Kashshof»ni[175] to'la-to'kis, to'g'ri ... mukammal tahlil qilar edi. Uning juda ajoyib she'rlari bo'lib, yetuk ... ham edi. Aytishlaricha, quyidagi arabcha she'r unga mansubdir:

Rostdan ham sevgida mening vaqtim cho'zilib ketganini bilmaysanmi?
Lekin sabr kosalarim doimo kamaymoqda.
Charaqlab quyosh chiqqanda men uning sevgisini saqlayman.
Lekin so'lib borayotgan jismim ahvolim nima
kechayotganligini ko'rsatib turibdi.
Kimki yoshlikda muhabbatning sof sharobidan ichgan bo'lmasa,
Sen (aniq) bilasanki, u (kishi) johila kishidir.

* * *

Oshiqlar xohishiga qaraganda sening xusning go'zal,
Qanday qilib men sening o'rningga o'zgani tanlayin.
Agar men seni eslamay qo'ysam, hayot men uchun xaromdir,
Agar seni jabringdan bir so'z desam, (unda mayli) mening
jonim fido bo'lsin.

Har bir kimsa o‘z ishini tuzatishga harakat qiladi,
Biz bo‘lsak o‘z ishimizni eng yaxshi vakil (tangri)ga topshirdik.

(Uning ismi) Shoh Shuj'o ibn Muhammad ibn Muzaffar bo‘lib, otasi oddiy odamlardanu taqvodor kishilardan edi. Yazd[176] va Abarkuh[177] atroflari uning maskani edi. U bag‘oyat kuchli bo‘lib, uzoq-yaqindagilar undan qo‘rqib, panoh tilardilar. Shu orada Yazd va Sheroz o‘rtasida Hafoja qabilasi arablaridan Jamol Luk ismli bir xaromi paydo bo‘lib, (yo‘ldan) o‘tuvchilarning yo‘lini to‘sib, o‘tish joylarini berkitardi va boylarni talab, kambag‘al-bechoralarni nobud qilardi. U odamlarning oz-ko‘pligiga parvo qilmas, hatto osmonda boshiga «yulduzlar to‘kilsa ham»[178] bu yulduz o‘qlariga e’tibor bermas edi. Jamol Luk bir toifa joylarni vayron qildi va ekin-tikinu chorvani halok etdiki, «Holbuki tangri fasod (ishlar)ni yoqtirmaydi»[179]. Oqibatda Shoh Shuj'oning otasi tekislik yoki pastqam joylarning birida uni poyladi, keyin Jamol Lukka duch kelib, u bilan yuzma-yuz turgan holda og‘zaki jang qildi, so‘ngra esa (u bilan) kurashib yerga yiqitdi va kallasini kesib, (tanasidan) judo qildi. So‘ngra u boshini sulton[180] huzuriga olib jo‘natdi. Natijada, sulton uni boshqa yordamchilaridan muqaddam tutib bir qancha joylarga ajratib unga «iqto‘» qildi va uni (o‘ziga) yaqin olib, har qanday shiddatga qarshi tayanch deb bildi. Shoh Shuj'o otasining bir nechta bolalari, qarindoshlari va nabiralari (bor) bo‘lib, ulardan har qaysisi boshliq bo‘lib, barcha (odamlar) bo‘ysunar edi. Uning bolalari Shoh Muzaffar, Shoh Mahmud, Shoh Shuj'olar bo‘lib, ulardan har birining so‘zi kesadigan qo‘li itoat qildirib tutadigan bo‘lib qoldilar. Sultonning esa o‘zidan keyin podshohlik ishlarini boshqaradigan[181] o‘g‘li yo‘q edi. Qachonki o‘lim jarchisi yaqinlashganida sulton unga «Labbay» deb javob berdi[182] va «vorislikka hech kimni qoldirmay orqasini o‘girib ketdi»[183]. O‘sha paytda Muhammad ibn Muzaffarning ishlari mustahkam qaror topgan bo‘lib[184], u saltanatda ilgarilab ketib, undan boshqalar esa keyinda qolgan edi. Natijada, Muhammad ibn Muzaffar Ajam Iroqi yerlarida (barcha) itoat qiladigan podshoh bo‘lib qoldi va hech bir





raqibsiz nizosiz mustaqil hokimlik qildi. Bu yerlarda u xohlaganicha tasarruf yuritib, tangri-taolo degan: – «E tangrim, mulk egasi! Sen istagan kishingga hokimlikni berasan»[185] xil'atini unga kiygizdi.

Muhammad ibn Muzaffar hayot vaqtida[186] uning mashhur o‘g‘li Shoh Muzaffar[187] vafot etdi va o‘zidan keyin o‘g‘li Shoh Mansurni xalifa qilib qoldirdi. Keyin Shoh Shuj'o va uning otasi o‘rtasida nizo va fasod sodir bo‘ldiki[188], bundan xayrli ish chiqmadi. Shoh Shuj'o o‘z padarini tutib olib, unga jabr-jafo ko‘rsatdi. Ikki ko‘zini jarohatlab, nobino etdi va saltanatga egalik qilib, unda qaror topdi.

Shoh Shuj'o «jav' ul-baqar»[189] kasaliga mubtalo bo‘lib na safaru, na (bir joyda) muqim turganida ro‘za tuta olmas edi. U afvkor tangriga tez-tez duo qilib, o‘zini Temur bilan uchratmasligini tilardi. Ajal vaqti yetib, o‘lim farroshi undan umid to‘shagini yig‘ishtirib olganida[190] Shoh Shuj'o butun qarindosh-urug‘larini jamlab, ularga mamlakatu shaharlarini taqsimlab berdi. Natijada, o‘z pushti kamaridan bo‘lgan o‘g‘li Zayn al-Obidinni Sherozga hokim qildi. Bu shahar mamlakat poytaxti va musofirlarning xush ko‘rgan joyi edi, o‘z birodari Sulton Ahmadga Kermon viloyatlarini «iqto'» qilib (bo‘lib) berdi va birodarining[191] (bir) o‘g‘li Shoh Yah'yoga Yazdni, uning (ikkinchi) o‘g‘li Shoh Mansurga esa Isfahonni tortiq qildi hamda o‘zining ushbu vasiyati bilan Temurga suyandi. Bularni u (yozuv) yoziladigan keng jildda bittirib, mavjud majlis ahlini guvoh qildi. Bu xususda u go‘yo Abi Zavba'ga shamolni topshirgan kishiga o‘xshadi[192].

O‘lim Shoh Shuj'oning umr kiyimini yig‘ishtirib olgach, uning qarindoshlari o‘rtasida kelishmovchilik va nizo yaproqlari kurtak otdi. Shoh Mansur Zayn al-Obiddinga qarshi qasd qilib, Zayn al-Obiddinning ikki ko‘zini o‘yib, azobga soldi. O‘z amakisiga qarshi chiqib, paymon ipini tarqatdi va uning otasi bobosi boshiga qanday kunni solgan bo‘lsa, u ham uning[193] boshiga o‘shanday kunni soldi. Bu qissa ipi uzundir, agar biz uning ipini chuvalashtirish va o‘rash bilan shug‘ullansak, (asl) maqsaddan chetlab ketamiz. (Bu hodisalardan) Temur ranjib nafratlandi, ta'bi xira bo‘lib, qayg‘u alamini ichiga yutdi. Lekin bu to‘g‘rida qulay fursat kutib, payt poyladi.

## Temurning bebosh va ziyonkor qo'shin bilan uchinchi marta Xorazmga otlanishi bayoni

So'ngra Temur qat'iy azmu qaror va jur'at bilan yana Xorazm ustiga yurish qilishga bel bog'ladi va Astrabod[194] yo'li orqali Xuro-sondan (chiqib), o'sha mamlakatga tomon yuzlandi.

Xorazm sultoni hamon g'oyib edi. Temur xorazmliklar ustiga o'z tomonidan noib tayin qilmoqchi bo'ldi, lekin uning istiqboliga (av-val) zikr etilgan Hasan Surij peshvoz chiqib, Temur bilan sulh tuzdi va undagi yomonlig-u qabohatni (mol dunyo va pul evaziga) sotib oldi va unga: «Ey mavlono Amir! Biz hammamiz (sening) asiringmiz, lekin (bizning) sultonimiz g'oyibdir. Basharti, sen (bizning) ustimiz-ga o'z tarafingdan noib qo'ysang, sulton qaytib kelganidan keyin albatta ular o'rtasida adovat voqe' bo'ladi. Agar masala shu zaylda bo'lsa, unda sulton tomonidan mening boshimga kulfat kelishi eh-timol. Natijada, bu narsa adovat kuchayishiga sabab bo'ladi hamda ikkingiz o'rtangizda jabr-u jafo va qašovot ziyoda bo'ladi. Qahring musulmonlar ustiga qo'yilib fasod voqe' bo'ladiki, xolbuki «tangri fasodchilarni xush ko'rmaydi»[195], faraz qilaylik, Husayn So'fi sening noibing bo'lsin, barcha xalq xizmatingga rioya qilib, sening tomo-ningni olib ish tutsin: fikring eng oliy fikr va farmoningga amal qilish eng avlo (ish) bo'lsin», – dedi. Temur Hasanning gapini tinglab ay-ganlarini qabul qildi va jo'nab ketish uchun o'z chodirlarini buzdirdi.

Zikr qilingan Hasanning bema'ni qiliqlari bilan tanilgan bir bebur-d o'g'li bor edi. Go'yoki u sulton[196] joriyalaridan biri bilan zino qilgan. Bu hamma yoqqa yoyilib, u (xabar)ning sassiq hidi sultonga[197] yetib bordi. Lekin Hasan bu jirkanch ishdan xayrli ibrat chiqarib olmay: «Sulton nazdida xizmatlarim-yana qanday xizmatlarki, – bor! Men uning shahrini har qanday zolim kofirlardan himoya qildim va bu yo'lda mol-dunyomni-yu izzat-e'tiborimni uch martaba fido qildim. (Temur bilan) sulh tuzganim badaliga sulton albatta o'g'limning gunohidan o'tib, uni kechiradi», – dedi.

Sulton safaridan qaytib, yuz bergan ishning haqiqatligidan voqif bo'lgach, Hasanni va uning o'g'lini tutib (keltirib) qatlga tortdi va ularni o'z qahri sheri oldiga tashladiki, u (ularni) yutib yubordi. Sul-





...lar diyorlarini xarob etib, butun mol dunyolarini[198] o'z xazinasi-ga keltirdi.

Keyin, ko'p o'tmay Husayn So'fi vafot etdi[199] va undan keyin hokimiyatga uning o'g'li Yusuf So'fi[200] egalik qildi.

Bundan oldinroq[201] Temur ular bilan qudalashib, muxoliflariga qarshi (ularga) yordam berib, (ularni) qo'llab-quvvatlagan edi va Ja-hongir deb ataladigan o'z o'g'lini ulardan nihoyatda qadr-qimmatli, sharafli aslzoda, yuzidan nur sochilgan, Shirindan ko'ra ham husndor, Valloladan[202] ko'ra zarofatli bir qizga uylantirgan edi. Xon(lar) qizla-ridan bo'lganidan uni Xonzoda[203] deb atardilar. Xonzoda (Jahongirga) Muhammad Sultonni tortiq etdi. Muhammad Sultonning ziyrakligi va iqboli porloqligiga ochiq oydin dalillar bor edi. Temur uning xis-latlarida baxt-u saodat nishonlarini mushohida etgach, zotan u ziy-raklikda Temur farzandlari va nabiralaridan (batamom) ustun edi, uni (ularning) barchasidan afzal ko'rdi va amakilari mavjudligiga qara-may o'ziga valiahd qildi. Ammo zamon Temurga inodlik ko'rsatdi, Muhammad Sulton bobosidan oldin Rum yerlaridagi[204] Oqshaharda[205] vafot qildi. Ushbu (voqea)ning zikri keyinroq keladi.

## Temurning to'rtinchi marta Xorazmga tavajjuhi bayoni

Hasanning boshiga tushgan kulfatni eshitgach, Temur qahrlandi. U o'z azmu qarorini dadil qilib g'azabi jilovini Xorazmga tomon bur-di[206]. U Xorazmni egallab, (uning) sultonini o'ldirdi. Shahar ruknla-rini vayron qilib, binolarini xarob etdi va (Xorazmdan) boqiy qismi ustiga o'z tomonidan noib tayinladi. Xorazmdan ko'chirib olib ketish mumkin jami narsalarni Samarqand yerlariga olib ketdi. Damashq-ning vayron bo'lish yili «xarob»[207] ( 803) so'zi bo'lganidek, Xorazm-ning vayron bo'lish yili «azob» (773)[208] (so'zi)dir.

## Temurning Mozandaron[209] yerlari amiri Shoh Valiga[210] yuborgan maktubi bayoni

Shuningdek, Temur Xurosonga yo'l olgan vaqtida Mozandaron yerlarining amiri Shoh Valiga maktub yubordi hamda o'sha joyda-gi mustaqil amirlardan Iskandar al-Jallobiy Arshivand va Ibrohim

al-Qummiyga ham xabar yetkazib, odati bo'yicha ularni o'z huzu ga (kelishga) da'vat etdi. Ibrohim Arshivand va Iskandar zaruratda (bunga) rozi bo'ldilar, ammo Shoh Vali bu sher esa rad javobini be di[211]. U Temurning xitobiga (hech) e'tibor bermay, unga (yozga javobida qo'rslik (bilan muomala) qildi.

### Shoh Valining Iroq sultonlariga maktubi va bu borada nizo va noittifoqlikdan nimalar voqe' bo'lgani bayoni

Keyin Shoh Vali Ajam Iroqi va Kirmon sultoni Shoh Shuj'o Arab Iroqi[212] va Ozarbayjon mutavallisi Sulton Ahmad ibn Shay Uvaysga[213] xat yuborib, Temurdan o'ziga maktub kelganidan, o'zida unga qanday javob sodir bo'lganligidan ularni voqif qildi. U o'z xat da dedi: «Men sizlarning hamsoyangiz bo'lib, (mening) ishlarim ya shi bo'lsa, sizlarning ishlaringiz ham tartibda bo'ladi. Agar Temurda menga biror kulfat kelsa, unda u (kulfat) sizlarning yerlaringizga ham yetib boradi. Agar (siz) menga yordam qilib, madad bersangiz, me sizni (ham) bu mashaqqatdan xalos qilaman. Aks holda, sizlar (us bu) she'rda aytilganidek bo'lib qolasizlar.

(Agar) kimning qo'shnisining soqoli olinsa, o'z soqoliga ha suv quyib ivitaversin. Ammo Shoh Shuj'o esa uning gaplariga e't bor bermay tashlab qo'ydi va zikr qilib o'tilganidek, Temur bila sulh tuzib, sovg'a berib sovg'a oldi. Sulton Ahmad esa (Shoh Valiga nazar-pisand qilmaslik (bilan) javob berib, dedi: «Bu chig'atoylik shol», cho'loq nima ham qilardi? Qayerdan? Qanday qilib bu cho'lo chig'atoylik ikkala Iroqqa (Ajam va Arab Iroqlariga) kira oladi? U bilan bu mamlakatlar o'rtasida «tikonli daraxtning po'stini qo'l bila sidirishdek mashaqqatlar»[215] bor. Joy orasida qancha katta farq bordi Temur Iroqni Xuroson misoli xayol qilmasin. Agar u bizning yu timizga kelishni niyat qilgan bo'lsa, albatta o'zi bilan (birga) o'lim ham keladi va uning (butun) orzu-umidlari puchga chiqishi muqarra dir. Bizlar shunday qavmmizki, bizda ham kuch-quvvat, ham shidda qurol-yarog'u qo'shin, mol-dunyo ham shavkat mavjuddir. Faqat bi gagina balandparvozlik yarashadi. Hatto go'yo al-Mutannabbiy[216] sh baytni bizlar haqimizda aytgandek:





...biz odamlar qiyofasidagi jinlar, yo'q, tuya qiyofasidagi qushlarmiz».

Shoh Vali ular (ikkovlari) dan ushbu (javobni) bilib, ular yolg'iz ...g'am-kulfati bilan tashlaganiga qanoat hosil qilgach: «Ammo, ...haqqi, men bo'lsam hech qachon Temur bilan chin sidqidildan ...beozor qalb (nafs)»[217] bilan muvofiqlikka kirmayman! Agar men ...(Temurni) yengsam, butun shaharlarda siz ikkalangizni ogoh ...ida namoyish etaman va «basirat egalariga[218].» siz (ikkingiz)ni ...qilaman. Agar u mendan g'olib kelsa, unda sizlarning ustingizga ...ladigan (balo)da meni hech bir aybim bo'lmaydi. Ilohim, sizlarning ...(ustingizga) tamomiy qazo-yu umumiy balo kelsin!», – dedi.

Keyin Shoh Vali tangri-taoloning qazo-yu qadriga taslim bo'lib, Temur bilan muloqotga tayyorlandi. Ikki tomon bir-biriga ro'para ...lib, o'q otish, qilich zarbasi va nayza ta'nasi bilan qo'shilib ketgach, Shoh Vali bir muddat Temurdan kelgan ofatu kulfatga chidash berdi, keyin Temurning (qanday) hujum qilishi va hamlasini ko'rgach, orqa- ...o'girib oldi va «Majol yetmaydigan (narsa)dan qochish sunnatiga amal qildi»[219]. Iroqqa borishning imkoni bo'lmaganidan u Rayga to- ...yuzlandi. Rayda Muhammad Chavkar deb ataladigan mustaqil ...bo'lib, o'sha qishloq va shaharlar hukmida istaganicha hukm yu- ...ardi. U oliy janob va shijoatli, barcha itoat qiladigan hukmdor edi. Shunga qaramasdan u Temurga xushomad qilib, uning ba'zi ishlari- ...dan cho'chidi. Natijada Muhammad Chavkar Temurning shavkati-yu ...shiddatidan qo'rqib, Shoh Valini o'ldirib,kallasini Temurga jo'natdi[220].

### Abu Bakr Shosboniy va Temur o'rtasida sodir bo'lgan voqealar bayoni

Mozandaron[221] viloyatlarining birida Shosbon[222] deb ataladi- ...gan qishloqda Abu Bakr[223] ismli bir kishi bor edi. Janglarda u go'yo ...darg'azab bo'lib, totor askarlaridan[224] ko'pini qirib, nobud qilgan edi. Agar u kurashga bel bog'lasa, hech bir kimsa unga bardosh bera ol- ...mas, (agar) u sallasini o'rasa odamlar o'rtasiga qiyomat qoyim so- ...lardi. U doim tepaligu tog'lar orasida yashirinib, qo'shinni va bo- ...shlarni shu darajada yerga yopishtiraverardiki, hatto (odamlar) uning ...haqida masal to'qib, mabodo tushlarida ko'rsalar ham undan qo'rqib,

titraydigan bo'ldilar. Agar biror kimsa o'z otiga (to'rvada) yem ils yoki uni sug'orsa, ot suvdan tisarilib yoki to'rvadan hayiqib hurks u (kishi) otiga: «Nima (balo), suvda yoki to'rvadagi arpada Abu Bak Shosboniyni ko'rdingmi? » – deyar edi.

Aytishlaricha, ko'pdan ko'p urushlari, janglari va ofatlariga qa ramasdan, Temur istilosi vaqtida uning askari faqatgina uch kishi dan iborat zarar ko'rganki, ular Temurning o'ziga va askarlariga nihoyatda qattiq talofot yetkazib, ulardan ko'pini jahannam qa'riga uloqtirganlar. Ulardan biri Abu Bakr Shosboniy, ikkinchisi Saydi Ali Kurdiy va uchinchisi Ummat Turkmoniydir. Ushbu Abu Bakr aytishlaricha, Mozandaron darbandlaridan birida chig'atoylik Abu Bakrni har tomondan o'rab olib, unga najot yo'llarini to'sib[225], to'r arqonlarini mustahkam qilgan. Ular uni bir qoya ro'parasidagi ikkinchi bir qoyaga qisib oldiki, bu ikki qoya orasidagi masofa sakkiz quloch edi. Uning qa'ri[226] tik qazilgan quduqdek yoki jahannam tubidagi vodiy kabi (chuqur) edi. Abu Bakr o'rgatilgan otdan tushib, ustidagi aslaha va qalqon bilan bir qoyadan ikkinchi- siga qarab sakradi va hech bir talafot ko'rmay go'yo Taabata Sharra[227] qutulgandek qutuldi. Keyin u o'z odamlariga qo'shilib, dushmanlarni halok etdi va ulardan o'lganlarini fano tegirmoniga olib borib yanchdi. «Keyin uning ishi nima bo'lgani va holi ne kechganini bilmayman[228]».

Ammo Saydi Ali Kurdiy bo'lsa kurdlar yerlarida amir bo'lib, (o'zining) soqol-mo'ylovi chiqmagan bir guruh odamlari-yu benuqson otlari bilan yaqin yo'lab bo'lmaydigan tog'larda va yo'li uzoq hamda mashaqqatli joylarda yashardi. U o'z jamoasi va (o'z) itoatiga kirgan kishilar bilan chiqib, tor yo'llar og'ziga o'zining ishongan odamlaridan qo'yar, keyin esa Temur askari ustiga g'oratlar qilib musulmonlar uchun ulardan qasos olar, ularning odamlari-yu chorvalaridan imkon boricha ajratib olib, ko'zlagan maqsadiga erishganidan keyin o'z iniga qaytib ketardi. Bu hol Temur hayotlik vaqtida va u vafot qilganidan keyin ham, ya'ni uning (o'zini) o'lim kelib bosguncha davom etib tugadi. Ammo Ummat Turkmoniy bo'lsa, Qorabog'[229] turkmonlaridan edi. Uning ikki o'g'li bo'lib, ulardan har biri Temur qalbida o'chmas dog' qoldirgan edi. Turkmonlar bilan Amiranshoh[230] va chig'atoy





askarlari o'rtasida to'xtovsiz to'qnashuv va urushlar davom etib turadi. Turkmonlar ular jamoalaridan hisobidan adashadigan darajada son-sanoqsiz askarlarini nobud qildilarki, nihoyat ularga mansub kishilardan biri xoinlik qilib, chig'atoyliklar tomoniga o'tdi. U ularning beparvoligini payqab, Amiranshoh askarlarini turkmonlar ustiga boshlab keldi. Ular kechasi turkmonlar ustiga tashlanib, qonlarini sel qilib oqizdilar.

Natijada, ularning uchchovlari ham, tangri ularga rahm qilsin, xudo yo'lida shahid bo'ldilar. Men she'r aytdim:

Eng og'ir kulfat g'animlar bodxohligidir,
Lekin undan ham og'ir (ofat) do'stlar xiyonatidir.

Yana aytilgan:

Do'st kishidan kelgan ozor er kishi uchun
Hind qilichining zarbasidan ham kuchliroqdir.

Yana aytilgan:

Yaqin (kishilarga) qiladigan ishingiz shu bo'lsa,
begonalarga nima qoldirdingiz?

## Temurning Ajam Iroqiga yurishi va Shoh Mansurning ushbu sersuv dengiz (Temur qo'shini) girdobiga sho'ng'ishi bayoni

Shoh Shuj'o vafot etgach, Ajam Iroqining hukmi Shoh Mansurda karor topdi, Mozandaron yerlari-yu uning viloyatlari Temur uchun xolis bo'ldi. Zikr qilib o'tilganidek, Shoh Shuj'o o'z o'g'li Zayn al-Obiddinga (homiylikni) Temurga vasiyat qilib, (o'g'li) ishini unga topshirgan edi. Natijada, amakivachchasi Zayn-al-Obiddinga nisbatan qilgan ishini pisanda qilib Temur Shoh Mansurga qarshi yurishga yo'l topdi. Bu voqeani vaj qilib Temur uning ustiga yurish qildi. Shunda Shoh Mansur o'z yaqin (kishi) laridan madad so'radi. Lekin ular hammasi unga qarshi bo'lib chetlandilar, undan o'zlarini uzoq tutib, har qaysisi o'z tomonini muhofaza qilish bilan mashg'ul bo'ldilar. Natijada, Shoh Mansur shahar atrofini mahkam istehkom bilan o'ragandan keyin, mukammal qurollangan ikki mingga yaqin suvoriy bi-

lan yakka o'zi Temur bilan muloqotga tayyorgarlik ko'ra boshl... U shahardagi otlaru odamlarni tartib bilan qo'ydi va (shahar) ahli... sabr-toqatu hushyorlikka undadi. Shahar a'yonlarining akobirlari v... aholisi boshliqlari unga dedilar: – «Urush devori qo'zg'alib harak... ga kelgach, biz sen bilan jang maydoniga sho'ng'iylik. Temurni... (bizga) yetib kelishiga to'sqinlik qilib, (ustimizga) hujum qilishid... o'zimizni himoya qildik (deylik). Biz hatto uning talay odamlari... yerga yopishtirib, (uning) askarlaridan bir qancha botirlarini nob... qildik ham (deylik). Keyin sen ikki ming[231] suvoring bilan bu quy... bulutdek qo'shinlarga qarshi nima ham qilasan? Ehtimol seni... banding yechilib, qo'shining mag'lub bo'lishi mumkin. Shunda s... bu qizg'in jangdan qochib xalos bo'lishingdan va najot axtarishi... dan bo'lak narsa topmaysan. Dushman bilan urishib holdan toyga... mizdan keyin bizlarni go'yo qassob kanorasidagi go'shtga o'xshat... tashlab ketarsan. Adovat kuchaygandan keyin nadomat (bizga) foyd... bermaydi. U paytda bizdagi ushbu darz faqat qatl, nahb-u g'orat v... asir bo'lish yo'li bilangina tuzatiladi». Shunda Shoh Mansur qo'l... ni cho'qmoriga qo'yib: «Mana bu» alif «Temurdan qochgan har b... kimsa onasining andomida[232] bo'ladi», – dedi. «Men bo'lsam (o'z) qo'shinim bilan birga jang qilaman.

Agar qo'shinim meni tashlab ketsa, unda yolg'iz o'zim urisha... man va jangda (o'z) jiddi jahdimni ayamayman, Temurga qarsh... butun g'ayrat-shijoatimni sarflayman. Agar (men) g'olib chiqsam... murodimga erishaman, agar halok bo'lsam, mendan keyin o'lganla... uchun men gunohkor emasman. Go'yo shoir ushbu baytni aytganda... men uning xotirasida hozir bo'lganman:

> Agar u bir ishga azm qilsa, ko'z oldiga o'z maqsadini qo'yib,
> uning oqibatini zikr qilishdan chetlanadi.

Aytishlaricha, Shoh Mansur o'z odamlarini qal'alariga tarqat... ib, shu (yo'l) bilan o'z shaharlarini muhofaza qilishni xohladi-yu... qishloqlarida talofat ko'rdi. Keyin u Sheroz boshliqlari va askarla... rini, uning g'oyatda aziz kishilari-yu o'g'lonlarini to'plab, dedi: – Bu dushman nihoyatda xavfli[233]. Garchi u xorijiy bo'lsa ham bizning ye... rimizda paydo bo'ldi. Fikrimcha, men u bilan bironta joyda uchrash...





...man va uni qilich yoki nayza bilan muqobil etmay, balki chor ...ida aylanib yuraman hamda raiyalarim bilan har tarafdan uning ...iga chang solaman. Biz ularning kiftlaridan bosib, qo'l-oyoqlarini ...miz, kunduzi uni ta'qib etib, kechasi kuzatamiz. Quvvatimiz yet... ...ha unga qarshi kuch-quvvat va otliqlar tayyorlaymiz[234]. Hardam ...ing g'aflatdaligini sezsak bo'yin va boshini bo'laklaymiz. Ba'zan ...ga qilich urib, ba'zan esa nayza sanchamiz, bir marta unga jarohat ...kazib, ikkinchi marta mollarini haydab ketamiz. Biz uning oromini ...ib, qaytishiga monelik qilib, oldini to'samiz. Shunda uning uchun ... joylar hosil bo'lib ahvoli qiyinlashadi, yo'llar va yuradigan joylar ...iladi. Biroq, e oliyjanob kishilar! Sahro yo'lbarslari va odamlar ...utlari! Sizning vazifangiz hech vaqt – na kechasiyu, na kunduzi g'aflatda bo'lmay (shahar) devorlarining mustahkamligini qo'riqlash... Men sizlardan uzoqda turgan vaqtimda ham dushmanlarning bi... ...tasi sizga yaqin kelolmaydi. Agar ular sizlarni qurshab olsa, u ...qtda sizlarda o'zingizni himoya qiladigan darajada kuch bor. Men ...zlarni xudoga (omonat) topshiraman, chunki u eng yaxshi panohdir. ...zlar faqat bu shiddatda eng ko'pi bilan Tangri taolo o'z nabiysi Musoga qancha (vaqt) va'da qilgan bo'lsa, shuncha vaqt[235] bo'lasiz. Bu fakr Allohga mansubdir. U naqadar qat'iy, mustahkam hamda bu ...qsadning yuzi qapchalik husndordir». Keyin Shoh Mansur chiqib, (boshqa) bir tomonni ko'zlab ketdi.

**Shoh Mansur maqsad qilib halqasini bog'lagan hiylaning zohir bo'lishi va u (halqa)ning tarqalishi bayoni**

Shoh Mansur shahar darvozasidan o'tayotgan paytida shum kampirlardan bir jodugar uni ko'rib, malomat qilib uning haqiga bo'lmag'ur so'zlar yog'dirdi va ajamlar tilida jar solib: – «Bu uyatsiz mijg'ovga[236] qaranglar. U mol-dunyomizni yutib, qonimiz ustidan sohlaganicha hukm yuritdi, endi esa biz unga g'oyatda muhtoj bo'lib turgan paytimizda bizlarni dushmanlarimiz changaliga tashlab ketayotir. Qurol ko'tarishni tangri unga xarom qilsin va (o'z) maqsadiga yetishi va orzuyiga erishishida (tangri) unga sira madad bermasin!» – deb nido qildi.

Bu (so'zlar) Shoh Mansurning chaqmoqtoshini alangalanti[illegible] qalbini jarohatlantirdi, uning g'azab o'ti charsillab (yonib), und[illegible] chiqqan alanga Shoh Mansur mulohazasi g'aramlariga o't qo'y[illegible] yubordi. Uning mag'rur qalbi nafratga to'lib jaholat taassubi (uni) sh[illegible] daraja qamrab oldiki, hatto shunday bama'ni kishidan aql-idrok ket[illegible] Natijada, u g'alat ishga yuz tutib unga yopishib oldi[237]. Keyin u az[illegible] jilovini (orqaga) burib, o'z jur'at tishlarini g'ijirlatdi, o'z kurash[illegible] dan qaytmaslikka, urush qazosi majlisida bo'ladigan to'qnashish[illegible] orqaga chekinmaslikka qasamyod qildi. Bu, narsani ertalabu ke[illegible] qurun o'ziga odat qilib, toki «tangri istagan kishisiga g'alaba ato qi[illegible] magunicha[238], davom ettirishga ont ichdi. Keyin u dushmanga ro'pa[illegible] bo'ldi va o'z botirlarini[239] tartib bilan joylashtirdi, urush qildi[240]. Sh[illegible] Mansur askari orasida Temurga sirdosh bo'lgan xurosonlik bir am[illegible] bor edi. U Muhammad ibn Zaynuddin atalib[241], (benihoya) buzuq fi[illegible] siqlardan edi. Shoh Mansur askarlarining asosiy qismi u bilan bi[illegible] edi. Birdan u Temurga tomon yurgach, qo'shinning ko'pchiligi un[illegible] ergashdi. Natijada (Shoh Mansur bilan) qo'shinlardan faqatgina mi[illegible] chog'ligi qolsa-da, ulardan birortasi ham jangdan qochmadi. Ishl[illegible] iztirobga tushsa ham Shoh Mansur mustahkam turdi. Jang olovl[illegible] bir-biri bilan tutashib, urush chaqmoqtoshlari lovullab yondi: o'q u[illegible] qunlari har tomonga uchar, qilich o'roqlari bilan o'rilgan bosh mev[illegible] lari (atrofga) sochilardi. Nihoyat, tun lashkari kelib, kunduz qo'sh[illegible] qochish uchun etagini shimirdi. Raqiblardan har biri o'z qarorgoh[illegible] qaytib, Shoh Mansur (qanday) makr ishlatish ustida fikr yuritdi.

### Tun og'ushi ostida Shoh Mansurning Temur askariga[242] nisbatan qilgan urushi va (etqizgan) kulfati haqidagi naql bayoni

O'z otlari ichida zamondan ham qaysar, davrdan ham shiddatli[illegible] bir otga minib, Shoh Mansur vaqt yarim kechadan o'ta boshlagan[illegible] dushman qarorgohi tomon yuzlandi. U bir parcha palosga o'ral[illegible] mis qozonni otining dumiga tang'ib oldi va uni ip bilan mahkam[illegible] o'rab bog'ladi va otning boshini dushman tomonga burib haydab ke[illegible] di. Ot tajang (bir) holga kelib, askargohga qarab chopib ketdi. (B[illegible]





[illegible]-surondan) odamlar sarosimaga tushib, bir-birlari bilan (o'za-[illegible]) urishib ketdilar. Qilich ariqchalari o'sha dengizlar (odamlar) qorin-[illegible] oqib o'ta boshladiki, go'yo qiyomat qoyim yaqinlashganidek [illegible] osmon uchar yulduzlar bilan ular ustiga ag'darilib tushgandek [illegible] yer ulardan larzaga kelib (ko'tarilib) tushgandek bo'ldi. Shoh [illegible], go'yo o'z o'ljasi atrofida parvona bo'lgan lochindek ular [illegible] turar, kim chetlansa uni o'ldirar, kim qochsa yakson qilardi.

Aytishlaricha, o'n mingga yaqin odam halok bo'lguncha ular [illegible] birlari bilan urishaverganlar. Tun o'z chodirini buzib, kunduz o'z [illegible]larini ko'targanda Temur odamlari bu baloning qayoqdan kel-[illegible] bildilar. «Koshki bu tun ular tepalaridan ketmaganda» edi[243]. [illegible], tong otganda Shoh Mansur yordamchilari kamaygan va ma-[illegible]lari qochgan edi. Lekin u (o'z) jamoasidan besh yuz chog'li [illegible] guruh tanlab, ular bilan (dushman ustiga) sherdek savlat to'kib [illegible] va hayot-mamot jangi girdobiga sho'ng'idi. Ular oldida [illegible] kimsa boshqadan madad topmadi. Shoh Mansur bo'lsa o'ng-u [illegible] chayqalib, olg'a tashlanib: «Men sabr-toqat qilib, o'z qilgan [illegible] uchun xudodan ehson kutuvchi Shoh Mansur bo'laman!» – deb [illegible]. «Shunda uning oldida ularning (dushmanlarini) xuddi [illegible] qochayotgan va hurkkan eshaklardek ko'rasan[244]». U Temur [illegible] joyga qarab yo'l oldi. Temur undan qochib, o'zini ayollari [illegible] urdi va ular o'rtasida kiyimga o'ranib, yashirinib oldi. Xotinlar [illegible] Mansurning oldiga chopib chiqib. – «Biz ayollarmiz», – dedilar [illegible] jang qilayotgan bir askar toifasini (unga) ko'rsatib – sen istagan [illegible]) o'sha joyda va sen qidirayotgan kimsa ular orasida» – dedilar. [illegible] Mansur orqaga qaytib, aldangan holda xotinlar ko'rsatgan to-[illegible] qasd qildi. Natijada, askar to'dalari uni har tomondan qurshab, [illegible] qilib o'rab oldilar. Badohatan men ushbu (she'r)ni aytdim:

> Erlar boshlarini ayollardan o'zga hech kim uzmagan,
> Erlarga kelgan har qanday balo faqat ulardandir.
> Ozmuncha yomonlik olovlari odamlar jigarini
> kuydirmaganki, bunga asl sabab faqat xotinlar makridir.

Shoh Mansur esa bir qancha a'lo xislatlarga ega ot ustida o'tirar va [illegible] qilich bilan dushmanlarga o'ng-u chapdan zarba berardi. Uning

uchqur oti egasi bilan (bir)ga jang qilib, bu urho-urda kimki unga ya-qin kelsa tepib tashlardi. Go'yo u men «Mir'otul adabda[245]» aytgan she'r ma'nosini nashida etardi:

Tangri qo'li menga quvvat berib, dushman qo'lini bog'ladi,
Bu qo'llarim ikki qilich bilan ularga zarba beradi.
Shoh Mansur o'sha to'dadan qaysi biri ustiga tashlansa,

Garchi ular hammasi shimol ahlidan[246] bo'lsa ham, uning oldida o'ng-u so'lga tarqalib ketardilar, lekin misra:

Yigit kishiga tangridan madad bo'lmasa,
unda eng avval[247] uning (o'z) ijtihodi ziyon keltirur.

Nihoyat, jang Shoh Mansurni holdan toydirdi, qo'llari qilich zarbasi-yu nayza ta'nasidan charchadi, botirlari yer tishlab, ot va odamlari o'ldirildi, uning hol-ahvoli har jihatdan o'zgardi. Uning (na-jot) yo'llari berkilib, (uning uchun) darbadar to'silib qo'yildi. Uning ovozi o'chib, (qolgan) odamlari tashvishga tushib qoldilar: uning yashini so'nib bayroqlari quyi egildi, yutuqlari ozayib, qanoti kesildi, ruhi zaiflashib, jarohati og'irlashdi; vaysashi soqit bo'ldi, g'ing'il-lashi tinchidi. Keyin u o'z hamrohlaridan chetlanib, yolg'iz qoldi – jarohati unga azob berib qiynar edi – va u bilan bu dengiz (oqimi)da faqat ikki kishigina qolgan edi. Ulardan birining ismi Tavakkal (mumkin Tukal), ikkinchisiniki esa Mihtar Faxr (uddin) edi. Shoh Mansur dahshatda qoldi va uni tashnalik qamrab oldi, jigarini chang va issiqlik tafti qopladi. U ichish uchun (bir qultum) suv izlab, topa olmadi. Agar tomog'ini ho'llaydigan biron narsa topganda edi, hech biron kimsa uning yo'lini to'sa olmas edi. U o'zini (o'lganga solib) o'liklar ichiga tashlashni avlo ko'rdi va qurol-yarog'ini tashlab, otini haydab yubordi va o'zini (esa o'liklar orasiga tashladi). Tavakkal ham o'ldirilib, yetmish joyidan jarohatlangan Faxruddin esa qutulib qoldi. U keyin to'qson (yosh)gacha yashab uzoq umr ko'rdi. U (Faxruddin) botir va pahlavon kishilar (toifasidan) edi.

O'lim bulog'iga yaqin kelganidan keyin Temur askarlari orqaga qaytib, (bir joyga) to'planib o'zlarini tikladilar. Bu, ulardan kecha-si-yu kunduzi behisob o'lib nobud bo'lganidan keyin (yuz bergan)





edi[253]. Temur Shoh Mansurni yo'qotib qo'yganligi va bu dahshatli ...ning holi ne kechganidan voqif bo'lmaganligidan iztirob chekib, ...vlandi va (ko'zlaridan) uyqusi qochdi. U tirik bo'lsa, fikri-... xavotirda yoki dorul fanoga ko'chgan bo'lsa, makridan xatar-... bo'ladi. U quyosh to o'z pardasi orqasiga yashirinib, ziyo qilichi ...rong'ilikdan iborat qiniga kirgunga qadar yaradorlarni tekshirib (ko'rishni), o'lganlaru yotganlar orasidan Shoh Mansurni qidirish-ni buyurdi. Yaltiroq quyosh dinori yorug'likni qorong'ulik kiyimi ...i ostiga yashirib, qudrat tikuvchisi fazo[249] bo'shlig'iga (gazla-...) asosini yoyganda va «qorong'ulik kelishi bilan kecha[250] «er ...hi ustiga o'z yarqiroq yulduzlaridan iborat dirhamlarini sochgan ...mat tushib hamma tomonga yoyilgan bir paytda chig'atoyliklar-... biri o'lim holatida yotgan Shoh Mansurga duch kelib qoldi. Shoh Mansur bu insonga, yo'q, xiyonatkor shaytonga, (mahkam) yopishib ...: «Omonlik, menga omonlik (ber)! Men Shoh Mansurman – deb ... qildi. Sen meni sir tutginu (mendan) mana shu javohirlarni ol-...n. Mening ishimni xufya tutib, joriy qilmagin, go'yo men seni, sen ...ni ko'rmading va men seni bilmayman-u, sen meni, – dedi. Agar (sen) men turgan joyni sir tutib, meni do'stlarim[251] va yordamchilarim ...ga yetkazsang, unda sen go'yo meni sotilganimdan keyin ozod-...ka chiqargan va men o'ldirgandan keyin tirilgandek bo'lasan. Sen ...ning mukofotimni ko'rib, sidqidildan do'stligimga sazovor bo'la-...n. Keyin Shoh Mansur chig'atoylikka shunchalik miqdorda ko'p javohir chiqarib berdiki, ular uning o'zi va butun zuryodi umrining ...rigacha ham yetardi. Bu bilan Shoh Mansur o'z qissasida va g'us-...ini ochishda go'yo kulfatzoda vaqtida Amirni yordamga chaqirgan (kishi)ga o'xshab ketdi[252]. Chig'atoylik bir dam ham to'xtamasdan Shoh Mansurga tashlandi va boshini shartta kesib, Temurga olib kel-di[253]. Bu voqea bo'lgan ishni: javohirlar berib Shoh Mansur qutulib ...ishiga uringanini Temurga hikoyat qildi. Temur uning sidqidilligi va so'zlarining to'g'riligiga ishonmasdan Shoh Mansurning qabila va guruhlaridan uni taniydiganlarni (olib) keltirdi. Ular Shoh Mansurning ...gisidan – yuzidagi holidan uni tanidilar. Haqiqatdan ham bu Shoh Mansurning aynan o'zi ekanligini bilgach va uni (o'ldirgan) odam-ning yolg'onidan chinini ajratgach, Temur g'azablanib, xafa bo'ldi.

Shoh Mansurning o‘ldirilganligidan u kuyib-yonib, afsuslandi. Keyin (o‘ldirgan) odamdan uning nasabi, otasi, avlodlari, qabila-urug‘lari xo‘jayini-yu murabbiylari haqida so‘rab surishtirdi: ular haqidagi ma’lumotlarni aniqlab, uning naslu nasabi va yashash joylarini bil-gach, o‘sha joyning mutavallisiga o‘z farmonini yubordi. Mutavalli uning ahli-yu bolalarini, yordamchilari-yu tarafdorlarini, bola-chaqa-yu nevaralari, kuyovlari-yu qayinlarini o‘ldirdi. Chig‘atoylikning (o‘zini) esa Temur nihoyat darajada qiynab qatlga tortib, (uning) izini quritdi. Uning maxdumining ham mol-mulkini musodara qilib o‘ldirdi va diyorlarini vayron qildi. Keyin Temur o‘z yerlari atrof-lariga xat-xabarlar yuborib, ularda Shoh Mansur bilan bo‘lib o‘tgan janglar va to‘qnashuvlar tavsifini tasvirlatdi. Janglarda Shoh Mansur-ning hamlasi-yu sabotidan nimalarning shohidi bo‘lganligi va qanday qilib Shoh Mansur o‘zi (jo‘shqin) jang maydonida sho‘ng‘ib (qilich bilan) zarba berganini, jangda o‘ziga nima hosil bo‘lganini, old (to-monidagi) qo‘shinlar sarosimaga tushganlari-yu dushmanlar uylariga bostirib kirganida ayollarning dod-faryod ko‘targanliklarini dahshatli iboralar, fasohat va balog‘at maydonida javlon uradigan (jimjimador) kalimalar bilan tavsifladi.

Bu xabarlar odamlar yig‘iladigan majlislar va marosimlarda tilo-vat qilinib, katta yo‘llar va maydonlarda qiroat etilardi. Ilm-ma’rifat-li kishilar u xatlardan istifoda qilib, kotiblaru maktab bolalari ularni mehr bilan yod olardilar.

E’tiborli kishilardan qaybirovining qissasida go‘yo 95-yilning shavvol (1393 y. avgust) oyida Bistom[254] sohibining elchisi Misr sultoniga[255] kelib, Shoh Mansurni o‘ldirib, Temur Sheroz va mam-lakatning boshqa yerlariga egalik qildi, degan xabar olib kelganligini ko‘rdim. U (Temur) Shoh Mansurning kallasini Bag‘dod hokimiga yuborib, unga va u bilan (birga) bo‘lgan jamoaga o‘ziga bo‘ysunish-ni amr qilgan hamda unga bir xil’at yuborib, o‘zi nomidan pul zarb qilishlikni va juma (namoz)da bu haqda xutba o‘qitishni buyurgan. Bag‘dod hokimi Temur xil’atini kiyib, u (Temur) nimaiki buyur-gan bo‘lsa hammasiga amal qilgan. Shahar devorlari atrofida kallani aylantirib chiqqanlaridan keyin u Shoh Mansurni boshini osib qo‘ydi, degan xabarni keltirgan. Buni to‘g‘ri deb gumon ham qilmayman[256].





**Shoh Mansur bilan (bo‘lgan) jangdan keyin yuz bergan ishlar va yomonliklar bayoni**

Shunday qilib Temur Fors va Ajam Iroqi yerlariga egalik qildi. U Shoh Shuj’oning xeshlaridan o‘ziga yaqin kishilarga va xalqlari podshohlariga xat yuborib, ularning ko‘ngillarini (o‘ziga) moyil qilib, badaviy va o‘troqqa omonlik berganidan keyin, o‘zi yo‘lga chiqdi. Sheroz shahridan o‘tib, uning ishlarini tartibga soldi, otliq va pi-yodalarini qaror toptirdi hamda uzog‘-u yaqinlariga omonlik bilan ... qildi. Natijada, uning da’vatiga (bu) mamlakatlar podshohlari «Labbay» deb javob berdilar, chunki ularning Temurga itoat bildirib, bo‘yin egishdan bo‘lak ilojlari qolmagan edi. Natijada, Temur huzuri-ga Kermondan Sulton Ahmad, Yazddan Shoh Yah’yo yetib keldilar, ammo Sirjonda[257] sulton Abu Ishoq qaysarlik qildi[258]. Temur itoat qilib bo‘ysunganlarga in’om-ehson ko‘rsatib xil’at kiygizdi va bo‘ysun-may qaysarlik qilganlarga ozor bermadi, (to‘g‘risi) o‘zi bilan muxo-liflari o‘rtasida ixtilof chiqarmadi[259]. Itoat qilg‘anlarga izzat-ikromni oshirib, shu bilan qaysarlik qilganlarni yiqitmoqchi bo‘ldi. Sheroz va boshqa shaharlar ustiga omonlik[260] tashladi va har qaysi shaharga o‘zi tomonidan noib tayinlab, o‘zi Isfahonga qarab yuzlandi. (Shu bilan birga) o‘zi otasi (Shoh Shuj’o)dan vasiyligini olgan Zayn al-Obiddin-ga in’om-ehson qildi. Uning o‘ziga va urug‘lariga kifoya qiladigan miqdorda (doimiy) moyana[261] va maoshlar[262] belgiladi.

**Temur Isfahonga[263] qo‘nganda zamon unga nimalar ko‘rsatgani bayoni**

Temur Isfahonga (etib) kelgan paytida, u eng katta shaharlardan (biri) bo‘lib, fozillarga to‘la, buyuk kishilari son-sanoqsiz (ko‘p) edi. Shaharda islom ulamolaridan va mashhur sayyidlardan bir kishi bo‘lib, u ilm-u ma’rifatda g‘oyatda yetuk, amal va ijtihod cho‘qqisiga erishgan edi. Uning ishlari tavfiqli, karomati mashhur, jasoratlari tilga olingan, husni fazilatlari kunlar peshanasiga satrlangan edi. U mu-sulmonlar e’tiqod qiladigan kishi bo‘lib, (uning) ismi ham Imomud-din («Din peshvosi») edi. Isfahon ahli doimo unga Temur haqida so‘zlab, uning balosidan g‘oyat hazarda bo‘lishini takror eslatardilar.

U ularga: madomiki men tirik bo'lib sizning orqangizda ekanm sizga Temurning firibidan hech bir zarar yetmaydi. Agar ajal ye vafot topsam, u vaqtda uning aziyatidan xavotirda bo'linglar», – d yar edi. Ittifoqo Temur Isfahonga kirish arafasida zikr qilingan sh vafot etib, «nur ustiga nur»[264] bo'lgan Isfahonni zulmat qopladi. I fahonliklarning xasratlari ko'payib, ustilariga birin-ketin kulfat yog'ilaverdi. Ular hayratga tushib, go'yo Abu Hurayraga[265] ta undan rozi bo'lsin, – o'xshab qoldilar. Zotan, Abu Hurayra dega «Odamlarning bitta g'ami bo'lsa, menda bir kunda ikkita g'am: b xaltaning yo'qolishi, ikkinchisi shayx Usmonning[266] qatlidir».

Isfahon ahli Temurga peshvoz chiqib, bir qadar mol-duny (berish) evaziga u bilan sulh tuzdilar. Keyin Temur ushbu mol-du yoni yig'ib olishga o'z odamlarini yubordi. Bu (yuborilgan) kishil o'sha to'lovni shaharning har tomoniga bo'lib, daha va mahallalar taqsim qildilar. (Mol-dunyo) yig'uvchilar isfahonliklar orasiga tarq dilar va shahar ahli orasida beboshlig-u buzuqchilik qila boshladil Ular shahar ahliga zo'ravonlik ko'rsatib, ularni go'yo o'z malaylar aylantirdilar va beboshliklarida shu darajaga borib yetdilarki, ha (ularning) xotinlariga ham qo'l cho'za boshladilar. Shahar ahlini ulardan g'oyatda g'azabi kelib, (o'z) boshliqlariga (ular ustid arz qildilar. Shikoyatchilar juda ko'p edi. Isfahonliklar kibrli qav bo'lib: – «Bunday jabru jafo (ichi)da yashashdan ko'ra o'lganim yaxshi», – dedilar.

Isfahonliklarning boshliqlari ularga dedi: «Kech kirishi bilan men nog'ora uraman, lekin kiyim bilan yopmasdan. Siz nog'ora ov zini eshitsangiz, (mening) gapim amalga oshgan deb biling. Shun har biringiz o'z uyingizdagi mehmoningizni tutib (olib), o'zingi oriq va semiz fikringizga binoan hukm yuriting. Natijada, isfaho liklar ushbu aksli fikrga va baxti qora teskari ishga ittifoq bo'ldil Ular nochor nazarlarining haddi[268], bu oqibati xatarli ishlarning falok keltirishini to'la tushunib yetishga qisqalik qildi. Samo o'z nuri lib sidan judo bo'lib yalang'ochlangach va borliq oqsichqoni oqsusar almashtirib, tunning bir qismi o'tgach, boshliq nog'ora chalish bil (mol-dunyo) yig'uvchilar ustiga balo-kulfat yopirildi. Isfahonlikl





o'ldirdilar, – ular olti ming chog'lik kishi edi – va subh kel- ularning isyoni daraxtida sarkashlik butoqlari paydo bo'lib, bu lar (ularga) seroblikdan keyin noqislik hosilini keltirdi hamda o'lim ayon bo'lib, bu o'limdan hammalari talafot ko'rdi.

o'z shamshirini yalang'ochlab, kunduz (o'z yuzidan) par- sidirib tashlagach, ushbu mash'um ish Temurga (borib) yetdi. uning dimog'iga puflab, o'sha on u (joyidan) qo'zg'aldi. U g'azab qilichini[269] yalang'ochladi va o'z tug'yoni o'qdonini hozir- g'azabnok itdek, sher yoki yo'lbarsdek Isfahonga qarab yo'l oldi. shaharga yetib kelib, uni vayronagarchilikka mahkum etib, sha- qon to'kishga, xotinlarning nomusini poymol etishga, jonlarini qilib olishga, mol-dunyoni talashga, imoratlarni xarob qilishga, yondirishga, chorvani yoqib yuborishga, bolalarni uloqti- tanlarini jarohatlantirishga, nomuslarni tahqirlashga, zimmaga majburiyatlarni buzib tashlashga buyruq berdi. U rahmdillik yig'ib olib, qasos namatini yoyishni, keksalarning keksaligi, kichiklarning kichikligi, olimlarning ilmi, fozillarning fazilati va aqli oliyjanoblarning nasabi-yu yuqori tabaqaligi va obro'y-e'ti- g'ariblarning g'aribligi, qarib (yaqin)larning yaqinligi, musul- larning diyonati, musulmonlarning homiyligidagilarning[270] hi- zaiflarning zaifligi, johillarning johilligi va kaltafahmligiga dan, xullas, shahar ichidagi biror kimsaga ham rahm-shafqat likka amr berdi. Shahar ahli jang qilib urushish yo'lidan bosh- hech bir yo'l yo'qligini va uzr-kechirim so'rash maqbul emasligini ndi. Ularni haq o'limdan «na mol-dunyo-yu na o'g'lonlar[271]» olishini va shu damda ulardan hech qanaqa vaj-karson qa- qilmasligini hamda o'zlariga shafqat so'rash naf keltirmasligini Ular bardoshlik qal'alariga o'rnashib, mulohaza qalqonlari o'zlarini o'rab oldilar. Ular taqdir ofatlaridan kelayotgan qazo ning (tangrining) irodasig'a bo'ysunish qalqoni bilan qabul va o'lim qilichlaridan kelayotgan taqdir zarbalarini itoatkorlik va o'z ishlarini tangriga topshirish bilan qarshi oldilar. Temur ning bo'yinlari maydonida o'tkir qilich jilovini bo'shatib yubor- va bo'rilaru sirtlonlar qorinlari hamda qushlar jig'ildonlarini ular

(isfahonliklar) uchun maqbaralarga aylantirdi. Halokat dovullari is- fahonliklar hayoti daraxtlarini uzishda davom etaverdiki, o'lganlar- ni sanaganlarida ular adadi Yunus ibn Matta ummatlari sonidan ham olti barobarcha (ko'p) chiqdi[272]. Shunda farosatli kishilardan kimdir amirlardan qay biridan madad so'ragan holda: «qolganlarni saqlab, raiyya to'g'risida g'amxo'rlik qilgin», – dedi. U amir o'sha fa- so'rovchiga: – «Tepaliklardan birining etagiga bir qancha (go'dak) bolalarni to'planglar, shoyad ularni ko'rgach, ehtimol Temur (ko'ng- li) bir oz yumshar», – dedi. Ular (Isfahon ahli) buyurilgan bu ishga amal qilib, Temurning o'tadigan yo'liga bir to'da go'dak bolalarni qo'ydilar. Keyin haligi amir Temur bilan otlanib, (o'sha) bolalarga qarab yo'l oldilar va ularning yonidan o'taverib Temurga dedi:

– «Ey mahdum, rahmdilning rahm qilinadigan kishiga nazari bi- lan qaragin! dedi. Temur so'radi: – Kim u yotgan baxtiqarolar? Amir dedi – (Bular) «gunohsiz bolalardir. Ular (shunday) ummatki, tang- tomonidan rahm qilingan mahrumlardir, o'lim ularning ota-onasini toptadi va mavlono amirimizning g'azabi ular akobirlari va egalari ustiga tushdi. Ular o'z go'dakliklari (nomi) bilan sening shohona takallufingdan rahm-shafqat tilaydilar, ular o'zlarining tubanligi, zaif- ligi, yetimligi, faqirligi va vayronligi (nomi) bilan xo'rlanganlarga rahm qilishingga va tirik qolganlarini ayashingga shafoat tilaydilar». Temur (bu gapga) javob ham bermadi, hech bir xitob ham aytmadi. Keyin u ot jilovini u (go'dak)lar ustiga burib, ularni ko'rganligini ham va ularga nazari tushganligini ham bildirmadi. U bilan birga o'sha qo'shin va askar ham bolalarning boshidan oxirigacha bostirib o'tdilar, ular otlarning tuyoqlari ostida oyoq osti bo'lib qolib, o'sha (qo'shin) qadamlari ostidagi changga aylandilar. So'ngra Temur mol-dunyoni jamlab, yuklarni bog'ladi va qo'lga kiritgan (o'lja)larni olib, Samar- qandga qarab qaytdi.

Bu ishlar va voqealar jarayonida qanchadan qancha balolar-u kulfatlar, xabarlar-u hikoyatlar, qo'shinlar-u jihozlar, (hokimlar) bo'shatishu tayinlash, jiddiy tarzdagi hazillaru hazil tarzdagi jiddiy gaplar, qurish-u buzilishlar, to'sqinlig-u rad qilishlar, yaroqsiz (nar- salar)ni qurishlaru, obod (narsa)larni xarob etish, tabriklaru ta'zi-





yalar, (to'g'ri yo'ldan) chetga og'ishlar-u to'g'ri yo'ldan yurishlar, olimlar bilan bahslashish-u ulug'lar bilan munozaralar, tubanlarni ulug'lash-u, shariflarni past tutish, qonun-qoidalarni yo'lga solish, uzoqlarni yaqin ko'rishu yaqinlarni uzoq tutish, har bir uzoq va yaqinlariga amru farmonlar yuborish va bulardan boshqa hisobiga sig'ib bo'lmaydigan na devonu, na daftarga qayd (qilib) bo'ladigan (hisob) ishlar bo'lib o'tdi.

## Temurning Mo'g'ul[274] va Jato tarafini zabt etishi va bu joylarda uning tomonidan sodir bo'lgan ishlar bayoni

Samarqandga yetib kelgach, Temur farzandi Jahongirning o'g'li Muhammad Sultonni amir Sayfuddin bilan birga o'z mamlakatining eng uzoq chekkasi bo'lgan va (o'z) so'zi kesadigan joyga yubordi. Bu (ya'ni) Sayhun orqasida, to'g'ri sharq tomonida Mo'g'ul, Jato va Xitoy yerlariga tutashgan bo'lib, Movarounnahr yerlaridan bir oylik (maso- fadagi) yo'lda edi. Natijada, ular (Muhammad Sulton va Amir Say- fuddin) u yerdagi past-tekisliklarini, tepaliklarini tekislab, bir qator qal'alar qurdilar. U joylarning eng uzog'i Ashpara[276] deb ataladigan bir shahar bo'lib, unda ular nahbu g'orat uchun jihozlangan mustah- kam bir qo'rg'on bunyod etdilar.

U (Temur) podshohlar qizlaridan yana bir malikaga uylandi. Bi- rinchisi Katta Malika[277], ikkinchisi esa Kichik Malika deb atalardi[278]. Mo'g'ullarning podshohi Temur so'raganiga rozi bo'lib[279], uning ta- labiga itoat bilan javob qilib, jonini fido ayladi. Mo'g'ul va Xitoy aholilari Temur oldida titragandilar, chunki Temurning islom mam- lakatining turli burchaklarida qilgan hujumlari, zo'ravonliklari va shafqatsizligi ularga yetib borgan edi. Bu (xabar)ning elchisi zikr qi- lingan Sayfuddinning birodari Ollohdod bo'lib, u Ibn Mashkurning o'rnida qo'nib, Damashq boyliklarini xolis qilib olgan (kimsa) edi. Temur narigi qirg'oqdan Sayhun tarafiga qaratib bir shahar bunyod qilishlarini buyurdi va daryo ustiga qayiq va kemalardan ko'prik ya- sadi, shahar bilan bog'ladi. (Bu) shaharni u Shohruxiya[280] deb ata- di, u (shahar) keng (bir) joyga joylashgandir. Temurning o'z o'g'li Shohruhni[281] va ushbu shaharni (ham) shu nom bilan atashining sa-

babi shuki, u o'sha qirg'oqda (ushbu) shaharni qurishni amr qilgan bo'lib, Temur o'z odatiga ko'ra, (o'z) hoshiyalaridan biri bilan shoh ranj o'ynash bilan mashg'ul edi. Shu payt Temurga hamroh bo'lgan (sevimli) ma'shuqalaridan biri homilador edi. Temur o'z raqibi «shoh»iga qarshi «rux»ni tashladi, bundan raqibi o'zini yo'qotib qo'yib, ahvoli og'irlashdi. Temurning raqibi tang holga tushib turgan shu paytda birdan ikki chopar (ikkita) quvonchli xabar keltirdi: biri o'g'il bola tug'ilganini[282], ikkinchisi – shahar qurilib bitganini bashorat qildi. Temur ularning ikkalasini (chaqaloq va shaharni) bir ism (Shohrux) bilan atab, (ular) shu belgi bilan nishonlandi.

## Temurning Fors va Xuroson yerlariga qaytishi va Ajam Iroqi podshohlarini qatl etishi: o'sha viloyatlar va xalqlarni batamom egallashi bayoni

So'ngra, Temur o'z mamlakatlari (ishlarini) yo'lga solib Turkiston yerlari qonun-qoidalarini mustahkamlaganidan keyin Xuroson yerlariga qaytdi. Podshohlar, amirlar[283], sultonlar, vazirlar uning istiqboliga chiqdilar. Har tarafdan, birov piyoda birov otliq uning huzuriga shoshilib, uning da'vatiga «labbay» deb javob qildilar hamda uning qudratidan xavotirlanib, unga xizmat qilishni g'animat bildilar. Ular qiru adirlarni, tog'-u sahrolarni, shaharlaru qishloqlarng aholisi bilan birga va isyonkor (mustahkam) qo'rg'onlari bilan birga Temurga topshirdilar. Uning amri etagiga har biri o'z kokilini bog'ladi va (uning) farmonlarini bajo keltirib, (u) man qilgan ishlardan o'zlarini tiydilar. Ular Temur (beli)ga o'z qullik kamarlarini ixlosmandlik barmoqlari bilan bog'ladilar hamda iltifot va ixlos bilan zotdor otlariga minib, Temurning ko'nglini olishga shoshilgan o'z yo'lboshchilari orqasidan ergashdilar. Ular jumlasidan avval zikr etilgan Temurga itoat qilib bo'ysunganlarining jamisi va itoatsizlikning yuksak cho'qqilari-yu mustahkam balandliklarida turganlar (jumlasidan) – Mozandaron hokimlaridan biri Iskandar al-Jallobiy, itoatsiz (isyonkor) cho'qqilari bo'lgan baland tog'lar sohibi, g'azabnok sher Arshivand al-Foriskuhi, har qanday shiddatga tayyor turgan jasorat sohibi Ibrohim al-Qummiy bor edi. Sirjondan Sulton Abu Ishoq ham





Temurga itoat bildirgan edi. Natijada, Ajam Iroqi podshohlaridan o'n yettitasi Temur huzurida jam bo'lib, ular orasida sultonlar, sultonlarning o'g'illari va ularning birodarlari o'g'illari bor edi. Ulardan Shoh Shuj'oning birodari Sulton Ahmad, Shoh Shuj'o birodarlarining o'g'li Shoh Yah'yoga o'xshashlar, Mozandaron hokimlaridan (boshqalar) Arshivand va Ibrohim hamda Xuroson podshohlaridan boshqalari ham o'z yerlarida qudratli hukmdor edi.

Sulton Abu Ishoq (Temurga) itoatda o'z yaqinlari yurgan yo'ldan yurib, shu tarzda ish tutgach, o'z shahri Sirjonda Kudarz deb atalgan (kishi)ni o'z noibi (qilib) qoldirdi. Ittifoqo, kunlarning birida o'sha ulug' podshohlar Temur huzuriga to'plandilar. Ular Temurning chodirida yig'ilishib, u (Temur) ular orasida yolg'iz o'zi edi. Shunda ushbu (hukmdorlardan) biri Shoh Yah'yoga[284] maslahat tarzda «Uni (Temurni) o'ldirib, olamdan ushbu g'am-g'ussani ko'tarish fursati keldi-ku», – dedi. Unga ba'zilar rozi bo'ldilar, ba'zilari monelik qildilar. Bu ishga rozi bo'lmaganlaridan biri rozi (bo'lgan)larga: «Agar siz bu gapdan o'zlaringni tiymasalaring Temurga bu xususda xabar yetkazib, ushbu ishdan uni voqif qilaman», dedi. Natijada, ular metinlik ushbu ra'y va mustahkam fikrdan o'z ixtiloflari sababidan voz kechdilarki, hamon (ular) ixtiloflarida davom qilmoqdalar.

Go'yo Temur ularning bu niyatlarini sezib, o'z farosati bilan ular so'zlarini yuzlaridan (o'qib) bildi, ammo u buni «o'z dilida sir saqlab[285], ularga sezdirmadi. So'ngra, bir necha kun o'tkazib, Temur barcha odamlarini chaqirib, umumiy bir o'tirish uyushtirdi, u (Temur) qizil libos kiyib olgan edi[286]. U ushbu o'tirishga haligi o'n yettita hukmdorning hammasini taklif qildi. Keyin uning amri bilan bir vaqtda ularning hammalarini qattiq azoblab o'ldirdilar. Ularni halok qilgandan keyin Temur(ular) yerlarini zabt etdi, hamda meros (yo'li) bilan olganu o'zlari topgan mol-mulklarini yig'ib oldi, (ularning) o'g'illari-yu nabiralarini o'ldirib, (ular) yerlariga o'z o'g'illari, amirlari, nabiralari va qo'shinlarini qo'ydi. Temurning o'sha hukmdorlarga qiron solib ularni qatl etishi va ular hayot pardasini parchalab yirtishiga sabab shuki: – Ajam yerlari ulug' hukmdorlardan (hech qachon) xoli bo'lmay, ular mulk va saltanatni biri ikkinchisidan

meros qilib olaverar edi. U (Ajam) bepoyon yerlardan iborat bo'l… uning atroflari keng, shaharlarining soni ko'p, qishloqlari son-sano… siz edi. Uning tepaliklari mustahkam, tog'larning cho'qqilari osm… o'par, qal'alarining qizlari itoatsiz, kon va ma'dan xazinalarining … ko'rinmas, uning xisravlarining panjalari (hamma narsani) buz… chi, yirtqichlarining qanotlari uchib ketishga hozir, yaramaslarini… qoplonlari sakrovchi, shuttorlarining yo'lbarslari chopqir, pahlavo… larining ajdaholari jang-u jadal irmoqlarida zohir, qahramonlarini… timsohlari urush dengizlarida g'olib edi.

Temur o'z tafakkuri ko'zgusida kumushsimon jilolangan mul… hazasiga ziyraklik nazari bilan boqib, Ajam yerlaridagi atirgul unin… uchun dushman tikonidan toza bo'lmasligini, og'zidan oqayotgan su… (gap)ining o'ziga qarshi kishi mo'ylovidan xolis qolmasligini hamd… bu o'lka imoratlarining u uchun mustahkam tayanch bo'lmasligi-y… (bu yerlar) bo'stonida o'zi uchun hech qachon rohat beradigan novd… lar o'sib chiqmasligini ko'rdi. Temurning niyati u (erlar) asoslari… saqlab qolib, unda o'z ishlarini Chingizxon tavroti taqozo etgand… ijro qilish edi. Lekin uning (Ajam Iroqining) bepoyon yerlarida o'… saltanati (eri)ni pishiqlab ishlash va o'z amri anhorlarini Ajam ekin… zorlari[287] bo'yi va eni bo'ylab boshqarish faqatgina (bu yerlar) ak… birlari nasablari ildizini tag-tomiri bilan quritib, xisravlari avlodla… yog'ochlari (hassalari)ning uchini sindirgandagina mumkin bo'la… edi. Shu sababli Temur say ko'rsatib, ularni ildizlari-yu butoqlari bi… lan quritdi va ekin tikinlari-yu nasllarini halok qilishda jidd-u jahd… sarfladi. U mabodo ulardan biron kishining yaqinroq yerda urug'… ekkanini eshitsa, darhol uning (urug'ini) tagi bilan sug'urib, ular to… monidan yengda yashiringan atirgul hidini his qilsa, bu atirgulni dar… hol uzib olar edi.

Yana aytishlaricha, Temur Iskandar Jallobiy (hozir) bo'lgan bir majlisda ishtirok etib, go'yo bu majlis xursandchilik, shod-xurramlik va lazzatlanish uchun uyushtirilgan edi. Shunda Temur so'z orasida Iskandardan so'rab, unga dedi: «Agar qazo mening jismim barbodi… ga farmon bersa, sening nazaringda kim mening avlod-u zuryodim… ga nizo izhor etadi? Iskandar-u ortiq darajada asabiylashgan, uning





…ning bolaxonasi buzilib, aql moychirog'i undan (miya bolaxo… …) uning tomiga olib chiqib qo'yilgan edi – unga javob berib: …ning badbaxt bolalaring bilan kurashadiganlarining eng avvalgi… …, Arshivand va Ibrohim. Agar ulardan birortasi mening chan… …dan qutulib ketsa, unda sher Ibrohimning qoziq tishidan qutula …, mabodo ulardan birontasi bu banddan ham qutulib chiqsa, … Arshivandning to'ridan chiqishga hech yo'l yo'q», – dedi. Ar… … va Ibrohim esa majlisda yo'q edilar.

Temur Iskandarga hech bir ziyon va tahqir yetkazmadi, unga ozor …, (keyinroq) ikki hamrohi bilan birga yerga qapishtirishni iro… … qildi. Iskandar o'ziga kelgach, (Temurga) aytgan gaplari uchun … ta'na qildilar. Lekin Iskandar: – «Tangrining qazosidan na qo… …gan joy, na majol bor», – dedi. Bu (gap) uchun mening hech … gunohim yo'q. «Bu gaplarni menga barcha (maxluq)ga til baxsh … tangri berdi[288]». Keyin Iskandar va Ibrohim qochib ketdilar. Temur Arshivandni tutib olib, uni tanidan jonini sug'urib oladigan …alar[289] ichiga tashladiki, u barchaga ibratli xabar[290] bo'ldi. Temur uning umr zaifasi nomusini paymol qilib, «Momaqaldiroq» (surasi) ning[291] avvali dahshatlarini tatib, «Nuh»[292] hamda «Sabo»[293] (suralari)ning oxiri bilan siylanishga majbur qildi. Ammo Iskandar… … na biron (asar) ko'rindi, na mana shu kunlargacha u haqida bi… … xabar eshitildi. U (Iskandar) katta boshli, baland qomatli (kishi) bo'lib, agar odamlar orasida yursa, go'yo bir belgi misoli edi. Hatto aytishlaricha, u ulkan «qasr»ning bo'yi[294] temir o'lchovda uch yarim gaz bo'lgan. Ibrohim Qummiy bo'lsa yashirinishda[295] davom etib, ke… yin o'z to'shagida vafot topdi. Mana shu (gap) Temurning Ajam pod… …shohlari va ular avlodlarini qatl etishiga sabab bo'lgan.

## Bo'lim

Keyin Temurga qarshi Sirjon qal'asida Kudarz isyon bildirib: «Mahdumim Shoh Mansur hali tirik», – dedi.

Bu so'zlar xos-u avom (kishi)lar o'rtasida tarqalgan bo'lib, Kudarz Shoh Mansurning zohir bo'lishini kuta-kuta oylar va yillarni o'tkazaverdi. Natijada, Temur Sirjon qal'asini muhosara etdi-yu, lekin qal'a

ustidan hukmga erishish unga nasib bo'lmadi. Keyin u qal'aga Sheroz, Yazd, Abarkuh va Kermon askarlarini yuborib, u yetmagandek, Sajiston askarlarini ham otlantirdi. Bu (ish) Sirjonni obodonchilik qamraganidan keyin (bo'lgan) edi. Bu qal'aning noibi Shoh Abdul-Fath deb atalardi. Temur askarlari Sirjonni o'n[296]-yilga yaqin muhosara etdilar, ular goh qal'adan orqaga chekinar, goh uni o'rab turardilar. Qal'a esa (go'yo) begunoh qiz kabi o'z jazmaniga eshigini ochmas yoki kuyovi bir og'iz so'zini ham eshitishga muyassar bo'laolmagan qari qiz kabi (qaysar) edi.

Temur Kermon hokimi qilib sulton[297] birodarlaridan Idiku degan shaxsni tayin qilgan edi. U (Idiku) boshqalar unga ishora qiladigan va askar ichida (yolg'iz) ungagina tayaniladigan (e'tiborli) kishi edi. Kudarz Shoh Mansurning vafotiga va mulozimlari unga xiyonat qilib, g'alabaga ojiz bo'lib qo'ldan chiqarganligiga ishonch hosil qilgach – Abul-Fath esa har soatda unga xat yuborib, uning uchun Temurdan shafqat so'rashda kafillikni o'z ustiga olayotgan edi – sulh (tuzish)ga bosh egib, bu xususda Abul-Fathdan foydalandi. U tiz cho'kib o'zini dushmanlarining oyog'i ostiga tashlab, qo'rg'onni ularga topshirdi. Sulh bog'lami o'z qo'li (vositasi) bilan yechilmaganidan Idikuning g'azabi keldi-da, Abul-Fathga va uning shafoat (tilash)iga e'tibor bermay, o'sha on Kudarzni qatl etdi. Temur qay bir mamlakatda turganida bu xabarni unga yetkazdi. Uning bu ishidan Temur g'oyat g'azablandi, ammo yuz bergan ishni tuzatish fursati o'tgan edi.

## Bo'lim

Kermon mutavallisi ushbu Idiku haqida aytgan hikoyatlardan: Kermonda Shoh Shuj'oning birodarlari Sulton Ahmadning[298] ikki kichik o'g'li Sulaymonxon deb atalardi. Sulaymonxon g'oyatda husndor va latofatli bo'lib, malohag va zarofatning butun sifatlarini o'zida mujassamlashtirgan yetuk, barkamol va boodob tarbiyatga ega edi.

Uning lafzi ravon, boqishlari yoqimli bo'lib, barchaning qalbi unga (tomon) talpinar, aql-idrok egalari unga xushtor edilar. Uning harakatlari odamlar qalbiga jo bo'lib, go'yo ushbu baytda aytilgandek, qarashlari xaloyiqni o'ziga maftun qilar edi:





Suv libosdagi yoqimli nasim havo terisidagi nur timsoli (edi).

Shu paytda u olti yoshda bo'lib, xos-u avomlar uning sehriga maftun edilar. Idiku aka-ukani yo'q qilib, ularni salaflari izidan jo'natmoqqa azm qildi. Ushbu marvaridning (otasidan ajralib) yetim bo'lib qolgani uni qanoatlantirmadi. Nihoyatda oliyjanobligi va sadoqatliligi tufayli diyori xarobaga aylangan, na himoyachisi-yu na tarafdori bo'lgan uning onasiga Idiku hech rahm-shafqat qilmadi. Idiku bu (jirkanch) ishni ishonib topshiradigan jallod qidira boshladi, lekin bu bolaga qarshi qabih ish bilan qo'l cho'zadigan biron kimsa topilmadi. Shu zaylda bir qadar muddat o'tdi. Xalq esa bu ishdan g'oyatda shiddat va tashvishda edi. Nihoyat, go'yo yovuz ish uchun tug'ilgandek qandaydir bir qora qulni topdilarki, iblislar unga qul, ajinalar esa (uning) qo'shin va malayi edilar, jabr-jafo[299] tunining libosi uning qora orqog'idan to'qilgan «iblislarning boshlariga o'xshash daraxtdan olingan mevalar»[300] go'yo uning qalbidan unib chiqqan urug'laridan olingandir. Ho'kizlarning bo'kirishi uning tovushidan (birmuncha) yoqimliroq, alvastilar yuzi uning suratini xayoliga keltirishdan xusnliroqdir. Men dedim:

> Do'zax rishtalari uning yuzini makruh biladilar.
> Uni ko'rganda jahannam (tangridan) panoh tilaydi.

Haqiqatan ham tangri uning qalbidan marhamatini sug'urib olib, dilini jinoyatdan yaratgan edi. Ana shu (qul)ni, payt poylab aldab, go'daklarni o'ldirishga ko'ndirdilar. Sulaymonxonning ko'zi yallig'langan bo'lib, o'z enagasining tizzasida orom olib yotardi. O'sha on bu zolim uning oldiga kirib, – bola o'z enagasining tizzasida orom olayotgandi, – unga tashlandi va xanjar bilan shunday urdiki, xanjar bolaning bir biqinidan kirib ikkinchisidan chiqdi. O'sha zahotiyoq dod-faryod ko'tarilib, qiy-chuv bo'lib ketdi, odamlar o'rtasida shovqin-suron qo'zg'alib, dahshatli ovozlar eshitildi. Barcha kishilar (bolaning) bebaxt onasi va uning motamiga qo'shildilar va odamlar musibatga uchragan onaga achinib yig'lay boshladilar.

Bu ishlar Temurning ishorasi bilan bo'lganligi zohirdir; bu zolim noshukurning askari shu xil zulmga jinoyatlardan xoli bo'lmas

edi. Garchi shu ishlarni bajo qiluvchi ulardan (Temur odamlaridan bo'lmasa ham, lekin do'stlik va hamkorlik boisidan ular yo'lidan yu-rar edi.

**Hikoya:** Temur o'zining ko'p sonli askari bilan Shomdan jo'nab ketganda, ulardan biri bilan birga (bir) asir xotin ham bor edi. Taqdirning falokati qo'llari undan gunohsizlik pardasini olib, unga o'z zarbalarini tegizgan, siynasidagi emizikli qizalog'ini esa (o'z) bag'ri-dan ajratgan edi. Askarlar Hamoga[302] yaqinlashganlarida qizaloq ing-rab, oh-voy ko'tarar va uqubatli alamdan chinqirib yig'lardi. Ular bi-lan birga fisq-u fasoddan yaratilib, azob-uqubatga to'liq, g'alizlik va qasovatdan yasalib, qo'pollik va hamoqatdan bitilgan buzuqchilik bi-lan to'lib-toshib aziyat bnlan yetilgan bag'dodlik bir tuyachi ham bor edi. Tangri taolo uning qalbida zarracha ham rahm-shafqat qoldirma-gan ediki, uni yomonlikdan chetlatsa va lisoniga xayr so'zdan birorta solmagan ediki, uni kishilar eshitsa!

Tuyachi (o'sha) qizchani onasidan oldi, u xotinning xayolida u tashvishini yengillatish uchun qizchani (undan) oldi, degan fikr aylan-di. (U xotin) tuya ustida (kelayotgan) edi. Keyin tuyachi bir muddat karvondan orqada qoldi. So'ngra u karvonga yetib kelganda, qo'li (qizchadan) xoli, qahqahasi oliy edi. Onasi qizi holi ne kechganini so'raganida tuyachi unga: – Mening u bilan nima ishim bor, – dedi. Onaning aqli-xushi og'ib, madorsizlandi va o'zini (tuyadan) tashlab, qizchasi tomon yugurib borib uni olib, qaytib keldi va yana tuyaga mindi. Tuyachi, endi hech bir ziyon-zahmat yetkazmayman, deb qizchani onasining qo'lidan oldi. Keyin u yana g'oyib bo'lib ketib, boshda qilgan ishini (yana) takrorlagach, qaytib keldi. Qizchaning onasi o'zini tashlab, qizining orqasidan yana borib qattiq xasrat chek-kan holda qaytdi. Uning halokati mevalari (o'z daraxtidan) pastga yaqin egilib turardi. Keyin u o'z tuyasiga o'tirib, qizalog'ini bag'ri-ga bosib tinchidi. Tuyachi qizingni ko'tarib boraman va unga hech qanaqa zarar yetkazmayman, deb soxta qasam ichib, u (qizcha) bilan qabih bir ish qilish niyatida uchinchi marta uni onasi qo'lidan oldi. Keyin u birmuncha muddat qizni ko'tarib yurgach, jamoadan orqa-da qoldi[303] va qizchani (qurib qolgan) bir soyga tashladi. Bu borada u go'yo yahudiylar zeb-u ziynat asboblarini taqqan xotinga nisbatan





qilgan ishni qildi[304]. U (qaytib) kelganda qo'li qizchadan [illegible] forig'-u jinoyat bilan to'lig' edi. U qizning ustidan bor kiyimini [illegible] olib, ularni onasiga keltirgandi. Zor-zor yig'lab onasi tuyadan [illegible]ni tash-lab orqaga qarab yugurmoqchi bo'lganda tuyachi unga: «O'zingni ovora qilma, men seni uning tashvishidan xalos qildim [illegible]ga (qay-tib) min», – dedi. Ona sho'rlik zor-zor qaqshab, dod-faryod [illegible] ko'tardi va garchi qizining tashvishidan qutilgan bo'lsa ham, dard-[illegible] alamga giriftor bo'ldi. Odamlar o'z podshohlari izmida bo'lib, [illegible] yurgan yo'llardan yuradilar.

### Garchi Temur (bostirib) kirish uchun sabab va bahonaga muhtoj bo'lmasa-da, uning Arab Iroqiga kirishi [illegible] sabi

Jami Ajam yerlari xolis Temurniki bo'lib, podsholari-u [illegible] xalqlar unga bo'yin eggach va uning farmonlari Arab Iroqi hududigacha yet-gach, Bag'dod sohibi Sulton Ahmad g'azabnok bo'lib, [illegible]b chek-di. Natijada u hisobsiz qo'shin to'plab, ularga boshliq qilib Sunatoy deb ataladigan shijoatli va mashhur bir amirni tayin qildi. Qo'shin chig'atoylikka qarab (yo'lga) chiqqach, Temurga u (qo'shin) [illegible] va Su-natoy haqidagi xabar yetib bordi. Bu xabardan Temur qalbi [illegible] shodla-nib, u sururga to'ldi. U bu (ish)ning Sulton Ahmad bilan [illegible] nashuv-ga sabab, Iroq podshohligiga qarshi jangu muhoraba (tash[illegible]lash)ga bahona qildi va unga qarshi shiddatli qo'shin, qo'shin [illegible], balki to'lib-toshgan dengiz yubordi. Ikkala lashkar sidqidil [illegible] urush qilish niyatida Sultoniya[307] shahri yaqinida uchrashdilar. Muhoraba talabgorlaridan har biri o'z raqibiga chindan zarba berib, bir-birlari gardaniga nayza uchini-yu qilich tig'ini yo'naltirdi. Chig'atoylikning dengizi o'z to'lqinlari (mavjlari) guruhlari (qo'shinlari) dan [illegible] madad olib shunday toptadiki, Sunatoy askarining nayzalari (Temurning askari oyog'idan) chiqqan g'uborlarga urilib parchalandi. Sunatoy o'z askari bilan qochib hammalari[308] Bag'dodga yetib keldilar va [illegible] mam-lakatning turli tomonlariga to'zib ketdilar. Sulton Ahmad Sunatoyga miqnaa[309] kiygizdi va uni urdirib azob-uqubatga solgandan [illegible] keyin, Bag'dod (ko'chalarida) yurgizib (elga) sazoyi qildi. Temur [illegible] (sulton Ahmadga qarshi) inodini tugatib, o'z mamlakati tomon ravona bo'lib qaytdi.

**(Avvaliga) atrof (yerlari)ga osoyishtalik berib, keyin ularni (o'zi) xohlaganicha vayron qilish va bevafo qismatga tashlash uchun bu bo'ronli shamolning (vaqtincha) to'xtab, bu to'lqinli dengizning tinchlanishi bayoni**

Keyin Temur Samarqanddan uning etaklariga chiqib, uning tevarak-atroflarida bir yerdan ikkinchi yerga ko'chib yurdi. U Samarqand atroflarida bir qancha qasabalar bunyod etib, ularni ulug' va poytaxt shaharlar nomi bilan atadi[310]. (Shu vaqtda Samarqand va uning viloyatlari, Movarounnahr yerlari va uning (barcha) atroflari, Turkiston va unga qarashli yerlar – Turkistonda Temur tomonidan noib bo'lib Xudoydod degan kishi turardi-shuningdek, Temur zo'ravonlik ko'rsatib javlon urgan Xorazm, Xitoy yerlari xalqumida joylashgan Qoshg'ar[311], Badaxshon – bu Samarqand yerlaridan yiroq bo'lgan alohida yerlardir, Xuroson iqlimlari, Mozandaron yerlarining aksar qismi, Rustamdor[312], Zobuliston[313], Tabariston[314], Ray, G'azna[315], Astrobod, Sultoniya, Qazvin[316] va bu shaharlardan boshqalari, manoatli G'ur[317] tog'lari, Ajam Iroqi va mag'rur balandparvoz Fors ham xolis Temurniki bo'lib, bular hammasi hech bir raqobat qiladigan va unga monelik ko'rsatib, oldini to'sadigan (biron) kimsasiz bo'ldi. Bu mamlakatlarning har qaysisida Temurning o'g'li yoki nabirasi, yoki u e'timod qiladigan noibi turar edi.

**Temurning o'z askarlari dengizida cho'milib, ba'zi ishlarga sho'ng'ishi, keyin esa fasod (ishlari) bilan jo'shqin urishidan bir namuna. Shular jumlasidan uning Movarounnahrdan shung'ib Lur[318] yerlaridan chiqishi**

Garchi Temur mamlakati kengaygan, haybat va savlati (har) tarafga tarqalgan va dahshatlari uzoq mamlakatlarga yoynlib do'q-po'pisalari turli iqlimu shaharlarga borib yetgan, (ortgan) yuklari og'irlashgan, o'zining biror tomonga yurish boshlab jo'nashini hufiya tutmasligiga qaramasdan u dunyo hasadida go'yo Odam bolalaridan qochgan shayton kabi chopar va (inson) tanasida (sezdirmasdan) yoyilib ketadigan zahar misoli (bexosdan) o'zga yurtlarga kirib borardi. Men aytdim:





U o'ng (tomonga) qarab otlanib, chapni nishonga olardi.
Peshonani ko'zlardi-yu burunga tegizishni istardi.

Uning qo'shin bayroqlari mashriqda turganda, kutilmaganda (uning) nog'oralari nag'malari va udlarining zarbalari Iroq, Isfahon va Sheroz hisorida yangraganda, birdan uning torlarining jaranglashi va karnaylarining g'atillashi Rum ko'chalarida, Ruha[319] manzillarida va Hijoz[320] karvonlari oralarida eshitilib qolardi.

Mana shundan (bir misol): Temur Samarqandda bog'-bo'stonlar bunyod qilish va qasrlar qurish bilan mashg'ul bo'lib turganda (qo'shin) mamlakatlar (uning hujumidan) osoyishta bo'lib, baqamti o'lkalar esa (undan) behavotir edilar. Temurning ishlari nihoyasiga, qasrlari (qurilib) kamoliga yetgach, u o'z qo'shiniga Samarqandga jam bo'lishini buyurdi. Keyin ular uchun o'zi o'ylab topib ixtiro qilgan tarkib va tazribda (maxsus) qalpoqlar tayyorlashlarini hamda jangchilar ularni kiyib, (yurishga) otlanishlarini amr qildi. Temur ularning qaysi tomonga borishlarini ma'lum qilmadi. Bu (qalpoq)lar ular uchun (shartli bir) belgi edi. Temur o'z yerlarining barcha tomonlarida (oldindan) posbonlar (tayinlab) qo'ygan edi. So'ngra Temur Samarqanddan chiqib, o'zini Xo'jand, Turk yerlari va Jandga[321] boryapman deb ovoza tarqatdi. (Shundan) keyin u o'z askari girdobiga sho'ng'ib ketdiki, go'yo u dengiz qa'riga tushib g'oyib bo'lgandek edi, uning qayoqqa burilishi va qaysi tomonga g'orat va talaf eltishini hech kim bilmadi, u shahar ketidan shahar bosib o'tib kecha-kunduz yo'l yurdi, u yulduzlardek uchar va chavandozlardek tez chopardi hamda qo'ngan har bir joyida charchagan zotdor tuyalarni tashlab ketar edi. Nihoyat u, hech kim o'ylamaganda, Lur yerlarida paydo bo'ldi. Lur (erlari) obod bo'lib, uning boyliklari behisob va mevalari serob edi. Lur qal'asining nomi Barujord bo'lib, (uning) hokimi Malik Izuddin al-Abbosiy edi. Bu qal'a garchi tog' etagida joylashgan bo'lsa ham, lekin matonatlik jihatidan baland tog' cho'qqilarida joylashgan qal'alar bilan raqobat qilardi. U (Lur) Hamadon[322] yerlariga qo'shni bo'lib, Ozarbayjon singari Arab Iroqi bilan tutash edi. Temur ushbu qal'a va uning atrofidagi (bor) narsalarni o'rab unga egalik qilib turgan hokimini qurshab oldi. Chunki u (hokim)ning na quroli-yu na

qo'shini, na tayyorgarligi-yu na (unga yordamchi) madadkori bor edi. U bu yerda ishonchli vakil muhtasib sifatida bo'lib, kutilmagan to- mondan ustiga balo kelgan edi. Uning Temurga itoat bildirib bo'yin- nish va omonlik so'rashdan boshqa iloji yo'q edi. U (qal'adan) tushib kelib, o'z (in'om-ixtiyori) jilovini Temurga topshirdi. Temur uni qabul etib, yerlarini zabt qildi. Keyin uni Samarqandga jo'natib, hibsga sol- di va uning nafsi-yu nafasini siqib qo'ydi. So'ngra, bir qadar mud- dat o'tgach, Temur Izuddinga qasamyod qildirib uni boshiga tushgan musibatdan xalos qildi. Undan birtalay ot va xachirlar (olish) evaziga u bilan sulh tuzdi va uni o'z yurtiga qaytarib, o'ziga noib qilib qo'ydi. Temur ushbu atroflar viloyatlarini o'ziga xolis qilib olgach, fursatni ketkizmay Hamadonga qarab o'z sayrini davom ettirdi. Hamadon ahli g'aflatdaligida Temur unga yetib keldi. Natijada, «(shahar) tepasiga balo kechasi yoki ular (shahar ahli) mudrab o'tirganda keldi».

Shunda shahar ahlidan Mujtabo ismli bir sharif kishi Temurga peshvoz chiqdi. U (mujtabo) podshohlar huzurida tanlangan (mustafo) va ular ko'nglidagi murtazo (odam) edi. U Temurdan hamadonliklarga shafqat qilishni so'radi. Temur omonliklari evaziga mol-dunyo, ular- ga muruvvat qilayotgan jon-u tanlari evaziga boyliklarini fido qilib sotib olishlari hisobiga ularga shafqat va'da qildi. Ular Temurning amriga amal qilib, (aytganini) bajo keltirdilar; talab qilingan mollarni (o'zaro) bo'lib olib jamladilar va Temur xazinasiga keltirdilar. Ammo Temurning nafsi gazak olib, uni ikkinchi marta hamadonliklar usti- ga mol-dunyo talabini yuklashga undadi. Shunda o'sha jalolatli kishi (Mujtabo) Temurga peshvoz chiqib, o'zini miskin va ayanchli ma- qomga solgan holda shafoat o'rniga turib oldi. Temur uning shafoati- ni qabul etib, jamoasini unga tortiq qildi. (Keyin) Temur askari kelib o'ziga qo'shilib birikmaguncha o'z makonidan jilmay to'xtab turdi.

### Temurning Ozarbayjon va Arab Iroqi yerlarini xarob (etishi)ning boshlanishi

Shayx Uvaysning o'g'li Sulton Ahmad o'z qo'shnilari Hamadon va Lur raiyalari qo'ylariga nisbatan bu bo'ri (Temur)ning qilgan ish- larini eshitgach, Temurning albatta o'z mamlakati va diyoriga kelishi-





...bildi, chunki Sulton Ahmad uni fasodkor deb joriy qilib, uning yo- ...iklari (olovi) ustiga o'zining alangali uchqunlarini tashlagan edi. ...hi Sulton Ahmadning askarlari toshqin sel misoli bo'lsa ham, ...ir u Temur dengiziga-yu uning oqimiga qarshilik ko'rsatish- ...dir emas edi. Chunonchi, «qachonki Allohning daryosi pay- ...lganda Isoning daryosi qurib qolib»[323] «Musoning hassasiga ...avning sehrgarlari ro'para bo'la olmagandi»[324].

Men she'r aytdim:

> Sel o'z yo'lida tog'lar orasida uchragan daraxtlarni
> qo'poradi va selning kuchidan qoyalar parcha-parcha bo'ladi.
> Lekin u (sel) toshgan dengizga yetganda,
> uning kuchi yo'qolib, undan asar ham ko'rmaysan!

Sulton Ahmad balo kelishidan oldin unga tayyorgarlik ko'rib, ...g'ilajak baloning g'amini yedi. U qochishga etak shimarib o'zining ...omon qaytishini yarim g'animat bildi. U muqobala va muqota- ...ning keng tarqalgan (urishish) qonunidan ko'ra, qisqa (keng tarqal- ...magan) turi bilan kifoyalanadi va Bag'dod, Iroq va Tabriz yerlaridan ...chiqishga azm qilib, o'ziga-o'zi: najot Alinjo (qal'asi)da[325], dedi va ...o'zi xavotir olgan (narsa)larini o'g'li Sulton Tohir bilan birga Alinjo qal'asiga jo'natdi. Temurga[326] esa she'rlar va hajviyalar yubordi. Ush- bu (she'r)lardan mana shu (bayt)ni tarjima qildim. Mana u:

> Garchi urushda qo'lim shol bo'lsa ham,
> lekin qochishda oyog'im cho'loq emas.

Keyin U Shom yerlariga qarab ravona bo'ldi[327]. Bu, Tangri taolo rahmat qilg'ur Abu Sayyid Barquq Malik az-Zohir[328] hayot vaqtida, ya'ni yetti yuz to'qson beshinchi (1393) yilda (bo'lgan) edi.

Temur Tabrizga yetib kelib, undagi faqiru azizni taladi va Alin- jo[329] qal'asiga askarlar yubordi, chunki u (qal'a) Sulton Ahmadning boshpanoh joyi bo'lib unda o'g'li, xotini va qimmatbaho boyliklari mavjud edi. Temurning o'zi esa Bag'dodga tomon yuzlanib uni ta- ladi. U shaharni xarob qilmadi-yu, lekin undagi bor ashyolarni shilib oldi.

Alinjo qal'asining voliysi Altun[330] ismli qudratli, Sulton Ahmad-ning ishonchiga sazovor kishi bo'lib, u (Sulton Ahmad) unga tayanch edi. Altun bilan birga bir jamoa botir, shijoatli va shiddatli kishilar bo'lib, ularning adadlari uch yuz chog'lik edi. Tun o'z sukunatiga kirganda Altun ular bilan chiqib, Temur askarlari ustiga va ular ma-kanlariga g'oratlar qilardilar. (Bu ishdan) askarlar holi tang bo'lgach, Temurga bu xabarni yetkazdilar. Shunda u to'rtta amir bilan qir-mingcha mashhur jangchilarni yuborib, ularga madad berdi. U (amir-larning kattasini Qutlug' Temur[331] deb atardilar. Ular (qal'aga) ye-tib kelganlarida Altun (qal'ada) yo'q bo'lib, u qal'a atrofida-lar ustiga g'oratga chiqqan edi[332]. U qal'aga qaytayotib ko'tarilgan chang-to'zonni ko'rdi. Bu xabar siridan voqif bo'lgach: «Qochish-joy qani?» dedi. Unga: «Yo'q! Qochadigan joy yo'q», – dedilar. Shun-da Altun tangridan najot topish faqat uning o'ziga bog'liq ekanligini tushundi. U o'z qat'iyatini va atrofdagilarni mustahkamlab, tangriga tayangan holda: «Darhaqiqat, mana shu misoli o'rinda boshlar bay-roqlar ostida bo'lmog'i lozim. Bu pastkashlarning qalblariga zarba bering, siz yoki o'z niyatingizga erishasiz, yoki karim kishilar singari o'z otlaringiz ustida halok bo'lasiz, chunki sizni ushbu g'am-g'us-sadan faqat aniq nayza sanchish va qilich zarbasigina xalos qiladi»[333] dedi. Men dedim:

> Karim bo'lib (o'l) yoki pastkash bo'lib o'l.
> Chunki, xudo haqqi, o'limdan keyin (hech bir) o'lim yo'q[334].

Altun jamoasi tangri-taolo yordamida najot hosil qilishga ishon-gan holda, bir-birlariga sodiq himmat va qat'iy azmiyat bilan madad berdilar va dushmanni xuddi baliqni to'r o'rab olgandek o'rab oldilar ki, go'yo dushman ular o'rtasida (ip yigiradigan) charxdagi urchuqqa o'xshab qoldi. Altun odamlari bayroqqa va bayroqdorlarga, ular orqa-sidagilar va himoyachilariga tashlandilar. Laxyon[335] baxti ularga bi-lak tutib o'z nusrati bilan yordam berdi va tadbirkor hiylasi ulardagi ichki siqilishni yechib yubordi. Ular dushmanlarning oq bayroqlarini qizil qonga bo'yadilar va ular jamoasi uchun nusrat bo'sag'asiga yo'l ochilib, tavfiq ko'rinib, g'alaba ular tomon qanot qoqdi. Natijada, ular





...dan ikki amirni-ulardan biri Qutlug' Temurni[336] o'ldirganlari-... keyin g'am-kulfatdan qutulib, sururatga yetishdilar.

Bu xabar Temurga yetgach, ko'z oldida dunyo qorong'ilashib, go'yo butun borlig'-u jahon ag'darilgandek bo'ldi. Keyin Temur o'zi Alinjo qal'asi tomon qo'zg'oldi va pisib (yotib) uni poylay boshladi. Temur qal'ani har tomonidan ixota qilib, posbonlari bilan qal'a tar-...larini berkitdi.

## Alinjo qal'asining tavsifi

Bu qal'a al-Uqab (yulduzi)dan ham moneliroq bo'lib, bulutlardan ham baland, Simoq (yulduzi) bu qal'a (tomi)ga munojot qilar, falaklar ...larni tutib turibdi deb undan faxrlanishardi. Quyosh eng tikkaga kelganda go'yo uning ba'zi kunguralari ustiga o'rnatilgan tillo qal-...ga o'xshab ketsa, baland Surayyo (yulduzlari) esa go'yo uning darvozasi ustidagi muallaq bir qandil (misoli) edi. Xayol qushi uning ...ni (usti)da parvoz qila olmaydi-yu, qay tariqa unga bekorchi o'q ...ib) yetsin. Qal'aning pok bilagiga suvoriy askarlardan (iborat) bi-lakuzuk taqilish (ya'ni o'rab olish) bir yoqda tursin, xayol va tafakkur ...gi uning xizmatidagi xodimlarga taqilmaydi.

Altun ushbu joy tuprog'ining og'ushida tarbiyat topgan edi. Mak-ka ahli u (qal'a)ning so'qmoqli yo'llaridan (boshqalarga qaraganda) xabardorroq (edi). Har qachon qorong'i tun tushib[337], shayton o'g'ri-...ga o'zining o'q otuvchi ko'zlarini tikkanda, Altun o'sha baland tog' cho'qqilaridan pastga tushib xayol og'ushiga cho'mgan kishi ...bi tun zimistoniga cho'mar va so'qmoq yo'llarda go'yo go'shtga singgan yog', ud (daraxti) shimgan suv, olovga tushgan ko'mirdek singib (g'oyib bo'lib) ketar edi. U ko'zga ko'rinmas (tangri)ning yor-dami bilan xayolga kelmas yo'llardan yurar, uni hech qanday posbon sezmas va bironta nazoratchi ko'rmas zdi. U doim ularni elitadigan oyatlarni tilovat qilib, xufiyona sehrgarlig-u jodugarlik bilan ularga dam solardi. Toki ularning qarorgohidan birorta chodir ko'ringuncha mo'ralab-mo'ralab, yaqinlashib borardi. U o'ldirar va bostirib kirib talovchilik qilib qochar edi. Shu tariqa u o'lja olib, eson-omon orqa-siga qaytib ketardi. Alqissa u, Temur va uning hamrohlarini holdan

toydirmaguncha ular oralaridagi ishlar shu zaylda davom etaverdi. Majoli tangligidan va niyatiga erishish amri-mahol (ekan)ligidan Temur bu yerdan jo'nab ketishni (maqsadga) muzofiq topdi. Qal'a qamalini davom ettirish uchun o'z qo'shinlaridan[338] qoldirib, Temur jo'nab ketdi, qal'a hisori esa uzoq muddat davom etdi. Qazo Temurga: – «Sabr qil, negaki qal'a senga nasib qiladi», – deyar edi.

Aytishlaricha, qal'a o'n ikki yil hisorda turib[339], Temur u (qal'a)ni shu tufayligina egallagan: Zikr qilingan Altunning fosiqlikda nom chiqargan birodari bo'lib, u bilan Sulton Tohirning onasi o'rtasida xiyonat hosil bo'lib, ularni buzuqilarga beriladigan (jazo)ga olib keldi. Sulton Ahmadning o'g'li Tohir shu buzuqlikdan voqif bo'lib, ikkovini tutib olib o'ldirdi va bu bilan u g'oyatda maqtovga loyiq yo'ldan yurdi. Bu paytda Altun qal'ada bo'lmay qayoqqadir g'oratga chiqqan edi. U g'oratdan qaytgach, qal'a darvozasini (unga) berkitib, birodarining jasadini devordan oshirib oldiga tashladilar va uning qilgan buzuqligini hamda oshkor va yashirin fisq-u fujurlarini unga ma'lum qildilar.

Altun dedi: «Tangri sizga eng yaxshi siylovlar ato qilib, ziyoda xayr-u ehsonlar bilan hissangizni oshirsin. Agar men uning kirdikoridan voqif bo'lganimda yoki u qatl etilganida hozir bo'lganimda, uning xatti-harakatiga munosib ish tutardim va zamon balolariga giriftor etib, uni sizlarga[340] ibrat qilib ko'rsatardim. Tangri-taolo yaratgan bandalari o'rtasida joriy qilib: «O'z valiy ne'matiga xiyonat qilganning jazosi shu» – deb qichqirtirardim.

So'ngra (Altun) (qal'aga) kirishni so'radi, lekin uni (ichkariga) kiritmadilar. U dedi: «Inim gunoh qilib, o'zi ekkan jinoyatining mevasini (o'zi) totidi. Mening qalbim esa azaldan to o'lgunimgacha sizga, vafodordir. Men har doim sizning do'stingizga do'st, dushmaningizga dushman bo'lib kelayotirman. Agar siz haydasalaringiz, unda men qayerga boraman? Agar siz xohishimni rad qilsalaringiz, yana kimga ham o'z istagimni bildirardim?»

Unga javob berdilar: «Ehtimol, seni (keyinchalik) nafrat o'rab, o'z birodaringga nisbatan mehring qo'zg'ab uni yodingga olarsan va xursandchilikdan keyin musibat haqida fikr qilarsan; shunda sen qasos olib qusur chiqarishga rag'bat qilib, to'g'ri yo'ldan yurganingdan





keyin egri yo'lga og'ib ketarsan. Natijada sening dilingdagi sof narsa kulfat bo'ladi; ikki og'ayni va qoyada yashagan ilon haqidagi hikoya[341] sen uchun kifoyadir». Men dedim:

> Arqon (ip) uzilgach, uni ulash mumkin,
> Lekin ulangan joyda (baribir) tugun qolur.

O'z so'zlari va ahdu paymonlarining haqiqatligi haqida Altun ularga sidqidildan qasamyod qildi. Lekin ular unga: «Gapni cho'zma! Modom sen hayot ekansan, bizda sen uchun na kunduzi-yu na kechasi panoh (joy) bor. Qayerdan kelgan bo'lsang o'sha yerga qayt. G'azablansang ham, rozi bo'lsang ham bu sen uchun eng oxirgi uchrashuvdir – dedilar.

Shunda Altun taqdiridan nolidi va umrini (o'z) qadr-qiymatini bilmagan odamlar itoatida o'tkazganligi uchun nadomat chekib, hasratdan qo'llarini tishlay boshladi. «Keyin u yaqinlashib, (otidan) tushdi[342]» va qayg'u alamga botdi[343] «otini va mol-mulkini tashlab, otliqlar-u piyodalarnn qoldirib uzoqlashib ketdi. Altunning Alinjo qal'asidan bo'lak boshpanohi yo'q bo'lib, bu qal'a esa (endi) uning qo'lidan ketib, jigariga o't yoqqan edi. Altun endi kimga murojaat qilish haqida o'zicha «xar xil gumon taxminlar qilib bosh qotirdi[344]». Altun fikrining chaqmoqtoshi uning Marand[345] shahri tomon yo'l olishiga uchqun chiqardi. Bu shahar Temur hukmi ostida bo'lib, unda uning amrlari mavj urardi. Altun Marandga yetib borib, kigizdan libos kiyib, mol-mulki-yu o'g'lini qoldirib (to'g'ri) shahar hokimi huzuriga qarab yo'l oldi. Altunning kelganligini Marand hokimiga xabar qilganlarida uni qo'rquv va zaiflik qamrab oldi, qo'rqqanidan sochlari tik turib, qaltirab-titradi va esankirab o'zini yo'qotib qo'ydi. U ehtiyotkorlik ko'rsatib qochishni mo'ljalladi.

Lekin unga Altunning hech bir qo'shinsiz va qurol-aslahasiz yolg'iz o'zi ekanligini aytganlarida, aqli-xushi o'ziga qaytdi va Altun huzuriga kirib, hokim uning ishlarini surishtirib ahvolidan voqif bo'lgach, (darhol) uning kallasini kesib Temurga yubordi. Bu ishdan Temur iztirob chekdi va g'oyatda afsuslanib, yig'ladi. So'ngra odam

yuborib Altun qotilini (mansabidan) azl etdi va uning mol-mulkini musodara qilib, o‘zini qatlga tortdi.

Ushbu (noxush) hodisa ro‘y bergach, Sulton Tohirga qal’ada qolish mumkin bo‘lmadi, chunki u ham bu jirkanch va ifloslikladan murdor bo‘ldi. U jo‘nash azonini aytib o‘z jamoasi ketishi qiblasi tomon imom bo‘ldi. Chunki qal’adagi pardador xotinlar undan nafratlandilar. U ular iffat-nomusini saqlashdan ojiz bo‘lib, ularning qizlari-yu o‘rta yasharlarining qizliq (parda)larini yirtishda hezlik qilib qoldi. Uning askari kamayib, (ahvoli) zaiflashdi va Sulton Tohirning qal’adan istifodasi asta-sekin qo‘lidan keta boshladi. Natijada, Temur uchun u (qal’a)ni qo‘lga kiritish osonlashib, hech bir mashaqqatsiz qal’a darvozalari unga ochildi. Temur o‘zi ishongan yordamchilaridan qal’aga hokim tayinlab, qo‘shnichilik yuzasidan uni Shirvon hokimi Shayx Ibrohim (homiyligi)ga topshirdi.

Keyin Temur fasod jilovini Bag‘dod tomoniga qarab burdi. Zikr qilinganidek, Sulton Ahmad bir guruhga bosh bo‘lib, Shomga qarab qochdi. Bu (voqea) 795-yilning shavvol (1393-yil, avgust) oyida (bo‘lgan) edi. Temur (shavvolning) o‘n birinchisida[347], shanba kuni Bag‘dodga yetib kelib, shahar va uning atroflarini shafqatsiz xarob qildi[348]. Keyin Temur va uning to‘dasi Bag‘dod viloyatidan chiqib, Diyorbakr[349] va Arzinjonga[350] qarab yuzlandi.

**Bag‘dod sohibi haqida xabarlar, uning ota-bobolarining ismlari va Temurning qay tariqa bu yerlarga kirishi bayoni**

Uning ismi Sulton Mug‘iysuddin Ahmad ibn Shayx Uvays ibn Shayx Hasan ibn Husayn ibn Oqbuga ibn Idikondir. U Bag‘dod, Ozarbayjon va ularga izofa viloyatlar-u yerlar sohibidir. Uning katta bobosi Idikon, Abu Saidning o‘g‘li xon Arg‘unning nabirasi ulug‘ va shavkatli xon Sharofuddindir.

Sulton Ahmadning otasi Shayx Uvays diyonat va idrok ahlidan bo‘lib, odil podshoh fozil va shijoatli rahbar edi. U tangri qo‘llab-quvvatlagan muzaffar, keskir va shukriyotga sazovor kishi edi. U oz yomonlik qilib, ko‘p yaxshilik ko‘rsatardi, (uning) surati esa sifati kabi





bag‘oyat husndor edi. Shayx Uvaysning podshohlik muddati o‘n to‘qqiz yil bo‘lgan edi[351], u fuqarolarga mehr ko‘rsatib, ulamolar va ulug‘ (kishi)larga e’tiqod qilardi. Shayx Uvays tushida (o‘z) vafoti yaqinlashganini bashorat etgach, o‘limiga tayyorgarlik ko‘rib, uning (kelishini) kuta boshladi. U podshohlikdan qo‘lini tortib, hokimiyatni o‘z o‘g‘illarining eng kattasi va ahlu urug‘larining (ichida) eng afzali bo‘lgan o‘g‘li Xusaynga topshirdi hamda dunyo ishlarini bir chekkaga yig‘ishtirib qo‘yib, o‘z mavlosiga toat-ibodat qilib, o‘tgan gunohlari uchun undan kechirim va rizolik tilab sajdaga ruju’ qo‘ydi. U muttasil namoz o‘qib, ro‘za tutdi, zakot berib, ramazon oyida kechalarni toatibodat bilan o‘tkazdi va o‘sha ma’lum vaqt (etib) kelguniga qadar namoz o‘qib ro‘za tutishida davom etaverdi. O‘shanda u o‘zining yashirin sirini ochib (shunday deb) tilovat qildi: – «Agar ularning ajallari yetsa, ularni bir muddat ham kechiktirmaydilar va ilgari surmaydilar[352]. Shayx Uvays mana shu olijanob yo‘ldan ko‘tarilib o‘ttiz yildan oshiqroq javlon urgandan keyin Tabrizda uning oyi o‘z mag‘ribiga botdi. Bu xabar 776 (1374)-yilda Shomga yetib bordi va o‘g‘li Jaloluddin Husayn uning o‘rniga qaror topib, raiyalari ustiga fazl-u ehsonlarini oqizdi. U (o‘z) sifatan karim va birtalay fazilatlarga ega, jasorati oshib-toshgan, karomati (ochiq-oydin) zohir bo‘lgan (kishi) edi. U o‘z padari sunnatlaridan yurishni irodat etib, uning unutilgan rasm-rusumlari-yu tartibotlarini barhayot etishni xohladi. Lekin qismat unga xiyonat qilib, uning sof jidd-u jahdlariga kudurat qorishtirdi. 788 (1381)-yili uning elchilaridan bir toifasi Shomga keldi. Ular Bag‘dod va Tabriz qozi ul-quzzoti Zaynuddin Ali ibn Jaloluddin Abdulloh, ibn Najmuddin Sulaymon al-Aboyiqi ash-Shofi’iy va sulton vaziri Sohib Sharafuddin ibn al-Xoj Azuddin Xusayn al-Vositiy va boshqalar edilar. So‘ngra, shu yilning jumodu-l-oxirida (1381-yil, avgust) Sulton Ahmad (hozir) zikr qilinib o‘tilgan birodari (Husayn) ustiga hamla qilib, uni qatl etdida, mulk va din nusrati uchun uning o‘rnini egalladi. U Sulton Husaynni aldab, uning hayoti (ko‘zi) qovog‘ini o‘lim uyqusi bilan to‘lib-toshirdi. Shu paytda Sulton Husaynning yoshi endi yigirmadan oshgan edi.

Sulton Ahmad Iroq yerlariga egalik qilgach, jinoyatkor qo'li cho'zib, shafkatu ezgulik qanotlarini yig'ib oldi. U o'ziga va raiyalariga zulm qilib, kecha-yu kunduzini jabru jafoyu, fasod ishlari (qilish) bilan o'tqazdi. Keyin u fisqu fujurda me'yoridan oshib, zohiran jinoyatlaru ochiq-oydin yovuzliklar qila boshladi. U qon to'kishni ezguliklarni talash va nomuslarni tahqirlashda vosita qildi.

Aytishlaricha, Bag'dod ahli undan nafratlanib, uning dastidan Temurdan madad so'rab arz qilganlar. Natijada, ular (undan) «shunday suv quyinglarki, u eritilgan mis kabi yuzlarni kabob qiladi[355]» qabilida madad olganlar. (Sulton) Ahmad aql-xushini yig'ib olishga ham ulgurmasdanoq, uning ustiga balo kelib, totorlar bostirib kelib, chig'atoy askarlaridan suvoriylar va piyodalar uni yanchib tashladilar. Bu mashhur shavvol (oktyabr) oyining mazkur shanba kunida (bo'lgan) edi. Dushman (Temur) otliqlari Sulton Ahmad piyodalari ustiga tashlanib, shahar devorlari tomon shitob bilan yopirildilarki, bu mavj urgan dengiz ularni to'xtatib qola olmadi. Shahar ahli Sulton Ahmad jangchilariga qaratib kamonlardan o'q otdilar. Sulton Ahmad o'zi uchun yagona najot yo'li qochish ekanligini fahmladi va o'zi ishonadiganlarga bosh bo'lib (shahardan) chiqdi va Shomga qarab ravona bo'ldi. Bir toifa yaramas chig'atoyliklar uning orqasidan quvlab ketdilar. Sulton Ahmad qocha-qocha ularga hamla qilib ularni chekintirar, keyin esa o'zi orqaroqqa qochib (qaytib), ularni jangga chorlar edi. Ular o'rtalarida shiddatli jang bo'lib, ikki tomondan ham ko'p odamlar o'ldirildi. Nihoyat, Sulton Ahmad Hilla[354] (shahri)ga yetib borib shahar ko'prigidan Dajla (Tigr) daryosidan o'tgach, ko'prikni buzib, asirlik kulfatidan xalos bo'ldi[355]. Totorlar Sulton Ahmadni quvlashda davom etdilarki, oz bo'lmasa, ularning burunlari (Sulton Ahmadning) dumiga tegayozgan edi. Chig'atoyliklar daryoga yetib kelgach, ko'prik buzilganligini ko'rdilar. Shunda ular o'zlarini suvga tashlab, (daryoning) narigi qirg'og'idan chiqdilar va Sulton Ahmad qochishini, ular quvlashini davom ettirdilar. Lekin Sulton Ahmad ularni orqada qoldirib ketgan va Mashhad ul-imomga[356] yetgan edi. Bu (joy) bilan Bag'dod orasi uch kunlik yo'ldir[357].





**Arzinjon va Diyorbakr yerlarida Temur ishlatgan aldov va makr bayoni**

Keyin Temur Diyorbakrga kelib, uni egalladi va hokimlari qo'lidan uni xolis qilib oldi. Ammo Takriyt[358] qal'asi bo'ysunmagach, Temur unga qarshi o'z askaridan har bir shaytonni vasvasaga soldi. Bu (ish) zu-l-hijja o'n to'rtinchisida (1394-yil 11-oktyabr), seshanba kuni (bo'lib), butun mamlakat Temur oldida qo'rquvdan qattiq titragandi. So'ngra Temur qal'ani hisor etib, omonlik berish sharti bilan yil safar (1394-yil noyabr) oyida oldi. Qal'a mutavallisi Hasan ibn Boltumur[359] kafanga o'rangan holda Temurga peshvoz chiqdi. U o'z bolalarini qo'ltiqlab, yelkasida ko'tarib olgan, (O'z) ahli va mol-mulki bilan vidolashgan, otliqlari-yu odamlari Temurga itoat bildirgan edi. Bu (ish) Temur unga qonini to'kmaslikni va'da qilgandan keyin (bo'lgan) edi. Temur Hasanni devor yoniga turg'izib, devorni uning ustiga ag'darib tashlatdi[360].

Keyin Temur qal'ada bor erkaklarni qatl etdi, xotinlarni tutqin qilib, bolalarni asir oldi. U (odamlarni) urug'i bilan quritib, jirkanch ish qildi; o'z fasodida (ba'zi narsalarni parchalab), ba'zi narsalarni) buriktirdi va nihoyat 96-yil safar oyining o'n birinchisi[361], (1394-yil 16-dekabr) juma kuni Mosulga[362] kelib to'xtadi. U shaharni vayron qilib, xarobaga aylantirdi, keyin Raas al-Aynga[363] kelib, uni ham talon-taroj qilib asoratga soldi. So'ngra ar-Ruhaga qarab burilib unga rabiy ul-avval oyining birinchisi[364] (1394-yil 4-yanvar) yakshanba kuni qadam qo'ydi. Unda beboshlik va fasodni oshirib, tixirlikda Samud va Od (qabilalari)[365] bilan raqobat qildi. Bu shahardan u (oyning) o'n ikkinchisida (15-yanvar) yakshanba kuni chiqib ketdi. Keyin u qon buloqlari ustida qanot qoqib, musulmonlar qatlida jidd-u jahd ko'rsatadigan o'z qavmi qirg'iylaridan bir toifasini tanlab oldi. Ularni o'zi bilan birga olib, Diyorbakr yerlari tomon ichkarilab ketdi. Ular bu yerda beboshliklarini davom ettirib, unga ziyon-zahmat yetkazishga sa'y ko'rsatib, jabr-zulmda davom qildilar. Diyorbakrda Mordin[366] (shahri) bor. Temur o'zining dovyurak shaytonlari bilan unga (Mordinga) qarab yo'l olib, to'xtamasdan o'z yurishini davom ettirdi. Gar-

chi jadal (yuruvchi) otliq, bu masofani o'n ikki kunda agar bundan ziyod bo'lmasa – bosib o'tsa ham Temur Takriytdan Mordingacha besh kunda yetib keldi[367]. Mordin sultoni Malik Zohir[368] Temurga ilti jo qilish o'ziga zarar keltirmasligiga ishonch hosil qilib, itoat libosiga o'rangan holda uning huzuriga keldi. Chunki uning Temur himoyasi etagiga yopishib olib xizmatkorlari qatoriga kirishdan bo'lak iloji qolmagan edi.

## Mordin sultoni Iso Malik Zohirga Temur tomonidan qanday g'am-g'ussa va balolar kelgani bayoni

Ammo Mordin sultoni Temurning o'zi ustiga g'am-g'ussalar keltirishidan xavflandi. U o'z hoshiyasi va malaylarini to'plab, ularga: «Men bu odam huzuriga borib (o'z) itoatimni izhor qilaman. Agar u menga o'zim iroda etgandek javob qilsa, (unga) ayni muddao, agar u (mendan) qal'ani talab qilsa, unda sizlar monelik bildirib rad qilinglar, qal'ani (unga) topshirish va uning so'zlariga e'timod (masalasi) sizlarga bog'liq. Basharti, masala qal'ani topshirish va mening halok bo'lishim ustiga (borib) to'xtalsa, u vaqtda siz mening o'limimni foydali hisoblab, qal'ani saqlab qolinglar. Bordiyu, (siz) qal'ani Temurga topshirsangiz, unda (ichingiz-u tashingizdagi) hamma narsangizni qoldirasiz va hammangiz halok bo'lasiz, butun mol-mulkingizdan judo bo'lib, o'z nafsingiz va diyoringizni yerga urgan bo'lasiz. Modomiki, (ish) shunday ekan, men o'z jonimni sizga fido aylab, hayotim evaziga sizni (kelgusi) qayg'u alamdan xalos qilay, chunki «bir ofat undan boshqalaridan yengilroq[369]» va «men siz uchun uning tomir urishini ushlab ko'raman[370]».

So'ngra u o'z o'rniga birodarining o'g'li Malik Solih Shahobuddin Ahmad ibn Malik Sayyid Iskandar ibn Malik Solih Shohidni xalifa qilib qoldirganidan keyin, Temurga qarab ravona bo'ldi va 796-yil rabiy-ul oyining yigirma beshinchisida, chorshanba (1394-yil 20-yanvar) kuni (qal'adan) tushdi va o'sha oyning oxirgi (2-fevral, dushanba) kunida Hiloliya[371] deb ataladigan bir joyda Temur bilan uchrashdi. Temur Malik Zohirni noxushlik bilan qarshi olib, tezda uni tutib oldi va undan qal'ani topshirishni talab qildi[372].





Malik Zohir unga: – «Qal'a o'z egalarining qo'lida. Meni esa jonimdan o'zga mulkim yo'q[373]. Shu (jonim)ni olib huzuringga keldim va uni senga taqdim qilmoqchiman. Holi qudratimdan ortiq narsani ustimga yuklab, majolim yetmaydigai (ish)ni menga topshirma», – dedi.

Shunda Temur Malik Zohirni qal'aga keltirib qal'ani o'ziga topshirishni talab qildi, lekin ular bu talabni rad etdilar. Shunda Temur Malik Zohirning (taqdirini) ularga topshirdi: yoki Temur uning boshini uzadi yoki ular (qal'ani topshirib) uning hayotini saqlab qoladilar. Lekin qurshovdagilar bu talablardan yuz o'girdilar. Shundan keyin Temur (unga) omonlik (berish) evaziga undan yuz tumon kumush dirham[374] (berishini) talab qildi, – har bir tumon oltmish ming, bunga Malik Zohirning «xushomadgo'ylik qilib[375]» olib keladigani kirmas edi. Keyin u Malik Zohirning bog'lamini mustahkamladi va undagi mavjud quvvat-u toqatni ketkazish uchun undagi har bir eshig-u ravoqni bekitdi. Temur fasod uchun etagini shimardi va o'z odamlariga dam berib, otlarini boqa boshladi. U o'z yomonligi qadahlarini to'shirib, tangri bandalari-yu uning yerlariga g'alva solib, beboshlik qila boshladi. Shu zaylda u o'ziga kelmasdan va hushyor tortmasdan Firdavsdan[376] tortib to Rasmal[377], Nasibiyn[378] va eski Mosul oralig'ida ontirab yurdi. Keyin u jumod ul-oxirida (3-mart, 1-aprel) o'z askariga xuruj qilib Mordinga qarab yo'l olishni buyurdi. Ular qushdan ham tez uchib, shiddat bilan yurdilar, kunduzi anhorlardan, kechasi sellardan o'tdilar, cho'l-u biyobon umurtqalarini hind qilichi kesib o'tgandek (kesib) o'tdilar va ushbu baland tog'-u tepaliklarga go'yo al-Kindiy[379] aytgan (bayt) maqomida ish tutdilar, mana u:

> Go'yo suvda pufakchalar birin-ketin paydo bo'lgandek,
> Ahli uxlaganida men uning yonida paydo bo'ldim.

Temur askarlari shahar g'ofilligida yetib keldilar va fursatni ketkizmay uni egalladilar. Bu (voqea) jumod ul-oxir)) oyining o'n ikkinchisida (14-aprel) seshanba kuni, subh, o'z fajri qilichini yalang'ochlab, zimiston qarg'asi (o'z) uyasidan uchgan paytda (bo'lgan) edi. Ular go'yo shahar devorlari qo'llaridagi bilaguzuklar

bo'lib, ushbu diyorlarga vayronagarchilikni joylashtirdilar, ham ma yoqni titratib tahqirlikni avj oldirdilar, talon-torojni kuchaytirib chor-atrofni xarobaga aylantirdilar. Devorlarning yuqorisiga yopishib olib, narsalar orqali (shahar) yeridan osmoniga (yuqorisiga) ko'tarildilar. Ularning devorlarga chiqadigan joylari janub tomondan Ya hudiylar tepaligi, g'arb tomondan tepaliklar, sharqdan esa do'nglik edi. Ular shaharni tug'yonu zo'rlik bilan oldilar va uni fisq-u fujur va kufurlik bilan to'ldirib yubordilar. Shahar ahli qal'aga ko'tarildi va ulardan boshqa hech bir kimsada yuqori manzillilik va (baland) martabalilik yo'q (ko'rindi)[380]. Ular dahshat ichida qal'aning oldingi va keyingi qanotlaridan boshpana qidira boshladilar, lekin qal'a (ichi)dagilar kamon, miltiq va midfa'lardan[381] o'q uzib, ularni haydadilar.

Dushmanlar ularni talaganlari va qaybirlarini asir olganlari bilan qanoatlanib qolmasdan, kimni tutib olgan, bo'lsalar – erkakmi, ayolmi, kattami, kichikmi–hammasini o'ldirdilar. (Bu) odamlardan ba'zilari ular bilan ko'rashni davom ettirib matonat ko'rsatdilar va ularga qarshi diyonat uchun kurash yo'lida sabotlilikni shahid bo'lishga biriktirishni irodat qildilar. Toki shahar majruh va o'liklarga to'lib ketmaguncha jangu jadal (al-qitol) oyatlari[382] ular ustida tilovat qilinaverdi. Bu (hol) quyosh tulu'idan ham oldin boshlanib, kun kech bo'lguncha davom etdi. Qachonki tun lunjlari borliq chekkalariga tegib, ushbu tarozibonlar o'z tarozi-yu mezonlarini zulmu jinoyatlaridan ehtiyojlariga yarasha to'ldirib, zulmat Nuni quyosh Yo'nusini yutib yuborishga shoshilgach, kutilmaganda o'sha harakatlar ustiga sokinlik keldi va Temur askarlari orqaga tisarilib, Arbun[383] muqobilida qarorgoh tutdilar. Ikkala qo'shindan ham son-sanoqsiz kishilar o'ldirilib, o'lganlarning aksariyati shahar ahlidan edi. Ular kechasi bilan qurol-aslaha tayyorlab, bukilgan nayzalarini to'g'riladilar va sabrsizlik bilan subh intizorida bo'ldilar. Qachonki tun o'z qo'ynida yashirganini yirtib zulmat o'zining sir tutganini zohir qilgach va borliq kunduz yuziga ufq yoylarini (atroflarini) o'z oppoqlik tig'lari bilan urishni amr qilganda, Temur askarlari go'yo quzg'unlarga o'xshab erta tongda turib, urush va xarobaga qarab shoshildilar. Ular shahar ahlini siqib qo'yib, butunlay hisorga oldilar. Ular shaharni va uning





devorlarini peshingacha yakson qilib, asrdan o'tguncha izlarini mahv qildilar. Keyin (ular) o'z jinoyatlariga kirishganlarida ularning (qora) bulutlari kabi zimiston ham tarqalgan edi.

## Temur yashirgan hiyla va uning badg'araz niyatlari chaqmoq toshidan uchqun chiqmaganligi izohi

Tun[384] nobaror kelib, haybat bilan qal'ani olishga muvaffaq bo'la olmagach, Temur o'z fikrini qayrab, makrini yangiladi va qabohatli muomaladan yuz o'girib, murosaga o'tdi. Temur payshanba kuni nahorida o'z askarini (hamladan) to'xtatib, elchi orqali ularga (mordinliklarga) xat yuborib, o'z xati jarayonida (shunday) dedi:

«Mordin qal'asi ahliga – zaiflarga, miskin ojizlarga, tashnalarga bildiramizki[385], biz ularni afv qilib, ularning ruhlari-yu qonlariga omonlik baxsh etdik. Endi ular bexavotir bo'lsinlar va (bizning) haqimizga duolarini ziyoda qilsinlar». Men bu risolani qay tarzda eshitgan bo'lsam, shundayligicha naql qildim. Lekin Temurning makri amalga oshmadi va (ko'zlagan) murodiga yetishmadi, chunki qal'aning posboni (hali) uxlamagan va uning shayton qorovullari esa go'yo (o'sha) qal'a misoli[386] qaysar edilar[387]. Natijada bu balolarning sababchisi (Temur) shanba kuni subhida Bashiriyaga[388] jo'nab, Sulton Mahmud deb ataladigan amir bilan Omidga[389] qo'shinlar yubordi. U (Sulton Mahmud) to'lib-toshgan qo'shin bilan Omidga qarab yuzlanib, uni besh kun qamal qildi. Keyin u Temurdan madad so'rab murojaat qilganda, Temur o'zi (Omidga) ravona bo'ldi. U qal'ada tahqirlik o'rnatgach, qamaldagilar Temurdan omonlik tiladilar. Temur darvozabonga omonlik va'da qilgach, u darvozani ochdi. Temur tepalik tomondagi darvozadan kirib, undagilarning hammasining bo'yniga qilich qo'ydi, barchasini halok etib, ulardan isyonkor-u itoatkorni o'ldirdi. Ular bolalarni asir oldilar, xotinlarning izzat-pardalarini yirtib, sitrolariga daxl qildilar va odamlarga g'am-kulfat libosini kiygizdilar. Odamlarning ba'zilari jome'dan boshpana izladi. Natijada ularda (namozda) tik turgan va sajdadagilardan ikki mingga yaqinini o'ldirdi hamda jome'ni yondirib, uni kulba holatida tashlab ketdilar. So'ngra iblis Temurni Irjis[390] qal'asini olishga boshladi. Keyin u

ketishga shoshildi va Avnik[391] qal'asi oldiga kelib to'xtadi. Unda turkmonlar amiri Qaro Muhammadning o'g'li Misr[392] turar edi. Temur odamlari ushbu qal'ani qamal qilib, omonlik evaziga uni oldilar. Bu (voqea) 796-yilda, ramazon hayitidan keyin (1394-yil iyul, avgust) bo'lgan edi[393]. Keyin Temur qal'ada bo'lgan jangchilarni qatl etib, Misrni Samarqandga jo'natdi.

## Bo'lim

Keyin Temur yomon niyat bilan Malik Zohirning yoniga olib 796-yil zu-l-qa'da oyining yettinchisida (1394-yil 3-sentyabr) yo'lga tushib, uni Sultoniya shahrida hibsga soldi. Malik Zohir bilan birga uning amirlaridan: amir Ruknuddin, Izuddin Sulaymoniy, Asnabugo[394] va Ziyouddinni ham hibsga soldi. Malik Zohirning xabari uning ahliga yetmasligi hamda o'zining oshkor va yashirin (kirdikor)larini biron kimsa bilmasligi uchun Temur uni qattiq tutqunlikda saqladi.

Temur Malik Zohirni qattiq «azob-uqubatga mubtalo etib, mustahkam qilib (arqonga) bog'lagach»[395], Dasht Qipchoqqa tavajjuh etishga niyat qildi va u tomonga shunday narsa yubordiki, u fitnani oyoqqa turg'izdi. Malik Zohir hibsda bir yilni o'tkazdi, hech kimsa na uyqusida-yu na o'ngida uning haqida biror xabar eshitmadi. Keyin Sultoniyaga Katta Malika[396] kelib, uning dard-u alamlarini yengillatdi. Katta Malika Malik Zohirga o'z jamoasi bilan xat yozishga ruxsat berdi va o'zini unga xolis nasihatchi va uning manfaati talabgori (ekanini) ta'kidlab, uni Temur muruvvatiga kirib, unga itoat etish (yo'li)ni izlashga undadi. Bu (ish) Temurning makr-hiylalaridan (biri) bo'lib, uning ishorasi bilan bo'lgan edi.

Keyin Temur 798-yilning sha'bon (1396-yil, may-iyun) oyida Dasht (Qipchoq)dan qaytib, Sultoniyada o'n uch kun bo'lgach, Hamadonga qarab ravona bo'ldi va unda ramazon oyining o'n uchinchisi (1396-yil 20-iyun) gacha turdi. Keyin Temur tamomi izzat ikrom, shod-hurramlik qalbi va xotiri bilan Sultoniyadan Malik Zohirni (o'z huzuriga) chaqirtirdi. Temur odamlari undan va uning tarafdorlaridan (tutqunlik) zanjirlarini yechdilar va o'ziga mansub (odam)lari bilan birgalikda Malik Zohirga g'oyatda izzat-ikrom ko'rsatdilar. Malik





Zohir Temur tomon (ramazon oyining) o'n beshinchisida, (22-iyun) payshanba kuni jo'nadi za uning huzuriga o'n yettinchida, (24-iyun) shanba kuni yetib keldi. Temur Malik Zohirni ehtirom bilan qarshi olib, uni o'z bag'riga bosdi va unda bo'lgan vahmu qo'rquvni ketkazdi. (Uning) yuzidan qayta-qayta o'pib, uning haqiga qilgan ishlari uchun (hammaga) eshittirib Malik Zohirdan uzr so'rab, (o'sha): «Darhaqiqat, sen tangriga valiysan va Abu Bakr, Ali kabi martabang ulug'dir», – dedi. Temur Malik Zohir (haqqiga) o'zi tomonidan sodir bo'lgan ishlaridan o'zini forig' qilib, olti kun davomida ziyofat berib, unga ulug' podshohlar kiyadigan shohona xil'atlar armug'on etdi va uni juda chiroylik maqomga o'tkazdi. U Malik Zohirga ko'pdan ko'p hadyalar tortiq qildiki, shular jumlasidan yuzta ot, o'nta xachir, oltmish ming kabokiy dinor, olti tuya, zarkashlanib marvarid bilan bezatilgan xil'atlar, behisob mo'l-ko'l in'om-ehsonlar ato qildi va bir bayroq berdiki, bu unga nusrat (berilganligi)ni bildirib, boshi ustida hilpirab turardi va (yana) ellik olti farmon berdi (ki), ulardan har qaysinisi bir shaharga voliylik (qilish) huquqini berib, u bu joylarda hech bir kimsa unga raqobat ko'rsatmasligi uchun edi. Bu (shahar)larning eng avvali ar-Ruha bo'lib, u Diyorbakrning oxirigacha, to Ozorbayjon va Armaniya chegaralarigacha edi. Bu (ish)lar hammasi aldov va makrdangina (iborat) edi. Shuningdek, ushbu shaharlardagi (mavjud) jami hokimlar uning (Malik Zohirning) itoati ostida bo'lib, uning xizmatkorlari hamda jamoati jumlasidan hisoblanib, unga xiroj va (har xil) xizmatlar keltirishlari va uning farmonisiz (bo'sag'adan) bir qadam ham o'tmasliklari lozim edi. Malik Zohirning qo'shnilaridan hech biri qolmasdan[397] tangri (tomoni)dan o'ziga hadya qilingan (harbiy) o'lja bilan kelishi va na Temurga-yu na boshqa biror kimsaga hech narsa keltirmasdan, to'lig'icha unga berishi zarur edi. Garchi bu (ish) zohiran izzat-ikrom (kabi) bo'lsa-da, lekin oqibati uning ustiga azob-uqubat va intiqom (kelishi) uchun zamin edi. Bu (ish) har kimga ayon bo'lganidek, Malik Zohir va uning qo'shinlari o'rtasiga adovat tashlatib, natijada uning Temurdan boshpana tilab himoya so'rashiga va jami ishlarida unga tayanishiga olib kelar edi. Dushmanlarining ko'pligidan u (Malik Zohir) Temurning qo'ltig'iga kirib, (asta-sekin)

uning quchog'ida bo'ladi. Shuningdek, Temur u bilan har qachon o'z talab qilganda uning huzuriga kelishini shartlashdi va Malik Zohirni bag'riga bosib u bilan xayrlashdi va (o'z) amirlariga uni kuzatib qo'yishlarini buyurdi.

Malik Zohir 798-yil ramazon oyining yigirma[398] uchinchisi (1396-yil 30-iyun) juma kechasi tanglikdan kenglikka chiqdi va o'z hayotidan rozi holatda ajoyib bir kayfiyatda Sultoniyaga yetib keldi. So'ngra u ko'p sonli nafis va kuchli qo'shinga bosh bo'lib, Tabrizga tomon azm qildi va Amiranshoh huzuriga tashrif buyurdi. Amiranshoh, uning izzat-ikromini ziyoda etib, ko'pdan ko'p hadyalar tortiq qildi va benihoya go'zal tartibda va saodatli suratda uni kuzatib qo'ydi. Keyin u Vaston[399], Bidlis[400], Arzan[401], orqali Surgacha[402] bordi. Uning haqidagi xabar o'z qabilalari va urug'-aymoqlariga (borib) yetgach, odamlar shod-xurram bo'lishdi va xursandchilik nog'oralari chalindi.

Keyin u shavvol (oyi)ning yigirma birinchisi, (1396-yil 28-iyul) juma kuni shaharga yetib keldi[403]. Shahar ahli va uning akobirlari Malik Zohir istiqboliga (peshvoz) chiqdilar. Kutib oluvchilar peshvosida Malik Zohirning valiahdi Malik Solih turardi.

Malik Zohir saodatli va ishi barorli holda shaharga kirib, Husomuddin madrasasiga tomon yuzlandi va o'z padari hamda dunyodan o'tgan ajdodlari (qabrlari)ni ziyorat qildi. U oliy taxtni tark etib, Hijoz ush-sharifga tavajjuhni niyat qildi. Lekin (barcha) odamlar, xos-u avomlar unga yo'l bermay, o'zlarini (uning) oldiga tashlab oyoqlarini o'pdilar. Natijada, u o'zining karomati martabasiga ko'tarilib, (o'z) mamlakati taxtida qaror topdi. So'ngroq bu borada ziyoda bayon aytilib, Shom yerlarini xarob etganidan keyin Temur va uning askari Mordinga kelganda yuz bergan mojaro zikr qilinadi.

Aytishlaricha[404], Malik Zohir o'z podshohligida qaror topgach, uning huzurida bir guruh adiblar – ular avval ham uning huzurida bo'lganlar – to'planishgan. Malik Zohir ulardan sodir bo'lgan ishlar xususida biron narsa aytishlarini so'ragan. Birinchi bo'lib Badruddin Hasan ibn Tayfur dedi:

Temur tug'yonda chegaradan chiqib uning zulmi odamlarni qirdi. (Uning) yovuz kirdikorlari sharq-u g'arbga yoyildi.





U nohaqlikni oshirdiki, uning ketishidan (sizlar) shodlaninglar. Chunki nohaqlarga qarshi (zamon) teskari aylanadi.

Kotiblardan biri – Ruknuddin Husayn ibn al-Asg'ar ikkinchi bo'lib dedi:

> Balo kelganda ishlarni rahmon (tangri) ga topshirib
> fursatdan foydalangan erkaklardan bo'l.
> Chunki ular, xatarni ko'rganda, o'z ishlarini
> qudratli (tangri) ga topshirib salomat qoldilar.

Keyin qozi Sadruddin ibn Zohiruddin al-Hanafiy as-Samarqandiy uchinchi bo'lib dedi:

> Go'yo (bir) kunga o'xshash er kishining umri uzoq,
> Eng yaxshisi u haddidan oshmasa.
> Har bir bekam-u ko'stlikdan keyin noqislik (kelishi) haq.
> Qudrati kuchli odam quli uchun qasos oladi.

Keyin kotiblardan biri Alouddin ibn Zaynuddin al-Hisniy to'rtinchi bo'lib (ushbu) baytni aytdi:

> G'amgin bo'lma, chunki tangri hukm qilgan ish bo'lishi haq;
> Asli (bu) ish «kun fayakun»ga[405] topshirilgan; ko'z qarashida
> harakat bilan sukun oralig'ida bir holat borki, u (holat)
> o'tib ketadi, u ish (esa) arzimas bo'lib qoladi.

Bu (bayt) Malik Zohirni taajjubga soldi va u Alouddin al-Hisniyni besh ming dirham bilan mukofotlab, unga ato qildi. Bu yog'ini yana tangri biladi.

## Temurning Diyorbakr va Iroqdan qaytib qipchoq dashtiga tomon tavajjuhi zikri. Qipchoq podshohlari va yerlarining vasfi. Qishloq va yo'llarining bayoni[406]

Keyin Temur Arab va Ajam Iroqlaridan qaytdi; uning bu mamlakatlarga qo'ygan qadami zafar olib kelgan edi. Bu (hol) Shayx Ibrohim uning huzuriga kelib, o'z qo'lida bo'lgan iqlimlar kalitlarini unga topshirgandan va itoat injusini Temurning bo'yniga taqib, uning xizmatida qo'l qovushtirib turgandan va Temur qullari qa-

toriga qo‘shilib, Temur uni o‘z o‘g‘li maqomida ko‘rgandan keyin bo‘lgan edi. So‘ngroq biz Shayx Ibrohimning qay tariqa Temur bilan tanishib[407], qaysi yo‘l bilan unga yaqinlashgani haqida zikr qilamiz. Keyin Temur Dasht Qipchoqqa ravona bo‘lib, (tezlikda) tuya va tuyaqushdek jiddu jahd ko‘rsatdi.

U (Dasht Qipchoq) bepoyon podshohlik bo‘lib, keng cho‘llarni o‘z ichiga olar edi. Uning sultoni To‘xtamish Temurga qarshi urushib muxolif (bo‘lgan) sultonlarning peshvosi, go‘yo bayroqdori bo‘lgan edi, chunki u Temurga adovat bildirib chiqqanlardan eng birinchisi bo‘lib, Turkiston yerlarida[408] unga qarshi jang qilgan edi; avval (aytib) o‘tilganidek, shu jangda Temurni Sayyid Baraka qo‘llab-quvvatlagan edi[409]. «Dasht yerlari», Qipchoq yerlari yoki Dashti Baraka deb ataladi[410]. «Dasht» deb fors tilida yalanglikni ataydilar. Baraka[411] unga izofa bo‘lib, islom (dini)ni qabul qilib, Dashtda islom (dini) bayroqlarini yoygan birinchi sultonning ismidir. Vaholanki Dasht ahli avval butparast va ko‘p xudoga ibodat qiluvchi bo‘lib, islom va iymonni bilmagan. Ulardan ayrimlari shu paytgacha butlarga sig‘inadilar.

Temur mana shu iqlimga tomon Shirvon yerlari sultoni Shayx Ibrohim hukmi ostida joriy bo‘lgan Darband[412] orqali yuzlandi. Uning (Shayx Ibrohimning) nasabi iodshoh Qisro Anushirvonga borib bog‘lanadi. Uning Abu Yazid deb ataluvchi qozisi bo‘lib, Shayx Ibrohim davlatining jami arkonlari orasida unga yaqinligi bilan ulardan ustun turardi. U Shayx Ibrohim mamlakatining dasturi sanalib, uning saltanati falakining qutbi edi. Shayx Ibrohim Temur masalasida ham «Nima qilmoq kerak?» – deb undan maslahat so‘radi: – «Unga bo‘ysunsinmi yoki istehkom qursinmi; qochsinmi yoki u bilan urushsinmi?». Abu Yazid: «Qochish va baland tog‘larda qo‘rg‘on tikib olish, fikrimcha, eng ishonchli va maqbul yo‘ldir», – deb javob qildi. – «Bu maqsadga muvofiq fikr emas, – dedi Shayx Ibrohim. – O‘zim najot topib raiyalarimni qiyin kunga tashlab ketishim bilan qiyomat kunida yaratgan egamga nima javob qilaman? Chunki men ular g‘amini yeydigan kishi bo‘lib, ularni qirib yuborsam-a? Men Temurga qarshi muqotala boshlab, uni harbu zarb bilan muqobil olishga azm qilmayman. Lekin tezda (uning) huzuriga borib amriga itoat bildirib, unga qulliq qila-





[illegible]. Agar u meni (o‘z) martabamga qaytarib, (o‘z) viloyatimda qaror toptirsa, bu men uchun ayni muddao va ko‘zlangan maqsad (bo‘ladi). Agar u (menga) aziyat berib (martabamdan) azl etsa yoki meni hibsga olsa yo qatl qilsa unda raiya o‘lim, talon-taroj va asorat azobidan qutuladilar va shunda Temur o‘zi ixtiyor etgan kishisini raiya va mamlakat ustidan hokim qilib qo‘yadi».

Keyin Shayx Ibrohim yegulik, oziq-ovqatlar to‘plashlarini buyurgach ularni jamladilar, qo‘shinlariga esa bo‘linib, tarqalishlariga ruxsat etdi. U o‘z viloyatlari shaharlariga zebi-ziynat berib bezashlarini, aholiga esa xoh quruqlikda, xoh dengizda bo‘lsa ham – shinam va ko‘rkam kiyinib xotirjam holda bir-birlariga shirin muomala qilishlarini, minbarlar (usti)da Temur ismi bilan xutba o‘qitib, dinorlaru dirhamlarni uning tamg‘asi-yu belgisi bilan zarb etishlarini amr qildi.

Shundan keyin Shayx Ibrohim armug‘onu xizmatkorlarni olib, shirin kayfiyatu dadil qadam bilan Temurga tomon yuzlandi. U Temur huzuriga (etib) kelgach, uning oldida qulliq qilib (unga) hadyalar va tuhfalar, turli-tuman g‘aroyibu ajoyib ashyolar taqdim qildi. Hadya taqdim qilayotganda chig‘atoyliklarning odati shunday ediki, ular hadya taqdim qilinadigan (kishi)ning hurmat va e’tiborini qozonish uchun tuhfaning har qaysinisidan to‘qqiztadan tortiq qilardilar. Shu sababli Shayx Ibrohim o‘zi taqdim qilgan hadyalarning har qaysi turidan to‘qqiztadan tortiq qildi-yu, qullardan esa sakkizta taqdim qildi. Shu sababli (tuhfa) qabul qiluvchilar: «To‘qqizinchi qul qani?» – deb so‘radilar. Shayx Ibrohim: – «To‘qqizinchisi (mening) o‘zim, qurbonman», – dedi[413]. Bu xitob Temurga yoqib qolib, Shayx Ibrohim uning qalbidan yuqori martabani egalladi va u Shayx Ibrohimga «Yo‘q, sen mening farzandimsan va o‘sha yerlarda mening xalifam va e’timodli (kishim)san», – dedi. U Shayx Ibrohimga qimmatbaho xil’atlar kiygizib, o‘z osoyishtaligiga erishganidan mamnun holatda uni (o‘z) mamlakatiga qaytardi. Keyin o‘sha (u keltirgan) yegulik oziq-ovqatlar tarqatilib, mevalar va taomlar taqsim qilinsa, ushbu maydа (chig‘ir) tosh va qumga o‘xshash (behisob) askardan tog‘-tog‘ taomlar qolib ketdi. Shundan keyin Temur Shayx Ibrohimni qoldirib, o‘zi Shimol mamlakatlari va totorlarga qarab yurdi.

Temurning u yerlarga tomon yurishining yana bir sababi shu edi
ki, – garchi uni sababga hech bir ehtiyoji bo'lmasada – so'l qanot
amirlari boshliqlaridan hamda har qanday kulfatlarni daf qilishga ti-
tiyor etiladigan a'yonlardan va fikru mashvarat arboblaridan biri ...
Idiku To'xtamish huzurida edi. Uning qabilasi qo'ng'irot[414] deb ata-
lib, turklarda ham arablarga o'xshash turli qabilalar va lahjalar mav-
juddir. Idiku o'z mahdumi (To'xtamish) ning yuragi (unga nisbatan)
o'zgarganini his qilib, o'z joni uchun undan xavotirda yurgan edi.
To'xtamish g'oyatda darg'azab (kishi) bo'lib, o'zi ustiga uning g'a-
abi kelishidan Idiku xavfda edi. Shu vajdan u doimo undan sergak-la-
nib, To'xtamish tomonidan shuni taqozo qiladigan biror harakat sezsa,
qochishga hozirlanib yurardi. U To'xtamishning yon-atrofida ayla-
nib, uning pinjiga tiqilib zimdan uni kuzata boshladi. Vaqtiцho'li
kechalarining birida, qadahlar yulduzlari ishrat aflokida aylanib yu-
rib, xamr sultoni aql asiri ustidan o'z amrini yurgizgach, To'xtamish
so'zni boshlab Idikuga: – uning (To'xtamishning) basorat nuri go-
yonib, goh o'chardi – darhaqiqat biz ikkimizga nisbatan bir kun kela-
diki, unda ustingga qattiq aziyat yoniriladi va sen hayot-mamot das-
turxonidan ro'za tutib, borliq ko'zingni fans uyqusi bilan to'lg'iza-
di», – dedi. Shunda Idiku firib ishlatib, mamnunlik bilan unga dedi:
– «Mavlono xoqonni, xiyonat qilmagan quliga ozor yetkazishdan,
o'zi o'stirgan ko'chatni quritishdan, yoki o'zi qurgan (bino) asosini
vayron qilishdan (xudo) saqlasin». Keyin u o'zini past tutib, tazar-
ru qildi va (o'zini) miskinlikka solib, haqir holatda ko'rsatdi. (Shu-
on) Idiku o'zi gumon qilib yurgan (shubhasi)ga ishonch hosil qildi
va bu holatdan qutulish borasida (o'z) zehnini ishlatib, shu yo'lda
o'zining (butun) aqlu idrokini ishga soldi va agar u bu ishda ozgina
beparvolik bildirib paysalga solsa, unda kech bo'lishini bildi. Bir oz
muddat (kutib) turgach, sulton (To'xtamish) g'aflatdaligida[415] Idiku
yordamchilar va mulozimlar orasidan sekingina, qalbi titragan holda,
go'yo hojatnni ado etishga chiqqanday (tashqariga) chiqdi. Keyin u
hayajonlangan, lekin gangimagan holda To'xtamishning otxonasiga
keldi va egarlanib har qanday shiddatga tayyor turgan zotdor bir otni
minib, o'z mulozimlaridan biriga – uning sirni yoymasligiga amin





...«Kimki meni uchratmoq istasa, (meni) Temur huzuridan topadi.
... sahroni, men sahroni kesib o'tganimga qanoat hosil qilganingdan
... tarqatgin», – dedi. Keyin u (kishi)ni qoldirib jo'nab, ket-
... uning g'oyib bo'lganini faqatgina u uzoqlashib ketib, qavat-qavat
... larni bosib o'tgandan va yurish dastgohida uzundan uzoq maso-
... to'qigandan keyin sezib qoldilar[416]. Uning ketidan quvganlar na
... asar-u na g'ubor ko'rdilar. Idiku Temur huzuriga (etib) kelib,
... qo'llarini o'pdi va o'z hikoyatlari va axborlari qanday bo'lgan
... shundayligicha arz qilib, (Temurga) dedi: «Sen olis yerlarga-yu
... mashaqqatli, befoyda joylarga intilasanda, o'zingni xavf-xatarga
... duchor qilasan, dasht-u biyobonlar qobirg'alarini kesib, safar kitob-
... larini tilovat qilasan. Mana bu ko'z o'ngingda osongina o'lja turibdi:
... uni hech bir zararsiz foyda sifatida bemalol va hech bir qiyin-
... chiliksiz olasan. Nega bunchalik sustkashligu lanjlik? Nima uchun bu
... ishlar paysalga solishligu keyinga sudrash? Qat'iy azm bilan o'rning-
... dan tur, men senga bu ishda kafilman. Hech bir qal'a senga monelik
qila olmaydi, hech bir to'sqinlik seni to'xtata olmaydi, hech bir qilich
... daf qila olmaydi va hech bir himoyachi yo'lingni to'sa olmaydi,
hech bir dushman senga ro'para bo'lolmaydi va hech qanday jangchi
sen bilan urushga kira olmaydi. U yerda faqat qalang'i-qasang'i va
quyqa (odamlar)ni ko'rasan, olib ketishli mol-dunyolar va mollarga
o'xshash oyoqda yurgan xazinalarni ko'rasan». Go'yo keyinroq zikr
qilinajagidek, Temur o'z qo'shinlari bilan Tabrizga kelganida, Usmon
Qoroyluk Sulton Burhonuddin Ahmadni o'ldirib uning Sivasini qa-
mal qilgandan keyin (Temurni) Shomga kirishga undagani kabi, Idiku
Temurni bu ishga undar va g'oyatda say' ko'rsatib Temur aqlini olib,
atrofida gir aylanar edi.

Natijada, Dashti Barakani ishg'ol qilishga Temur to'la-to'kis
harakat bilan tayyorgarlik ko'ra boshladi. Bu yerlar yolg'iz totorlarni-
ki bo'lib, turli-tuman chorvalari ko'p va turk qabilalari bilan to'liq
(edi); uning chegaralari muhofaza etilgan, yon tomonlari ma'mur[417],
tevarak-atroflari bepoyon, suv va havosi sof edi. Dashtning hasha-
mi-dovyurak, qo'shinlari mergan yoychilar, (boshqa) turklarga nis-
batan ularning lahjalari to'g'riroq va ulardan ko'ra qalblari sofroq,

yuzlari husnliroq, chiroylari barkamolroq edi. Ayollari quyosh, erkaklari to'lin oy misoli; podshohlari-boshliqlari, a'yonlari[418] arboblar edi. Ular (orasi)da na yolg'onchilig-u na firibgarlik, na ayyorlig-u na makkorlik bor (edi). Qo'rquv nimaligini bilmasdan aravada bexavotir sayr qilish ular odatlaridan edi. (Ular) shaharlarining adadi kam bo'lib, manzillari orasidagi masofa yiroqdir. Dasht yerlarining haddi qibla (janub) tomondan tug'yonli, qahrli Qulzum[419] (dengizi) va Rum yerlaridan ularga qarab oquvchi Misr dengizi edi. Cherkaslarning tog'i «ular ikkalasini ajratib turuvchi bo'yin»[420] kabi bo'lmaganda edi bu ikki dengiz oz bo'lmasa qo'shilib ketardi. Sharq tomondan Xorazm, O'tror va Sig'noq yerlari, Turkiston va Jatogacha hamda Mo'g'ul va Xitoy yerlaridan bo'lgan Siyn hududlarigacha cho'zilgan boshqa yerlar va ufqlar chegaradoshdir. Shimol tomondan esa Iybir – Sibir[421] va dasht-u biyobonu tog' misoli qumliklar... U yerda qanchadan qancha sahrolar borki, ularda (sonsiz-sanoqsiz) qush va vahshiylar daydib yuribdi! Ular go'yo olam urug'larining marhamatiki, uning nihoyasiga idrok etib, chegarasining tubiga yetib bo'lmaydi. G'arb tomonda rus va bulg'or hamda yaramas nasroniylar yerlari[422] chegaralaridir. Bu yerlarga Ibn Usmon hukmi ostida joriy bo'lgan Rum yerlari kelib tutashadi. Oldinlari karvonlar Xorazmdan chiqib, hech bir xavf-xatarsiz va shubhasiz arava bilan to'g'ri (Dasht yoqalab) Qrimgacha yurardi. Bu yurish uch oyga yaqin muddatni olardi. Dashtni ko'ndalang kesgan bir qum dengizi bor ediki, qariyb yetti dengizga barobar kelardi[423]; shunda tajribali yo'l boshlovchi ham yo'l bilmas va eng pixini yorgan shayton ham yaqin yo'lay olmas edi. Karvonlar (o'zlari bilan) na oziq-ovqat, na ulovlariga yem-xashak, na o'zlariga hamroh va yo'l boshlovchi[424] olardilar. Bu (hol) u yerlarda aholining ko'pligi, xavf-u xatarning yo'qligi, (erli) odamlarda oziq-ovqat-u suv serobligida edi. Ular biror joyga chiqqanlarida faqat (o'z) qabilasi odamlari bilangina chiqib o'z mehmoniga izzat-ikrom ko'rsatgan kimsanikiga na qo'nardilar. Go'yo ushbu bayt[425] ular to'g'risida aytilgandek: Ular (Makka ahli) har tomondan[426] Ukoz[427] (tog'i)ni o'rab turadilar.

Ularning bolalari uning atrofida «Iroor»[428] deb qichqirardilar.





Ammo shu kun(lar)da esa u joylarda – Xorazmdan tortib Qrimgacha o'sha xalqlardan va odamlardan na biron yuruvchi-yu na biron [illegible] turuvchn (turg'un) kimsa bor; u yerda kiyik va tuyalardan boshqa birorta ham jon asari yo'qdir.

Dashtning poytaxti – Saroydir. Bu shahar islom tartibida (qurilgan) bo'lib, rukunlari badoatlidir; uning vasfi (keyinroq) keladi. Sulton Baraka – Alloh, uni rahmat qilsin – islomni qabul etganida shu shaharni bino etib, o'ziga dor-ul-mulk qilib tanladi va Dasht ahllarini islom himoyasi ostiga kirishga undab, ularga homiylik qildi. Shu sababdan Dasht har bir xayr-u barakaning makoni bo'ldi va (nomi jihatidan ham) Qipchoqqa izofa qilganlaridan keyin uni Barakaga mansub etdilar. Mavlono sayyidimiz, marhum Xoja Abdul Malikning[429] o'g'li – u xudoyi taolo rahmat qilg'ur jalolatli shayx Burhonuddin al-Marg'inoniyning avlodlaridan (biri) – mavlono sayyidimiz Xoja [illegible]muddin 814 (1411 –1412) yilda Hijoz ush-sharifdan qaytganidan keyin – hozirgi kunlarda, ya'ni 840 (1436) yilda unga Samarqandda riyosat (vazifasi) o'tgan Dasht yo'llarida bo'lsa u xilma-xil mashaqqatlarni boshidan kechirgan edi – Dasht shaharlaridan biri Hojitarxonda[430] menga o'zining ushbu she'rini nashida etgandi:

(Men) eshitgandimki, xayru sahovat, ismi o'zining sultoni
Baraka (nomi)ga boradigan sahroda bo'ladi.
Men sayohatim tuyasini uning yoniga cho'ktirdim.
Lekin men (u yerda) biror kishida ham barakat ko'rmadim.

Shuningdek, (yana) ushbu zikr qilingan makon va zamonda u menga o'zining ushbu she'rini nashida etdiki, unda mavloni sayyidimiz va shayximiz Hofizuddin Muhammad ibn Nosiruddin Muhammad al-[illegible]diy al-Bazzoviy al-Xorazmiyga[431] – Xudoyi taolo uning o'z rahmatiga o'rasin – ishorat qiladi:

Qaysi bir shaharda bo'lmasin qachonki, odamlar o'z ishlarini bi[illegible] (hofiz)ning qo'liga (saqlashga) topshirsa, bu saqlovchi (hofiz) ularning sultoni bo'ladi, ammo sulton bo'lsa endi saqlovchi emasdir.

Barakaxon islom xil'atini kiyish sharafiga muyassar bo'lib, Dasht atroflarida hanafiy dini yo'lida bayroqlarni ko'targach, o'z dinlari xu-

susiyatlaridan odamlarni voqif qilish va yagona xudoni hurmatla yo'llarini ko'rsatish va ularda to'g'ri e'tiqod hosil qilish uchun u atrof lardan ulamolarni va (dunyoning) barcha ufqlari-yu burchaklarida mashoyixlarni (o'z huzuriga) da'vat etdi. Bu yo'lda u g'oyat darajada muruvvat ko'rsatib, ulardan kelganlari ustiga hadyalar dengizlarini yog'dirdi. U ilm-u fanni va ulamolarni hurmatga sazovor qilib, tangri taolo qonun-qoidalari-yu payg'ambarlar tartibotlarini ulug'ladi. Shu vaqtda Barakaxon huzurida, undan keyin O'zbek[432] va Jonibekxon huzurida mavlono Qutbuddin alloma ar-Roziy[434], shuningdek, Shayx Sa'duddin Taftazoniy[435] va «Hojibiya»ning[436] sharhlovchisi sayyid Ja loluddin va ulardan boshqa hanafiylar va shofi'ylarning fozil kishilari bor edi. So'ngra, ulardan keyin mavlono Hofizuddin al-Bazzoziy va mavlono Ahmad al-Xo'jandiy[437] – Xudoyi taolo ularni rahmat qilsin – (bor edilar). Ushbu sayyidlarning vositasi bilan Saroy ilm-u fanning markazi, baxt-u saodatning manbayi bo'lib qoldi va qisqa muddat ichida u yerda olimlar, fozillar, adiblar, zariflar, yetuk kishilar va faz lat sohiblari, ajoyib va go'zal hislatli kishilardan shunchalik (ko'p) darajada yig'ildiki, u yerdan boshqa hech bir joyda, hatto Misrning (Qohiraning) jom'e masjidi va uning qishloqlarida ham shunchalik yig'ilmagandi. Saroy bunyod etilishi va u yerda mavjud (bo'lgan) binolar xarobasi o'rtasida oltmish uch yil (vaqt) o'tdi. U (Saroy) o'z surati va xalqining ko'pligi jihatidan eng azim shaharlardan biri edi. Xikoya qiladilarki, Saroy a'yonlaridan birining quli qochib ketib, (katta) yo'ldan chetroq bir joyda istiqomat qilgan va o'ziga bir do'kon ochib unda mayda-chuyda narsalar bilan savdo qilib, (o'z) tirikchiligini o'tkazgan. Bu tutqun shu zailda o'n yilcha davom etsa ham, xo'jayini u bilan bir marta ham duch kelib, uni uchratmagan va ko'rmagan. Bu, Saroyning azimligidan va aholisining ko'pligi (sababi)dan edi. Saroy, uning haqida sayyohlar, tarixchilar va darveshlar bir ovozdan oquvchi daryolar va chuchuk suvlar oqib qo'shiladigan daryolar ichida undan kattasi yo'q deb gapiradigan Itil[438] (daryosi)dan irmoqlangan bir daryo qirg'og'ida joylashgan. Bu daryo rus yerlaridan oqib kelib, undan hech qanday foyda bo'lmay, u faqat odamlarning jonini olib ketadi[439]. U Qulzum (Kaspiy) dengiziga quyiladi. Shuningdek,





...[440] va ajamlarning boshqa daryolari ham shu misolidir. Lekin ... dengizi tor (o'ralgan) bo'lishiga qaramasdan Kiylon, Mo... Astrobod va Shirvon kabi ba'zi ajam yerlari uning atrofini ... turishadi. Saroy daryosining nomi Sankila bo'lib, undan (ham) ... kemalar yordamida o'tish mumkin; piyoda va otliq unga qadam ... qo'ymaydi. Bu uzun va keng dengizdan[441] qanchadan qancha ir... ajralib chiqadiki, ulardan har biri Frot va Nildan kattadir. (Qa...) Jonibekxon Dasht hokimligini egallaganda...[442]

## Ushbu to'fonning kelishi va uning To'xtamishxonni yenggandan keyin dasht xalqlarini oqizib ketishining bayoni

Temur bu yerga (Dashtga) uchuvchi (kamon) o'qlari, o'tkir tig'li qilichlar, havoda o'ynatilgan nayzalar, yirtqich sherlar va g'oratgar ... qoplonlar, dushmanni quvib yetib, o'zi va qo'shnisi haqi... himoya qila oladigan, o'zi va mamlakati sharafini, o'lja va nasa... qo'riqlaydigan, urush dengizi girdobiga o'zini tashlab, uning ... va oqimlarini daf qiladigan son-sanoqsiz qo'shin – yo'g'-e, ... toshib pishqirgan dengizlar – bilan keldi. Shunda To'xtamish ... hashami zaimlariga va ummati ulug'lariga, sahrolaridagi[443] ...chilari-yu chet-atrofda istiqomat qiluvchilariga, o'z jabhalari ...liqlariga, o'ng va so'l (qanotlar)dagi ustunlariga[444] xabar yuborib, ... o'z yoniga chorladi va (Temurga qarshi) jang-u jadalga da'vat ... Natijada ular (To'xtamishga) itoat kiyimiga o'rangan holda «har ...dan chuvalashib chiqib keldilar»[445]. Natijada (turli) qabilalar va ...lar to'plandilarki, ular ichida otlig'i va piyoda, qilichli-yu kamon... dushmanni uchratib yaqinlashuvchi o'tkir qilichlar va egiluvchan nayzalar bilan jang qilib o'ldiruvchilar bor edi. Bu odamlar usta mergan...lar bo'lib, otishda juda ham mohir edilarki, ularning otgan bir o'qi ham bekor ketmasdi: otishda ular Sual[446] odamlaridan ham mergan edilar; agar ular kamon ipini tortib, maqsadni nishonga olsalar, olgan nishonlari yotganmi yoki uchib ketayotganmi, bundan qat'i nazar, nishonga tegizardilar.

Shunday qilib To'xtamish qumdek hisobsiz va tog'lardek ulkan askar bilan to'qnashuvga qo'zg'olib, jang-u jadalga hozirlik ko'rdi.

## Jang paytida To'xtamish askari o'rtasida voqe' bo'lgan ixtilof bayoni

Ikkala qo'shin bir-biriga ro'para kelib jang boshlangach, To'xtamish askari o'ng qanot boshliqlaridan biri – uning (To'xtamish) amirlaridan birida xun qasdi bor edi – oldinga chiqib (To'xtamishdan) o'sha amirni talab qildi va uni o'ldirish uchun (undan) ijozat so'radi. To'xtamish unga: «Mayli, sening qalbing orom topsin va ilti-timosing amalga oshsin. Lekin sen odamlar boshiga nima kelganini ko'rayapsan-ku? «Biroq sen bizga muhlat berki, (dushman) qo'shinlari uzoqlashib biz maqsadimizga erishganda, men senga dilozoringni (tutib) berib, g'animingni topshiraman. O'shanda sen undan qasdingni olib, niyatingga yetgaysan», – dedi. Ammo o'ng qanot boshlig'i javob berib: – «Yo'q, (faqat) hozir, bo'lmasa men so'zingni ham tinglamayman, senga itoat ham qilmayman», – dedi.

To'xtamnsh dedi: «Bizning boshimizda katta kulfat borki, u sening istagan narsangdan ko'ra ham muhimroq va (bizning) oldimizda dahshatli g'am-g'ussa turibdiki, u sening musibatingga qaraganda ham g'amginroqdir. Sen sabr qil va shoshma, xotirjam bo'lib xavotirlanma, birovning haqi birovga ketmaydi va har kimning sazovor bo'lgani (beasar) yo'qolmaydi. Sen ko'r kishiga jarlikdan najot izlatma va tig' ustida turgandek (shunchaki) Allohga ibodat qilgan kishilardan bo'lma[447]. Go'yoki (sendan) shiddat kechasi o'tdi-yu, omad (kelish) ertasi porladi. O'z joyingni mustahkam ushla va dushmanlaring bilan jang qil; olg'a (tomon) yur-u orqaga tisarilma va «(senga) amr qilingandek (dushmanni) burda-burda qilaver»[448].

Shunda ushbu amir katta bir guruh bilan ajralib ketdi, uning orqasidan barcha xiyonatkorlar va murtadlar, shuningdek uning aqtov[449] deb ataladigan qabilasining hammasi ergashdi. U Rum yerlariga tomon borishni xohlab, o'z mulozimlari bilan Adrna (Adrianopol) atroflarigacha yetib bordi va o'sha joylarni vatan tutdilar[450]. Shu sababdan To'xtamish askarlari sarosimaga tushdi va uning xohishi o'qlari ko'zlagan nishoniga tegmay yonidan o'ta boshladi. U dushman bilan uchrashish va muloqot muqarrarligidan boshqa yo'lni ko'rmadi, o'z ruhini-yu qo'shinini mustahkam qilib, sustkashligu yengiltaklikni





...dan qochirdi. U fuqarosining botirlarini oldinga qo'yib, otlig'u piyodalarni tartibladi, (qo'shinlari) markazi va qanotlarini mustahkamlab, qilich va o'qlarini tuzatdi[451].

### Bo'lim

Ammo Temur askarining bu ishlardan ko'ngli to'q, chunki uning holati ma'lum, vasfi (hammaga) ayon, uning bayroqlari manglayiga g'alaba va hokimlik satrlari bitilgan (edi).

Keyin ikki qo'shin bir-biriga yaqinlashib, to'qnashdilar[452] va urush olovi tutashib lovillab ketdi. Dushman-dushmanga qarab su-zildi, bo'yinlar qilichlar zarbasiga cho'zildi, ko'kraklar esa nayzalar sanchuviga yalang'ochlandi, yuzlar g'uborlanib xiralashdi; (bamisoli) bo'rilar tishlarini irjaytirib vovilladilar va jangga tashlandilar, yovuz-lik qoplonlari g'azabga kirdilar va yerga yotib pisib oldilar; askar sherlari junlarini hurpaytirib bir-biriga yopishdilar, tanalar o'qlar patiga o'randilarki (bundan) sochlari dikkayib ketdi. Peshvolarning peshanalari-yu, boshliqlarning boshlari urush mehrobida yerga sajda (qilish) uchun engashib mukka tushdi, g'ubor ko'tarilib changu to'zon ko'kka sovurildi va har bir xos-u avom qon dengizlariga cho'mdi. G'uborning qorong'i zimistonida o'qlar yulduzlari ustunlar shaytonlari uchun zarba beruvchi toshlar[453], qilichlarning yarqirashi, sultonlar va podshohlar uchun g'ubor bulutlari ichida chaqnayotgan yashin (misoli) bo'lib qoldi. O'limning kelishgan cho'ziq otlari tinmasdan yelib-yugurib gijinglar, ajal sherlari to'xtamasdan sakrab, dushman ustiga tashlanar va savlat to'kardi. Tuyoqlardan chiqqan chang ko'kka ko'tarilar, to'kilgan qon sahro bo'ylab oqib, nihoyat yer oltita, osmon esa dengizlar kabi sakkizta bo'lib qoldi. «Bu xusmat-u ladad uch kunga yaqin davom etdi»[454]. Keyin g'ubor yoyilib, To'xtamish askari yengilib, «orqasini o'girib qochgani»[455] ayon bo'ldi. Uning askarlari dahshatga tushib qochdi. Temur qo'shinlari Dasht yerlarida tarqalib o'rnashib oldi. Temur Dashtning (barcha) qabilalariga egalik qilib, ularni boshdan oxirigacha zabt etdi. U har bir notiq (jonli)ni qo'lga olib, har bir sokitga egalik qildi; o'ljalarni jamlab, qo'lga tushirganlarni taqsim qildi; talash va asir olishga ruxsat berib, qahru

jabrni joriy qildi, ular (chiroq) piliklarini[456] o'chirib, lug'atlarini y
qildi va avzo'larini o'zgartirdi; o'z qudrati yetguncha mol-dunyo,
va matolar olib ketdi. Temur (askari)ning old qismlari Azoqqa
yetdi. U Saroy, Saroyjuq[458], Hojitarxon va o'sha ufqlarni vayron
di. Temur nazarida Idikuning martabasi ulug' bo'ldi. Shundan ke
Temur (o'z) Samarqandini ko'zlab, orqaga qaytdi. Temur Idiku
o'zi bilan birga yurishini istagach, u ham (Temurga) hamroh bo'l
unga ergashdi.

**Idiku va u qilgan ish hamda qay tariqa u Temurga chap beri uni aldagani bayoni**

Keyin Idiku o'zining urug'-aymoqlari va yaqinlariga, so'l tom
qabilalariga – ularning hammasi uning tarafdorlari va do'stlari e
– Temurdan maxfiy ravishda chopar yuborib ularni o'z joylarid
ko'chishga va vatanlaridan etaklarini shimarib chiqishga, o'zi ular
ayon-u bayon qilgan hamda ularga o'tish mashaqqatli bo'lib, nihoya
da xavfli (bo'lgan) joylarga tomon siljishlarini, agar imkoniyat bo'l
bir manzilda ikki kun (ham) turmasliklarini – zinhor shunday qilish
rini, yo'qsa Temur ular ustidan zafarga erishsa u ularni bo'lak-bo'l
qilib to'zitib, hammalarini qirib tashlashini xabar berdi.

Jamoasi Idiku ko'rsatgan (yo'l-yo'riq)ga amal qildi va hech b
paysalga solmasdan yo'lga tushdi. Idiku o'z jamoasining (Temu
dan) qutulib ketib, ularni olishga Temur endi ojiz (ekanligini bilgach
Temurga: «E Mavlono amir! Mening ko'pdap-ko'p aqoriblaru m
lozimlarim bo'lib, ular mening madadkor, tayanch (qanot)imdir; ula
hayotining huzur-halovati mening ham huzur-halovatimdir. Men ke
gach ular ustiga To'xtamish tomonidan jabr-jafo va kulfat tushmas
giga ishonch yo'q. Balki (men hech) shubha qilmaymanki, To'xtamish
ularning hammasini o'ldirib, qirib tashlaydi. Hanuz men janoblar
ning panohida unga (To'xtamishga) qarshi himoyada ekanman, o'zi
ning yaramas tabiatiga ko'ra u mening odamlarim-u urug'larimdan
qasos oladi, chunki (bu) qonli qirg'in matosini men to'qib, uni bu
balo darasiga yiqitib, mag'lubiyat darbandiga ag'dardim. Har holda,
ularning To'xtamish bilan yonma-yon yashashidan qalbim oromda





... Darhaqiqat, do'stlarim dushmanim bilan qo'shni (bo'lib) tur-
..., qanday qilib hayot menga lazzatli bo'ladi? Agar nur taratuvchi
...(ing) taqozo qilsa, o'sha joylarga va u ko'p sonli qabilalarga
...vatli farmon, oliy himmatli amr bilan chopar yuborilsa-da, bu
... ularning xotirlarini (o'zingga) mayl qilish va ular qabilalari-yu
...lari qalblarini tinchitish bilan birga ularni (u joylardan) jo'nash-
... ishora qilinib, beminnat yashashlari ko'rsatilsa; unda biz ham-
... sening saxovating ko'lankasi ostida soya-salqin-u, aysh-u
... bo'stonida yashaymiz; bu zing'illagan tep-tekis dashtdan xalos
...lamiz. Huzur-halovatsiz o'tgan umrimizdan o'z hissamizni chiqa-
... boqiy umrimizni «ostidan anhorlar oqib turadigan jannat bo'ston-
...lari»[459] o'tkazamiz. Sening himmatli ra'ying hamma narsadan oliy-
..., unga amal qilish qullaring uchun eng a'lo ishdir», – dedi.

Shunda Temur Idikuga dedi: «Sen xalqingning eng mustahkam
(daraxti) tanasisanki, xalqing unga (tuyalar kabi) suykanadi. Mado-
miki sen mavjud ekansan, unda kim ham bu yo'ldan boradi?» Idiku
e'tiroz bildirib: «Barcha (kishilar) sening quling bo'lib, ular sening
maqsadingga ergashuvchi muridlaringdirlar: istagan ishga loyiq deb
hisoblagan odaming uchun har qanday ish osondir», – dedi. Temur:
«Yo'q, bu ishga eng munosib kishi sensan va (sen) u ishni o'z usting-
ga ol, chunki shaharda hukmi bor kishi o'zga bilan hisoblashmaydi».
Idiku Temurga: «Amirlardan birovini menga qo'sh, chunki u men
uchun ularga nisbatan himoya bo'ladi va unga o'zingning oliy fikring
taqozo qilgan saxovatli farmonlaringni bergin», – dedi.

Temur bunga rozi bo'lib, o'zi xohlagan amirini unga qo'shib, uning
murodini bajo keltirdi. Natijada Idiku va uning hamrohi o'z zaruratla-
rini tugallab, ko'zlagan matlablari tomon yuzlandilar.

Idiku Temurdan uzoqlashgach, u (Temur) avval o'zi qo'ldan
chiqazgan (ish)ni tushundi va Idikuni o'zining aqlini o'g'irlab,
chalg'itganini fahmladi. Temur (keyin) xotiriga kelgan bir ish va o'zi-
da tug'ilgan bir fikrni vaj ko'rsatib, Idikuning qaytishini talab qilib,
(orqasidan) chopar yubordi. Chopar Idikuga yetib, o'zining nima va-
jdan yuborilganligini (unga) yetkazgach, Idiku choparga va o'zi bi-
lan birga bo'lgan amirga – ikkoviga ham o'ziga ergashishni man etib:

«Istagan ishlaringni qilinglar va o'z sohibingiz oldiga qaytinglar. Uning qo'lini o'pib aytinglarki, bizning ulfatlik muhlatimiz nihoyasiga yetdi. Men uning bahridan o'tdim, men Xudodan qo'rqaman»[460], – dedi.

Temur chopari va amir, Idiku bilan qo'pol munosabatda bo'la olmas va ular uchun bu shiddatli damda unga nnsbatan muloyim muomala qilishdan boshqa iloj yo'q edi. Shu sababli ular fursatni o'tkazmasdan Idiku bilan xayrlashib (orqalariga) qaytdilar.

Bu xabar Temurga yetgach, u iztirob chekib, g'azablandi; alamda bo'lib, afsuslandi. U g'azabidan tishlarini g'ijirlatib nadomat qildi, lekin nadomatning vaqti emas edi[461]. U oz bo'lmasa (Idikuga) g'azabidan o'zini o'ldirayozib, (ushbu so'zlar) qadahlarini yutdi: «U kuni keladiki, unda zolim o'z qo'llarini tishlaydi»[462].

Temurda Idiku bilan yana ko'rishish zavqi bo'lmadi va shu sababdan zarracha ham (uni deb) harakat qilmay o'z yerlari tomon yuzlandi. Keyin Idikuni (oromida) qoldirib Samarqandiga qarab jo'nadi. Mana shu, Temurning Dashti Barakadagi ishlarining oxirgisi bo'ldi. Aytishlaricha, (hozirgina) zikr qilingan Idikudan boshqa hech bir qimsa Temurga chap berib, uni na so'zda-yu, na amalda aldamagan. Men (qo'shimcha) aytamanki, shuningdek yana bosh qozi Valiuddin Abdurahmon Ibn Xaldun Molikiydan boshqa (hech kim uni aldamagan); uning ishi va hikoyati keyinroq keladi.

## To'xtamish va Idiquning ishi va ahvoli o'zgarmagunicha ularning (ikkovi) o'rtasida shimol tomonlarda bo'lib o'tgan jang-u jadal tamomining (bayoni)

Temur o'zi qo'lga kiritganlari bilan mamlakatiga yetib kelib, unda qaror topgach va Idiku o'z hoshiyalari bilan birlashib, (o'z) do'stlari-yu tarafdorlarini (ko'rganligidan) shod-xurram bo'lgach, To'xtamishning ishlari qay ahvoldaligini surishtirib, undan o'zini muhofaza qilib sergaklanib turdi. U o'rnidan qo'zg'alib, unga qarshilik ko'rsatishga hozirlik ko'rdi, chunki To'xtamish yirtgan (narsa)ni tikishga uning iloji yetmadi, u bo'lak-bo'lak qilgan (narsa)ni yamay olmadi. Shuningdek, mustaqil saltanatga da'vo qilish ham unga mumkin bo'lmadi, chunki agar bu (narsa) mumkin bo'lganda





...unda (bu) yerlarga egalik qilgan Temur (qat'iy) da'vogar bo'lib chiqqan bo'lardi. Shu sababdan Idiku o'zi tomonidan sulton qo'yib, ... ul-mulkga esa (maxsus) xonni ko'tardi. U chap qanot boshliqlari va ular qabilalari a'yonlarini o'z yoniga chaqirganda, ular uning chaqirig'iga «labbay» deb javob qilib, huzuriga keldilar, chunki ular ... (qabila)larga nisbatan quvvatliroq bo'lib, chig'atoylar... zararu zahmatidan bexavotir edilar. Bu bilan Idikuning sultoni ...hayib, qo'shinlari qaytib kelganidan uning xonini adadi ko'paydi. Dor ul-mulkda uning asosi barqaror o'rnashib, rukunlari baland bo'ldi.

Ammo To'xtamish bo'lsa vahimasi ketib, uning aqli miyasida qaror topgach hamda dushmani (Temur) jo'nab ketib, xotirjamlik hosil bo'lgach, o'z askarlarini jamladi va o'z qavmi-yu[463] ko'makchilarini yordamga chorladi. To'xtamish va Idiku o'rtasida har xil jang ...lari-yu zarba xillari to'xtamasdan davom etib, tinchlik (sukunat) ko'zlari o'zini ko'r qilib ko'rsatadigan bu zamon ko'zlari misoli sulh ...hun sira ochilmadi. Nihoyat ular o'rtasidagi jang o'n besh martaga yetdi, – ba'zan unisi bunisi ustidan ustun, ba'zan bunisi unisi ustidan ustun keldi. Natijada Dasht qabilalarpning ishi tushkunlig-u tarqoqlikka yuz tutdi. Xususan, qo'rg'onlar-u istehkomlarning ozligi (sababi) dan ular (har tomonga) to'zib ketib, inqirozga uchradi; bunga qo'shimcha ularni ikki sher tilka-pora qilib, ikki kulfat ular boshiga «soya» solib turar edi[464]. Ularning ko'p qismi Temur bilan ketgan bo'lib, uning amriga tushib, asirlik iskanjasida (qolgan) edilar. Ulardan sanab va hisoblab bo'lmaydigan darajada yana bir toifa ajralib ketdiki, ularni na devonga-yu na daftarga qayd qilish imkoni bor. Ular ...ning ma'lumligi va sa'yi harakatining teskariligidan Rum va ...us (erlari)ga qarab og'ib ketib, xristian-butparastlar va musulmonlar o'rtasida asirda bo'lib qoldilarki, Jabala[465] Bani G'asson[436] bilan nima (ish) qilgan bo'lsa, ular ham (ularga nisbatan) shu zaylda ish qildilar. Bu toifaning ismi Qora Bug'dondir[467].

Mana shu sabablarga ko'ra Dashtning ma'mur joylari xaroba-yu tashlandiq (joylar)ga kelib, tarqoqlik va halokatga[468] yo'liqdi, aholisi har tomonga to'zib ketib, betinchlik davron surdi. (Bu mamlakat)

shunday bo'lib qoldiki, agar biror kishn shu (erlar) orqali yo'l bosh-lovchisiz yoki soqchilarsiz o'tsa, yo'lidan adashib albatta halok bo'la-edi: yozda shamol qum-to'zon ko'tarib, yo'lovchilar oldida yo'li ko'mib-tekislab tashlar, qishda esa qor yog'ib, uyumlar paydo bo'lib yo'llarni bosib qolar edi. Dashtning butun yerlari sahro, uning man-zillari belgilanmagan, manzillari-yu quduqlari tashlandiq holdadir. Qanday bo'lmasin undan (Dashtdan) o'tish g'oyat mushkul va halo-katli (ish)dir.

O'n beshinchi to'qnashuvda Idikuning omadi kelmadi, uning askarlari har tomonga qochib tarqadi va bo'lak-bo'lak bo'lib to'zib turli tarafga sochilib ketdi. Idikuning o'zi va uning tarafdorlaridan besh yuz chamasi kishi qum dengizida g'arq bo'lib ketdilarki, ular (holi)ni hech bir kimsa shuur etmadi. To'xtamish mamlakatda mus-taqil bo'lib, Dashti Baraka xolis uniki bo'lib qoldi. Shu bilan birga u Idikuning ishi va uning hol-ahvoli haqidagi xabarlarga ishqivozlik bilan quloq tutib, uning qumlar orasida qay tarzda halok bo'lganli-gini bilishga intilar edi. Shu ahvolda yarim yilga yaqin muddat o'tib, ko'zlardan Idikuning izi o'chib, uning haqidagi xabar tillardan qol-di. Idiku bo'lsa o'sha qum tepaliklarini va qumloqlarini yaxshi bilib, o'sha oyoq kiyimlari va choriqlar jildining o'z sayri qadami bilan ne-cha bor kesib o'tgan (kishilar) jumlasidan edi. U payt poylab qulay fursat kutdi, o'z fikrini ishga solib, men aytgan ushbu bayt ustida bosh qotira boshladi, xususan u:

Ishni kuzat-u (qulay) fursat kut,
(bu) fursatdan foydalan, magar u bo'lsa;
bu borada sabrni aql-idrok bilan bog'la,
o'shanda tut bargi kimxobga aylanur.

Idiku, To'xtamishning undan umidini uzib, halokat sheri par-cha-parcha qilib tashlagan degan fikrga kelganiga ishonch hosil qil-gach, uning ahvoli (xabari)ni surishtirib, diqqat bilan kuzata bosh-ladi hamda uning izini olishga intilib, nihoyat To'xtamishning (o'z) askaridan alohida bir oromgohda ekanini aniqladi.

Natijada, Idiku ot qanotiga o'tirib, kecha qorong'isi (og'ushi)ga o'raldi hamda kunduzgi yurishni tungi sayr bilan bog'lab, bedorlik





...mudrash bilan almashtirdi. U go'yo suv yuzida paydo bo'lgan ...chalar misoli tepaliklarga chiqib, shudring tushgandek tepa-...dak pastga tushdi va nihoyat, To'xtamishning mutlaqo xayoli-... kelmaganda unga[469] yetib kelib, qazoi qadar kabi unga tashlandi. ...xtamish o'ziga kelmasdanoq, uni har tomondan balo-yu musibat-... o'rab olib, halokat sherlari tilka-tilka qilib, nayza ajdaholari-yu ...mon (o'qi) ilonlari chaqa boshladi. To'xtamish ularga ozchilik bi-... qarshilik ko'rsatsada, dushman bilan uzoq (muddat) jang qilib, ... jonsiz quladi[470]. Ularning bu to'qnashuvi hisobi bo'yicha o'n ...inchisi bo'lib, (u) ular uchrashuvining xotimasi-yu (ular) firoqining ... qiluvchi (hokimi) bo'ldi. Natijada, Dasht ishlari mutavalli Idiku ...lda qaror topib, uzog'u yaqin, katta-yu kichiklar uning farmonla-... tinglay boshladilar. To'xtamishning o'g'illari chor atrofga to'zib ... Jaloluddin va Karimberdi ruslar ichiga, Kepek[471] va boshqa ...darlari Sig'noqqa qarab ketdilar. Raiya ishlari Idiku farmonlari-... binoan davom qilib, u xohlagan (kishisi)ni saltanatga tayinladi va ... paytida bu (mansab)dan chetlashtirdi, u amr qilganda hech ... unga monelik ko'rsatmas va u belgilagan (chegara)dan hech kim ... chiqmasdi. Idiku hokim qilib tayinlagan (kishi)lardan Qut-...g[472] Temurxon, so'ngra uning birodari Shodibekxon[473], keyinroq ...tlug' Temurning o'g'li Fulodxon, keyin uning birodari Temurxon ... edi. Temurxon (hukmi) davrida[474] ishlar parokandalikka yuz tut-... u o'z jilovini Idikuga topshirmadi[475] va dedi: – Unga (Idikuga) na ...ati, na hurmat bor: men (shunday) qo'chqormanki, unga boshqa-... itoat qiladi, nega endi men boshqaga itoat qilarkanman? Men, – ...shqalarni orqasidan ergashtiradigan xo'kizman, qanday qilib men ...ingdir orqasidan ergashaman?». Natijada ular (ikkovlari) o'rta-...da nizo chiqib, ichiqoralarning (yashirin) adovati ochiq-oydin ni-...qa aylandi; fasod va kulfatli ishlar bo'lib o'tdi, urushlar va qahru g'azab davron surdi. Qachonki fitna zulmatlari keskinlashib, Dasht ...istonlarida (bu) ikki guruh ustida adovat yulduzlari ustma-ust ...lkashib ketganda, birdan Jalol[476] davlati (hukmi)ning hilolsimon ...'lin oyi ko'rinib, To'xtamish sulolasi sharqida porladi va Rus yerlari ...monidan chiqib keldi. Bu voqea 814 (1411) yil (oylari) da bo'lgan

edi[477]. Natijada, ishlar (kengayib), adovat jiddiy tus oldi. Idikuning ahvoli zaiflashdi va Temur (xon) o'ldirildi[478]. Toki Idiku majruh holda g'arq bo'lib o'lgunicha[479]. Qipchoq yerlari podsholari o'rtasida nizo va nifoq davom etdi. (Idiku g'arq bo'lib o'lgach) uni Saroychuq yo qinida Sayhun daryosidan 480 chiqarib oldilar va tashlandiq (narsa) kabi (o'z holiga) tashladilar – Tangri taolo unga rahm qilsin!

Idiku haqida ajoyib hikoyatlar, nodir va g'aroyib xabarlar bordir. U yog'dirgan falokat o'qlari dushmanlariga bexatar tegar; (uning) afkori – makr-hiylalar, janglari-qopqonlardan iborat edi. Siyosat fi xining usullari haqida uning (qimmatli) fikrlari bor bo'lib, ular ustida bahs (yuritish) maqsuddan xorij turar.

Idiku qorachadan kelgan, bug'doyrang kishi edi; qomati o'rtacha bo'lib, tanasi yo'g'on edi; u shijoatli, o'z ta'siri xatariga inontira olardi. U ulug'vor odam bo'lib, saxiy va tabassumi yoqimli edi. Idiku o'z fikrmulohazasining g'oyatda to'g'riligi bilan ajralib turardi; u olimu fozillarga mehr qo'ygan, taqvodor va fuqarolarni o'ziga yaqin tutib, eng latif iboratlar-u nozik ishoratlarni qo'llab ular bilan hazil-mutoiba qilar edi. U hafsala bilan ro'za tutar va shariat (qoidalari) etaklariga yopishgan holda tunlarini toat ibodat bilan o'tkazar edi. Idiku kitobi ni (Qur'onni), payg'ambar sunnati va ulamolar so'zlarini o'zi bilan tangri-taolo o'rtasida (bog'lovchi) vosita qilgan edi.

Idikuning yigirmaga yaqin o'g'illari bor edi; ularning har qaysi nisi itoat qilinadigan malik bo'lib, har birining alohida viloyatlari qo'shinlari-yu tobe'lari bor edi. Idiku Dasht jamoalari ustida yigirma yil chamasi hokimlik qildi. U hukmronlik qilgan kunlar o'sha davr peshanasidagi (oq) qashqa, u idora qilgan (zamon) kechalari asr chekkasidagi gajakdor zulf edi.

## Temur ishlari-yu uning falokatlari haqidagi hikoyamizga qaytdik

Temur Ozarbayjonga yetib, askari Sultoniya va Hamadon yerlariga yoyilib ketgach – (bu payt) u Mordin sultoni Malik Zohirni (o'z) huzuriga chaqirtirib, uni ozodlikka chiqargan, avval zikr qilib o'tilganidek[481], unga in'om-ehson berib, to'la to'kis ishonch ko'rsatgan





...va Iroq o'rtasidagi yerga uni hokim qilib tayinlagan hamda ...mamlakatlarni imkonida bor makr-u nifoq bilan mustahkamlagan ... Temurning Ajam mulkida istiqomat qilishi mumkin bo'lmadi, ...ki u bilan birga Dashtdan ancha-muncha odamlar bor edi; u o'z ...ti jilovini Samarqand yerlariga tomon burdi[482]. U unda o'z mesh...ini to'kib, Dasht (xayrlari)dan to'ldirib olgan xaltalarini bo'shatdi. ...yin u hech bir fursatni qo'ldan bermasdan o'z to'foni bilan Jayxun... kesib o'tdi va Xurosonga yetib kelib, Ozarbayjonga tomon sayrini ...vom ettirdi. Shunda o'z itoati va iz'oni bo'yniga Temur farmonlari ...dasini osib Arzinjon[483] hokimi Tahurtan[484] unga tomon yuzlandi[485]. ...mur Mordin[486] ishiga e'tibor bermay, o'zini go'yo uni unutgan hi...lab, unga (Mordinga) mansub shahar va qishloqlarga hech ozor ...kizmadi.

## ...hom yerlariga mansub joylarda Temur chang-to'zonlarining ko'tarila boshlashi

Keyin Temur Ruha (shahri)ni ko'zlab, uni talon-taroj qilmoqchi bo'ldi. Shunda shahar a'yonlaridan va ahli boshliqlaridan al-Hoj Usmon ibn Shakshak[487] ismli bir shaxs Temurga peshvoz chiqdi va ko'pdan ko'p mol-dunyo evaziga undan shahar (omonligi) ni so...b olib, u bilan sulh tuzdi va ushbu mol-dunyoni keltirib, uni bajo keltirdi. Shu orada Temur Qaysariya[488], Tuqot[489] va Sivos[490] hokimi bo'lgan qozi Burhonuddin Abul-Abbos Ahmadga bir to'da elchi va bir bog'lam xat yuborib, momaqaldiroq bo'lib gumburlab, yashin bo'lib chaqnadi. Xatlar dengizida ko'pik sochib qahrlanib mavj urdi, o'z ...ralari bilan uni goh turg'azib, goh o'tqazdi. Uning xitobi ma'nosi va xatlari mazmunida xutbada Mahmudxon yoki Suyurg'otmish va uning ismi zikr qilinsin va uning odatiga ko'ra pulni ham mana shu tartib va rasmga ko'ra zarb qilinsin, – deyilgan edi. Bu (ish) adosini Temurning elchisi va maktubi o'z ustiga olardi. Lekin sulton na uning elchisi-yu na xatiga ishondi va uning xitobiga javob berishni o'ziga ...p ko'rmadi; aksincha, Temur choparlari boshliqlarining boshlarini kesib, (boshlarni) omon qolganlarining bo'yniga osib, ularni o'z yerlarida (aylantirib yurdirib) sazoyi qildi. Keyin u elchilarni ikkiga

bo'lib, teng ikkiga taqsim qildi va ularni ikki tomonga jo'natdi. Ular dan bir qismini sulton Malik az-Zohir Abu Said Barquqqa, boshqa bir qismini esa Rum yerlarining hokimi sulton Abu Yazid ibn Murod ibn Urxon ibn Usmonga jo'natdi. U (ushbu) masalani ularga ochiq-oydin bayon etib: qanday qilib manfur Temurdan o'ziga xat(lar) kelgani-ni, (qanday qilib) o'zining unga sukut bilan javob berganini, (qanday qilib) Temurga zarda sifatida uning elchilarini qatl etganini bildirdi va bu hikoyatga (ortiqcha) qo'shimcha qilmadi. Sulton, tangri ban-dalari va mamlakatlariga nisbatan u (Temur) qilgan ishni behad ko-sobladi va uni (Temurni) arzimas bilib, uning elchi va choparlarini shu ko'yga soldi. Shundan keyin Qozi dedi: «Bilib qo'yinglarki, men sizlar (ikkingiz)ning qo'shningiz, diyorim sizning diyoringizdir; men sizlar g'uboringizdan bir zarra, dengizingizdan bir qatraman. Sizlar davlatingiz hurmati shiorlarini ko'tarish va (sizlar) savlatingiz hay-bati bayroqlarini baland yoyish uchun, faqatgina sizning qo'llab-quv-vatlashingizga suyanib va yordamingizga tayanib o'z holimning tang-ligi, mol-dunyo va odamimning kamligi, doira-yu yerlarimni torligi, meros olganu o'zim kasb etgan davlatim ozligiga qaramasdan shu (ishlar)ni qildim. Men og'zingizning qalqoni, tomog'ingiz posboni, askaringiz jarchisi, bayrog'ingiz bayroqdori, lashkaringiz soqchisi va janglaringiz old qismidirman. Aks holda, Temurga qarshilik ko'rsatish menga yo'l bo'lsin? Qay tariqa men u bilan to'qnashishga boraman? Uning ishlarini siz eshitgansiz va uning ko'rinishi hamda fe'llarini siz bilasiz: qanchadan qancha qo'shinlarni u yakson qilib, xonlarni asir oldi, (qanchadan qancha) mulklarni egalladi, (qanchadan qancha) ma-liklarni halok qildi, xotinlar pardalarini yirtdi, qanchadan qancha qon to'kdi, qo'rg'onlarni fath qilib g'alabalarni qo'lga kiritdi, (qancha-dan qancha) mol-dunyoni talab, (qanchalarni) izzat-hurmatdan judo qildi, (qanchadan qancha) isyonkorlarni ho'rladi, (qanchadan qan-cha) mushkulotlarni yuzaga chiqardi, oqillarni chalg'itib, idroklilar-ni adashtirdi, otliq (askar)larni tor-mor qildi, boshpanohlarni vayron qildi, tilaklarni kesib, niyatlarni puchga chiqardi, tog'larni qo'pordi, (qanchadan qancha) bolalarni fojiaga mubtalo qildi, (qanchadan qan-cha) boshlarni kesib bellarni bukdi, shartnomalarni buzdi, (qanchadan





qancha) o't qo'yib, chang-u to'zon ko'tardi va (qanchadan qancha) ...larni burib tashlab g'uborlar ko'tardi, (qanchadan kancha) qalblar-ni yondirib, jigarlarni kuydirdi, qo'shnilarni yakson qildi, (qanchadan qancha) ko'zlarni ko'r qilib, quloqlarni kar qildi. Qanday qilib men ...shqirgan sel bilan kurashib, darg'azab sher bilan olishay? Agar siz menga madad bersangiz men mavjudman, agar (shu ahvolda) qoldir-sangiz (unda) meni qurbon berasizlar. Sizda Haybatu shuhrat kifoya bo'lib, savlat-u nusrat yetarlidir; Sizning xizmatkoringiz (ya'ni men) ikkingizga kelgan baloga daf bo'lgan qalqoningizdir. Agar mening boshimga musibat kelsa – Xudo ko'rsatmasin! – yoki mening yer-larimga Temurning yomonlik cho'g'laridan uchqunlar uchib tushsa, ehtimolki bu ish, (zamon) hodisalari vositasida, (u yerga) aloqador kishiga hamda ikkinchi va uchinchilarga ham o'tar.

Men dedim:

Ofat-olov kabidir: uni (kavlab) qo'zg'asang u uchqun chiqaradi:

> Agar uni (darhol ko'chirishga) shoshilsang, u ko'chadi.
> Agar erinib uni ko'chirishdan sust harakat qilsang,
> U qabilalarni[491] yondirib, jigar-bag'rni kuydiradi.
> Endi agar butun yer yuzi ahli to'plansa ham
> ular uni (endi sira) o'chira olmaydilar.

«Men uning xitobiga e'tibor bermay, javobini muhlatga soldim: siz nimaiki buyursangiz men uni bajo keltirib, nimaiki amr qilsangiz (men) unga amal qilay; siz asosini soling, men uning ustiga quraman, siz nimanki javob qilsangiz, ushbu javob mendan unga (Temurga) keladi».

### Sulton Abu Yazid ibn Usmonning Sivos yerlari sultoni Qozi Burhonuddin Abu-l-Abbosga javobining zikri

Ammo sulton Abu Yazid ibn Usmon bo'lsa, ushbu muomila unga yoqib, bu so'zlar nag'masi uni shodlantirdi. U qozining ushbu hukmi-ni ma'qullab, to'g'ri hisobladi va unga maktub yuborib: «Agar Temur hujumdan o'zini tiyib, undan qaytsa-durust, basharti shunday qilmasa (u vaqtda) biz uning ustiga shu qadar qo'shin bilan kelamizki, ular-

ga teng keladigan unda quvvat yo‘q. Mayli qozi umidsizlanma... Temurni qarshi olib, bag‘oyat idrok bilan ish tutsin: uning askari... ko‘pligidan qo‘rqmasin chunonchi: «Necha martalar kichik to‘da... katta to‘dalardan g‘olib kelgan»[492]. Basharti qozining dono fikr... yu saodatli hukmlari (o‘zining) Temurga qarshi otlanib, din mujoh... lari-yu g‘azotchilari bilan Temur ustiga yurishni taqozo qilsa, (u... o‘z bayroqlarini ko‘tarib (o‘z) qaroru hukmlarini amalga oshirsin... sulton qilichiga qo‘l-u, u bilagiga yelka bo‘lsin», – deb xabar qildi... maktubini (qoziga) jo‘natib, javobini kuta boshladi.

Ammo Malik az-Zohirga kelsak, men uning maktubini ko‘rm... dim va qoziga javob qilganini (ham) aniq bilmadim. Aftidan, Mal... az-Zohir Abu Saidning javobi din yo‘lida g‘azogir sulton Abu Ya... javobining aynan o‘zi bo‘lgan ko‘rinadi, chunki ular (ikkalasi)ni... ishlari-yu so‘zlari, dilida va tilida bir qolipdan chiqqan edi.

Bundan tashqari, men o‘z ichiga xitobu javobni olgan bir kitob... ko‘rdim. (Unda) zikr qilinishicha, xitob Temurdan, javob esa Mal... az-Zohirdan. Bu ikkalasi xitob ham, javob ham, (muqaddas) kitob... (Qur’on) oyatlaridan o‘zgasi boshdan oyoq hunuk va yoqimsiz (ta... tibda) edi. Xitob mana bu suratda:

«Aytgin, e, bor xudoyo, osmonu yerni yaratuvchisi, g‘oyib-u z... hirni biluvchi, bandalaring o‘rtalarida ixtilofli (ishlar ustidan o‘zi... hukm chiqaruvchisan»[493]. Bilinglar, biz Alloh, qo‘shinlari bo‘li... uning qahridan yaratilganmiz va uning g‘azabi tushgan har bir ki... shi ustidan bizga hokimiyat berilgan: (biz) shikoyat (qiluv)chini ayamaymiz, yig‘lovchining ko‘z yoshiga rahm qilmaymiz – bizning qalblarimizdan tangri rahmdillikni yulib olgan; bizning amrimizga amal qilmagan har bir kishi ustiga qayg‘u alam, – cheksiz qayg‘u alam (keladi). Biz mamlakatlarni xarob qildik, bandalarni halok etdik va yer yuziga fasodni zohir qildik; bizning qalbimiz go‘yo tog‘lar, adadimiz qumlar singari, otlarimiz o‘zg‘ir, nayzalarimiz tilka-pora qiluvchi; bizning mulkimizga tajovuz qilinmaydi, qo‘shnimiz ranjitil... maydi. Agar siz shartimizni qabul etib, amrimizga muvofiq ish qilsan... giz, unda nimaiki o‘zimiz uchun bo‘lsa siz uchun ham, bizga qarshi narsa sizga ham qarshi bo‘ladi. Agar siz (shunga) muvofiq bo‘lmay





...qilsangiz va sitamni davom ettirsangiz, unda faqatgina o‘zin... o‘pkalang: bizga qo‘rg‘onlar mone bo‘la olmaydi, qo‘shinlar ...daf qilib haydab chiqara olmaydi; bizga qarshi himoya tilab ...duolaringiz mustajob bo‘lmaydi va tinglanmaydi, chunki siz ...(narsa) tanovul etib jamlanganlarni to‘zitdingiz. Tahqirlik va ...dan bashorat oling; «Endi bu kun xo‘rlik azobi bilan jazolana...»[494]. Siz bizni kofirlar deb kafil bo‘lasiz, bizga esa sizning fojirlar ...ligingiz ma’lum. Azaldan (taqdiri) belgilangan ishlar va hukmlar ...(tangri) ustingizdan hokimiyatni bizga bergan. Sizning naza...ingizda ko‘p bo‘lgan (narsa) biz uchun ozdir, sizda aziz bo‘lgan (ki...) bizda xordir; biz yerning sharq-u g‘arbini egallab ulardagi butun ...larni qahru g‘azab bilan oldik[495]. Xullas, biz sizga shu maktubni ...dik; (hali) narda ochilmasdan va sizdan asar ham qolmasdan ...hamda o‘lim jarchisi sizlarga: «Ularning birontasini sezib, hech ...inisidan biron sas eshitasanmi?»[496], – deb xabar berishdan oldin ...maktubga javob raddiga shoshiling. Biz sizga maktub yuborib ...f yuzasidan ish tutdik va ustingizga ushbu kalom javharlarini ...dik vassalom».

Mana bu, javobning surati-aytadilarki, u (javob) qozi Alouddin ibn Fazlulloh[497] inshosi bilan bitilgan, lekin men buni to‘g‘ri deb o‘ylamayman. Mana u (javob); «Rahmdil va mehribon tangri nomi bilan!

Aytgin, e bor Xudoyo, mulk egasi sen, (o‘zing) xohlaganingga mulk berib, xohlaganingdan uni tortib olasan; xohlaganingni azizlab xohlaganingni xo‘rlaysan, sening qo‘lingda xayr-saxovat (bor), chunki jamiy narsaga sen qodirsan»[498]. Biz hazrati Ilxondan va ulug‘, mashhur sulton bo‘sag‘asidan chiqqan bir maktubdan voqif bo‘ldik. Undagi «biz uning (Allohning) qahridan yaratilganmiz va uning g‘azabi tushgan kishilar ustidan bizga hokimiyat berilgan, biz shikoyat (qiluv)chini ayamaymiz, yig‘lovchining ko‘z yoshiga rahm qilmaymiz, tangri bizning qalblarimizdan rahmdillikni yulib olgan» degan (so‘zlar) sizning so‘zingiz. Bu sizning eng katta aybingizdir. Bu so‘zlar o‘zingizga (o‘zingiz) yo‘llagan eng qabih tavsifdir. Mana shu dalilning o‘zginasi sizlarga nasihatgo‘y sifatida kifoya, basharti siz nasihat olsangiz: «Aytgin, (Muhammad) e, kofirlar! Siz ibodat qil-

gan (narsa)ga men ibodat qilmayman»[499]. Har bir yozuvda xatda... va har bir qabih vasfingizda siz o'zingizii kofir deb hisobladingiz. Ogoh bo'ling, kofirlarga xudoning la'natidan o'zga narsa yo'q. Kimki ildizlarga yopishsa shohlar bilan qiziqmaydi. Haqiqatan biz mo'minlarmiz, gunoh, yo'limizni to'smaydi va shak-shubha bizga dahl qilmaydi. Qur'on bizga nozil bo'lib, Tangri bizga nisbatan har doim rahmdil. U bizning barchamizni o'zining (izohlab) tushun... tirish barakati bilan qamrab olgan va o'zining haromu halol qilish marhamati bilan bizlarni alohida ajratdi. Chindan ham jahannam si... uchun yaratilgan va u sizning teringizni (kuydirish) uchun yoqiladi «qachonki osmon parchalansa»[501]. G'oyatda ajablanarlik narsa shuki daydilar sherlarga, sirtlonlar yirtqich bo'rilarga, qullar sovut kiygan jangchilarga tahdid soladi. Bizning otlarimiz arabi, himmatimiz Al... misoli (baland), nayzalarimiz zarbalari kuchli bo'lib, uning dov... mashrig'-u mag'ribga tarqalgan; agar biz sizni o'ldirsak qanday yax... shi o'ljaga ega bo'lamiz, bordi-yu siz bizni o'ldirsangiz unda biz bilan jannat orasida atigi bir soatlik yo'l (bor). «Xudo yo'lida o'lganlarni o'liklar deb zinhor hisoblamang, – yo'q, ular tirikdirlar va o'z rabbi... lari rizqida (bo'ladilar)»[502]. Sizning «bizning qalbimiz tog'lar, ad... dimiz qumlar kabi (sonsiz-sapoqsiz)», – degan so'zlaringizga kelsak, qo'ylarning ko'pligi qassobni bezovta qilmaganidek, ko'p o'tinga ... dak olov kifoyadir. «Qanchadan qancha oz guruhlar Tangrining izni bilan katta guruhlardan g'olib kelgan? Tangri sabrlilarga yordir»[503]. Qochish musibatdan emas, biz halokatdan bag'oyat bexavotirmiz.

Agar biz yashasak, baxtli (bo'lib) yashaymiz, (agar) o'lsak shahid bo'lib o'lamiz: ogoh bo'l, tangriga e'tiqodli guruhlar doimo g'olib dirlar[504]. Amiron mo'minlardan va xudoning yer yuzidagi xalifasidan keyin sizlar bizdan itoat talab qilasizmi? Na sizning so'zingizni tinglash, na sizga bo'ysunish bor! Siz bizdan o'z ahvolimizni ravshanroq bayon qilishni talab qilasiz. Bu so'zingiz o'z nazmida bo'sh va o'z iborasi jihatidan bir-birida yopishmagan (tarqoq). Agar (xat) ochilsa, albatta izohlashdan oldin bayon bo'lardi. Iymonga kelgandan keyin bu kofirlikmi? Yoki bo'lmasa, ikkinchi xudoni qabul etdingizmi? Sizlar (xat emas) odatdan tashqari bir narsa yubordingizki, «oz qoldiki





...osmon parchalansa, yer yorilib, tog'lar yemirilib qichqirsa»[505]. ...risolasini bezak qo'yib bezagan va o'z maqolasini tavsiflagan ko...ga aytki, bizlar maktubdan voqif bo'ldik, vaholanki u eshikning ...irlashiga-yu pashshaning g'ing'illashiga o'xshaydi. «Biron narsa haqida gapira oladigan narsa yozamiz va unga azob-uqubatdan ...chasini cho'zamiz»[506]. Bizlarda, sizlar uchun Olloh taoloning ...atidan bahramand bo'lgan qilichdan bo'lak hech narsa yo'q».

Shuningdek, men bir nusxada uchratdimki, davr o'tishi sababli ...on uning siyohlarini mahv etgan va zamon yuzidagi asrlar al...shishi (bu xat) qora soqolini oqartirgan; bu kitobning surati va bu ...ning hay'ati totor Xulokusi[507] tilidan Nasiruddin Tusiy[508] inshosi bilan bitilgan bo'lib, (u) Misr sultoniga yuborilgan. Javob surati ham ...n o'sha asrda o'tgan kishilar tomonidan insho qilingan.

## Fasl

Sulton Burhonuddinning o'z choparlariga nisbatan qilgan ishi Temurga yetgach uning qahri keldi. U g'azab qanotlarini qoqdi va qal...ning qoni qaynab buzildi hamda g'am-g'ussaga botib g'azablandi ...oz bo'lmasa g'azabidan bo'g'ilib o'layozdi. Lekin u buning tagida ...shirin ishlar yotganini, musulmonlarning ko'p sonli qo'shin-u lashkarlari borligini fahmladi. Din egalari orasida musulmon sherlaridan ...olganlari borligini, (hali) o'z ro'parasidan dahshatli sherlaru yov...oyi yirtqichlar chiqishini angladi. Shu tufayli u payt poylab, sabr qildi va orqaga tisarilib, tevarak-atrofdan ularni kuzata boshladi.

### Temurni daf etish uchun Shom askarlarining otlanishi bayoni

Bu bilan bir qatorda Shom amirlarining maligi Tanam askar bilan Arzinjonga qarab chiqdi, ammo u (fursatni) g'animat bilib (orqasiga) qaytdi[509]. U bundan (hech) zarar ko'rmadi. «Tangri kofirlarni o'z qahrlari bilan (birga) qaytardi. Ular hech bir xayrlikka erisha olmadilar»[510]. Islom askarlaridan har bir qahrli sher qaytdi; ulardan har biri o'z suratiga yarasha turnalardan ov qilgan edi. (Bu) qaytish «nur ustiga nur bo'ldi»[511].

## Temurning qaytishi va Hind yerlarini xolis (o'ziniki) qilishga qasdi bayoni

Keyin Temurga Hind sultoni Feruzshohning[512] (bu) dunyo z... matidan xudo rahmatiga o'tgani xabari (borib) yetdi. Uning (o'rni... xalifa bo'ladigan o'g'li yo'q edi. Uning vafoti hukmi (munosab... natijasida bo'sh qolgan ushbu vazifani egallash uchun Temur ... ko'rsatdi. Hind sohibi vafot etganda odamlar orasida parokand... boshlandi. Hind (iston) ishining dengizi mavjlandi va har bir ki... (davlat ishi) havzasida sho'ng'iy boshladi. Natijada, ba'zi (kishi)l... aziz, ba'zilar xor bo'ldi. Keyin odamlar Mallu ismli (bir kishi)ni ... zirlik hukmiga (saylashga) ittifoq qildilar. U odamlarning tarqal... ishini tartibga solib, martabasini ko'tarishga sazovorlarning (mart... basini) ko'tardi, nohaq (yuqori) ko'tarilganlarni (quyi martaba... tushirdi. Keyin uning birodari, Mo'lton shahri mutavallisi Sora... xon[513] unga qarshi isyon ko'tardi. Ular orasida ixtilof voqe' bo'li... Hind to'dalari turli guruh va toifalarga to'zib ketdi[514]. Natijada ul... orasidagi ixtilof Temur uchun eng yaxshi madadkor, zo'r tayanch v... quvvat bo'ldi.

Men dedim:

> Dushmanlar fikrlarining tarqoqligi,
> Do'stlar xotirlarining jam bo'lishiga sababdir.

Mallu[515] Mo'ltonga yetgach Sorangxon unga qarshi qo'zg'old... Shunda Mallu Mo'ltonni hisorga olib, uni bezovta qila boshladi.

Uning (Mo'lton) askarlari behisob, qo'shin to'dalari kechala... (tim) qorong'i edi. Hatto, aytishlaricha, uning behisob, sonsiz-sanoq... siz askarlari jumlasidan sakkiz yuzta fil ham bor edi. Shu bilan birga, Hind atrofidagi har bir amir, Hind tomonlaridagi har bir boshliq o'... etaklarini shimargan holda o'ziga tegishli yuk-yopig'lari-yu odaml... rini yiqqan edi. (Bir so'z bilan aytganda) ular bo'lishi lozim bo'lga... qiyinchiliklari uchun yuklarini zabt etgan va o'z hojatlari uchun fil... larini bog'lagan edilar. Ushbu ladad va husumat to'rt oycha, ya'ni Mallu shaharni xalos qilib, uni (Sorangxon) qo'lidan xolis o'ziniki qilib olgunicha davom etdi.





## Fasl

Mallu hokimiyatni egallab, Hind(iston) ishlari unda qaror top... ...h, hamda Temur uning tomoniga qarab otlanganligi xabari kelib ...gach, u qattiq jidd-u jahd bilan kirishib, ko'p sonli qo'shinu qurol-...rog' tayyorladi. Har tarafdan yordam olib madad so'radi. Bu yo'sin-da hisobsiz mol-dunyo sarfladi va (endi o'zini hech kim (yengishga) ...lir emas deb hisobladi. Ko'p mol-dunyoni sarflab, ot va odamlar-...ni jam qildi hamda mamlakatidagi bor fillarni hozir etdi. Keyin (bu-...ni) shaharlarini-yu (yashirin) pistirmalarni mustahkamladi. Urushda ...llash uchun fillar ustiga kajavalar o'rnatdi. Jang tahririda aniq bir ...ni tutdiki, bu orqali (jangga) borib undan keldi.

Temur ham o'z yurishida qushdan tez uchib kela boshladi. Chun-...ki, bu chegarada uning na oldini to'sadigan, na hind sultoni askarlari ...hida unga yaqin keladigan biron kimsa bor edi. Temur qo'shin-...lari bilan hindlarga yetgach, hindlar qo'shinlari bilan unga ro'baru ...chiqdilar[516]. Temur otlarini hurkitish[517] uchun hindlar fillarni oldin-...ga qo'ydilarki, ularni hisorda qo'llaniladigan jullarga o'ragan va har bir fil ustiga qalqonlardan kajava yasab, har bir kajavaga shiddatli ...zamlarda ham dosh beradigan, ham rijo tilanadigan jangchilardan qo'yganlilar. Fillarga devlarni ham qochishga undaydigan dahshat-li qo'ng'iroq va zanglar taqdilar va hind qilichi[518] deb atalsa to'g'ri bo'ladigan qilichlarni u (fil)lar xartumlariga bog'ladilarki, ular alan-gasining shu'lasi – bu shu'lani sind olovi[519] desa to'g'riroq bo'lardi – boshlarni o'ziga chorlar ediki, boshlar esa ularga sajda qilib quyi egilardi. Fillar hartumidagi bu qilichlar oziq tishlari ustiga ustama edi. Bu oziq tishlar fillar ustiga ijob bo'lgan vazifani ado etishda go'yo to'la-to'kis nisob va o'q otib nayza ushlab ro'para kelgan har bir kim-sani tilka pora qilib bo'g'ziga bexato teguvchi yoy edi. Shu fillar jang safflarida[520] go'yo o'zida bor sherlari bilan yuradigan vodiy, yoinki o'zidagi qo'shinlar bilan oqadigan qo'rg'on, yoinki o'z yo'lbarslari bilan chopadigan tog'lar, yoinki to'lqin mavjlari kabi borib-kelib tu-radigan dengizlar, yoinki o'zining momaqaldiroqlari bilan oqib keluv-chi bulut soyalari, yoinki o'zining qora balolari bilan keladigan firoq kechalari kabi edi. Fillar izidan hind urush suvoriylari, zarba-yu ta'na

botirlari, qora sherlar, (terisi) silliq bo'rilar, sepkilli qoplonlar bo'lib, ularning har qaysinisida Xatt nayzasi[521], hind qilichi, xalanj (kamon) o'qi[522], zakiy qalb, bardam yurak, qat'iy azm, rizoli sabr[523] bor edi.

## Ushbu fillarni qo'rqitish uchun Temur ishlatgan firib bayoni

Bu holatdan Temur voqif bo'lib, hind askarlari gazlamasi shu tarzda to'qilganligiga qanoat hosil qilgach, bu tuzoqni daf qilish uchun hiyla ishlatdi. U hindlarga deb (go'yo) bir qozon sho'rva qildiki, uning qaynatmasi bo'tqadan ko'ra ham quyuqroq edi. Fillar firibini daf qilishni (eng) avval hiylakorlikdan boshladi. U metindek fikrini temir tikonlar tayyorlashga ishlatdi. U (tikon)larning shakli uchburchak, tavsifi esa badoatli, go'yo (u tikonlar) o'zlarining mudhish shakllarida xudoni uchta deyuvchilar kabi, yoinki hisobchilar ishlatadigan istilohi «vafqning» (uchburchak) vaziyatiga o'xshaydiki, ularning adadlari uch bo'lak bo'ladi[524]. Shunday shakldagi tikonlardan minglarcha yasadilar. Keyin ular saf bo'lishib fillar maydoniga tomon yurdilar. Ular bu tikonlarni kechasi sochib, (bu bilan) fillar va ular egalariga kulfat, ofat keltirdilar va bunga (maxsus) chegara belgilab, o'sha chegaradan (nariga) o'tilmasin degan farmon bo'ldi. Keyin Temur (jang) talabgorlari va botirlarini otlantirib, sher va shervachchalarini tartibga soldi, otlarini saralab piyodalarini tanladi hamda o'z askaridan dushmanga qarshi o'ngu chapga pistirma qo'ydi. Sayyoralar sultoni[525] barcha tomon ufqlariga o'z guruhlari (nuri)ni tarqatib, zulmat lashkari (o'z) yulduzlari piyodalarini to'plab qochishga etak shimarganda, Temur askari o'sha (belgilangan) chegaraga borib yetguncha asta-sekin yurdi. Ikki tomon askari bir-biriga ro'para bo'lgach Temur askari «orqaga tisarildi»[526] va (Temur) o'z otlari bilan (yurib) fillar yo'li bo'ylab chekindi. Shunda Mallu askarlari Temur otlari hurkidi va uning nusrat quyoshi tutilib, askarlari kavkablari so'ndi deb tasavvur qildilar-da, fillar qal'alarini qo'pordilarki, ular (go'yo) seldek bo'lib hayqirib oqdilar. Hindlar Temur askarlari izidan fillarni (erga) tashlangan o'sha tikonlar tomon haydadilar. Fillar ustida o'tirganlar orqasidan hind otliq va piyodalari ergashdilar. Fillar seli tikonlar tashlanib ajratilgan





yerga yetgach, ushbu tikonlar fillarning oyoqlarini o'pib, ular tovonlariga sanchildiki, fillar oyoqlari tikonlarni shur etdi va ular orqaga qaytib qaytdilar, balki aqlsizligi natijasida[527] dushmanga orqa o'girib qochdilar. Mallu askarlari fillarni qochishdan to'xtatib, ularni qaytarmoqqa urindilar. Lekin qochishni man qilish va qaytarish foyda bermadi. Fillar dushman tomoniga qarab olg'a yurishda go'yo Abraha fili[528] singari bo'lib qoldilar. Bu «tikonzorda» tikon zarar keltirgani sababli fillarga jangdan qochishdan boshqa chora qolmadi. Natijada, (qochayotib) fillar odamlar-u otlarni poymol qilib ketdilarki, Mallu askarlarining o'liklari tog'lar kabi uyulib, qonlar u (tog') lar vodiylaridagi sellar kabi oqdi. (Buning ustiga) Temurning o'ng-u chapda pistirmada (yashirinib) yotgan odamlari chiqib, qolganlarini ular halok etdi va Mallu askarlarining avvaliga oxirini olib borib qo'shdilar.

Aytishlaricha, Hind yerlarida tuyalar bo'lmay, ularning manzaridan fillar qo'rqib, (ulardan) uzoqroqqa qochadi. Shu sababli Temur besh yuzta hurkong'ich tuyalardan to'plashni va ularni haydovchilarga filiklar tiqilgan qamishlar va yog'lanib ho'llangan paxta yuklaridan ko'p miqdorda ulashib, qo'shinlar bir-birlariga ro'baru bo'lgunlarida tuyalarni otliqlar oldida haydashlarini buyurgan. Qo'shinlar saf tortib jang boshlashdan bo'lak yo'l qolmagach, Temur o'sha ortilgan (paxta) toylarga va yuklarga o't qo'yib, tuyalarni fillar tomonga haydashni buyurgan. Tuyalar olov haroratini his qilgach, tipirchilab qolib fillar tomonga qarab yeldek uchib ketishgan va ushbu aytilgandek bo'lgan. «Go'yo sen Uqaysh qabilasi[529] tuyalaridan birisan, (qo'rqitish uchun) uning oldida mesh bilan ovoz chiqaradilar».

Fillar olovni ko'rib, tuyalar bo'kirishini eshitgach va ularning qanday maxluq ekanligiga nazarlari tushib, tovonlari bilan chapak chalib qo'shiq aytib raqsga tushishlarini ko'rishi bilanoq «o'z haydovchilarini ag'natib ustlarida o'tirganlarni yiqitib, bo'ynini sindirib»[530] orqasiga qarab tiraqaylab qochdilar va otliqlarni yanchib, piyodalarni poymol qilib ketdilar. Temur odamlari fil sohiblari ustidan zafar oyatini tilovat qilib, ular boshiga «qushlar galalari misol kamon o'qlarini yubordilar»[531]. Hindlar fillardan hech manfaat ko'rmay, aksincha u (fil)lar piyoda va otliqlardan ko'pchiligini halok qildi. Keyin hind

askarlari va ular ichidagi otlig'u piyoda botirlar orqaga chekindilar va (yangi) guruhlar to'plab bayroqlar ko'tardilar. Keyin ular bir-birlariga qo'shilishib yig'ilishdilar va bir-birlarini bekitgan holda saf tortdilar. Ular orasida majusiylar, musulmonlar, o'z ulug' nasabi bilan tanilgan pahlavonlar-u jangovar shior bilan chaqiruvchi munodiylar bor bo'lib, ularning hammasi, go'yo zulmatli tunning bir bo'lagi kabi temirdek qora rangda edi[532]. Keyin ular totorlarga yaqin keldilar va bir-birlariga tashlandilar, kamondan o'q otishib, nayza sanchishib jang qilganlaridan keyin qilichlar bilan bir-birlariga zarba bera boshladilar va dushmanlar o'zaro bir-birlariga jips bo'lishib tashlandilar. Keyin ular o'zlarini otlaridan (tappa-tappa) tashladilar va ushbu chang-to'zonda kecha bilan kunduz aralashib ketdi. Raqiblar orasida turli xil zarbalar davom etib, ular ichida hamlalar savlat to'kib, maqtovga sazovor darajada bir-birlariga hujum qildilarki, nihoyat, qazo va qadar tili chindan ham kecha va kunduz ixtilofidan boshqa oyatlarni cha tilovat qilmaguncha davom etdi. Keyin jang-u jadal nihoyasiga yetib, izdihom ko'tarilgach, hindlarning hovuri sovib Hama[533] askari mag'lubiyatga uchragani zohir bo'ldi. Hindlar ustiga musibat tushib, tangri kecha belgisini yo'q qildi. Hindlar tarqab, har tarafga qochdi va muxorabada ular ishlarining tugunlari yechilib, tarqalib ketdi, ularning shonli erlari o'ldirildi va sultonlari – Mallu qochdi. Samarqandda o'z ustunlari mustahkam bo'lganidek, Temur va uning hukmi Hindistonda hozirgi vaqtgacha sobit bo'ldi.

Keyin Temur hind mahorojalarini to'plab, (hind) fillarini bog'ladi va mamlakat ishlarini tartibga soldi hamda zabt etishda nima o'ziga ijob, nima chetda turganligidan g'ofil bo'lmadi. Fillarni o'z haydovchi (ega) lariga topshirib, Temur o'zi mamlakat taxti Dehli shahriga qarab yo'l oldi. U (Dehli) azim shahar bo'lib, turli-tuman fazilatlar jamlangan, ochiq-oydin shuhrat sohiblari yig'ilgan, tijorat ahllari-ning mazgilgohi turli-tuman javohirlaru xushbo'yliklarning ma'dani edi. Shahar (ahli) qurshovda bo'lib (ham Temurga monelik ko'rsat-di. Shunda bu tubsiz kenglikni undan ham ko'p bo'lgan askarlar va Temur bilan bo'lgan haloyiq-u xalqlar o'rab oldi. Aytishlaricha, ammo bu askar va xaloyiq o'zlarining ko'pligi-yu sonsiz-sanoqsiz ekanliklarига qaramasdan, Dehli (shahri) ni aylantirib o'rab olishga qodir bo'la olmadilarki, shahar doirasi shunchalik darajada keng edi. Go'yoki Temur shaharni bir tomonidan muhosira etib ishg'ol qilishga muvaffaq bo'lgan-u, lekin boshqa tomonlarida yana uch kun jang-u jadal davom etgan. Shahar ko'lami kengligidan va odamlari ko'pligidan ishg'ol etilgan tomondagilar boshqa tomonda nima yuz berayotganidan bexabar edilar.





## Ikki podshohning: Abu-l-Abbos Ahmad va Malik Az-Zohir Barquqning vafoti xabarining[534] temurga yetishi bayoni

Temur Hind taxti-yu uning shaharlarini istilo etib, (Hind) yerlari va mintaqalarini egallab, (uning) farmonlari (Hindiston) qir-tepaliklarining tublarigacha borib yetib, askarlari hind viloyatlarining tekis va g'adir-budur (joy) lariga tarqagan va xoh dengizda (suvlikda), xoh quruqlikda bo'lsin, hind raiyalari ustiga ular fasodliklari zohir bo'lgan bir paytda Shom tomonidan Temurga xabarchi kelib, qozi Burhonud-din Ahmad as-Sivosiy va Malik az-Zohir Abu Said Barquqning dor us-salomga ko'chganliklarini bashorat berdi. (Bu xabardan) Temurning qalbi shodlanib, yengil nafas oldi va oz bo'lmasa xursandligidan Shom tomoniga qarab uchib ketayozdi. Natijada, u tez sur'atda Hind ishlarini kamoliga yetkazib, u yerdan olgan xazinalar-u nafis mollarni unda bo'lgan qo'shinu askarlar bilan (birgalikda) o'z mamlakatiga ko'chirdi[535]. Ushbu olomonni va boshqa asir olingan qo'shinlarni Movarounnahrning tevarak atrof chegaralariga tarqatdi. Hindistonda esa hech narsadan taf tortmay (bir) noib tayinlab qoldirdi. Keyin u Samarqanddan chiqib, shoshilinch ravishda Shomni mo'ljallab jo'nadi[536]. U bilan birga, hind askar boshliqlari, a'yonlarining mashhurlari, ular fillarining sultonlari-yu (hind) sultonining fillari bor edi.

802-yilning avvallarida (1399-yil sentyabr) Temur mamnun holatda muz tog'lari misoli ushbu toifalar bilan yuzlanib, to'fon kabi jayxundan Xurosonga qarab quyuldi.

O'z pushti kamaridan bo'lgan o'g'li Amiranshohni Temur Tabriz mamlakati va o'sha diyorlarda qaror toptirgan edi. Sulton Ahmad bo'lsa, qochishga tayyor bo'lib Bag'dodga qaytgan edi[537].

Temurning Shom yerlari tomon yurishiga sabab: Sivos h… qozi Burhonuddinni u (Temur)ning gapga no'noq choparlari… batan qilgan muomalasi bo'ldi[538]. Lekin Temur o'z maqsadini… tutib, odamlardan o'zini qayerdan chiqib qayerga borishini bek… istadi. Badohatan men dedim:

Qanday qilib issiq kuni mushkning xushbo'y hidi
Odamlar burun (teshik)larini to'ldirib tarqalmaydi?
Qanday qilib (yurish uchun) nog'ora chalinsin-da, (odamlar)
qulog'idan uning ovozini yashirish mumkin?

Temur qasd qilgan (narsa) bag'oyat (ko'p) madad va dav… muddat (talab etar) edi; yurish (qilish) uchun oziq-ovqat, qurol-… ha g'amlashga muhtojlik bo'lib, bu yurishning Tabuk g'azoti… o'xshab qolishidan Temur xavflanar edi. Temur o'z makr-hiylal… yashirish maqsadida (soxta bir) vaj o'ylab chiqarib, uni ovoza q… (har tomonga) tarqatdiki, ulardan qalblar to'lib, quloqlar bitdi.

**Temur Hindistonda ekanida unga kelgan bir maktub ma'nosi: gumon qilishlaricha, bu xatni Temurga o'g'li Amiranshoh yuborgan[540]**

Gap shuki, Temur o'g'li zikr qilingan Amiranshoh unga x… yuborib, xabar qilgan gaplari va da'volari jumlasidan mana shu (so'z)… lar bor edi: «Yoshing ulg'ayib, jismingni zaiflik va quvvatsizlik qa… rab olganligi sababli sen riyosat tartibotlarini ado etish, boshqaruv va siyosat (yurgizish) og'irliklarini o'z zimmangda ko'tarishdan ojiz bo'lib qolding. Sening bu ahvolingda – basharti (sen) taqvodor kishilardan bo'lsang – o'zingga muqarrar narsa (o'lim) kelguncha masjid burchagida o'tirib egangga ibodat qilish sen uchun avlodir. (Sening) bolalaringu nabiralaring orasidan raiya va qo'shinlaringni boshqarishni uddalay oladigan, mamlakating-u yerlaring muhofazasi-ga qurbi yetadiganlar yetishdi. Shaharlar va mamlakatlar qanday qilib qo'lingda bo'lsinki, vaholanki sen (o'zing) o'limdan bir odimsan? Agar sen ziyrak nazarga-yu o'z mulohazangda daqiq farosatga ega bo'lsang, dunyo (ishlari) ni tark qil-da, oxirat ishlari bilan mashg'ul





… Agar sen Shaddod[541] mulkiga ega bo'lsang, Amoliqa (qavmi) … senga qaytib kelsa, nusrat va yordam senga o'z mada-… yu, hatto sen Hamon[542] va Fir'avn[543] martabasiga yetish-… maskunning xiroji senga berilsa-yu, mol-dunyo to'plash-… Qorundan[544] ham oshib ketib, mamlakatlarni xarob qilishda …[545] kabi bo'lsangki, qaysiki unga tangri taolo ko'p narsa … qildi-yu, lekin u noshukurlik qildi, – gapning xulosasi, sening … butun dunyoga yetsa va bu dunyoingdan jamiki tilakla-… yetishsang, umring esa (dunyoda) eng uzun umrlardan bo'lsa … (dunyodagi) nodon hokimlar esa sening xizmatkorlaring bo'lsa; …) qo'shinlaring Qaysarni[546] tiyib Xusrovni[547] tor-mor qilib … Tub'a[548] va An-Najashi[549] senga ergashib, olam podshohlari … rojalari so'zsiz senga tobe bo'lsa, Fag'fur[550] doimo seni maq-… og'zini ochsa, sen (dunyodagi) xonu hoqonlarni halok etsang, … sening dasti xatingga tortiqlar jo'natsa, Misr fir'avni-yu uning … senga bo'ysunsa; «olib kelaveringlar»[551] qo'li bilan senga dun-… Eroni va Turoni to'lovlari to'lansa – sening martabang shungacha … yetsaki, (butun) iqlimlarda yashab, istiqomat qiluvchilar seniki …?[552] Qasrlaringning uzluksiz balandga boy cho'zishi (bu faqat) halokatga olib kelmaydimi? Kamolingning nihoyasi zavol emasmu? Va nihoyat, hayoting – o'lim, yashaydigan makoning qabr bo'lmay-dimi? Men (she'r) aytdim:

Bu dunyoda istaganingcha yashab shon-shuhratga erish,
Ammo hayot ipi oqibatida uzilishi muqarrar,
Umr chilviri o'lim bilan bog'langandir.

Yana (she'r) aytilgan:

Paxtadan bo'lgan ko'ylak kiyish,
bir qultum toza suv va bir kunlik oziq-ovqat,
kishi shular bilan orzusiga erishadi, ammo o'ladigan
kishiga shu ham ortiqdir[553],

Sen qayoqda-yu, Nuh (payg'ambar) qayoqda? Senda u (Nuh)ning uzoq umri-yu o'z qavmi uchun yig'lashi, uning (sof) ixlosli ibodatiyu, o'z egasiga shukronasi (qayoqda?) Sen qayoqda-yu, Luqmon qayoq-

da? Uning o'z o'g'liga Va'zi-yu[554] umri bo'yi o'z lubadiga[555] b... tarbiyati qayoqda? Bepoyon mulkka ega bo'la turib, tangri taolo ... larini ado etib, zikru tasbehni takror qilgan Dovud[556], qayoqda ... sen qayoqda? Undan (Dovuddan) keyin Sulaymon va uning ... jinslar, qushlar[557], hayvonlar va shamol ustidan hukmi qayoqda ... sen qayoqda? Ikkala Mashriqqa[558] egalik qilib ikkala Mag'ribga ... borib yetgan hamda ikki tog' qoyasi o'rtasiga to'g'on bunyod ... mamlakatlarni bo'y egdirib, tangri bandalariga egalik qilgan Zul-... nayn[561] qayerda-yu sen qayerda? Anbiyolar sayyidi, rasullar muhri ... saylanganlar sarasi barcha olamga rahmat tariqasida yuborilgan ... Odam Ota hali suv bilan tuproq o'rtasida turganida, payg'ambar ... bo'lgan Muhammadu mustafo va ahmadu mujtaboga nisbatan sening maqoming nima? Muhammadga yerning Mashriq va Mag'rib (ya'ni barcha) tomonlari nasib bo'lib, uning shoxida-yu g'oibi qarshisida qo'l qovushtirib turdi va xazinalari ochilib, (erning) zohir va yashirin narsalari unga namoyon qilindi; muruvvatli maloikalar uning qul... bo'lib, jinlar, inslar, qushlar, vahshiylar va qurtu qumursqalar un... iymon keltirgan; karomatli oliy tangri uning itoatiga tog'lar podsho... hini yuborib, unga quvvat bergan (bo'lsa) uning nusrati bayroqlarini o'ngu chapda eltuvchi sabo nasimi bo'lgan. U mutakabbirlarni qahr... haybat bilan qo'lga kiritgan; Xusravu Qaysarlar bir oylik yo'lda turib undan titraganlar, tangri uning o'z yordami hamda «Muhojirlar» va «ansorlar»dan iborat mo'minlar bilan qo'llab-quvvatladi hamda q... chonki kofirlar uni (Makkadan) chiqarganlarida tangri unga yordam berishda o'zi mutasaddi bo'lib (Abu Bakr bilan) ikkisi g'orda ekan... larida ikkoviga madad berdi[563]. Tangri taolo unga sharafli ulov al-Bu-roqni[564] yetkazib, uni qaybir kechada masjid al-xaramdan[565] masjid al-Aqsoga[566] olib bordi. Keyin tangri uni yetti qavat osmonga ko'tardi va o'zining shonli ismini uning ismi bilan yaqinlashtirdi. U o'z ban-dalarini to qiyomatgacha chegarasi va rasmiyati o'zgarmas shar'iat bilan ibodat qildirdi. Tangri koinotni uni deb yaratib, uning siymosi nuri bilan (butun) mavjudotni yoritdi. Olamda undan ko'ra sharafli-roq va faxrliroq (hech bir kimsa) yaratilmagan. Alloh uning (avval) o'tgan va keyingi gunohlarini hammasidan kechdi[567]. Tangri unga o'z





...laridan shunday bir mo'jiza berdiki, bitta arpa kulcha bilan ... olomonni to'yg'izdi va bir to'da otliqlarni (o'z) barmoqlari ... chiqib turgan zilol suvga qondirdi. Uning uchun oy (ikki-ga) yorilib[568], daraxtlar(uning) da'vatiga «labbay» deb javob berdi[569], ... unga iymon keltirib, tosh (lar) unga salom berdi. Axir, u ...) mo'jizalarni-yu (ko'rsatgan) karomatlarni sanab hisobiga ... bo'ladimi? Mana bir muayyada mo'jizasining o'zi seni bosh-... mo'jizalar talab qilishdan tiyadiki, abadiy karomati, zamon o'tishi ... ham boqiy qoladigan, kechayu-kunduzning aylanishi bilan bir ... yerda turadigan mo'jiza – u Qur'on ul-majiddir. U shundayki, «na ...dan, na orqasidan (biror) botillik (yaqin) kelmay, hikmatli, maq-... (zot xudo) tomonidan nozildir[570]. Mana bular payg'ambarning ... dunyodagi tutgan manzillari bo'lib, (bular) oxiratda uning uchun ...laridan boshqalaridir. U (Tangri) o'zining ushbu so'zlari bilan payg'ambarga bashorat bergan: «Sen uchun oxirat bu dunyodan ko'ra ...roq. (zinhor) Rabbing tez orada senga ato-yu ehson qiladiki, ... (undan) rozi bo'lasan[571], shu bilan birga Tangri taolo payg'am-...lardan Muhammadga iymon keltirishga va uni qo'llab-quvvat-...lariga ahdu paymon olgan. Basharti ular Muhammad zamoni-...da yashaganlarida edi, ularning faqatgina unga (Muhammadga) ...shib, uning amrlarini bajarishdan bo'lak choralari qolmasdi. U (Muhammad) Alloh do'sti Ibrohimning urug'i, Muso va Bani Isroil ...lari vasilasi: uning kelishi haqida Injilda Iso tili bilan bashorat ...ilgan: diydor ko'radigan kuni o'z rabbi hamda bayrog'ining homi-...dir; odam va undan keyingilar uning bayrog'i tagidadurlar. U jannat-...ga tushiriladigan hovuz egasi va shafoat maqomida o'z rabbidan xitob ...luvchi va maqomu mahmud egasi. So'zlar ishlatilishidan namuna ...lib aytgan she'rim mazmunida:

> So'zla – gaping eshitiladi; shafoat tila – shafoating qabul etiladi.
> So'ra, so'raganingga erishasan – izzat xil'atiga loyiq bo'lasan;
> mening ne'matlarim nurlarini o'zingga (singdirib) ol.

Ana o'sha sayyidlarga, xayru saxovat konlarigayu, baxt-u saodat kalitlariga nazar tashlachi? Ular dunyoga hirs qo'yib, unga ishon-dilarmi? Yoki unga qiyo boqdilarmi? Lekin boqqan bo'lsalar faqat-

gina bepisand va ibrat ko'zi bilan boqdilar! Ularning nazarlari A... farmoniga ta'zimdan bo'lak narsa edimi? Bu nazar tangri banda... riga shafqatdan boshqa nima edi? Xulafoyi roshidindan ortiq ... kifoyatli narsa bormi? Bu ummat ichida quyosh va oy maqom... bo'lgan ikki Umardan[572] boshqa ulug' zot bormi? Shular misoli ... na xalifalar, kamolatli podshohlar, fazilatli sultonlar borki, ular ... bilan hukm yuritdilar. Ular Tangri taoloning bandalari ustidagi haq... rini muhofaza etdilar, oliy tangri bandalarini uning yerlarida zulm... himoya qildilar, xayr-saxovat qoidalariga asos soldilar va faqat ad... insof yo'lida javlon urdilar. Ular mana shu zaylda olamdan o'tdi... ru asarlari boqiy qoldi. Ular haqidagi (xush) xabarlar, garchi o'zlar... dunyodan o'tsalar-da, (ular) kunlarini barhayot qildi. Shu tariqa ul... avvalgilar misoli o'tdilar va ular to'g'risida oxirgilarda sadoqat lis... boqiy qoldi, chunki ular eshitganlari taqozosiga ko'ra ish ko'rgan... lar.

> Sen, odamlar, yaxshi (edi) deb zikr etadigan bo'lgin,
> Chunki odamzot zikr qilinuvchidir.

Senga kelsak, xalq ustidan hokimiyatga ega bo'ldingda adolat ha... ko'rsatding, lekin haq yo'lda emas; xalqqa g'amxo'rlik ham qilding – lekin mol-dunyo-yu ziroatlariga va ular qalblari va suyaklarini hi... moya qilding – lekin o't bilan yurding, asos ham solding – lekin fi... nalarga; lekin payg'ambar rasm-rusumlarini poymol etuvchi yo'ldan... Shu bilan birga, garchi sen yetti osmonga[573] ko'tarilgan bo'lsang ham (baribir) Fir'avn va Shaddod martabasiga yetaolmading; garchi sen baland tog'lar cho'qqilarida qasrlar ko'targan bo'lsang ham baribir ular yer yuzida tengi bo'lmagan ko'p ustunli Eramga[574] barobar kela olmaydi. Sen man etganu amr qilganlarga va so'ngra (dunyodan) o'tib g'uborga aylanganlarga (bir) nazar sol-da, tug'yon bilan fujur... lik qilganlardek, yuz o'girib kofirlarcha ish yuritganlardek bo'lma. Bu xitobga javob (berish) dan o'zingni tiy; yoyni yasagan (kish) iga berib, uyni qurganiga qoldir[575]. Alloh, uning rasuli va iymon keltir... ganlarga tomon nigoh tashla, bo'lmasa sen say ko'rsatib fasod kelti... rish uchun yer yuzida hokimlik qilganlardan bo'lasan. Agar (ish) shu





...bo'lsa, unda men sening ustingga boraman va qo'llaringga urib ...ishlarda jidd-u jahd ko'rsatishdan seni qaytaraman va oyoqla... to'g'rilayman».

...ningdek, Amiranshohning maktubida ko'pdan ko'p adabdan ...gari, gunohga serob iboralar bor edi.

Temur bu maktubdan voqif bo'lgach, o'z otlari jilovini Tabriz... ...rab burdi. Amiranshoh huzurida bir guruh (adovatda) haddidan ...lar bo'lib, ular yer yuzida fasod tarqatishda jidd-u jahd ko'rsat... ...lar. Ulardan Qutb al-Mousiliy[576] bo'lib, u bevafo zamonning ...jizasi, musiqa va qo'shiqlar ilmida (katta) ustoz edi. (Qachonki) u ...ni soyratganda e'tiborli kishilar ham sukutga borar; (u) nayni ...ga qo'yganda Ishoq[577] va uning otasi udining ovozi chiqmay qolar... ...sharti u kuylashga boshlasa sohibjamollarga bo'lgan ehtiyojdan ...r, kishi ruhi uning mayin nafasiga «mening azob-uqubatlarimni ...llat» deb zorlanar edi; uning qamish (nayi) esa barmoqlarga ishorat ...«bosh ustiga» deb javob berardi. Keyin cholg'uvchi uning ichiga ...i puflab har qanday majruh qalbga shifo va yaralangan yurak... ...davo bag'ishlardi. Agar uning nayi o'zining kelishgan qaddi-qo... ...tini rostlab, o'z ohangi ostida «raqsga» tushib ketsa, unda chang ...ini egiltirib, uning jozibali ovoziga bo'yin egardi. Agar nay o'z ...larini (kishilar) qalblari tinglashlari uchun og'zini ochsa, unda ud ...loq solmoq uchun bo'ynini egib adab barmoqlari bilan quloqlarini ...'zib eshitardi. Aytishlaricha, u (Qutb) oddiy va murakkab, yasa... ...va asosiy kuylarning jamiyki nag'malarini o'z udining har qanday ...limlaridan chiqarar ekan. Uning maqomlarga bag'ishlangan asar... ...ri bo'lib, (bu borada) uning bilan Ustoz Abdulqodir al-Marog'iy[578] ...rtasida bahslar bo'lib o'tgan.

Amiranshoh unga juda mehr qo'ygan bo'lib, uning suhbati va ...hratini (o'ziga) g'animat bilar edi. Temur bo'lsa ajib narsalardan ...ajablanmas, o'yin-kulgi va musiqa uni o'ziga maftun etmasdi. Bi... ...nobarin u: «Go'yo Abdulqodir Shayx Uvaysning o'g'li Ahmadning aqlini olib, uni to'g'yon (yo'li)ga boshlaganidek, al-Qutb ham Ami... ...ranshohning aqlini olib uni fasodga boshladi», – dedi.

Keyin ushbu to'g'yonchi (Temur) 802-yil rabiy ul-avval oyining o'n yettinchisida (1399-yil 17-noyabr) Qorabog'ga yetib keldi va uni

manzilgoh qilib to'xtab, unda ulovlariga dam berdi. U Ozarbayjon yerlarini zabt etib, o'sha fasodchilar va adovat ahllarini qatl qildi, lekin Amiranshohga hech bir ozor bermadi[580], chunki u uning o'g'li bo'lib, o'z pushti kamaridan yaratilgan edi. Ular (ikkovlari) o'rtasida shubhali ishlar[581] bo'lib o'tdi-yu, ular tafsiloti yolg'izgina tangriga ayon.

Keyin Temur o'z qo'shini bilan jumodul – oxira oyining ikkinchisi, (1400-yil 30-yanvar) payshanba kunida yo'lga chiqib, Tiflis shahrini oldi va Gurjilar yerlariga qarab yurib, (o'zi) egallagan qasr va burjlarni vayron qildi va ularni (gurjilarni) qal'a va itoatsiz qo'rg'onlarga tiqdi. O'zi qo'lga kiritganlardan xoh itoatkor, xoh isyonkor bo'lsa (hammasini) o'ldirib, ularning boshlari-yu kokillaridan tortib (sudrab) yurdi.

Keyin Temur o'z inodi jilovini burib, o'z zolimlarini Bag'dodga qarab gij-gijladi. Rajab oyining o'n sakkizinchisida (15 mart) Sulton Ahmad bu hayqirgan (dengiz) dan Qora Yusufga (qarab) qochdi. Natijada, Temur uning bo'ronidan taskin topib, bu bilan dushmanlari va raqiblaridan xotirjam bo'ldi. U yurishini muhlatga solib, o'z munozarachilari bilan bo'lgan nahvida «g'ayru» va «sivo» («falon-fuston») bahslarini ishlatdi. U har xil makr va ilmoqli harakatlarga kirishib, o'zini g'ofil ko'rsatib, ushbu nashidani kuylar edi:

> Men Alva bilan Su'do haqida gapiraman,
> (ammo) meni istagan murodim sizsiz:
> men na Su'doni va Alvani xohlayman.

Natijada, Temurni yaramas gurjilar yeridan qo'zg'algani yo'q (deb) tasavvur qilib, bir kun[583] Sulton Ahmad va Qora Yusuf Madinat us-salomga[584] qaytib keldilar. Ular Temurning (Kurjdan) chiqqaniga ishonchlari komil bo'lgach, – agar Temur biror maqsadga ko'z tiksa, undan boshqaga burilmasligi ularga avvaldan ayon edi, – o'z qushlarini Rumga tomon uchirdilar va diyorlarini qarg'a-yu boyo'g'lilar qag'illashlariga tashlab ketdilar[585]. Bu qari burgut (Temur) bo'lsa, turkman oromgohiga qarab ravona bo'ldi. Keyin u qilichini qinga solib, to'g'yonni tugatdi va yozni shu joyda o'tkazdi.





**Sivos va Shom sultoni vafotidan keyin qanday fitna-yu bid'atlar voqe' bo'lgani va fasodliklar uchun qilich yalang'ochlangani bayoni**

Shu paytda odamlarning ishi parokandalikka yuz tutib, Misr va Shom yerlaridan tortib to Sivosgacha iztirob voqe' bo'lgan edi. Misr va Shomda o'z sultonlarining vafoti[586] sababli bo'lsa, Sivosda esa o'z Burhonining qatl etilishi sababidan edi[587]. Ular ikkalasining o'limi Qora Yusuf[588] va Malik al-Muayyad Shayx Abu-l-Fath G'iyosiddin Muhammad Ibn Usmonning[589] o'limiga o'xshab vaqt jihatidan bir-biriga yaqin edi. Ushbu ikki ulug' maliklarning o'limi orasida ham xuddi ana shu ikki sultonning o'limi (orasidagi) ga o'xshab yarim yilga yaqin vaqt o'tdi.

**Qozi (Burhonuddin) ishlaridan bir shingil va uning qay tariqa Sivos va o'sha yerlarni egallagani bayoni**

Qozi Burhonuddinning qatliga uning bilan adovatchilar bosh (lig') Usmon Qorayluk o'rtasida voqe' bo'lgan ixtilof sabab bo'ldi; kezi kelganda bu (ixtilof) haqida ziyoda bayon qilinadi. (Burhonuddin) ning otasi Qaysariya va Qaramonga qarashli ba'zi yerlar hokimi Sulton Aratna[590] huzurida qozi bo'lib, amirlar va vazirlar o'rtasida ta'siru e'tiborga ega edi.

Uning o'g'li mazkur Burhonuddin Ahmadning esa barq urgan o'spirinlik davri bo'lib, sharafli[591] ilm va uning ahllari toliblaridan hamda ilm tahsil olib qo'lga kiritishda jidd-u jahd ko'rsatadiganlardan edi. U mukammal ravishda ilmlarni egallash, mantiq va mafhum yo'llari bilan ularni o'zlashtirib olish niyatida Misrga qarab yo'l oldi. Bu o'spirin g'oyat darajada zehnli, ziyrak daholi, bilim yo'lida uyqudan (ham) voz kechgan bo'lib, qisqa muddat ichida bir qadar ilmlarni mukammal egalladi. Bir kun u Misr (Qohira) da sayr qilib yurganda yo'l ustida g'amgin holda o'tirgan bir faqirga nazari tushdi. Burhonuddin unga o'z kamchiligini qoplaydigan, uning bilan o'z faqirligi-yu ehtiyojini (bir qadar) tuzatadigan u – bu narsa berdi. Shunda ushbu faqir (odam) ma'lum lafzlar bilan unga yangi xabarlar ochdi va

yashiringan sirni kashf qilib, Burhonuddinga: «Bu diyorda o'tirma (chunki) sen Rum sultonisan», – dedi. Bu so'zlar bilan u Burhonuddin qalbini pora-pora qildi. Keyin u (Burhonuddin) yo'l anjomlarini tayyorlay boshladi va eng qimmatli narsani (ilm talabini) to'xtatib sheriklari hamrohligida yo'lga tushdi. U Sivosga yetib kelgach, otasi va odamlar a'yonlari xursand bo'ldilar va xalq o'rtasida uning uchun binosi kuchli-yu asosi mustahkam (tayanch) bino qurdilar. Burhonuddin mudarrislik qilib, a'yonu boshliqlar suhbatida bo'la boshladi. U bag'oyat himmatli, saxovatli va sofdil bo'lib, ajoyib sifatlar va maqtovga arzigulik xislatlarga ega edi. Uning tahriri ishonarli va tahriri vafoli (sidqidildan) edi. U ulamolar so'zlarini tahqiq qilib, fozillar aytgan gaplar nazarini tadqiq qilar edi. Uning mantiqiy tasniflari va tildan tilga ko'chib naql qilinadigan latifalari bor edi. U nafis she'rlar nazm etar va uning uchun jalolatli a'tolar berar; unga nozik so'zlar yoqib, ular uchun ko'pdan ko'p hadyalar tortiq qilar edi. Shu bilan birga, u qo'shinlar kiyadigan libos kiyib, chavandozlik va sayd (qilish)da amirlar yo'lidan yurar va saltanat bo'sag'alaridan ajramas, xizmatkoru mulozimlar tutardi.

(Keyin) yosh bolani qoldirib, sulton vafot etgach, u (bola)ni taxtga o'tqazdilar. Uning huzurida amir, a'yonlar va vazirlardan bir qanchasi bo'lib, ulardan G'adanfar ibn Muzaffar, Faridun, Ibn al-Muayyad, Hoji Keldi[592], Hoji Ibrohim va boshqalar bo'lib, ularning akobirlaridan (biri) qozi Burhonuddinning otasi edi. Ana shu amirlar, vazirlar va ulug'lar fuqaro ishini boshqarardilar va sodir bo'lgan har bir masalani birgalashib, faqat ittifoqlik yo'li bilan hal qilardilar.

Keyin, qozi Burhonuddinning otasi vafot etib, o'g'li o'z padari o'rnini egalladi. U ilmda va siyosat husnida o'z otasidan va uning safdoshlaridan ustun bo'ldi va o'sha iqlim viloyatlarini Ibn al-Muayyad, Hoji Keldi va Hoji Ibrohimga taqsim qilib berdi. Natijada, Sulton Muhammad atrofida Faridun, G'adanfar va Burhonuddin Ahmad qoldilar.

Keyin hech bir merosxo'r qoldirmay Sulton Muhammad vafot qildi[593]. Hokimiyatni mushtarak boshqarish asosida (haligi) uchchalasi vorislikda qoldilar. Lekin kamdan kam (vaqtda) bir erning izmida ikki





...n ittifoqda yashaydi, hatto ularning (eri) tangridan tashqari qandaydir xudo bo'lsa ham albatta ular oralarida fasod ish voqe' bo'ladi[594]. Yuzlab faqirlar bir qo'rpa ostida uxlaydilar-u, ikki podshohga katta bir iqlim torlik qiladi[595].

Binobarin, Burhonuddin hokimiyatni tamom o'ziniki qilib, mustaqil hukm yuritishni irodat etdi va o'zining ikki sherigiga (qarshi) hiyla-nayrang to'rlarini tashladi, chunki podshohlik farzandsizdir. U (Burhonuddin) bu borada o'z baxti tole'ini izlab qulay fursat poyladi va yulduzlarga (chuqur) razm, solib, «men betobman», dedi. Sheriklari ...morni ziyorat qilish, olijanob va himmatli vojib deb hisobladilar, lekin Burhonuddin undan ziyoda (ish) istadi. Ular Burhonuddinni ziyorat qildilar, lekin u adovatda edi, – ular undan xavotirlanmadilar, lekin bu ulardan havotirda edi. Ular Burhonuddin huzuriga kirdilar, u bo'lsa ularga qarshi pistirma uyushtirib qurolli kishilardan bir qanchasini to'plab qo'ygan bo'lib, ularni o'ldirdi, chunki ular to'rlar iskanjasida qolgan edilar. (Burhonuddin) Ahmad saltanati sheriklaridan xolis, yagona bo'ldi va natijada, uning hokimiyati yagonalik bilan kuchaydi va bu bilan din uchun o'z hujjati va isbotini yondirdi; lekin tengqurlari unga qarshi chiqib, noiblardan iborat uning o'ziga o'xshashlar va nazirlari unga qarshi is'yon qildilar. Dushmanlari va hasadchilari yashirin adovatlarini zohir qilib: «Bu martabag'a na uning ajdodlariyu, na otalari erishgan; biz hammamiz sivoslik bo'lib, shunda ulg'ayganmiz, qanday qilib u bizning ustimizdan hukm yuritadi?» – dedilar. Riyosat hasadi – bu, eng og'ir azob kishanidir, tengqurlarning o'zaro (bir-biriga) hasadi – bu bedavo jarohatdir. Ulardan mustahkam To'qot sohibi Shayx Najib va Amosiya[596] noibi bo'lgan Hoji Keldi bor edilar.

Qozi (Burhonuddin) hokimiyatga mustaqil ega bo'lgach, (o'ziga) sulton deb laqab oldi. O'sha vaqtda Qaramon yerlariga sulton Alouddin egalik qilib olgan edi. So'ngra Sulton Burhonuddin: – «Haqiqatda ham tarixlar rivoyatchilarining bizga yetkazgan va eshittirgan hadislari, siyrat kitoblarining bizga keltirgan xabar-u hiloyatlariga ko'ra, atrofimizdagi yerlar bizning sultonimiz va merosimizga mansubdir», – dedi. Keyin u o'z saltanatiga mansub bo'lgan (mulk) larni xolis

(o‘ziniki) qilib olib, isyonida sarkashlik ko‘rsatayotganlarni g‘ov qila boshladi. Zo‘ravonlik bilan u Shayx Najibdan To‘qot qal’asini yulib olib, uning o‘zini esa qonuniy tutqun singari o‘zi bilan olib ketdi. Sonsiz-sanoqsiz bo‘lgan Rum totorlari Burxonuddinga kelib qo‘shildilar. Qorayluk laqabi bilan atalgan Usmon, Burhonuddinga – «Men sening itoating ostiga turib, (seni) amring qaydida yuraman» – dedi. Natijada, u Burhonuddin xizmatkorlari qatoriga kirib, uning to‘dalari va hashami jumlasiga mansub bo‘ldi. U o‘zi bilan birga bo‘lgan odamlar bilan qishin-yozin Sivos atroflarida kezib yurardi.

**Adovat izhor qilib, isyon holati o‘ylaganligi sababli Qorayluk Usmonning Sulton Burhonuddin nurlari[597] izlarini mahv etishi va zamon unga xiyonat qilib, g‘adirlik bildirganda uni tutib olishi bayoni**

Keyin Qorayluk va Sulton (Burhonuddin) o‘rtasida kudurat voqe bo‘lib, mojaroga aylandi va oxiri jang-u jadal bilan tugadi. Qorayluk (o‘z) ahdu – paymonini buzib (Burxonuddinga), sovg‘a-salom-u xizmatkorlar keltirishdan bosh tortdi va o‘zi bilan hamroh turkmonlar va hashami bilan olib bo‘lmaydigan manoatli joylarda o‘rnashib oldi. Sulton unga e’tibor bermay – chunki Qorayluk uning‘ arkonlari ichida eng arzimagani edi – ba’zan Amosiyaga, ba’zan Arzinjonga yo‘l ola boshladi. Sivosning yaqinida bir oromgoh bo‘lib, uning manzari zarif, tuprog‘i sof, suvi yoqimli va havosi latif ediki, go‘yo Xuld[598] uning bo‘stonlari yelkalariga o‘zining yashil shoyisini xil’at qilgan. Firdavs o‘z nahri kavsarnni uning daraxtlari orasida buloqdek (otilib) oqizgan; bu oromgoh bog‘lari jannat bo‘stonlari misoli, uning jabhasi tepaligi esa kishilar nazarini hayratga solib, aql-idroqlarga huzur-halovat baxsh etardi. Men dedim:

Uning ustida sallagul g‘uncha ochgan, go‘yo aqiq kosalari anbar bo‘laklaridan to‘ldirilgan.

Qorayluk ushbu oromgoh tomon ravona bo‘lib, uning yo‘llarida javlon urishni istadi va Sivos ustidan (yurib) o‘tdiki, unda Qozi Abul Abbos[599] bor edi. Qorayluk (uning) uzangisi yonidan o‘tdi-yu, unga e’tibor bermadi. Natijada, qozining qalbida tammuz harorati[600] lovul-





lab, oz bo‘lmasa u qahru g‘azabidan yorilib ketayozdi va dedi: – «Bu ko‘ppak shungacha borib yetdiki hatto u sher uyasiga[601] ham boshini tiqdi! Men bu shaharda turibman-u, u bu yerga qadam qo‘yishga jur’at qildi!» Keyin Burhonuddin (o‘z) jamoasiga otlanishni buyurib, Qorayluk ustiga tashlanishga niyat qildi. G‘azab va telbalik uning (o‘zini ham) otlanib, qo‘shindan ilgari ketishga undadi. Shunda u bilan (birga) bo‘lgan jamoadan biri unga: – «Agar mavlono Sulton bir muddat (vaqt) to‘xtab, qo‘shinlar yetib kelguncha sabr qilsalar, bu eng ma’qul, to‘g‘ri va maqsadga muvofiq ish bo‘lur edi. Garchi mavlono Sultonning hurmati yetarli bo‘lib, unda kuch-quvvat kifoya bo‘lsa-da, lekin (bu) turkmon[602] Qorayluk makkor va firibgar (kishi)dir», – dedi. Lekin Sulton bu kalimaga e’tibor qilmadi va (tun) zulmati yopirilgunda Qorayluknipg orqasidan yeldek uchib ketdi. Shunda Qorayluk o‘z jamoasi bilan sultonga qarshi qaytib hujum qildi-da, o‘sha zahotiyoq tutib oldi. Askarlari sulton holi ne kechganini bilmadilar; uning amirlari yu qo‘shini tumtaraqay bo‘lib har tarafga to‘zib ketdilar[603].

**Qorayluknng (boshda) to‘g‘ri fikrga niyat qilishi va ko‘ngli xiraligidan Shayx Najib vositasida undan qaytishi bayoni**

Keyin Qorayluk Burhonuddin bilan ahdu-paymonni qaytadan tiklashga, o‘rtadagi xilof nihollarini sug‘urib tashlab, sadoqat va ittifoqlik binolariga asos solishga azm qildi. U Burhonuddinni makoniga qaytarib o‘zi esa, avvalgidek, uning tarafdorlari va yordamchilaridan (biri) bo‘lib qolishga bel bog‘ladi. Shuning bilan sulton (Burhonuddin) Qorayluknng o‘ziga xayr-xoh (kishi) ekanini anglab, g‘iybatchi va hasadchilarning u haqidagi so‘zlarini tinglamaydi (deb o‘yladi). Shu payt (shu payt) Shayx Najib paydo bo‘lib – u To‘qot qal’asining mutavallisi bo‘lib, Sulton (Burhonuddin) uni muhosaraga olib unga yurish yo‘llarini tor qilgan, qarshiligini sindirib, ustidan g‘alabaga erishgan va qal’asini egallab, o‘zini istar-istamas (o‘zi bilan) birga olib ketgan edi – u (qulay fursat topib undan foydalandi va qalbida yashirinib yotgan adovatni yuzaga chiqardi. U Qoraylukka kelib mamluk misoli uning xizmatida bo‘lib, unga: – «Sening bilimdon aqlingni xato qilishdan, dalolatli fahmingni adashishdan, (sening)

maqsadga yetkazadigan ra'yingni musibatga uchrashishdan va [illegible] fikringga dog' tushishidan xudo saqlasin. Darhaqiqat, tangri [illegible] maningni changalingga tutqazdiki, qanday qilib sen shunday [illegible] jamlikda, bemalol o'tirasan?», – dedi. Men she'r aytdim:

Hayot – bu bir lahzaki, o'tadi-ketadi.
Er kishi shu (lahzada) idrokli bo'ladi yoki nadomat chekadi.

Basharti sen uni ayasang ham, u seni ayamaydi; agar sen [illegible] rahmdillik ko'zi bilan qarasangda, xudo haqi, u senga nazar [illegible] solmaydi, chunki u kaltafahm odam va xilma-xil makr va turli [illegible] man hiylalar to'qiydi. Padaring nomi bilan qasam ichamanki, u [illegible] kelishish bag'oyat mushkul (ish) va o'z padarim nomi bilan qasam ichamanki, unga qilingan xayrli ish foyda keltirmaydi. Faraz qil, bundan xudo saqlasin – sen uning o'rnida bo'lsangu u sening o'rningda bo'lsa, senga rahm qilib gunohingni kechirarmidi? Yo'q, [illegible] ham! Xudo haqqi, bu bema'ni gap! (Hozir bo'lsa) senga qulay fursat keldi[604]. Zamon har doim ham (istalgan) murodni amalga oshirish[illegible] ga imkon beravermaydi. Hayot – bu bir qadar (qulay) fursatlardan iborat bo'lib, uning aksar qismi g'am-g'ussalardan iborat. Shunday ekan, qulay fursatni qo'ldan berib yuborsang shunday g'am-g'ussa[illegible] da qolasanki, oh u qanday g'am-g'ussa! Oyog'ing toygandan keyin nadomat (senga) foyda bermaydi. Mening gaplarim ustida fikr qilib, bu masala ma'qulidan xulosa chiqarib ol. Uning qonini to'kish [illegible] lan o'z oliy sharafingni saqlab qol va uning haramini ho'rlash bilan o'z haraming pardalarini[605] beza[606]. Hoyna-hoy, e amir, Qobus [illegible] Vushmagir[607] ishlarini esla. Sulton Ahmadni Qora Yusuf tutib olganda kurdlar amiri Bistom qilganidek, bu shayton Qoraylukka bu sening manfaatingdir, o'zingga foyda keltiradi, deb unga sultonni qatl etish fikrini tinmasdan ma'qullatar edi.

Natijada, Shayx Najib uni aldab, firib bergandan keyin, Qoray[illegible] luk o'zining (avvalgi) niyatidan qaytdi va hech kechiktirmasdan va paysalga solmasdan sultonni – Alloh, unga rahm qilsin!– qatl etdi. Shayx Uvaysning o'g'li Sulton Ahmadning Qora Yusuf tomonidan qatl etilishi 813-yil rajab oyining o'ninchisida (11-noyabr, 1410-yil)





[illegible] uning qissasi mashhurdir[608]. Sulton (Burhonuddin) – Alloh [illegible] rahm qilsin, – avval zikr qilinganidek olim, fozil, karim va ka[illegible] (etishishga) ilhaq kishi bo'lib, o'z so'zlarining daqiqligi va [illegible] nafisligi bilan ajralib turardi. O'zining salobati g'oyatda [illegible] bo'lishiga qaramasdan xaloyiqqa yaqin bo'lib, muomalada [illegible] edi. U g'oyatda bilimdon, shoir, zarif, aql-idrokli, latif, shi[illegible], botir va shavkatli kishi edi. U dunyo xayr-saxovatlarini o'ziniki [illegible] olar va sira qo'rqmasdan ularni ming-minglab hadya qilardi. U [illegible] muhabbat qo'ygan bo'lib, ular bilan majlis qurar, fuqarolar[illegible] (o'ziga) yaqin to'tib, ularga g'amxo'rlik qilardi. U dushanba va [illegible] kunlarini faqat olimlar va qur'on hofizlari uchun maxsus ajrat[illegible] ediki, shu kunlari shahar ahlidan ulardan boshqa biror kimsa ham [illegible] huzuriga kirmasdi. U vafotidan oldin o'zi ega bo'lganlarning [illegible] hammasini tark etgan va Tangri taologa tavba qilib, u tomonga yuz [illegible] edi. Uning qalamiga bir qancha tasniflar mansub, ulardan [illegible] izoh» bordir. Qozi Burhonuddinning, o'zida fazilatlar mu[illegible] bo'lgan asli bag'dodlik Abdulaziz[609] deb ataladigan bir do'sti [illegible] bo'lib, u zamon mo'jizasi, fors va arab tillarida nasr va nazm nazokati [illegible] o'z davrining yagonasi edi. Qozi Burhonuddin uni Bag'dod[illegible], Shayx Uvaysning o'g'li Sulton Ahmad huzurida o'g'irlagan edi. Abdulaziz uning huzurida nadimlar boshlig'i, fazl-u daho ahlining [illegible] edi. Qozi (Burhonuddin) esa fazilat sohiblariga g'amxo'rlik qilib, har tomondan adib va shoirlarni izlar edi. Fazlu adab ahllari [illegible]-u yaqindan uning huzuriga kelardilarki, hatto uning turadigan joyi bahslashuvchilarni (o'ziga) tortadigan joy emas, balki hojilar Qa'basi (misoli) bo'lib qoldi.

Abdulazizning o'g'irlanishi ushbu tarzda edi: Burhonuddin bu odamning tavsifini eshitgach, unga muhabbati (yanada) oshib, (uning) o'z suhbatida bo'lishini istadi. Keyin mahdumidan Abdulazizni (o'ziga berishni) iltimos qildi. Lekin Sulton Ahmadning nafsi o'zining bu (sevimli) nadimidan firoqda bo'lishga ruxsat bermadi. (Sulton Ahmad) qozining Abdulazizga rag'bati (kuchliligi) dan hamda uning (Abdulazizning) o'zini yetuk dahosini ishlatib, o'z huzuridan qochib ketishidan xavflandi. Keyin u Abdulaziz haqida (alohida) vasiylik

ko'rsatib, ehtiyotkorligini ziyoda etdi va «uning oldidan va orqasidan qo'riqlaydigan qo'riqchilar tayinladi[610]. Lekin qozi unga (Abdulaziz-ga) bir zakiy elchi yubordi. Elchi uni xufiyona nido bilan chaqirib, unga ko'pdan ko'p atolar hadya etib, (yana) qimmatbaho mukofotlar va'da qildi va ikki sultonni bir-biridan go'yo go'zallik va qabohat, sho'r va mazali suvli ikki dengiz suvi, kunning kechi va subhi o'rtasidagi farq kabi (bir-birlaridan) farq qilishlarini bayon qildi. Natijada, Abdulaziz uning da'vatiga «labbay» deb qabul javobini berdi va ular karvonlardan qay biri bilan yo'lga chiqishga va'dalashdilar. Jazirama issiq qizdira boshlagan va Sulton Ahmad haramda orom olib yotgan bir paytda Abdulaziz chiqdi va kiyimini Dajla sohiliga qo'yib, loydan 610 daryo bag'riga qadam qo'ydi. Keyin u suvda (bir qadar) sho'ng'ib orqasiga qaytdi va boshqa bir joydan (qirg'oqqa) chiqib, o'z hamrohlariga kelib qo'shildi va qo'shoyoq o'z [illegible] yashiringanidek ular orasiga yashirindi. Sulton Ahmad Abdulazizni so'raganida uni izlab topa olmadilar. Ular jon-jahdlari bilan qidirib, uning kiyimiga to'qnash kelib, oyoqlari izlarini loyda ko'rganlarida, Abdulazizni to'lqinlar o'z quchog'iga olib, u g'arq bo'lganlarga qo'shilganiga shubha qilmadilar. Shunda odamlar uni qidirishdan voz kechdilar. Uning g'oyib bo'lishi tufayli hech kim jazoga giriftor bo'lmadi. So'ngra, bir necha kundan keyin Bag'dodda g'arq bo'lgan (kishi) Sivosda Qozi Burhonuddin huzurida boshini ko'rpa ostidan chiqardi. (Burhonuddin) uni (o'z) in'omlari dengiziga g'arq qilib, ustiga (o'z) fazl-u karami etagini yopdi. Abdulaziz uning huzurida eng muqaddam, muhtaram va muazzam (kishi) bo'ldi. U Burhonuddin uchun badoatli bir tarix ta'lif qildiki, unda u eng oliy yo'llardan yurib, tengi yo'q uslublarda javlon urdi. Bu tarixda u Qozi Burhonuddin ishining bidoyatidan to (uning) vafotnga yaqin bo'lgan davrgacha uning qilgan jang maydonlari, mavqelari va muxorabalarini zikr qildi. (O'z) asarini ajoyib kinoyalar, latif istioralar, fasih, lug'atlar, balog'atli kalimalar, nozik ishoratlar, nafis iboratlar bilan bezashda u (o'z) tili jiloviga (istaganicha) erk berdi. Bu (tarix) Qaramon yerlarida mavjud bo'lib, to'rt jilddan iboratdir. Bu to'g'rida menga[illegible] u (tarix) ning dengizida sho'ng'ib, undan durini topib chiqqan kishi





[illegible] qilgan edi. U (kishi) – Sulton Yamin (ad-Davla) Mahmud[614] [illegible] Sabukteginga bag'ishlangan «Tarix ul-Utbiy»dan[615] ham voqif edi. Abdulazizning bu tarixi o'z uslubining go'zalligi va mazmunining [illegible] va mutolaasining yoqimliligi[616] jihatidan al-Utbiy tarixidan [illegible]shiroq, – degan edi. Ammo o'zim bu ikkala tarixdan ham voqif [illegible]may, qo'lim qisqaligidan men ularga yetisha olmadim.

So'ngra ushbu yong'in alangalangandan (Burhonuddin qatlidan) keyin Shayx Abdulaziz Qohiraga ko'chdi va toki g'am-g'ussa mast[illegible] uni qamrab olmaguncha azob-uqubatni boshidan o'tkazib, tash[illegible] sharobini ichdi. Keyin u chinqirdi va baland tomdan yiqilib halok [illegible] va go'yo «As-Sihah» sohibi[617] kabi mayda-mayda bo'lib o'ldi. [illegible] yog'ini yana tangri biladi.

## Qorayluk Sulton Burhonuddinni qatl etgandan keyin dunyo va dinda voqe' bo'lgan fasod bayoni

Sulton Burhonuddin qatl etilgach, uning o'g'illari ichida riyosatga [illegible] saltanat va siyosat hukmlarini ado etadigani bo'lmadi. Binobarin, Qorayluk Sivosga qaytib, o'z (atrof) iga odamlarni chorladi, [illegible] odamlar unga javob qilmay, uni la'natlab qarg'adilar. Shunda Qorayluk odamlarga tazyiq o'tkazib, ularni azobladi, har tomonlama [illegible]jitib, ular dilini siyoh qila boshladi. Natijada, ular Qoraylukka qar[illegible] totorlardan yordam so'raganlarida totorlar (ularga) madad ko'rsa[illegible], ulardan bir toifasi yordamga keldi. Lekin, Qoraylukdan yengilib, [illegible] qochib ketdilar. Keyin odamlar boshqa totor toifalaridan madad so'raganlarida ular Qorayluk ustiga hamla qildilar va hammalari bir[illegible] kelishib baland-pastliklaru tepaliklarni to'ldirib yubordilar. Ular[illegible] qarshi jang qilish uchun Qoraylukning quvvati yo'q edi. Shunda u ularning ostidan kirib ustidan chiqdi va Temurga qarab ravona bo'ldi. Temur askarlari dengizi shu paytda Ozarbayjonda mavjlanardi – Qorayluk Temurning qo'lini o'pib, o'zini unga qo'shilgan hisobladi. Go'yo amir Idiku Temurni (Dasht yerlari tomon) undagani[619] singari, [illegible] ham uni bu o'lkalarga yurishga chorlab, da'vat qila boshladiki, Temurniki tutib ketdi[620]. Natijada, go'yo Barsisa Abu Murra (degani) [illegible] rozi bo'lganidek[621], Temur (bunga) rozi bo'ldi.

## Qanday yo'ldan yurish va kimni (o'zlariga) hokim qilish borasida Sivos ahli qilgan kengash bayoni

Keyin, Sivos ahli va uning boshliqlari-yu aql-idrokli kishilarida bo'lgan a'yonlari, kim ular ixtiyorlari jilovini egallashi va o'z yerlarini kimga – Misr sultonigami yoki Ibn Qaramongami yoki bo'lmasa g'azogir Sulton Boyazid[622] Ibn Usmongami – topshirishlari haqida o'zaro maslahat ko'rdilar. Ularning oqilona fikrlari marhum Yildirim Boyazidga ittifoq topdi. Natijada, unga chopar yuborib, (uni) o'z yerlariga kelishga undadilar va (undan) madad tilab, shu zaylda nashida baxsh etdilar[623].

«Qanchadan qancha sohibjamollarni ko'rdim men, Lekin ular ichidan seni ixtiyor etdim»[624].

Binobarin, Boyazid o'sha zahotiyoq ularga tomon yuzlandi va qo'shinu lashkar bilan yetib keldi. U (hokimiyat) qonun-qoidalarini (uning) rukunlarini tartibga solib, o'zining katta o'g'li amir Sulaymonni sivosliklar ustiga voliy qilib tayinladi va ulug' amirlaridan besh nafarini: Yaqub ibn Uvronis, Hamza ibn Bajor, Quj Ali, Mustafo va Davodorni unga izofa qildi va a'yonlar qalblarini o'ziga moyil etib, (o'zi) Arzinjonga qarab yuzlandi. Avval zikr etilgan Taharton (Arzinjondan) qochdi va (o'z) qochishida Temur tomoniga qarab yo'l oldi. Ibn Usmon Arzinjon shahrini egallab, Tahartonning mol-dunyolari va xazinalari, shuningdek, uning haramini egalladi. Ibn Usmon uning haramini o'z sayislari, g'ulomlari va xizmatkorlariga ulashib berdi va mol-dunyo, yuklar bilan orqaga qaytib, Istanbul muhosarasi bilan mashg'ul bo'ldi[625].

### Bo'lim

Garchi fasod ishlarga intilish Temurda susaymagan bo'lsa ham, Qorayluk va Taharton unda (yangi) fitnaga kuchli havas uyg'otdilarki, nihoyat Temur bu mamlakatlarga tomon otlandi va uning fasodi (u) yerlar va (tangri) bandalari ustiga yoyildi. Natijada, uning qo'shinlari avval Arzinjonga kirdilar, so'ngra, yana yo'lga tushib, fasod ishlar qila-qila Mordinga kelib tushdilar. Shunda avval bu firibgarga itoat





...rib, (ko'pdan ko'p) azob-uqubatlarni boshidan kechirgan Malik az-Zohir isyon bildirdi. Hech bir nadomat-u hasrat foyda bermasa ham qiyomat kunida nadomat qilajagidek, Temur birinchi marta uni (Malik az-Zohirni) ozodlikka chiqarib, bo'shatib yuborganiga nadomat qildi. Bu (voqea) 802 (1399–1400) yilda bo'lib, bu paytda Shom va Misr askarlari o'rtasida ixtilof voqe' bo'lgan edi. Har bir guruhga ...lar qo'shilib, ular (boshliqlari) ning fikrlari har tarafga tarqab ketgan edi. Ulardan har birining shamoli[626] g'arb, shimol va sharqqa (ya'ni har tomonga) qarab esdi. Ular raiya haqida qayg'urmadilar va ...ning kelishidan g'aflatda qoldilar[627]. Men dedim: Kimki dushmaniga beparvo bo'lib, uning firibidan amin bo'lsa, u go'yo orqasida yog'oq (kishi) turib, uxlaydigan kimsaga o'xshaydi.

Yana aytdim: O'g'rining murodiga yetishida eng yaxshi ko'makchi – qorovulning uyqusidir.

Keyin mazkur (802) yilning ramazon va sha'bon[628] (mart–aprel 1400-yil) oylarida (xudo) muhofazasidagi[629] Shomda amirlar hokimi ..., bosh amirlar va mashhur a'yonlar qatl qilindi[630]. Bu ishlarning bayoni tarix kitoblarida bitilgandur. Men dedim:

Sherlari o'ldirilgan inda,
Tulkilar qo'rqmasdan uvlaydilar

### Temurning Sivos va unga yondosh diyorlarga otlanishi bayoni

Keyin Temur o'z shiddati jilovini Sivos shahri tomoniga qaratdi. Sivosda, (avval) zikr qilinganidek, Boyazid Ibn Murod ibn Urxon ibn Usmonning o'g'li amir Sulaymon hokim edi. Shunda u o'z otasi (Boyazid) ga xabar yuborib, ushbu dahshatli ishdan uni voqif etib, undan madad so'radi. Boyazid shu paytda Istanbul muhosarasi bilan ovora bo'lib, o'zining ham madadga ehtiyoji (borligi) dan va (oralaridagi) masofaning uzoqligidan o'g'liga (yordam) qo'lini cho'za olmadi. Shunda Sulaymon o'z qo'shini ichidan matonatli odamlarni hozir qilib, shahar va qal'ani istehkom qurib mustahkamladi va muqotalaga tayyorgarlik ko'rib, hisorga (qarshi) bel bog'ladi. U o'z amirlari boshlarini devorlar badanlari bo'ylab tarqatib chiqdi. Temur ular to'g'risida o'ziga gumon bo'lgan (narsa) larni aniq bil-

moq uchun ular ichiga o‘z qo‘shinidan ayg‘oqchilar yubordi, qach... ki Temur qo‘shini amir Sulaymonga o‘z (zeb-u) ziynatini namoyon qilgach, amir uning asl mohiyatini ko‘rib qochdi va o‘z otasi tomon yuzlanishga jazm qildi. U o‘z amirlari va odamlari bilan – toki (ular uchun) qo‘shin va qurol-aslaha tayyorlab kelmaguncha shaharni saqlab turishlari to‘g‘risida shartlashdi. Ular uchun uning fikriga muvofiq shaharda qolishdan va (Sulaymonga) hamroh bo‘lmaslikdan o‘zga iloj yo‘q edi. Sulaymon o‘z jonini xalos qilishni istab, orqasi... diga qaramasdan tiraqaylab qochdi.

Temur o‘sha to‘lib-toshgan sel bilan 802-yil zu-l-hijja oyining o‘n yettinchisida (1400-yil 9 avgust) Sivosga yetib keldi. Sivosga (o‘zining) shum qadamini qo‘yganda Temur: – Men bu shaharni o‘n sakkiz kunda fath qilaman, – dedi. Keyin u shahar muhosarasi ja... yonida (xuddi) qiyomat (kuni) alomatlarini ko‘rsatdi va unda ayovsiz beboshliklar qilgandan keyin uni o‘n sakkizinchi kuni fath yetdi. Bu (sakkiz yuzu) uchinchi yil muharram oyining beshinchisi (1400-yil 26 avgust), payshanba kuni (Temur) shahar jangchilariga qoningizni to‘kmayman, sizlarga homiylik qilaman, hamda aziz (muqaddas) na... salar-u haramlaringizni muhofaza qilaman, deb qasamyod qilganidan keyin bo‘lgan edi. Jangchnlar jangdan to‘xtab, Temur ular ustidan hokimiyatni qo‘lga olgach, ularni to‘dalab (halqa qilib) bog‘ladi va ular uchun yerdan xandaq qazdirdi hamda xuddi botir erlar Badr qu... dug‘iga[632] qanday tashlangan bo‘lsa, ularni ham shu zaylda tiriklayin chuqurlarga tashladi. Xandaqqa tashlanganlarning adadi uch ming kishi edi. Keyin Temur nahb-u g‘orat jilovini bo‘shatib yuborib, un... orqasidan asir (olish) va xarobalikni davom etdirdi.

Sivos eng ajoyib shaharlardan biri (bo‘lib), g‘oyatda bahusn o‘rin... da joylashgan edi. Uning mustahkam imoratlari, istehkomli joylari, mashhur obidalari va o‘z xayr-u saxovati bilan ma’lum maqbaralari bor edi. Sivosning suvi sof, havosi mizojga muvofiq, ahli g‘oyatda himmatli bo‘lib, tavqir va odamshavandalikda yetuk, takalluf va hur... mat qoidalariga g‘oyatda moyil edilar. Sivos uch mamlakatga – Shom, Ozarbayjon va Rumga tutashgan (qo‘shni) edi. Ammo hozir Sivosda qismat teskariligi o‘rnashib, uning ahli tumtaraqay bo‘lib (har taraf...





...‘zib ketgan. Uning imoratlari devorlaridagi naqshlar o‘chib, u ...hi bilan xarobazorga aylangan[633].

**...hbu tamomiy balo yashinlarining zararli bulutlardan chiqib Shom yerlari to‘dalari ustiga yopirilishi bayoni**

Temur Sivosning suyagi bilan go‘shtini ajratib, undan miya... so‘rib olgach va uning o‘tini tamoman o‘rib, ochofatday yalab ...ch, o‘z intiqomi o‘qlarini Shom yerlari gardaniga yo‘naltirdi. ...r uning qo‘shini haqida ular (olamga) yoyilgan chigirtkalar kabi ...ilsa unda chigirtkalar ular oldida atigi yordamchi to‘dalardir; yoki ...r haqida: bu to‘lib-toshgan sel desalar, u (qo‘shin) lar qilich va ...asidan oqqan qonning o‘zigina sel kabidir yoki ularni har to... ...a «yoyilgan to‘shakdek»[634] desalar, lekin ularning o‘qlari (har ...onga) uchganda to‘shaklar yonib ketadi; modomiki (ularni) os... ...ndan oqib tushadigan tomchilarga qiyos qilinsa, hatto to‘xtovsiz yog‘ayotgan ko‘z yomg‘iri ham ular otlari tuyoqlaridan ko‘tarilgan ...ng-to‘zonning qalinligidan yog‘ishdan to‘xtaydi.

(Temur qo‘shini ichida) Turon erlari, Eron botirlari, Turkis... ...n yo‘lbarslari, Badaxshon qoplonlari, Dasht (Qipchoq) va Xitoy ...hinlari, Mo‘g‘ul qirg‘iylari, Jato yirtqichlari, Xo‘jand ilonlari, Andikon ajdaholari, Xorazm qurt-qumursqalari, Jurjon zararkunan... ...lari, Sag‘oniyon burgutlari, Hisori shodmon[635] yovuzlari, Fors su... ...riylari, Jabal[636], Xuroson sherlari, sirtlonlari, Mozandaron (moda) sherlari, Jibol[637] yirtqich (hayvon)lari, Rustamdor va Talqon[638] tim... ...hlari, Huz(iston)[639] ilonlari[640], chuvalchanglari[641], tayolisa[642] kiygan Isfahon bo‘rilari, Ray, G‘azna va Hamadon jonivorlari, Hind, Sind va Mo‘lton fillari, Lur viloyatlari qo‘chqorlari, G‘ur baland tog‘lari ...‘kizlari, Shahrazur[643] chayonlari va Askar Mukram[644] va Jundiy Sabur[645] gazandalari bor edi. She’r:

(Bir) qavmki, qachon, kulfat ularga o‘z tishini ko‘rsatsa,
Ular unga to‘da-to‘da va yakka holda uchib keldilar.

Bu qo‘shinga xizmatkorlar ichidagi eshaklar, turkman qalang‘i-qa... ...ng‘ilaridan iborat itvachchalar, arab avomlaridan ochko‘z ko‘ppak-

lar, ajam chivinlari, budparastlar quyqalari, majusiy afsungarla... loslari va boshqa shularga o'xshash (odam) lar qo'shildilarki, u... hech bir devon sig'dira olmas va hech qanday hisobchining daftar... sobiga yetmas edi. Gapning qisqasi, u (Temur) dajjol (misoli) bo'l... uning bilan Ya'juj va Ma'juj[646] va dovulli, befoyda shamol (birga)... Zafar unga yetakchi, baxt unga yo'lboshchi, qazo (unga) muv... qadar (unga) madadkor, tangri taoloning xohishi uni (olg'a) bosh... chi, (u) bandalar va mamlakatlar tadbirida[647] aziz va ulug' tangri... irodasi uning haydovchisi bo'lgan holda Temur yo'lga chiqdi.

Natijada, bu xabar Shom yerlariga kelib, (undan) Misr diyor... ham yetdi. Shunda Shom noibiga va boshqa noiblar-u hokimlar... din uchun g'azot qilib, islom (yo'li) da jihod ko'rsatuvchilarga H... labga qarab ravona bo'lish va Temurga qarshi lashkar to'plash, d... manni daf etishda jidd-u jahd ko'rsatish va unga qarshi kurashish... bir-birlariga madad berish[648] to'g'risida farmon-u sharif keldi. Sh... noibi Saydi Sudun (boshqa) noiblar hamda askarlar bilan tayyorgar... ko'rdi va ular 803-yilning safar (1400-yil, sentyabr–oktyabr) oyi... Halabga qarab yuzlandilar[649].

Temur esa Bahasnaga[650] yetib kelib, uning atroflarini (shunday) talon-taroj qildiki, hatto unda cho'p ham qolmadi; (uning) qal'as... ni (Temur) yigirma uch kecha qamal qilib egalladi. Lekin tangrining qandaydir bir marhamati bilan qal'aga kulfat va baxtsizlik keltirish... dan Temur o'zini tiydi. So'ngra u ulovlarini[651] Malatiya (shahri) ga qarab yurgizdi va uni xarob qilib, tepaliklarini maydaladi. Shunda keyin Temur shum qadamini Rum qal'asiga[652] qo'ydn. Bu qal'aning noibi an-Nosiriy Muhammad ibn Muso ibn Shahriy edi. An-Nosiriy bilan Temur o'rtasida bo'lgan mojaro va uning Temurga qarshi ku... rashda qanday sa'y qilib, jiddi jahd ko'rsatgani haqida keyin aytiladi.

Temur qal'a (oldi) da bir kun turdi, lekin uning murodi natija bermadi. U qal'ani hisor etib, unga qahrini sochmadi va «Hajjojga... Tabala[654] arzimas bo'lganidan ko'ra ham bu (qal'a) men uchun ar... zimaganroq», – dedi. Qachonki Temur bu qal'ani uzoqdan ko'rganda xuddi uzum boshiga bo'yi yetmagan kishi aytgan gapga o'xshatib, u shu (gap) ni aytgan edi. Haqiqatda esa Temur Rum qal'asini ko'rgan...





...Alloh bu qal'ani bunyod etganda, uni ixtiyor etib o'ziga g'am... – dedi.

Keyin bu bulut (Temur) Ayntobga[655] qarab og'ib ketdi. Uning noi... Arkamas shijoatli kishi edi. U shaharni mustahkamlab (kurashga) ...arlik ko'rdi va shaxsan o'zi jangni boshqarib, o'zicha harakat ... Keyin majruh[656] bo'lib, Halabga qarab qochdi. Temur uning ...idan quvlovchilar yubormadi.

**Temur Ayntobda ekanida Halabdagi noiblarga yuborgan xunuk xitobi va maktubi bayoni**

Temur Ayntobda ekanida xilma-xil sarziyoda, dabdabali so'zlar ...n nishonlangan va turli-tuman do'q-po'pisalar bilan bitilgan bir ...mon bilan o'z choparini (Halabdagi) noiblarga yubordi. Shular ...lasidan u farmonda: Temur amrlariga itoat bildirib jangu jadalni[657] ...tatish va Mahmudxon hamda ulug' Amir Temur Ko'ragon nomi ...lan xutba o'qitish va avval uning huzurida bo'lib, keyin (unga) xi... ...t qilgan Atilamishni (o'ziga) – bu Atilamishni turkmonlar[658] tutib ...lib, keyin uni Misrga – Sulton huzuriga[659] yuborgan edilar, – yubo... ...h kabi (talab) lar bor edi 660.

Bu Atilamish Temur hamshirasi qizining kuyovi bo'lib, ushbu fa... ...ishlar yuz berishidai oldin Shomga kelgan edi. Shu orada birmun... ...ishlar yuz berganki, ular yashirin bo'lib, keyin oshkorlikka aylan... ...n. Avvaliga Atilamish Misrda mahbus bo'lib, shiddatda-yu xor-u ...rlikda bo'lib, keyin (esa) aziz, mukarram, muazzam va muqaddam (kishi) bo'ldi. Temur Atilamishga nisbatan g'azabda bo'lib[661] uni (ushbu) adovat uchun dalil va sabab qildi. Shuningdek, u o'zining ...u maktubi maydonida javlon urib, savlat to'kib: – «Faqat u (Temur) ...damlar ustidan siyosat yurgizishga loyiq kishidir, yolg'iz uning ...tqazgan kishisigina xalifa va imomdir, hamma Temurga tobe va ...itoatda bo'lmog'i lozim, yer yuzining Temurdan boshqa podshohlari ...esa uning xizmatkorlari va tobelaridir. Riyosat (ishi) da undan bosh... ...qada qayoqdan ham mahorat bo'lsin? Siyosat tartiblarini cherkaslar[662] qayoqdan (ham) bilsin?» – qabilida ko'pdan ko'p do'q-po'pisalar, uzundan uzoq bema'ni, ortiqcha so'zlarni yozdi[663].

O'z talablariga ularning rozi bo'lishlari amrimahol (ekanligi) va erishishi mumkin bo'lmagan (ish)ni (ulardan) talab qilganligini Temur (yaxshi) bilardi. Lekin bu bilan u nizo eshigini qoqmoqchi va jang hujralarini ochishda (shomliklar) ustiga bahona qo'ymoqni ... sad qilgan edi. Natijada shomliklar Temurga so'z bilan javob bermay, lekin uning murodini amalda ado egdilar. Saydi Sudun Temur gap... iga e'tibor qilmay, xaloyiq huzurida Temur elchisining boshini kes... di[664]. Shomliklar urushga tayyorgarlik ko'rib, kurashga kuch to'pla... lar.

### Temur Ayntobda ekanida Halabda noiblar unga qarshi qilgan maslahat bayoni

Keyin Shom noiblari, amirlari, qo'shin boshliqlari va a'yonlari Temurga qarshi qanday kurashish va u bilan qaysi jang maydonida to'qnashish xususida (o'zaro) maslahat ko'rdilar. Ulardan qay biri: ... menimcha, biz uchun eng to'g'ri fikr, – bu shaharni qo'rg'on bilan mustahkamlash va uning devorlari ustida soqchilardek turish va go'yo osmon o'z maloikalarini qo'riqlagandek biz uchun (shahar) falakla... burjlarini qo'riqlashdir. Agar devor atroflarida dushman shaytonlari... dan birortasini ko'rib qolsak, uning ustiga o'q toshlarini va «poylo... chi mash'al»ga[665] o'xshash o'tsochar yulduzlarni yuboramiz», – dedi.

Boshqasi aytdi: – «Bu aynan hisorda qolish bo'lib, ojizlik va mag'lubiyat alomatidir. Balki biz devor atrofini halqa bo'lib o'rab olib, dushmanning unga (yaqin) kelishiga yo'l qo'ymaylik. Bunda harakat uchun ko'proq makon, urush qilish uchun kengroq maydon bo'ladi». Keyin hozir bo'lganlardan har biri bu ish to'g'risida xayoli... ga nima (fikr) kelsa o'shani aytdi. Bu bahsda ular oriq so'zlarni semiz... bilan aralashtirib, to'g'ri fikrlarni noto'g'risi bilan qo'shib yubordilar. Shunda al-Malik al-Muayyad shayx al-Xosakiy: «U to'g'ri mulo... hazali kishi bo'lib, o'sha vaqtda Tarobulis noibi edi», – dedi:

– «Ey do'stlar jamoasi, muhoraba sherlari-yu jang bahodir... lari! (Shuni) bilinglarki, (sizning) ishlaringiz xatarli, dushmaningiz dahshatli, u tadbirkor daholik va firibi chorasizdir. Uning qo'shini ko'p, fikri ziyonli, kulfati cheksiz va uzoq (muddatli)dir. Siz undan





... bo'ling va o'z fikringizni ishlatib, uni daf qilish borasida yaxshi ... hiyla toping, chunki o'tkir qilich qila olmagan (ish) ni to'g'ri fikr ... oladi. Zakovatli kishilarning maslahati (bu) fikr chaqmoqtoshi, ...lar bilan bahslashish (bu) mulohaza muqaddimasidir[666]. Dar... ...qat, bu (shunday) dengizki, uni hech bir quruqlik ko'tara olmaydi ... (uning) qo'shini adadi jihatidan qatralaru zarralar misoli. Temur ... shini) garchi[667] tinmay yog'adigan jalaga o'xshasa-da, uning ... ko'r, chunki bizning yerimizda u g'aribdir. Shu sababli, fikrim... ... biz shaharni har tomondan (qo'rg'on bilan) mustahkamlab, uning ...qarisiga chiqib, bir tomonda to'planamiz-da, hammamiz Temurni ...lab, uni kuzatamiz. Shuningdek, o'z atrofimizda xandaqlar qa... ..., devorlar ustiga bayroqlaru[668] qilichlar o'rnatamiz. Har tomonga ...ablar, kurdlar, turkmanlar va boshqa mamlakatlar xalqlariga xat... ... qanotlarini uchiramiz. Ular har tarafdan Temurni o'rab oladilar va ... bir piyoda-yu otliq uning ustiga tashlanadiki, (natijada) u (Temur ... yo) qotil va talovchi, bosmachi va o'g'ri o'rtasida (qurshovda) ...ladi. Agar, u o'z joyida to'xtab qolsa – qayoqda, u (to'xtab) tura ...ladi? – unda u g'oyatda xavfli joyda turib qoladi. Agar u bizga qa... ... (olg'a) kelsa, biz unga nayza qo'llarni, qalqon kaftlarni va o'q ...moqlarni ro'para qilamiz. Agar u orqasiga qaytsa – bu biz uchun ...yni muddao – u quppa-quruq (o'z maqsadiga erishmay) qaytadi va ... (tadbir) o'z sultonimiz oldida bizning hurmatu haybatimizni oshi... ...adi. Agar u bizga tomon butun saltanati bilan ravona bo'lsa, xudoga ...shukurki, bizlarda ham saltanat bo'lib, u bizning xalos bo'lishimizga ...qodir[669]. Hech bo'lmaganda biz muhlatni cho'zib, uning qo'shinidan ...htiyotda bo'lmog'imiz lozim. Shoyad tangri bizga g'alaba keltirsa ...yoki o'z huzuridan (biror) amr bersa. Mana bu bag'oyat to'g'ri fikr ...her Shoh Mansur fikrining aynan o'zi edi. Lekin Halab noibi Temur... ...tosh dedi: – «Bu fikr-u mulohazalar na mustahkam, na asoslidir. (Ish... ...ni) paysalga solishdan jang qilish avlo, dushman bilan muloqotdan ...oldin bu xususda tayyorgarlik ko'rilishi lozim. Jang maydonida gap ... so'z hech qanday foyda bermaydi. Chunki har bir maqomga loyiq ...so'z, har bir jangning o'ziga muvofiq usuli bor. Temur – bu qafasda... ...gi qush, to'rga tushgan o'ljadir. (Shunday ekan, qulay) fursatni g'a...

nimat biling, (uning) ustiga urush qilib borib, qilich zarbasi-yu n… za ta'nasi bilan undan oldinroq harakat qilinglarki, u bizni zaifl… gumon qilmasin, hamda bizning jamoamiz qo'zg'olmay turishid… zafarning xushbo'y hidini (tuymasin). Ishingizni jamlab, shoshili… «Bir-biringiz bilan talashib yurmang mag'lub bo'lasiz»[670]. Kura… qat'iy jur'at bilan kirishing va bardoshli bo'lib, «bir-biringizga … batan sabr-chidamli bo'ling»[671]. Xudoga shukurki, sizlar botir, qud… li va shiddatli odamlarsiz. Jangu jadal fiqhida har biringiz foyda… gadigan (mug'ni)[672] va ixtiyor qilinadigan (muxtor)[673]siz. Dushma… qonini to'kishda (har biringiz go'yo yo'l ko'rsatuvchi (manor)di… Bu borada sizning har biringiz kifoya bo'lib (kifoya)[675], boshlovchi… (hidoya)[675] qilib oxiriga (nihoya)[677] yetkazadigansizlarki, (siz… boshqalar esa endi boshlaydigan (bidoya)dir[678]. Sizning har biri… islom birligi yo'lida «yirik xazina» (kanz)[679], yetarli «jamlov… (jome')[680] va saqlovchi (viqoya)[681]. Dushman boshlariga jarohat y… kazish uchun qilichlaringiz tillari ularga tomon intiladi. U boshl… ni kesib tashlashda (ular) kifoyatli shifoyadir («kofiyatu shofiyat)… Sizning nayzalaringiz har bir «kasalmand fe'lni»ng[683] (ahvolini) mu… kullashtirishda[684] o'z tishlarini ishlatadi. U nayzalaringiz «kasalm… fe'l»dagi illatlarda tasarruf[685] yuritishda shifokor[686] va kifoyadirla… Agar (biz) Temurni yengsak, murodimizga yetgan bo'lamiz va … jangda Alloh mo'minlarga kifoya qilarlidir. Unda bu (jang) oliy ta… ridan yordam bo'ladi va biz, Misr askarlarini (ortiqcha) tashvishd… xalos qilgan bo'lamiz. Bu, hurmatimizni ziyoda etib, shavkatimiz… zafar kelishini kuchaytiradi va bizning g'alabamiz shamoliga quvv… berib tozalaydi va Temurning qizigan ko'zini yig'latib, bizda hech … ayb yo'q, chunki biz bor jiddu jahdimizni sarf qilib, ma'zur qoldi… Maxdumimiz (biz uchun) qasos oladi va izlarimizni barhayot qila… Izzatli, qudratli tangriga tayaninglar va ushbu yovuzlar bilan mu… qotga tayyorgarlik ko'ringlar. Jangovar safda ular bilan uchrashgan… ularga orqalaringni o'girib qochmanglar»[688].

Temurdosh o'zining bu qabih[689] fikrini noiblarga bezab ko'rsati… da davom etaverdiki, nihoyat uning fikriga hammalari qo'shili… Temurga qarshi chiqishga ittifoq bo'ldilar, chunki Temurdosh sha… sohibi bo'lib, (uning) kamoliga ishonch va e'timod bor edi. Temu…





…h bo'lsa xaloyiqqa xilof ravishda botinan Temur bilan ittifoqda … Bu uning odati bo'lib, tabiati firibgarlikdan iborat edi. U sanqib …gan sovliq (qo'y) misoli yoki buzuqi, badxulq xotinga o'xshardi. … qo'shin to'qnash kelgan vaqtda u o'z qo'rqoqligi va makri[690] sa… …i ulardan birortasida ham qaror topmay hali unisiga, hali bunisiga …h ketaverardi. Shu bilan birga u (hech bir) ma'nosiz surat va (hech …) mazmunsiz lafz edi.

Temur unga (Temurdoshga) tayanib barcha ishlarni topshirdi; …m askarlari va islom qo'shinlari ham shu tariqa ish tutdilar. Ke…lar shahar atrofiga istehkom qurdilar, darvozalarni kuzatdilar[691], …donlar-u ko'chalarni (to'siqlar bilan) to'sdilar; har bir guzar va …allani o'z egalari zimmasiga topshirdilar va Temur muloqotiga …para turgan darvozalarni, ya'ni Bob un-Nasr, Bob ul-Faraj va Bob …Qanotni ochiq qo'ydilar.

## Halabga kelganida Shom askarlari ustiga qilich va qalqonlardan Temur chaqnatgan yashin bayoni

So'ngra Temur otli-yu ulovlarini ko'chirib[692] yetti kunda Ayntob…dan Halabga yetib keldi. Bu lashkar (xamis)[693] bilan u rabiy ul-avval …ining to'qqizinchisining (1400-yil 28-oktyabr) payshanba kunida (Halabga) kelib joylashdi[694] va qo'shinidan ikki ming chog'lig'i ilga…ab oldinga yurdi. Ularga qarshi Shom sherlaridan uch yuz chog'li (kishi) ro'baru chiqdi. Temur askarlari ularni qilich bilan chopib, nay… bilan sanchdilar, ularni tariqdek tirqiratib, quvlab haydadilar va …chishga majbur etdilar. Keyin, juma kuni subhida Temur askari… …n besh mingga yaqin kishi jang maydoniga kirdi. Ularga qarshi bi…n-ketin va to'da-to'da bo'lib (shomlilardan) boshqa bir toifa chiq… Ular jangda bir-birlari bilan qo'shilib (aralashib) ketishdi va ikki …mon o'rtasida nayzalar barmoqlari bir-birlariga kirishib, bir-birlari bilan tiqilishdilar, to'qnashdilar, bir-birlariga to'siq bo'ldilar va ara…lashib ketdilar. Nayzalar qalamlari ko'kraklarga lavhalar chizar va o'tkir qilichlar o'sha qalamlar boshlarini kesishda to'xtovsiz dazom …ilar, o'qlar nishtarlari bo'lsa chinqonlar shishlarini yorar, yer esa (urushda o'ldirilganlar) tog'lari og'irligi ostida dod-voy qilib faryod

chekar ediki, nixoyat zimiston va chang-to'zon zulmati[695] yer yuzini qoplab oldi. Keyin har ikki tomon orqaga qaytdi – tangri o'zi xohlagan kishisiga g'alaba ato qildi[696]. Har ikki tomon – raqiblar qonlari ikki daryo bo'lib oqdi va islom askarlaridan (shomlilardan) faqat ikki kishi nobud bo'ldi.

Keyin shanba kuni (rabiy ul-avval oyining) o'n birinchisida (30-oktyabr) Shom qo'shinlari va islom sultoni askarlari mukammal asbob-anjom, mo'l-ko'l qurol-yarog', tamg'a bosilgan otlar, alifdek to'ppa-to'g'ri nayzalar, nishonli (tamg'ali) bayroqlar bilan tayyorlandi. Bu bahodirlarning tangri yordami-yu madadidan boshqa narsaga ehtiyojlari yo'q edi. Ular o'z maqsadlari tomon yo'l oldilar; uni qo'ltarib yo'lini to'smoqchi bo'ldilar. Barakatli baxt uning qushi, qazo uning yordamchisi, qadar uning madadkori bo'lib, xudo madadidan bahramand mazkur qo'shinlar tomon Temur askari keldi. Ularning (Temur askari) oldida fillar va urush amirlari (rojalari) kelardi.

Mana shunda Temur (shomlilarga) yashirin ravishda kulfat va hasrat keltirgan va o'z askarlarini tun og'usi ostida tayyorlagan edi. U ularni shomlilar ichiga tarqatib, ular ustlariga dushmanlarini yubordi. (Temur askarining) ilg'ori (shomlilarga) ro'baru bo'ldi va old askarlari bilan ularni mashg'ul (ovora) qilib turdi va qolganlari esa «ularning oldlaridan, orqalaridan, o'nglari-yu so'llaridan»[698] kelib o'rab oldilar. Go'yo ustara mo'y ustida yurgandek, Temur ularning ustida yurdi va chigirtkalar ko'k maysa ustida yelgandek yelib yugurdi. Bu to's-to'polon Haylon[699] qishlog'i yaqinida bo'lgan edi.

Qachonki odamlar ishi chalkashib, aralash-quralash bo'lgach, parokandaliklar paydo bo'lib, shiddatli ishlar voqe' bo'lgach, sherlar bir-biriga tashlanib, qo'chqorlar bir-biri bilan suzishgach, o'ng qanotdagi (lar)–ularning boshlig'i Temurdosh edi – qochdilar va (shomi) askari tor-mor etilib, aql-idrokidan judo bo'ldilar. Botirlar dahshatdan larzaga tushib, ularni hayrat va gangirash qamrab oldi va «o'sha damda bir on ham chidab tura olmadilar»[700] va orqa tomonga yuz o'girdilar. Temurning nayza qalamlari uchun ularning orqalari lavha bo'lib, uning askarlari oldiga tushib, sakrashib qochardilar.

Temur askarlari esa ularning orqasidan quyidagi men aytgan bayt ma'nosini o'zaro xitob qilardilar:





U guruh orqalarini jangda yuzlarga aylantirdik,  
Va u yuzlarga og'iz, ko'z va qosh chizdik[701].

Shomliklar ochiq darvozadan shaharga tashlandilar – ularning qay biri shikastlangan, qay biri majruh edi. Ularni qilichlar yorar, nayzalar sanchilar, qonlaridan ariqlar oqar, (ular) go'shtlari savatlari ustidan har bir yirtqich hayvon va kuzg'un o'tar edi. Shunday qilib, (shomliklar) shahar darvozasiga yetib keldilar va bir-birlarini bosib, xuddi bir tolidek to'da bo'lib o'zlarini darvoza ichkarisiga qarab urdilar va darvozaning yuqori to'sig'i yerga aylanmaguncha bir-birlarini oyoq osti qilib toptayverdilar. Natijada, hamma darvozalar o'liklar bilan to'lib qolib, kirish aslo mumkin bo'lmadi. Shunda (shomliklar) turli shaharlarga tarqab, cho'l-u biyobonu tog'larga qarab to'zib ketdilar. Ma'zini anglab bo'lmaydigan (gapga no'noq) qullar[702] Antioxiya darvozasini[703] sindirib, u orqali Shom yerlari tomon yo'l oldilar.

Shomliklardan (tirik) qolganlari g'oyatda xunuk (bir) ahvolda Damashqqa yetib kelib, bu jang kayfiyatida qabih bir siyrat hikoyat qildilar.

Noiblar Halab qal'asiga ko'tarilib, u yerda qo'rg'onlanib turdilar va shunchalik kengligiga qaramasdan yer ularga tor bo'lib qoldi»[704]. So'ngra ular Temurdoshni vosita qilib, Temurdan omonlik tilab pastga tushdilar – ularning har biri hayotdan umidini uzgan edi – Temur esa o'z odaticha, xotirjamlik va o'ziga xos viqor-u vazminlik bilan yurib Halabga kirdi va unda xohlaganiga erishdi; tirik jonlaru o'ljaga yetishdi.

Noiblar qal'adan (tushib) huzuriga kelganlarida Temur Saydi Sudun va Shayx Ali al-Xosakiyni tutib oldi; Temurdoshga esa xil'at kiygizdi. Safad noibi Altunbug'a Usmoniyni va G'azza noibi Umar ibn at-Tahhonni tutib olib, ularning hammasini zanjirga kishanladi[705]. Keyin u mol-dunyoni egallashga, javohirlar va turli tuman o'ljalarni zabt qilishga kirishdi. Uning haybati vahimasi (odamlar) qalblarini qamrab, savlati uchqunlari har tarafga tarqaldi.

So'ngra Temur shunchalik nafslarni halok qilgani bilan kifoyalanib qolmasdan, xatto kallalardan mezanalar bunyod qildi. Bunga mana bu voqea sabab bo'lgan eda: Shom noibi Temur Halabga yubor-

gan xabarchining boshini kesib[706], bor-yo‘g‘ini shilib olgan edi; uning bir qarindoshi bo‘lgan voqeani Temurga so‘zlab, o‘sha urug‘i uchun Halab ahlidan xun olishni iroda etdi. Temur uning so‘raganiga rozi bo‘lib, unga Halab ahlidan xohlaganiga nisbatan o‘z ma’qul topgan ishini qilish ixtiyorini berdi. Natijada (xabarchining qarindoshlari) shahar ahlidan bir toifasini o‘ldirib, ular boshlaridan «shunday» va «shunday» mezana bunyod etdilar.

### Ibn ash-Shihna[707] tarixidan[708] bu kulfat xususida men naql qilgan qo‘shimcha izoh

U dedi: – Hofiz al-Xorazmiy «devonga yozilgan Temur askarlari sakkiz yuz ming kishi edi», – deb menga xabar berdi: yana unda (bildimki), Temur musulmonlar qal’asiga[709] qasd qilgan; bu qal’aning noibi an-Nosiriy Muhammad ibn Muso ibn Shahriy bo‘lib, u Temurga (qarshi) isyon bildirib, g‘oratlar (qilish) uchun uning (askari) ustiga (hujumga) chiqib turar edi.

Keyin Ibn ash-Shihna dedi, mana uning aytganlari so‘zma so‘z: «Temurlang Bahasna[710] yaqinida turgan vaqtida an-Nosiriy uning jamoalariga va ilg‘or qo‘shinlariga bir qancha tashvishlar keltirdi. U ulardan bir jamoani o‘ldirib, boshlarini Halabga yubordi va o‘zi-ga qarshi Temur yuborgan bir tuman[711] qo‘shinni g‘oyat ayanchli holatda mag‘lub etdiki, hatto ushbu jamoadan aksar qismi o‘zlarini o‘zlari Firot (daryosi) ga tashladilar. Shunda Temurlang zikr qilingan (an-Nosiriy) ga ushbu mazmunda maktub jo‘natdi, mana uning matni: «Men (dunyoning) eng uzoq yeri Samarqanddan chiqdim. Mening oldimda hech bir kimsa bardosh bera olmagan va boshqa yerlar podshohlari (mening) huzurimga kelganlar. Sen bo‘lsang mening jamoalarimga qarshi to‘dalar yubordingki, ular mening odamlarimga tashvish solib, qo‘llariga tushgan har kimsani o‘ldiryaptilar. Endi bo‘lsa biz (o‘z) askarlarimiz bilan ustingga yurdik: agar sen o‘z joning va raiyalaringga shafqat qilib, bundan ortiq bo‘lmaydigan darajada rahm-shafqatni ko‘ray desang (bizning) huzurimizga kel. Aksincha, biz (sening) ustingga tushib, shahringni xarob etamiz. Darhaqiqat, Tangri taolo: – «Podshohlar har qanday qishloqqa kirganlarida uni vay-





ron qilganlar va uning ahlidan azizlarni xor qilganlar va (keyin ham) ular shunday qilaveradilar»,[712] – degan. Agar sen huzurimga kelishdan bosh tortsang, o‘zingni o‘rab kelayotgan (askarlarim)ga yarasha hozirla ko‘r».

Shunda zikr qilingan an-Nosiriy Temur elchisini tutib olib, uni zindonga soldi va Temur so‘zlariga[713] e’tibor ham qilmadi. Natijada, Temur askarlarining oldingilari unga tomon yurdi. An-Nosiriy ularga qarshi urushib, ularni tor-mor qildi. Ikkinchi kun Temur hozir bo‘lib, Musulmonlar qal’asi tomon tashlandi. Zikr qilingan an-Nosiriy unga qarshi chiqib, nihoyat darajada shiddatli urush qildi. Bu yerda ham azim jang bo‘ldi. Temurlang jangda an-Nosiriyning shiddati qat’iyligini ko‘rib, u bilan muhoraba (qilish)dan qaytdi va unga hiyla ishlatib, lutf bilan muomala qilishga tutindi. Temur an-Nosiriydan sulh so‘rab, hurmati uchun o‘ziga bir ot va bir qadar mol-dunyo yuborishini so‘radi. Lekin an-Nosiriy (hiyla-nayrangga) aldanmadi. Shunda Temur yana o‘zini past tutib, undan so‘raganlarining bir qismini[714] (yuborishni) so‘radi. Lekin an-Nosiriy shuni ham bermagach, Temur hech narsasiz (quruq o‘zi) qaytib ketdi; ishora qilingan an-Nosiriy Temur lashkari keyingilarini qatl, g‘orat va asoratga mahkum etdi. Bu ishlar jarayonida (uni) qal’asining darvozasi ochiq bo‘lib, uni bir kun ham yopmagan edi. An-Nosiriyning holi tili u haqida ushbu (bayt) ni nashida etardi:

> Bu maqtovlari yarashadigan amirdir,
> jang maydonining sheri va butun dunyoning faxri,
> Temurlang (askari) oldingilari undan bir necha bor
> engilib qochgan va orqadagilari dahshatga qolgan.

Mana shunday baxt-u saodat boshqa podshohlardan va qo‘rg‘onlar sohiblaridan o‘laroq farq qilib, zikr qilingan (amir) ga nasib bo‘lishi unda din va diyonat, (tangriga) ixlos va saqlanish mavjudligi va uning toza-pokiza Umar (Ibn Hattob) sulolasiga – Tangri ulardan rozi bo‘lsin – mansub ekanligi (sababi) dan edi.

Qachonki rabiy-ul-avvalning to‘qqizinchisi (28-oktyabr) payshanba kuni bo‘lgach, Temurlang Halab jangini boshladi. Qilichdor oliy

hazratlari[715] Temurdosh shahar noibi edi. Shom mamlakati askari Damashq askari o'z noibi Saydi Sudun bilan, Tarobulis askari noibi qilichdor oliy hazratlari Shayx al-Xossakiy bilan, Hamo askari o'z noibi qilichdor oliy hazratlari Duqmoq bilan, Safad va boshqa (shahar) larning askarlari ham uning huzuriga kelgan edilar. So'ng amirlar fikrlarida ixtilof chiqdi. Ulardan qay biri: «shaharning ichkarisiga kirib devorlar ustidan urush qilinglar» desa, boshqasi «chodirlar bilan shahar tashqarisiga chiqib (u yerda) dushmanni qarshi olinglar»[716], dedilar. Qachonki qilichdor oliy hazratlari (Temurdan) ularning (o'zaro) ixtilofini ko'rgach, Halab ahliga shaharni xoli qilib, istagan tomonlariga yuzlanishlariga izn berdi. Bu qanday ajoyib fikr (bo'lgan) edi. Lekin amirlar bunga muvofiq bo'lmadilar va dushmanni qarshi olish uchun shahar tashqarisiga chiqib (o'z) chodirlarini tikdilar. Shunda Temurlangdan chopar keldi. Damashq noibi (Saydi Sudun) so'zini ham eshitmasdan oldin uni qatl etdi. Juma kuni tomonlar o'rtasida yengil-elpi to'qnashuv bo'ldi. Qachonki rabiy-ul-avval oyining o'n birinchisi (30-oktyabr), shanba kuni kelgach, Temurlang o'z askari va fillari[717] bilan hujumga o'tdi. Musulmonlar shahar tomon (orqaga) o'girildilar va darvozalarga kelib tiqilib qoldilar, natijada ulardan ko'p xalq o'ldi. Dushman esa ular orqasidan kelib, (ularni) qatl etib, asir olardi. Temurlang Halabni zo'rlik bilan qilich yordamida oldi. Mamlakat noiblari va odamlar xoslari qal'aga ko'tarildilar. Halab aholisi o'z mol-mulklarining aksarini unga qo'ygan edilar. Rabiy-ul – avval oyining o'n to'qqizinchisi, seshanba kunida (7-noyabr) Temurlang qal'ani omonlik (va'da qilib) hamda iymonsiz qasamlar vositasi bilan oldi. Ikkinchi kuni Temur qal'aga ko'tarildi va kunning oxirida shahar olimlari va qozilarini huzuriga talab qildi. Shunda biz uning huzuriga keldik va birmuncha vaqt (tik) turg'azgandan keyin u bizga o'tirishni amr qildi va o'zi bilan birga bo'lgan ilm ahllarini keltirib, ularning amiriga – u, otasi Samarqandning mashhur olimlaridan bo'lgan alloma Nu'monuddin al-Hanafiyning o'g'li mavlono Abduljabbor edi – dedi: ularga aytgin, men (ulardan) Samarqand, Buxoro, Hirot va o'zim fath qilgan (boshqa) mamlakatlar olimlaridan so'ragan bir masala haqidagi savolimni so'rayman. Lekin u olimlar (bu savol-





...javob bera olmadilar. Sizlar ham o'shalar misoli bo'lmangiz ... sizlardan eng bilimdoningiz va eng fozilingiz menga javob ... Lekin nima deb gapirishini bilib gapirsin. Men olimlar bilan ... suhbatda bo'lib, ular ishidan g'oyatda xabardorman, ular bilan ...chiligim ko'p bo'lgan. Men azaldan ilm shaydosiman!»

Temurlangning olimlarga chalkash savollar berib, ularning xato kamchiligini izlashi va shuni ularning qatl va azob-uqubatga giriftor qilish uchun sabab qilishi bizga (avvaldan kelib) yetgan edi.

So'ngra qozi Sharofuddin Muso al-Ansoriy ash-Shof'iy mening ...imda:

«Bu bizning shayximiz, shu mamlakatlar mudarrisi va muftiysi. Savollaringizni undan so'rangizlar, «tangri o'zi madadkor»[719], dedi.

Keyin Abduljabbor menga dedi: – «Sultonimiz aytadilarki, kecha (jangda) biz tomondan ham, siz tomondan ham o'lganlar bo'ldi. Ulardan qay birlari shahiddirlar? Bizning o'liklarimizmi yoki sizni...mi?» Hamma jim bo'lib qoldi. (Shu payt) biz Temurning olimlarga (chalkash) savollar berib, ularning xato va kamchiligini qidirishi haqida biz avval eshitgan xabar shu bo'lsa kerak, deb o'zimizcha o'yladik[720]. Hech kimdan biron sas chiqmasdi. (Shu damda) tangri menga tez va badoatli bir javob bilan ilhom berdiki men:

– «Bu savol (bizning) sayyidimiz tangrining rasulidan – Xudoning rahmati va salomi unga bo'lsin – ham so'ralgan va u kishi bu savolga javob berganlar. Sayyidimiz, tangrining rasuli – xudoning rahmati va salomi unga bo'lsin – qanday javob qilgan bo'lsalar men ham shu zaylda javob beraman», – dedim. Bu hodisa (savol-javob) tugagandan keyin do'stim qozi Sharofuddin Muso al-Ansoriy menga aytdi: – «Ulug' Tangri nomi bilan qasam ichamanki, qachonki sen – bu savol Tangrining rasulidan – Allohning rahmati va salomi unga bo'lsin – ham so'ralgan edi va u bunga javob bergan, – deganingda, men zamonamning hadis olimi bu olimimiz aqlini yeb qo'ydi va u (endi) ma'zurdir, – deb o'yladim[721]. Axir, bu savolga bunaqa joyda javob berish aslo mumkin emas-ku!» Abduljabborning ham dilidan shunga o'xshash bir narsa o'tgan (ekan).

Temurlang bo'lsa o'z nazari-yu qulog'ini menga qaratib, mening

so'zlarimni masxara qilgan holda Abduljabborga dedi:

– «Tangrining rasuli – xudoning rahmati va salomi unga bo'lsin – bu to'g'risida qay tariqa so'ralganlar va qanday javob qilganlar? Men dedim: – «Tangrining rasuli – xudoning rahmati va salomi unga bo'lsin – huzurlariga bir sahroyi arab kelib dedi:

– Yo Rasululloh! Bir kishi o'z sharafi uchun urush qiladi, boshqa bir kishi shijoat ko'rsatish uchun urush qiladi, yana biri esa o'z qudratini ko'rsatish uchun urush qiladi. Shulardan qaysi birimiz xudo yo'lida shahidmiz? Shunda tangrining rasuli – xudoning rahmati va salomi unga bo'lsin – dedi: – Kimki tangrining so'zi hamma narsadan ustun bo'lishi uchun kurashsa – ana o'sha shahid hisoblanadi», – dedilar. Temurlang: «xub, xub»[722], dedi. Abduljabbor bo'lsa: «Sen aytgan (javob) qanday ajoyib (javob) bo'ldi!» – deb xitob qildi. Shundan keyin samimiy suhbat eshiklari (lang) ochilib ketdi va Temur: – «Men yarim (jon) odamman va falon va fulon mamlakatlarni egalladim», – dedi va Ajam, Iroq, Hind mamlakatlarini va boshqa totor shaharlarini birin-birin sanab chiqdi. Men unga: «Bu ne'matlar evaziga shukr tariqasida mening ummatimni afv eting va bundan keyin hech kimni o'ldirmang», – dedim.

– «Xudo haqi, – dedi Temur;–men qasddan bir kishini ham o'ldirmayman. Bu, sizlar, o'zlaringiz o'zlaringizni shahar darvozalarida (qisib) o'ldirdingizlar. Xudo haqi, men sizlardan bir kishini ham o'ldirmayman; siz o'z hayotingiz va mol-dunyoingiz uchun xotirjam bo'laveringizlar», – dedi. Shu tariqa Temur tomonidan savollar va biz tomondan javoblar (bir necha bor) takrorlandi. Bu majlisda hozir bo'lgan faqihlarning har biri o'zini ko'rsatishga intilar va (o'zini) go'yo madrasada (o'tirgan) his qilib javob berishga shoshilar edi. Qozi Sharofuddin esa ularning hovurini pasaytirib: «Xudo haqi, jim bo'linglar! Faqat mana bu odam javob bersin, chunki u nima deb gapirishini biladi», – deb aytardi. Temur so'ragan oxirgi savol shu bo'ldi: – Ali, Muoviya[723] va Yazid[724] xususida sizlar nima deysizlar?

Shunda yonimda o'tirgan qozi Sharofuddin menga shivirlab[725]:

– «Sen unga nima deb javob berishingni bilib gapir, axir u shiya (maslagidan), – dedi. Men Sharofuddinning so'zini eshitib bo'lmasimdanoq, qozi Alamuddin al-Qafasiy al-Molikiy bir gap aytdiki, uning ma'nosi shunday edi: – ular hammasi mujtahidlar[726]: bundan





Temurning g'oyatda g'azabi kelib:

– Ali haqiqatda shunday (mujtahid), Muoviya – zolim, Yazid (esa) fosiqdir. Siz halabliklar ham Damashq ahliga izdoshsizlar, ular (damashqliklar) bo'lsa Yazid tarafdorlari bo'lib, Husaynni[727] qatl etganlar, – deb xitob qildi.

Men Temurga lutf bilan murojaat etib, al-Qafasiy bergan javobini qandaydir bir kitobda ko'rganligini va ma'nosini (yaxshi) uqmaganligini aytib, uning uchun uzr so'rashga kirishdim. Temurning biroz chehrasi ochildi-yu, lekin kayfiyati avvalgi holatiga qaytmadi. Abduljabbor bo'lsa mendan va qozi Sharofuddindan[728] so'rab mening haqimda: «Bu juda ajoyib olim», Sharofuddin to'g'risida esa: – «Bu aqlli kishi», – dedi. Keyin Temurlang mendan yoshimni so'radi: – «Tug'ilgan yilim[729] (1348) yil bo'lib, hozir ellik to'rt yoshga yetdim», – dedim. So'ngra u qozi Sharofuddinga: – «Sening yoshing nechada?» – dedi. – «Men undan bir yosh kattaman», – dedi Sharofuddin. Shunda Temurlang: – «Yosh jihatidan sizlar mening bolalarimsizlar. Mening yoshim hozir yetmish beshga[729] yetdi», – dedi.

So'ngra salotul – mag'rib (shom namozi) vaqti kelib, namozga (turishga) chaqirildi. Abduljabbor bizga imom o'tdi. Temurlang mening yonimda tik turgan holatda ruk'u va sajdani ado etdi: Keyin biz ajralishdik. Ikkinchi kuni Temurlang qal'ada bo'lganlarning hammasini xiyonatkorona aldadi va u yerda bor bo'lgan hisob-kitobi yo'q jamiyki molu-dunyolarni, qimmatbaho gazlamalar va matolarni egallab oldi. Temur kotiblaridan birining menga bergan xabariga ko'ra, u (Temur) bu qal'adan olganchalik (boylik)ni hech bir shaharda olmagan. Musulmonlarning ko'pchiligi turli-tuman azob-uqubatlarga duchor qilindi, ba'zilar kishanlandi, ba'zilarga zanjir solindi, ba'zilar zindonga tashlandi, boshqalari nazorat ostiga olindi.

Temurlang qal'adan (pastga) tushib, noiblik uyida istiqomat qildi. U mo'g'ul tartibida bir valiymat (ziyofat) uyushtirdiki, butun podshohlaru noiblar[730] uning xizmatida (oyoqda) turdilar. Ziyoratdagilar ustiga hamr qadahlari aylantirildi. Musulmonlar azob-uqubatda bo'lib ular talovda, qatlda va asoratda edilar; ularning jome'lari, madrasalari va uylari esa vayronlikda, yong'inda, xarobalik va buzilishda qol-

di. Mana shu ahvol rabiy-ul – avval oyining oxirigacha (18-noyabr) davom etdi. Kenin Temurlang meni va hamrohim qozi Sharofuddin chaqirtirib, Ali va Muoviya haqidagi savolini qaytardi. Men unga: «Hech shak-shubhasiz haqiqat Ali tomonida bo‘lgandi. Muoviya esa xalifalardan emas. Chunki tangrining rasuli – xudoning rahmati va salomi unga bo‘lsin – tomonidan «Mendan keyin xalifalik o‘ttiz yildir» degan aniq hadis sodir bo‘lgan. Bu (muddat) Ali zamonida tamom bo‘lgan edi», – dedim.

– «Haqiqat Ali tomonida, Muoviya zolim, deb aytgin», – dedi Temurlang.

«Hidoya»ning sohibi[731] (xalqqa) jabr qiluvchi voliylardan qozilikni qabul etish joizdir» – degan. Darhaqiqat, garchi o‘sha paytda haqiqat Ali tomonda bo‘lsa ham, sahoba va tobe’inlarning[732] ko‘pchiligi qozilikni Muoviyadan qabul etishgan», – dedim.

Bu so‘zlardan Temur shodlandi va Halabda istiqomat qilish uchun tayinlagan amirlarini chaqirib, ularga:

– «Bu ikki odam Halabda sizlarning mehmoningizdir. Ularga, ularning xizmatkorlari, do‘stlari va ularga qo‘shilgan kishilarga yaxshi muomala qiling. Hech biror kishini ularga aziyat berishiga yo‘l qo‘ymang, ular uchun yegulik oziq-ovqat ajrating va ularni qal’ada qoldira ko‘rmang, balki ularning yashash joyi qilib madrasani, ya’ni qal’a ro‘parasidagi Sultoniya (madrasasi) ni belgilang, – dedi. Amirlar Temurlang qanday buyurgan bo‘lsa (ana) shunday ado qildilar, faqat bizni qal’adan pastga tushirmadilar. Ularning (amirlarning) ichidan Halab voliyligi hukmini egallagani – u amir Muso ibn Hoji Tog‘ay deb atalardi – bizlarga: – «Men sizlar haqingizda xavotirdaman. Temurlang gapidan[733] fahmlaganim shuki, agar u biron noxush ish (bo‘lishi) ni buyursa, bu narsa nihoyatda tez sur’atda qilinib, hech bir yon berishsiz ado etiladi; agar u biron xayr ishga buyursa, bunda amr yuritish uning tayinlagan kishisi ixtiyorida bo‘ladi», – dedi.

Rabiy-ul-oxir oyining birinchi (19-noyabr) kunida Damashq tomoniga ravona bo‘lib, Temurlang shahar tashqarisiga chiqdi. Ikkinchi kuni esa shahar olimlariga elchi yuborib, ularni (o‘z huzuriga) chaqirdi. Biz uning huzuriga bordik, musulmonlar esa «iztirobli holatda»[734]





...keltirilishda edi. Nima xabar? – deb so‘radik.

Temurlang egallagan boshqa shaharlarda (doimo) o‘z odati bo‘yicha qilganidek, u o‘z askaridan musulmonlar boshlarini talab qilyapti, – deb (bizga) javob berdilar. Qachopki biz Temur huzuriga yetib kelganimizda, uning olimlaridan Mavlono Umar degan bir kishi oldimizga keldi. Biz undan nima maqsadda chaqirilganimizni so‘radik. U: – «Temurlang o‘z elchisini o‘ldirgan Damashq noibini qatl qilish uchun sizlardan fatvo olmoqchi», – dedi Men: – Mana bu musulmonlarning boshlari-chi? – Ularni hech bir fatvosiz kesadilar va Temur huzuriga keltiradilar. Holbuki u (Temur) bizga qasddan[735] odamlarimizni ham o‘ldirmaslikka qasam ichgan, – dedim. U bizga: – Shoshilmay turinglar[736], – dedi-da, Temurning yoniga qaytib bordi, biz esa uni (Temurni) ko‘rib turardik. Uning oldida laganda (tovoqda) qaynatilgan go‘sht bo‘lib, Temur undan yeyar edi. U (olim) bilan Temurlang bir oz gaplashgandan keyin boshqa bir odam (o‘sha) go‘shtdan bir oz bizga ham keltirdi. Biz (bu) go‘shtni yeb tugatmasdanoq birdan qattiq shovqin ko‘tarildi. Temurlang baland ovoz bilan ...dir deb baqirar, odamlarning birini u yoqqa, birini bu yoqqa chopardi. Bizning oldimizga bir amir kelib uzr aytib: – «Sultonimiz musulmonlar boshlarini keltirishni amr qilmaganlar, vaholanki o‘z odatiga ko‘ra hurmati uchun (urushda) o‘lganlarning boshlarini kesib olib, ulardan bir qubba yasashga buyurgan. Lekin odamlari uning so‘zini ...iroda etgandek tushunmaganlar. Haqiqatda u sizlarga erkinlik ato qilgan, istagan tomoningizga boraveringlar», – dedi. Temurlang o‘sha ...xrotiyoq otlanib Damashqqa qarab ravona bo‘ldi. Biz qal’aga qaytdik va o‘sha yerda istiqomat qilishni afzal ko‘rdik. Amir Muso-Alloh unga ehson yog‘dursun – bizga yaxshilik ko‘rsatib shafoatimizni qabul etdi va o‘zi Halabda va qal’ada istiqomat qilib turgan paytida ahvolimizdan (doimo) xabardor bo‘lib turdi. Shu paytda bizga kelgan bir xabarda musulmonlar sultoni Malik Nosir Farajning Damashqqa kelib, Temurlangni tor-mor qildi deyilsa, yana bir xabarda esa buning aksini eshitardik. Oxiri masala ravshanlashib, Temurlang bilan shiddatli urush qilganidan keyin sultonning Misrga yo‘l olganligi aniq bo‘ldi. Temurlang sultondan mag‘lub bo‘lib, qochishiga oz qolganda, sulton amirlaridan biridan xiyonat sodir bo‘lgan va shu narsa sulton-

ning Misrga yo'l olishiga va ehtiyotkorlik bilan ish ko'rishiga ... bo'lgan. Temurlang Damashqqa kirib shaharni talab, unga o't ... yubordi va u bu shaharda Halabda qilganidan ko'ra ham ortiqroq ... lar) qildi. U Tarobulisga kirmadi, balki u yerdan Temurga mol ... olib keldilar. Temurlang Falastinga ham o'tmadi va Halabga ... burilib, o'z yerlarini qo'msab orqasiga qaytdi.

Mazkur yil sha'bon oyining o'n yettinchisi (1401-yil 2-aprel) ... da Temurlang Shomdan qaytayotib Halab sharqidagi Jabbulga[737] ... keldi va Halabga kirmadi, shaharda istiqomat qilib turgan o'z odamla... ga uni (Halabni) xarob etishni va shaharga o't qo'yishni buyurdiki, ... shunday qildilar. Ammo Izzuddin – u Temurlangning ulug' amirla... biri edi – meni chaqirib shunday dedi: – «Seni va sen bilan birga bo'l... kishilarni ozod qilish haqida amirdan farmon bo'ldi. Istagan kishi... talab qil va ularning (sonini) ko'paytir. Men esa sizlar bilan Mash... al-Husaynga[738] borib, huzuringizda turaman, (chunki) hattoki (bu yer... bizning askarimizdan (ham) hech bir kishi qolmaydi».

Qozi Sharofuddin mendan sira ajralmas edi. Biz (u bilan bir...) qolgan qozilarni chaqirib to'pladik va atrofimizga ikki ming chog'li musulmon yig'ildi. Shundan keyin biz zikr qilingan amir (Izzuddin) hamrohligida Mashhad al-Husaynga yo'l oldik va shu payt shaharning har tarafida lovullab yonayotgan olovni kuzatdik. Uch kundan keyin Halabda biron kishi ham qolmadi.– Biz shaharga tushib birorta ham odamni uchratmadik. Bu ahvol g'oyatda vahshiyona tuyuldi, shahar... dagi sassiq hid va vahshatdan u yerda ortiqcha tura olmadik va shular tufayli uning ko'chalarida yurishga ham toqat qilolmadik. She'r:

> Go'yo Hajun[739] bilan Safo[740] orasida
> bir suhbatdosh bo'lmadi va Makkada
> kechasi suhbat quruvchi (kishi) ham bo'lmadi[741].

Shom shaharlari noiblari Temur huzurida asoratda edilar, lekin ular birin-ketin qutulib ketdilar. Saydi Sudun oshqozon kasalidan Yalbug'a qubbasida[742] Temur huzurida vafot etdi va Tangri Berdi Damashq noibligida qaror topdi. Bu yog'ini yana xudo biladi.

Mana shu (bayon) ni men Ibn ash-Shihna asarida qanday uchrat... gan bo'lsam, shundayligicha naql qildim.





## ...tashvishli xabarning yetishi va Asanbug'o[743] Davodor[744] va Abdul Qassorning[745] Jilliqga[746] kelishi bayoni

Keyin Halabdan (Damashqqa) Asanbug'o davodor va Abdul ...[747] deb ataladigan Fatx[748] al-Mohir kelib shunday dedilar: ... musulmonlar jamoasi! Toqat qilib bo'lmaydigan (narsa) dan ... payg'ambarlar sunnatlaridandir. Kimning bironta ulovga ... yetsa, o'ziga najot yo'lini izlasin, kimni o'z etagini shimar... kuchi yetsa, bir kecha ham Damashqda tunamasin va o'zi ...nlik qilib o'zini-o'zi g'alat yo'lga solmasin. Chunki (birov ...) xabar (o'z) ko'zi bilan ko'rgandek bo'lmaydi»[749]. Shun... odamlarning fikrlari tarqalib, (ular) rag'batlarida ixtilof chiqdi; ... ishlari mavjlanib to'lqinlandi va odatlariga ko'ra guruh-guruh ... bo'linib ketdilar. Qaybirlari nasihatga quloq tutdilar va hojat... hozirlab (Damashqdan) uzoqlashdilar; ba'zi birovlari kibrlik ...ratib, o'jarlik bilan (shaharda) turaverdilar hamda Asanbug'o ... Abdul Qassorga qarab oziq tishlarini qayrab irilladilar. Bu ikki ...ihoh kishini tashlab, ularga o'lim qadahini ichirmoqchi bo'ldi... va aytdilarki:

– «Siz bu xabaringiz bilan odamlarni har tarafga sochib, ularni ...ashni, o'z vatanlaridan quvlab bevatan bo'lishlarini xohlaysiz. (Siz) ular so'zlarida ixtilof chiqarib, terisini parcha-parcha qilishni ...aysiz. Agar shunday bo'lmasa unda omonlik hosil(dir) va xudoga shukurki, sulton[750] yetib kelayotir. Halabda to'plangan noiblar ko'p ...dilar va ular Temurga nisbatan hiyla va (munosib) fikr ishlata ...madilar, aksincha, noiblardan ba'zilarida shubhalanish (alomat...lari) hosil bo'lib, boshqalaridan (etarli) madad va samimiy ham...korlik bo'lmadi. Ularda bosh(liq) yo'q edi. Bu masalada qiyoslash (mulohazalari) ni aslo ishlatmang. Ammo Misr askarlari esa, ularning ...adlari to'liq, qurol-yarog'lari mukammal[751] bo'lib, ular (timsoli) ... musulmonlar uchun shiddatdan keyin osoyishtalik mavjuddir». Asanbug'o va Abdul Qassor bunga) shunday dedilar: – «Avvalgi ikki ...ng va (bu) bir jangdan keyin biz Temur balosidan salomat qoldik va ...biz faqat o'zimiz bilgan narsamizgagina guvohlik berdik»[752]. Bizdan har birimiz o'z ijtihodi olib borib yetkazgan (narsa) haqida aniq va

ravshan bayon aytyapti. Azbaroyi xudo, bizning har birimiz mu- monlar uchun qiladigan ushbu nasihatida (qo'rqinchli) xabar ber- chi bilimdon[753] (kishi) dir. Agar siz omadli kishilar bo'lay desang- (biz) sizlarga (xolis) nasihat qildik, «lekin siz nasihatgo'ylarni sev- ko'rmaysiz»[754].

Odamlar ishi ixtilof va parokandalik, to's-to'polon va tartibsizlik da davom etdi. Keyin ba'zilar muqaddas joylarga tomon, qaybirlar esa Misr diyoriga qarab yo'l oldilar; boshqa birovlar manoatli baland qoyalar etaklariga yopishdilar, qaybirlari esa olis va noma'lum joylar- ni qo'rg'on tutdilar.

### Sulton Malik an-Nosirning islom qo'shin va askarlari bilan Qohiradan chiqishi bayoni

Keyin Sulton hech bir paysalga solmasdan (Qohiradan) chiqib, to'la-to'kis tayyorgarlik va askarlar bilan Shom yerlari tomon ravona bo'ldi. Qachonki bu xabar odamlar qulog'iga yetgach, ularning hay- joni taskin topib, qo'rquvlari yo'qoldi. Ulardan (o'z diyorlaridan) kelib qolganlarning ko'pchiligi orqalariga qaytdilar; ularning g'am-g'us- sasi va ziqliklari tarqadi. Ammo aql-idrokli (kishi)lar, to'g'ri fikr va mulohaza ahllari esa sultonning bu kelishiga (ham) e'tibor qilmadilar, o'zlariga omonlik izlab, zamon hodisalaridan nimalar yuz berishiga muntazir bo'ldilar. Go'yo gir aylanayotgan zamon barmoqlari ularga deb qalb ko'zgusiga mana shu shoir nashida etgan baytni yozardi.

Ey kunlar – bir otaning bolasidirlar,
bu kechalar esa tug'ishgan opa-singillar.
Kun va kechadan yillar o'zi bilan birga
olib kelgan narsadan boshqa narsani talab qilmang.

Men dedim, she'r:

Agar kelgusi zamonda bo'ladigan (narsa) qorong'i bo'lsa,
(unda) o'tgan zamonda bo'lgan (narsa)ga qarab, qiyos qilaver.





### Bo'lim

Qachonki Temur Halab ishini nihoyasiga yetkazib hamda undan ol- gan yuklarni zabt qilib yig'ishtirib, o'zi egallagan mol-dunyo o'ljalarni ... qo'ygan, bularning hammasiga azmu qarori kuchli, fikr-iro- dasi qat'iy bo'lgan o'z amirlaridan biri, shijoat va qudrat sohibi amir ... ibn Hoji Tog'ayni (o'zi tomonidan) vakil qilib qo'ydi va ushbu ... toshgan dengiz bilan rabiy ul-oxir oyining avvalida (19-noyabr) Hamoga qarab jo'nadi[755]. Keyin u Hamoga kelib, qo'li yetganicha (uni) ... va nahbu g'orat qilib asir olish va o'z yurishini tezlatish to'g'risi- da (unchalik) qayg'urmadi. Aksincha, asta-sekin yurib hiyla-nayrang qilar, uning dushmanlari ham hiyla-nayrang tuzardilar.

### Hikoya

Qachonki men 889-yil rabiy ul-avval oyining boshlarida (1435-yil 16-sentyabr) Rum yerlariga yo'l olib, Hamoga yetganimizda, uning sharq tarafdagi jomei Nuriyning qibla (tomoni) devorida bir (parcha) marmar toshda forscha yozilgan bir naqshni ko'rdim. Mana uning tar- jimasi: «Ushbu satrlarning suratga solinish sababi (shunday): Bu shu- ki, tangri taolo bizga mamlakatlarni[756] fath qilishni muyassar ko'rdiki, hatto biz Iroq va Bag'dodgacha (hamma) yerlarni batamom egalladik. (Shu bilan) biz Misr sultoniga qo'shni bo'ldik va unga maktub yoz- dik hamda turli-tuman tuhfa-yu hadyalar bilan upga choparlarimizni yubordik. U bo'lsa hech bir zaruratsiz choparlarimizni o'ldirdi. Bun- dan maqsadimiz – ikki tomon orasida do'stlik (ipi)ni bog'lash, ikki taraf o'rtasida sadoqat (borligi)ni ta'kidlash edi. So'ngra, bundan bir oz (muddat) keyin ba'zi turkmonlar bizning tomonimizdagi kishilar- dan ayrimlarini tutib olib, ularni Misr sultoni Barquqqa yubordilar. Sulton ularni zindonga solib jabrladi. Mana shunga binoan muxo- liflarimiz changalidan o'z fuqarolarimizni xalos qilish maqsadida biz yo'lga chiqdik. Shu sababli bizning Hamoda manzil tutishimiz 803- yil rabiy ul-oxir oyining yigirmalariga (1400-yil 8-dekabr) to'g'ri kel- di»[757].

## Bo‘lim

Keyin Temur Xomsga[758] keldi, lekin u bu (shahar) da to‘s-to‘p lon qilmay, uni sayidim Xolid ibn Valid[759] – xudo undan rozi bo‘lsin – (arvohi) ga bag‘ishladi. Men badohan dedim, she’r:

> Ey birodarginam! Yaxshilardan boshhaga qo‘shni bo‘lma,
> (shuningdek) qabrda ham ularga qo‘shni bo‘l.
> Xoms va uning aholisini ko‘rmaysanmi?
> Temur bolalari dengizidan najot topdilar,
> chunki ular Xolidning qo‘shnisi edilar.
> Kimki taqvodorlarga qo‘shni bo‘lsa,
> ular halok bo‘lmaydilar.

Umar ibn ar-Ravos ismli (Xoms) oddiy kishilaridan biri Temurga peshvoz chiqib, uning qalbini o‘ziga rom qildi – go‘yoki u Temurga faxrli sovg‘alar taqdim qilgan, Temur Umarga shahar ishlarini topshirdi va unga tayanib, e’timod qildi. Bu mamlakat qoziligiga Shamsuddin ibn al-Haddod deb ataluvchi raisni tayinladi va uzoq yaqindagilarga omonlik bilan nido qildi. Tinchlik foydasini hosil etish da shahar ahli bir-birlari bilan talashmadi va oldi-sotdi ular orasida davom etaverdi.

Keyin Shom noibi (Saydi Sudun) betob bo‘lib, Temur huzurida Yalbug‘a qubbasida vafot etdi[760]. Tarobulis noibi bo‘lsa o‘zi uchun najot izlab Temurdan qochdi. Keyin u o‘z shahriga kelib, (o‘z) viloyatida qaror topdi[761]. Temur g‘azablanib, kuyib-yondi, alangalanib tutoqdi va uning qahri jazirasi lovullab o‘t olib ketdi. U Tarobulis noibining muhofazasiga tayinlagan kishilarning hammasini o‘ldirib, ular uchun jahannam o‘tini yoqdi ular (qo‘riqlovchilar) o‘n olti kishi edi. Ammo Temurdosh bo‘lsa, Temurga pand berib, aldadi va Qorada[762] (uning huzuridan) qochib ketdi. Safad noibi Alouddin Altunbug‘o Usmoniy va G‘azza noibi Zaynuddin va ulardan boshqalar Temur huzurida kishanda davom qildilar. Keyin u yo‘lga chiqib, nihoyat Baalbekka[763] kelib yetmaguncha hech joyda to‘xtamadi. Shahar ahli Temurga peshvoz chiqib, uning huzuriga keldilar, undan sulh ti-





...oldida tiz cho‘kdilar. Lekin Temur so‘zlarga e’tibor bermay, ular...ga nahb-u g‘orat va qo‘porish yirtqichlarini yubordi. (Shu payt) ...ham yaqinlashib qolgan edi.

Keyin Temur ushbu to‘lib-toshgan dengiz, hayqirgan sel va ulkan ...i bilan ko‘chib Qubbatu Sayyor tomonidan Damashqqa yaqinlashdi. Unga (Damashqqa) Misr askarlari va islom qo‘shinlari ham ...ib kelgan bo‘lib[764], borliq ular bilan to‘lgan, koinot ulardan nurlanib, ravshan bo‘lgan edi. Ular shunday to‘dalar (ediki), o‘qlari xilof...iyat qilgan har kishi qalbi donasini yoruvchidir va qilichlarining ...lari har bir shoxdan chiqqan kokilin o‘ruvchidir, nayzalarining ...lari (bor) yeridan arvoh osmonini tilka-pora qiluvchidir. Ular eh...larini o‘z vaqtida ado etib, to‘da va guruhlarni ajratgan, o‘ng va ...l (qanot) larga odamlar qo‘ygan, oldingi va keyingi (qism) larni ...ga solgan: markaz va qanotlarni baravarlagan: vodiy va sahrolar...ni to‘ldirgan va uzluksiz, zich guruhlar yarqirab jilvalangan holda ...tekisda tartib bilan tizilib sof tortgan tarzda yo‘lda horigan otlar...ning o‘rnini bosish uchun olingan yetakdagi savlatli otlar va go‘sht ...’mol qilishni xush ko‘radigan nasldor tuyalar bilan birga olg‘a yurdilar. Har bir to‘dada haybatli sherlar va ulug‘vor burgutlar bor edi. Men dedim, she’r:

> Ozmuncha shonli qo‘shinlar borki, go‘yo g‘azabli tog‘lar kabi,
> go‘yo u (qo‘shin) dengizki, o‘rtalarida (nayza) o‘rmonlari bordir.
> (Ikkala tomon) askari (go‘yo) ikki dengizki, ular har
> birining mavjida sher bor.
> Qaysiki, u ikki kaftida ilonni ushlab o‘lim bilan o‘ynaydi.
> Ulardan har birining ichi-tashi jangda ko‘zga ko‘rinadi.
> Agar ular bir joyga tushsa, qirindilardek (ko‘p),
> Agar kechasi sayr qilsa, samo yerda bir doiraga yo‘liqadi.
> Agar kunduzi yursa, o‘sha g‘uborlar vujudga kelgan erga duch keladi.

Go‘yo (ular) o‘lim kamalak (yoy) larini yelkalariga qo‘yib, halokat qilichlarini osib olganlar, nozik va ixcham nayzalarni taqqanlar: go‘yo ular otlar yollaridan yaratilib unib chiqqan joylarida barqaror qolganlar.

Men dedim:

U (qo'shin) go'yo havo, bir yashil liboski,
nayza naylari uni zar tortib to'qilgan.
Uning ustiga qorong'i kecha tushsa,
(uning) yuzi senga tong shu'lasini ko'rsatadi.
Go'yo uning mergan yulduzlari
jang paytida urush shaytonlariga qarshi otiladi.

Bu to'lqinlar to'dalari shu tariqa bir biri bilan to'xtovsiz turli- bu hayqirgan dengizning yelkalari (to'lqinlari) chang-to'zon osm- bir-biri bilan to'qnashar va shu (to'lqin) larning har biri tushun- yo'l bilan «bizdan bironta ham (kishi) yo'qki, uning o'ziga yarasha maqomi bo'lmasa»[764], – deyardi. Keyin, jang alvastilari[765] hijriy 808-yil rabiy-ul-oxir oyining o'n birinchisida (1400-yil 29-noyabr) Yalbug'a qubbasiga yetib keldilar. Askarlardan har biri o'ngu chap- ga (lashkargoh tortib) tushdi. Islom askarlari va amirlari uylarda maskanlarda qarorlandilar. Totor qo'shinlari esa Damashq g'arbi Daroyo[766] hamda al-Xuvla[767] va Qatanagacha[768] va ularga yondosh- joylarga tushdilar. Sulton askarlarining bir qismi shaharga kirib, qal'a va shaharda qurol-aslaha va anjomlar bilan qo'rg'onlanib oldi. Keyin ikkala qo'shin ham o'z ehtiyot choralarini ko'rib, o'z ishini muqobil va muqotalaga hozirladi. Ular xandaqlar qazidilar va har bir tomon o'z raqibi o'tadigan tor yo'llar og'izlarini to'sdi. Keyin ular bir-birlari bilan o'zaro to'qnashuvlar, xurujlar, urushishlar va gij-gijlatishlarni boshlab yubordilar.

So'ngra sulton askarlariga shahardan tashqariga chiqishni buyur- di; shunda (shahar) a'yonlarining boshliqlari shahardan chiqib, urush borasida o'z sultonlariga kelib qo'shildilar. Go'dak bolalar va erlar jabborga[770] tazarru qilib, har oqshom ko'cha-ko'ylarda kuyib-pishib Yo xudo! Yo rahmon! Mavlono sultonimizga madad ber! – deb nido qilardilar. Odamlar iztirob va harakatda bo'lib zafar va barakat ti- lab, kecha-yu kunduz zorlanardilar va «Ey mujohidlar, devorlarga (chiqing!)» – deb faryod qilardilar. Mana shu kunlarda shahar bosh- liqlaridan Shomda hokim bo'lib turgan qozilar qozisi Burhonuddin ash-Shoziliy[771] molikiy shahid bo'ldi va qilich zarbasidan molikiy





mazhabiga mansub qozilar qozisi Sharafuddin Isoning qo'li shol bo'lib qoldi. (Sulton odamlari) dushmanlardan qo'lga olganlarini qatl etardilar. Ularni notiq va somit (tilli va tilsiz mol) laridan qilsalar uni elga yoyib, namoyish qilardilar.

## Yuz bergan bir jang va garchi naf qilgan bo'lsa ham, saflarni tarqatgan ma'raka bayoni

Keyin shu kunlardan birida[772] ushbu gapga no'noqlardan (Temur qo'shinidan) o'n ming chog'lig'i ilgarilab, jang maydoniga qarab chiqishlandi. Ularga qarshi Shom askarlaridan besh yuzcha (kishi) chiq- di. So'ngra ularning izidan yana uch yuz chamasi (kishi) bilan amir ...boy keldi. She'r:

(Ular) jangda urushsalar sher, mehribonlik ko'rsatsalar ohu.
Yerga qadalsalar tog'lar, oqsalar dengiz.
Charaqlasalar quyosh, jilvalansalar to'lin oy,
Essalar yellar, (quyilsalar) bulutlar,
Pastga tomon sho'ng'iganlarida lochin.
O'ljaga tashlanganlarida sirtlon,
Sayxa torxsalar momoqaldiroq.
(Nishonga) otsalar yashin kabidurlar.

Bu askarlarning har birida titratadigan nayza bo'lib, sarvi qomat- lilar ular oldida sajda qiladilar, har birida bir o'tkir qilich bo'lib, qon to'kish uning lavhalaridan o'rganiladi; har birining yoyi borki, o'zi- ning qoshiga o'xshaydi va o'qlari borki, u o'qlar o'z egasining kip- priklariga o'xshaydi deyilsa to'g'ri bo'ladi; har birida tutilishi mayin qalqon bo'lib, agar jangchi u (qalqon) ni o'z ustiga kiysa, unda qu- yosh ustida to'lin oyni ko'rasan; har birining borshida bir temir qal- pog'i borki, go'yoki u o'sha askar siymosining yaltirashidan olingan yoki uning tashqi ko'rinishi yashinlardan yasalgan. Agar bu temir qal- poqchaga ko'z tushsa, kishining ko'zi qamashadi va «oz bo'lmasa» u (qalpoq) ning ravshanligi ko'rish quvvatini ketkazadi[773].

U liboslar o'z egalariga muvofiqdir: u (libos) ning avrasi kiyuv- chisining ruxsori kabi ipakdek mayin, astari (ichi) esa qattiqqo'llikda

uning qalbi kabi misoli temirdir. Ular nasldor otlardan ibor[illegible] larga mingan edilar va go'yo shu to'dalarning to'lin oyla[illegible] yaltiragan nayzalar bilan (birga) edilar. (Ularning har biri) [illegible] yorug'ida ziynatga burkangan kelinchak (kabi) edi. Ular jan[illegible] bi[774] tomon yuz tutdilar va (dushman bilan) Yalbug'a qubbas[illegible] dagi bir vodiyda uchrashdilar. She'r:

> (Ular) turk jangchilaridan iborat yigitlarki, ularning ovozla[illegible]
> momoqaldiroq tovushini na his qiladi, na sehr qoldiradi.
> Muqobalada ular husnda maloikalar misoli.
> Muqotalada ular devlar kabidir[775].

**Bo'lim**

Qachonki bu sherlar (islom askarlari) o'sha bo'rilar va ko'[illegible] larni (Temur askarlarini) ko'rgach, ular «go'yo kofirlar to'd[illegible] ko'rib qolgan mo'minlar[776] kabi bo'ldilar». Ulardan kimning [illegible] bexato (nishonga teguvchi), kimniki xatokor (illatli) ekanligi [illegible] bo'lib, ular (islom askarlari): «Tangri va uning rasulini bizga [illegible] (sevinchli) va'dasi mana shu»[777], – dedilar. Temur askarlari [illegible] ko'pligi jihatidan ularni qurshab, ushbu keltirilgan doirali [illegible] dengizlarni yo'q qilish uchun halqa qilib o'rab oldilar. Qachonki [illegible] (musulmonlar) ushbu doira chodirida qoziqlar singari bo'lganlari[illegible] keyin ular zarba berishga kirishib, tishlovchi (qat'iy urush bilan [illegible] ni kesishga boshladilar. Bu jangda Temur askarlari uchun ular o'[illegible] gan dastlabki ish bosh kesish, shiddatdan aql ozdirish va qo'llarni [illegible] sish bo'ldi. Natijada, (musulmonlar) uzun nayzalar bilan ular aql[illegible] mayib qildilar, yiroqdan otilgan yoylari bilan ular shakllarini ilma-[illegible] shik etdilar, yoyiq (keng tig'li) qilich bilan ular bekamu-ko'stligi[illegible] (vofir) kesdilar, tezkor (kamon) o'qlari bilan ular to'liqlarini (komil) maydaladilar. Musulmonlar ularni bo'lakladilar, parcha-parcha qild[illegible] lar, ilma-teshik qildilar, to'zitdilar, (tishlarini sindirdilar) to'daladila[illegible] qirqdilar qo'l oyoqlarini bog'ladilar, chaqdilar, ularni qirqib ajratdila[illegible] va (adadlarini) kamaytirdilar. So'ngra ular ko'kraklarini (sadr) oji[illegible] likka (orqaga) qaratib, ular uchun haqiqiy (haqiqat) xalos bo'lish[illegible] o'tadigan (majoz) joyni to'sdilar. So'ngra islom askarlari ulardan





[illegible]larida uning (Temur) askarlari tanalari kesilgan (mash-[illegible] bo'laklangan (maqtu'), tilingan (mahzuf), parcha-parcha qilin-[illegible] (majzu'), holdan toygan (manhuq) va o'rnidan qo'zg'alolmay [illegible]) qolgan holda edilar.

[illegible] qilingan Asanboy orqasiga qaytdi – u o'zini maqsadga) yetuv-[illegible] (mutadarik) nayzasi (urushi) bilan (Temur qo'shinlari) etaklarini [illegible] va yaqin-u mutaqarib (jips) (mutomosiq) zarbasi bilan ular [illegible] va yengil (xafif – saqil) larini (ya'ni hammasining) urug'ini qu-[illegible] edi. Ular sovutlari (tasbi) ziyoda g'alaba bilan savlat solib, mu-[illegible] qudratlilik bilan to'lib toshgan bo'lib, (ular) ittifoqlik doirasi-[illegible] uyi (bayt) halol yetishidan osoyishta, uning (Asanboyning) aruzi [illegible] zarubi[778] kamchilig-u (zihof) illatlardan (il'al) sog'lom edi. Go'yo [illegible]) aytilganidek:

> Urush kunidagi suvoriylarni tangri serob qilsin!
> Ular urushda yulduzlar pastga (uchib) tushgandek
> (dushman ustiga) tushadilar.
> (Ular) dushmanlarni nayzalar bilan gazladilar.
> O'tkir qilichlar bilan bichib, o'qlar bilan taqdilar[779].

**Temur hamshirasining o'g'li Sulton Husayn[780] ishlatgan makr va firib bayoni**

Keyin Temur hamshirasining o'g'li (bo'lmish) Sulton Husayn o'zini tog'asiga muxolif[781] qilib ko'rsatdi va dilida (ko'p) ishlarni yashirib, (Misr) sultoni huzuriga keldi. (Sulton Husayn) shijoatli yigit bo'lib, unda yengiltaklik va hamoqat bor edi[782]. Musulmonlar uning kelishidan xursand bo'lib, zafar va shodlik (alomatini) shuur etdilar. Sulton Husaynning boshida bir tutam kokili bor edi. Ular uning ko-killini olib, (ustiga) xil'atlar kiygizib, o'zlariday qilib ko'rsatdilar[783].

**Bo'lim**

So'ngra Temur o'zini zaiflashgan va holdan toygan ko'rsatib ishoat tarqatdi. U ozgina (olg'a) yurib, chekinib, orqaga qaytdi. Bu hammasi uning firiblari va ov tuzoqlaridan edi. Buning bayoni shuki, Misr askarlari o'rtasida xilof voqe' bo'lganligi va ularning tez orada

qochishlari xabari Temurga yetgan edi. Agar qochsalar, Temur u[illegible] ni qo'ldan chiqarib qo'yardi. Shu sababli u makr ko'rsatib, o'z[illegible] (qaytib) ketishi haqida ishoat tarqatdi. Bu bilan u Misr askar[illegible] (joylarida) sobit qilib, ularni qochishdan to'xtatib qolmoqni i[illegible] Lekin Misr askarlari qochishga azm qilgan bo'lib, ularda na sab[illegible] na qaror qolgan edi[784].

**Islom askarlari o'rtasida hosil bo'lgan nifoq va noittifoqlik bayoni**

Misr askarlarining otabegi va malik Nosirning kafili ulug' a[illegible] Yashbek[785] bo'lib, katta-yu kichik uning qo'l ostida edi. Garchi [illegible] qo'shinining madadi ko'p, lashkarining adadi hisobsiz ko'rinsa h[illegible] lekin ulardan har biri (o'zicha) «amir» bo'lib, ularda boshlar[illegible] boshqa hech narsalari yo'q edi. Natijada, ular fikrlari tarqalib, xohi[illegible] lari (bir-biriga) zid keldi; ular shoirlarining she'rlari ittifoq doiras[illegible] ixtilof doirasiga ko'chdi va ularning har biri o'z bayti vaznini [illegible] aruzlarga ko'chirdi va o'z sohibi arzini parchalay boshladi. Mana [illegible] damda rahmonning tillar va alvonlarning ixtilofi[786] haqidagi (ayt[illegible] oyatlari ochiq-oydin zohir bo'ldi. Ular raiyaning homiliygida bo'[illegible] va sirtlon o'rnida bo'ldilar, oriq xalqning homiyligiga g'azabli arsl[illegible] va sherni hokim qildilar; bu hadis sanadi-da, sag'irlar kattalarga, [illegible] yilar yuqoridagilarga, oldingilar oxirgilarga qo'shilib, go'yo ma[illegible] shu shoir aytgandek bo'ldilar. She'r:

Bir kuni qo'ylarim to'zib ketdi va men dedimki:
– Yo Tangrim, ularga bo'ri va sirtlonni hokim qil.

Ulardan bir qancha bosh (liq) lar o'z quvvati va yordamchilari[illegible] tashlab Qohiraga yo'l oldilar[787] va Temur (ular haqida) aytgande[illegible] o'zlarida siyosat ma'rifati yo'qligini va riyosat yo'llaridan javl[illegible] urishdan bexabarliklarini rostga chiqardilar.

**Bo'lim**

Qachonki qolganlar (jo'nab) ketganlar fe'llarini bilgach, ular[illegible] etaklarini shimarib, tun og'usi ostida ketganlar izidan yo'lga tushish-





[illegible] boshqa iloj qolmadi. Kimki bu qavmdan keyin qolgan (bo'lsa), [illegible] uxlagan yoki mudragan bo'lsa u to'rga tushib, chuqurning eng [illegible] yiqilgan edi.

Odamlar kecha-kunduz devorlar ustiga yopishib, ularning har biri [illegible] sultonidan yordam olganligiga ishonch hosil qilib, xursand bo'lib [illegible]ngan edi. Lekin kechalarning birida u (odam) lar baland (bir) joy-[illegible] ko'tarildilar va birdan o'z sultonlari chodir tikkan joylar olovlar [illegible] to'lib ketganligini ko'rdilar. Nima xabar ekanligini hech kim [illegible]madi-yu, faqat dunyo yomonlik va olov uchqunlari bilan to'ldi. [illegible] kelgach, (bu) diyor (odamdan) holi bo'lib, Yalbug'a qubbasida [illegible]) puflovchi biron kimsa ham qolmadi. Shunda ularning tovush-[illegible] pasayib, harakatlari susaydi. Ular o'zaro shivirlashib, sekin-as-[illegible] ovozlari so'naboshladi. Yomonlik mavj urib, harakatga keldi va [illegible]lar: – «Sulton qochdi!» – dedilar. Shunda odamlarning bellari [illegible]ilib, falokat kelganligiga (ular) ishondilar; (og'ir) tashvishlari or-[illegible], g'am-g'ussalari zo'raydi. Ularning «barcha vositalari tugab»[788], [illegible]loyiq ustiga xilma-xil azoblar yopirildi, jami'iy hiylalar (ularning) [illegible]ko'kraklari kabi tor (chorasiz) ko'rindi. Farmon qaysi-yu, ish qaysi (hammasi) bir-biriga aralashib ketdi.

**Bo'lim**

Keyin Temur o'z rabbiga hamd aytib joyidan ko'chdi. U (Yalbug'a) qubbasiga tushib, (uni) manzil tutdi va rohat qilgancha chalqancha yotib uxladi va men aytgan bayt mazmunida nido qildi:

Allohga hamdlar bo'lsin orzumizga erishdik.
Dushman orqa o'girib, umid hosil bo'ldi.

Temur (o'z) atrofida handaqlar qazitdi va atrofga otliqlari va piyo-dalarini tarqatdi va qochib ketganlar orqasidan quvlovchilar yubordi. Qachonki, qochgan dushman jangchilaridan biron kimsa olib keltirilsa, Temur uni o'sha fillar oldiga tashlashga buyurar va zakotdan yuz o'gir-ganlarga nisbatan qiyomat kunida (chorva) hayvonlari qanday ish qilsa, bu fillar shu sahroda tutilib keltirilganga ham shunday ish qilardilar.

## Bo'lim

(Endi) sultonga kelsak, u hech bir kimsadan ozor topmadi, chunki u go'yo bulut singari qochib, ilon singari o'rmalab, at – Taym vodiysi[789] tomon yuzlandi. Natijada, Temur shaytonlari yer yuziga tarqalib uni bo'yi va eniga to'lg'azdilar. Uning old qismlari mamlakat (Shom) yerlari tevarak atroflariga borib, jami qishloq va uning tevaraklarigacha yetdi. Ular «har qanday tepaliklardan yopirilishib»[790]. Tangri – taolo barakasi o'rnashgan yerning g'arbu sharqiga qarab shoshildilar va Damashq shahriga qarab olg'a bosardilar. (Avval) zikr qilinganidek, bu shahar mukammal qo'rg'onlangan va turli-tuman tayyorgarliklar bilan mustahkamlangan edi. Uning yuziga pardalar tushirilib, darvozalari qulflangandi. Shahar ahli Temur qo'shinlariga monelik ko'rsatdilar va yordamning xushbo'y hidi kelar yoki ushbu shiddatdan keyin tangridan yengillik borasida biror muruvvat rijosida ularga shaharni topshirmadilar. Shu zaylda ular ikki kun davom etdilar, keyin o'z rijolaridan (aniq) umidsiz bo'lib, gumonlarining yolg'on ekanligiga ishonch hosil qildilar. Sultonning askar bilan (Damashqqa) kelib (qaytib) ketishi shoirning mana shu aytgani misoli bo'lgan edi: «Tashna guruh ustiga bulut kelib, qachonki ular uni ko'rgach u bulutlar tarqalib, yoyilib ketgani kabi».

### Sulton ketgandan keyin (shahar) a'yonlarining chiqib Temurdan omonlik tilashlari bayoni

Qachonki o'ylaganlari puchga chiqib, o'zlari ustiga rayb ul-manun[791] kelganligini bilgach, shahardagi mavjud a'yonlar, ulug'lar va boshliqlar (bir joyga) jam bo'ldilar. Ular qozilar qozisi Muhuddin Mahmud ibn al-Izz hanafiy, uning o'g'li, qozilar qozisi Shihobuddin, qozilar qozisi Taqiuddin Ibrohim ibn Muflah hanbaliy Nobulsiy, kotib as-sir qozi Nosiruddin Muhammad ibn Abu Tayib, qozi Shihobuddin Ahmad ibn Shahid al-Vazir – vazirlik mansabi o'sha paytda unda bo'lib, ularning orasida eng ulug'i o'sha edi, (yana) qozi Shihobuddin al-Jiyaniy[792] shofiiy, hokimning noibi qozi Shihobuddin Burhonuddin Ibrohim al-Qusha hanafiy, – hammalarini Alloh rahmat qilsin! – edilar. Ammo shofiy (mazhabi) qozisi – Alouddin ibn Abu-l-Baqo





bu sulton bilan birga qochdi, qozilar qozisi molikiy Burhonuddin ash-Shoziliy, (avval) zikr etilganidek, shahid bo'ldi. So'ngra ushbu a'yonlar o'zaro mashvarat qilib, ittifoq bo'lganlaridan keyin (shahardan) chiqdilar va Temurdan omonlik tiladilar.

## Bo'lim

Qachonki sulton o'z askari «yuzlangan kemasini»[793] qo'zg'atgach, qozilar qozisi Valiuddin Abdurahmon Ibn Haldun Temur askari dengiziga tushib qoldi. U eng mashhur a'yonlardan va (Misrdan) sulton bilan birga kelganlardan (biri) edi. Qachonki sulton go'yo g'aflatda bo'lgandek eshilib, uzilib ketgach, Ibn Haldun tuzoqqa tushib qoldi. U Odiliya madrasasida istiqomat qilardi. O'sha (ishora qilingan) a'yonlar bu masala[794] tadbirida Ibn Haldun huzuriga yuzlandilar. Natijada, uning fikri ular fikriga muvofiq kelib, a'yonlar bu borada o'z ixtiyorlarini unga topshirdilar. Ularga Ibn Haldunni o'z suhbatlariga olishdan boshqa iloj bo'lmadi. Ibn Haldun mazhab va manzarada molikiy, rivoyat va xabarda asmaiy[795] edi. U yengil sallada, sharif bir suratda, qorong'i kechadek tim qora, o'zidek nozik xoshiyali burnusda[796] ular bilan yo'lga tushdi. A'yonlar Ibn Haldunni peshvo qilib, uning o'zlarining foyda-yu zararlari borasida aytadigan so'z va fe'llariga rozi bo'ldilar.

Qachonki ular Temur huzuriga kirganlarida uning oldida tik turib, shu holatda davom etdilar va Temur (ularga) o'tirishga ruxsat qilib, qalblariga taskin bermaguncha ular hadiksirab, qo'rqib turdilar. Keyin Temur ularga jilmayib tabassum bilan muruvvat qildi va (ular) holatlarini kuzatib, o'z aqli mezoni bilan ularning so'zlari ishlarini (harakatlarini) o'lchay boshladi. Ibn Haldunning manzari o'zgalari manzaridan farq qilishini ko'rgach, Temur: – «Bu odam bu yerlik emas», – dedi. Natijada, suhbat uchun majol ochilib, Ibn Haldun tilini yoyib yubordiki, uning aytganlari so'ngroq zikr qilinadi. Keyin taom bisotini yig'ib, taom dasturxonini yoydilar; qaynatilgan go'sht uyumlarini uyub, har bir kishi oldiga o'ziga loyig'ini qo'ydilar. Ba'zilar tortinib taomdan o'zini tiydi, ba'zilar o'zini go'yo suhbat bilan mashg'ul ko'rsatib (taomga) e'tibor qilmadi, ba'zilar qo'l uzatib

(ovqat) yeyaverdi va ovqat yutish jangida qo‘rqmadi va tortin[illegible] hamda o‘zgalarni ham taomga undab ularga nido qildi va mana [illegible] misralarni nashida etdi:

Ovqatdan shunday yengki, hayot qolsa o‘z ahliga
so‘zlab beradigan kishi kabi (eng),
Agar o‘lsa tangri huzuriga qorinli
bo‘lib boradigan darajada (ovqat) yeng!

Taomdan tanovul qilganlar jumlasida qozilar qozisi Valiud[illegible] (Ibn Haldun) ham bor edi.

Mana shu (ish) lar jarayonida Temur ularni kuzatar va qisiq ko‘zla[illegible] ularga o‘g‘rincha qadar edi. Ibn Haldun ham ko‘z qirini Temur tom[illegible] niga tashlar, qachonki Temur unga qarasa Ibn Haldun boshini qu[illegible] egar, qachonki Temur undan teskari burilsa, Ibn Haldun unga ko[illegible] yugurtirar edi. Keyin Ibn Haldun nido qilib baland ovoz bilan de[illegible] «Ey mavlono Amir! Buyuk va Ulug‘ Tangriga hamdlar bo‘lsin! Me[illegible] o‘z huzurim bilan insoniyat podshohlarini musharraf etdim va o‘[illegible] tarixlarim bilan ularning o‘chib ketgan kunlarini barhayot qildim (men) arab[797] podshohlaridan falon va fulonni ko‘rdim, falon va fu[illegible] lon sultonlar huzurida bo‘ldim; yerning[798] mag‘ribi-yu mashrig‘in[illegible] mushohada etdim, yerning har bir burchagida men uning amiri-yu[illegible] noibi bilan munosabatda bo‘ldim. Lekin tangridan minnatdorman[illegible] u mening kunlarimni uzaytirdi va u meni (qaytadan) tiriltirib muru[illegible] vat ko‘rsatdiki, nihoyat men haqiqiy podshoh, kim ekanini ko‘rib saltanat shariatida to‘g‘ri siyratli maslakni ruiyat etdim. Agar (o‘zga) podshohlar taomi talofatni daf etish uchun tanovul qilinsa mavlono amirning taomi shuning uchun va (yana) faxru sharafga muyassar bo‘lish uchun tanovul qilinadi».

Shunda Temur ajabdan benihoya zavqlandi va oz bo‘lmasa quvon[illegible] chidan raqsga tushib ketayozdi. U xitob yuzini Ibn Haldunga qaratib suhbatda boshqalarga emas, faqat unga tayandi. Temur undan arab[799] podshohlari va ular haqidagi xabarlardan, (ular) davlatlari ro‘zg‘ori va rivoyatlaridan so‘radi. Shunda Ibn Haldun Temurga uning aqlini mahliyo qilib, maftun etadigan va zehnini chulg‘ab, hayratga tushi[illegible]





[illegible] hikoyatlar rivoyat qildi. Temur esa podshohlar va xalqlar [illegible]larida bilimdon sharq-u g‘arb tarixining otasi va onasi edi. Bu [illegible] badoatli bir bayon keyinroq zikr qilinadi[800].

## Bo‘lim

Bir kuni u (a’yon) lar ushbu ziyrak (Temur)ning huzurida o‘tir[illegible]larida birdan Temur odamlari qo‘lida asoratda bo‘lgan qozi Sad[illegible]ddin al-Munoviy – u qochishda sultonga ergashganlardan bo‘lib, (Temur) odamlari Maysalunda[801] uni ushlab, Temur huzuriga keltir[illegible]gan edilar – kirib qoldi. U burj kabi salla o‘ragan, yenglari xurjundek [illegible]ilgan kiyimda) edi. U odamlarning ustidan yurib o‘tib, ruxsatsiz [illegible]dagilar yuqorisiga o‘tirdi. Bundan Temur g‘azablanib, tutaqib, [illegible]jlisni alanga bilan to‘ldirdi; uning o‘pkasi shishib, tomog‘i qahr-u g‘azabdan to‘lib-toshdi; u xirillab ovozi bo‘g‘ildi. Uning jahli dengizi mavj urib qirg‘og‘idan oshdi va o‘z tajovuzkorlaridan bir toifasiga qozi Sadruddinni itobga solishni amr qildi. Shunda qozini xuddi itlarni [illegible]dragandek sudrab, ustidagi bor kiyimlarini parcha-parcha qildilar. [illegible]kish va haqorat bilan uni boyitib[802], kaltak va tepki bilan to‘yg‘izdi[illegible]lar. Keyin Temur uni asoratda qattiq tutishga, yangitdan azoblashga va ustiga ketma-ket aziyat keltirishga mutasaddilarning e’tirozlariga qaramay, itobni ikki hissa (ziyoda) qilishga amr qildi. Qiyomat kuni[illegible]da zolim (yuzi orqasiga qilinib) – Alloh tomonidan himoyasiz[803] holda chiqariladiganidek, qozi chiqarildi. So‘ngra Temur hamishagidek o‘z hiyla-yu firiblarini tuzishga kirishdi. U ushbu a’yonlardan har biriga xil’at kiygizib, ularni o‘z nazdida izzat-u rif’atga sazovor qildi. Keyin ko‘ngillarini shod aylab, osoyishta va xursand holda ularni qaytardi. (Ammo) uning qalbida turli-tuman fasodlar va (yomon) ishlar mavj urardi. U (a’yon) lar mana shunday bo‘lib yo‘lga tushdilar. Misra: «Xuddi qurbon qiluvchi o‘z qurbonini ziynatlab ulug‘lagan, ammo yaqinda u (qurbon) o‘lim ziyofati bilan to‘yg‘iziladi».

Temur a’yonlarga va ular raiyalariga agar ular sulton boyliklari[illegible]ni, shuningdek unga (sultonga) va amirlariga tegishli javohirlarni va ularga taalluqli mol-dunyo, ot-ulov[804] chorva, qullar va xizmatkorlarini (yig‘ib) topshirsalar, omonlik berishini (ularga) shart qilib qo‘ydi.

A'yonlar amr qilingan (narsa) ni bajo keltirib, (butun) botinu
(narsa)larni Temurga topshirdilar. Ammo qal'a esa hisorga (qa
tayyorgarlik ko'rdi. Qal'aning noibi Azdor[805] deb ataladigan (ki
bo'lib, u qal'ani mustahkamlab, mukammal qurol-yarog' bilan m
kamladi va sultondan madad yoki (kelayotgan) bu shiddatni yen
latadigan ilohiy bir g'ov intizorida bo'ldi.

Dastavval Temur qal'aga e'tibor bermadi va qiziqmadi ha
unga aylanib harakat ko'rsatmadi. Balki u o'zining butun jidd-u ja
dini mol-dunyo jamlashga va qimmatbaho boyliklar toylarini orti
sarfladi. Qachonki javohirlar hosil bo'lib, uning xazinasiga tushga
Temur shahar ustiga omonlik mollarini tashladi.

Bu (mol) larni to'plashda Temur o'sha a'yonlar yordamiga ta
nib, ular ustiga o'z devon (begi) lari va kotiblaridan, shuning
ochko'z va ta'magir noziru hisobchilaridan qo'ydi. Bu (narsa) la
ni o'z davlati arkonlaridan biri va unga e'timodi bo'lgan Olloh
kifoyatiga topshirdi. U (Ollohdod) ona jihatidan (ushbu) kitobn
avvalida zikri o'tgan Sayfuddinning birodari edi. Ularga qo'shim
tariqasida Temur barcha «qaysar-u bag'ritoshlarni»[806] va qo'pol
og'ushida o'sib-ulg'aygan va uning zulmi sutini emgan (kishi) la
tayinladi. Keyin u omonlik va osoyishtalik joriy qilib, bir inson i
kinchi bir insonga jabr-sitam qilmasligini nido qildi. Bu nido (ha
maga) eshittirilib joriy bo'lganidan keyin ham chigatoyliklardan q
birlari g'oratgarchilikka qo'l cho'zdilar. Bu (xabar) Temur qulog'i
borib yetgach, u ularni xaloyiq gavjum joyda salb etishga buyur
Shunda ularni gazmol sotuvchilar rastasining boshida, harirpurush
yonida salb etdilar. Odamlar bu ishdan shodlanib, Temurdan xay
adl umid qildilar. Shahar a'yonlari (shahar) darvozalaridan Bob u
Sag'ir (Kichik darvoza)ni ochdilar va shahardagi mavjud arzigan v
arzimagan (narsalarni ham hisob-kitob qila boshladilar. Keyin ular b
mol-dunyolarni mahallalarga taqsim qildilar. Uzoq yaqindagi zulm v
adovat ahllari bir-birlariga: Ey talon-taroj! – deb nido qildilar va «D
uz-zahab» (Oltin uyi) ning yig'ilgan xazinalar makoniga aylanti
lar. Ular odamlarni shu tuzoqqa tashlay boshladilar va ba'zi odaml
boshqalar ustidan hukmron bo'lib, Temur shu yerlar quyonlarini sh
yerlik ko'ppaklar bilan ovladi.





(Shu payt) kuz fasli Misr askariga o'xshab qaytgan va Temur
...lari o'z olovlari bilan (olamga) tushgani kabi (o'z) sovug'i bilan
...h fasli olamga tushgan edi.

Keyin Temur avval Qasr al-Ablaqqa, so'ngra amir Tanjosning
...ga ko'chdi[807] va qasrni vayron qilib yoqishlarini buyurdi va ko'p
...dalarga bosh bo'lib, Bob us-Sag'irdan shaharga kirdi va hanafiy-
...ning shof'iylardan muqaddam qo'yib, Bani Umayya jome'sida juma
...ozini o'qidi. Uning nomiga xutbani avval zikr qilingan hanafiy
...zhabidagi qozilar qozisi Muhiddin Mahmud ibn al-Izz o'qidi va
... orada) turli ishlar va fasodliklar sodir bo'ldiki, ularning sharhi
...ndan uzundir. Mu'taziliy mazhabidagi Abduljabbor ibn Nu'mon
... Xorazmiy bilan Shom ulamolari, xususan, qozilar qozisi xanbaliy
...zhabidagi Taqiuddin Ibrohim ibn al-Muflah o'rtasida munozaralar,
...noqashalar, mubahasalar va murojaatlar voqe' bo'ldi. Shular jara-
...nida Abduljabbor Temurning tarjimoni sifatida barcha masalalarda
...lar bilan uning tilidan suhbat yuritar edi. Shu (masala) lardan (biri)
Ali Muoviya voqealari va o'sha o'tgan asrlarda ular o'rtasida nima
...oqealar sodir bo'lganligi, yana biri Yazid ishlari, baxtli shahid Hu-
...aynning qatl qilishi; shuningdek, bu hodisaning hech bir inkorsiz
...ulm va fisq ekanligi va kimki bu (ish) ni halol (maqbul) hisoblasa,
... kofir bo'lishi (masalalari) edi. Hech shubha yo'qki, ushbu harom
...ili Shom ahlining yordamida bo'lgan, agar ular uni qonuniy (halol)
...isoblasalar, ular kofirlar. Agarki ular bu ishni qonuniy (halol) emas
...salar – demak ular itoatsiz, tug'yonchi va jinoyatkor kishilardir.
Darhaqiqat, hozirgilar burungilar mazhabida bo'lishlari (masalalari
...di). Natijada, bu savollarga u (shomli) lar tomonidan turli javoblar
...odir bo'ldi. (Bu) javoblardan ayrimlarini Temur rad qilib, ayrimlari
...ga unga ma'qul tushdi. Nihoyat, kotib as-sir (Nosiruddin ibn Abu
Tayyib) javob berdiki, uning javobi yaxshi va to'g'ri – basharti u foy-
...da keltirdi – bo'ldi:

«Ulug' Tangri Mavlono Amirning umrini uzun qilg'ay! Men
bo'lsam, nasabim Umar va Usmonga muttasil bo'lib (eng) katta bo-
...bom o'sha zamon a'yonlaridan biri sanalgan. U ushbu voqealar (ja-
rayoni)da hozir bo'lib, o'sha jang-u jadallarda sho'ng'igan. U haqiqat

shunqorlaridan va sidq-u sadoqat bahodirlaridan bo'lgan. Uning bi... yetgan ishlaridan va har bir ashyoni o'z o'rniga qo'yishdan shu ... ma'lumki, u sayyidimiz Husaynning boshini qidirib topib, u (kal... ni xo'rlanish va tahqirlashdan xolis qilgan. Keyin uni tozalab y... azizlagan, ulug'lab o'pgan va xushbo'y qilib izzatlagan va keyin u ... kallani tuproqqa ko'mgan. U bu ishni tangri taologa yaqinlik yo'li... eng afzal fidolik deb hisobladi. Shu sababli, e yomg'irli bulutlar, ... Abu Tayyib[808] deb kunya berganlar. Nima bo'lsa ham, e Mavl... Amir, u zotlar (dunyo) dan o'tib, u bulutlar g'am-g'ussalari tarqa... ketgan va ular o'zlari simirgan (suv)lari hamda tottirgan narsalari ... achchiq, xoh shirin bo'lsin, olamdan o'tdilar. Bu fitnalarki, qaysi... tangri bizlarni ulardan xalos qilib (bizlarga) rohat bag'ishladi va (b... qonlardirki, tangri undan qilichlarimizni tozaladi. Ammo hozir bo'l... bizning e'tiqodimiz ahli sunna va jamoa e'tiqodidir».

Bu so'zlarni eshitgach Temur:

– Vo ajabo! Sizlar shul sababdan Abu Tayyib avlodlari deb n... olganmisizlar? – deb xitob qildi.

– Ha, – deb javob berdi kotib as-sir, – mening uchun uzoq va ya... qindagilar buni isbotlaydi. Men – Muhammad ibn Umar ibn Muha... mad ibn Abulqosim ibn Abdulmun'im ibn Muhammad ibn Abu Tay... yib al-Umariy al-Usmoniy (bo'laman).

Temur dedi: – Sen uzrga sazovorsan, e salaflar sarasi! Agarki me... da zohirona ma'zurlik (bu bilan Temur o'z oqsoqligiga ishora qiladi) bo'lmaganda edi, men seni albatta o'z orqam va yelkamga ko'tarar... dim. Lekin men senga va hamrohlaringga qanday izzat-ehtirom va lutf-u karam ko'rsatishimni hali ko'rasan». Keyin Temur qozilar bi... lan xayr-ma'zur qilib, ularni ta'zimu ehtirom bilan kuzatdi.

Savol-javoblarning yana birida Temur kinoya tariqasida ulardan atay teskari bir savol so'rab; – qaysi daraja yuqori: ilm darajasimi yoki nasab darajasimi? – dedi. Majlisdagilarning hammalari Temur maqsadini payqab tushundilar-u, lekin sukut saqlab jim turdilar va javob berishdan hayiqdilar va har biri Temur ularni sinab ko'rayot... ganligini fahmladi. Birinchi bo'lib hanbaliy mazhabidagi qozi Sham... suddin an-Nobulsiy javob berib: – ilm darajasi nasab darajasidan yuqori bo'lib, buning martabasi xoliq va maxluq nazdida barcha





...rtabalardan oliy, – dedi. Past tabaqadagi fozil kishi yuqori tabaqali ...il (kishi) dan muqaddam qo'yiladi. Otasi yoki onasining (nasabi) ...t bo'lib, o'zi pok bo'lgan kishi xalifalikka sharif nasabli kishidan ...roqdir. Bu xususdagi dalil hammaga ayondir; (bu) payg'ambar ...hobalarining hammalari bir og'izdan Abu Bakrni Alidan muqad... ...m qo'yganligidir. Ular hammalari Abu Bakrni sahobalar ichida eng ...i, islomda ularga nisbatan sobit qadam va ular ichida dastavval ...mon keltirgan (zot) deb bir fikrda bo'lganlar. Bu dalolatga payg'am... ...ning: «ummatim ko'pchiligi yanglishmaydi»[809], xitobi isbotdir.

Keyin qozi Shamsuddin Temurga quloq tutib, undan qanday javob ...lishligiga intizor holda o'z (ustidan) kiyimlarini yecha boshladi. U ...malarini chiqarib, o'z nafsiga: «Hayoting oriyat (omonat), o'lim ...h uzoq, xoh yaqin bo'lishidan qat'i nazar muhaqqaq, sen o'lim ...dahini ichishing muqarrar. Shahid bo'lib o'lishlik ibodatning eng ...falidir va Alloh huzuriga borishning e'tiqod qiluvchi kishi uchun ...odatning eng yaxshi shakli esa jabr qiluvchi sulton huzurida haq ...'zni aytishdir», – dedi.

Temur so'radi: – Bu bekas nima qilyapti?»

Qozi: – «Ey jalolatli Mavlono! Seni askar to'dalaring go'yo Bani ...roil ummatlari kabi (ko'p) dir. Ulardan ba'zilari bir bid'at (o'ylab) ...pdilar va o'z mazhablarida bo'lak-bo'lak bo'lib bo'linib ketdilar. Ular o'z dinlarini bo'lib yubordilaru (go'yoki) alohida guruhlar tuzdi... lar. Hech shubhasiz, hazratlarining (bu) majlislari haqidagi (xabar) lar ...aql qilinadi va bu majlislardagi bahslar marvaridlari qalblarga kirib (u orqali) aqllarga tiziladi. Agar bu so'zlarning mendan chiqqanligi ...isbotlanib, sunniy bo'lmagan biron kishi (bu so'zlarni) e'tiborga olsa, ...ayniqsa Alini do'st tutuvchilardan birov eshitsa-yu, o'z murtadligida Abu Bakrga rofiziy deb ot qo'ygan kishi bo'lsa, u mening asl e'tiqod... ...imni aniq bilsa va mening homiy va ko'makchim yo'qligini (ham) bil... ...sa, albatta u meni ochiq-oydin o'ldirib, kuppa-kunduz kuni qonimni ...oqizadi. Agar (ish) shu tariqa bo'lsa, unda men bunday baxt-u saodat... ...ga hozirlanaman va qismat hukmlarini shahodat bilan ado etaman».

Temur: – «Vo ajabo, u qanday fasohatli (kishi), so'zda qanchalik ...shijoatli va dovyurak», – dedi. Keyin u o'tirganlarga nazar tashlab: – «Bundan keyin u mening huzurimga (sira) kirmasin», – dedi.

## Bo‘lim

Bu odam, ya’ni Abduljabbor Temurning imomi va olimi h... musulmonlar qoni (dengizi) da sho‘ng‘iydiganlar ichida uning p... vo (kishi) si edi[810]. U olim, fozil tadqiqotchi, fiqhning asosiy q... larini yaxshi biladigan qonunshunos munozarachi va tadqiqotchi ... Uning otasi an-Nu’mon Samarqandda bo‘lib u «Furu’» ilmida o‘... monining buyuk allomalaridan ediki, hatto[811] uni Nu’mon ikkin... deb (ham) atardilar. U oxiratda ruiyat (xudo diydorini ko‘rishlik) ... deb so‘zlovchilardan edi. Shu sababli ham tangri-taolo go‘yo bu ... yodagi mulohazasiga o‘xshatib, uning ko‘zini ham ko‘r qilgan ... Movarounnahrdagi ko‘pchilik unga zamondosh ulamolar furu’ (... lari) ni unda o‘qiganlar va shar’iy masalalarni hal etishda undan ... qilganlar.

Furu’ yuzasidan ahli sunna bilan ahli mu’taziliylar o‘rtasida x... yo‘q; faqatgina ular o‘rtasida dinning asosiy qoidalaridagi birmun... masalalarda ixtiloflar borki, ularni talqin qilishda noto‘g‘ri yo‘l tu... dilar.

## Bo‘lim

Shom ahlidan mol-dunyolarini yig‘ib olish uchun har bir[813] zul... kor, o‘zboshimcha, diyonatsiz-u g‘aliz, muhtoj-u hojatmand kishi... mutasaddiy bo‘ldilarki, ular Sadaqa ibn al-Xoniy[814], Ibn al-Muhaddi... «Summaqa»[815] deb laqab olgan Abdumalik ibn at-Takritiy va bosh... qalarga o‘xshash zulm va tug‘yon ahllari edilar. Bu (ish) zikri o‘tga... shahar ulug‘lari a’yonlari va shaharda yashovchilar boshliqlarining ishtirokida, shuningdek uning devon(begi) lari, hisobchilari, Temur xazina ishlarining qayd etuvchilari va kotiblarining hozirligida bo‘lib talovchilar bir lahza bo‘lsa ham (bu ishda) sustkashlik ko‘rsatib pay... salga solish mumkin bo‘lmadi. Temur odamlaridan Xo‘ja Mas’ud Samnoniy, mavlono Umar va Tojuddin Salmoniy bor edi[816]. Bu (ish) larning hammasi «Dor uz-3ahab»da yuz berdiki, bu mashhur (bir) joydir.

Ollohdod Bob us-Sag‘irdan ichkari – Ibn Mashkur uyiga qo‘ndi. Kimki o‘z qalbida biron kimsaga nisbatan g‘azab, yashirin adovat yo





... hasad yo dushmanlik, yo alam saqlagan bo‘lsa, unga ishorat qilib ... birodarlari» – haligi rahmsiz zolimlar va qo‘pol, shiddatli pos... ko‘rsatar edi.

She’r:

> Birodarlari musibatga tushganda, ularni chorlaganda
> uning so‘zi (to‘g‘riligi)ga isbot so‘ramaydilar,
> balki zig‘ircha ishora va arzimagan ibora bilan u

...kinning vujudi zaminiga turli-tuman azob-uqubat tog‘laridan ... qasrlar quradilar va uning jussasi bo‘stonlari ustiga azob os...idan momaqaldiroqlar qo‘zg‘atadigan uqubat buluti, o‘lim va ... chaqmog‘ini chaqnatadigan yashinlar barpo qiladilar.

## Bo‘lim

Shu bilan birga, Temur bu orada qal’ani hisor etib, o‘z qudrati ...cha qurol-aslaha tayyorlay boshladi. U qal’aning ro‘parasiga ...dan baland bo‘ladigan bir bino qurishlarini buyurdiki, uning askar... bu binoning ustiga chiqib, qal’ani vayron qila olsinlar. Natija..., ular yog‘och va o‘tinlar to‘plab, ustidan tosh va tuproqlar to‘kib ...ni maydalab to‘lg‘izdilar. Bu (bino) shimoliy[817] g‘arb tomonidan ...ilgan) edi. Keyin jangchilar – (binoni) ng ustiga ko‘tarildilar va ...’adagilarga tomon qilich zarbasi-yu nayza ta’nasi bilan tashlandi... Qal’a hisori ishini Temur o‘zining ulug‘ amirlaridan biri Jahon...h deb ataluvchi amiri zimmasiga yukladi. Natijada, Jahonshoh ... ishga kafil bo‘lib, uning bilan mashg‘ul bo‘ldi. U qal’a qarshisiga ...njaniqlar o‘rnatdi va uning ostidan lahimlar qazib, devorlarga il...klar tashladi. Qal’ada ozroq kishi bo‘lib, ularning eng afzali Shi...buddin az-Zardkash ad Dimashqiy va Shihobuddin az-Zardkash al-Halabiy edilar. Ular ikkalasi Temur askarlarini halok etishda yax...shigina shiddat ko‘rsatdilar va har qachon Temur qo‘shini ular to...mon yuz qo‘yib duch kelsa, ular uchun shu ikkisi musibatli vabo va o‘lim (misoli) edi. Shunday qilib, bu ikkisi olovda kuydirish, to‘plar yashini va chaqmog‘i bilan Temur askarlaridan sanab bo‘lmaydigan, hisob-kitob doirasidan xorij sonni halok qildilar. Lekin vayrongar-

chilik dengizidan to'lib-toshgan sel qal'ani qurshab, uning me... lari bulutlaridan chiqqan o'qlar yomg'iri yog'ilganda, momaqald... va yashin o'rtasida (qal'aning) ustiga Temur jangchilari yopiril... da qal'a ahli ustiga azob-uqubat yuqori-yu pastdan, o'ng-u so'l... kela boshladiki, jang qilish va qarshilik ko'rsatishdan qal'a jangchi... rining qo'llari charchadi. Ular Temurdan omonlik tilab, hech bir ... kilanmasdan qal'adan tushdilar. Ushbu mudhish ishlar va ajib ... qazosi rabiy ul-oxir oyining oxirlarida (1400-yil 17-dekabr) biri... va ikkinchi jumodi va rajab (1401-yil mart) oylarida (bo'lgan) ed...

Lekin Temur qal'adan o'z murodiga faqatgina qirq uch kunli... hisordan keyingina erishishga muyassar bo'ldi. Shu muddat ... da Temur fozillar, kosiblar, hunarmandlar va fazilat egalari talab... bo'ldi. Harirpurushlar Temur uchun ipak va tillodan bir qabo tikdil... ki, uning bironta ham darzi (choki) yo'q bo'lib, u ajib bir narsa ... Bob us-Sag'ir maqbaralarida Temur payg'ambar – tangrining ... rahmati va salomi bo'lsin – xotinlarining sag'anasi ustiga bir-bir... ga yondosh ikkita qubba qurdirdi[820]. U (Temur) zangi (qora) qull... ni ja'mlashni amr qilib, o'zgalardan ko'ra ularni to'plashga ino... ko'rsatib, ularni afzal ko'rdi.

## Hiylakor odamlardan birining o'ziga shiddat kelishidan xavflanib qilgan ishi va uning o'z nafis (boylik)lari yordamida boshqa odamlar jonlari-yu qonlarini saqlagani bayoni

Safadda shahar ahlidan bir savdogar kishi bo'lib, u boshliqlar va tijorat ahlidan edi. U Alouddin deb atalib, unga davodor deb nish... berilgandi. Aftidan, u ilgari Sultonga (birqadar) xizmat ko'rsatgan bo'lib, u uni o'sha joy (Safad) hojibligiga ta'yin qilgandi. Qachon... ki noiblar Halabga ravona bo'lgach – odatda noib g'oyibligida sha... harda uning o'rniga hojib noiblik qilardi – Safad noibi Altunbug'... al-Usmoniy o'rniga hojib Alouddin Davodoriy noiblikda qoldi. Ke... yinchalik bu to'fon (Temur) asoratiga barcha noiblar g'arq bo'ldilar... ki, shular jumlasidan al-Usmoniy va Ibn Tahhon ham bor edi. Ulardan o'lganlari o'ldi, qochganlari qochib ketdi. Altunbug'o va Umar esa asirlik iskanjasida davom etdilar.





...honki Temur Shomga kelib, uning tomonidan bu mamlakatda, ... yaramas qozilar dastidan yetimlar mollariga nisbatan yetadigan ... sodir bo'lgach, har bir hokim o'z yurtida ijtihodi yetkizgan ishni ... kirishdi. Natijada, ba'zilar o'z qarorgohini mustahkamladi, ... pistirmalarini mahkamladi, bir toifa Temur bilan urushish... ...yyorlandi, boshqa bir guruh qochishga hozirlandi, bir xillari (bu ...) ko'nikib, ularga aralashdilar, sovg'a-salom, oldi-berdi qilib, ... tuzdilar. Zikr qilingan Alouddin mulohaza qilib har xil gumon-u ... tuzdi va o'z sohibi-yu shaharini qutqazib qolish borasida fikr ...lib, obdon o'yladi. U (omilkor) odam bolalaridan bo'lib, firib va ... boxabar kishi edi. Bu masalada ham u nishonga (bexato) ...uvchi aqlidan maslahat surab, uni «gapga» soldi. Aqli aytdiki: – ...zingda bor (bo'lgan) mol-dunyo vositasida Temur bilan kelishgin ... qochish yo'lini tark etib, u (mol-dunyo) larni sarf qilgin». Aqli ... shunday degan vaqtida u yolg'on maslahat bermadi, chunki u ... aytgandi: «Sharaf yo'lidagi har bir murosa uning uchun parda va ...dir». Alouddin behisob mol-dunyoga ega bo'lib, u: – «Sariq di... ...lar oppoq dirhamlarni men faqat qora kunlar uchun yiqqanman», ...di. Natijada, u Temurning hojatmandligi (payti) ni poyladi va shi... ...xan, go'zal muomala bilan uni o'ziga rom qilishni istadi. Bu ish... ... ilojiga u go'yo (mohir) tabib bemorning davosiga iloj topgandek ... tutdi. U sulhga va she'r aytish holiga emas, g'amg'inlik holiga ...shildi[821]. O'zining behisob va mo'l-ko'l mol-dunyosidan Alouddin Temurga xilma-xil tuhfalar yuborib, uning xotirini o'ziga moyil qildi ... (uning) farmonlariga quloq tutdi. Keyin u buning ketidan undan ... ikki hissa ko'p (hadyalar) yuborib, ular og'irligi bilan sovg'alar ...qaddi-qomatini bukdi. Alouddinning bu qilgan ishi uchun Temur ... tashakkur izhor etdi va bu (sovg'a-salom) lar uning nazarida Alouddin martabasi va rif'atini ziyoda etdi. U Alouddinga omonlik to'g'risida va uning shahar ahliga iltifotli va xushmuomala bo'lishi... ... tavsiya qilib, farmon yubordi; u ularning qo'rquvini tarqatsin va ...tari kamayib, dahshati ketishi uchun o'sha mamlakatda yashovchi turli jinslar va turli kasb egalarining (qalblarini) taskin toptirsin (deb farmon yubordi). Shunday bo'lsinki, (odamlar) bir-birlari bilan oldi-sotdi qilib, Temur askarlari bilan (bemalol) muomala qilaversinlar.

Agarki (Temur) askarlaridan birortasi – garchi u Temurning birod… va avlodlaridan bo‘lsa ham – (erli xalq ustidan) nohaqlik ko‘rsat… Alouddin unga bu ishni man qilib qaytarsin va uni kaltaklatib, xal… yiq o‘rtasida joriy qilsin. (Shunday qilib) Temur Alouddindan xoh… gan narsasini talab qilar, u esa Temur so‘ragandan ham ziyoda qi… o‘rinlatardi. Har safar Temur undan ko‘proq pul va narsalar talab q… sa, Alouddin shunchalik xursand bo‘lib, shodlanar edi. Bu qiyin a… vol (sharoiti) da Temur Alouddindan talab qilganlar jumlasidan (b… qadar) oq piyoz yuborish ham bor ediki, (bu) Safad u yoqda tur… balki butun Shomda oq piyozning topilmasligi sababidan edi. Alou… din o‘sha zahotiyoq shu piyozdan uch toy topdirib, shundayligi… hammasini Temurga jo‘natadiki, bu (ish) tangrining marhamati… bo‘lgan edi. Nihoyat, Temur Alouddinga mehr qo‘yib qolib, uni… o‘z yaqinida bo‘lishini ixtiyor etdi va u to‘g‘risida men ushbu she’r… aytgan mazmundagi gapni aytdi:

> Ey inson: sen o‘z vaqtida kelishding,
> boyligingni fido etib o‘zingni himoya qilding.
> Agar Shomda sendek yana bir kishi bo‘lsa edi,
> U (Shom) bunchalik yomonlikka giriftor bo‘lmasdi.

Temur askari toifalari Safad ahliga qarab yo‘l olib, ular bilan o… di-sotdi muomalasiga kirishdilar va ular o‘rtasidagi sadoqat ip… toki Temur o‘z chodirini buzib, Damashqdan ketmaguncha dav… etaverdi. Qachonki Shom ustidan uning ziyonli bulutlari tarqab ket… jo‘nash maydonida uning sayri chilviri cho‘zilgach, ushbu qal… sherga tomon uning ketidan Alouddin ad-Davodoriy bag‘oyat qi… mat-baho tuhfalar, shohona sovg‘alar, shuningdek bir arz bilan k… diki, uning mazmuni ravshan, ma’nisi ajoyib, iboralari bo‘ysun… va itoatdan so‘zlovchi, unda shunday muloyim so‘zlar bitilgan edi… bulardan badanlar titrab, temir va metindek toshar yumshar, udd… suv oqqandek quruq badanlarda (mayin) oqardi. Alouddin bu arz ja… yonida al-Usmoniy va Ibn Tahhon ishi haqida Temur marhamati… ular tutqunligi peshanasidagi sochni hurriyat va muruvvat qayc… bilan qirqishini, o‘z qudratiga shukrona tariqasida ular (ikkovi) ni af… qilishini, ular ustida o‘z marhamati dengizlaridan bir qatra yog‘d…





…so‘radi. Temurning asiri degan nisbatga ular arzimasligi, chun… yer-dunyo podshohlari uning panohi ostida bolalardek bo‘lishni …qilishlari, Temurning oliyjanob ra’yi (hamma narsadan) oliy, …farmonlariga amal qilish eng avlo (ish)ligi bayon qilingan edi.

Qachonki Temur ushbu arz mazmunidan voqif bo‘lib, uni (ish-…nimadan boshlab, nima bilan tugatganini fahmlagach, uning tuh-…hadyalarini ko‘rgach va dastlab uning o‘ziga qanday xizmatlar …natib, qo‘l cho‘zganini tafakkur qilgach – darhaqiqat, xayr asar …diradi va bu (xayr) ni boshlagan kishi eng karamli kishi; yomonlik …doimiy kulfatu bu qabih ishni boshlovchi kishi eng katta zolim-… – men dedim, she’r:

> Agar sen hayr-ehson qilgan bo‘lsang yaxshi mukofot kut,
> yomonlik qilmagan bo‘lsang, yomonlikdan qo‘rqma.

Yana birov aytgan, she’r:

> Kimki hayr ish qilsa, u mukofotsiz qolmaydi,
> Xudo bilan xalq o‘rtasida tanilgan narsa (bekor) ketmaydi.

Garchi qalbi temirdek (qattiq) bo‘lsa ham Temur yumshab, ishkal bo‘lgan qiyin ish osonlashdi. Natijada, Temur u ikkisini o‘z huzuri-ga chaqirib martabasini ulug‘lab, ularga ehson ko‘rsatdi va Aloud-dining ularga shafoat (so‘ragan) ini ularga bildirdi. Keyin Temur …bir ziyonu zarar yetmasligidan tinchitib, ularga uchta ot – ikkita al-Usmoniyga va bitta Umar ibn at-Tahhonga – tortiq qildi. So‘ngra …tomonidan ularni xatarsiz joyga olib borib qo‘yadigan kishilar …di. Ularning har biri o‘z izzati uyiga yetib unisi Safadida, bunisi …G‘azzasida qaror topdi[823].

**Bo‘lim**

Qachonki Temur qal’ani (batamom) egallashga muvaffaq bo‘lgach, u o‘z ishlarini taxt qilib, qaytishga irodat qildi. Xilma-xil …uqubatlar, turli-tuman itoblar bilan Temur qal’adan o‘zi xohla-gan nafis mollarni-yu boyliklarni (chiqarib) olgan edi.

## (Misr qo'shinlari) Temurdan qochganlaridan keyin Baysaq orqali Temurga yuborilgan maktub ma'nisining bayoni

Aytilishicha, sulton Temurdan qochib ketayotib unga bir maktub yuborganki, u Temurning g'azabini qo'zg'atgan. Mana shu (so'z)lar o'sha maktub ma'no va mazmunidan: «Bizlarni o'zingdan qo'rqib qochdi deb hisoblama. Balki mamluklarimizdan ba'zisi jur'at qilib boshini itoat halqasidan chiqarib, har bir xuruj qilgan (kishi) ning martabasi ko'tariladi deb tasavvur qildi[824] va yuqori ko'tarilish uchun narvon orqali (sekin-sekin) ko'tarilgan kishidan ibrat olmadi. U bilan u ham sening kabi fasod keltirishni, tangri bandalari-yu mamlakatlarini halok etishni istadi. Afsuski, uning maqsadiga (etishdan) Xart ul-qatod osonroqdir. Oliyjanob kishi, agar jismida ikkita kasal birdaniga paydo bo'lsa, dastavval ulardan eng xatarlisini davolaydi. Sening ishingni (masalangni) biz bu ikki xatarli ishning eng osoni va (eng) arzimasi deb bildik. Shu sababli bizning sharafli azmimiz o'z jilovini u adabsizning quloqlarini tortib qo'yishga va uning itoati nazmi vaznini to'g'rilashga burdi. Azbaroyi xudo biz albatta g'azabli sher hujumi kabi senga hujum qilib, nafrat bulog'idan o'z tashna nayzalarimizni o'zing va askaring qoni bilan qondirib sug'oramiz. Sizlarni o't o'rgandek o'ramiz va pichanni yanchib poymol qilgandek poymol qilamiz. Qattiq nayza ta'nasi va shiddatli zarbani tatishingiz bilan albatta urush tegirmoni un chiqargandek sizni har tomonga chiqaradi. Albatta biz sizga xalos yo'lini toraytiramizki, «qochish paytida fursat tilab nido qilasiz»[825]. Maktubda yana shu kabi bema'ni gaplar, shular misoli behuda so'zlar bor ediki, ular go'yo yaraga sepilgan tuzu jon chiqadigan paytdagi yelga o'xshardi. Agar bu befoyda so'z va qu loq (uni) eshitishni istamaydigan bema'ni xitob badaliga Temurning qalbini moyil qiladigan, uning g'azabi olovi alangasini o'chiradigan so'zlar bo'lib, uncha-muncha hadya va sovg'alar tortiq qilinib, o'z harakatini uzr va nadomat tarzida bayon qilganda edi, ehtimol Temur g'azabini sindirgan, uning qahrini qaytargan va hovurini pasaytirgan bo'lar edi. Lekin ular shunday kechirimni Temur Damashqni yondirib, Basrani xarob qilganidan keyin so'radilar, tuyaqushlar va jiraflar bilan birgalikda xizmatkor va hadyalar yubordilar. Ammo tadorik ojiz





qilib, fursat o'tgan edi. Ular (misrliklar) ushbu aytilgandek bo'ldilar. Misra:

> Kulfat tushganda johil kishi oqil kishi
> qilgan (ish)ni qilur,
> lekin sharmanda bo'lganidan keyin.

Shuningdek, yana ushbu misra aytilgan:

> «U (ayol) visol foyda bermas paytda visol ehson qildi».

### Bo'lim

Baysaq (bu haqda) zikr qilib (shunday) dedi:

– «Qachonki men Temur huzuriga kirib, unga maktubni topshirib, maktub o'qilgach, Temur menga dedi: – Haqni so'zla! Isming nima?

– Baysaq, – deb javob berdim.– Bu xunuk so'z qanday ma'noni anglatadi? – so'radi Temur.

– Ey mavlono! Men (buni) bilmayman, – dedim unga. Temur menga: – Sen hali o'z isming ma'nosini bilmaysanu, e yaramas!, – qanday qilib maktub keltirishga yaraysan? Agar podshohlarning elchilarga ozor yetkazmaslik odatlari bo'lmasa edi –ular shu qoidani (azaldan) o'rnatganlar va shu yo'ldan yurganlar, – o'sha sultonlar izlaridan yuradigan va u o'tgan podshohlar sunnatlarini barhayot qiladiganlarning eng avlosi (men) bo'laman – albatta men sening haqingga munosib ishni qilardim va o'zing loyiq bo'lgan ahvolga seni yetkazardim. Ana shu (gap) lardan keyin senda gunoh yo'q, balki gunoh senga bu ishni topshirgan kishi ustidadir; ammo uning ham aybi yo'q, chunki (uning) ilmining borib yetgan nuqtasi va aql-fahmining chegarasi ana shu», – dedi. Baysaqning (bu) zararli fe'li bilan ushbu aytilgan (misra) ma'nosi zohir bo'lgan edi:

> Biron ishga elchi yubormoqchi bo'lsang uni tanla,
> chunki insonlar fikrining bor-yo'g'i elchilaridir.

Keyin Temur menga: «Qal'angizga, – o'z izzatu qudrat makoningga borgin», – dedi. Men qal'aga borsam uning vayron bo'lganini, imoratlari-yu haramlari xo'rlab-haqoratlangani alomatlarini ko'rdim.

Qaytib Temurga kelib, ko'rganlarimni aytdim. Temur: – «Seni y... gan kimsa u bilan yaxshi muomala qilishimga arzimaydi va m... (unga) maktub yuborishimga loyiq emasdir. Ammo unga ayt... mana men sening izingdan unga tomon yetib boraman va (m... mening sherlarim changallari sening etagingga yopishgan (day)... qochish uchun yoki (joyida) qaror topishi uchun etagini shim... Bular (qochish yoki turish) dan qay birini ixtiyor etsa, shunga l... imkoni boricha «kuch-quvvatu otliq askarlar tayyorlasin»[826], – ded...

Keyin u buyurgach, meni (uning huzuridan) olib chiqdilar va m... Misr tomon yo'lga tushib, qaytarilib yuborilishimga sira ishon... dim»[827].

## Bo'lim

Qachonki Temur ta'ma xaltasi-yu ko'zasini nafis mollar... to'ldirib, (Shom) yelinlaridan oz-ozdan sof va loyqa sutlarni so'... olib, uni o'z paxtasidan suzib tindirgach, o'sha ulug' a'yonlar... azoblashga buyurdi. Natijada, ularni suv va tuz bilan azoblab, kul v... ohak ichirdilar; olov bilan dog'lab, go'yo zaytun (yog'i) ni taxtak... siqib chiqarib olgandek ulardan yashirin mol-dunyolarni chiqarib ol... dilar. Keyin Temur o'z askarlariga ommaviy talash, tamomiy tut... qilish, savalash, qatl etish va kuydirish hamda muhlatsiz asorat band... ga solishga izn berdi. Shunda o'sha kofiru fojirlar ular ustiga g'oya... da shiddat bilan tashlanib, azob-uqubat, tahqirlash va xarobalikl... odamlar ustiga go'yo yulduzlar (uchib) tushgandek tushdilar. Ula... qo'zg'alib javlon urgan holda odamlarni o'ldirib taladilar va yirtqi... bo'rilar sovliq qo'ylarga tashlangandek, musulmonlar va zimmiyla... ustiga savlat to'kib tashlandilar; ular qilishi loyiq (bo'lmagan), zikr... naqli ma'qul bo'lmagan (ish) larni qildilar. Ular pardadagi xotinla... ni asir qilib, masturalar yopqichlarini ochdilar, qasrlar falaklarida... pardador quyoshlarni-yu noz-u karashma osmonidan to'lin shamo... (sohibjamollar) oylarini tushirdilar. Ular ulug'lar va kichiklarni tu... li-tumai azoblar bilan qiynadilar va xalq boshiga hisobsiz itobsala... keltirdilar Odamlar ruhlari javohirlarini o'tda kuydirib, ulardan xo... lis tillolar ajratib oldilar va turli xil azob-uqubatlar bilan kishilarda... nafis mollarni olishda ular xilma-xil masalalar ijod etdilarki, ulardan





...qolinadi. Ular onani boladan, jonni tanadan ayirdilarki, (bola) ...an ayol o'z emizagini esdan chiqardi»[829]. Ular, bir ish qilgan ... qilmagan bo'lsin, har kimga o'z ulushini berdilar. Kishi «o'z ...idan, onasidan, otasidan, xotinidan va bolalaridan»[830] qochdi, ...i «o'sha kuni ularning har birida shunday bir holat bo'ldiki, u ... narsaning g'amini yeyishni unutdi»[831]. Aziz va karim (kishi) ...'lib, ulug' va katta (ishlar) arzimagan tuyuldi, balo tamomiy va ... (barchaga) umumiy bo'ldi, aqllar hayratda qolib, fahmu idroklar ... yo'qotib qo'ydi, tashvishu taraddudlar bulutlari ustma-ust ...ldi. Tangri nomi bilan qasam ichamanki, chindan ham o'sha kun- ... qiyomat kuni alomatlaridan bo'lib, bu dam qiyomat shartlaridan ... ko'rinish bo'ldi. Mana shu ommaviy talon-toroj uch kunga yaqin ...om etdi.

## (Damashq) izlarini uchirish uchun ularning shaharga o't qo'yishlari bayoni

Keyin ular ziyon-zahmat va buzg'unchilikni nihoyasiga yetkazib, ...larining fasodlari haqida tafasni bajo qildilar[832] va hajlarini fisq, ...umat va tahqirlash bilan tamomladilar. Ular tavof[833] amalini ijro ..., mamnu' narsalarga sa'y[834] qildilar, uylarga o't qo'yib, qalblar- ... cho'g'lar tashladilar va hisorga tushgan musulmonlar qonlarini ...ddan ortiq to'kdilar va kuydirish maydonlarida chopib, shahar- ... muqaddas joyiga olov yolqinini yubordilar. Temur qo'shinlari ...sida Xuroson rofiziylaridan bor edi. Ular Bani Umayya jome'siga ... qo'yib yubordilarki, olov o'z alangasi bilan jome'ni qamrab olib, ...mol o'z yelishi bilan alangaga yordam berdi. Yong'in va shamol ... osorlarini mahv etishda bir-birini quvladi. Tangri – taoloning ...i bilan bu (ahvol) kecha-kunduz davom etdi. Natijada, boqiy qim- ...matbaho narsalar va odamlar yondi. Shahar vujudi lavhasiga yozilgan ...zuvlar olov tili bilan mahv qilindi. «Bu makonlarda na bir ovoz»[835], ... bir shivirlash sasi eshitilmaydigan bo'lib qoldi. Shahar xuddi ho- ... o'rib olingan quruq «dalaga aylandiki, go'yoki u kecha ham boy bo'lmagan edi»[836]. Bu (hol) ular mol-dunyolardan olganlarini zohir qilib, yuklarni (ulovlariga) ortganlaridan keyin yuz bergan edi.

### Ushbu kulfatlarning qo'porilishi va gunoh-u uvollarni orqali ushbu balo va falokatlar bulutlari (Temur)ning Shom yerlaridan tarqab ketishi

Keyin Temur jo'nab, sha'bon (oyi) ning uchinchisi (19 mart 1401), shanba kunida o'zining to'xtovsiz yog'ayotgan yomg'iri [illegible] losini boshlab ketdi. Ular qimmatbaho mol-dunyolardan toqatlaridan ham ortiqcha olib, qudrat kuchlari ojizlik qiladigan darajada ko'tar[illegible] gan edilar. Natijada, u (mol-dunyo) larni yo'l-yo'lakay og'ir dovon larda va manzillarda qoldirib, o'nqir-cho'nqir mashaqqatli yo'llarda oz-ozdan tashlab keta boshladilar. Bu, yuklarning ko'pligi-yu yuk ko'taruvchi ulovlarning kamligidan edi. Cho'lu biyobonlar va dasht lar, tog'lar va sahrolar matolar va gazlamalar (ko'pligi) dan dahshat bozorlariga o'xshardiki, go'yo yer o'z hazinalarini ochib, yashirin kon va boyliklarini zohir qilgan edi. Men badohatan dedim:

> Baland tog' cho'qqilari va sahrolar ustida
> ular yozuvliklari tili nido qilardi:
> Aziyat bir xususiyatki, biz uni bildik,
> u (aziyat) buzuq odatki, biz unga o'rgandik,
> Biz uni o'z podshohimizu uning tutgan yo'lidan qabul qildik.
> Biz musulmonlar mol-dunyolarini talab
> ularni (o'zimizniki qilib) saqladik.
> u mol-dunyoni o'z o'rinlarida ishlatmadik, lekin «biz u
> qavm ziynatidan (imkonimizdan) ko'p yuklarni ko'tardik»⁸³?,
> natijada (biz ularni yo'l yo'lakay) qoldirib ketdik.

Shu bilan birga, agar Damashq nafisliklaridan olingan (narsa) lardan ikki hissa ziyod (narsa) olinganda ham va uning g'oyat qimmatbaho boyliklari jigarlaridan u qirqib olinganidan ming [illegible] ta ortiq olinsa ham, uning barakatiga zarar keltirmas va uning (boy liklari) dengizlari manbasini kamaytirmas edi. Lekin hayratga solgan yong'in balosi nihoyasi yo'q musibat bo'ldi. Chunki hech bir yordam bo'lmaganidan olov shahar ichida bo'lgan (kishi)larning aksariyatini kuydirib yubordi; imoratlar, gazlamalar-matolar va asbob-anjomlar haqida nima deb gumon qilasan. Shahar ichida o'lganlarning go'[illegible]





[illegible] yeyishga kuchuklar o'rgandi. Bani Umayya jome'siga kirishga bi[illegible] kishi ham jur'at qila olmadi[838].

### [illegible] xabarlar eshitilib, ushbu dahshat va xatarlarni aniq bilgach Misr va boshqa o'lkalarda yuz bergan ishlar bayoni

Ammo Misr va undan boshqa yerlar (xalqi) sarosimaga tushdilar, [illegible] quvvatlari bo'shashib, qo'llari bog'landi, ular beqaror bo'lib, [illegible] tayyorlandilar. Bu hayrona, mastona – «holbuki ular mast [illegible]dilar»[839] odamlarni bir ko'rsang edi! Ularning badanlari titragan, [illegible] bezillagan, ovozlari so'ngan, ko'zlari bo'zargan, lablari qov[illegible], suratlari achinarli, yuzlari g'amgin ediki, «xo'rlovchi biron [illegible] bilan ta'sirlangan (deb) gumon qilasan»[840]. Shaharlarning bar[illegible] aholisi va tog'u tekisliklarda yashovchilardan har biri (jo'nashga) [illegible] bo'lib, keladigan aniq xabarlarga quloqlarini tutib, harakat yo [illegible] bog'liq bo'lgan o'z mo'ljallarini tuzardilar. Temur esa o'ziga [illegible] va xatti-harakat qilib olgan tug'yon iziga qaytib, o'zining egri [illegible] kirishgan edi. Uning qo'shinlari (butun) ufqlaru tomonlarni [illegible], haybati esa (barcha) tevarak-atroflarni qamragan edi.

### [illegible] a'yonlaridan qazo o'qiga uchraganlar va Temur asri changaliga tushganlar bayoni

Temur, Shom a'yonlaridan va bu mamlakatning mashhur kishi[illegible] qozilar qozisi Muhiddin Ibn al-Izz hanafiyni[841], – avval uni [illegible] azob-uqubatlarga duchor qilib, dog'laganlaridan tuz va [illegible] bilan (qondirib) sug'orib, ohak va o'tda qovurganlaridan keyin, [illegible]ingdek, uning o'g'li qozilar qozisi Shihobuddin Abu-l-Abbosni [illegible] bilan birga) oldi. Ota-bola Tabrizga kelib, bu yerda shiddat va [illegible] birmuncha muddat o'tkazdilar. Keyin ular Shomga qaytib, [illegible] (birqadar) tartibga tusha boshladi. Shuningdek, (Temur asorati[illegible] tushganlardan) qozilar qozisi Shamsuddin an-Nobulisiy hanbaliy, [illegible] qozisi Sadruddin al-Munoviy shofiiy – u az-Zob[842] daryosi[illegible] g'arq bo'lib, tuhfador tangri rahmatiga vafot etdi[843] – va mo'tabar [illegible] Shahidning o'g'li Shihobuddin Ahmad, qaysiki, uni (avvaliga) [illegible] solib, itobga tortishini istaganlaridan keyin u o'z yelkasiga va[illegible] yuklarini ko'tarib olgan edi. U o'ziga aloqador odamlarni uzoq

joylarga jo'natib, yolg'iz o'zi Damashqda qolgandi. U ularga (T odamlariga) o'z hikoyatini so'zlab, o'zida mavjud (boyligi) ni ha tishda barcha imkonini sarfladi. Ular uni hufya tutib, yashirin (n larini olib, uning o'ziga azob bermadilar, lekin xo'rlash va k tish bilan uni o'z suhbatlariga oldilar. So'ngra u Samarqandga k zamon qismatlaridan g'urbatlik, faqirlik va alamzadaliklardan (i xilma-xil kulfatlarni boshidan kechirdi. Keyin u Damashqqa qaytib yerda tangri taoloning rahmatiga vafot topdi. (Damashqdan ol bosh amirlardan biri ulug' amir Butxosdir. U Temur huzurida zan bo'lib, u (Temur) Furotga yetganida o'ldi. Ammo qozi Nosiruddin Abi Tayyibni ular turli-tuman azoblarga soldilar. Uning badani o va nozik bo'lib, savdomijoz (qora qonli) edi. Shu sababli u azobl bardosh bera olmadi. Natijada, Nosiruddin o'lib, ular o'zlari ist azobni yetkaza olmay «dog'da» qoldilar. U (Nosiruddin) o'lib, ti di va o'ziga kelgan may qadahidan shahodat sharbatini ichib roh di. Kechga yaqin uni al-Karusiya madrasasiga dafn qildilar.

Qachonki Temur ommaviy, shafqatsiz talon-tarojga kirishg yanglishib qozilar qozisi Taqiuddin ibn Muflah shahid qilindi. Bu nuddin ibn al-Kusha o'n yetti kun betob bo'lib, Tall al-Jubn[844] ma lasida (hayot ipi) uzildi va boshqa o'liklarga qavm bo'lib qo'shildi

Temur qo'shinlari ham tiriklarga ham o'liklarga xuruj qilib, kishini ham o'zini o'likka solib, o'z qo'llaridan qutulib ketishlari qo'rqardilar. Shu sababdan ular shahardagi uylarni birma-bir shirib chiqdilar va tiriklarning (tashqariga) chiqishlariga-yu o'lik ning ko'milishlariga to'sqinlik qildilar.

Qachonki zikr qilingan (Burhonuddin) o'lgach, masala chi lashdi. Uning (yaqinlari) o'likni qanday qilib dafn qilishga hay bo'ldilar va bu ishni amalga oshirib, oxiriga yetkazishga zo'r-bazo' erishdilar. Qanchadan qancha jiddu jahdu ko'pdan ko'p urinishlard keyin uning jasadini Bob us-Sag'irdan olib chiqib, as-Solihiyada da qildilar.

Temur bilan Shomdan o'z ixtiyori bilan Abdumalik ibn at-Takri ketdi. So'ngra Temur uni Sayram[845] noibi qilib tayinladi. Ammo A dumalik noiblikda kam vaqt turdi. Sayram – Sayhun orqasidadir. Ya bug'a Majnun deb ataluvchi boshqa bir shaxs Temurga yaqin (ki





edi. Bunga sabab shuki, u Temurga nasihat berishda jidd-u jahd qilardi va aytishlaricha, dushmanlari haqida Temurga xabar yetkazib turgan. Shu tufayli Temur uni halokat va xatar jarlaridan xalos qilib, bu bilan u Temurga yaqin muqarrib va musohib (doimiy) hamroh bo'lib qoldi. Keyin bu yirtqich sher uni Samarqanddan o'n besh kunlik yo'lda, Xo'jand daryosi orqasidagi Yangi Talas[846] deb ataladigan shaharga noiblikka tayinladi. U (Yangi Talas) va Sayram o'rtasi shu kunchalik (yo'ldir). Bu xiyonatkorning ismi Ahmad bo'lib, keyin u Yalbug'a Majnun deb laqab olgandi.

Temur Damashqdan fazilat sohiblarini, turli hunar ahllarini va qanday bo'lmasin, biron kasb egasi bo'lgan mohir kosiblarni-to'quvchilar, tikuvchilar, sangtaroshlar, duradgorlar, (temir) qalpoq yasovchilar, otboqarlar (mol tabiblari), chodir yasovchilar, naqqoshlar, yoy yasovchilar, lochindorlar – bir so'z bilan aytganda qanday hunar ahli bo'lsa (birga) olib ketdi.

Zikr qilib o'tilganidek, u qora (tanli) larni ham to'pladi. Ushbu toifalarni Temur (o'z) qo'shin boshliqlariga taqsimlab berib, ularni Samarqandga yetkazishlarini buyurdi.

Temur (Shomda) tabobat boshlig'i Jamoluddinni va Shihobuddin Ahmad az-Zardkashni o'zi bilan birga oldi. O'zi aytganidek, u (Shihobuddin) qal'ada (turar) edi. U Temur askaridan sonsiz-sanoqsiz va ko'pligidan hisob-kitobining chegarasi yo'q xalqni qirgan edi. Uning yoshi to'qson atrofida bo'lib, (qaddi) bukilib qolgandi. Temur Shihobuddinni ko'rgach, qahr-u g'azab bilan qarshi olib, unga: – «Sen mening tobelarimni halok etib, xizmatkorlarimni toshbo'ron qilding va hoshiyalarimni o'ldirding. Agar men seni bir zarba bilan o'ldirsam, bu mening kasalimga shifo bo'lmaydi va qasosim tashnaligini qondirmaydi. Lekin men yoshing ulg'ayganiga qaramasdan senga azob beraman, kasiring ustiga kasir, zaifliging ustiga zaiflik qo'shaman». So'ngra u Shihobuddinni ikki tizzasidan yuqorisiga Damashq mezoni bilan yetti yarim ratl[847] keladigan vaznda zanjir solib, bu bilan uni qattiq jazolashni ko'zladi, Shihobuddin zanjirbandiga «umrbod abadiy» deb yozilgan bo'lib, u toki Temur o'lib, yomonliklar ko'tarilmaguncha shu kishanda davom etdi. Keyin ushbu tutqun zanjirbanddan xalos bo'ldi, so'ngra u tangri-taoloning rahmati tomon vafot topdi.

Ehtimol, Temur men bilmagan fazilat ahllaridan, oliyjanob lardan, sayyidlardan olib ketgandir, qanday qilib (bilmagandan men ularni tavsif qilay?

Shuningdek, uning amirlaridan har biri va boshliqlaridan qaysisi ham faqihlar, ulamolar, qur'on hofizlari, fozillar, kasb ahllari, qullar, xotinlar, yosh bolalar va qizlardan hisobiga bo'lmaydigan darajada va hech bir kimsa bu tugunni yechib hal olmaydigan miqdorda olib ketdilar.

Shuningdek, Temur askaridan har biri ham katta-yu kichikni o'ziga asir qilib oldi. Chunki o'shanda biron narsani talagan yoki ron narsani) o'zlashtirgan kishining hech bir gunohi yo'q edi, ki bir narsaga avval qo'lini cho'zsa, u o'shaniki edi. Qachonki maviy talon-tarojga ruxsat jilovi bo'shatilgandagina shunday (bunda) Temur askaridan xos-u avom teng (huquqda) edi – talovchi kishi Temurga asir tushgan yoki uning askariga kelib yoki (uning) odamlariga mansub bo'lmagan kishilar bo'lsa ham edi). Lekin u kimsaga ushbu (talash) ga shundagina ruxsat ki, qachonki u ular siyratlaridan yurib, (ular) xususiyatlari bilan yuritsa, shundagina hukm (tartib) lari unga berilar va ularga o'xshab unga ham o'sha atolar nasib bo'lardi. Ammo (talashga) ijozatdan din esa, agar birov birovga zulm qilsa, – hattoki, u Temurga ota bola o'rnida bo'lsa ham – yoki zarracha bo'lsa ham nohaqlik yoki nahbu-g'orat to'g'risida so'z ochsa, zinhor uning mol-mulki qoni (behudaga) oqizilar, uning hurmati va harami tahqir qilinar Na nadomat, na shafoat (tilash) unga najot keltirmas, ahli va xizmatkorlari unga naf qilmasdi va biron kimsa tomonidan «u bilmasdan shunday (ish) qilib qo'yibdi», – deyilmasdi. Bu, go'yoki buzilmas (qat'iy) bir qoida-yu yemirilmas (mustahkam) bir bino edi.

### Temurdan keyin chigirtka keltirgan ofat bayoni

Qachonki Temur Damashq boyliklari ekinzorlarini o'rib tugatib, undan ketish muddati tamomiga yaqinlashgach, uning izidan (boshoqlarni yeb qurituvchi) chigirtka galalari kelib[848] Temur Mordin va Bag'dodga yetgunicha u bilan birga yura boshladi. Chigirtka o'sha yer yuzida bor bo'lgan daraxtlari – xoh qalin bargliyu, xoh





yo'g'i bo'lsin – hammasini tozalab, yeb quritdi. So'ngra Temur kelib, (avval) zikr qilinganidek, uni Xolid (ibn Valid) ruhiga undan rozi bo'lsin – bag'ishlab (shaharni) talamadi. Lekin odamlari Xoms qishloqlarini talon-taroj qilib, uning quvvat- (yer bilan) yakson qildi. Keyin ular bu yerdan Hamoga o'tib, nafis mollarini talab, yashirib qo'yilgan (boylik) larini zabt oldilar. Uning kelinchaklarini asir olib, sohibjamollariga egalik Sha'bon oyining o'n yettinchisida (1401-yil 2-aprel) ushbu Jabulga qarab qo'yildi. Temur Halabga (odamlar) yuborib, qal'asida o'zi (vaqtincha) qoldirgan (narsa) larni oldi. Keyin yetib kelib, kema va boshqa (vosita) lar yordamida undan So'ngra Temur ar-Ruhaga borib, uni taladi va sutini butunlay oldi. (Shundan) keyin Temur Mordinga, Malik az-Zohirni o'z huzuriga) da'vat etib, maktub bilan elchisini yubordi. Bu uzundan maktubning debochasi, naql qilinishicha, mana shu misra edi:

> Salomu alaykum! Ahdlarimiz o'z holida (saqlanayotir),
> (Sizni) ko'rishga ishtiyoqimiz o'z kamoliga yetdi.

Lekin Malik az-Zohir Temur huzuriga kelishdan bosh tortib, uning so'zlarini ham tinglamadi va (gapiga) ham iltifot bildirmadi. Chunki Temur, zikr qilinganidek, birinchi marta unga ozor yetkazgan bo'lib, in u (ozor) ni tatib ko'rishga uning ehtiyoji bo'lmadi va unga nisbatan xatarsiz yo'l tutib:

> Kimki sinalgan (narsa) ni (yana)
> boshidan kechirsa, u albatta nadomat chekadi, –

degan nazmni aytdi.

Lekin Malik az-Zohir o'z xizmatkorlaridan biri al-Hoj Muhammad ibn Xossbekni sovg'a-salom va armug'onlar bilan Temurga jo'natib, bir qancha vaj-karsonlar ko'rsatib, o'zining kelishini manzur tutdi. Uning javobi unvoni Temur xitobiga muvofiq edi, mana u, misra:

> Sizga tomon ishtiyoqim tavsifi behad,
> lekin jonim (avval) chekkan (jafo)dan qo'rquvda.

Temur bu so'zlarga e'tibor bermay, turli-tuman malomatlar bilan o'zini-o'zi koyiy boshladi: – «Qanday qilib Malik az-Zohir birinchi marta uning changalidan sog'-salomat qutulib ketdi?»

**Temurning haybat bilan Mordinga kelishi va uni qamal qilgandan keyin noumid ketishi bayoni**

Ramazon oyining o'ninchisi, (24-aprel) dushanba kunida Temur askarlari Mordinga[849] kelib yetdilar. Ular Dunaysirni[850] manzilgoh tutib, ertalabdan Mordinni qamal qilishga kirishdilar. Ammo ma'lum bo'lishicha, Mordin ahli shaharni holi qoldirib, mustahkam qal'alarga ko'chgan ekanlar.

**Bu qal'aning tavsifi**

Bu qal'a bir Anqo (qushi)ki, uning cho'qqisi sayd qilinishidan yuqori bo'lib, (bu qal'a) qari qizining tumshug'i kuyov inqiyodi tizginiga kirishdan bosh tortadi. Chunki qal'a, bu tog' bilan falaklar qubbasi o'rtasida farq bo'lmagan bir tog' yelkasidagi cho'qqilardan biri tepasida joylashgan edi. Lekin falaklar qubbasi beqaror (doimo harakatda), bu esa barqaror bo'lib, unda hech bir harakat yo'q. Bu tog' yelkasida bir vodiy bo'lib, uning qorni (kengligi ozod fikrli) husnli odamlar ko'kragidan ham kengroq. Bu vodiyda (bog'lar bo'lib, ular quyisidan anhorlar oqib o'tadi»[851]. Bu vodiyda ekinzorlar qoramollar uchun dala va yaylovlar (bor) bo'lib, u vodiy chegaralari shunday bir qirg'oqlarkim, karamli kishilarning himmatlari u (qirg'oq) lar hududiga yetaolmaydi; harflardirkim, tafakkur qorisi uning hij'alarini sanab chiqishdan ojizlik qiladi. Bu vodiydan o'tgan yo'l qal'aga olib borib (yana) olib qaytadi. Ushbu qal'a g'oyatda manoatli va ulug'vordir. Shahar (esa) uning atrofida (uning etagiga yopishgan holda qurilgan bo'lib, qal'a ne'matlari fazilatlaridan shahar (ahli) tanovul qiladi va uning seli fayzidan suv ichadi. Shahar xalqi goh serobgarchilik, goh yetishmovchilik o'rtasida bo'lib turadilarki, «ularning rizqlari-yu (ularga) va'da qilingan (narsa) osmondadir»[852].

Temur qal'aning tor yo'llaridan qamalga kirishib, uni siqish usullari-yu yo'llarini qidiradi. (Chunki) qal'aning atrofida jang qilish uchun joy hamda manjaniqlar o'rnatish uchun maydon yo'q





edi. Shunda Temur qal'aning tagini kavlash uchun misrang va bolg'alarga tayanib, a'yonlar va boshliqlar[853] yordamiga suyandi. Ammo qal'aning hishmati va ismati (pokligi) choki so'kiladigan (darajada) emasdi, chunki bu qal'a go'yo bir pok qiz (misoli) bo'lib, o'z pokligi sababli erlarni ojiz qoldirgan edi. Natijada, misranglar sinishda, bolg'alar charchashda, bellar[854] uchlari qayrilishda, cho'kichlar xuddi nozik qaddi-qomatlardek egilishda to'xtovsiz davom etardi. Men dedim:

> Ularning misranglari (bu) qal'a yerini qazishda
> go'yo qattiq toshni cho'qiydigan qush tumshug'idek,
> yoki samimiy oshiqni ayblayotgai hasadchidek,
> ko'zi yo'q kishining maqsadiga ko'z bilan
> ishorat qilganidek edi.

Temur ramazon oyining yigirmanchisigacha (4 may, 1401 y.) bu jidal va xusumatni davom ettirib, hech bir foyda ko'rmadi va maqsadiga erishmadi.

**Temurning qal'a qamalida inod va qaysarlikni tark qilib, o'z qo'shini bilan Mordindan Bag'dodga yuzlanishi bayoni**

Qachonki Temur bu qal'adan o'ziga cheksiz kulfat kelganini, toqat yetmaydigan (narsa) ning talabida ekanini, haqiqatga o'jarlik ko'rsatish to'g'ri yo'ldan (chetga) chiqishligini va balog'atli gap o'z maqomidan o'zga joyda duduqlanib tutilshi kabi ekanini bilgach, (o'z) aybini bekitdi hamda qisman hurmatu haybatini saqladi. U shahar va uning devorlarini xarob qilib, ular izlarini mahv etdi, uning mezanalari, jome'lari va minorlarini vayron qilib, shahar asoslari-yu toshlarini parcha-parcha etdi[855].

Keyin Temur chumoli, kapalak va chigirtka misoli (behisob) askari bilan Bag'dodga tomon quyilib yurdi va odamlarning bir qismini Ollohdod bilan (birga) Samarqandga jo'natdi. Ular bironta ham baland uyi bo'lmagan Sur[856] shahriga, undan Axlot[857] va I'yd al-Javzga[858] yetib keldilar. Bular kurdlar shaharlari bo'lib, aholiga gavjum imoratlarga serob ma'mur (joylar) dir. Bu joylar Tabriz va Ozarbay-

jon viloyatlaridan hisoblanib, Temur hukmi ostiga joriy bo'lgan ... labki shaharlar edilar.

Ollohdod guruhi ramazon hayitini I'yd al-Javzda hayitlab, keyin ular Tabriz viloyatiga qadam qo'ydilar; undan Sultoniyaga o'tib, ke... yin esa Xuroson yerlariga kirdilar. Shu paytda qish fasli ketgan ... zeb-ziynatga bezangan bahor fasli kelgan, bog'u rog'lar sahifa... qudrat bo'yoqchisi barmoqlari bilan rango-rang bezatilgan, bo'... kelinchagi ilohiy hikmat zargaridan «o'z zebini olib, ziynatlangan» va gulzorlardagi yuzlab bulbullaru, minglab hazorlardan iborat qushlar o'z mayin ovozlari bilan quloqlarni maftun etib, kishilarga zavq-shavq bag'ishlab, o'zlariga moyil qilgan, «tangri rahmati hayot izlari so'ng... gan yerni tiriltirgan»[860] edi,

Ollohdod guruhi hojilar yurishidek kunduzi yo'l yurib, kecha... si dam olishdek yurish bilan emas, balki hech bir to'xtamasdan ke... cha-yu kunduz yo'l yurdilar va avval Nishopurga[861] keyin Jomga[862] yetib keldilar. So'ngra ular Bovard va Moxon dashtlarini kesib, And... xoyga[863] o'tdilar va nihoyat, Jayxun daryosiga kelib yetdilar. Darye... dan kemalar vositasida o'tib, «uchar yulduzdek»[864] (yo'l) yurib shoshilinch ravishda yurishda davom etdilar va 804-yil, muharram oyining o'n uchinchisi, (23 avgust, 1401-yil) seshanba kunida Sa... marqandga kelib yetdilar. Ularning saflarida Shom ahlidan bir guruh (kishilar) bor ediki, (ularning) eng ko'zga ko'ringani vazir – ash-Sha... hidning o'g'li qozi Shixobuddin Ahmad bo'lib, qolganlari esa ... tabiblari, bo'yoqchilar, shoyi to'quvchilar edilar. Bular Temur Shom... dan olib kelgan qimmatbaho yuklarning avvalgisi va u tergan asirlar boyliklar mevasidan Samarqandga yetib kelgan dastlabki samara edi. Keyin Temur o'ljalar, mol-dunyolar va asirlar karvonlarini birin-ketin (Samarqandga) jo'nata boshladi.

## Bo'lim

Keyin Temur Omid hokimi qilib Qorayluk Usmonni tayinladi va ramazon oyining yigirmanchisida – ya'ni beshinchi may – payshanba kunida Mordindan ketib, o'sha diyorlarda beboshlik ko'rsata boshla... di. U Nasibinni xarob qilib, uning ekinzorlarini poymol qildi, keyin





...harning) vujudi sahifalaridan devorlari va alomatlari[865] suratla... ...ni mahv etdi. Shahar o'z aholisidan xoli bo'lib, (o'z) imoratlari-yu ...bunyodkorlaridan bo'shab qolgan edi. Keyin Temur o'z tashvishini ...ga tomon yo'naltirdi va go'yo zimiston tun misoli to'dalari bi... ...n Mosul ustiga yopirildi. Shaharni batamom talofatga yetkazgach, Temur uni Husayn Bek ibn Pir Husayn (arvohi) ga tortiq qildi. Keyin ...shovqin-suron bilan Qantara[866] nohiyasiga[867] sur'at bilan tashlan... ...a fasodini tugatib, o'z yurtiga qarab ravona bo'ldi, degan ishoat ...qatdi. Lekin Temurning Bag'dodga ko'z tutib kelayotganini, o'z ...biati va odatiga ko'ra, u o'zining asl maqsadini yashirib, yolg'on ...irmalar tarqatganini Sulton Ahmad[868] aniq bilar edi.

## Temurning o'ziga tomon yuzlanganligini eshitgach, Sulton Ahmad ibn Shayx Uvaysning qilgan ishi bayoni

Sulton Ahmadga Temurning Damashqqa borgandan keyin Mor...dinga o'tib endi Bog'dodga[869] azm qilgani xabari yetgach, u: «Eng yaxshi ish qaytishdir», – dedi-da, tayyorgarlik ko'ra boshladi. Lekin... ...chishga (tomon) va beqaror (ish) ga uning ra'yi qaror topdi. Ke... ...yin u Farruj[870] ismli kishini (o'rniga) noiblikka qoldirib, unga va Ibn al-Baliyqiyga[871] bir qancha ishlarni topshirdi va (o'zi) Qora Yusuf hamrohligida Rumga qarab (yo'lga) chiqdi. Sulton Ahmad (ularga) tavsiya qilgan (ish) lar jumlasidan Temur kelganda (unga) darvozalar... ...ni yopmaslik, u ko'z tikkan ashyoni parda bilan bekitmaslik, unga qar... ...shi qilich yalang'ochlamaslik va uning amriga «qanday qilib», «nima uchun?» (savollari) bilan javob bermaslik, kabilar bor edi[872]. Bu ish... ...lar (xabari) Temurga borib yetgach, – u Bag'dodga tomon yigirma ming jangchi jo'natdi va ular ustiga o'z zolim amirlari, boshliqlari va vazirlaridan amirzoda Rustam, Jalol-al-Islomiy va Shayx Nuruddin... ...ni boshliq qilib tayinladi va amir Rustamga uchchalasining boshlig'i ...sanalib, qachonki ular Bag'dodni olganlarida uning (Rustamni) sha... ...har hokimi bo'lishini amr qildi.

Qachonki Bag'dod osmonidan Sulton Ahmad quyoshi g'urbat ...g'arbiga (tomon) botib, zulm zimistoni Temur askarlari qanotla...

rini Bag'dod ufqlari ustida yoyib, o'sha ufqlarga uchar yuldu... yuborgach, zikr qilingan Farruj shaharni ixtiyoriy ravishda ... topshirishdan bosh tortdi va jangga hozirlik ko'rdi, qurshov... dosh berish uchun Farruj o'zida bor qurol-aslahalarni to'plab, ... mashmashani o'yladi. Shunda u (amir) lar bu to'g'rida Temurni ... qilib, undan qanday amru nahiy kelishiga muntazir bo'ldilar. ... Temur Bag'dodga tomon o'z qahri jilovini burib, qo'li yetgan ... g'arq qilib, yondirishga shum niyat qildi. Bag'dodliklar ustiga ... va momaqaldiroq bo'lib yopirilgandan so'ng, Temur ular bosh... g'am-g'ussa soyalarini soldi. Keyin u shaharga o'sha guruhlari ... yetib kelib[873], xaloyiq orasiga kulfat va tashvishlarni keltirib, ... «ochlik va dahshat libosini kiygizdi»[874]. Keyin Temur ularni ... day titratdiki – o, bu qanday titrash edi! Va haj onlarida[875] (ular... hisor etdi. Bag'dod jangchilari matonat bilan (ularga qarshi) tur... lar va Temur askarlaridan o'lik va yaradorlar (soni) ni ko'paytir... lar. Shunda Temur behad g'azablanib, o'z piyoda-yu otliqlari bilan shahar (qal'asi) ustiga yoppasiga hamla qildi. Qurbon hayiti[876] kuni Temur zo'rlik bilan qal'ani egalladi va musulmonlarni qurbon qilib, ular evaziga qurbonlikni ado etib, o'z gumonicha tangri muruvvatiga sazovor bo'ldi. Keyin Temur o'z devoni daftarida hisobda bo'lgan va uning jangchilari va qo'shinlaridan o'z askari yazaklariga[877] mansub bo'lgan har bir odamiga Bag'dod ahli kallalaridan ikkitadan (kalla) olib kelishni buyurdi[878]. Natijada, har bir Bag'dod ahliga joni va molini olish qadahlari ichirildi. Askarlar yakka-yakka va to'da-to'da kallalar keltirib, ular qonlarini Dajla daryosiga oqizib zulm qildilar. Jasadlarni o'sha maydonlarga tashlab, kallalarni yig'dilar va (bu) kallalardan mezanalar bino qilindi. Shunday qilib, ular Bag'dod ahlidan to'qson mingga yaqinini azoblab uldirdilar. Ba'zi jangchilar bag'dodliklar boshini topishga ojizlik qilib, o'zlari bilan birga bo'lgan Shom va boshqa joylardan olingan asirlarning boshlarini kesib olib keldilar; ayrimlari bo'lsa erkaklar boshlarini topa olmay, ayollar boshlarini (kesib) keltirdilar. Ba'zilarning (o'zi bilan birga) tutquni yo'q edi, shu sababli ular yo'lda kimni uchratsa, o'shani ov qilib, o'z hamrohlari hayotiga suiqasd qilib, dushmani yoki do'stini o'ziga fido qildi. (O'z)





...lari va shafqatli kishisiga qaramadi. Chunki (Temur) qo'shinla... ...at xalqasidan chiqish imkoni yo'q bo'lib, «ulardan adolat ham ...l qilinmaydi va shafoatning ham foydasi tegmaydi»[879]. Zikr qi... ...n (90 ming) raqamga hisor vaqtida halok bo'lganlar, olishishda ...l etilganlar yoki Dajla daryosiga g'arq bo'lib o'lganlar kirmaydi. ...ki, aytishlaricha, (qanchadan qancha) odamlar o'zlarini suvga ...lab, g'arq bo'lib o'lganlar. Shular jumlasidan Farruj ham bor edi, ...ki u qayiqqa o'tirib qochgan, lekin ikki qirg'oqdan yog'ilgan ...lar Farrujni yarador qiladi va qayiq to'ntarilib, Farruj suvga g'arq bo'lib ketadi.

«Temur (Bag'dodda) bir yuzu yigirmaga yaqin mezana bunyod qildi», – (shunday) deb menga qozi Tojuddin Ahmad an-Nu'mon ...nafiy xabar bergan edi. U Bag'dod hokimi bo'lib, 834-yili mu...rram oyining avvalida (1430-yil 19-sentyabr) Damashqda vafot topdi – olloi-taolo unga rahm qilsin.

Keyin Temur shahar xazinalari boyliklarini egallab, uning ahlini faqir fuqaroga, ular manzillarini esa dashtu biyobonga, balandini qu...yga aylantirgandan»[880] keyin shaharni xarob qildi. Natijada, Bag'dod shahri Madinatu us-Salom («Tinchlik shahri») bo'lganidan keyin Dor-us-Som[881] («Ajal uyi») bo'lib qoldi. Shaharning (tirik) qolgan zaif ahlini ular asir olib, bo'lak-bo'lak qilib yubordilar. Bag'dodliklar soya salqinda «o'ng va so'llaridagi ikki jannat»[882] kabi maskanlarida farog'atda bo'lganlaridan keyin «zamon qo'llari ularni parcha-parcha qilib tashladi»[883]. Bu kun esa ular makonlarida boyo'g'lilar va quzg'unlar o'zlariga uya qurib olgan bo'lib, faqat ular «maskanlaridan boshqa (hech) narsa ko'rinmaydi»[884]. Bu shahar tavsifdan ko'ra ham mashhurroq, undagi ma'rifat va irfon xushbo'yligi ta'riflashdan ko'ra ham xushbo'yroq (edi). Faqat shuginaning o'zi kifoyaki, Bag'dod o'z ismiga monand Madinat us-Salom bo'lib, aytishlaricha, unda bironta ham podshoh vafot topmagan[885].

# AMIR TEMUR TARIXI

AJOIB AL-MAQDUR FI TARIXI TAYMUR

II QISM

## Bu tug'yonchining orqaga qaytishi va Qorabog'da qo'nishi bayoni

Keyin Temur har birini turk tilida jinoyatkor tug'yonchi deb ayt[illegible]sa to'g'ri bo'ladigan o'sha turklari bilan orqasiga qaytdi va ar[illegible]larda ham, turklarda ham haqqoniy ravishda o'z sifati va mohiya[illegible]ga muvofiq Qorabog' desa ma'qul bo'ladigan bir joyda qishlash[illegible] azm qildi[886]. U tevarak-atrofga alanglagan lochin, balki shum qad[illegible] boyo'g'lidek olislarga nazar tashlab, ufqlar atroflarini, ayniqsa Rum yerlarini (diqqat bilan) kuzata boshladi.

## Temurning Rum Sultoni Yildirim Boyazidga[887] (yuborgan) maktubi bayoni

Keyin Temur (din yo'lida) mujohid, g'azogir (Rum) sulton Boyazidga maktub yuborib, unda hech bir kinoyasiz va ilmoqsiz o'zini Rum yerlaridan nimalar xohlashini ochiq-oydin bayon qildi. U Sulton Ahmad va Qora Yusufni (bunga) sabab qilib (ko'rsatib), ular (ikkovlari)ning o'z qilichlari sagvosidan qochganligini, (ularning) fisq-u fasod moddasi, mamlakatlar uchun halokat va bandalar boshi[illegible]dagi kulfat, (ularning) ichi qora odamlar bo'lib, inqirozga (tushirish[illegible]da) asos[888], balandparvozlik va kiborlikda go'yo Fir'avn va Homon kabi ekanliklarini (o'z maktubida) zikr qildi. Vaholanki. «Fir'avn va Homon hamda ularning qo'shinlari xatokor edilar»[889]. (Yana xatda) Ular o'zlari bilan bo'lgan kishilar bilan sizning himoyangiz ostidan boshpana topdilar[890]. Holbuki (ular) qayerga bormasin, o'sha joyga kulfat-u shumlik joylashgan. U ikkisiga o'xshash kasofatlarni Rum sohibi qanoti ostida bo'lishidan (xudo) saqlasin! Shu sababli siz ular[illegible]ga panohjoy berishdan saqlaning, aksincha, ularni chiqarib yuboring; «ularni qo'lga olib o'rab oling, qayerda topsangiz o'sha joyda o'ldi[illegible]ring»[891]. Siz (bizning) amrimizga muxolif bo'lishdan o'zingizni ti[illegible]ying. Aks holda, ustingizga qahrimiz doirasi yopiriladi. Darhaqiqat,





...ning dushmanlarimiz va ularga o'xshashlarning holini hamda ...shlariga urush va zarbadan tushgan (kaltak) larni eshitgansiz. ... bilan nima ishlar qilganimiz sizga ayondir. Bahslashish-u uru...h u yoqda tursin, hatto biz bilan siz o'rtamizda adi-badi gaplarni ... ko'paytirmang. Mana biz sizga o'z dalillarimizni bayon qilib, ...lar ham keltirdik».

...u (so'z) lar asnosida turli-tuman tahdid-u po'pisalar, xilma-xil ...q va uydirmalar bor edi.

...n Usmon (Boyazid) shoshqaloq va shijoatli kishi bo'lib, odil pod...lardan bo'lishiga qaramasdan unda zarracha ham sabr-toqat yo'q edi. ...qvodor kishi bo'lib, dinida mustahkam edi. Agar u majlis yuqorisida ...h ma'ro'za aytsa, tinmasdan harakat qilaverib va iztirobga tushaverib, ...n chetiga kelib qolardi. Uning adolatliligi tufayli zamon unga (o'z) ...magini ko'rsatdiki, martabasida uning shavkati kuchaydi. Natijada, ...Usmon yerlarini xolis o'ziniki qilib olib, podshosi Alouddinni qatl ...li hamda uning ikki o'g'lini asir oldi. U Mantasho[892] va Saruxon[893] ...larini (ham) egalladi. (Shu paytda) Kermiyan[894] viloyatining hokimi ...r Yaqub ibn Alishoh undan Temurga qochib o'tdi; Bolqon tog'lari ...ladidagi nasroniylar yerlaridan to Arzinjon yerlarigacha bo'lgan joy... xolis uniki bo'lib qoldi[895].

Boyazid Temur maktubidan voqif bo'lib, uning xitobi mazmuni... fahmlagach, u o'rnidan sapchib turib ketdi; uning g'azabi qaynab, ...yib-yondi. Go'yo nasha ivitmasi ichgan kishidek goh tovushini ...tarib, goh pasaytirib (shunday) dedi:

– Bu uydirmalar bilan u meni qo'rqitmoqchimi? Yoki bu yolg'on...shiqlar bilan menga nisbatan fitna chiqarmoqchimi? Yoki bo'lma...a, meni Ajam podshohlari misoli hisobladimi? Yoki gapini anglab bo'lmaydigan Dasht totorlari kabi sanadimi? Yoki qo'shin yig'ishda ...ndlar lashkarlari kabi ko'rdimi? Yoki mening askarlarimni tarqoq...likda Iroq to'dalari kabi deb hisobladimi? Yoki mendagi islom (yo'li...dagi) g'azotchilarni Shom askarlariga o'xshatdimi? Yoki o'zining ...urigan to'dasini mening askarimdek bildimi? Yoki uning haqidagi (barcha) xabarlarni menga ma'lum (ekanli)gini bilmaydimi? Qanday qilib u podshohlarni aldagani-yu makr ishlatgani, (qanday qilib u vo-

liylikka egalik qilgani va (so‘ngra) noshukurlik ko‘rsatgani, [illegible] lan (u) podshohlar o‘rtasida nimalar sodir bo‘lgani, qanday qil[illegible] u podshohlardan har vaqt bir toifani zaiflashtirgani (hammasi) [illegible] ma’lum. Bu ishlarning hammasini men (odamlarga) bayon [illegible] yashirib (dilida) saqlab kelayotganlarni zohir etaman. Vaholanki [illegible] ishishng avvalida u haromi, qon to‘kuvchi va zinogir buzuq[illegible] paymonlarni buzuvchi, savobdan xatoga toygan bir qing‘ir [illegible] edi. So‘ngra u savlat to‘kib javlon urdi, (tevarak-atrofga) chov[illegible] di va g‘avg‘o ko‘tarib, nohaqlikga yuz qo‘ydi. Uning majoli [illegible] bo‘lib, odamlar undan g‘aflatda qoldilar va u paydo bo‘lgandan [illegible] lab bolalarcha ish tutib, nihoyat ayb (ishlar) bilan keksaydi. Na[illegible] erishgan narsasiga erishib, yetishgan narsasiga yetishdi.

Uning miltillab yonib turgan piligi[896] alangalanib ketdi. U [illegible] tiltirgan donning navlari sochilib g‘aflatga aylandi. Ammo [illegible] podshohlariga kelsak, u ularni (avval) o‘z makri-yu aldovi [illegible] (yuqoridan) pastga tushirdi, keyin ularni o‘z odam va otlari [illegible] joylashtirdi. U (podshoh) lar uni qatl etish fursatini qo‘ldan ch[illegible] gach, Temur ular qatliga shoshildi. To‘xtamishxonga kelsak, [illegible] askarining ko‘p qismi[897] unga xiyonat qildi. O‘tkir qilich bilan [illegible] berish totor galalariga yo‘l bo‘lsin? Rumlar sherlari oldida [illegible] da (yoy) o‘qi otishdan boshqa hech bir hunar yo‘q. Hind galala[illegible] yo‘l bo‘lsin? Rumlar sherlari oldida ular firiblarini o‘zlari gardan[illegible] qaytardi. Keyin hindlarning negizlari bo‘shashdi. Ayniqsa, sulton[illegible] o‘lgandan keyin. Shom askarlariga kelsak, ularning ishlari ma’lum[illegible] Ular ustiga (Temur tomonidan) nimalar kelgani aniqdir. Chunki [illegible] hir (narsa) ni parda bekitmaydi. Qachonki ularning sultoni o‘lgach, rukunlari beqaror bo‘ldi, ishlari chalkashib, yuz tuban bo‘ldilar. Ular dan biri ikkinchisining payiga tushdi. Ular katta boshli (ulug‘)larda[illegible] mahrum bo‘lib, ulardan faqatgina kichik boshli (johil) lar qoldilar. Natijada, zamon ular nizomini tarqatib, (ular) mamlakati[898] va Sh[illegible] mini tarqoqlik qamrab oldi. Ular suratda bahor kabi bo‘lsalar-da ma’noda qahraton qish kabidurlar. Ular faqat birgina narsani ko‘zlay dilar. U ham bo‘lsa jam bo‘lishib yotadilaru ikkita-ikkita va bitta-bitta bo‘lib turib ketaveradilar. Albatta, (shu sababli) u guruhlarning to‘da[illegible]





[illegible] tarafga qarab to‘zib ketdilar. Shunda Temur qo‘shinlari u gu[illegible] orasida man qilingan ishlar bilan mashg‘ul bo‘lib, keyin bor[illegible] holi bo‘lib, bo‘sh qolg‘ach Temur bemalol tasarruf yuritdi. [illegible] ular o‘rtasida ittifoqlik bo‘lganida edi, uni mayda-mayda qilib, [illegible] tarqatib, yanchib tashlardilar. «Ammo ularni jamlangan deb [illegible]laysan-u, lekin ularning qalblari har xil»[899]. Ular nizomlarining [illegible] qo‘yilganligi, yoylarining nishonga to‘g‘ri yo‘naltirilganligi, [illegible]larining quvvatliligi, kurashlarining shiddatliligi, nayzalarining [illegible]liligi, hojatlilarga orqa tayanch va g‘azabli sherlar kabi bo‘lgan[illegible] bilan bizning askarimizdagi tartib-intizom-u g‘alaba uchun biz[illegible] o‘zaro yordam va birdamlik qayoqda ularda? Yalangoyog‘-u [illegible]‘ochlar ishiga kafil bo‘lgan kishi bilan, g‘azogir jangchilar [illegible] o‘z ustiga olgan kishi orasida qancha (katta) farq bor? Chunki, [illegible] bizning xohishimizu, zarba (berish) esa matlabimiz, jihod biz[illegible] san’atimiz, Tangri taolo yo‘lida g‘azot qiluvchilarning sharia[illegible] bizning shariatimizdir. Agar birovlar mol-dunyo orttirish talabida [illegible] qilsa, biz faqat tangrining so‘zi (hamma narsadan) oliy bo‘lsin, [illegible] urush qilamiz. Bizning odamlarimiz jannat talabida xudo yo‘lida [illegible] jonlari-yu mol-dunyolarini fido qilganlar. Ular zarbalari ovozidan [illegible]dan qancha kofirlar quloqlarida qolgan; u (kofir) lar boshla[illegible] kulohlarida qilichlaridan qanchadan qancha jaranglagan tovush [illegible]qan; ahli salib dimog‘lariga askarlarimiz yoylarining «nuni»dan [illegible]cha ovoz yetgan. Agar biz ularni dengiz havzalariga qarab bosh[illegible]sak, ular tushib ketaverganlar. Yoki ularga kofirlar qonini oqizish[illegible] yuklasak, ular qonini oqizganlar. (Shunda) ular o‘z qal’alalaridan [illegible]chiqib, kofirlar qal’asini qo‘porishga yuz tutganlar va ularni yakson [illegible]qilib, otlari jilovlaridan tutganlar. Har vaqt ular biror vahimali cha[illegible]qiriq eshitganda, unga qarab uchib borganlar. Mabodo maliklari ular[illegible] biror falokat va baloga yo‘liqtirganda ham ular unga qarab: «biz bu yerda o‘tiramiz, sen o‘z rabbing bilan borib urush qilaver»[900], – [illegible]demaydilar. Bizning piyoda g‘azotchilarimiz borki, ular suvoriy jang[illegible]chilardan ko‘ra shiddatliroq jang qiladilar. Ular go‘yo sindiruvchi sherlar, jasur qoplonlar, yirtqich bo‘rilar kabi bo‘lib, ularning bolta[illegible]lari o‘tkir, tirnoqlari zafarlidir. Ular qalblari bizga nisbatan muhabbat bilan to‘liq, dillarida bizga nisbatan hech qachon shumligi yo‘q. «Bal-

ki ularning yuzlari urushda kulib, o‘z rabbiga boqadi»[901]. G[illegible] xulosasi shuki, bizning jami ishlarimiz, askar holimiz-u harak[illegible] – munkirlarni to‘dalash, asirlarni yig‘ib olish, o‘ljalarni jam q[illegible] dir. «Chunki biz Tangri yo‘lida jihodchilarmizki, qaysiki ular [illegible] matchining malomatidan (sira) qo‘rqmaydilar»[902]. Men bilaman[illegible] so‘zlar seni hech to‘xtamasdan bizning mamlakatimizga tom[illegible] lantiradi. Agar sen (biz tomonga) kelmasang, sening xotinlarin[illegible] taloq bo‘lsin. Agar sen mening yurtimga kelsang-u men senga q[illegible] qat’iy urush qilmay qochsam, u vaqtda mening xotinlarim uzil[illegible] uch taloq bo‘lsin».

Keyin u xitobini tamomlab shu zaylda javob qaytardi.

Qachonki Temur uning iztirobli javobidan voqif bo‘lgach, [illegible] Usmon majnun va ahmoq», – dedi. Chunki u aziyatli holda h[illegible] qilgan edi. Temur uning javobidan xotinlarning zikr qilgan j[illegible] o‘qib, xotima qildi. Chunki xotinlarga til tegizish ularda katt[illegible] bo‘lib g‘oyat gunoh hisoblanadi. Xatto ular xotin va qizlarning i[illegible] talaffuz qilmay, ularning har birini boshqa bir ibora bilan atayd[illegible] hamda bu narsadan saqlaninglar, deb (odamlarga) doimo uqtir[illegible] Agar ulardan birontasining xotini qiz tug‘sa, unda uni «pardalik b[illegible] yoki «ziynat sohibi» yoki «mastura» yoki shunga o‘xshash (ibor[illegible] bilan ataydilar.

## Temurning Rum yerlarini xarob qilishni niyat qilib uchishi bayoni

Natijada, Temur Ibn Usmonga qarshi yurishga bahona t[illegible] (shu maqsad uchun) o‘ziga hamroh va yo‘l qidirib, yo‘l boshl[illegible] izladi. U o‘z qo‘shinini ko‘rik qilganda (qo‘shini unga) go‘yo ([illegible] «vahshiylar ja’mlangandek»[903] u (askar) lar yer yuziga tarqal[illegible] «go‘yo kavkablar sochilgandek»[904], mavjlanganda «go‘yo harak[illegible] kelgan tog‘lardek»[905] yurganda «go‘yo qabrlar to‘ntarilgand[illegible] qo‘zg‘alganda yer qattiq zilzilaga kelgandek, harakat qilganda [illegible] qiyomat o‘z vahimalarini zohir qilgandek bo‘ldi.

Temur o‘zining valiahdi va o‘zidan keyingi vorisi – nabira[illegible] hongir o‘g‘li Muhammad Sultonga xat yuborib, amir Sayfuddin [illegible] rohligida Samarqanddan o‘z yoniga kelishini xabar qildi. O‘z[illegible]





[illegible] qarab yo‘lga tushdiki, unga tadfiq emas, tasodif madadkor [illegible]. U ushbu qora dengiz va zulmatli kecha (misoli qo‘shin) bilan [illegible] aylandi va qancha joylarni bosib o‘tib, Kamox[907] qal’asiga kelib [illegible]tadi.

## Kamox qal’asining tavsifi

Qarasaki, u qal’a mustahkamlikda xudoni yagona deyuvchi kishi[illegible] iymoni kabi (mustahkam) manoat va ustivorlikda xudojo‘y (ki[illegible]) ning e’tiqodi kabi (kuchli) edi. Bu qal’aning monelik xandag‘ini [illegible] o‘qi kesib o‘ta olmas, unga yetishish yo‘liga to‘g‘ri fahm yo‘l [illegible] olmas; uning yuksaklik rukunlarining asoschisi qudrat me’mori [illegible], (uning) qubbalari binosining muhandisi tabiat duradgoridir. [illegible] g‘oyatda baland ham, (erga) yopishgan past ham emas, shunga [illegible]masdan, manoat va pishiqlikda yuqori darajada edi. Bir tarafdan [illegible] etagini Frot daryosi o‘pib o‘tsa, ikkinchi tarafidan esa keng bir [illegible] uning a’lomlarini muhofaza etadi. Vodiyda qadam qo‘yishiga [illegible] imkoniyat bo‘lmay, u (joy) Frot daryosiga quyiladigan bir suv [illegible]lidir. Qolgan ikki tarafidan esa tepaliklar (mavjud) bo‘lib, unga na[illegible] tushish bilanoq basirat tili: «haqiqatan ham bu ajib (bir) narsa»[908] [illegible]) ni tilovat qiladi.

Temur bu qal’ani hech bir kulfatsiz egallab, uning haramiga u [illegible]) ning tavof qilmasdan hech bir to‘xtovsiz kirib bordi. Bu (ish) [illegible]hammad Sulton Temur huzuriga kelgandan hamda Temur qal’a [illegible] va muqotalasini uning zimmasiga yuklagandan keyin (bo‘lgan) [illegible]. Qal’aning egallanishi sababi shuki, uning orqa tomonidagi vodiy [illegible]-bugri bo‘lganligidan qal’aga kelgan har qanday kishini umid[illegible] qaytarardi, chunki u qadamni sirg‘antiradigan (joy) hamda uning [illegible]‘oyat keng bo‘lishi maqsadga yetishdan yiroqdir. O‘q tili (esa) [illegible] eni kengligiga rahna sola olmas, nazar (solish) g‘avvosining [illegible] vodiy (eri) zaminida qaror topa olmasdi. Lekin Temurning [illegible]odiyga) nazari tushishi bilanoq u farosat ko‘zi bilan unga qarab, [illegible]‘ochlar kesib, xodalar keltirishlarini amr qildi. Temur qo‘shin[illegible] ko‘z ochib yumguncha uylarni vayron qilib, daraxtlarni kesdilar [illegible] uchratgan yog‘och, shox-shabba-yu xodalarning hammasini olib

kelib, ushbu vodiy qa'riga tashladilar va uni yer bilan barobar qil- vodiyning bo'yini-yu enini to'lg'izdilar. Qal'a ahli bu ishdan vo- bo'lgach, o'sha yog'ochlarga o't va borud[909] tashlab olov qo'ydi- ki, natijada, yog'ochlar alangalanib yona boshladi. Ammo qal'an- asosiga yetish amrimahol bo'lib, u (baland) tog'lar cho'qqilari u- ga o'rnashgan edi. Lekin bu holat Temurni dovdiratmadi va uni o- fikridan qaytarmadi. Balki u darhol o'z odamlarining har biriga o'sh- cho'l-u biyobonlardan bir xaltadan tosh olib kelishlarini amr qil- Ular o'sha tepalig-u tog'lar, sahro-yu pastliklarga go'yo chumoli- va chigirtkalardek tarqaldilar va «bu vodiyga toshlarni (ko'chir- keltirdilar»[910] va bir zumda ushbu soyni mayda va yirik toshlar- to'ldirdilar.

Keyin Temur bu chuqur joyda ushbu toshlarga nisbatan bir ku- jahannamda ularga qanday muomala qilinadigan bo'lsa, shunday ya'ni jahannamdan: «Sen to'ldingmi?» – deb so'ralganda, u: «Yan- ham bormi?»[911] deganidek misolida – ish qildi. Chunki qo'shinla- (bu) vodiyga o'zlari to'plagan toshlar to'dalaridan bir qismini tash- ladilar va bu yig'ilgan tosh xirmonlarida esa (vodiyga) tashlanga- toshlardan ikki baravar ortig'i qolib ketdi. Qachonki vodiy toshlarda- to'lganda, Temur qo'shinlari uning ustidan yurib o'tib, qal'a devo- lariga yaqinlashdilar va narvonlar o'rnatib, yuqoriga ko'tarila bosh- ladilar va qal'a darvozalari kokillariga osildilar. Shunda qal'a ahl- kalomdan voz kechdilar va omonlik tilab (qal'aga) «tinchlik bilan kiringizlar»[912] dedilar. Bu hisor (qilish) va majburan omonlik tilash 804-yilning shavvol oyida (1402-yil may–iyun) bo'lgan edi. Temur qal'aga o'rnashib olgach, u (tashlangan) toshlarni vodiydan ko'chi- rishni amr qildi. O'sha zahotiyoq (qushinlar) toshlarni kutarib, (av- val) olgan joylariga olib borib tashladilar. Keyin Temur qal'aga ash- Shams deb ataladigan bir kishini voliylikka tayinladi. O'zi esa undan kecha qaytgandek (bir kun turib) qaytdi. Bu qal'a Arzinjondan yarim kunlik yo'lda bo'lib, (o'z) manoati va qaysarligi bilan dunyoda mash- hur qal'alardan biridir. Albatta u (Temur) qal'ani zabt etib, o'tkir qil- chi bilan unga yetishgach hamda uni qahr bilan fath qilib, jabr bilan unga muyassar bo'lgach, shu oson o'lja haqida o'z yerlaridagi barcha





-lib-ketuvchilarga maktublar jo'natdiki» ularda ko'ngliga kelib, di- -la javlon urgan xabarlarning hammasini bayon qildi. Bu bayonlar -voni tarjima qilinmay aytilganda, quyidagidan iboratdir:

Misra:

> Jangda qon tomadigan qilichlar tig'i bilan,
> Tangriga hamd bo'lsin – Kamox qo'rg'onini fath qildik.

Temur o'z xatida Ibn Usmonni va o'zining unga yozgan xitobi- -ni va undan kelgan ahmoqona javobni eslatdi. Uning jumla-yu tar- -masidan shuki: «Biz unga (hech) dag'al muomala qilmadik va unga nisbatan (hech bir) adovat bildirmadik. Lekin (haqqoniy) so'zimiz bilan yumshoq muomala qilib, (unga) lutf ko'rsatdik. Biz unga fa- -sod moddasi bo'lgan, viloyatlarni xarob etgan, odamlarni halok qil- -gan Ahmad Jaloyiriy bilan Qora Yusuf Turkmoniyni o'z mamlakati zaminidan chiqarib yuborishini maslahat ko'rdik. Chunki gunohga -rozi bo'lishning o'zi gunohkorlik, xudosizga ehson ko'rsatdi – xu- -dosizlikdir. Fosiq, murtad, bebaxt (kishi) fojir, zolim lo'ttibozdan ko'ra yomonroqdir. Fisqu-fasodda Ibn Usmon amir bo'lsa, bu ikkisi uning vazirlari, inodda u katta bo'lsa, ular ikkisi kichik bo'ldilar. Bu borada ular uning hamtovoqlari va ko'makchilari, «chunki mavlosi qanday bo'lsa, uning oshnalari ham shundaydir»[913]. Natijada, ular Ibn Usmonni buzdilaru o'zlari tuzalmadilar, unga ziyon keltirib (o'zlari) foyda qilmadilar. Go'yo u ularning ishini nazarda tutib, ularning harakatu so'zini izhor etgan kishidek bo'ldi.

Misra:

> Sog'lom odamga yaqin turishlik qo'tirga foyda bermaydi,
> Lekin sog' kishi ham qo'tir bo'ladi.

«Lekin u o'zining qing'ir yo'lidan qaytmadi, aksincha u ularga homiylik qilishi bilan «amir onasining cho'loq bo'riga boshpana be- rishiga o'xshadi»[914]. Biz uni bundan tiydik, u tiyilmadi; biz uni ogoh- lantirdik, lekin u bunga hech e'tibor qilmadi, (biz) unga (bu xususda) boshqalardan misollar keltirdik, lekin u bulardan ibrat olmadi, (biz- ning) muxoliflardan intiqom oladigan lisonimiz unga: «Hazar qil! Ha-

zar! – deb nido qildi. Biz maktublarimizdagi o‘z hishmatimizu odobi odatimizga ko‘ra, uning ismini o‘z ismimiz bilan bir qatorga (qo‘yib) yozgan edik. Lekin u g‘oyatda haddidan oshib, o‘zining insofsizligini namoyon qildi. Chunonchi, u xatlaridan birida va yozgan maktublarida o‘z ismini Tahartan ismidan keyin qo‘ydi. Bu ish unga vojib bo‘lib, yarashadimi?» «Hech shubhasiz, Tahartan bizning nazdimizda bir qulimiz kabi bo‘lib, fuqaromizning eng arzimagani misolidir». Keyin, u, ya’ni Boyazid, bizning maktubimizdan voqif bo‘lib, bizga rad javob qilganda hamoqatining ko‘pligi-yu beadabligi natijasida o‘z ismini oltin (harflar) bilan (yozdirib), bizning ismimizdan yuqori qo‘ydi».

Keyin Temur o‘zining Rum yerlariga yurish qilib, ularni ishg‘ol qilishni iroda etganini zikr qildi. Bu maktubida u dabdabali so‘zlar yozib, xitobida seriborali gaplar ishlatdi. U (maktub) kotiblar dasturlaridan va xitob-u javobida tayaniladigan dasturlardan biri hisoblanadi.

## Bu to‘fon o‘ziga tomon qo‘yilganda Ibn Usmonning unga qarshi qilgan azmi bayoni

Temurning niyati Ibn Usmonga yetib, uning o‘z tole’ini urush maydonida izlaganini bilgach, Ibn Usmon u bilan jang qilishga yuzlanib, istiqboliga tayyorlandi. Shu payt u (Ibn Usmon) Istanbulda shahar gunohkorlari-yu munkirlarini hisor etib turgan, u (shahar)ni fath qilish arafasida bo‘lib, urush tamomiga yaqin qolgan edi[916]. Yonida qo‘shini bo‘lishiga qaramasdan, Ibn Usmon o‘z g‘azotchilari batriqlariga[917], o‘z lashkari yirtqich burgutlari-yu qirg‘iylariga, guruhlari boshliqlariga, Kermiyan[918] karimlariga, dengiz sohillari qo‘rqmas galalariga, Qaramonning hur erlariga, Montasha viloyatlari jangchilariga, Saruxon suvoriylariga, tumanlari va sanjoqlarining[919] jami amirlariga, bayroqdorlari-yu qo‘shin boshliqlariga, ikkala poytaxt Brusa va Adirna[920] hukmi ostida joriy bo‘lgan barcha makonlaru chegaralar noiblariga – kimki uning oq bayrog‘ini qo‘lida tutib, oq tanli yunonlarni qizil qonidan yashil dengiz bezaganlarga va chavkar otiga o‘tirib, o‘zining qora o‘qlari bilan qo‘ng‘ir ko‘zli dushmanlar qora yuragini parchalaganlarga – hammasiga o‘z foydalarini bilib ehtiyotkorlik





ko‘rsatishga, qurol aslahalarini (qo‘llariga) olishga amr qildi. Bu bilan u har qanday isyonkoru buzg‘unchiga qarshi kurashish uchun musulmonlar omonligiga kirgan har bir vodiy, buzuq va kiborga payvandi hamda totorlarni[921] (yordamga) chorladi. Ular kuchli, boy va foyda talab odamlar bo‘lib, behisob chorvalari chor atrofni to‘ldirgan, boshliqlari va hoshiyalari bilan ular butun tog‘u tepaliklarni qoplagan edi. Ko‘pincha ulardan birining o‘n ming tuyasi bo‘lib, birontasiga ham yuk ortilmasdi. Shuning misoli otlari ham bo‘lib, ularga na egaru na yugan solinardi. Ammo qo‘y-u sigirlarining hisob-kitobi bo‘lmay, sonsiz-sanoqsiz «Rabbing qo‘shinining sonini uning o‘zidan boshqa hech kim bilmaydi»[922] (misolida edi). «Bu bandalar uchun ogohdan bo‘lak hech narsa emas»[923]. Ularning Rum va Qaramon yerlaridan tortib toki Sibos atroflarigacha (bo‘lgan) joylarda qishlov va yozlik joylari bordir; podshohlar va sultonlar ularga e’timod qiladilar. Shuningdek, ular turli-tuman ezguliklari ezaziga (har xil) siylovlarga muyassar (kishilar)dir. Agar biror faqir (kishi) yoki musofir, ilm tolibi yoki adib huzurlariga kelsa, ular uning uchun shunchalik miqdorda qo‘y, sigir, yung, mo‘y, qurut, yumshoq teri yig‘ib berardilar, bu (yig‘inma) uning o‘zi va avlodlarining ham umri oxirigacha kifoya qilardi. Totorlar va ular bilan birga bo‘lgan xalqlarning ko‘pligidan ularni «o‘n sakkiz ming olam» deb atardilar[924].

Natijada, o‘sha «tog‘lardan» har biri ovozi boricha «labbay» deb aks sado bilan javob berdi va Ibn Usmon farmonlariga itoatu inoyat bilan amal qilishga shoshildi. O‘sha zahotiyoq totorlar hammalari bira-to‘la unga tomon yo‘l oldilar. Ularning askar tog‘lari va qo‘shin dengizlaridan bitta ham qolmay Ibn Usmonga kelib qo‘shildi. U g‘azogir askarlaru mujohidlarni qat’iyat bilan Temur muloqotiga da’vat etdi.

## Totor qo‘shinlarini Ibn Usmondan qaytarish borasida Temur qilgan bag‘oyat bezakli ish bayoni

Birmuncha vaqt o‘z ishi bilan band bo‘lgach Temur (o‘z) fikr chaqmog‘ini alangalatdiki, chaqmog‘i Ibn Usmondan totorlarni qaytarish lozim (degan) uchqunni chiqardi. Natijada, u totorlar rahbarla-

riga, amirlar va boshliqlari ulug'lariga va ularning Fozil deb atalgan amiriga – u (chindan ham) fozillikda baland martabaga erishgan bo'lsa ham (uning) tajribasi kam va yaramas (kishi)larning makr-hilasini idrok eta olmas edi – maktub yuborib; (Darhaqiqat), sizning martabangiz (mening) martabam, nasabingiz nasabim bilan muttasil (bizning) mamlakatimiz (sizning) mamlakatingiz, ajdodimiz – sizning ajdodingiz, biz hammamiz bir daryoning irmoqlari-yu bir daraxtning butoqlarimiz. Qadim zamonlardan beri bizning ota-bobolarimiz bir uyadan o'sib-undilar va ozgina inda ko'payishib, daraja topdilar. Shu sababdan ham, shubhasiz, sizlar mening shoxobchalarim va butoqlarimdan biri; mening a'zoyi – badanimning bir a'zosi, menga xolis (kishilar) va do'stlarimsiz. Sizlar men uchun ichki kiyim bo'lsangiz boshqalar esa faqatgina sirtqi kiyimdirlar. Agar o'zgalar podshohlik (martabasi)ni (kurashib) qo'lga kiritsa, siz esa bu martabaga nasl-nasab yuzasidan erishgansiz, chunki sizning ota-bobolaringiz qadim zamonlarda Turon yerlarining podshohlari bo'lganlar. Ulardan bir toifasi o'z ixtiyorlarisiz bu diyorlarga kelib, shunda Vatan tutib qolganlar. Ular, xuddi hamisha bo'lganlaridek, karomatda turib, saltanat belgilari-yu riyosat jilovlarini tutib yurganlar hamda shu surur-shodlikda davom etib, nihoyat tangri taoloning rahmatiga muyassar bo'lgunlaricha mana shunday izzatu ikromda bo'ldilar. Marhum Ibn Ustana[925] sizning oxirgi podshohingiz bo'lib, Rum yerlaridagi eng ulug' hokim sizning eng kichik mamlukingiz misoli edi. Xudoga shukurki, sizning shavkatingizda zaiflik, farog'atingizda noqislik yo'q. Qanday qilib siz o'zingiz shunday xo'rlanishga rozi bo'ldingiz? Go'yoki siz sehrlangan (kishi) ki, o'zgalarga malay, bo'lishlikka sabr-u toqat qilasiz? Ulug'larning ham ulug'i bo'lgandan keyin qanday qilib siz kichiklarning ham kichigi bo'lib qoldingiz? Sizlar xoru zorligi ayanchli ahvolda emassiz-ku, vaholanki tangri-taoloning yeri beparyon. Nega endi siz (o'zi) Ali Saljuqiy[926] tomonidan (qullikdan) ozod qilingan qullarning avlodlaridan bo'lgan kishining quli bo'lib qoldingiz? Buning sababi-yu boisiga (aslo) mening aqlim bovar qilmaydi-tir. Ixtilof va kelishmovchilikdan bo'lak (narsa) bo'lmagan bunday birodarligu yaqinlik qayerdan paydo bo'ldi? Lekin har holda men





uchun avlo (kishi) man va sizning foydangiz uchun haq gapni so'zlayman hamda (kelgusi ishlaringiz) uchun zamin hozirlayman. Agar sizga bu yerlarda yashamoq lozim bo'lib, o'sha keng o'lkalarni ham – tor yerlariga sotish zarur bo'lsa, u vaqtda sizlar eng kamida o'z avlodlaringiz kabi bu (mamlakat) larning hokimlari bo'lib, qal'alar jilovining yugani sizlarning qo'lingizda bo'lsin; sizlar u yerlar o'rtasida o'tiring va unda (mamlakatda) qo'lingizni cho'zib, bemalol (uning) jilovini boshqaring. Bu muhim ish qachonki biz ushbu urushga kifoya qilib, bu kurashdan o'z murodimizga erishsak va maydon tamiki bo'lib, o'rtadan Ibn Usmon ko'tarilsa, (shundagina) hosil bo'ladi. Qachonki borliq g'animdan tozalanib, bu mamlakat joylari holis meniki bo'lsa, men uning yo'l va yo'lkalaridan yursam, shunda men yoyni yasagan (odam) iga berib, uyni esa bino qilgan odamiga ato qilaman; suvlarni o'z oqimiga qaytarib, sizlarni ular qishloqlari, qal'alari, shaharlari va atroflarining hokimi etib tayinlayman; sizlardan har biringizni o'zi sazovor bo'lganiga yarasha martabasiga qaror toptiraman. Faqat sizlar (urushda) bizlarga qarshi yordam bermay, biz tomon o'tishga imkon topasiz. Fursatingizni g'animat biling va undan o'z hissangizni olishda foydalanib qoling. Chunki siz ham surat, ham mazmun jihatidan bizga yaqinsiz. Ammo, hozircha zohiran Ibn Usmon bilan bo'lib, botinan biz bilan bo'ling. Qachonki bizlar uchrashganimizda (ulardan) ajralib chiqib, bizning askarimizga qo'shiling», – deb yozdi.

Temur xitobining ayg'ir oti totorlar aqlining biyasi tomon (shunday) pardozli iboralar bilan to'xtamay o'ynoqlab chopishda davom etdiki, bu so'zlar fasohati Asvad ibn Ya'far[927] xitobiga ham nafrat qo'zg'atar edi. Shu yo'sinda Temur ularni Ibn Usmondan qaytarib, o'z orqasidan ergashtirishda ular afkori girdobiga go'yo g'ovvos kabi sho'ng'ib, insonlarga – kofir bo'l!–degan shaytonga o'xshab ketdiki, nihoyat, bu xitob bilan u totorlarning aqlini o'ziga moyil qilib, o'z so'zlari ma'nosiga tomon qanot qoqdirdi. Ularni riyosat hirsi bilan (shu darajada) zavqlantirdiki, qaysiki bu (hirs) ozmuncha rostgo'y, xur kishilarni qul, katta avliyo-yu salohiyatli zotlarni ham o'ziga bandi qilib, ilm bilan amalni bog'lagan donolarni ham xalq ko'zida

jahannam oloviga uloqtirgan. Shunday qilib, qachonki to'qnash voqe' bo'lgan paytda, totorlar Temur tomoniga o'tishga rozi bo'l-dilar[928].

**Ibn Usmon o'ylagan foydasiz fikr va uning ko'p askar bilan Temur muloqotiga yuzlanishi bayoni**

Ibn Usmon esa Temurning Rum yerlariga bostirib kelishidan xavflandi. Chunki ziroatlar pishib yetilgan, samara va mevalarning ko'kraklari ko'tarilib qolgan, yerdagi ko'katlar qorayib yetilgan (payti) bo'lib, uning raiyalari esa osoyishtalik va farovonlik soyasida bemalol cho'zilgan edilar. Shu sababli Ibn Usmon o'z raiyalarini Temurdan zarar yetishidan yoki Temur olovi alangasidan o'zining viloyatlari qabilalariga uchqun tushishidan qo'rqdi. Shu tufayli u Temur bilan muloqotga shoshilib, qismat haydovchilari uni o'z qilmishini Temur bilan ichishishga haydadi. Ibn Usmon (ikkala) qo'shin to'qnashuvi o'z yerlari xorijida, Sivos atroflarida bo'lishini iroda etdi. O'z askaridan pishqirgan seldeklarini oqizib, ular bilan (birga) unum-siz bir sahro tomon yo'l oldi. O'z raiyalarini Temur otliqlari oyoq-osti qilib bosishidan ehtiyotlab, u shunday qildi. Chunki u o'zining fuqa-rosi zaifiga (nisbatan) shafqatli, o'z tobesi va xizmatkorlari faqiriga (nisbatan) rahmdil edi.

Hikoya qilinishicha, Ibn Usmon yurishlaridan qay birovida uning hoshiyalaridan birini tashnalik qamrab, bir qishloqdagi xotinlardan birining oldiga kelib, undan (ichishga) suv so'ragan. U xotin Ibn susdan ko'ra ham shumroq[930] ediki, uning shumligi va malomati to'g'risida (odamlar) masallar to'qirdilar. U (xotin); «Menda ichadigan hech narsa yo'q, yo'lingdan qolma va o'zingni ovora qilma», – dedi. Chanqoqlik uni holdan toydirgan edi. Keyin u, xotin chelagida sut sharbatini ko'rib, uni ichib oldi. Xoxin: «Bu bolarimning rizqi edi», – dedi va uning ustidan Ibn Usmonga shikoyat qildi. Ibn Usmon u kishini chaqirib, voqeaning tafsirini so'radi. U Ibn Usmonning in-tiqomidan qo'rqib, (bo'lgan) voqeani inkor etdi. Shunda Ibn Usmon u xotinga dedi: – «Men uning qornini yorib ko'rib, uning rost yoki yolg'on gapirayotganligini aniqlayman. Agarki, uning qornidan sut





...men sutning qiymatini senga beraman. Agar uning gapi rost ...u vaqtda seni uning ahvoliga solib namuna qilaman». Xotin: ...haroyi xudo, u sutni ichdi va men uning haqida hech yolg'on ...pirmadim. Lekin men uning gunohidan kechdim va uning qar-...hridan o'tdim», – dedi. Ibn Usmon: – «Lekin men adolatni ijro ...bu hukmni nihoyasiga yetkazib, tahqiq etishim lozim», – dedi va ...chaqirtirib ayblanuvchining beliga qo'ydi va uning qorni ustida ...gan shartini ijro etdi[931]. Uning qorni yorilib, u yarador bo'ldi. Sut ...yu, majruh o'z qoniga bo'yaldi. Ibn Usmon uni bog'lab (bar-...) joriy qildirdi va «odil podshoh Ibn Usmon davlatida nohaq ...ni tanovvul qilgan kishining jazosi mana shu», – deb el-u yurtga ...qirtirdi.

Shunday qilib, Ibn Usmon o'z yurishini davom ettirib, ramazon ...ida visol ro'zasini[932] tutib safarga chiqdi.

**Temurning Ibn Usmon va uning askariga nisbatan ishlatgan firibi bayoni**

Ibn Usmonning yaroqsiz yo'lni tutganini[933] eshitgach go'yo ya-hudiylar olloh kitobini tan olmay orqaga tashlaganlari kabi, Temur ...ni nazardan tashladi va o'zi ma'mur yo'l tutib, o'z askari bi-lan «soya-salqindor, suv chashmalari va xohlaganlaricha mevalari bo'lgan joylarga»[934] keldi. Ular hollarining fasohatli tili butun olamga ushbu misrani nashida etib, jar solardi:

Men yuqori martabaga erishgach, parvo qilmayman,
U (erishgan) martabam menga merosmidi yoki kasb etildimi?

Ular shu zaylda rohatli joylarda, ekinzor o'tloq va chorvali makon-larda davom etib, «tikonli va tikonsiz gullar orasida, cho'zilgan so-yalar, quyilib oqayotgan suv»[935], rohatbaxsh havo, salomatlik ne'mat-lariga burkanib, xotirjam va farovon, qo'rqinchdan xatarsiz, sayrda shoshilinchsiz, nusratu zafarga komil ishonch, mulk va hokimiyatdan bashoratlanib, o'z tadbiri orqasidan qazo va qadarni ergashtirib, vaqt-larini o'tkazdilar.

Dushman ko‘zini qizdirish va yengil o‘ljalar qo‘lga kiritish uning hamiyatining harorati bir muddat ham sovimaydi; (bo... yulduzlarga o‘xshash uning intizomli askarlarining tojlarida ... ham sochilish yo‘qdir. Shuningdek, uning shersimon askarlari ... da bir-biriga qarab irillashu nafrat yo‘q, ular ta’nalari taomining ... turxonida o‘z dushmanlarini keskir qilich bilan mehmon qilish... ularda qo‘rqish, na sinish bor.

Temur yerlaring-yakson qilgandan keyingina Ibn Usmon ... qusidan uyg‘ondi. Natijada, unga qiyomat qoyim kelib, u hasrat ... nadomatdan qo‘llarini tishladi. U ho‘ngrab yig‘ladi va ching... g‘azabi oshganidan kuyib-yondi, bo‘g‘ilib, o‘lishiga sal qoldi. U... oromi-yu qarori ketdi va shu zahotiyoq orqasiga qaytishga azm ... di. Natijada, uning askarlari dengizidan to‘lqinlari bir-biriga ... uning burjlari va tog‘lari yelkalari bir-biri bilan to‘qnashdi va qay... shi, boshlangan joyga (qaytib) bordi. U o‘z askarlari sayrini to‘xta... qaytishga undadi. Ularni, yurish – o‘z sur’ati, makon – o‘z cho‘l... biyobonligi, vaqt – o‘z harorati, sultoni – o‘z baqiroqligi bilan hold... ketkizdi. Ular qaytish safariga erib, bexushlikka uchraganlarida... yetdilar va ulardan har birining holi tili: Biz bu safarimizdan qattiq mashaqqatga uchradik, – deb tilovat qilar edi.

**Bo‘lim**

Temur Anqara shahriga yetib kelgan bo‘lib, uning odamlari-yu ... lari rohatlanayotgan va kerilib yurishib urushga intizor, jangga etagini shimarayotgan bo‘lsa-da, to‘qnashuvga e’tibor qilib, uning tashvishi... da qayg‘urmas edilar. Go‘yo ular Quraysh boshliqlari kabi suvga yetib kelganlar-u Badr musulmonlari misoli (Boyazid) askarlarini tashnalik tomonida qoldirganlar[936]. Natijada, ular g‘amu g‘ussadan va tashna... likdan halok bo‘lib, suvsizligu chanqoqlikdan qirildilar. Go‘yoki u (Boyazid) (Temur) askarlarini shu manzilga boshlab kelib, o‘z holi tili bilan ularga shunday nashida qildi: Misra «Ey mehmonimiz! Agar bizni uchratsang shunday topasanki, Biz mehmonmizu, sen bo‘lsang manzil egasi».





Anqara, qaysiki uni Asvad ibn Ya’far o‘z qasidasi «Tanona»da ... qilgan bo‘lib, mana u:

Ular Anqaraga tushdilar, tog‘lardan kelayotgan Firot suvi
ular ustiga sel bo‘lib oqadi,
Bu jannat, jannatda baxt, farovonlik va bu bilan
qilinadigan o‘yin-kulgilar bir kun eskiradi va yo‘q bo‘lib ketadi.

Qachonki qo‘shin qo‘shinga yaqinlashib, vahshiylar vahshiylarga ...lib, sahro-yu cho‘llar ulardan to‘lgach, chap (tomon) o‘ng (tomon) ...gi, o‘ng (tomon) chap (tomon)dagi bilan uchrashgach, Ibn Usmon askarlari ichidan totorlar ajralib chiqdilar va avvalda Temur qanday ...huntirib, ko‘rsatgan bo‘lsa, xuddi shu zaylda Temur askari bilan qo‘shilib ketdilar. Totorlar ular (turklar) askarlarining mustahkam ...mi bo‘lib, Ibn Usmon askarlaridan oshiq va aksar edilarki, hat... aytishlaricha, totor jamoalari ushbu sonsiz-sanoqsiz turk askarla...ning uchdan ikkisiga yakinini tashkil qilganlar; balki aytilishicha, ushbu olomon Temur qo‘shinining uchdan ikkisiga yaqin bo‘lgan[937]. Ibn Usmon bilan birga uning farzandlaridan ham bo‘lib, ularning eng kattasi amir Sulaymon edi[938]. Sulaymon totorlar fe’lini ko‘rgach ota...ning halokatga uchrashini payqadi. Shunda u askarlarining qolgan qismini olib, jang maydonidan chekinib, orqada qoldi va otasini tang ahvolda tashlab, o‘zi bilan birga bo‘lgan (kishi) lar bilan Brusa tomo...ga ajralib ketdi. Natijada, Ibn Usmon bilan faqatgina piyodalar va ularning yaqinlari va «ozchilikni tashkil qilgan»[939] bilan qurolli jang...chilar qoldi. Agar qochsa taloq voqe’ bo‘lishidan qo‘rqib, Ibn Usmon qolgan hamrohlari bilan urushishga bel bog‘ladi. U bu ma’rakasi-yu takroriy jangida Antaraning[940] mana ushbu aytganini o‘zida mujassam etdi:

Men seni eslayman, go‘yo nayzalaring qonimdan yutayotgan,
yaltiroq hind qilichlaring qonimni to‘kayotgan,
men qilichlarni o‘pishni xush ko‘raman, chunki ular kulib
turgan labingdan yaltirayotgan tishga o‘xshaydi.

Natijada, u (Ibn Usmon) zamon hodisalari va qiyinchiliklarga chidadi va imom Molik mazhabiga vafo etishni iroda qilib, undan voz kechmaslik yo'lini tutdi. Shunda uning atrofini go'yo bilakuzuk bilakni siqib olgandek (Temur) qo'shinlari halqasi o'rab oldilar. Qachonki usmoniylar sulolasining mag'lubiyatga uchraganligi ayon bo'lib, uning muhtojlik lashkari ichida qiyin ahvolga tushgani ma'lum bo'lgach, piyodalar otliqlar ustiga sakradi, boltalar va o'tkir qilichlar ishga tushdi. Shu jang maydonida taxminan besh ming kishi bor edi, ular o'zlariga teng miqdordagini to'zitib, o'z adadlarini barobarini halok etdilar. Lekin ular yelpig'ich bilan qumtepaliklarni ko'chirmoqchi yoki dengiz suvini g'alvir bilan bo'shatmoqchi yoki tog'lar vaznlarini misqol[941] qiyrotlari[942] bilan o'lchamoqchi bo'lgan kishidek bo'ldilar. Ular o'sha tog'lar cho'qqilariga va ushbu sherlarni tutib turgan dalalarga qora bulutdan to'xtovsiz qonli yashinlar va qora nayzalar yomg'irlarini yog'dirdilar. Qadar adovatchisi va qazo sayyodi ko'ppaklarni sigirlar ustiga olqishladi. Ibn Usmon askarlari yiqilish bilan yiqitish o'rtasida qoldilar. Ular qazoda baralla teshib o'tuvchi o'q hukmi bilan mazrub bo'lgandilarki, nihoyat ular tipratikonlar kabi bo'ldilar.

Jang saboqlari ushbu («guruhlar»[943] o'rtasida «choshgohdan»[944] «asrgacha»[945] davom etib, «Temur»[946] «to'dalari»[947] «fathga» ko'chib, rumliklar ustida «an-Nasr»[948] («G'alaba») surasini tilovat qildilar.

Keyin, qachonki u (turk) larning bilaklari charchab, dushmanga qarshi to'sqinlik va qurol-yarog'lari kamaygach, ularga uzoq yurtdan kelganlar va g'arib kishilar (Temur odamlari) hukmron bo'lib, ularni qilich va nayzalar bilan urib yanchdilar, ularning qonlari bilan qo'llarini, tanalari bilan vodiylarni to'lg'izdilar. Ibn Usmon o'lja tushib, qafasdagi qushdek tutqunlikda qoldi. Bu hodisa Anqara shahridan bir milga yaqin joyda, hijriy 804-yil zu-l-hijja oyining yigirma yettinchisi (1402-yil 28-iyul) chorshanba kunida bo'lgan edi. Askarlarning ko'p qismini chanqoqlik va madorsizlik halok qildi, chunki (o'sha kuni) yigirma sakkizinchi tammuz (iyul) edi.





**Bo'lim**

Amir Sulaymon Ibn Usmonning qarorgohi bo'lgan Brusaga kelib, u yerda mavjud xazinalar, mol-dunyolar, xotin-xalajlar, bolalar va ..., qimmatbaho boyliklarni ehtiyot qilib, ularni dengiz[949] orqali ko'p joylarni o'rab olgan Adirna quruqligiga ko'chirish bilan mashg'ul bo'ldi. Bu dengiz Misr dengizidan[950] irmoqlangandan keyin Rasht va Kurj yerlari tomon yo'l oluvchidir. U (dengiz) bilan Qulzum dengizini Cherkas tog'i ajratib turadi.

### Ibn Usmon ag'darilgandan keyin har bir joy-u rabotda voqe' bo'lgan toptash bayoni

Rum mamlakati boshiga bu ayanchli ish tushib, uning jussalik askarining jismlari shiddatli zarbalarga duchor bo'lgach va mash'um qo'shin ularni halokatga keltirib, o'sha voqea subhida firoqlik xabarini keltiruvchi qarg'a qag'illab, (shu voqea) kechida boyqush qaqqaqlab, qazo va qadar imomi (bu voqea) unsining mehrobida turib, mamlakat jamoatiga «Alm rumlilar mag'lub bo'ldi»[951] (oyat) ni tilovat qilgan vaqtida Rumlilarning boshlari va peshanalari quyi bo'lib, qo'rg'onu qasrlari zilzilaga tushdi, uzoq va yaqindagilari titradilar, itoatkor-u isyonkorlari hayratda qoldilar. Natijada, ular eshak qochishini qilib qochdilar. Ular o'z ahli-ayolidan, Vatanidan, mol-dunyo va hayotidan umidlarini uzdilar, chunki ulardan boshlari ketib, oralarida shiddatga qarshi turuvchi (kimsa) qolmagan edi. Qachonki amir Sulaymonning o'z bag'riga odamlarni yig'ib, dengizni kesib o'tib, Adirna quruqligiga o'tishga azm qilganini eshitgach, vodiylar va tog' etaklaridagi (odam) lar unga tomon seldek oqib keldilar va bu cheksiz balodan xalos bo'lishda unga (Sulaymonga) tayandilar. Shunda amir Sulaymon Istambul ahli bilan bitim tuzib, ular bilan inoqlashdi va bir-birlariga xiyonat qilmaslik to'g'risida ahdu paymon qilib, ularga muhlat berdi; keyin amir Sulaymon ulardan ikki bo'g'oz – Kalipoli va Istambuldan o'tib o'ziga (qo'shimcha) madad keltirishlarini so'radi. Chunki bu ikki dengiz uchun shu ikki bo'g'ozdan boshqa quruqlikka chiqadigan yaqin yo'l va o'tadigan (qulay) joy yo'q edi, chunki Iskandariya dengizi Antioxiya va Alayani o'z ichiga (qamrab) olgandan keyin

Rum yerlari tomon buriladi va Shimol yerlariga yetishidan oldin tog'lar o'rab oladi. Shu zaylda u torayishda davom etib, ikki qirg'oq orasidagi masofa noziklashib borib, nihoyat ikki qirg'oq bir-biriga ko'rib turadi va lablarining bir-biriga shivirlashishiga ozgina qoldi. Bu ikki qo'shiladigan joy orasidagi masofa taxminan uch kun yo'ldir. Keyin u kengayib, bag'rini ochadi va quvnab, bemalol yoyilib ketadi, shunda uning mavjlari guruhlari doirasimon bo'lib g'ujlanadi. (Keyin) ular Dasht va Kurj yerlariga qarab yugurib, nihoyat, zikr qilinganidek, Cherkas yerlariga borib yetgunga qadar davom etadi. Biror dono faylasuf va eng quv muhandisdan birontasi ham bu tor joyda bu ikkala bo'g'ozga o'tish uchun uchinchi bir (o'tar) yo'lni topishga ojizlik qilgan. Endi esa Kalipoli qo'ltig'i musulmon mallohlarining, Istambul (qo'ltig'i) esa din g'animlari–xristianlarning qo'lidadir. Istambul qo'ltig'i bu ikkala qo'ltiq ichida eng kattasi va kengrog'i bo'lib, xristianlar uning mallohlari edilar. Shunda odamlarning ko'p qismi u qo'ltiqqa yo'l olib, unga tomon og'a boshladilar. Natijada franklar shodlikdan qanot qoqib, nohaqlikga bo'y chuzdilar va musulmonlar qonini to'kib, ularning haramlari-yu mol-dunyolariga ega lik qilib, javlon urdilar. Shunda Ibn Usmon uni hisor qilib olganda uning butun qishloqlari va atroflarini vayron qilib, halokatga mahkum etgan va uning ahliga farovonlik jarayoni yo'llarini toraytirgan edi. Ana shunday «sel o'zining yuqori chegarasiga yetgan»[952] va «kamar ko'krakdan oshib ketgan»[953] hamda har bir yomonlik o'z tig'ini franklarga tikqan bir vaqtda birdan Temur kelib, ularga shiddatdan keyin osoyishtalik keltirdi[954]. Ibn Usmon esa zaruratdan ulardan uzoqlashdi. Bu bilan franklarda erkinlik va omonlik hosil bo'lib, bu holat musulmonlarning ularga ehtiyoji (sababi) dan yanada ziyoda bo'ldi. Ular dushmandan (Temurdan) najot tilab, ularning oldilariga o'zlarini tashladilar va o'zlaridan g'ussalari ketgach, musulmonlardan qasos olish fursatini g'animat bildilar. Shunda ular kemalarni odam va yuklar bilan yuklab, ular bilan Istanbul tomonga qarab yura boshladilar. Istanbul tog' tepalarining orqasida bo'lib, cho'qqilardan birining orqasiga qiya oqqan holda joylashgan edi. U dunyoning eng katta shaharlaridan (biri) bo'lib, hatto aytadilarki, u (bu) dunyoning Ulug' Qustantiniyasidir, Har qachonki, ular o'z kemalarida tepalik





...iga burilib, bu qirg'oqda turgan kishining nazaridan o'sha salo... tepalik panasiga yashiringanlarida, ular go'yo go'rlarga tushirilgan, lahadu qabrlar qa'riga tashlangan o'liklar kabi bo'lardilar. Ular qayerga borayotganlarini-yu qaysi chaqiruvchiga qarab ketayotganliklarini ham bilmasdilar. «Barru Salomat va islom»gami[955] yoki Dor ul-harbga-yu[956] nodon kofirlar asoratigami? Keyin ulardan ketganlari ...verdiki, «ular vasiyat (qilish)ga ham ulgura olmas va o'z ahliga ham qaytmas edilar»[957].

Lekin qachonki bo'sh kemalar qirg'oqqa yetib kelganda, bu ...loyiqdan har biri komilu, bor jiddi jahd bilan, boshiga nima vo...qealar sodir bo'lishini-yu holi ne kechishini bilmasdan turib kemalarga yopishardi. O'zlarining ko'r-ko'rona qadamlari va ulkan kul...lari bilan ular xuddi «Kalila»[958] kitobida zikr qilingan oq qo'ton va ...liqqa o'xshab ketdilar. Xullasi kalom, bu hisobsiz qora qarg'adan ...oq dog'chasi bo'lganlari, ya'ni g'oyatda ozchiligi sog'-salomat qoldilar. Din g'animlari musulmonlarga istaganlaricha sitam qildilar. Amir Sulaymon dengizni kesib o'tib, o'sha quruqlikni egalladi, undagi yerlarni zabt qilib, yo'llarini bog'ladi. U quruqlik bu qirg'oqdan ko'ra kengroq, uning o'tloqlari bunga nisbatan yoyiqroq, hosili serobroq, uning aholisidan keladigan daromadi mo'lroq, xarju xiroji ziyodroq edi. Uning qo'rg'onlari mustahkam va kattaroq bo'lib, poytaxti Adirna shahridir. Natijada, odamlar amir Sulaymon atrofiga yig'ildilar; umuman aytganda, ishlar bir oz osonlashib, yengillashdi.

### Ibn Usmonning o'g'illari va qay tariqa zamon ularni to'zitib, tugatgani[959] bayoni

Mazkur sulton Boyazidning o'g'il farzandlaridan (zikri o'tgan) amir Sulaymon (bo'lib) – u ularning eng kattasi, Iso, Mustafo, Muhammad va Muso esa eng kichigi edi[960]. Ulardan har biri o'ziga boshpanoh izladi va har biriga otasidan ajralib pok, sidqidil toifa kelib qo'shildi. Natijada, ulardan Muhammad va Muso Amosiya qal'asida bo'ldilar. U baland va isyonkor Xarshana[961] (shahri) bo'lib, u haqda Abu Tayyib (al-Mutanabbiy) shunday degan: «Nihoyat u Xarshana devorlari ustida ekanida Rum, salib ahli butparastlar va otashparastlar

undan shaqovat ko'rdilar. Ularning niqohga olganlari o'lja, bolalari asir olindi; ziroati kuydirilib, jamlagan (boylik) lari talandi»[962].

Uning qal'asining cho'qqisi bag'oyat baland bo'lib, u go'yo falak qubbasida muallaqdir: o'zga qal'alar yuqorisiga chiqishdan ko'ra undan tushish ancha mushkuldir. Uning ahli bu qal'ani Rum Bag'dodi deb ataydilar, chunki uning zamini qarori o'rtasidan katta bir daryo taqsim qilib o'tadi. Agar sayr jadallik bilan bo'lsa, To'qot bilan uning orasi bir kunlik yo'ldir.

Ammo Iso qal'alardan birida yashirinib, to o'z akasi amir Sulaymon tomonidan qatl etilguncha unda qoldi. So'ngroq, Iso uchun (qasos olib), amir Sulaymonni Muso qatl qildi. Hammasidan keyin Muhammad Musoni qatl etdi. Natijada, Muhammad farmonlari Muso va Isoning yo'l-yo'riqlari asarlarini 824 (1421) yilning boshlarida o'z ajali bilan vafot topgunga qadar, bekor qildi yoki u Malik Muayyad (yuborgan) hadyalari ichida Qo'chqor tomonidan solingan bir nasadan o'ldi. Shundan keyin podshohlik uning qo'lidan o'g'li Murod qo'liga o'tdiki, u shu kunlarda, ya'ni 840 (1436) yilda podshohlikda mustaqildir. Ammo Mustafo esa, dom-daraksiz g'oyib bo'lib, o'ttizga yaqin Mustafo (ismli kishilar) uning dastidan qatlga tortildi.

**Temurning avval zikr etganimiz ishlari va kulfatlariga qaytamiz**

Ibn Usmonni qo'lga olgach, Temur o'z qo'shin va boshliqlaridan bir toifani Brusaga otlantirib, ularni Shayx Nuruddinga qo'shdi. Keyin o'zi ham ularning izidan salobatli viqor va bamaylixotirlik bilan yo'lga tushib, unga yetib keldi va qazo-yu mubram qo'ngandek u yerga qo'ndi hamda Ibn Usmon jamoasi, uning harami, mol-dunyosi, xazinalari, mulozimlari va xizmatkorlaridan qo'li yetganicha zabt qilib oldi. Temur totor amirlari-yu boshliqlariga xil'atlar kiygizdi va ular nafslarini xushlash bilan xotirlarini jam qilib, (ularning) amirlarini o'z amirlari orasiga tarqatdi. Ulardan har bir belni o'z boshliqlaridan bir boshga qo'shdi va o'z odamlariga totorlarga bag'oyat imkon bilan mehribonlik va xushfe'llik bilan muomala qilishlarini tayinladi. O'zi esa o'zining eski yo'lidan, – ya'ni nafisliklarni xolis qilib olish, xotinlarni asir qilish, odamlarni ov qilishdan – yurdi. U har kuni Ibn





Usmonni o'z huzuriga chaqirtirar, unga lutf va takalluf bilan muomala qilib, hamdardlik bildirar, (ba'zan esa)masxara qilib, uning ustidan kulardi[966].

**Ibn Usmondan Temur olgan bir qasos bayoniki, o'z qabih sifatlari bilan u dunyo boricha (mavjud) bir hiqoyatdir**

Kunlardan birida Temur ommaviy bir majlisda o'tirib, shodlik qanotini xos-u avom ustiga yoydi va nahy-u amr bisotini yig'ib, sharob va o'yin-kulgi dasturxonini to'shadi. Qachonki ushbu makon odamlar bilan liq to'lgach, Temur Ibn Usmonni tezlik bilan chaqirtirdi. U (Ibn Usmon) yuragi titragan, o'z qaydlariga bog'langan holda keldi. Temur uning qalbiga taskin berib, vahimasini ketkazdi va uni yaxshi joyga o'tqazib, o'zining xushmuomalaligi bilan (uning) g'amginligini yengillatdi. Keyin Temur shodlik falaklarini aylantirishga buyurdi, falaklar aylandi, (shuningdek) xamr quyoshlarini, soqiylar qadahlari mashriqidan lablar mag'ribiga tomon sayr qilishlarini (amr qildi), ular ham sayr etdilar, qachonki soqiylar quyoshlaridan sitralar bulutlari ko'tarilib, shu ishrat (majlisi) samosida Temur farmonlari yuzaga chiqish va (to'lin oydek) ko'rinishlarini qo'zg'ayotgan yulduzlar aylangach, Ibn Usmon nazar solsa, (mavjud) soqiylar o'zining joriyalari, ularning ko'pchiligi o'zining xotinlari-yu cho'rilari edi. Shunda uning ko'z oldida dunyo qorong'ilashib, u bu ahvoldan o'limi tarxashalari achchig'ini shirin bildi. Uning qalbi parcha-parcha, dili pora-pora bo'ldi, g'amiga g'am qo'shilib, jigari parchalandi; uning oh-voyi oshib, hasrati necha hissa ko'payib, jarohatlari yangilandi, yaralari qaytadan timdalandi, uning qayg'usi jarohatlariga aziyat nayzalari orqali tuz sepildi[967].

Ibn Usmonga ko'rsatilgan bu intiqom uning o'z maktublarida xotinlarni tilga olib, qasamyod qilganligi sababidan edi. Chunki (avval) zikr etilganidek, hotinlarga til tegizish chig'atoyliklarda va turk qabilalarida eng katta gunoh bo'lib, oila haqiga qilingan xiyonatdan ham azimdir. Shuningdyok, bu (ish) Ibn Usmonning Arzinjonda Taharton xotinlariga nisbatan qilgan ishlari uchun «mukofot» edi. (Lekin) Temurning Ibn Usmonga yetkazgan eng katta aziyati,

uning qaramoniylar[968] avlodlariga ko'[illegible] ki, bundan oldin Ibn Usmon Qaramon [illegible] valliysi sulton Alouddinni qurshab, uni [illegible] o'g'illari Muhammad va Alini esa Brusa [illegible] ikkalasi uning huzurida shiddat va [illegible] vol Temurning uni (Ibn Usmonni) hibsga [illegible] davom etdi. Temur (hibsdan) chiqarib, [illegible] in'om-ehson ko'rsatib, o'zlari munosib [illegible] Bu Aliga muhabbati uchun emas tangri [illegible] lekin Muoviyaga nafrati yuzasidan qabilida [illegible]

«Alini do'st tutuvchi (kishi) Muoviyani [illegible]
Muoviya Yazidni tarbiya qilganligi uchun [illegible]

Yana birov degan:

Uni sevgani uchun unga mehribonlik [illegible]
lekin boshqa bir guruhni yomon ko'[illegible]
ko'rsatyapti».

Men badohatan dedim:

Dushmanlarim dushmaniga sadoqat [illegible]
garchi men bilan ular orasida do'stlik [illegible]
Menga do'st ko'rinib, dushmanlik [illegible]
Garchi men istagancha maqtovlar [illegible]
Chunki mening dushmanim ranjisin [illegible]
shodlantiradigan kishi shodlansin.

Bu amir Muhammad shu (kishi)ki, uni [illegible] amiri Amir Nosiruddin Muhammad ibn [illegible] Mustafoni qiynab o'ldirib, o'zining [illegible] al Muayadga yuborgan edi. Bu (voqea) [illegible] avgust–sentyabr) oyida yuz bergandi[969].





**[illegible] Temur huzuriga kelib, itoat izhor etib, [illegible] qilishi bayoni**

[illegible] ibn Boyazid – u Rum podshohlaridan [illegible] qasrga ega edi va hokimiyatni ota- [illegible] yuritardi. U bilan usmoniylar pod- [illegible] adovat va nafrat bor edi. Uning hukmi [illegible] qal'alar, tekislik va tepaliklar joriy edi. [illegible] ma'shuqlar oroli» deb laqab olgan Si- [illegible] turli burchaklarida uning zarofatidan [illegible] Bu shahar dengizning bo'g'izida, katta [illegible] unga kirish yo'li g'oyatda mushkuldir. [illegible] sohibjamolning (orqa o'girib yotishida- [illegible] bo'lib, eng xipcha beldan ham nozik [illegible] Bu shahar Isfandiyorning tayangan va [illegible] saqlaydigan panoh joyi bo'lib, iblisdan [illegible] (darajada) qaysar, faqir bo'lib qolishdan [illegible] ko'ra ham qattiq edi. Shuningdek, [illegible] Kastamoniya[971] bo'lib, mulkining taxti va [illegible] edi; shaharlaridan yana biri Sam- [illegible] tegishli dengiz qirg'og'idagi bir qal'a [illegible] jinoyatkor nasroniylarga qarashli shunga [illegible] ikkalasi bir-biridan tosh otish masofasi- [illegible] qal'a doimo bir-biridan hazarda turardilar. [illegible] vodiy va (tog') cho'qqilarida qasabalari, [illegible] edi.

[illegible] qaramoniylar avlodlari va totorlar Qoray- [illegible] Saruxon, Karmiyan mutavalliysi amir Ya- [illegible] tomoniga yuz tutgan Mantosho va Saruxon [illegible] Temur qilgan ishlar (xabari) yetib, unga [illegible] sam' bilan tiz cho'kkanlarni u bezovta [illegible] Isfandiyor ham Temur huzuriga borib, unga [illegible] ko'rdi. So'ngra u olish darajali tuh- [illegible] bilan Temur xuzuriga tashrif buyur- [illegible] qarshi olib, sururatga to'liq holda unga

muomala qildi va Ibn Usmonga kek qilib, Isfandiyorni o'z martabasida barqaror etdi. Keyin Temur Isfandiyorga, qaramon avlodlariga o'ziga itoatu iz'on tamg'asi bilan tamg'alangan o'sha tevarakdagi amirlarga Mahmudxon va ulug' amir Temur Kuragon nomi bilan xutba o'qitib, pul zarb qilishlarini amr etdi. Ular Temur farmonlariga amal qilib, u man qilgan (ish) lardan hazar qildilar. Shu bilan g'arotu musodaradan amin bo'ldilar. Zikr qilingan Isfandiyor g'ami yoshi ulg'ayib, 843-yilning oylarida (1439–1440) vafot etdi. U Temur huzuriga kelib itoat bildirgan podshohlarning oxirgilaridan edi. Undan keyin (uning) yerlariga o'g'li Ibrohimbek egalik qildi. Ibrohimbek va uning birodari Qosimbek o'rtasida mushojara voqe' bo'ldi. Qosim malik Murod ibn Usmon tomoniga o'tib ketdi. Lekin avval oxir hamma ishni Tangri biladi[976].

## Bo'lim

Keyin Temur Ibn Usmon va o'zgalarga tegishli qimmatbaho boyliklarni chiqarib, Rum podshohlariga meros tariqasida tekkan va o'zlari kasb etgan javohirlari, asl buyumlarni to'lig'icha o'z xazinasiga to'plab olib, Mantosho viloyatlarida qishladi va Mantosho (boy-liklari) darslariga o'z tasarrufi bahslarini xohlaganicha yurgizdi va uning eng uzoq joylarigacha borib yetdi. U o'ljalardan beshdan bir (qism) ini olish bahsini o'rtaga qo'yib, shu masalani keskin hal qildi. Uning qo'shinlari Mantoshoning har bir burchaklarigacha sochildi. Uning yerlari dengizlarida-yu baland tog'lari cho'qqilaridan to chuqurlarining qa'rigacha sho'ng'idilar. Biri uning peshanasi tog'lariga-yu kokillari cho'qqilariga chiqqan, ikkinchisi uning darvozalari quloqlariga osilgan, yana biri uylari etaklariga yopishgan, ikkinchisi uning ko'kraklari kiftlariga minib olib, o'sha orqali Mantosho sohillariga tushgan, qay biri Mantoshoning ko'rinib turgan ruxsorini o'y sayoq oyoqlari bilan toptagan va boyliklar buloqlari yelkalarini izlagan va ko'zini quvontirish uchun Mantosho ahli dimog'ining miyasini kavlagan va uni kutuvchi kishi bo'lmaganligidan kuchi yetganicha bir qo'llab va ikki qo'li bilan ko'zda tutgan narsasiga erishgan, qay biri Mantosho (ahli) ko'kragining do'ppayib chiqqan joyiga yopishgan





...orqasi bilan yiqitish uchun boshlariga va yuzlariga chiqqan, ...qiluvchi bo'lmagach, zulm barmoqlarini to bilaklarigacha va ...larigacha cho'zgan, qay biri fasod qadamlari bilan (Mantosho-...mag'ribi qorinlari-yu mashrig'i sonlarini paymollagan. Ular ...larni judo qildilar, tomoqlarni kesdilar, bo'yinlarni uzdilar, bi-...larni bo'ldilar, jigarlarni yondirdilar, yuzlarni badbashara qildilar, ...lardan durlarni oqizdilar, ko'rish xossalarini yo'qotdilar, tillarni ..., quloqlarni kar qildilar, burunlarni kesdilar, og'izlarni bo'lak-...lar, ko'kraklarni yanchdilar, bellarni bukdilar, umurtqa pog'onala-... maydaladilar, kindiklarni yordilar, qalblarni eritdilar, ichaklarni ...darib tashladilar, qonlarni oqizdilar, farjlarni yalang'ochladilar, ... balolarini o'z holicha qo'yib yubordilar, odamlarni halok qildi-... kishilarni kuydirib, jonlilarni jonsiz qildilar. Ularning yovuzlikla-...dan Rum raiyalaridan na uchdan biri, na to'rtdan biri ham qutula ...madi. Rum jamoalari bo'g'ilgan, oyoqsizlangan, yiqilgan, bir-birini ...ib o'ldirgan va yirtqich hayvonlar yeb tashlagan o'limtik holida ...lar orasida qoldilar[977].

### Izmir qal'asining fathi va uning yo'q qilinishi. Bu qal'a ajib surati va vasfidan bir shingil bayon

Temur Izmir qal'asini ham hisor etdi. Qal'a dengiz o'rtasidagi bir qo'rg'on, uni olish amri mahol edi. (Izmir, kasrali «hamza», nuqtali «zo», kasrali «mim» va sukunli «yo» va nuqtasiz «ro» dan iboratdir). Haqiqatan ham bu qal'a dengizlar orasida o'ralgan bo'lib, manoati va isyonkorligi bilan o'z jazmanining qalbida o't yoqardi. U Jibal qal'alalaridan ko'ra ham bo'ysunmaydiganroq bo'lib, ot yoki odam yordamida qo'lga kiritishdan yiroq edi. Temur uni olish uchun xil-ma-xil muhosara usuldarini tayyorladi va 805-yil jumod ul-oxirning o'ninchi, (1403-yil 5-yanvar) chorshanba kunida, Rum yili konun ul-avval (dekabr) oyining oltinchi kunida[978] (Temur) bu qal'ani qo'lga kiritdi. U qal'a ulug' (kishi) larini qatl etib, xotinlari va kichiklarini asir oldi; o'liklar tanalaridan jome'lar bino qilib, ularning boshlaridan minora yasadi. Keyin (qal'ada) mavjud boyliklarni shilib olib, qal'ani faqir holga keltirdi, qimmatbaho boyliklardan uni xoli qoldirib, xo-

navayron etib, bo'm-bo'sh qildi. Temur qal'adan oltinu kumushlarni batamom oldi. Bu ishlar bilan bashoratlar qanotlarini qoqib, o'z gumonicha bu (xush) xabarlar bilan butun yer yuziga eng baxtli fol bilan g'oyatda tez uchadigan qush uchirdi.

**Temur Rum yerlaridaligida nimalar qilgani: uning Xitoy yeriga (yurishga) rag'bati; Turk va Jato yerlarini xolis o'ziniki qilishi; o'zi g'arbda mashg'ul bo'la turib mug'ul va boshqa sharq viloyatlarini batamom o'ziniki qilishni fikrlashi; qanday qilib qazo-yu mubram (o'z) tushishi bilan Temurga inodlik ko'rsatib, uning qalbiga o't qo'yib yondirishi; zamon unga g'addorlik qilib, maqsadiga akslik ko'rsatishi bayoni. Bu (quyidagi) jumlalardan ma'ruza sifatida**

Avval zikr qilinganidek, Temur Samarqanddan nabirasi Muhammad Sulton va Amir Sayfuddinni bir guruh odamlari bilan chaqirtirgan edi. Bu Muhammad Sulton fozillarga tayanch, olimlarga homiy bo'lib, saodat kurtaklari uning peshanasi butoqlarida ochiq-oydin ko'rinib turar, pok-pokizalik bashoratlari uning yuzidagi sururidan yaqqol sezilar edi. Misra:

Beshikda bobosining shuhratidan so'zlar edi,
saodat izlari ravshan dalildir.

Sayfuddin esa avvalida Temur hamrohlaridan biri bo'lib, oxirgi paytda arkoni davlatlaridan ishonchlisi edi. Ular ikkalasi Ashparani barpo qilgan bo'lib, unda nahbu g'orat qoidalariga asos solgan edilar. Ashpara Mo'g'ul va Jato yerlarining tomog'ida bo'lib, Temur hukmi borib yetgan chegaralarning eng chekkasida – Xitoy yerlarining boshlanishida (joylashgan) edi. Ular Ashparaga Arg'unshoh degan amirni hokim qilib tayinlagan, unga askar toifalari bilan madad berib, (uni) mo'g'ullar chegarasiga posbon sifatida qo'ygandilar. Bu ishlarning hammasi Temur amri bilan bo'lgan edi. Qachonki ular (ikkovlari) bu ishga kirishganlarida, mo'g'ullar bu shubhali harakatga rozi bo'lmadilar. Chunki ular agar Temur ularga qo'shni bo'lsa, albatta u fasodga intilishini bilardilar. Unda ular Temur kulfatidan





[illegible]likda bo'lmaydilar va uning qo'shnichiligiga toqat qila olmaydilar. Shu xususdan mo'g'ullarning es-xushlari chalkashib, dillari siyoh bo'ldi: ular o'z diyorlarini holi qoldirib qochishga tayyor turdilar. Keyin chig'atoyliklar ularga nisbatan o'z ta'magirligini oshirdi. Ikki toifadagi beboshlar (bir-birlariga) zarar (keltirish) uchun tajovuz qo'li va fasod oyog'ini cho'zib, haddidan oshdilar va harom qadahlarini ichdilar va qo'liga tushgan (narsa) ni tanovul qilib, o'z nafsini tiyib, parhez saqlab turmadi. Chig'atoyliklar bu ishdan shodlanib, natijada, ikki tomon orasida adovat voqe' bo'ldi. Bir tomon ikkinchi tomonning o'tish yo'llarini to'sdi. Chig'atoyliklar ular ustiga to'dalar yuborib, mo'g'ullarga taalluqli ashyolardan qo'llari yetganlariga (turli-tuman) balolar yog'dira boshladilar. Mo'g'ullar ham chig'atoyliklarga nisbatan xuddi shu tarzda ish tuta boshladilar va zamona zayli bilan o'zlaridan yiroqda bo'lgan Temurning kelishidan xabardor bo'lib, xavf-xatarlar zimistonlariga yopishib oldilar. Bu xabar Temurga yetgach, u bu ishdan bag'oyat sururlandi. Keyin ular (ikkovlari) [illegible]tuk tayyorgarlik, mukammal qurol-yarog' va jangovar kishilar bilan Ashparani (g'oyatda) mustahkam qildilar. Shular jumlasidan Hind va Mo'lton askarlaridan bir toifa, Arab Iroqi va Ozarbayjon qo'shinidan bir qavm, Fors va Xuroson suvoriylaridan bir guruh, Joni Qurbon[979] deb ataladigan odamlardan birmunchasi bor edi. Ular o'sha jangchilarni chig'atoy qirg'iylaridan[980] bir tumon bilan (birga) amir Arg'unshohga qo'shdilar. (Keyin) ular (ikkalasi) Xo'jandga kelib, Sayxunni kesib o'tib, Samarqandga kirdilar. Itoat va ixlos qaydida boshdan oyoq (mahkam) bog'langan Xoja Yusuf degan amirni Samarqandga hokim qilib tayinladilar. Keyin ular Samarqanddan chiqib, ushbu bag'ritoshga qarab yurdilar. So'ngra ikkalasi ham – Sayfuddin Xurosonda, Muhammad Sulton Rum mamlakatida[981] vafot topdilar. Nabirasi Muhammad Sulton (o'limi) sababli Temur chuqur qayg'uga cho'mdi. Temur askari qora (libos) kiyib, uning uchun motam shartlarini ado etdilar. Ularga qora belgilar qilishning hojati yo'q edi, chunki (ular) o'zlari behad qop-qora edilar. Keyin Temur uning jasadini tobutga solib, izzatu iftixor bilan Samarqandga jo'natdi va shahar ahliga uni ovoz chiqarib yig'lab, motamsaro bo'lib kutib olib, aza shart-

larini ado etishlarini va fuqarolardan bittasi ham qolmasdan bosh-oyoq qora kiyimga burkanishlarini farmon qildi. Uni keltirganlarida (muloqotiga) Samarqand ahli chiqdi. Ular qoraga ko'milgan bo'lib sharif va faqir avom va nasabdor ham qora kiyimga o'ralgan edi, go'yo koinot yuzi zulmatli kechadan bir parcha (kabi) bo'lib qoldi. Keyin uni shahar ichkarisida Muhammad Sultonning o'zi qurgan del mashhur bo'lgan mustahkam madrasaga dafn qildilar. Bu 805 (1403) yilda edi[982]. Qachonki tangri taolo uning bobosini halok qilganda esa ham – (buning) zikri keyinroq keladi – nabirasi yoniga dafn qildilar.

## Bu sayyod g'azabining Ollohdod ustiga kelishi va uni mamlakatning eng chekkasiga surgun qilishi bayoni

Qachonki Mordindan karvon Ollohdod hamrohligida (Samarqand tomon) yuzlanib, Bag'dodni xolis (o'ziniki) qilishga yuz qo'yganda Temur undan ajralgach – Ollohdodning o'ziga o'xshashlari, dengdoshlari, hasadchilari, dushmanlari va raqiblari bor bo'lib, – hasad o'zsohibining bo'ynidagi mustahkam zanjir, tengqurlarning bir-biriga o'zaro hasadi esa (go'yo) tuzalmaydigan yara misolidir.– Ollohdodning dushmanlari uning haqiga dashnom (qilish) uchun majol va uning sharafiga rahna solish maqomiga so'z topdilar. Natijada, ular uning g'oyibligi fursatidan foydalandilar va uning go'shtini tuzlamasdan yeb, (uning) g'iybati bilan tanaqqul qildilar. U haqida Temurga chaqimchilik qilib: uning Shomda qilgan (yomon) ishlarini zikr etib, uni u joyda qimmatbaho boyliklardan hisobsiz miqdorda o'ziniki qilib olgani, aldov yo'li bilan nafis narsalardan behisobini o'zlashtirgani va Shomning noyob boyliklaridan benihoyat ko'p qismini egallab olganini yetkazdilar. Haqiqatan ham aytganlaridek bo'lgan edi. Ular bilmay qolgan (narsa) lar bilib Temurga aytganlaridan ham ortiq edi. Natijada, ular Ollohdodning ishini izdan chiqarib, Temur qahru g'azabini unga qarshi qo'zg'atdilar. Bu, ayniqsa shunday bir vaqtda ediki, birodari Sayfuddinning o'limi tufayli uning qanoti qirqilgan edi. Ollohdod ulug'vor va shavkatli (kishi) lardan bo'lib, Temur undan xavflanar va undan (doimo) rijo tilardi, chunki Ollohdodning Movarounnahr yerlarida zohir bo'lgan xizmatlari (bor) bo'lib, uzoq





(tomon) ga boqiy fikr natijalari mavjud edi. Ollohdod Samarqandga yetgach, Temur uning izidan o'z farmonini yuborib, unga Ashparaga borib, nahb-u g'oratga tayyorlanishini buyurdi[983]. Bu (ish) Ollohdod uchun surgun kabi bo'lib, uni mamlakatning eng uzoq burchagiga uloqtirish va muxoliflar tomog'iga-yu inodga yuz qo'yganlar og'ziga tashlash edi. Arg'unshoh (esa) Ashparadan Samarqandga o'tdi va toki Temur tangri la'natiga ko'chmagunicha Ollohdod Ashparada turdi. Mo'g'ullar Ashpara tomoniga katta-katta guruhlar yuborib, qo'llari yetganicha uni jonli va jonsiz mollaridan nahb qilib, Temurning Ashparadan uzoqligi fursatini g'animat bildilar. Ollohdod mo'g'ullardan g'oyat darajada ehtiyotda bo'lar va shu bilan birga, ularga qarshi bo'lak-bo'lak qo'shinlar jo'natar, makr-hiyla bilan ular uchun chuqur va to'lalar qazirdi. Toki Temur (o'lgan)dan keyin Ashparani qoldirib ketmaguncha u qatl qilish, asir olish, kasr yetkazib maydalashda davom etdi. Bu ishlarning zikri keyinroq keladi.

## Bu dengiz muhiti chuqurligini ko'rsatuvchi va uning o'tkir fikri g'avvosi yetgan joyidan dalolat beruvchi bir namuna

Qachonki Temur Rum yerlarida chodir tikib turganida Ollohdodga bir maktub jo'natdiki, unda bir qadar ijmoliy va tafsiliy masalalar bo'lib, unga shularga amal qilishni va o'sha joylar ahvoli, kayfiyati haqida javob yuborishni buyurdi. Shular jumlasidan, o'sha yerlar avzo'larini bayon qilish, u yerlar yo'llari va masoliklarini yaqqol ko'rsatish, uning shahar va qishloqlari, pastlik va cho'qqilari, qal'a va qo'rg'onlari, yaqin va uzoq (joy) lari, biyobonlari va egri-bugri yo'llari, sahro va cho'llari, belgili joylari va manorlari, suv va anhorlari, qabila va urug'lari, tor va keng yo'llari, ma'lum va majhul joylari, marhala va manzillari, ma'mur va xarob joylari kayfiyatini (shunday) zikr qilsinki, bu zikrida u (kishiga) malol keladigan sergaplilik yo'lini tutib, qisqa qilib gapirishdan, xususan, maqsadga xalal yetkazishdan chetlansin; (yana) u har ikki manzil orasidagi masofani, har ikki marhala o'rtasidagi sayr kayfiyatini o'z qudrati boricha, ilmi va diroyati yetganicha bayon qilsin. Bu (ma'lumotlar) hammasi Sharq va Xitoy yerlari hamda o'sha chegaralar tomonndan (boshlanib) bayon etilsin-

da, Samarqand tomonidan Temur ilmi yetadigan joylarni ham [illegible] nihoyasiga yetsin; (yana) Ollohdod shuni bilsinki, bu javob [illegible] larida balog'at maqomi o'rin olsin, unda Ollohdod imkoni [illegible] «qo'shimcha so'zlar» «cho'ziq iboralar» va «mubolag'alar» [illegible] qo'llasin va o'z bayonida «dilola»dan[984] ham ravshan yo'l [illegible] risolasida xufya (tutish) yo'lidan chetlansinki, (musofirlardan [illegible] vayronalar tavsifi, osoru izlar chegarasi va ilgarigi yashovchi[illegible] qolgan belgilar ta'rifini bilib olish bu darmana va qaysum chay[illegible] dan ham oson bo'lsin.

Natijada, Ollohdod farmonga amal qilib bu (narsa)larni [illegible] ni hay'atda va bag'oyat tushunarli timsolda tasvirladi. Bu [illegible] bo'ldiki, u bir necha qavatdan iborat toza varaqlardan olib, [illegible] ni yelim bilan (bir-biriga) yopishtirib, mahkamladi va to'rtbur[illegible] shakliga keltirdi. Qog'oz ustiga ushbu (Temur so'ragan) narsalar [illegible] munasini joylashtirib, o'sha makonlar jamining suratini solib, [illegible] dagi (har bir) harakatli va turg'un (narsa) larni tasvirladi. Bu tasvi[illegible] u barcha ash'yolarni xuddi Temur buyurgandek, – Sharq-u G'ar[illegible] ni, uzoq-yaqinligi; o'ngu chapligi, tekisu tog'ligini, bo'yi-yu [illegible] past-u balandini, daraxtsiz va daraxtli joylarini, osmon-u yerini, [illegible] loqma-buloq, manzilma- manzil qilib ochiq-oydin ko'rsatdi. Har [illegible] makon ismini belgilab, zikr qildi (borish) yo'lini ayon qilib, rasmi[illegible] chizdiki, bu bilan har bir joyning fazilati-yu nuqsonini ham bildi[illegible] Temurning ko'zidan g'oyib narsalarni uning mushohadasi olami[illegible] qo'yib, go'yoki, u Temurning mushohidi, dalili va yo'l boshlovchisi bo'ldi.

Temur Ollohdodga qanday qilishni tavsiya qilgan bo'lsa, hamma[illegible] sini o'shanday ado etib, unga (Temurga) yubordi. Bu (ish) lar ham[illegible] masi Temur Rum yerlarida yurganda yuz berdi.

### Rum ishini nihoyasiga yetkazayotgan vaqtda Temurning totorlarga qilgan firibi bayoni

Temurga Rum yerlari suvi kudratdan sof bo'lib, uning (qilgan) ishlaridan borliqni ajab qamrab, Rum ahli o'lim qazosini ado etgach, uning qo'shini g'oratdan o'z hirsini qondirib, o'ljalardan Temur





[illegible] vodiysi to'lgach – (shu vaqt) bahor yigiti (etib) kelib, qish [illegible] holidan toygan payti bo'lib, saodatli sulton, din yo'lida g'azot [illegible] shahid yildirim Boyazid majidli Alloh rahmatidan makon-u [illegible] topgandi[985]. U Temur bilan (birga) bo'lib, temir qafasda [illegible]langan[986] edi. Qaysar Shopurga (shunday) qilgani kabi Temur [illegible] qasos tariqasida shunday qilgandi[987]. Temur Boyazidni o'zi [illegible] birga Movarounnahrga olib ketishni ko'zlagan[988] edi. U Rum [illegible]katidagi Oqshaharda Temur huzurida vafot etdi[989]. Xuddi shu [illegible] Temur nabirasi Muhammad Sulton ham vafot topgan edi.

(Keyin) Temur jo'nashga azm qilib, yuklarini ortish uchun [illegible] ladi. Va totor bosh(liq) larini jam qilib – Temur ularga o'lim va [illegible]malik keltirish fikrini (dilida) o'ylagan edi, – dedi: «Siz qilgan [illegible] uchun mukofot va siz bajargan ish evaziga badal beradigan [illegible] keldi. Lekin bu yerlarda turish bizga ziyon-u zarar keltirib, rum-[illegible] tor joylarida istiqomat qilish (bizga) malol kelib qoldi. Bo'ling-[illegible], tezroq poyonsiz fazoga chiqaylik, marhamati keng sahroda, (er) [illegible]kishilar oromgohi va donolar qarorgohi Sivos atroflarida (ushbu) [illegible] va makon torliqlaridan to'yib-to'yib nafas olaylik. Bu gul-[illegible] iqlim masalasini o'sha yerda hal qilib, sharif ra'yimiz taqo-[illegible] ko'ra sizlardan har biringizni (loyiq bo'lganiga) qaror topti-[illegible], chunki ijmoliy (masala)ni mufassal ko'rish va uning tadbiri-yu [illegible] kayfiyatida diqqat bilan fikr yuritish lozim; uning (Rumning) [illegible] va qal'alalarini aniqlash, qishloq va ovullarini belgilash, tu-[illegible] va iqto'larini hisobini olish, uning (yakka) odamlari va jamoala-[illegible] (barchasini) bilishimiz zarur. Qachonki bizga mujmal masalalar batafsil ayon bo'lib, ishkalli ishlar ochiq-oydin ravshan bo'lgach, biz sizlarni boshlaringiz va idroklaringizni tekshiramiz, sizlar haqin-gizdagi xabarlar va tarjimayi hollaringizni sinchiklab o'rganamiz, boshliqlaringizni jamlab, rahbarlaringizni hisoblaymiz, adadingizni sanab, avlod-ajdodingizni chuqur o'rganamiz, og'ayni – birodar, avlodlaringizni e'tiborga olamiz, sizlarga aloqador kishilar va nabi-ralaringizni nazarda tutamiz. Shuningdek, rumlilar ichki va tashqi ki-yimlarini (bor-yo'qlarini) aniqlab, ular yeru diyorlarini sizlarga meros qoldiramiz. Keyin bu masalani boshlar adadi (zimmasiga) yuklaymiz

va bu yerlar nafis (mol)larini jon-soniga qarab taqsim qilamiz. Keyin izzat-ikrom bilan sizlarni o'sha yerlarga qaytaramiz. Sizni va bola-chaqangizni (turmush) tashvishidan xalos qilamiz, chunki siz bizlarga tayandingiz. Har holda, biz sizning har biringizga nisbatan xizmatiga loyiq bo'lgan ishni qilamiz. Biz sizga qiladigan ishlarimizdan daftarlar va tarixlar sahifalarida abadiy barhayot bo'ladigan naql qoladi».

Totorlardan har biri ushbu (gap)dan sururlanib, bu masalada rad muvofiqligiga tayandi va bu ishda nohaqlik borligini payqamadi. Qachonki ular bu harakatga sokin nafas (hech bir qarshiliksiz) bilan muvofiq bo'lganlarida, bir biriga o'xshash boshlari adadlarining ko'pligiga qaramasdan, ulardan (birontasidan ham) shu muvofiqlikka teskarilik voqe' bo'lmadi. Natijada, Temur (shu) odamlar bilan Sivosga yetguncha yurdi.

## Bo'lim

Temur otliq to'dalari bulutlari Sivos ufqida (yashindek) chaqnab, (momaqaldiroqdek) gumburlagach, uning uchun totor toifalariga qilgan va'dasiga vafo qilish (payti) keldi. U umumiy bir majlis uyushtirib, qo'shin malaylaridan mukammal bir toifa tashkil qildi. Keyin totorlarning boshliq va aslzodalarini, tayanchli va g'azabli kishilarini zararidan qo'rqiladigan va ziyon-zahmatidan saqlanadigan kishilarini, ular shaytonlaridan (iborat) is'yonkorlarni va ular ustunlaridan (iborat) qaysarlarini (ushbu majlisga) taklif qildi. Temur ularni ochiq chehra va shirinsuxan so'zlar bilan qarshi olib izzat-ikrom bilan o'z o'rinlariga o'tqazdi va ularning imkonu tamkinlarini ziyoda qildi. Keyin u dedi: «Men Rum mamlakati va uning nohiyalarini aniqladimki, uni jami qishloq va tevarak-chetlari menga ayon bo'ldi. Darhaqiqat, tangri sizning dushmaningizni halok qilib, u yerlarga sizlarni xalifa etib qoldirdi. Men ham u (joy) larni sizlarga topshiraman va o'zim sizlardan ketaman va (sizning) ustingizga tangrini xalifa (qilib) qoldiraman. Lekin Boyazidning avlodlari sizlarni (shunday) qo'ymaydilar va sizlar bilan bu yerlarda sheriklikka rozi bo'lmaydilar. Otalariga nisbatan qilgan ishlaringiz ular bilan kelishish yo'lini to'sgan. To'g'risi, ularning otasi o'tgan yo'lga o'tishga sizlarga yo'l yo'q. Shubha





yo'qki, ular o'z nuqsonlarini tuzatadilar va (o'z) jamoalarini (sizga qarshi) undaydilar. O'troq va badaviy ahlini ustingizga otlantiradilar. (Ularning) da'vati yetgan har kimsa ularga «labbay» deb javob beradi, chunki siz ularning fikricha, «makru firib odamlarisizlar». Natijada, sizga ular yo'lbars terisini kiygizadilar. Har bir amr-u farmoni bahona qilib ustingizga cho'g' tashlaydilar! So'ngra sizni har zamondan kemiradilar, ayniqsa chor atrofdan sizlarni qamrab oladilar. Ular qo'llarida ko'pchilik qo'rg'on va qasrlar bo'lib, amrlari ostida (farmon) qolgan qo'shin va askar toifalari mavjuddir. Agar siz shu ahvolda odamlar o'rtasida tarqoq holda bo'lsalaringiz, ular go'yo hovuzda sho'ng'igandek sizlar qonlaringizga sho'ng'iydilar. Agar sizlar aqlingizga keltirmagan va eshitmagan bo'lsangiz, saqlab eshiting:

> Tarqoq odamlar rahbarsiz bo'lsalar, ular yaroqsizdirlar,
> Ulardan johillari rahbar bo'lsa, ular rahbarsiz bo'lgani.

Ammo men bo'lsam sizga yaqin emasman va sizlarni mudofaa qilish uchun menda qo'l bo'lmaydi. Shu sababdan ishingizning tartibi uchun, nizom jamoatingiz nomozi uchun imom va shuningdek, (ta'zibir) shartlar va rukunlar kerakki, avvalo ular amalga oshiriladi, vassalom. Buning eng birinchi sharti imom (rahbar) bo'lishi kerakki, (barcha) xos-u avom uning qilgan ishlalariga iqtido qilmog'i lozim. Keyin, bundan so'ng jamoa tartibi, har bir kimsaning itoat va sam'iga kirishi, keyin barcha ashyolarni o'z o'rniga qo'yish, butun mansabu vazifalarni o'z ahli qo'liga topshirish, har bir xizmati singgan kishining xizmatiga yarasha martabasiga yetkazish, xalq fikrini bitta qilib, yagona ittifoqqa to'plashdir: agar fikrlaringiz ittifoq topib, orzu havasingiz birlashsa, bolalaringiz ulg'ayib, dushmaningiz tor-mor bo'ladi; sizga adovat qilganlarga qarshi bir jon-bir tan bo'lsangiz, o'zingizga muxoliflar va dushmanlik ko'rsatgan kishilar ustidan g'alaba qozonasiz. Bu, siz tomon qabih qo'l cho'zilmasligi uchun va sizga muxoliflaringiz tomonidan na makr, na mushkul bir holat noil bo'lmasligi uchun bag'oyat munosib ish bo'lardi. Bu (narsa) faqatgina sizning hol-ahvolingizga nazar solinib, ot va odamlaringiz holati tekshirilganda va qurol-yarog'u aslahalaringiz aniqlanganda mumkin

bo'ladi. Chunki bu zafar va muvaffaqiyat qurolidir. Mayli, [illegible] har biringiz o'z bolalari va ahlini zikr qilsin, o'z oti va odam[illegible] qilib, (o'z) qurol-yarog'i va adadi, qo'shini va bolalari bilan [illegible] Shuningdek, agar kimning biror zaruriyati bo'lsa, uni [illegible] li bilmay aytsinki biz uni oson qilaylik. Agar kimki muka[illegible] uchun biron narsaga muhtoj bo'lsa, biz uni kamoliga yetk[illegible] agar kimki biron narsadan dar qolsa, biz uni shu narsaga eri[illegible] va har qanday qo'shilishi lozim bo'lgan narsani qo'shamiz. [illegible] kishida ishonch hosil bo'lib, undan qo'rquvi ketadi. Eng avval [illegible] o'z qurollaringizni ko'rsatingki, biz uni to'ldirib, sizning foyd[illegible] qilaylik».

Shunda totorlardan har biri o'z qurol-yarog'ini keltirib, Tem[illegible] ko'rsatdi va bu tartibli to'daga aslahalarini tashladilar. Qurol-yarog'[illegible] to'dalanib, «azim bir tog'dek»[990] bo'ldi. U totorlarga nisbatan [illegible] zamonda Sajiston shahri ahliga nisbatan qilgan uslublarini qo'll[illegible] qachonki o'shanda o'sha sherlarning tirnoqlari va oziq tishlari [illegible] olingan bo'lib, u sindiruvchi jasurlar o'z tumshuq va changallari [illegible] ilingan edilar. Temur o'z o'tkir fikri tig'ini ular (totorlar) aqllari [illegible] karisiga joylashtirib, totorlar izzati samosining Sammok ur-Romi[illegible] qurolsiz bo'lgach, – Sammok ur Romihni sa'd uz-Zobih[992] shilib [illegible] gan edi, – o'z huzurida bo'lgan totorlardan kim bo'lmasin uni [illegible] asirlik qaydigan bog'lashni amr qildi. Keyin o'sha (yig'ilgan) [illegible] halarni qurol-yarog' omboriga olib borishlarini buyurdi. Temur [illegible] qabilalarini halokat cho'g'i bilan-yondirib, tutunini al-Ayyuq[illegible] ko'targan edi. Bu (hol) totorlarning tinkasini quritib, jigar-bag'r[illegible] rini pora-pora qildi va bellarini bukdi: ular (hasrat) olovini alang[illegible] tib, nurlarini o'chirdi. Keyin Temur yolg'on va'dalar bilan ularning xotirlarini epga keltirib, noumid ahdu paymonlar bilan ular qalblari[illegible] tinchitdi. Bo'yama gaplar va yolg'on-yashiq qiliqlar bilan ularni o'[illegible] ga hamroh qilib oldi. Ularning ahvollari o'zgardi va shu zahoti Temur yo'lga tushib, jo'nashga amr qildi[994].

Aytishlaricha, sulton Boyazid bu o'jar (Temur)ga ushbuni aytgan: «Endi men sening changalingga tushdim. Bilamanki, men (sening) halok etishingdan najot topmayman. Sen bo'lsang bu iqlimda muqim





[illegible] Binobarin, senga mening uchta nasihatim bor. Bu nasihatlar [illegible] dunyoning xayrligi uchun dasturdir. Ulardan birinchisi shuki, sen [illegible] Rum odamlarini o'ldirma, chunki ular islom ustunlaridirlar. [illegible] din nusrati uchun avlo bo'lmog'ing lozim, chunki sen o'zingni [illegible]monlardan deb ta'kidlaysan. Bukun (hozir) sen xaloyiq ishi-[illegible] bo'lib, koinot badani uchun sen bosh o'rnida bo'lding. Agar [illegible] ittifoqligi inoqligiga sening adovat qo'llaring vositasida biror [illegible] putur yetsa «er yuzasida fitna va katta fisqu fasodlar paydo [illegible]».

[illegible]sihatlardan ikkinchisi shuki, totorlarni bu diyorda qoldirma, [illegible] ular fisqu fasod moddasidirlar va sen (o'zing ham) ular ishiga [illegible] qarab, ular makriga ishonma. Vaholanki, ularning yaxshiligi [illegible]ligiga barobar kelmaydi. «Rum yerida ulardan bittasini ham [illegible] ketma»[996]. Agar, sen ulardan qoldirsang, ular (bu) yerlarni [illegible] qabilalaridan iborat olov bilan to'lg'azib, bu mamlakat fuqaro-[illegible] ko'z yoshlari va qonlaridan dengizlar oqizadilar. Chunki ular [illegible]monlar va ular yerlariga nisbatan nassoriylardan (ko'ra) ham [illegible]dir. Qachonki, sen (ularni) mendan qaytarganingda, ularni bi-[illegible]larim avlodlari va amakivachchalarim-u (yaqin) qarindoshlarim, [illegible] ta'kidlagan eding. Eng avlosi shuki, jamoating va odamlaring [illegible] ergashsin-da, o'z birodaring bolalaridan (totorlardan) har qa-[illegible] senga – «Amaki! Meni ham o'zing bilan birga olib ket», deb [illegible]. Shunday ekan, ularni (bu yerdan) chiqarishda (o'zingning) [illegible]honga bexato tegadigan afkoringni ishlat. Agar sen ularni hibsga [illegible]sang, shunday qilginki, sira najotga ta'ma qilmasinlar. Nasihat-[illegible]dan uchinchisi shuki, xarobazor qo'lingni musulmonlar qal'a va [illegible]'onlariga (aslo) cho'zma va ularni yotib turadigan Vatanlari-[illegible] qo'zg'ama, chunki u joylar din qo'rg'onlari-yu u (din) yo'lidagi [illegible]azot va jihod qiluvchilarning panohgohlaridir. Bu (nasihatlar) bir [illegible]monatki, men uni sening ustingga yukladim va bir voliylikki, men [illegible] sening bo'yningga taqdim».

Temur ushbu nasihatlarni undan bajoni-dil qabul qildi. Bu johil inson bu omonatlarni diliga jo qilib olib, ularni Ibn Usmon aqlidan ortiq bildi va toqat-u imkoni qadricha ularga vafo qildi[997].

## O'z balosi yashinlari bilan ushbu bulutning Rum yerlari... ko'tarilishi bayoni

Temur yo'lga tushdi; yurishidan chang-to'zon ko'tarilib, ... ko'zi bu to'zondan xiralashdi. Totorlar dengizi qaynab, go'yoki ... tangri taolo yetti dengiz bilan ko'paytirgan dengiz misoli bo'ldi. U (Temur) qaysi qishloqqa kirgan bo'lsa, albatta uni buzdi, qaysi ... shaharga tushgan bo'lsa, albatta uni yaksonlab; (er yuzidan) ... etdi; qaysi bir joydan o'tgan bo'lsa, albatta uni vayron qildi, ... halqasidan o'zini chetga tortgan har bir bo'yinni yo'q qildi, qaysi ... qo'rg'on cho'qqisi unga monelik bildirgan bo'lsa, uni yemirdi. ... Arzinjonga kelgach, Usmon Qaroylukka xil'at kiygizdi va uni ... viloyatlarida barqaror qilib,(yana) ba'zi martaba va makonlar ... ziyoda etdi. Kamox qal'asiga voliy qilib qo'ygan Shamsuddinga ... taqdim qilib, ular ikkalasining bir-birlariga quvvat-u tayanch bo'lish... larini tavsiya etdi.

## Bu azobning suv va olov bo'lib Kurj yerlari va Nassoriylar shaharlari ustiga quyilishi bayoni

So'ngra Temur to Kurj shaharlariga langar tashlamaguncha ... tubsiz dengiz (qo'shin) bilan jo'sh urishda davom etdi. Kurjlilar (...) Masihga ibodat qiluvchi qavm bo'lib, yerlari keng bo'lmasa ham, lekin ular qal'a va qo'rg'onlar, kamar va g'orlar, tog' va qoyalar cho'qqi va tog') qirralari vositasida qo'riqlanib turardi. U makonlar... dan har biri unga erishishda (qo'lga kiritishda) karim tabiatlik kishi... ning xasislikni qabul qilishidan ko'ra ham is'yonkorroq edi.

Ularning shaharlaridan (biri) Tiflis (bo'lib) – Temur uni olgan edi va Tarobzun[999] va Abxos[1000] – bu poytaxtlikka maxsus edi. Bu joylar Temurga monelik ko'rsatib, o'z jilovlarini unga topshirmadi... lar. Shunda Temur hisor qilib, ular bilan jig'illashib adovat ko'rsata boshladi. O'sha joylar jumlasidan bir mag'ora bo'lib, eshigi tog'ning baland qirrasining o'rtasida edi. Bu mag'ora kulfatlardan tinch, ... lokatlardan bexavotir edi. Uning shifti (usti) manjaniq yashinlaridan tinch, etagi (osti) esa osilib chiqish ilgaklari yopishishidan ko'ra ba... land edi. Unga kiradigan joy laylat-ul-qadrdan[1001] ko'ra ham xufiyona





..., uning visoliga yetishishning amrimaholligi o'n to'rt kechalik ... ko'ra ham ravshan edi. Temur uning musoharasiga ishtiyoqlik ... kirishib, uni qamal qilishni o'z zimmasiga oldi. U o'z mulo... handasasini ishlatib, turli fikrlar va vasvasalardan o'ylayverib, ... qarorga kelmadi. Keyin u metindek ra'yi va pishiq fikrini xulo... qilib, ana shu g'or ustiga uning yuqorisidan azob yubormoqchi ... qo'shlari bilan fazoga ko'tarilgan ushbu kabutarning bo'ynidan ... qilmoqchi bo'ldi. Shu maqsadda dabbabalar[1002] shaklida quti... yasashlarini buyurdiki, go'yo u (quti) lar erlaridan ustun keluvchi ... larning shaytonlari kabi bo'lsin; qutilarni mustahkam zanjirlar ... bog'lab, ularning ichiga salobatli erkaklarni o'tqazdi. Qutilarni ... (tog') qirralaridan tushirib, (tog') cho'qqilaridan (pastga tomon) ... yubordilar. Ular havoni go'yo qazo-yu mubram qoplagandek ... borliqni to'ldirib yubordilar. Tog'lar va odamlar quyilari titra... O'sha burgut-u lochinlar holini ko'rgan har bir kishisi: «Osmon ...'ida musaxxar bo'lib turgan qushlarni ko'rmaysanmi? Ularni ...dan boshqa ushlab turuvchi yo'q»[1003] deb nido qilardi. Qachonki ... (qutidagilar) bu mag'ora eshigiga ro'para bo'lgach, kurjlilarga ... o'qlar bilan hamla qilib, uchuvchi nayzalar bilan ularga zarba ...dilar, xilma-xil aslahalar bilan ularni qarshi olib, keng sirtmoq va ...aklar vositasida jang qildilar. Bu burgut va lochinlar havoda saf ...tib, changal ochib, shu uyaga qarab intilar, uning tepasida gir-gir ...lanishib, undan uzoqlashmasdilar. Ular parmasimon tumshuqlari ... u (joy) ahli peshanasini cho'qib, changakdek panjalarini ular ...lariga botirardilar. G'orning qaysar bikr qizi ularning o'z qucho...'iga kirishga monelik qilib, unda bor baquvvat nassoriylardan ma... so'rardi. O'sha yirtqichlardan biri ham, g'or eshigiga jarohat... ...vchi changal solsa-da, unga yopisha olmadi. Keyin (ularga) fath ...lkinib, zafar sekin-asta ko'tarildi. U tangriga e'timod qilib, o'z dab...babasidagi bir kishi orqali uyaga zafar topdi. Yordamchi qo'li unga yordam, madadkor bilagi unga madad berdi; salomatlik kafti uning to'pig'idan tutdi. Natijada, nassoriylar uning oldiga orqalarini o'ngar...dilar! Uning yolg'iz o'zi to'xtovsiz ularni halok etaverib, nihoyat ularning qalang'i-qasang'i-yu botir odamlarini o'ldirdi. So'ngra u o'z hamrohlarini mag'oraning ichiga kirgizib, undagi maxfiy narsalarni

yuzaga chiqardi. U (bir) kishining ismi Luhrasb bo‘lib, oltita harfla Ularda ikkita harakatlidan boshqa (harakat) yo‘q, Zammali «dol» «ho» va «ro» fathalik va «alif», «sin» va «bo». Uchta sukunning bir joyga jam bo‘lishi fors tilida ko‘p uchrab, turkchada ham mavjud Lekin bu hol unda kamdan kam bo‘lib, ko‘p emasdir.

Bu qal’alar jumlasidan bir baland qal’a bo‘lib, uning mohiyati harflari xuddi uning ismi harflari kabi manoatidan so‘zlovchila Uning kamoli balandligi sababli u qal’a fathida «ayt» va «laalla» («shoyad», «koshki edi») bog‘lovchilari ish bermaydi. Chunki uning ismi odamlar tasdiqlashlaricha, «Kel, ko‘r, qayt»[1004], ya’ni «taol «unzur» va «irja’»», buning ma’nosi shuki, unga kelgan kishi nazar s lishdan bo‘lak hech narsaga erisha olmaydi. Uning uch tomoni qal’a atrofida bo‘y cho‘zgan baland tepaliklar cho‘qqilari ustida bunyod etilgan bo‘lib, u (go‘yo) tog‘lar ustidagi bayroqdir. Uning to‘rtin chi tomonidagi yo‘li tor bo‘lib, yurish qiyindir. Bu yo‘l turli-tuman mashaqqatlardan keyin bir tik qoyaga ulashib, u bilan o‘sha qo‘rg‘on darvozasi o‘rtasida bir ko‘prik bordir. Agar bu ko‘prik ko‘tarilsa unga ya’ni, tog‘dan iborat bo‘lgan qo‘rg‘onga yetilmay yo‘l (batamom to‘siladi. (Oiladagi) yetishmovchilik jihatidan o‘z bolalaridan qochib unga chiqqan har bir kimsa panoh topadi. Uni Maoz ibn Jabal[1005] deb aytilsa to‘g‘ri bo‘ladi.

Temur qal’a ishi haqiqatini idrok etib, uning yashirin xabarla zohir bo‘lgach, u to o‘z maqsadiga erishib, uni fath qilmaguncha jo‘nab ketishdan voz kechdi. Qal’a yaqinida na tushadigan bir man zil, na bu tug‘yonlik dengizni ko‘tarib, tutib turadigan bir qurugli bor bo‘lib, balki uning atroflari qoyalar va do‘ngliklardaniborat edi uning peshanasi ajinlari azob ustida azobni xush ko‘ruvchi er bilan kelishmagan ayol yuzi singari badbashara edi. Temur bundan, ta’ma qilinmaydigan (narsa) dan ta’ma qilib, chodirini o‘sha qal’adan ko‘z narli va (gaplari) eshitiladigan joyga o‘rnatdi. Uning pistirmada tu gan sher askarlari esa qal’aga kelib-ketuvchilarni navbat bilan o‘rta turardilar. Ular (kurjlar) kunduzi ko‘prikni ko‘tarib, dushman jangi va hisori makrlaridan tinch bo‘lardilar. Chunki, oldin aytib o‘tilganidek uning (qal’aning) atrofida urush qilish uchun joy va qato (qushi) uyasi ham yo‘q ediki, unda jang qilish mumkin bo‘lsa. Temur odamlar





kunduzi unga qaratib uzoqdan ko‘z o‘qlarini otardilar va go‘yo qa-zali oshiq kabi olisdan unga nazar tashlash bilan qanoatlanardilar. Chunki ularni tun o‘z og‘ushiga olgach, ular o‘z chodirgohlari to-son etak shimarardilar. Chunki ular uning atroflarida na kechasi, na kunduzi (uxlab) orom olardilar. Shunda nassoriylar ko‘prikni qo‘yar va o‘z hojatlari uchun yo‘l istardilar. Qachonki Temurga[1006] qal’ani bilmaslik belgilari bayon bo‘lgach, qal’a fathi to‘g‘risidagi o‘z gu-moni orzusining puchga chiqqanligi ma’lum bo‘ldi. Go‘yo men ayt-gandek:

> Zamon qisiridan maqsad tug‘ilishi, vujudga kelishi
> mumkin bo‘lmagan narsaning eng kattasidir.

U bu yerdan jo‘nab ketishga qat’iy azmu qaror qildi-yu, lekin uning oriyatidan[1007] qo‘rqdi. Shu sababli bu xususda dalil va sabab izladi.

## Temurning bu manoatli qo‘rg‘onni olish sababi va shu orada bo‘lib o‘tgan badoatli bir ish ma’nosining bayoni

Temur askarida ikki tengdosh yigit bo‘lib, ular ikki g‘azabnok sher (misoli) edilar. Ular siyrat va suvratda bir-biriga o‘xshash, matonat va shijoatda oralarida ko‘p farq yo‘q edi. Ular har vaqt fazilatlar maydoni ichra kim g‘olib musobaqasida javlon urishib, ikkalasi tarozining ikki pallasi singari va poyga maydonidagi bir biriga o‘xshash (bo‘lgan) ikkita ot misoli edilar. Ittifoqo, shu orada ulardan biri sherdek jur’at-li va burjdek jussali baquvvat bir kurujliga tasodifan to‘qnash kelib qolib, uni uldirdi va boshini kesib, Temurga keltirdi natijada, Temur uning shanini ulug‘lab martabasini tengqurlaridan oliy qildi. Bu (ish) uning (boyagi) tengquriga ta’sir qilib, go‘yo uning bo‘yin tomirini kesgandek bo‘ldi. Keyin u shunday bir ish qilish ustida fikr qildiki, bu tengdoshini pastga urib, o‘zini yuqori ko‘taradi; uning ismi Pirmu-hammad bo‘lib, laqabi Qanbar edi. U (yuqorida zikri o‘tgan) ko‘prik-ni poylashdan ortiq ulug‘ va shuhratli ish topmadi. Natijada yagona, pok tangriga tayandi va o‘ziga kerakli anjomu-aslaqani mukammal qilib, kechalarning birida o‘z (tolei) yulduzini kuzatib, holi bir joyda bekinib turdi va yulduzlarga razm solib, ular (kurjlilar) ustiga hujum

va tashlanish toleilarini poylashda davom etdi. U o'sha ch...
(qarichlab va zir'olab o'lchar, to ziyo o'z niqobini tashlab, ...
terisini shilguncha u goho qornida sudralib, goho emaklab, ...
da davom etdi. Nassoriylar (ko'prikni) buzish ishlariga qa...
o'rnidan ko'tarishda bir-birlariga yordam berdilar. Pirmu...
ko'prikka sakrab chiqib[1008], uning bandlarini kesdi va kurjilar ...
muyulishdan turib kamondan ketma-ket (shunday) o'q uzdi...
ga ko'prikni ko'tarish va uni (turgan) mavze'idan qo'zg'ash ...
kin bo'lmadi. Shunda kurjilar uning ustiga o'qu toshlarni yo...
o'sha samodan seldek oqqan (yomg'irni) yubordilar. Pirmuh...
esa o'z maqsadidan qaytmay, o'lishiga ham qaramasdi va ...
o'qlari va toshlaridan sodir bo'layotgan farmonlarni «bosh ...
deb (boshiga va ko'ziga) qabul qilar edi. U jangu jadal, olish...
kurashishni tong otguncha davom ettirdi va uning qilgan ishlar...
koinot taajjub barmoqlarini tishlab, yer-u dunyo ko'zini hayrat...
radi. (Shu vaqt) qal'ani hisor qiluvchilar jangni to'xtatgan, Temur ...
zikr qilinganidek, (bu yerdan) jo'nashga azm qilgan edi. Uning ...
diri baland bir joyga o'rnatilgandi. Shunda fath lisoni unga nido qil...
g'alaba jarchilari unga xitob qilib derdi: «Inson, yetishi sabablar...
kesib qo'ygan matlabdan umidsizlanma. Ular (odamlar) eshiklar...
qulflasalar, tangri esa uning eshigini ochadi».

Keyin Temurga uzoqdan qal'a eshigi yonida qandaydir odamlar
sakrashib, qay bir to'dalar sharpalari bir-birlarini quvlab, urish...
shayotgandek bo'lib tuyuldi. Shunda u huzuridagilarga: «Ey madad
va shijoat sohiblari! Siz ko'rmayotgan (narsa) ni men ko'ryapman.
Menga o'xshab diqqat bilan nazar solinglarda, keyin (o'sha) to'da
tomonga qarab shoshilinglar va bu xabar haqiqatini menga keltiring-
lar», – dedi. Ular bundan biror xabar keltirish va bu sirlar pardasini
ochish uchun uzoqqa tikilgan holda ketdilar. (Shu topda) ular chopqir
yo'lbarsdan ko'ra chopag'on, yuguruvchi sherdan ko'ra (tez) yuguruv-
chan edilar. Ulardan har biri o'z chopishida va adovatida «Taabbata
sharran» («yomonlikni qo'ltiqlagan») edi. Ular birin-ketin va to'da-
to'da bo'lib shu ahvolda xuddi tashlanuvchi, sakrovchi va chopqir
shaytonlar va shular misoli bo'lib, oqib kela boshladilarki, nihoyat,
oldingilari Pirmuhammadga yetib keldi. Pirmuhammad o'lim girdo-





...lib, o'z olovida o'zi yonayotgan ediki, u kurjlilar o'qlariga
...bo'lib, uning (hayoti) javhari oz bo'lmasa yo'q bo'layozgan-
...chonki Pirmuhammad o'z to'dalarini uzoqdan ko'rgach, tirilib,
...polanish hosil bo'ldi va titrashi taskin topdi. (Temuriylar) ga
...qo'shilib, o'sha qo'rqoqlik va zaiflik ketdi. Qachonki kurjlilar
...prikni (o'rnidan) ko'tarishdan ojiz bo'lib, orqalarini o'girgach,
...qo'rg'onga kirib, uning darvozasini bekitishga azm qildilar.
...da Pirmuhammad ular bilan aralashib, qo'rg'onga kirdi va dar-
...sini bekitishga (ularga) imkon bermadi. Natijada, ular uni qilich-
...va o'lim toshlari bilan urib, zarba berdilar. U bo'lsa mudofaadan
...ha (hamma) narsani rad etib, qarshilik ko'rsatish takrorida jidd-u
...ko'rsatar, o'ziga tosh tegib yorganini va temir (qilich) jarohatini
...ediki, go'yo u xudoga sig'ingan bo'lib, tavxidga berilib keti-
...uni hamma narsadan yalang'och qilgan edi. Nihoyat, kurjlarni u
...lar o'rab olib, ular ustiga shijoat samosidan g'azab yashinlaridan
...at yomg'ir sellari quyildi. Keyin o'sha sherlari ularning yoqalari-
...yopishib, changallaridan Pirmuhammadni xalos qildilar. Keyin
...lar nassoriylarni qabz qilib olib, ularga tegishli mol-dunyoni o'lja,
...tinlarini tutqun, bolalarini asir qildilar. Pirmuhammadni Temur
huzuriga olib kelib, bu ishi bilan uning nimaga e'tiqod qilib, maqsadi
...ma bo'lganligi xabarini Temurga yetkazdilar. Ular unga yetkazil-
...gan, qonab turgan jarohatlarni ko'rsalar, u o'n sakkiz joyidan majruh
bo'lib, ularning har biri og'ir jarohat edi. Temur Pirmuhammadga bu
qilgan ishi uchun tashakkur bildirib, unga katta va'dalar qildi. Uning
martabasini ulug' qilib, Tabrizga yubordi. Uning to'g'risida (kerakli)
tavsiyalar bergandan keyin noiblardan iborat amiru boshliqlarga mo-
hir tabiblarni va tajribali davolovchilarni yig'ib keltirishni buyurib,
ularni Pirmuhammadni davolashga butun jon-jahdlari bilan kirishsin-
lar, butun mahorat-u mehnatlarini sarflab, uning muolajasida ilm-u
amalni bog'lab olib borsinlar, – dedi. Natijada uning farmonlariga
amal qilib, imkonlari qadricha Pirmuhammadni muolaja etib, illatini
ketkizdilar. Pirmuhammadning jarohatlari bitib, yaralari avvalgidan
ko'ra ham yaxshiroq tuzaldi.

Qachonki u sog'ayib huzuriga kelgach, Temur uni qo'mondonla-

ridan biri qilib, o'z qo'shin toifalaridan biriga boshliq etib tayi... Orqada bo'lgan Pirmuhammadni ko'plardan oldinga qo'yib, uni... (kishi)ga amir, ming (kishiga) rahbarga aylantirdi.

**Kurjlarni oqsoqlar shayxi Temur bilan mojarosining tam...**

Bu qal'a va bu mag'ora kurjlar qal'alarining ikki ko'zi, ular tog'... tepasidagi (charaqlagan) ikki mash'al bo'lib, qolganlari esa chi... (misoli) edi. Ular yuzlaridan ko'zlari o'yib olingach, ustlariga k... tushganiga vao'zlarini aza o'rab olganligiga ishonch hosil qildi... Natijada, ularning quvvatlari bo'shashib, bandlari uzildi, hiylalari... bermay, ularga qiyomat-qoyim bo'ldi. Do'zax mutasaddiylari... ni qovoq solib o'tkazib, sog'-salomat olib borib do'zaxga topshi... G'alabaning hosil bo'lishiga Temur umidlanib, o'z azmini Kurj yer... rini xolis egallashga burdi. Temur qo'shinlari Kurjda tarqalib, uni... zaga soldilar, ularning hayot kiyimlarini mayda-mayda qilib bo'la... lab, parcha-parcha qilib qirqdilar. Qurol-aslaha bilan o'lim kafanlari... tikdilar va ularni qaviq, chok va kaf(eng) bilan ziyoda etdilar. Intiq... tili ularga: «Ko'rmaysanmi? Biz shaytonlarni kofirlar ustiga yub... dikki, shaytonlar ularni doimo gunohga undaydi»[1009], deb tilovat qildi...

**O'z qo'shnilari shirvon hokimi Shayx Ibrohim vositasida kurjlarning Temurdan omonlik tilab shafoat so'rashi bayoni**

Keyin kurjlar o'z noshudliklarini tuzatib, tadbirlarini tikladilar va yirtiqlarini kengayishdan oldin yamab, (o'z) hayotlari ishini uzilish... dan oldin uladilar. Ular «omonlik», «omonlik!» deb faryod qilib, o'z... xalosliklari uchun Shirvon hokimi Shayx Ibrohimni madadkor etib, ixtiyor qildilarda, uning tadbiri qo'llariga (o'z) jilovlarini tashladi... lar. Garchi u g'ayri millatdan bo'lsa ham, o'z jamoalari uchun uning imom bo'lishiga rozi bo'ldilar. Bu (muhim) ish yo'lida uni xatib bil... dilar. Uning vositachiligi bergan mevalarni xoh quruq bo'lsin, xoh xo'l bo'lsin, shirin hisobladilar.

Shu payt yoz askari kurj to'dalari singari orqasini o'girgan, kuz va qish qo'shini esa. Temur askari singari yaqin kelgan edi. Kech kuz sultoni suv yuzini sayqallab tozalagan, shoxlardan sultonga tegishli bayroqlarni ko'targan, tog' cho'qqilariga billur soyabonlarini o'rnat...





...yo'l yuziga kechki nasim to'qimasidan dovudiy sovutlar kiy... edi. Natijada, borliqdagi qotgan va unayotgan mavjud narsalar ...askarlari jumlasidan bo'lib, uni himoya qiluvchi yoki himoya ...chi bo'lgan edi. Men dedim:

Agar tangri o'z bandasiga nusrat istasa,
unda dushmanlari unga yordamchi bo'ladilar.
Agar u bandasini halokatdan qutqazishni istasa,
olovidan uning uchun anhorlar oqizadi.
O'ta oqil (kishi)ning javhari qisqarganini ko'rasan,
Uning tikoni o'rnida atir gullar ko'rasan.

Natijada, Shayx Ibrohim Temur huzuriga kirib, uning oldida yer ...pdi va xusrovlarning (ulug') podshohlarga qilgan tahiyati bilan uni ...briklab, o'zini eng kichik mamluk maqomida tutdi. Keyin xitobga ...so'rab, bag'oyat lutf ila so'z qotdi. Temur unga izn qilgach, u ...di: – «Mavlono Amir shafqatining umumiyligi, miskin-u faqirga ...nihoya mehribonligi, karim otifaga-yu barakatlik rahmatga egaligi, ...qulingizning dilidagi ba'zi o'ylarni (Mavlono) sharif fikrlariga ...vola qilishga jazm etdi. Bu shuki, tangri taologa hamd bo'lsinki – ...maqsad hosil-u murod ixtiyorga muvofiq uzluksiz erishilayotir. Do'st ...hayron, dushman vayron(dir)[1010]. Mavlono Amirning sharq-u g'arb...dagi haybati uni zarb va harb uchun tayyorgarlikdan xolis tutur. Shu...ningdek, tangri madadi yor bo'lgan askarlar hisobdan xorij darajada ko'p, ular orasida asirlar, holi tang kishilar hisob-kitobdan ortiqdur, xususan, totor jamoalariki, qaysiki baxtlari ularga orqa o'girgan va ja...moalari jahannamdan joy olganlar. Ularga sovuq zarar keltirib, (ular) ...omadlari naqshi[1011] «tard» va «aks»[1011] o'rtasida taraddudlanib qol...di. Agar ishlar shu dasturda davom etsa, yirik (narsa) yupqalashib, yupqa (narsa) halok bo'ladi, azim (narsa) noziklashib, nozik (narsa) ...un bo'lib ketadi. Yolg'iz bu mamlakatgina emas, balki boshqa iqlim...lar ham sening amringsiz mustaqim bo'lishi amri mahol; fojiru fosiq...lardan iborat ular boshliqlari Mavlono Amirimizda o'z mamlukiga nisbatan qanchalik mehribonlik va shafqat borligini bildilar. Natijada, qo'shnichilik illatidan (kamina) bu qulingiz oldiga o'zlarini tashladi...lar. Go'yo muhtoj bechora (kishi) karim, badavlat kishidan rijo ti-

laganidek, ular Mavlononing sharif sadaqalaridan umidvor bo... Har qachonki Mavlonodan itoat qilinadigan farmonlar sodir... barcha quling va u jamoadan har biri uni qabul bilan qarshi... Ular oliy himmatli amirlarini itoat va sam' bilan qabul etadilar... ki (Mavlononing) murodlari mol-dunyo jamlash bo'lsa, bu qu... har holda shuni ham bajo keltiradi. Mavlono Amirning sadaqa... bo'lak qulida mol-dunyo qayerdan ham bo'lsin? Bu qilingan... (ushbu) qulingiz ko'zlagan maqsad ikki tomondan kulfatni ko'... va mushkul ishni oson qilish va o'z qo'shnisining haqini himoya... payg'ambar alayhissalomning: «Hamisha Jabrail menga qo'shni bi... (yaxshi) munosabatda bo'lishni tavsiya qiladi», degan so'ziga... qilishdir. Mavlononing ulug' ra'ylari oliy, hurmatlik va (hamma... sadan) avloki, qulining ushbu rijosini umidsiz qilsa!»

Temur uning so'raganiga rozi bo'lib, undan ko'p miqdor... mol-dunyo keltirishni talab qildiki, bu mol-dunyo xoh ularnikidir, xoh uning o'zinikidan bo'lsa ham farqi yo'q edi. Shayx Ibrohim: «Men bunga kafilman», – dedi va so'ralgan boylikni Temur xaz... nasiga bekam-u ko'st yetkazdi. Keyin Temur jo'nab ketib, qishlovini Qorabog'da kamoliga yetkazdi. Bu 806-yilda (1403-yil iyul–1404-yil iyunda) (bo'lgan) edi.

**Temurning o'z jilovini vataniga qarab burishi va fasodini kamoliga yetkizgach, o'z mamlakatiga yuzlanishi bayoni**

Qachonki koinot pardozchisi ushbu makon kelinchagini ziynat... lab, yerdan olinadigan zamon asoslarini bino qilib, o'suvchi kuchlar qo'zg'olgach, pardada bo'lgan baland cho'qqilar o'z jamolini na... moyon qilgan, issiq bug'lar ko'tarilib, hasharotlar o'rmalagach, Temur ham (bu yerdan) ketishga qo'zg'oldi. Uning askarlarini tirilti... radigan kimsa sovuq o'liklar zararkunandalariga dam urgan ediki, «birdan ular ilondek harakatga tushib ketdi»[1012]. Natijada, nog'oralar chalinib, uning sadosiga qattiq momoqaldiroq ovozi aks sado berdi, liboslar oynalari yaltiradi, ulardan yashin o'qdek chaqnab, in'ikoslan... di va o'z qabulini tog' kunguralarida namoyish qildi. Uning tog'dek to'dalarini qavsu ko'zah (yoy) o'rab oldi, u otlarini yopiqlari ichida yurgizdi, to'dalari guruhlari o'sha toza bo'shliqda gulu rayhon orala-





...mutakabbirona o'raldilar. Tuyalar yurib, tog'lar, yonidan go'yo ...o'tgandek o'tdi; qalin to'dalar yurdiki, chang tumanlaridan ...misoli bo'ldi. Nayzalar ko'tarildiki, ular go'yo moyil egiladi-...dalar misoli, qilichlar tebrandi, natijada arpalar tanalarida suv ...lari ochildi. Xanjar va nayzalar tillari go'yoki daraxt shoxlari ...andek, u yoq-bu yoqqa qimirladi; to'dalar bayroqlari yoyil-... go'yo gullarning mashhurlari tog' qirralarida sochildi. Xullasi ..., bahor o'z yashini-yu (qora) bulutlari, o'z momaqaldirog'i-yu ...gan ovozi, qalin o'sgan daraxtzorlari, tepaliklari, gilam singari ...klari va yostiqlari, o'zining qalin chang-to'zonlari, qip-qizil ...lari bilan tog'lari, gullagan daraxtlari-yu chodirini, butalari bilan ...larini, amr-nahiy shamol-osifalarini qaro to'dalari bilan ko'k qum ...dalarini, yashil gullari bilan yarqiragan kamonlarini, oquvchi sel-... bilan askarlarning yurishini, qattiq shamol esganda qalin daraxt-...ning mavj urishi, uning qo'shinlari dengizi iztirobi bilan hikoya ...di. Natijada, Temur ushbu «rand»[1013] va «aror»[1014] oralig'ida bo'lib, ...irjam kayfiyat bilan Samarqandga qarab davom qildi. Shod-xur-...lik uning nadimi, xursandchilik uning umr yo'ldoshi, kibrlik un-... (doimiy) mulki, yaxshi kayfiyat uning hamsuhbati bo'lgan holda ...rdi. Toki u Ozarbayjon viloyatini kesib o'tib, uzangisini Xuroson ...lariga qo'ymagunicha, yo'l-yo'lakay uning ishlari boshdan oyoq ...-nobuddan iborat bo'lib, bu iqlim podshohlari-yu toj-u taxt egalari ...ning xizmatida edilar.

**Bu atrof podshohlarining Temur istiqboliga chiqishi, kelgusi holatining afzal bo'lishini tabriklab, uning huzuriga kelishlari bayoni**

Mamlakatlar atroflari bir-birlaridan Temur o'z vataniga ravona bo'lganini eshitgach, shu makonlar atrofidagi podshohlar va uning te-varagidagi marozibalar[1015] Temurga peshvoz chiqdilar, qavm bosh-liqlari va oliyjanob sayyidlar uning istiqboliga shoshildilar; Mo-varounnahr va boshqa joylardan e'tiborli va marhamatli kishilar unga tomon oshiqdilar. Turli iqlimlar ustunlari, turli viloyat va atrof-chet-lar podshoh-u sultonlari unga tomon uchib keldilar. Kimki agar bi-ron chegarada bog'liq bo'lib yoki biron ishni pishiqlashda mashg'ul

bo'lsa, o'z noibi yoki elchisini, hojibi yoki vakilini yubordi. U Temurning (vataniga) qadam qo'yishi bilan bir-birlariga bashorat berar va Hind, Iroq, Rum, Kurj va Shomda unga nasib etgan (zafarlari) bilan qutlardilar. Ular (unga) sovg'a-salomlar va tuhfalar taqdim qilib, ziyofat va o'tirishlar uyushtirardilar. So'ngra, ulardan keyin Temur ni sayyidlar, ulamolar, mashoyixlar, akobirlar va kohinlar boshliqlari va boshliqlar kohinlari muborakbod etdilar. Temur ulardan har biriga yo'l-yo'riq ko'rsatib buyruq berar, ular esa sam' va itoat bildirib, hurmat va sukut bilan bo'yin egardilar hamda ular uchun o'zi ega qilgan narsasida qoidalar va asoslar tayyorlar ediki, «ularda na qiyshiqlik na egrilik ko'rasan»[1016]. Keyin u ulardan har qaysisi bilan o'z ra'yi taqozasiga ko'ra ish tutardi. Shunday qilib, u Jayxunga yetib keldi. Bu yerda uning uchun kema va qayiqlar hozirlangan bo'lib, ular vositasida u daryodan o'tdi. Shunda Samarqand ahli uning istiqboliga chiqdiki, ulardan har birining qalbi shod va holi xushnud edi.

Temur 807-yilning avvallarida (1404-yil iyul–avgust) Samarqandga kirdi. U bilan birga har xil millatlar toifalaridan yetmish ikki guruhi bo'lib, ularning aksariyati qadriyalar[1017] va murjialar[1018] edi. Keyin u askarlaridan ixtiyor etib izn qildiki, ular tarqalib ketdilar. (shuningdek) Movarounnahr qo'shinidan bir qancha toifalar ham (izn bo'lgach) har tomonga to'zib ketdilar.

## Temurning totorlarni sharq-u g'arbga va o'ng-u so'lga to'da-to'da (qilib) tarqatishi bayoni

O'z poytaxtida qaror topgach, Temur totorlarni to'zitishga kirishdi. Ular (totorlar) ko'p sonli bo'lib[1019], qurol-yarog'larga ega, botir va shiddatli (kishilar) edilar. Temur ularning qurol-yarog'larini shilib olib, ular shavkat-u shiddatini sindirgan bo'lsa-da, lekin tangri ular adadlarini saqlab qolgandi. Shu sababli Temur ularning botirligidan xavflandi. U ularning jam'larini to'zitib, ular (o'rnashgan) yerlarini (ular) to'dalaridan holi qildi. Ularni sahro-yu soylarga sochdi, cho'l-u biyobonu, chekkalarga tarqatdi, tashvishli va unumsiz joylarga tashlab, turli-tuman yig'i-yu navha tomonlariga uloqtirdi. Keyin esa ular boshlari bilan chegaralar og'izlarini to'sib, bellari bilan yo'llar darvozalarini bekitdi. Ularday bir toifani Qoshg'arga jo'natdiki, u Xi-





toy va Hind chegarasi o'rtasidagi bir oraliq (joy)dir; yana bir guruhni Isiko'l[1020] deb ataladigan ko'lning o'rtasidagi Duvayraga[1021] jo'natdi. U (Isiko'l) Temur yerlari va mo'g'ullar o'rtasidagi chegaradir. U guruhga bir qadar baxt tasodif bo'lib, Temur keyin o'ziga qo'shiladigan kishilardan ajralajagidek, ular o'ziga qo'shilgan kishilardan ajraldilar. Natijada, ular qocha-qocha birikdilar va (Temurga) boshqa qaytmadilar. Ular shimol tomonni mo'ljallab yurdilar va Dashti (Qipchoq) orqali o'tib, Idikuga bordilar. Keyin Temur har bir hazin, oh tortuvchi (totorlardan) iborat ularning qolganlari, qabilalari va urug'larini Arg'unshohga qo'shdi va uni qattiq azmu qaror bilan Dasht yerlari va Xorazm chegaralariga tomon otlantirdi. Bu (ish) Temurning odati bo'lib, uning farmon va ishlarining asosi ham shunday qurilgan edi, chunki u (to'xtovsiz) ko'chib yuruvchi shaytonlardan bo'lib, odamlarga makr va aldov ishlatishda hiylakor Dalla misoli edi. Har qachon u biror ulkada bironta qal'a bino qilsa, yoki o'z muxoliflari chegaralaridan biror parcha (er) egallasa, ularga bu joydan eng uzoqda joylashgan qo'rg'on va qasrlarda bo'lgan askarlarini tushirardi va o'sha yerga bor kishilarni keltirardiki, agar chapda bo'lsa o'ngga, qibla yoki janubda bo'lsa shimolga ko'chirardi. Binobarin, Temur Tabriz mulki va uning tobe'larini egallagach, unga o'z pushti kamaridan bo'lgan o'g'li Amiranshoxni noib qilib qo'ydi va unga bir toifa g'aliz va shiddatli chig'atoyliklar bilan madad berdi. Ulardan (biri) Ollohdodning birodari Xudoydod edi. Xitoy va Turkiston atroflariga esa ikki Iroq[1022], Hind, Xuroson askarlaridan turli toifalarni ko'chirdi va (avval) zikr qilinganidek, Shomdan (olib) keltirgan Samaqa ibn at-Tikriytiyni Sayram shahri noibligiga tayinladi. U (Sayram), Samarqanddan sharq tomonda (joylashgan) bo'lib, o'n kunlik chamasi yo'ldadir. Sayram orqasida to'rt kunlikcha yo'lda joylashgan Yangi Talasga esa Yalbug'a Majnunni noib qilib tayinladi. Bu ikkala shahar muxtasar mintaqalar bo'lib, Sayxunning orqa tomonidadir va Turkistonga taalluqli joylardandir. Bu ikkisi hokim va amir bo'lishlari tugul, hatto tilga olishga ham arzimaydigan (kishilar) edilar. Ammo Temur o'z huzurida Shom boshliqlari va uning ko'zga ko'ringan a'yonlaridan bir jamoasi borligini, o'z yerlarida turli millat xizmatkorlari va boshliqlari – arab va ajam hokimlaridan (bir qanchasi) mavjudligini

– o'zining u taraflarda javlon urib, savlat to'kkanini, Shom va Xi[…] oraligidagi yerlarni egallaganini bildirib, o'z yerlari atroflariga yoy[…] uchun ana shunday qilgan edi.

## Bo'lim

Keyin Temur o'z g'oyibligida mamlakati va raiyasi ishlari[…] nelar yuz berganini surishtirib, yeru mulklari masalalarini diqq[…] bilan o'rgana boshladi va hokimlariga yo'l-yo'riqlar ko'rsatdi; a[…] va chegaralar, tevarak-chetlar foydasi tadbirini ko'rib, katta-y[…] kichikning g'amini yeb, boy-u faqirning manfaati bilan mashg'[…] bo'ldi. O'z mulohazasi taqozasiga ko'ra barcha ash'yolarni o'[…] o'rniga qo'yib, jami mansabu martabalar jilovini o'shanga saz[…] vor kishilar qo'liga tutqaza boshladi. U (go'yo) bu shoir aytganig[…] shoshildi:

Anushirvonga xudo xayr bersin,
biron kishini pastkashlik va tubanlikka o'rgatmadi.
O'z zamonida ozod xalqni qalam tutib,
amalda xo'rlik ko'rsatishlariga qo'ymadi.

U sayyidlarni e'zozlab, karomatlar sohiblari (bo'lgan) avliyolarni izzatu ikromli qildi, ilm-u fanni va uning ahllari hurmatini oshirib, (ularga) muruvvatini sochib, martabalarini ulug'ladi; u mufsidlarni bartaraf qilib, murtadlarning (ildizini) quritdi, zinogirlarni bo'g'dirib, o'g'rilarni salb etdirdiki, nihoyat uning fikricha, siyosat ishlari mustaqim va riyosat qoidalari (esa) Chingizxon tavrotiga muvofiq bo'ldi[1022].

## Temur bid'at etgan qirdikorlari va (o'z) muhri bilan bosgan yomonliklari xotimalari va uning vafoti talabgorining kelishi bayoni

Keyii u o'g'li Shohruxning farzandi, o'zining ziyrak nabirasi Ulug'bekni uylantirishga kirishdi[1023]. U (Ulug'bek) shu kunlarda, ya'ni 840 (1436–1437) yilda otasi nomidan Samarqand hokimidir[1024]. Temur Samarqand ahliga zebi-ziynatga o'ralishni, ular ustidan jabr-u





[…]larni ko'tarib, soliq va to'lovlardan ozod qilishni, ularga omon[…] […]lotini yozishni, aholidan katta-yu kichik, yuqori quyi (tabaqali) […]larga fazl-u ehson bilan muomala qilishni, o'z yerlarida qilich […]'ochlamaslik, zulm va nohaqlik joriy qilmasliklarini ham[…] […]larga (Samarqand ahliga) o'z zeb-u ziynatlari bilan Samarqand […]ida, bir milda joylashgan Konigil deb ataladigan joyga chiqishla[…] […] amr qildi. U joyning havosi mushkdan ham sof, suvi qanddan […] shirin bo'lib, go'yo bu (joylar) jannat bo'stonidan (bo'lib olin[…]) bir qit'a, jannat mutasaddiysi Rizvon undan g'aflatda qolgan. […] dedim:

U bog'da turk ohusi darmana (o'ti)ni yeb o'tladi,
Natijada, mushk bu ohu qonining bir qismi bo'lib qoldi.

U joy havosining riyhalari sahar nasimidan ko'ra latifroq va ti[…]q suvining ta'mi obi hayotdan ko'ra laziz va sof bo'lib, kudratdan […]shona ham yo'qdur; qushlarining (yoqimli) sayrashlari torga jo'r bo'lgan nay sozi (sadosi) dan ham quloqqa yoqimliroq. Men dedim:

Zumrad (rangli) bir bisotki, uning ustiga
yoqutdan turli alvondagi javohirlar solingan

Shuningdek, yana dedim:

Bog'ning husni uchun go'yo atirgul-u qizil gul
birin-ketin terib qo'yilgan,
Unda kumush, aqiq, marjon, yoqut, oltindan
iborat kosalar qo'yilgan.
(Ulardan) Bir qanchasining ichi maydalangan mushk,
bir qanchasining ichi sochilgan tillo (bilan limmo-lim).
Bog' bizga ularni jilva qildirdi.
Shular deya zabarjaddan bir qancha qo'llar yasadi.

Xayoliy quvvat bo'yoqchilari (afsonaviy) naqshlar bo'yoqlarini qorishni u bog'ning mashhur gullari yoyilishidan o'rgansa, sohibjamol kelinlarni pardozlovchilar kamolat yelkalariga zeb berishda u bog' tasvirlari tartibotlaridan qiyos oladi. Men dedim:

Go'yo uning tepaliklari, ayniqsa, tongotarda
turli javohirlar bilan bezatilgan qilich misoli

U (bog') izzat-ikromlik boyning martabasini orzu qilib, unga ko'z tikib qo'ygan tama'gir kishining orzusidan ham keng, ochiq yuz, ko'rkamli odob, uzoq umr va mo'l molmulk bilan zamon unga yor bo'lgan odamlarning ko'zida gullab-yashnab turgan yosh yigitning ko'z qarashidan ko'ra ham pokroqdir. U zikr qilinadigan va dunyoda sanaladigan farovonlik bilan shuhrat qozongan oromgoh joylarning biri, chor atrofi nozu ne'matlarga to'liq, baxt-u saodat (chashmasi) ning ilhomi edi. Men dedim: «Undagi lolalar, ko'zlar qorachig'idan chetlab yashnab turgan ruxsorlardir».

Temur askarlari garchi mavj urayotgan dengiz misoli bo'lsa da, ushbu bo'stonda go'yo qaybir tomonda adashib yurgan Banu Isroil (yahudiylar) ga o'xshaydi.

So'ngra Temur podshohlar, sultonlar, toju-taxtlar egalari bo'lgan ustunlarga bog'ga chiqib, unda yoyilishlarini amr qildi.

Ushbu chamanzorlarda ulardan har biriga bir makon ajratib ularni o'ngu chapga, orqa va oldinga tartibli ravishda qo'yib, ulardan har biriga imkoni qadricha o'z zeblarini zohir qilishni va o'zlarida mavjud bo'lgan hamda turli ziynat va naqshlar bilan bezatilgan chodir va o'tovlarini tikishlarini buyurdi. So'ngra, ulardan keyin bu bepoyon bog', uzun va keng chamanzorda ulug'lar, a'yonlar, amir boshliqlari va yordamchilarini tartib bilan qo'ydi. Shunda ulardan har biri o'zidagi bor ziynatlarini chiqarib, o'z tengdoshlariga bor narsasini ko'z-ko'z qilib imkoni qadricha ko'proq ko'rsatishga intildi. Faxrga moyillar faxrlanib, kibrlik bildirdi, maqtanish va g'ururlanish borasida baland larga parvoz qildi. Natijada, ular bu ashyolarni qilishda ro'zg'orlari va hifalari ijod etgan narsalarni zohir qildilarki, bu narsalar ular jinoyatlarining sijli (ro'yxati) bo'lib, turli iqlimu shaharlarning ajoyibotlari, ma'danlaru dengizlar javohirlaridan tuhfalar, nafis, nodir boyliklar edikim, bular yo'lida kishilar jonlarini talab, nafslarini yondirgan edilar: yana (shunday) go'zal kelinchaklar edikim, ular ustida kosalab maylar simirib, cho'ntaklar yirtgandilar. Bu yashil bog' gullarini porloq yulduzlar kamsita olmaydi va bu bog'ning go'zal manzari shodlik to'dalarini qalblar ichkarisi tomon (tinmasdan) yetaklardi. Shunday





qilib, bu makon ustidagi maqtovli gap ko'payib, ziyoda bo'ldi. Butun dunyoga bog'ning go'zalligi qadri oshib, baland bo'ldi.

Keyin Temur amr qildi; uning surodiqalarini[1025], bu yashnagan makon markazi qilib qo'ydilarki, go'yo u ushbu aylanayotgan falaklar doirasining (markaziy) nuqtasi bo'ldi. Bu qurilgan chodir va o'tovlar atrofi o'ralib o'rnatilgan bir ko'tarma edi. Unda katta darvoza bo'lib, u orqali ichidagi mavjud joy va manzillarga keng dahliz bo'ylab kirilardi. Darvozaning ikkita baland shoxi bo'lib, odamlar ularga boshlarini egar va (ularni) mushohida qilgan paytda kishilar esdan judo bo'lardi. Shu ikki shox (borligi) sababidan bu (joy) «Zu-l-qarnayn» («ikki shoxli») deb laqablanardi. Bu dargohning ichkarisiga Temur uchun bir qancha chodir, xayma va o'tovlar tikdilar. Shular jumlasidan bir chodir bor ediki, uning yuqori-yu quyisiga oltin bilan zarkash berilib, ichi-yu sirti nafis patlar bilan patlangan edi. Chodirlardan yana biri batamom harirdan tikilib, turli-tuman naqshlar xilma-xil alvonli bo'yoqlar bilan bezalib to'qilgan; yana boshqa biriga boshidan oxirigacha yirik marvaridlar qadalganki, ulardan har bir donasining qiymatini barcha asrorlar bilimdoni (tangri) dan boshqa biror kimsa bilmaydi; yana biri tillo bo'laklari ustida turli-tuman javohirlar bilan shunday bezatilganki, u odamzot ko'zini o'ynatib, aqlini dahshatga soladi. Ana shular oraligiga «kumushdan tom yopib, uning ustiga chiqadigan narvonlar qurganlar va o'z xonalari uchun darvozalar va suyanib o'tiriladigan taxtlar yasaganlar»[1026]. Ularning oralarida naqshli ravoqlar, zarhal berilgan chodirlar dahlizlari va yo'laklari, kishini hayratga soladigan inshootlar bor edi. Shular ichida orom olish uchun salqinliklar beradigan (kanopdan yasalgan) yelpig'ichlar, foydali (narsalar) va zaruratlar, ochilib-qulflanadigan va qulflanib-ochiladigan narsalar bor edi. Ular o'zlari zohir qilgan g'aroyib, qimmatbaho ashyolar ustiga ajoyib sitoralarni tashladilar. Shu sitoralar jumlasidan movutdan (ishlangan) bir sitora bo'lib, Temur uni Sulton Boyazid xazinasidan olgan edi. U (alohida) bir qit'a uning eni temir gaz[1027] bilan o'n gazga yaqin edi. Sitora xilma-xil naqshlar bilan naqshlangan bo'lib, nabotot, imoratlar va arshlar, turli-tuman hasharotlar, qushlar, vahshiy hayvonlar, keksa va yosh kishilar, ayollar, bolalar rasmlari, kitobat naqshlari, mamlakatlar ajoyibotlari, mu-

siqa asboblari va hayvonlar g'aroyibotlari suratlari alvonli bo'yoq bilan bezalganki, ular bekam-u ko'stlik va yetuklikda o'ta kamolga molik edi. (Ular shunday mahorat bnlan ishlanganki) go'yoki suv lari harakatga tushib, sen bilan suhbat qurayotgandek va quyi egilib turgan mevalar esa o'zini terishga seni chorlayotgandek tuyuladi. Bu sitora dunyo ajoyibotlaridan biri bo'lib, u haqda (boshqalardan) eshitish ko'z bilan ko'rgandek emasdir.

Temur surodiqalari oldida bir masofa joyda soyavon jihozi o'rnatdilarki, unda muboshirlar va devon arboblari yig'ilardilar. U (shamsiyali) qaddi oliy bir chodir bo'lib, havoga bo'y cho'zgan edi. Uning qirqqa yaqin ustun, rukun va amudlari bor bo'lib, ana shular ustiga soyavon rukunlarini o'rnatib, uning binosini pishiqladilar. Go'yo shayton va murtadlardan «gap o'g'irlayotgandek»[1028] soyavon farroshlari uning tepasiga maymunlar misoli tirmashib chiqardilar va hammani yotgan joyidan (ko'tarib), ko'targanlaridan keyin uning ustida chopib yurishardilar.

## Bo'lim

Shahar ahli bekitgan zeb-u ziynatlarini (yuzaga) chiqarib, Temur surodiqalarining ro'parasiga, ko'zga tashlanadigan joyga qo'ydilar. Shahar ahlidan har biri o'z holi-qudrati yetguncha ko'rkam bo'lishga urindi. Har bir hunarmand o'z hunariga bog'liq narsada jidd-u jahd ko'rsatdi, har bir san'at ahli o'z san'atiga mansub narsada imkonidan ham oshirib hunarini ko'rsatdiki, hatto bir qamish to'quvchi (qamishdan) mukammal qurol-yarog'li bir otliqni yasab chiqardi va uning suratini kamoliga yetkazib, hatto tirnoqlari-yu kipriklarini ham yasadi. Unga (otliqqa) zarur bo'lgan qurol-yarog'lardan yoy, qilich va boshqa taalluqli narsalarning (hammasini) daqiq usulda kamoliga yetkazib yasadi. Ushbu (anjom) larning barchasi qamishdan bo'lib, ularni hech bir mashaqqat va qiynoqsiz (hammasini) o'z o'rniga tikladi. Paxta tituvchilar paxtadan tikligi yarashgai, baland, pishiq ishlangan, go'zal suratli nafis va chiroyli bir mezana yasadilarki, u o'z jismining oqligida jannat huridan ko'ra ham yuqori va bo'yining barkamolligi (baland) qasrlardan ko'ra ham baland edi. Mana shunday hay'atda bu mezanani tikladilar. U o'z husni bilan odamlar nazarini o'ziga lol





qilar va qomatining oliyligi bilan bu bepoyon maskanda o'tkinchilarga yo'l ko'rsatib turardiki, hatto u sayyoraga bir belgi va o'sha binolar jome'lari ustidagi bir minora bo'lib qoldi. Shuningdek, zargarlar, temirchilar, etikdo'zlar, yoy yasovchilar va boshqa toifalar hunarmandlari, musiqa, hazil-mutoiba va latifalar sohiblari ham o'z hunar-u san'atlarini namoyon qildilar. Darhaqiqat, Samarqand fozillar jam bo'lgan va fazilat ahlining kelib qo'nadigan joyi edi. Har bir toifa o'zidan chiqqan narsasini Temur surodiqati va uning devoni soyavoni oldidagi o'ziga ajratilgan joyga alohida tartib bilan (terib) qo'ydi. Bular hammasining orqasiga bozorlar qurilib, xaloyiq o'rtasida jarchi surnaylar chalindi, fillar va otlarning saralari chiroyli jabduqlar bilan bezatildi. Xaloyiqqa turli-tuman o'yin-kulgi va lazzatlardan bahramand bo'lib, istifoda qilish tizgini bo'shatib yuborildi. Natijada, bir kishi ikkinchi bir kishiga nisbatan adovat qilish yoki bo'lmasa oliy martabali past tabaqaliga – xoh u shahar ahlidan bo'lsin, xoh qo'shindan bo'lsin – nohaqlik ko'rsatish, yoki sharif kishi avomga zarracha xilof ish qilmasdan har bir talabgor o'z matlubiga shoshilib, ulardan har bir muhib o'z mahbubi bilan suhbat qurdi.

## Bo'lim

Qachonki (bu) ishlar Temur murodiga muvofiq ravishda qaror topib, «er yuzi o'z ziynatiga burkanib»[1029], Temur askari-yu shahar ahlidan yasangach, u o'ziga xos viqor va vazminlik bilan ushbu chamanzorga tomon yuzlanib, o'z qavmi oldiga ziynatiga yasangan holda chiqdi. Keyin ushbu qoramtir chamanzor zabarjadi (xrizoliti) ustiga tilla rang yoqutlar (suv) yurgizishni buyurdi. Shuni har bir nozir-u avom uchun fido qildiki, natijada, uning oqimida har bir xos-u avom (yayrab) suzdi. So'ngra o'sha yerning osmonida shod-xurramlik uchun falaklar aylandi va bu yerning ufqiga malohat falaklaridan lazzat xabarlarini keltirgan farishtalar tushdi. Shahar ahli (go'yo) bekinib yotgan kiyiklar edi-yu (endi) ular bemalol uyalarida (kerilib) yotgan sherlarga aylandi. Ular jangu jadal do'zaxidan o'yin-kulgi jannatiga tushdilar. (Ulardagi) mavjud g'alizlik va dag'allik latofat va zarofat bilan almashdi. Ozor-u ziyonlaridan keyin ular bir-biriga

mehribonlik qilib, men aytgan ushbu (she'r) mazmunida (bir bi...
bilan suhbat qurdilar:

Bizning adlimiz qilichi odamlar orasidagi zulmni yo'qotdi,
Biron yordam so'rovchi adovat qiluvchiga yopishmadi,
Qora ko'z ov qilgan xipcha bel, yumshoq dumba,
qattiq tutgan oshiq qalbidan boshqa dod faryod qiluvchi yo'q.

Natijada, faqat o'tkir ko'z qarashi (lahza) qilichidan o'zga (qili... savlat to'kmadi. Shu bilan birga, u (qilich) sinishga (qaytishga) ... dir. Faqat xipcha bel nayzasidan bo'lak nayza javlon qilmadi. Shu b... lan birga, u (bel) quchoq og'ushiga tushgan. Agar shu yerda bo'lsa... edi, faqat o'ynatilayotgan ud sozi yoki kuydirilayotgan xushbo'y ... yog'ochini yoki suzilib tozalanib uzatilayotgan qadahni, kuylayotga... ashulachini, sharob ichib g'ovg'a ko'tarayotganni, soqiylik qilaya... gan joriyani, yurib sharob tutayotgan soqiyani, xushbo'y gul yuzli... gul yuzli ma'shuqni, so'rayotgan og'izdagi qadahni, bo'yinga yop... shayotgan xipcha belini, kishi g'animat biladigan maishat fursatlari... yoki holi haqida nashida etib, tarannum qilayotgan lisonni ko'rardin...
Men dedim:

Visol bahorida qochqoq kiyik vafo qildi (qochmadi),
Sabo shamoli bog'da esib (u kiyikning) kelishidan xabar berdi.
Anhorlar shildiradi, shohlar sajda qilishga egildi.
Husni mavjudotni asir qiladigan bog'larda yig'ildik.

Bu bog'larda oshiq bulut o'z o'stirishi bilan kech shamolini kelti... di. Bulutlar billurlari ustimizga dur sepdi.

Ipaksimon bog'ning sahni ustida yoqutdan yasalgan jom mavjud
Aqiqdan ishlangan tishlarki, tabassum unga ziynatdir.
Kumushsimon ko'zlarki, uxlamasdan termuladi.
Daraxt shoxlariki, bizni turli nafisliklar bilan o'rab turadi.
Bog' qushi ud shoxiga uchib ko'tarilgach, sayraydi.
Uning hushbo'y hidi orasida mushk hidi sezilmaydi.
Uning toza shamoli esganda sabo shamoli kasallikka chalinadi,
U Firdavs jannatiki, unda bo'lgan oy yuzi go'yo olovdek.





Jannat bog'iki, unda umrbod qolishni orzu qilasan.
...y turli baxtlar bilan birga ishratga ega bo'lgan bog'.
Unda quchish, ichish, quchoqlashdan boshqa narsa yo'q,
Aylanuvchi qadahlar, ashula va to'kinlik bor.
Agar u bog'ni taqvodor kishi ko'rsa edi,
Uning go'zalligidan ikki bukilar edi,
Uning taqvosidan qech narsa qolmasdi – faqat inkor qolardi.
Tur, e hamtovoq! Zamon g'amginlikka to'g'ri kelmaydi!
Aysh ishrat qadahini menga ber,
Bu bog' tabiatida zamon tasarruflari yo'q bo'lsin.
Menga tilla rangli sharob, suv, ko'kalamzoru go'zal yuz ber.
Malomatchiga bo'ysunma, u aldovchidir,
Uning tilida g'alayon bor, uni yaqin do'st dema.

Shunday qilib, osoyishtaligu xotirjamlik, farog'at-u to'kinchilik, ...xi-navo arzonligi, orzu xavas ushalishi, zamon mo'tadilligi, sul...n adlligi, tani-badan sihatligi, vaqti chog'lik, nafrat ko'tarilish, mat...ga yetishish, mahbubga visollik hosil bo'ldi. Misra: «Nihoyasiga ...etgach, uzun narsa qisqaradi». Ushbu to'y (tantanasi) da Temurga ...avlatlilik va ulug'vorlik, hashamat va dabdabalikdan (shunday) ...ir (ulug') narsa muyassar bo'ldiki, o'ylaymanki, bu qadarlik nar...sa qadim o'tgan xalifalardan hech biriga nasib bo'lmagan va (bun...dan) keyin keladiganlardan ham birontasiga nasib bo'lmaydi, garchi al-Ma'munning[1030] to'yi kechasi ostiga oltindan (bo'lgan) to'shak to'shalib, boshi saralangan marvaridlar sochilgan bo'lsa ham, u (al-Ma'mun) ushbu javohirlarga qaramadi va orqa-oldida sochilib yot...ganlarni yig'ishtirmadi va toki (mana) shunday demaguncha davom ettaverdi – Abu Nuvosni[1031] xudo ursin, – go'yo mana shunday degan...da u (al-Ma'mun) hozir bo'lgan:

Go'yo u (sochilgan) oq – sariq (javohir)larning katta-yu kichiklari,
Oltin to'shakdagi dur tashlandilari kabidir.

Lekin qudratli[1032] Temurning ushbu to'yida podshohlarning qiz...lari cho'ri, o'g'illari qul bo'lib, ularning har biri tutqunlik maqomida oyoqda turdilar. Temur huzuriga Misr va Shomdan al-Malik an-Nosir

Farajning vakillari (qanchadan qancha) armug'on va sovg'alar ke-
dilarki, shular jumlasidan jiraflar, tuyaqushlar (bor) edi; Xitoy, Hi-
Iroq, Dasht, Sind, Farang (evropalik)lar[1033] elchilari va ulardan bo-
qalar yaqin va uzoqdagi barcha iqlimlardan kelgan vakillar, ha-
muxolifu muvofiq, do'st-u dushman (vakillari) yig'ilgan edilar, ke-
ganlar uning ulug'vorligining shohidi bo'lib, bu to'yda uning qu-
va hashamatini o'z ko'zlari bilan ko'rsinlar uchun Temur ham-
dan keyin chiqdi va jazolanishdan xavflanmay, oqibatidan qo'rq-
o'sha paytning o'zidayoq bu ishga boshchilik qildi.

Men she'r aytdim:

> U mamnun bo'lib xudo rijosiga ehtiyoji qolmadi.
> Ko'ngli to'q bo'lib oqibatdan qo'rqmadi.

U xarom (narsa) larni tanovul qilib, ularni o'ziga muboh bilan va jirkanchu yaramas narsalarni ko'p iste'mol qilardi. Bu borada o'z jamoasiga nimani amr qilsa, ular unga amal qilardilar va o'zla- qilgan har bir qabih ishda kibrlanib, qilgan manfur ishlaridan o'zlari tiymasdilar. Men dedim:

> U (Temur) qon to'kish, buzuqilikdan (boshqa) bir jinoyatga o'tdiki,
> U (jinoyat) orqali shariat harom hisoblangan narsani u halol bildi.

Keyin Temur podshohlar va amirlar, ufqlar sultonlari va ulug'la- rini, tumanlar oqsoqollari, askarlar azimlari va qo'mondonlarini tak- lif etib, ularga o'z qo'li bilan qadahlar quya boshladi va ulardan har birini o'z birodari yoki o'g'li maqomiga qo'ydi; ularga g'oyat qim- matbaho xil'atlar kiygizib, xilma-xil in'om-ehson va armug'onlar ado etib, ularning har birini o'z yonidan[1034] o'ng (tomon) iga o'tqa- zardi. Ammo chap tomoni esa ayollar va xonimlar uchun (maxsus) edi. Darvoqe, ayollar erkaklardan bekinmasdilar, xususan, ommaviy yig'inlar va xursandchilik tantanalarida, Temur bu tantanada chang va sitra[1035], ud va urg'un[1036] ashulachini ashula aytdirib, (raqqosani) o'z kuyiga raqsga tushirayotgan nay, ajoyib va g'aroyib ashula, maftunkor son, barakatli zamon, yoqimli havo tinglanadigan farmon, yulduzlar va to'lin oylar ustida aylanadigan quyosh, may to'liq qadah, bo'shagan cho'ntak, bajo keltiriladigan ish, ushaladigan orzu orasida





...m etib, nihoyat o'yin-kulgi va xursandchilik uni to'lqinlantirib, ...xurramlig-u mag'rurlik uni qulg'utdi. U madadkordan yordam ...rab, qo'lini uzatib, o'rnidan turish uchun u (odamga) qo'l cho'zdi. ...lar unga yordam berdilar, u (o'tirgan) o'rnidan turib tik turgach, ...ligi va cho'loqligiga qaramay, ular o'rtasida tebranib-tebranib ...ga tushdi. Men dedim: «Shol odamning chapak chalishi, go'ng ...lam) ning sergap bo'lishi, cho'loq (odam)ning raqs tushishi dunyo ...ibotlaridandir».

Shunda podshohlar va ulug'lar, sultonlar va amirlarning xotinlari Temur boshiga javohirlar va marvaridlar, kumush va tillolar, turli-tu- man nafis qimmatbaho ashyolar sochdilar. O'yin-kulgidan o'z hissa- sini batamom olib, kuyov o'z chimildig'iga kirib, o'sha orzular usha- lib, ushbu jamoat tarqamaguncha Temur shu ahvolda davom qildi.

She'r:

> Bu ayshu ishrat mastvozlikdan bo'lak narsa emasdi,
> chunki u (mastlik) ketdi-yu, uning xumori qoldi.

## Bo'lim

Temur o'z dunyosidan ko'zlagan murodiga bolig' bo'lib, orzu- si[1037] kamoli-yu tamomiga yetgach, istagan narsasiga erishib yuqori darajaga chiqqach va o'sish cho'qqisining eng oliy zinapoyasiga ko'tarilgach – uning umri oyi g'urubiga yaqinlab, hayoti quyoshi bo- tishiga andak qolganda, zamon uni (shunday) bir o'q bilan otib qu- latdiki, Temur (qaytib) oyoqqa turmadi[1038]. Zamon unga fasohatli til bilan: – «Ey qizigan uy!» – deb nido qildiki, agar uning (tovushini) eshitsa homilador xotin tug'ib yuborardi. Men she'r aytdim:

> Asli hayot narvondan bo'lak hech narsa emas,
> Kishi unga ko'tarilganiga qarab yiqiladi.
> Afsuski, u (tushish) narvondan tushish singari tushish emasdir.
> Lekin shu shart muqarrarki, unga chiqishning yiqilishi bor.
> Kishi qanchalik baland ko'tarilsa, shunchalik qattiq parchalanadi,

Keyin Temur mastlikdan o'ziga kelib, o'z asliga[1039] qaytdi, o'zining chegaradan chiqqanligiga nadomat chekdi va o'z qavmini

adashtirib, to‘g‘ri yo‘ldan boshlamaganligini fahmladi. Riyosat ishida (o‘zining) noshudlik ko‘rsatganini, siyosat va boshqaruvda tubanlashib ketganini sezdi. U mulkga nisbatan nohaqlik qildi va saltanat egasi haqiga nuqsonlardan yuzlab topildi. Izdan chiqqan (ish)larni tuzatib, mushkul holatga tushgan vaziyatlarni to‘g‘rilashga kirishdi.

### Temurga aloqador oldin o‘tgan ba’zi hodisalar bayoni

Temur Hindistonda ko‘ngilni quvnatib, ko‘zni yashnatadigan bir jome’ ko‘rgan edi. U jome’ning arshi qurilishi bag‘oyat husnda bo‘lib, naqshi o‘ziga yoyilgan to‘shagi kabi oq marmardan edi. Jome’ shakli Temurga yoqib qolib, o‘ziga Samarqandda xuddi shuning misolida jome’ bunyod qilishni iroda etdi. Natijada, shu maqsad uchun bir makon ajratib, o‘sha (jome’) tarzida bir jome’ qurishlariga va bu jome’ uchun qattiq marmardan toshlar kesishlariga farmon berdi. Jome’ ishini o‘zining yordamchilaridan va devoni boshliqlaridan biri bo‘lgan Muhammad Jald degan shaxsga topshirdi[1040]. Muhammad Jald jome’ binosi va uning rukunlarini pishiqlashda jidd-u jahd ko‘rsatib, jome’ning asosi tarkibi, tartibi va ziynatiga husn berishda kamoli harakatini sarfladi.

Jome’ ustiga to‘rt mezana ko‘tarib, uni (binosida) peshqadam binokorlar va ustalar bir-birlari bilan musobaqa qilib qurdilar. Muhammad Jald agar bu ish undan boshqa biron kimsa zimmasiga tushganda, u mana shu tarzda uddalay olmas va o‘zi tutgan yo‘ldan yurolmas edi va albatta Temur bu ishi uchun unga tashakkur bildiradi va uning huzurida (o‘zining) martabasi yuqori bo‘ladi, deb gumon qildi. Temur o‘z safaridan qaytib[1041] g‘oyibligi vaqtida yuz bergan hodisalarni tekshirib yurib, ushbu jome’ni ko‘rish uchun unga tomon yo‘l oldi. Temurning nazari jome’iga-tushgan zahotiyoq u buyurdi, Muhammad Jaldni hozir qildilar va uni yuz tuban qilib, oyoqlarini bog‘ladilar va-to‘xtamasdan uning yuzini yerga qaratib tortib sudradilarki, nihoyat uni shu holatda tilka pora qildilar va butun xotini, bolalari va mol-mulkiga egalik qildilar.

Bu (jazo) ning sabablari bir qanchadir. Ulardan eng kattasi shuki, (shu payt) Temurning bosh xotini Katta Malika (ham) bir madrasa qurishni buyurgan edi. Me’morlar va handasa ahli bu madrasaning joyi





Temur qurishga buyurgan jome’ binosi muqobilida bo‘lishini lozim topdilar. Keyin ular madrasa rukunlarini baland va binosini pishiq qilib o‘rnatdilar. Madrasa tabaqa va devorlarini jome’ga nisbatan baland ko‘tardilar. Natijada, madrasa asosi jome’ (asosi)dan mustahkam, balandlikda jome’dan ko‘ra yuqori bo‘ldi. Temur esa qoplon tabiat, sher vaziyat bo‘lib, biron bosh unga takabburlik ko‘rsatsa, albatta uni majaqlar, agar biron bel unga nisbatan g‘ururlik xayoliga keltirsa, uni albatta tahqirga mubtalo qilardi. Shuningdek, biron kimsa o‘zini unga barobar (teng) qilsa yoki nisbat berishda unga tayansa ham shu ahvol yuz berardi.

Qachonki Temur ushbu madrasa qomatining cho‘zilib, o‘z kemtik jome’sidan yuqori va baland ekanligini ko‘rgach uning nafrati oshib, sadri g‘azabga to‘lib, alanga oldi va jome’ muboshiri (Muhammad Jald)ga nisbatan qilgan ishini qildi. Umid qilgan orzusidan Muhammad Jaldga biron baxt nasib bo‘lmadi. Bu hikoya keyin aytadiganimga bir muqaddimadir.

### Nukta (latifa)

Bu jome’ ham o‘z sohibi (Temur) kabi bo‘lib, atroflarini gunoh toshlari o‘ragan, u toshlar jome’ bo‘yni va yelkalariga og‘irlik qilib qolgan, u (jome’) toqatining bo‘yni o‘sha toshlarni ko‘tarishdan ingichka bo‘lib, noziklashib, jome’ tomining tili: «Agar samo yorilsa»[1042] (oyati)ni tilovat qilar edi.

Temur uchun jome’ni buzib, qaytadan uni tiklash va binosini ag‘darib, yangitdan mustahkam qilib qurish bilan mashg‘ul bo‘lishga imkon yetmadi. Shunda u jome’ imorati libosining yirtiqligicha va uning yog‘ochlari cho‘pini zaifu siniqligicha qoldirdi. Lekin Temur o‘zining xos odamlari-yu yaqinlariga yig‘ilishib o‘sha jome’da juma nomozini o‘qib turishlarini buyurdi. Bu (hol) Temur hayot vaqtida va u vafotidan keyin ham davom etdi. Har safar odamlar bu jome’da nomozga to‘plansalar, uning toshlaridan «xudodan qo‘rqib tushib ketadiganlarini»[1043] kutib turardilar va shu joydagi tog‘lar farishtalari: – «bilginki, tog‘ni ular tepasiga soyavondek qilib to‘nkardik»[1044], –

(oyati) ni tilovat qilardi. Kunlardan bir kun ushbu makon
bilan liq to'lgan bo'lib, ulardan har biri o'z ehtiyotini ko'rib
jome' yuqorisidagi toshdan bir-ikki bo'lagi (erga) tushdi. Shunda
mirlamay o'tirgan har bir (kishi) qochib, «imomni qoyim holda
rib, o'zlarini eshikka urdilar»[1045]. Shular jumlasidan (ularning)
quri va o'xshashlaridan biri bo'lgan Ollohdod ham bor edi. Qachon
ular bu xabar daqiqatini bilgach, o'rinlariga) qaytdilar va ularda
beqarorlik ketdi. Ular (nomoz) farzini ado etib, (tashqariga) chiqib
tarqalgach, Ollohdod menga: – u firibgar daholilardan va
kov zakiylardan bo'lib, sharmandaliklar ka'basi atrofida yuz
lab aylanib, ming martalab tavof qilgan (kishi) edi – «Bu jome'
«Masjid ul-Harom»[1046] va unda o'qiladigan nomozga esa «Salot
Xavf»[1047] deb laqab bermoq lozim», – dedi. Ollohdod yana menga
quyidagi mana shu she'r ma'nosini fahm-lagan ekan – «Bu ibodat
xona sha'nida nashida to'qilishi va u nashida tirozining raqami ham
da uning boshlanishi (sadri) va bad'iiyligi (majoz) ning naqshi,
shoirning mana shu so'zi bo'lishi kerak», – dedi.

Soliqlar (puli)dan[1048] masjid qurayottaningni eshitdim. Xudoga
shukurki, sen bunga muvaffaq bo'la olmaysan. Go'yo o'z farjini
sita qilib, yetimlarni boqqan xotin kabi; e xarob bo'lgir xotin!
ham, sadaqa ham qilmagin.

### Bo'lim

Temur Rum shaharlarida savlat to'kib yurganida, uning fikrida
Sharq yerlarini xolis qilib olish javlon urardi. Uning Ollohdodga mak
tub yuborib, u mamlakatlar avzoi tavsifini talab qilganligi avval zikr
etilgandi. Qachonki u joylar holatlari (ochiq-oydin) namoyon etilib,
qishloqlari, muzofotlari va mintaqalari unga ayon bo'lib, xuddi o'z
basirati ko'zi bilan mushohida etgach, hamda u mamlakatlar kayfiyati
Temur dilida qarorlangach, u tarafga tomon bu atrof boshliqlarini ot
lantirdi. Shular jumlasidan Berdibek, Tangriberdi, Saodat, Ilyos Xoja,
Davlat Temur va ulardan boshqa yana bir qanchalar bor edi. Ularga
qo'shinlaridan bir necha toifasini qo'shib, hammalarini Ollohdodga
borishlarini, Ollohdod o'z ishini tartibga keltirishini, yo'lga ravona





...larini va Bosh Xumra[1049] deb ataladigan bir qal'ani tiklashla-
...buyurdi.

U (qal'a) Ashparadan o'n kunlik chamasi yo'lda, mo'g'ul to'da-
...qaramog'idagi joylardan bo'lib, ikki mamlakat o'rtasida nizoli
...lganidan, qal'a ishlari iztirobga tushib, xarobaga kelgan edi.

Ular sonsiz-sanoqsiz askar bilan ushbu joyga qarab yo'l oldilar
...o'z odatlariga xilof ravishda imorat (qurish) bilan shug'ullandi-
... Bu guruhning yo'lga chiqishi 806-yilning oxirlari (1404-yil iyun)
...807-yilning avvallarida (1404-yil iyul) edi. Bu bilan ular bu joyni
...lari uchun mustahkam qo'rg'on va Xitoyga yurish qilib qaytish-
...da o'zlariga qarorgoh va panohjoy bo'lishini ko'zda tutdilar. Qa-
...nki ular qal'a asosini mustahkamlab, xilma-xil uylari va ular mi-
...i imoratlarini tartibga solib, poydevor bo'ladigan toshlardan uning
...lamlari asoslarini qurib, devorlari tepasiga belgi va alomatlarini
...'targach, Temur ularga bir farmon yuborib, qal'a ishlarini keyin-
...qoldirib, o'zlarini go'yo uning zikrini unutganga solishlarini va
...larni) qaytib, mamlakatda ziroat ishlari bilan mashg'ul bo'lishlarini
...yurdi. Chunki shahar va qishloqlar ahlidan haydash va yanchish
...hlari, ekish va sug'orish bilan mashg'ul bo'lgan o'ru qirdagi fal-
...lar, ruzdoqi[1050] va korandalar ahlining Samarqand hududidan tortib
...Ashparagacha (bo'lganlari) muomala va savdo-sotiq masalalarini
...rk qilib, sug'orish va ekish darsida so'zda va amalda bahs takror-
...ydilar va har birlari o'z jamoasiga ekishda yaroqli o'z ashyosi-
...i tayyorlashini bildiradilar. Agar biron kishi, garchi namozini tark
qilishga majbur bo'lsa ham, dehqonchiligini tark qilishdan hazarda
bo'lsin, – dyodi. Bu bilan Temur ularni (Xitoyga) safarida o'zlariga
yetarli tayyorgarlik bo'lishini, bu qiyin yo'lda o'zlari va ulovlariga
oziq-ovqat noqis bo'lsa, uni ziyoda qilishni istadi.

Natijada, ular qurilishni tashlab, amirlardan har qaysinisi o'z di-
yorini ko'zlab jo'nadi. Ular ho'kiz va urug'larni yuzaga chiqarish
bilan mashg'ul bo'lib, xuddi Temur ko'rsatib, buyurgandek jamiyki
unumsiz (o'lik) yerlarga hayot berishda jidd-u jahd ko'rsatdilar. Ular
bu ishdan faqatgina yoz o'z bisotini yig'ib, kuz jarchisi olamga o'z
bayrog'u namatlarini yoyganda forig' bo'ldilar.

## Avvalgidek Temurning Xitoyga azm etishi, «haq o'lim ajal kelib»[1051], undan yopiq (parda)ni ochishi, keyin uning safardan saqar (do'zax)ga ko'chishi bayoni

Temur o'ziga kelgach, otlanishi kerak bo'lgan ufqlar tomon jo'nashga tutindi; u tevarak-atroflarni, (ayrim) mamlakatu yurtlarni o'ziga xolis qilib olishni niyat qildi. O'z odatiga binoan yurish [illegible] vini Xitoy tomonga burdi. Chunki (uning gumonicha) bu eng to'g'ri yo'l edi. O'z askarlari ummatlariga xabarchi yuborib, to'rt yil yoki undan ham ziyodga yetadigan tayyorgarligini ko'rib, hozirlanishlarini xabar qildi. Shunda har bir ummat o'z «rasuli» da'vatiga «labbay» deb javob berib, o'z qabullari quloqlariga Temur farmonlari sirg'alarini taqib zeb berdilar. Har bir sher (Asad)[1052] o'z tayyorgarligi [illegible] sini[1053] ko'tarib, Temur xohishi echki (Jady)sini[1054] mindi, har bir ho'kiz (Savr)[1055] o'z ovqati, doni, (Sumbulasi)ni[1056], sug'orish chelagi (Dalv)ini[1057] tayyor qildi; ulardan har bir chayon (Aqrab)[1058], qisqichbaqa (Saraton)[1059] o'rmalashini qilib o'rmaladi, hech bir me'yorsiz [illegible] o'lchovsiz tavakkaliga bandalarga zulm ko'rsatib, ular katta baliq (Hut)[1060] suzganidek adovat dengizida suzdilar. Shu payt kamalak (Qavs)[1061] hiloli o'z sovug'i o'qini (o'z) farmoni bilan har bir quloqqa (xabarga) jo'natdiki, u qish askari bu dunyoga o'rinlashdi, – deb (sovuq) xabar keltirdi. Demak, har bir bekam-u ko'st kishi (qishga) tayyorlansin, har bir yalang'ochu oyoq yalang undan hazarda bo'lsin. Bu qishni daf qilishda (shoir aytgan) «koflari»[1062] bilan kifoyalanmasinlar, chunki hech qanday «kof» unga barobar bo'la olmaydi. Zotan bu galgi qish xudo alomatlaridan bir alomatki, «(Siz) xudo alomatlarini masxara qilmang»[1063]. Darhaqiqat, qishning kelishidan maqsadi nafaslarni yaxlatish, burun va quloqlarni (sovuqdan) kuydirish, oyoqlarni chalishtirib, kallalarni uzishdir.

Kuz fasli (qish) qo'shinining (yo'l) boshlovchisi va to'dalarining qo'mondoni, uning ko'rinishidan (bir) namuna, asl xohishining ko'zgusi, mukotibalarining unvoni, guruhining muqaddimasi bo'ldi. Keyin (qish) o'zining sovuq shamollari osiflari bilan baqirib hayqirdi va olam ustiga kelib-kelib turuvchi bulutlari chodirlarini yopdi. Natijada, uning hayqirig'idan (odamlarning) a'zoyi badani titradi, har bir hasharot uning kuchli sovug'idan qo'rqib, o'zining jahannami qa'ri-





[illegible] boshpana izladi. Olovlar so'ndi, ko'llar muzladi, shoxlardan tushgan barglar titradi, tepaliklardan soyliklarga tomon oqayotgan anhorlar o'z yo'lida yiqildi (muzlab to'xtadi), sherlar o'z to'qayzorlariga [illegible], kiyiklar uyalarida yashirindilar, borliq bu qish ofati dastidan [illegible]) panoh tiladi, undan qo'rquvidan yer yuzi sarg'aydi, bog'lar [illegible] g'uborsimon bo'ldi, ko'kalamzorlarning jismi so'lib, ular [illegible] so'limlik va ko'rkamlik ketdi. «Yer yuzidagi nabobotlar shamol [illegible] ketadigan quruq cho'pga aylandilar»[1064].

Temur bu nasim shamollari (og'zidan chiqarib) otib tashlagan [illegible] qabohatli bilib, bu puflash damlarini sovuq hisobladi va cho[illegible] liboslarini tayyorlab, otlar uchun jullar[1064] «jubba»larini[1065] ho[illegible] amr qildi. Yax parchalari va sovuq (do'l) o'qlariga qarshi [illegible]battana»lardan[1066] «daraq»[1067] va tivitdan «zarad»[1068] tayyorladi. Keyin qishning muloqoti uchun kiyimlarni ikki barobar ko'paytirdi va u (kiyim)larni o'zining keskir azmi qomatiga quydirib, ularni o'z qobiliyati kifoyaticha qalqonlar bilan mustahkamladi. U (odamlarning) kalomi-yu malomatiga e'tibor bermadi, qish ishiga kiygan va tayyorlagan (liboslar) ini ro'kach qilib, har bir «kof» va «lom», ya'ni «hamma narsa (kifoya)» deb hisobladi va o'z askariga: «Siz qish xususida parvo qilmang, u faqat «sovuq va salomatlik»[1069] dedi.

Askarlari jam bo'lib, ishi va farmonlari bir bo'lgach, Temur besh yuz arava yasashlarini va (og'ir) yuklarni ortish uchun ular ustiga temir qoplashlarini buyurdi. Qish kirishi bilan Temur xurujini tezlatdi va qish uning umri jarayonini uzish bilan fano devoniga yetishga boshladi. Natijada, u rajab (1405-yil yanvar) oyida yo'lga chiqdi[1070]. Shu payt shunday qattiq sovuq bo'ldiki, undan ajabda qolasan! Biron ayanchliga rahm qilmay va sovuqdan kuygan biron jasadga hech bir achinmay Temur yurdi. O'z sayohatida u Sayhunga yetib keldi, daryo muzlagan bo'lib, uning ustiga «sof na; sim»[1070] «tekis qasr»[1071] qurgan edi. Men avval aytgandim:

> Dengiz ustiga chuzilgan ko'prik ko'rdim,
> Uni arshi ilohi tekis qasr qilgan ekan.
> Uning yonida o'tirib, sovuq va sharobsimon ko'z
> yoshimni to'kdim,
> Ko'z yoshlarim shishada yaxladi.

Temur daryoni kesib o'tib, yo'lida davom etdi va o'z qaysarligiga yopishib olib, o'jarlik qilaverdi. Qish esa Temur ustiga o'z bo'lolarini yuborib, «ichida olovi bo'lgan uyurma bo'ronlari»[1072] bilan har tarafdan uning boshiga kulfatlar ag'dardi. Uning askari nabototini o'zining sovuq izg'irin shamollari bilan urdiki, qish bu shamollarni tobora kuchaytirdi. U (Temur) esa bu ko'pchilik to'da bilan yurib, hech bir asirga rahm-shafqat qilmadi, biror mayib-siniqni tuzatmadi. U o'z kiyimlari bilan qish sovug'ini yengmoqchi bo'lib, o'z yoshlarilariga qaramay sahro bilan raqobat qilardi. Keyin qish o'z sovuq osifalari bilan ular o'rtasida javlon urib, ular ichiga o'zining kuchli bo'ronlarini tarqatdi; shuvillagan qattiq shamollarini ular ustiga turg'izib, davomli qattiq bo'ronni ularga hukmron qildi. (Qish) Temur to'dasi orasiga joylashib: «Shoshilma, e bebaxt! O'zingni bos, e qattiqqo'l zulmkor?! Qachongacha sen (o'z) o'ting bilan kishilar qalblarini yondirasan? Oloving va (mulkka) tashnaliging bilan kishilar jigar-bag'rini kuydirasan? Agar sen jahannam ikki nafasining biri bo'lsang, men esa uning ikkinchisiman. Biz ikkimiz mamlakatlar va odamlarni qo'porib, yo'q qilishda keksaydik. Sen ikki nahs[1073] yulduzining uchrashish sababi (bilan) baxtsiz bo'lgin! Agar sen odamlarning jonini nafasini sovutgan bo'lsang (o'ldirgan bo'lsang), mening dahshatli sovug'im esishlari sendan ko'ra kuchliroq. Agar sening otliqlaring musulmonlarning terisini azob bilan shilib, ularni yaksonlab kar qilib, azoblagan bo'lsa, mening ro'zg'orimda (esa) tangri yordami bilan undan ko'ra pishiqroq shilish bor. Azbaroyi xudo, men seni (bu gaplardan) chetda qoldirmayman. Mana men olib kelgan (narsa)larni ol! Xudo haqi, e shayx, seni rayb ul-manun (taqdir bevafoligi) sovug'idan hech narsa, na otashkurakdagi cho'g' iltijosi-yu na o'choqdagi alanga issig'i – himoya qila oladi», – deb nido qildi.

Keyin qish uning ustiga temirni ham qirqadigan, qalqonni ham parchalaydigan miqdorda qor uyumlarini yog'dirib, Temur va uning askarlari ustiga qattiq sovuq samosidan (behisob) tog'larni qulatdiki, ularda do'l bor edi; uning orqasidan esa qum bo'ronlarini jo'natib, ular bilan Temur odamlarining quloqlari-yu ko'zlarini to'lg'izdi; sezdirmasdan burunlariga tiqdi. Shular sababidan ularning jonlari halqumlariga qarab





yurdi. «Bu qisir (behuda) shamol»[1074] tekkan har bir narsa o'sib-unmay, aksincha buzildi. Yerning mashriqi-yu mag'ribi bu yoqqan qordan qiyomat maydonining sahrosi kabi yoki xudo kumushdan quygan dengiz misoli bo'lib qoldi. Agar (shu payt) quyosh chiqib, muz yarqirasa, undan ajoyib bir narsa: osmon feruzdan, yer billurdan bo'lib, ular (ikkalasi) o'rtasi tillo parchalari bilan to'lgandek ko'rinardi. Agar shu asnoda – xudo (undan) saqlasin – biror jonli mahluq ustiga shamol esib qolsa, u (jonli)ning nafasini o'chirib, uning o'zini, otini, shuningdek, tuyalari va tuyaboqarlarini ham muzlatib, nihoyat, har bir holi zaif (kishi)ni halok etadi. Nihoyat shunday bo'ldiki, olov bo'lsa atirguldek yoqib, u (olov)ning kelishi salomatlik va yoqimlilik keltirdi. Ammo quyosh esa titrab, uning ko'zi sovuqdan muzlab, qurib, go'yo ushbu aytilgandek bo'lib qoldi: «Shunday bir kun bo'ldiki, quyosh u kun sovug'i dastidan o'z kulchasiga «olov tortilsa» deb orzu qildi».

Agar kishi nafas chiqarsa, uning nafaslari soqol va mo'ylovi bilan muzlab, u kishi o'z soqolini turli qimmatbaho zeblar bilan bezagan fir'avn kabi bo'lar edi. Agar kishi quyuq bir tuflasa, tufugi o'zida harorat bo'lishga qaramasdan, yerga borib tushmay, (faqat u) yaxlagan o'q kabi borib tushardi. Shunday qilib, ular (Temur odamlari) hayoti sitrasi ochilib, ulardan har birining holi tili nashida eta boshladi:

«Ey Rabbim! Sovuq qattiq bo'ldi, sen mening
xolimdan xabardorsan, endi biladigan emassan;
agar bir kun sen meni jahannamga kirgizadigan bo'lsang,
mana shu kundan menga jahannam avlodir».

Natijada, Temur askaridan birtalayi halok bo'lib, qish ulardan katta-yu, kichikni qirdi. Ularning burun va quloqlarini (sovuq yaxlatib) tushirdi. Ular nizomlarining bandi yechilib, tarqab ketdi. Qish esa ular ustiga shamol bo'lib esib, dengiz bo'lib quyilib, nihoyat ularni g'arq qilib yubordi. Ular esa (bundan) ojiz bo'lib, hayratda qoldilar va «o'z gunohlari sababli (suvga) g'arq qilinib, keyin jahannamga kirgizdilar. Ular o'zlari uchun xudodan boshqa madadkor topmadilar»[1075]. Shunga qaramasdan, Temur o'lganlarga e'tibor qilmas va yuz bergan ish(lar) uchun afsuslanmasdi.

### Ollohdodga Temur yullagan bir farmon, u (farmon) bilan jigarlar-u qalblarni tilka-pora qilib, madorsizlantirishi va Ollohdod ustidagi (mavjud) kulfatni (yangi) mashaqqatlar bilan oshirishi bayoni

Samarqanddan (Xitoyga qarab) chiqqan paytda Temur Ak parada turgan Ollohdodga bir farmon yo'llab, bu (farmoni) bilan uni beqaror qilib, qovoqlari uyasidan uyqusi qushini cho'chitib uchirib yubordi. Bu farmon mazmuni ishoratidan Ollohdod fahm etdiki, Temur uni yakson, bolalarini yetim, diyorini vayron qilishni istab, qattiq tanglik keltirib, uning oldidagi barcha yo'lu yo'laklarni bekitdi. O'z amrida Temur unga shunday topshiriqlar tavsiya qildiki, ularni bajarishdan ko'ra tog'larni kesib, qoyalarni ko'chirish oson va ulardan eng arzimaganining oldida dengizlar suvini simirish lazzatli edi. Ollohdodga buyurilgan ishlarning eng kichigidan (biri) shu ediki, uning yolg'iz o'zi Temur (askari) Ashparaga kelgan kuni faqat bir kechaga kifoyat yeydigan ovqat va otlarini to'ydiradigan oziq tayyorlab, iqomat uyushtirish edi. Shunga tegishli narsalar dan yuz tuyaga yuk bo'ladigan maxsus un bo'lib, bu (un) faqat bir kechaga muljallanardi. Chunki u o'zining ko'p sonli askari bilan Ashparada faqat bir kechagina tunaydi deyilib, (farmonda) bundan boshqa (gap)lar ham bor edi. Qachonki Ollohdod bu maktubdan voqif bo'lib, bu xitob mag'zi-yu mazmuniga tushungach, u o'ziga azob-uqubat kelganligini bildi: uning oromi buzildi va butun harakatini sarflab, (aytilgan) unni tayyorlashga kirishdi va (to'xtab qolgan) tegirmonlarni yurgizishda jidd-u jahd ko'rsatdi. Tegirmonlar esa bu ajib paytda adabli kishining holidan ko'ra ham to'xtaganroq bo'lib, ular suvlarining ariqlari xasis kishining kafidan ko'ra ham qurigan roq edi. Qahatchilik davri un gardlarini shamolga uchirgan, anhorlar (suvlari) qonlari tog'lar tomirlari yo'llarida qotib qolgan, ko'z yoshlari esa ko'z ichki burchaklariga botib ketgandi. Ollohdod har qanday kulfatu shiddatga tayyorlab (bekitib) qo'yganlarini sarflab, nafis mollarini ham ayamadi va suvni oqizish xususida mol-dunyosiga suyandi. Dovyurak erkaklarni yordamga chorlab, har bir oqar suv va





...lmakdan foydalandi. Ittifoqli[1077] do'stlari maslahatlarini so'rab, ...lar yordamida ustiga kelib (tushib) turgan balolar changalidan qutulishga intildi. (O'zining) yuziga yopilib, ochishga toqati yetmaydigan har bir eshikni taqillatdi. Natijada, ular uning da'vatini qabul qilib, nido-yu sadosiga javob berdilar va iztirobi alamidan oh-voy chekishib, kasaliga tabib izladilar. Sher va qoplon sifatli koronda va hunarmandlarni jam qildilar. Tegirmonlarni yurgizadigan miqdorda anhorlarni oqizish uchun (birqadar) ish qildilar. Ular sovuqqa ...dlik ko'rsatib, suv yo'lidagi muzliklarni parchalay boshladilar. (Bu ishda) ular go'yo sovigan temirga (bolg'a) urgan (temirchi) ga va o'z va'zi qudrati bilan xudosiz kishi qalbini yumshatmoqchi bo'lib mashaqqat tortgan odam kabi bo'ldilar. Nihoyat, Ollohdodning g'am-g'ussasi yengillashdi, ularning chekkan uqubatlari sababli ko'ngli bo'shashib, ko'zlaridan yosh keldi[1078]. So'ngra u g'azabli yuzlarga sovuq nasim kelib, ular muzdan temir quloch bilan bir quloch ham parchalay olmay qoldilar. Agar sovuq nasim essa, suv uni tabassumli yuz bilan qarshi olardi. Suvning qalbi u (odam)lar olovidan muzlab, (ular) taftidan yuragi qotardi. Natijada, (suv) betidagi narsalar muzlar edi. Shunday qilib, ularga yo'llar torayib, orqalariga qaytardilar va xuddi sehrlanganlarga o'xshab keyinga yurardilar. Shunga qaramasdan, Ollohdod mol-dunyoni ayamasdan: «Ey suv! Ey odamlar!» – deb madad tilab nido qilardi. Men dedim:

Ularning har biri quvvati boricha aylantirib
suv chiqaradigan eshak misoli,
Suv oqishi uchun uni (eshak)ni to'xtatardi,
Har gal uni to'xtatsa, bu sovuqqa qo'l kelardi.

Nihoyat, (Ollohdod) do'stlari o'rtasida (Temurning bu amri) majol yetmaydigan topshiriqdir, degan ittifoq voqe' bo'ldi. Qachonki (Ollohdodga) ularning ahvoli bayon bo'lib, o'z huzurida ularning ma'zur ekanliklari ayon bo'lgach, Ollohdod o'ziga g'amgin baxt yaqinlashib, so'zsiz halok bo'lishiga ishonch hosil qildi. U o'zining cheksiz baloga uchraganligi va o'z mahdumining ulkan bir ish uchungina undan nozik tig' talab qilganligini bildi. O'z g'animlarini uning to'g'risida Temurga nima chaqimchilik qilganliklari va dushmanlari va hasad-

chilarining u haqida Temurga yetkizgan (gap)lari Ollohdodga k... yetgan edi. U Temur dilining o'ziga qarshi o'zgarganligini bilib, ... o'z jome'si ustosi Muhammad Jald bilan nima ish qilganligi ... ma'lum bo'lgan va qanday qilib Temur uni rosa qiynab, qatl et... mol-dunyosini talab, bolalari-yu ahlini asir olgani Ollohdodga hik... qilingan edi. Ollohdod bu kulfatlarni o'ziga nisbatan necha hissa ko'p bo'lishini (Temurdan) kutib, unda na qaror, na kecha-yu na kund... orom bor edi. U dunyodan qo'lini yuvib, hayoti, ahli, mol-dunyosi ... bola-chaqasi bilan vidolashgandi. (Shu payt) ro'za oyi yaqinlashib Temur bilan muloqotiga o'n kuncha chamasi qolgan edi. (Holbuki) yo'llar uzilgan, «tolib (Temur) ham va matlub (Ollohdod) ham ... qolgan edilar»[1079]. Tanho bayt:

> Agar holing toraysa, huzur-halovat (ham) kut,
> Ko'pincha holi torlik erkinlikka (eng) yakindur.

**Ushbu jabbor yengilishining sababi va uning do'zaxga ko'chib, asfalasofinda qaror topishi bayoni**

Vaholanki, Temur O'tror[1080] deb ataladigan joyga yetguncha o'z yurishini davom ettiraverdi. U zohiran sovuqdan amin bo'lib, botinan o'zidan ibrida[1081] (kasali)ni daf qiladigan narsa tayyorlamoqni istadi. Shu sababli tarkibida issiq davo (modda)lari, hushbo'yliklar, zarar siz, foydali rezavorlar solib ishlangan xamr arag'ini (tozalab) ajratib olishlarini buyurdi. Chunki tangri bu qudratli ruhning Temur o'zi ix tiro qilib, asoslagan zulm sifatlariga ko'ra chiqishini iroda etdi. Keyin Temur ushbu araqdan tanovul qilib, hech bir tap tortmay o'lchovsiz miqdorda ko'proq iste'mol qilaverdi. U o'z askarlari hol-ahvolini so'ramas, ularga e'tibor bermas va (ular) duosini tinglamasdi. Ni hoyat, o'lim qo'li unga bir qadah tutqazib, «ularga shunday) qaynoq suv ichirdiki, bu bilan ularning ichak- larini uzdi»[1082].

Darhaqiqat, Temur tangri qazosiga qarshilikni va zamon (ahli) bi lan urushni davom ettirib, tangri taoloning ne'matlarini inkor etar edi. Shubha yo'qki, u nuqsonli (holda) kelib, (ko'pdan ko'p) zulmlarni orqalab, ziyoda (bo'lgan) holda ketdi.

Ushbu araq Temur ichaklari va jigariga ta'sir qilib, uning a'zoyi-





...ni qaqshab-titradi va qo'l-oyoqlari bo'shashdi. Shunda u tabib... keltirib, kasalini ularga ko'rsatdi. Bu (qahraton) sovuqda ular ... qorniga va peshanasiga muz qo'yib muolaja qildilar. Natija... ...ch kecha o'tgach, Temur xo'rlanish va jazolanish uyiga tomon ...chish yuklarini bog'ladi. Uning jigari pora-pora bo'lib, «mol-dun... va bolalarining unga nafi tegmadi»[1083]. U qon qusib, hasrat va ...lomatdan qo'llarini tashlay boshladi. Tanho (bayt):

> Agar o'lim changalini solsa,
> hech qanday tumor befoydadir.

Ulim soqiysi Temurga eng achchiq qadahni ichirdiki, shu payt ... o'zi inkor etgan (narsasiga imon keltirdi. Lekin «azob-uqubat... ...i ko'rib keltirgan imoni unga foyda bermadi»[1084]. U madad tilab ...d-faryod qildi, lekin madadkor topilmadi. Unga qarab: «jirkanch ...sadda bo'lgan, e iflos ruh chiq[1085]. (Ey jon!), bulg'angan, zolim va ...nohkor bo'lgan holingdan chiqqin va do'zaxdagi qaynoq suv, sas... ...q joy va fosiqlarga qo'shni bo'lish senga muborak bo'lsin», – degan ...ido tushdi.

Agar uning bo'g'ilgan bo'taloq kabi xirillab, rangining o'chganini va osilgan tuya misoli ikki lunjidan ko'pigi oqqanini ko'rsang edi! Agar sen azob maloikalarini zolimlarning diyorlarini xarob etish, ular ...lovlarini so'ndirish va manorlarini vayron qilish uchun bashorat ber... ...moqqa zohir bo'lishlarini ko'rsang eding! «Kofirlar vafot topayotgan vaqtida maloikalarning ularning yuzlari-yu orqalariga urayotganini ko'rsang edi»[1086]. Agar sen uning (Temurning) xotinlari-yu hoshiyasini uning atrofida bo'kirib yig'lashlarini-yu uning yordamchi va qo'shinining «o'zlari shunchaki (soxta) intilgan kishilarini yo'qotganlarini»[1087] ko'rsang eding. «Agar sen ularning: «ruhlaringizni qo'yib yuboring, bu kun xo'rlik azobi bilan jazolanasiz, bu shuning uchunki, tangri taolo ustida siz haqiqatga xilof gapni aytgansiz, tangrini (tangrilik) alomatlaridan o'zingizni yuqori tutib kibrlangansiz»[1088] deb aytayotganlarini ko'rsang eding! Keyin maloikalar jahannamdan azobli va g'aliz bir libos keltirib, ho'l jundan sixlarni tortib olgandek, ushbu ruhni tortib oldilar. Shunday qilib, Temur Allohning la'nati va uqubatiga ko'chib, uning alami tahqiri va azobida qaror topdi. Bu

(voqea) 807-yil, nurli sha'bon oyining o'n yettinchisi, chorsh chasi (1405-yil 18-fevral) O'tror atrofida yuz berdi[1089]. Tang o'z marhamati bilan (bu) xo'rlovchi azobni bandalar ustidan k di, natijada, «zulm qilgan jamoaning orqa tayanchi qulatildi, egasi bo'lgan tangriga hamdlar bo'lsin»[1090].

### Temur vafotidan keyin voqe bo'lgan hodisalar va ishlar, zohir bo'lgan surur va yomonliklar bayoni

Ollohdodning Saodat deb ataladigan bir sodiq do'sti bo'lib, Andijon (shahri)ning noibi edi. Saodat taniqli, mashhur kishil bo'lib, Bosh Humra (qal'asi)ni tiklashga tavajjuh qilgan amirl biri edi. U Ollohdodga chopar yuborib, fasod moddasining (bu yodan) ko'tarilganligi, Temur yerlari tobelarini tashlab, o'z gun bilan darak-molikga[1095] (do'zaxga) tomon yuzlangani xabarini yet di. Chopar ushbu xushxabar bilan mazkur yil ramazon oyining to'rtinchisida (16-mart, 1405-yil) Ashparaga yetib kelib, Olloh dan g'am-g'ussasini yengillatib, uning qayg'u alamini ketkazdi. Ch par unga go'yo yangitdan hayot baxsh etgandek, cho'l-u biyob ustiga taom va suv ortilgan tuyasini yo'qotgandan keyin qaytarib k tirgandek bo'ldi.

Ollohdod, uning ishlari va bundan keyin umrining oxirigacha bilan yuz bergan mojarolar hikoyasi keyinroq keladi.

### Baxt kulib boqib, Temurdan keyin taxtga egalik qilgan (kishi)ning bayoni

Temur vafot etib, tangri olamdan uning g'amini yo'q qilganda, u bilan askarlari ichida yaqinlari va bolalaridan Amiranshoh o'g'li, Temurning nabirasi Xalil Sulton va hamshirasining o'g'li Sulton Hu sayndan – qaysiki, u Temur Shomga kirganda (Misr) sultoni tomo niga qochib o'tgan edi – o'zga hech kim yo'q edi. Ular bu masalani (uning vafotini) sir saqlashni, fuqarodan hech bir kimsa sezmasligini iroda etdilar. Lekin ular rag'batlariga qaramasdan bu xabar tarqalib, hamma yoqqa ovoza bo'lib ketdi. Natijada, ular iztirob chekib, va himada qoldilar, u yoq – bu yoqqa yugurishib, sarosimaga tushdilar.





da odamlarning hammasi bu ishdan voqif bo'lib, fahmladilar va qilgan qavmning orqasi kesilganligini»[1096] tushundilar. Natija- askarlar (ham) sarosimaga tushib, seskandilar va Temur jasadini Samarqandga qarab qaytdilar. Xalil Sultonga baxt kulib boqib, unga xoli bo'lgach, u taxtga egalik qildi. Uning otasi Amiran- Ozarbayjon va unga qarashli yerlarning mutavalliysi bo'lib, illari – Umar va Abu Bakr u bilan birga edi. Ular bilan Movaroun- o'rtaligida tog'-u toshlaru daraxtzorlardan yuzlab to'siqlaru lab g'ovlar mavjuddir. Ushbu Abu Bakr chigatoyliklar o'rtasida botirlardan va o'tkir qilich bilan dushmanning boshiga zarba uruvchilardan biri edi. Zikr qilishlaricha, u ho'kizni to'xtatib yoki ini cho'ktirib, qilich bilan ikki zarba emas,bir zarba urib, (uni) ikki ajratib bo'lib tashlarkan.

Amiranshohni esa Temur (o'lgan)dan keyin Qora Yusuf qatl ib[1097], undan Ozarbayjon yerlarini xolis o'ziniki qilib oldi; uning o'g'li Umarni birodari Abu Bakr o'ldirdi. Abu Bakrni esa Kermon hokimi Idiku o'ldirdi. Ularning janglari (tarixlarda) zikr qilingan bo'lib, hikoyalari mashhurdir.

Shohrux Hirot va Xuroson yerlarida bo'lib, Pir Umar esa Fors viloyatlari va o'sha mamlakatlarda edi. Temur o'ziga valiaxd qilib Muhammad Sultonni tayinlagandi. Garchi u nabiralaridan bo'lsa ham, lekin Temurga uning baxtu saodatligi, aql-idrokligi va ziyrakligi ayon bo'lgach, uni o'z o'g'illaridan muqaddam qo'ygan edi. Ammo qazo Temur xohishiga inodlik bildirib, (avval) zikr qilinganidek, Muhammad Sulton Rum mamlakatidagi Oqshaharda vafot topdi. Muhammad Sultonning Pirmuhammad degan birodari bo'lib, minba'd Temur uni o'ziga valiahd qilib tayinlagan edi. Temurga o'lim jarchisi hujum qilib, uning ruhini tashvishli tovush bilan chorlaganda, u g'aflat dengizida g'arq bo'lib, o'z (hayoti) muhlatining cho'zilishini rijo qilardi. Lekin (o'lim) o'ylab-netib o'tirmay, uni so'yib tashladi va askarini sarosimaga tushirib, gangitdi. Temur shu ahvolda ekanida, uning (barcha) avlodi va nabiralari undan uzoqda, qarorlari barqaror, halokatdan amin, vayrongarchilikdan forig' bo'lib, ular ham Temur kabi g'aflatda qoldilar. Pirmuhammad (esa) Qandahorda bo'lib, u (Qandahor) Xuroson

va Hind hududining o'rtasidadir. U bilan Movarounnahr o'rtali... (poyonsiz) cho'l-u biyobonlar mavjud edi. Temur bunyod etgan ... mulkga – ya'ni Samarqandga Amiranshoh o'g'li Xalil Sultondan ... qa yaqinroq (kishi) yo'q edi. Shu bilan birga, qish paxtalari va ... savaydiganlari yer farroshiga o'z to'shagini yoygan, uning ustida ... momiqlaridan olam yuzini va uning atroflarini qoplaydigan, orqa ... kiftlarini yopadigan miqdorda tashlagan edi. Ushbu avomlar (Temur avlodlari) dan birortasi ham tayyorgarlik forishida safar harakatiga ... ilib (otlanib), qo'lini hamlaga ko'tarish va oyog'ini yurishga cho'zish ... yoqda tursin, to'shakdan boshini chiqarish yoki tishini ko'rsatib ... yeng ichidagi barmoqlari uchini zohir qilishga ham qodir bo'lmadi. Chunki jinoyatkor nasim darhol uni o'rab, qamrab olishidan qo'rqardi. Natijada, hech bir nizosiz va tortishuvchisiz Xalil Sulton mana shu oson o'ljaga egalik qildi va mulkni, balki (butun) olamni jahannam... dan Kavsari Salsabiyga[1098] badal qildi. Saltanat tili o'z yerlari ustiga «Qanday yaxshi badal keldi» – deb nido qildi. Manfur (kishi) mahbub dushman (kishi) do'st[1099] bilan almashindi; Xalil Sulton askarlar va amirlar, qo'shin saralari va zaimlar ustunlar ustidan hokimiyatga ega bo'lib, o'sha millatlarni, arab va ajamdan bo'lgan boshliqlar toifalarini o'ziga og'dirib, barchaning bo'ynini tobelik halqasiga kirgizdi va ular uchun sadoqat bozorlarida oq fotiha berish do'konlarini ochdi. Natijada, ular uning bilan do'stona ravishda oldi-sotdi shartlarini tuzdilar. Ularning birortasiga ham itoatga kirishdan chiqish va o'sha kuniyoq bir muddat ham u bilan savdo-sotiq qilishga shoshilishdan kech qolish mumkin bo'lmadi. (Keyin) Xalil Sulton ularga xursandchilik (jilovi)ni bo'shatib, ular suhbatini xush bildi.

Xalil Sulton Yusufdek chiroyli, Muhammaddek xushxulqli, Xa...lildek muloyim, Ismoildek sadoqatli bo'lib, malohat belgilarini o'ziga jam qilgan, turli-tuman latofatlarga ega kishi edi. Uning fazilatlarini (barcha) in'omlar kotibi (xudo) «kof» va «nun» «bo'l» kitobasi bilan yozib, bag'oyat go'zal «harakat» va «sukun» bilan naqshlagan edi. Uning jamol lavhasida dastlab tushirgan narsani Xalil Sultonning «alifdek»[1100] tik qomati edi. Uning uzori «lomi»dan qaytgan har bir kishi «dolu» «jim» kabi egilib, uning xizmatida yoydek bukilib





... Har bir ko'ruvchiga undagi ziynatlar chiroyli ko'rindi. Uning ... «sin» simon terilib turishi, og'zining «mim» (harfi) kabi ...yliligi so'z aytgandan beri biron yolg'on va va'daga xilof qi... bilan ayblangan emas. Unga erishuvchi (kof) har bir kishi uning ...matiga muyassar bo'ldi. Har bir kifoyalanuvchi (kof) kishi uning ...-u atosi bilan kifoyalanib, uning «ayn» simon kaffidan oltin ...'ilib turdi. Natijada, askar ichidan u har bir «aql» egasini ov ...ildi. Bu bilan unga va'da qilib, o'z va'dasidan qaytgan va ahdi... buzgan har bir kishi ustidan g'alaba qildi. Qo'riqlovchilar uning ... fido qilib, xusnini turli hodisalar suqidan «xudo saqlasin» ... duo qildilar. «Tur» va «Ahqof»[1101] (suralari)ni o'qib, barcha un... panoh istadi. Uning «nun»simon qoshi, og'zi, ko'zi va gajagini ... (ho), م (mim), ا (alif), ص (sod), ق (qof).[1102] bilan asradi. Podshohlar ... maqtab, og'iz ochdilar va uning ko'tarilishi uchun quyi egib, Xu...dodan unga panoh tilab, «ي س (Yosin) ط ح (Toho)»,[1103] dedilar.

**Askarlarning banddan xalos bo'lishi va Temur jasadini olib Samarqandga qaytishi bayoni**

Qachonki fano qassobi Temurni so'yib, uni mollar tanasini bo'laklagandek bo'laklaganda, u ho'kiz va sigirga o'xshab bo'kira boshladi. Keyin u (fano qassobi) uni o'zi qazigan jahannam tannuriga solib kuydirishni iroda etdi. Shunda u (Temur) o'z sevimlisini[1104] yordamga chaqirdi. Xalil uni himoyasiga olib fano qassobiga: «Unga bunchalik shoshilmagin», dedi va jasadni sur'at bilan taxtiravonga solib, mo'miyoladi va Samarqandga olib qaytdi[1105]. (Shu paytda) Xo'jand daryosi (muzi) erigan, qish talabgori o'z qasdini olib bo'lib, qalbi sovigan va harorat o'rnashgai edi. Men dedim:

Nasim (shamoli)ning qalbi olamga mayin boqdi,
Zamon tabassumli yuz bilan olamga nigoh tashladi.

Keyin muzaffar bahor lashkari hujum qildiki, undan sovuq qo'shini mag'lubiyatga uchrab, yengilgan holda orqasini o'girib qochdi.

## Temur vazirlari[1106] sir tutgan va ulardan har birining dilga tuygan (yashirin) o'ylari bayoni

Bu askarlar aflokida yulduz sayyoralari bo'lib, ular bilan Temur osmoni charaqlar, ular fikrini iqtido tutar, ruiyatidan uning ko'zi ravshan bo'lar edi.

Men dedim:

> Ishga saylangan har bir kishidan saylanuvchi bor,
> (U) shundayki, ra'yi quyosh, jur'atda sher kabidir.

Bo'lib o'tgan ishlar ularni ko'p narsalarga o'rgatib, Temur bahlari ularni (bir qadar) pishiq qilib qo'ygan edi. Ular yordamida Temur yopiq (qo'rg'on)larni fath qilib, (ular) zarbalari bilan tor joylarni keng gaytirdi; ular hamlalari bilan har bir qaysarning shiddatidan qutuldi, ular azmi bilan har bir istagan murodiga erishdi; ular qat'iyati bilan har qanday matlablar xazinalari visoliga yetdi. Agar Temur to'lin oy bo'lsa, ular uning yorug'lik gardishi, agar u usta bo'lsa, ular uning asbobi, u jon (ruh), bular sezgilar, ular a'zo-yu badan, u esa bosh edi.

Qachonki ular sayrlari «quyoshi botib»[1107] «yulduzlar sayyoralari sochilgach»[1108] va ular Zuhali[1109] ko'chib ketib, orzulari noumid bo'lgach – men dedim:

> Olam choshgoh nurini kecha zulmatiga aylantirdi,
> Mirrihni Mushtariyga[1110] almashtirdi, –

deb ulardan har biri o'z fikri chaqmog'ini ushbu voqeaga qaratib, bu ish va uning oqibati haqida o'zicha tadbir ko'rdi va Xalil Sultonni kichik hisoblab, uning ustiga har tomondan nizo mavji kelishini va mulk atirgulining kudurat keltiruvchidan sof bo'lmay, unga g'ubor siz sof havo bo'lmasligini, sira bo'lmaganda Xalil Sultonning xesh-u akobirlarining elchisi unga: «Katta bo'l! Ulg'ay!» deb aytishini bildi.

Natijada, ulardan har biri har qanday shiddatga qarshi o'z jidd-u jahdini, har bir ehtiyojga yarasha o'z hozirligini, har bir nohaklikka qarshi o'z ximoyasini, har bir buzuqlikka qarshi o'z chorasini, har bir baxtsizlikka qarshi o'z libosini, har bir o'qqa qarshi qalqon, har bir falokatga qarshi aslaha, har bir musibatga qarshi yo'l, har bir baloga





qarshi xitob, har bir xitobga qarshi javob, har bir urushga qarshi nayza, har bir amirga maslahat, har bir makr-xiylaga qarshi uzr, har bir ...likka yo'l-yo'riq, har bir aldovga qarshi tadbir, har bir kasrga bir ... tayyorladi.

Lekin sovuqning o'jarligi har bir qaysar sarkashligini qaytargan, ... parchalari har bir uchqur otning qanotini qirqqan edi. Natijada, ulardan har qaysisining itoat qilishdan va Xalil Sulton so'zini tinglab, buyrug'iga bo'y egishdan bo'lak choralari yo'q edi. Ular go'yo Abdullo ibn Ubayyin ibn Salul[1111] Habibga (Muhammad payg'ambarga) (qarshi) shumlik o'ylagani kabi, o'z dillarida Xalilga qarshi har xil fikrlarni o'ylab, uning bilan (Samarqandga) qaytishda davom ettilar. Ulardan biri Burunduq[1112] deb atalar edi. U Xalil Sultonga muxolifat gal'asida mustahkamlanib, (yuqori) ko'tarilishni istab, unga: «Agar (oliy) fikrlar taqozo qilsa, men oldinroq ketib sen yetib borguningcha barcha ishlarni (sening uchun) tartibga solaman. Men (sening) davlatingning jarchisi, saltanatingning boshchisi bo'laman va qonun-qoidalarga asos solib, kelib ketuvchilarga (bu xususda) bashorat beraman. Barcha (sening) muloqotingga tayyor bo'lib, kirib borishingga kerakli (barcha) vositalar muhayyo turadi», – dedi.

Xalil Sulton unga izn qilib, o'zidan oldin yubordi. Burunduq Sayhunga yetib kelganda, daryo ustiga kemalardan ko'prik tuzilib, har bir piyoda va otliq undan o'tishi uchun (barcha) vositalar muhayyo edi. Burunduq o'z jamoasi bilan daryodan o'tib, o'sha zahotiyoq ko'prikni buzishni buyurdi va isyon e'lon qilib, ochiq-oydin tug'yon bilan Samarqandga qarab ravona bo'ldi[1113]. Ittifoqan bir nazm:

> Uning yuziga (shahar) qo'rg'onlari tishlarini qayradi,
> (Qo'rg'onlar) o'zining pokligi eshishiga parda tushirdi.
> Manoat peshanasiga o'z niqobini tutdi

Keyin Burunduq nojo'ya harakatini tuzatmoqqa intilib, o'z mantiqi masalasida g'alat yo'ldan yurdi. Xalil Sulton ko'prikka yetib kelib, ko'prik tuguni tarqab, nizomi buzilganini ko'rdi. U Burunduqqa va u qilgan bu ishga e'tibor qilmay, balki kuprikni tuzatib, daryodan o'tdi hamda, Sayhun orqasida bo'lgan yerlarga Xudoydod deb atal-

mish o'sha yerlarning avvalgi xokimini hokim qilib qo'ydi. U ... Sultonning eng katta g'animlaridan biri Temur hamrohlari va ... doshlaridan bo'lib, Sulton Husaynga mansub (kishi) edi. Xudoy... o'sha yerlarda bosh-ko'z maqomida bo'lib, Xalil Sultonga u bilan ... lishish, uni o'z yerlarida qaror topdirib, u bilan do'stona munosab... bo'lishdan boshqa chora yo'q edi. Chunki uning ishlari hali avval... edi. Xalil Sulton o'sha yerlar ishini Xudoydodga va qalblarni o'z ... sodliklariga topshirdi.

## Xalil Sultonning (o'zi) erishgan saltanat bilan vataniga yetib kelishi bayoni

Keyin Xalil Sulton Samarqandga ravona bo'ldi. Uni shahar ulug'la... qarshi olib, istiqboliga shahar noibi va zaimlari chiqdilar. Shahar... noiblari qora kiyimga burkanib, motam liboslarini kiyib, uning huzur... ga tashrif buyurdi. Ushbu jasadga ta'zim (qilish) uchun hamda Xalil Sultonning sog'-salomat qaytgani va podshohlik taxtini olgani bilan muborakbod etish uchun akobirlar va ulug'lar keldilar. Men dedim:

> Har bir kimsaning yuzi kulib turgan bahordek bo'ldi,
> Ko'zi bulut ko'zidek yig'lagan tishi tabassumdan yarqiradi.

Ular Xalil Sultonga qimmatbaho sovg'alar va asil armug'onlar taqdim qila boshladilar. U ulardan har birini o'z hurmatiga yarasha qarshi olib, har qaysisi martabasiga loyiq (joyga) o'tqazar edi. U Bu-runduqqa: «Zarari yo'q», – deb do'st o'zining sevimlisini qarshi ol-gandek, uni qarshi oldi va unga[1114] ochiq ko'ngillilik bisotini hozirlab, mug'olata masalasini topshirdi. Qachonki o'z ustunlari mustahkam sobit bo'lgach, u Burunduqni tag-tomiri bilan qo'pordi va g'aflat topib, uni o'lim sherini og'ziga tashladiki, sher uni yutib yubordi. Ke-yin uning diyoriga nahb etuvchi ko'ppaklarni olqishlab, uchqur yul-duz olovlarini yubordi. Ular uning diyori terisini parcha-parcha qildi va haramlarini tahqirlab yoshu qarisini izini quritdi.





## Temurning ko'milishi va go'r qa'riga tashlanishi bayoni

Xalil Sulton dastavval o'z bobosini ko'mish, uning ishini bira-la tugatib, lahadi chuquriga tashlash bidan mashg'ul bo'ldi. Ke-yin uni obnusdan[1115] bo'lgan tobutga solib, boshliqlar boshlarida ko'tardilar. Uning janozasi marosimida podshohlar-u qo'shinlar bosh yalang, qora kiyim kiygan xolda bordilar, ular bilan birga amirlar va ayonlar toifalari ham bor edilar. Temurni nabirasi Muhammad Sul-tonning yoniga, nabirasi madrasasiga, Ruhobod deb ataladigan joy yaqiniga qo'ydilar. Bu mashho'r mavze bo'lib, u (unda) toshlar us-tidagi xavf-xatarsiz ma'lum bir sardobda edi. Xalil Sulton uning (ja-sadi) ustida aza shartlarini: xatim Qur'on, rub'a poralari (30 pora-si 30 kishiga o'qitish), duo o'qitish, sadaqalar tarqatish, taomlar va shirinliklar ulashishni bajo keltirdi. (Keyin) u qabrni sag'ana qilib ishlatib, (Temur) ishini nihoyasiga yetkazdi. Qabr ustiga kiyimlari-ni yoyib, devorlariga esa qurol-aslaha va anjomlarini osdi. Bularning hammasi qimmatbaho toshlar va oltin bilan bezatilib, zarkash berilib ishlangan edi. Ulardan eng arzimaganining kiymati bir iqlim xirojiga barobar va u javharlar uyumidan bir bug'doy donasi (miqdorining) bahosi taqvimdan[1116] ortiq edi. Uning qabri shiftlari samosiga oltin va kumush qandillar yulduzlarini ildi.

Uning to'shagi ustiga va atroflariyu chetlariga harir firoshlari va parcha paloslarini to'shadi. Bu qandillar jumlasidan oltindan bo'lgan bir qandil bo'lib, uning vazni tur ming misqol, Samarqandchasiga, bir ratl va Damashqchasiga, o'n ratl edi.

Keyin Xalil Sulton uning qabriga (Qur'on) qorilari va xizmatkor-lar qo'yib, madrasaga darvozabon va qorovullar tayinladi va ularga yillik, oylik, kunlik moyanalar belgiladi.

Shundan bir muddt o'tgach, Temur jasadini po'latdan ishlangan tobutga ko'chirdi. Bu tobutni o'z san'atida mohir bo'lgan shirozlik bir usta yasagan edi. Temur qabri (avvalgi) mao'hur joyida bo'lib, unga nazr-niyozlar keltirilib, kishilar o'z hojatlarini tilaydilar, uning yonida duo qilib, rijo istaydilar. Agar qabr yonidan podshohlar o'tib qolsalar, ta'zim bilan bosh egadilar, ko'pincha unga hurmat va izzat yuzasidan o'z ulovlaridan tushadilar.

## Zamon mo'tadilligi va Xalil Sulton xabarlari haqida bo'[illegible]

«Chindan ham Temurni sayxa qamrab olib, u turobga [illegible] gach»[1117] hamda Xalil Sulton taxtga o'tirib, cho'kib yotgan [illegible] qaddini rostlagach, shoirlar davrni madh etib, Xalil Sultonni [illegible] briklab, Temur haqiga yig'lab, (o'z) tillarini cho'zdilar. Shunda [illegible] (buni) eshitib, kuylab ovoz chiqarib yayradi va o'z (o'rnidan) [illegible] bilan olamdan ko'krak va dumbalarni ko'tardi. Borliq bahor kel[illegible] dan sururlandi, baxsh etgan husnli fe'llari uchun bog'lar bulutlar[illegible] tashakkur izhor etdi, tepaliklar ustiga qip-qizil gullardan iborat [illegible] roqlarini ko'tardi, san'at chodirchisi daraxtlar gullari bilan zeb-u [illegible] ynat bergan o'z chodirlarini tikdi va bo'stonlar anvorlari bilan [illegible] qorachiqlari munavvar bo'ldi. Bo'stonlar jomelaridagi[1118] bulbul[illegible] minbarlaridagi qushlar notiqlari yaratuvchini ko'klarga ko'tar[illegible] bilan har bir notiqqa (o'z) tilidagi so'zi bilan xitob qildiki, bu [illegible] qanday fasohat devonidek g'aroyib va balog'at sirlarini cheksiz [illegible] ajjubga solardi. Shunda qullar ashulasiga daraxtlar raqsga tushib [illegible] anhorlar chapak chaldilar, kecha-kunduz mo'tadil bo'lib, kulrang [illegible] yer gul solingan ipakli xil'atga burkandi, shoxlarning paxtadek (oppoq) qorlardan iborat barcha liboslari qudrat bo'yoqlari bilan bo'yalib, rang-barang tovlangan va gullar ipaklari bilan to'qilgan libosga almashdi.

Butun yer yuzi gullab-yashnadi va har bir qush-u jo'ja uchun farog'at hosil bo'ldi. Borliq bu joyda Xalil Sulton poyqadamlari ost[illegible] ga atirgul-u rayhonlar gilamlarini to'shadi.

### Bo'lim

Xalil Sulton bu (ish)lardan forig' bo'lgach, o'z yerlari ishlarini tartibga solib, yo'llarini tozalashga kirishdi. U, agar in'om-ehsonlar bo'lmasa, bir kishining ham o'ziga rom bo'lmasligini va mol-dunyo sadf qilmay, (bu yo'lda) xotiri orom topmasligini bildi. Shu sabab-dan qalbini sirli jumboqlar va maxfiy belgilarni yechishga bog'ladi. Ushbu matlablar va xazinalar vositasida to'siqlaru tobelarga nisbatan tasarruf yuritdi va yashirin (ashyo)larni fath qilishda o'z qat'iyati-ni kuchaytirdi. Ehson donlarini ato to'rlari tagiga sochib, ko'ngillar





[illegible]larini ovladi. Ularni jamlash yo'lida fuqarolar birligini sochib, [illegible] to'plagan (boylik) larni (elga) tarqatdi. Ayblar va gunohlar [illegible] o'zidan boshqalar orqasiga Temur ortgan og'irliklardan yel-[illegible] yengillatish bilan og'ir qildi va orzu umidlar yuklarini og'ir-[illegible] mol-dunyo xirsi bilan odamlarni qizqtirdi. Saodatli qo'llaridan [illegible]lar yog'dirdi. Misra: «Chap (qo'li) tomonidan xayr jo'sh urdi», [illegible] no'noq qo'shinlarga yashirin mollar, sandiqlar va cho'ntak-[illegible] hosillarini bo'shatishi bilan odamlarning «og'izlari» «quloqlari» [illegible] ko'zlarini» (shov-shuvga) to'ldirdi. Go'e Xalil Sulton o'z tartibli [illegible]moqlarida dirham va dinorlarni sochayotgani kabi bahor kelishi [illegible] azm davh daraxti shoxlari turli-tuman gullarini sochdi. Bulutlar [illegible]kayotgan o'z yomg'ir va (suv) durlari bilan Xalil Sultonning bu [illegible] va uning atroflariga to'xtovsiz quyilayotgan ehsonu in'omlari-[illegible] o'xshadi. Shunday qilib, Halil Sulton odamlarning hammasini shu [illegible] bilan kishanladi. Ular itoat bildirib, uning xolis in'omlari to-[illegible]niga yurdilar. Amr-u Zeydga qaralmadi.

### Amir va vazirlardan (Xalil Sultonga) inod izhor qilib, tan olmay, ixtilof va isyon etagiga yopishganlar bayoni

Shunga qaramasdan, u qo'mondonlardan ba'zilari, vazirlar va qo'shinlar zaimlari o'zlari sir saqlagan (narsa)ni oshkora qilib, isyon-dan iborat yashirin fitnani zohir etdilar. Isyon qilichini yalang'ochlab, adovat yoyini o'qlagan va Rudayniy[1119] muxolafatiga shuru' qil-ganlarning dastlabkisi Sayxun daryosi orqasi va Turkiston atrofida-gi yerlar mutavallisi Xudoydod Xusayniy edi. Natijada, o'z qo'lini itoat bandidan tortishga jazm etgan har bir shaxs xasadlik, xususan, jamoatni tarqatishda iqtido qilinadigan imomni topdi. Shu paytda ba-hor zargari o'z yonayotgan cho'g'lari bilan muz va qor quymalarini eritib, ushbu eritmadan chiqargan narsasi bilan yeru ko'k qiyofasi-ni-yu bog'-u bo'stonlar lavhasini, chamanzorlar atroflarini bezagan edi. Hasharotlar o'liklari haqiqatan ham momaqaldiroqlar sayxasini eshitib: «Bu, (yerdan) chiqish kuni»[1120] dedilar.

So'ngra isyon va inodda Xudoydodga Shayx Nuriddin ergashdi – u Temur huzurida muqaddam qo'yiladiganlardan, o'z fikri va marta-basiga ega kishilardan edi. Shayx Nuriddin ochiq-oydin yolg'iz o'zi

chiqib, kecha-yu kunduz yurib Xudoydodga yetib keldi. Xudoydod dan (uni) bel va qo'llari kuchayib, o'jarlik va fasodda unga sheri bo'ldi.

So'ngra Shoh Malik o'z itoat nizomini tarqatib, muxoliflik yo'liga o'tib, boshdan-oyoq sho'ng'ib ketdi. U baqirib-chaqirib Samarqand dan chiqib, Jayxunni kesib o'tdi va Shohrux huzuriga keldi. U (Shoh Malik) Shayx Nuriddinga tengdosh bo'lib, metindek mulohazali qat'iy fikrli (kishi) edi. Xalil Sulton (esa) isyonkorlarga e'tibor qilmay, isyon qilmaganlarga izzat-ikrom ko'rsatdi. O'z in'omi tojini har bir boshga (barchaga) umumiy bilib, (uni) xususiy qilmadi[121].

**Ashpara sohibi Ollohdod xabarlari bayoni: uning Ashparani qoldirib, o'z diyoriga otlanishi; mulk tadbirida so'zu amalda nimalar qilib, nimani afzal ko'rgani. Bular jarayonida uning o'z halokati-yu vayroniga yetishiga ishora**

So'ngra Ollohdod (Temur o'limi) xabari o'ziga (etib) kelgan kechasi hos kishilarini yig'ib, bundan keyin nima qilishi va nimaga binoan ish tutishi xususida ular bilan mushovara qildi. Shunda ularning so'zlari-yu maslahatlari Ollohdodning Ashparani qoldirib, o'z diyoriga qarab jo'nashiga bir ovozdan ittifoq topdi. Chunki ular bu joyda (Ashparada) go'yo ramazon oyida haddidan oshgan fosiq yoki qur'on qorilari o'rtasidagi dinsiz (kishilar) misoli edilar. Qachonki borliq mushksimon ro'ypushini to'shab, ushbu makon ustiga kofursimon (oq) yaktagini yoygach hamda fajr iloni bu ko'tarilgan tom ustiga nurli munchog'ini og'zidan tashlagach, tugk va xurosonliklar, hind va iroqliklardan qo'shinlar amirlari va lashkarlar o'z odatlariga ko'ra Ollohdod xizmatiga hozir bo'ldilar. Shunda so'zlari mador bo'ladigan fazilatliklari bilan Ollohdod xilvatda bo'lib, ularga bu masala sirini oshkora qiladi hamda bu haqda ular fikrlari (ichi) dan to'g'ri va g'alatini izladi. Bu xabar tarqalib, mo'g'ullar sezib qolmasliklari uchun uni sir tutishlarini so'radi. Ammo qanday qilib sof havoda quyosh ko'zini yashirish mumkin? Qanday qilib ko'zi bor kishidan kunduzni bekitish mumkin? Ulardan har biri (bu masalada) ishni o'z amriga topshirib, ushbu masala qissasini yashirin cho'ntagiga tashladi. So'ngra Ollohdod o'sha rafiqlarini o'zining (kelajakda) ko'radigan





ishlarida u bilan birga inoqlik izmida bo'lishga da'vat etdi. Shunda ular Ollohdodning aytganiga rozi bo'lishib, o'z harakatlarini uning so'zlariga bog'ladilar. U bu masalada ularning (tutgan) sirlari go'yo qonlari kabidur, deb qasam ichirib, (ushbuni) ta'kidladi. Natijada, ulardan har biri o'z muvofiqligiga muxolif bo'lmasligiga qasamyod qilib, Ollohdod nimaiki ko'rsatsa, o'shanga amal qilish, nimaiki amr qilsa, o'shani qilishga, ont ichdi.

Qachonki Ollohdod ularning muxolifat va isyoni kulfatlaridan omin bo'lib, qasamlari bilan ular bo'yinlarini bog'lab, ko'ngil to'qlik hosil bo'lgach, dedi: «Ey xayr jamoasi! Siz kulfatdan saqlanib ofatdan qutildinglar. O'ylaymanki, bu ish salotida men sizning imoningiz bo'lib, o'z jamoam bilan sizdan avval Samarqandga borib, (u yerda) sizlar uchun ishlarni tayyorlab, (sizlarni) bu shahringizga (o'rningizga) badallarni yuborsam. Xudoga qasam bo'lsinki, menda na qaror, na orom bo'lmaydi va men sizlarni chaynovchi saqichdek chaynash uchun (hech vaqt) dushman og'zida qoldirmayman. Agar siz ishlaringizning bag'oyat kelishuv bilan qaror topishini, qal'angiz va devorlaringiz atirguli sarasini g'animlar mo'ylovi qahridan himoyada bo'lishini istasangiz, Xo'jand daryosini kechib o'tib, Samarqandga yetib borgunimcha menga muhlat bering. Shu sababli men (u yerga) yetib borib Xalil Sulton bilan bog'langunimcha menga vaqt darkor».

Natijada, ular Ollohdod murodiga ergashib, u iroda etganga amal qildilar va undan so'ngra ham bunga xilof qilmaslikka va u jo'nab ketgandan keyin ham o'z bo'yinlaridan ahdu paymon chilvirini yechmaslikka va'da berdilar. Keyin Ollohdod ular ustiga Iroq qo'shinlari boshlig'ini amir qilib tayinladi. U ittifoqdagi rafiqlarining eng kattasi edi. U shahar devorlaridagi askar jamoalarining har biriga qurolli jangchilardan bir qism bir qism ajratib berib, go'yo payg'ambar o'z ummatiga (rahbar) bo'lganidek, o'sha qurolli kishilarning rahbari bo'lib qoldi; shu bilan birga u Ma'sum[121] deb atalar edi.

## Bo'lim

Keyin Ollohdod (lozim bo'lgan) ishlarni saranjomlashni buyurib, zikr qilingan ramazon oyining o'n yettinchisida (19 mart, 1405) sovuq va issiqqa parvo qilmay (yo'lga) chiqdi. U Ashparani vatan

tutib, unda joylashib qolgan va xotiniyu bolalarini ko'chirib kelti... (xuddi) shu tarzda o'z hoshiyasi va qo'shinlariga ham amr qilgan... Shu sababli o'zi bilan birga bo'lgan hammasini – katta-yu kichi... olib, o'ziga tegishli ashyolardan na bir piligu na biror narsa qoldi... Ular ba'zan o'rmalab ba'zan sudralib yurdilar. Ba'zan esa yerda... borligi xususidan ularga qisman azob-uqubat bo'ldi, «ahyonan os... ular ustiga qovog'ini soldi»[1122]. Qulonchuq[1123] deb ataladigan joy... ular (sevimli hayit»[1124] bilan birga yetdilar. Bu (joy shu o'lkaning) eng sovuq joylaridan bo'lib, go'yo u Od[1225] shamolining manbayi... Men dedim:

Agar jahannam qattiq sovuqqa muhtoj bo'lsa,
(Jazirama) peshin vaqti nafaslari undan o'ziga oladi.

**Ollohdodga Xalil Sulton va Xudoydoddan ikki maktub kelishi, bu maktublar ma'nosining (bir-biriga) aks va zidligi bayoni**

Shu payt Ollohdodga Xalil Sultondan bir maktub kelib, unda ho... bosi bilan zamon hodisalaridan ne ishlar yuz bergani, o'zini uning ta... tini egallagani, qadr-u qiymati katta-yu kichik bo'lgan podshohlar... ning hammasi o'ziga itoat bildirgani, xudoga shukurki, barcha ishlari mustahkam, mulk qonun-qoidalarining ilgarigidek qoyimligi; u (Ol... lohdod)ning biron ish boshlamayin va o'z shahri (Ashpara) dengizidan quruqlikka chiqmasligi, zinhor o'z joyida qolishligi, o'z qo'shin toi... falari va yordamchilari bilan Ashparada sobit o'rnashib olishligi, har bir kimsaning (kattayu kichikning) xotirini xushnud qilishligi chunki u (Xalil Sulton) bu maktub izidan tez orada ularning hammasini al... mashtirishga yetadigan miqdorda badal yuborishi zikr qilingan edi.

(Bundan) Ollohdod hayratga tushib, fikrga cho'mdi va bu safari... dan foyda yoki zarar qilishini o'zicha hisob-kitob qilib chamalab, har xil «gumon-u taxminlarni tuzdi»[1126]. Natijada «qanday gumon qilgan bo'lsa, shu tarzda qatlga yetdi»[1127].

U shu alfozda bu masala boisida bosh qotirib, mushkul ahvolga tushib, fikr qilayotgan bir paytda, birdan Xudoydod Xusayniydan chopar kelib, uning Ashparadan chiqib, tezda (Xudoydodning) huzuriga yetib borishga undadi. Shunda u Ashparadan chiqishiga Xa-





...Sulton nazdida vaju korson topdi. U qaytadan hayotga kelib (yotib) ...ladi, go'yo o'lganidan keyin ko'zi yumilgan-u, lekin ikkala ko'zi ...m ochiq edi. Keyin u o'z taraddudi bisotini yoydi va cheksiz orzu ...idlari bilan o'z maqsadi tomon yuzlandi.

Lekin uning bilan (ko'zlagan) murodi o'rtasida «xart ul-qatod» va ...r qadar to'sqinliklar bor ediki, ularni Suad[1128] visoliga ilhaq bo'lgan ...labgor[1129] zikr qilgan; ular ustiga ustak Sayxun daryosiyu Xudoydod ham bor edi.

Ollohdod kechayu kunduz (to'xtamasdan) yo'l yurib, nihoyat Xudoydodga yetib keldi. Xudoydod (uni) ko'rganidan shodlanib, uning ...iymosidan o'z maqsudi tomon yaqin kelgandek bo'ldi. Keyin ikkalalari Xo'jand daryosini kechib o'tib, Samarqand atroflariga tomon yurdilar va hech bir kutilmagan g'aflat paytida Tayzak[1130] deb ataladigan bir joyga yetib keldilar. Ular adovat uchun qilich yalang'ochlagan bo'lib, (odamlarni) qirish uchun nayza o'qtalgan edilar. So'ngra ular Temur chorvalarini qurshab olib, ularni g'orat qildilar va xoh pul, xoh qo'llari yetganicha zo'ravonlik qilib shilib oldilar. Ular bu yerda ko'p yomonliklaru fasod ishlar bilan mashg'ul bo'lib, bu borada Samud va Od (qavmi)ning «to'qqiz kishisiga»[1131] o'xshadilar. Mana shu (fasodlik)lar Temur Samarqand yerlarini egallagandan keyin «otashkurakdan tushib»[1132], qo'lini fitnalar bilan cho'zgan yomonlik va bid'at uchqunining dastlabkisi edi. Chunki Temur hayot vaqtida Samarqand ahli yomonliklar va fitnalar voqe bo'lishidan amin edilar. Qachonki ushbu g'iybatchilar to'satdan (bostirib) kelganda, ular ustiga o'ylamagan tomondan azoblar yog'ildi. Bu, (807)-yilning shavvol oyida, (1405-yil aprel), ya'ni mamlakat Temurdan judo bo'lgan yili yuz berdi.

Bu ulkan kulfatni tuzatish Xalil Sultonga mumkin bo'lmadi.

**Ollohdod Ashparada qoldirgan toifalar va u ketgandan keyin ular o'rtasida voqe bo'lgan zidlik va ixtilof bayoni**

Ammo Ollohdod Ashparada o'zidan keyin qoldirgan qo'shin toifalari masalasiga kelsak, ular o'zlariga mo'g'ullardan o'lim kelishidan xavf-xatarda bo'ldilar. Natijada, ular guruhlarga bo'linib, turli to'dalarga ajralib ketdilar. «Ular ichidan bir guruh chiqib»[1133] biri: «Men

o'z ahdimga qat'iy bo'lib, xiyonat ham qilmayman, aldamayman ham, «ikkala qo'lim ahd bandiga mahkam yopishib»[1134], qasam ila bilan bog'langan. Men o'ngga chapni alishadigan (beqaror) kishilardan emasman; eng kamida biz Olloxdoddan biror elchi yoki maktub kelguncha sabr qilib, unda bayon qilingan yo'l-yo'riqni ko'raylik. Shunga muvofiq o'z nazarimiz taqozosi bilan savobni xatodan ajratib olamiz. Agar u (yo'l-yo'riq) bizning murodu maqsadimizga muvofiq kelsa, unda biz u aytgan (gap)ga amal qilib, shu maktub va elchi keltirgan (xabar)ga ergashaylik va o'sha zahotiyoq (ahli) sunna va jamoaga o'xshab yuraylik. Agarki, u o'z so'zida biz bilan bema'ni, nomarg'ub yo'l haqida gap yuritsa, u vaqtda biz (mu'taziliylar kabi) undan chetga chiqamiz va har birimiz kishi o'ziga manfaat bo'ladigan yo'l)dan bormog'i lozim, degan gapga amal qilib, o'z foydasini ko'radi», – dedi.

Ulardan (yana) bir guruh bu joyni tashlab, Ashparadan xuruj qilib chiqishga shoshildi va bu bahslashuv takroridan muqotilaga ko'chdilar. Bu nizo maydonida xurosonlik boshliqlardan birining boshi kesildi. Yana bir toifani o'z nafaslari ularni (shunday) harakatga tushirdiki, «ular kechayu kunduz tinmadilar»[1135]. Keyin ular yuklarini ortib, shahardan chiqdilar va uylarni o'zini qurgan kishining o'limi haqida xabar bergan holda (huvillatib) tashlab ketdilar. Qolganlar esa (shahardan) chiqib ketishda ularning orqasidan ergashishdan boshqa yo'l topmadilar, chunki ularning mavqelari avvaldanoq qor ustida (omonat) turgan qasrlar misoli edi. Natijada, ular jami mol-mulklarini yuklab, sog'lari-yu betoblarini ham otlantirdilar. Shaharni, unda bo'lgan g'allalar, hosillar, noz-ne'matlar, boyliklar, mol-dunyo, gazlamalar, kishini hayratga soladigan nafis ashyolar bilan tashlab ketdilar. Ushbu mahbus (misoli) qavmdan unda (shaharda)gi og'irligi tufayli yuklashga ojizlik qilingan og'ir yuklar hamda bir majnun xotindan boshqa hech narsa qolmadi. Ular Ollohdod bilan – u Xudoydod huzurida edi – uchrashdilar. Ollohdod bu (qilgan) ishlari uchun ulardan bittasini ham koyimadi va Xudoydodning unga Samarqandga borib, ularga badal tayyorlashni man etganligini bildirib, uzr so'radi. Ollohdod ularga tayyor (turgan) holda o'zi bilan birga bo'lishlarini, agar Samarqandga qarab otlanish fursati kelsa, tezda undan foydalanishlarini buyurdi.





## Ollohdod bilan Xudoydod o'rtasidagi aloqa tamomi va Ollohdod qanday qilib uni aldab o'ziga moyil etgani, aqlini olib, jinni qilgani bayoni

Keyin Xudoydod ushbu fasodning voqe bo'lganini aniq bilib, Xalil Sulton bilan Ollohdod o'rtasida adovat borligiga ishonch hosil qildi. Natijada, Xudoydod unga bir qadar tayangandek bo'lib, o'zining kelajakdagi ishlari xususida uning maslahatini ola boshladi. Xudoydod huzurida bir toifa tutqun askarlar o'sha mamlakatlar askarlaridan qolib ketgan edilar. U ularga yo'llarni tor qilib qo'ygan bo'lib, ularni bir egadan ikkinchi ega (jahannam)ga o'tkazishni xohladi. Lekin bu borada Ollohdod unga e'tiroz bildirib: – tadbirkorlar odati odamlar xotirini o'ziga jalb qilishdir, xususan, ishlarining avvalida va dastlabki kulfatlar voqe bo'lishida, – dedi. Sen xalqni o'zingdan qochirma-da, ularga avval in'om-ehson ko'rsatib, muloyimlik bilan muomala qil. O'shalarni qatl qilib, terilarini tilka-pora etishdan nima foyda? Bu faqat (bir-birimizga) sadoqatimizni inkor etib, biz bilan ular mahdumlari o'rtasida adovat (borligi)ni ta'kidlashdir. Ehtimol, ular mahdumlaridan birontasining dilida Xalil Sultonga nisbatan nafrat bo'lib, shu xususda o'ziga tayanch sifatida hamroh va makon izlab, (o'ziga) panoxjoy va madad istar? Natijada, zarurat madad izlab) uni Turkiston yerlariga yo'l olishga undar. Agar sen uning raiyalariga aziyat yetkazsang, qanday qilib unda senga nisbatan tayanch va ishonch qoladi? O'shalar bilan sen qiladigan eng arzimagan ish shuki, ey inson, mehribonlik etagini tutish yoki in'om-ehson bilan ularni ozod etishdir»[1136]. (Chunki) ularning mahdumlari bizga nisbatan rafiq. Xalil Sultonga esa sadoqatli kishilardir. Agar sen ularga nisbatan marhamat urug'ini eksang, unda sen har bir buyuk va nozikka ega bo'lasan; o'z do'stu yorlaring ichidan kim senga dushmanlik ko'rsatgan bo'lsa, ular o'rtasiga adovat tashlagan bo'lasan».

Xudoydod Ollohdodning ushbu gaplarini eshitgach, bu ish jilovini uning qo'liga tutqazdi. Natijada, Ollohdod unga ushbu tutqun askarlarga ozodlik berishni va ularga erta-yu kech ehson ko'rsatishni maslahat berdi. Shunda u ular farog'atini ziyoda etib, (ular) kesilgan

qanotlarini pat bilan bezadi va izzat-ikrom bilan ularni o‘z vatani tomon tashriflarini o‘zlariga berdi. Natijada, falaklari saodatli aylanib, ular o‘z mulklari va mahdumlari bilan jam bo‘ldilar.

## Xalil (Sulton)dan kelgan bir maktub bayoni. Undagi nozik bir lafzning, ulkan (bir) ishning yechilishi

Keyin (bo‘lsa) Xalil Sultondan Ollohdodga elchi kelib, u (Xalil Sulton) bilan Xudoydod o‘rtasida voqe bo‘lgan tarqoqlikni birlashtirishga say’ qilib, uning xotirini rizolikka moyil qilishni va shu zahoti yoq darhol do‘stlikni qabul etib, (oldin) yuz bergan ishlarni afv etishini, nimaiki talabi bo‘lsa, hammasiga kafillik berishini, uning yaqinligini eng afzal yaqinlik deb hisoblashini, Ollohdodning ular o‘rtasida elchi bo‘lib, ular (ikkalasi ko‘zi)ni sulh bilan xushnud etishini so‘radi. Shunda Ollohdod Xudoydod huzuriga kelib, ushbu risolani unga yetkazib, bu xitobda iltifot va fasohatdan nimalar borligini bayon qildi. Xalil Sulton va Xudoydod o‘rtasidagi adovat sababi zikr qilishlariga ko‘ra shunday: Xalil Sulton ilgari shu yerlarda[1137] Xudoydodga qo‘shni edi. Bobosi (Temur) uni Xudoydod ustiga nozir qilib qo‘yib, uning tarbiyati[1138] ishlarini Xudoydodga topshirgan edi. Xudoydod esa sovuq g‘aliz, johil va qo‘pol odam edi. U Xalil Sultonga qo‘pollik bilan muomala qilib, uni dag‘allik va qo‘rslik bilan qarshi olardi. Xalil Sulton (esa) latif zotli, zarif sifatli bo‘lib, axloqining nasimi Xudoydod qo‘polligini ko‘tara olmas, uning latif mijozining libosi hoshiyasining nozikligi jihatidan shaqovat va nizo tortishuviga bardosh bera olmas edi. Natijada, mana shu qo‘rslikdan ular ikkalasi orasida adovat tug‘ilib, o‘rtalarida g‘iybatchilar ko‘payishib, nihoyat Xalil Sulton unga yashirincha zahar berishgacha borib yetdi. U uni ichdiyu, lekin buni sezib qolib, o‘zini rostlab (olib), uning ilojini ko‘rib, mijozini tuzatadigan (narsa) bilan shug‘ullandi. Natijada, taqdir unga bu kulfatdan qutulishni lozim ko‘rib, u bundan najot topdi[1139]. «Qani endi u (uni) halok qilgan bo‘lsaydi!»[1140]. Uning dilida ana shu adovatdan bir hid qolgan va u bu voqeadan oqsoqlikni meros olgan edi. Natijada, xususiy adovat umumiyga aylanib, bu kirdikor ushbu kasal uchun tamoman illat bo‘ldi.





## Bo‘lim

Keyin Ollohdod Xudoydodga qaltis va shiddatli qasamlar qilib, o‘z qasamlarini «Qur’on» bilan «u (Qur’on) ursin», deb ustiga qo‘lini qo‘yib, unga ishora bilan ta’kidladi, taloq ontlarini aytib, o‘z ontini takrorladi; (yana) shuningdek, o‘z ustiga nazir-nuzur chiqarish, qul ozod qilish va boshqa luzumotlar olib, (ontlarini) ziyoda qildi; o‘zi ham uning itoatidan qo‘l tortmasligini va unga hechvaqt xiyonat qilmasligini, magar u (Ollohdod) Samarqandga yuz tutsa, buzilgan ishni tuzatishda, otilgan (o‘q)ni qaytarishda, ikki tomon o‘rtasida yirtilgan narsani tikishda, ikki tomon dilida paydo bo‘lgan nafratu adovat yamog‘ini yamashda hamda Temur xotinlaridan biri Tumanni Xudoydodga jo‘natib yuborishda jidd-u jahd ko‘rsatishini ta’kidladi. Gapning qisqasi, Ollohdod yomonlik moddalarini bartaraf qilib, barcha ishlarni tuzatishga kafil kafil bo‘ldi. Agar u ikki o‘rtadagi kuduratni ko‘tarib, adovat satrlarini mahv etishdan ojizlik qilsa ham ochiq-oydin-u yashirin holatda Xudoydodga sodiq bo‘lib qoladi, deb u Xudoydodga laganbardorlik qilib, unga yumshoq muomala qila boshladi va har xil bezakdor yolg‘on-yashiq gaplar bilan uning fikri oqimlariga qarab intilib, asta-sekin yuqoriga ko‘tarila boshladi. Yagona tangrining nomi bilan qalblarni titratib pora-pora qiladigan dahshatli qasamlar ichib, (ikkinchi marta) to‘rt xotinining uch taloq bo‘lishini qaytara boshladi. Uning[1141] (Ollohdodning) lashkargohi Sayxun sohiliga cho‘zilgan bo‘lib, u Shohruxiyadan[1142] taxminan ikki barid[1143] (masofa) uzoqda edi. Natijada, Ollohdod aldovining o‘qi Xudoydod qalbi qorachig‘iga o‘tib, makr bilan (uning ichiga) kirdi va o‘z qasami bilan uning sohiliga ekkan ziroati (hosili)ni un qilib maydalab elab yubordiki, nihoyat, Xudoydod ahdu paymonini ta’kidlaganidan keyin Ollohdodga tasarruf ato qildi. Keyin Ollohdod o‘ziga mansub (kishi)larga kelib, o‘z hoshiyasi va rafiqlariga qo‘shildi. Ular Shohruxiyada bo‘lib, Ollohdod bu masalani ularga xabar qildi. U bundan oldin o‘z ishini muhayyo etgan bo‘lib, har jihatdan aslaha va ehtiyotkorligini ko‘rgandi. Keyin u etagini shimarib, tun og‘ushi ostida kemalarda Sayxundan o‘tdi.

## Ollohdodning Xalil Sulton bilan uchrashuvi va vatanida unga izzat-ikrom kelishi bayoni

Ollohdod (Sayxunning) bu qirg'og'iga o'tib, narigi qirg'og'i unga tegishli na g'oyibu na hozir qolmagach, shu zahotning o'zida yuklarni bog'lashni, qimmatbaho boyliklarni mahkamlashni, (go'yo) nahbu g'oratdan oldin tayyorgarlik ko'rishni amr qildi. Shunda ular (Ollohdod odamlari) ustiga ko'p sonli qurollar quyulib, subhdan oldin u (Ollohdod) jo'nash namozi (salot ur-rahiyl) azonini o'qidi. U o'z ahlidan zaiflarini va qimmatbaho boyliklarni (hammadan) oldinga o'tkazib, bu azon bilan iqomat shartlarini buzdi. Xalil Sultonga chopar uchirib, unga o'zi va Xudoydod o'rtasidagi mojaroni avval qay tarzda (edi) va hozir qanday bo'lganligini xabar qildi hamda ablah Xudoydod bu harakat (asl) maqsadini[1144] fahmlab qolishi va ularni orqalariga qaytarishini eslab (qolib), izlaridan ularni qaytaradigan (kishilar) jo'natishi ehtimoli borligi vajidan undan o'ziga tomon yordam qo'lini cho'zib, odamlar va qurol-yarog'lar yuborishini so'radi. Keyin ular nishonga «teguvchi o'qdek (tez) yurib, uchar yulduzdek»[1145] uchdilar. Tong otmasdanoq ularga baxtu saodat ezguliklari namoyon bo'ldi.

Ular har bir tik chuqurligu sahrolarni qirqib o'tdilar. Sayrlari dashtgohlarida ulovlari toptagan joylarda gullagan bog'lardagi alvonli lola qizg'aldoqlarni bosib o'tdilar. Ular kechalari ham yurishda davom qilib, yana kun bo'yi yo'l yurib, tag'in kechaga o'raldilar. Qachonki ularni charchoqlik qamrab, otliqlariyu ulovlari xorigach va zulmat anqosi ustiga o'z qanotini tushirgach, qandaydir keng bir soyga kelib qoldilar. Ular soy yonida to'xtab dam oldilar. Ollohdod odamlariga olov yoqmaslikni uyqu ta'miga berilmay, ora-sirada mizg'ib olishlarini, qilichni ko'z qiridan, ko'z qirini qilichdan uzmasliklarini farmon qildi. So'ngra ular hayotni (o'limdan) tutib turadigan miqdorda (andak) taom tanovul etib, salotul xavfni ado etib, shunchaki tangriga ibodat qildilar va ulovlari yemish yeguncha bir muddat to'xtadilar. So'ngra Ollohdod buyurgach, ular yuklarini ortib, yo'l beliga mindilar.





## Xudoydod Ollohdodning g'am-g'ussa-yu kulfatlar bilan aqlini chalg'itganini fahmlashi bayoni

Keyin Xudoydod o'z «uyqu»sidan uyg'onib, o'z «tuni (qorong'ilig)dan» o'ziga keldi va Olloxdod o'zini kunduz kunida aldab, sehrlaganini tushundi. Uning aqli quyoshini ochib, qasami dasti bilan o'ynab, o'zini yutganini angladi. Shunda u «zolim kishi (hasratdan) qo'llarini tishlaganidek, qo'llarini tishladi»[1146] va darhol ko'p sonli qo'shin to'plab, unga tomon yubordiki, ular uning orqasidan shoshilich ravishda yurib, Ollohdodni uchratish umidida uni axtardilar. Lekin undan na biron ko'z-u na biron iz ko'rmadilar; uning haqida birontadan na bir so'zu na bir xabar eshitmadilar. Ular hayron bo'lib aylanib, qidirishda davom etdilar. Lekin u yerlarda behudaga charchab, ovora bo'lganlaridan keyin xo'rlangan holda orqalariga qaytdilar. Ollohdod (esa) o'z maqsudiga yetib, (shu paytda) bo'sh turgan vazirlik mansabini tanho o'zi egalladi, chunki uning kelishiidan (andak vaqt) oldin Shayx Nuruddin va Shoh Malik xuruj qilgan bo'lib, isyonni istagan har bir kimsa qimirlashib, (asta-sekin) harakatga tushib qolgan edi.

Natijada, Ollohdodning kelganidan Xalil Sulton shodlanib, avvalgidek uni boshqa vazirlar va arkonlardan muqaddam qo'ydi. Ollohdod qanday xohlasa, shunday o'rnashib olib, mulk ishlarida o'z badoatli bayoni bilan tasarrufiga muvofiq insho va xabar yuritdi. U darhol (mamlakat) ishlarini yo'lga qo'yish, qo'shinlar jihozlash, chegaralarni muhofaza etish bilan shug'ullana boshladi. Natijada, odamlarning ishlari o'z holiga qaytib, tartibga tushdi; tarqab ketgan hokimiyat marjoni yana tizildi, odamlar hollari qaror topib, qonun-qoidalar o'z asosida o'rin topdi. U (Ollohdod), Burunduq, Arg'unshoh va yana biri Kachuk deb atalardi, mamlakat ishlarini boshqarib, har kim bilan o'z maqomiga binoan muomala qilardilar. Lekin Ollohdod bosh vazir va barcha undan maslahat so'raydigan ulug' kishi edi. Uning (vazifasi) doirasiga podshohlikning qabz-u basti[1147] hamda boshqa (masalalar) tugunlarini yechish-u tugish (ham) kirar edi.

Shayx Nuruddin va Xudoydod esa shaharlarga g'orat qilib, ziyonu fasodni oshirishda davom qilardilar. Ular Turkiston atroflari va o'sha

shaharlar yerlariga, ulardan Sayram, Toshkand[1148], Andikon, Xo'jand, Shohruhiya, O'tror, Sig'noq va bulardan boshqa o'sha taraf va ufqlarida bo'lgan (joy)larga egalik qildilar. Ular Sayxunni kechib o'tib, Movarounnahr yerlarigacha kelib g'orat qilardilar. Shunda ularga qarshi ba'zan Xalil Sulton yuzlanar, ba'zan esa yordamchi va qo'shin toifalaridan yuborardi. Har safar ular (ikkalasi) bularga bardosh bera olmay qochib qolardilar. Buning zikri qanday bo'lgan bo'lsa, shu daylligicha keyinroq keladi.

## Temur vafotidan keyin Turonda zamon hodisalaridan sodir bo'lgan voqealar bayoni

Ammo mo'g'ullarga bu g'arib (Temur)ning vafoti[1149] xabari yetganda – ularga u (Temur) o'z qaydi toshlarining ushbu chegaralarni buzishga qaratganligi, o'z qasdi o'qlarini o'sha qorinlar va tomoqlarni parcha-parcha qilishga qo'zg'agani xabari (allaqachon kelib) yetgandi. Bu (ish) uning qaydi to'ri va saydi tuzog'i ekanligiga ular shubha qilmadilar. Natijada, ularda hech bir qaror qolmay, bir-birlariga qarab «Qoch! Qoch!» deb nido qildilar va (turli) tomonlarga tarqab ketib, qal'alar etaklarigayu baland tog'lar cho'qqilariga yopishib oldilar, qo'rg'on va qoyalardan boshpana izladilar, g'or-u kamarlar qa'rida o'zlarini o'lganga solib yotdilar, shuningdek, Dasht va Shimol (chap tomon) ahlidan har biri o'ng tomondagi qumloq va qum tepaliklariga tarqaldilarki, Mashriq va Xitoy ahli to Siyn chegaralarigacha yetib bordilar. O'sha tomonda o'zini hur deb sezgan har kimsa, «agar biron boshpana, yoki g'or, yoki bosh suqadigan biron joy topsalar, albatta u tomonga qarab burilib, shitob bilan unga chopib borardilar»[1150]. Chindan ham u o'z haybati va takabburligida (shunchalik) yuqori maqomga ko'tarildiki, nihoyat u olam sharq-u g'arbini o'z olovi bilan halok etdi va shoir quyida aytganidek bo'ldi:

> «Qariyb uning kamonlari otuvchisiz ular (dushmanlar)
> qalbiga joylashgan edi,
> Qariyb qilichlari g'ilofidan chiqarilmasdanoq (dushmanlar)
> gardaniga botgan edi.
> Qariyb tez uchar otlar uni olib keldilarki, ular taqdiridan
> qichqiriq bilan faqirona ashula aytardi»[1151]





Qachonki bu xabar qayta-qayta aytilib, bu shakar qandining hikoyati takrorlanib, rukunlari shuhrat topib, hatto tanho (kishi)lardan to jamoalargacha yetib, bu haqiqat har bir kimsada qaror topgach hamda bu ishni inkor etib, tan olmaslikning iloji bo'lmay qolgach, har kimning yuragi o'z qorniga (ichiga) qaytib, xavf-xatarda bo'lgandan keyin xotirjamlik bilan almashdi. Ular (mug'ullar) bir-birlariga «Qo'zg'olon!» deb nido qildilar va nahbu g'oratga ketdilar. Har bir azmati singgan (kishi) o'zi sazovar haqini qaytarishga qasd qilib, har bir tutqun o'z egasidan (tutqunlikdan) ozod qilishni talab qildi. Natijada Sharqdan bo'y ko'targalarning avvalgisi mo'g'ullar bo'ldilar. Ular Ashpara va Issiqko'l tomoniga ko'z tutib yurib, o'sha (atrofdagi) yerlarda yoyilib ketib, hatto Xudoydodgacha yetib keldilar. Shunda Xudoydod mo'g'ullar bilan sulh tuzib, apoq-chapoq bo'ldi va Temur ulardan (bosib) olgan yerlarini (o'zlariga) qaytarishni va o'zlariga adovat bildirgan har kimsaga qarshi bir jonu bir tan bo'lishlarini (orada qo'yib) ahdlashdi. Ikkala tomon bir-biriga qo'shnichilik qilishni foydali bildi. Natijada, bu sulh vositasida o'sha diyorlar osoyishta bo'ldi.

## Idikuning totorlar bilan qo'zg'olib Movarounnahr va o'sha diyorlarga tomon yuzlanishi bayoni

Keyin shimol tomondan qumdek (behisob) qo'shin bilan Idiku bosh ko'tarib, qat'iy azm-u qaror bilan Xorazm yerlariga qarab yuzlandi. Xorazm noibi Musiko deb atalardi. Qachonki u totorlar (kelishi)ni sezgach o'z halokatidan qo'rqib, ahli va o'ziga mansub (odam)larini olib yo'lga tushdi. Bu (voqea), Arg'unshohga biriktirilgan Rum totorlari bosh ko'tarib (shu paytda) muzlagan Jayxundan o'tgandan va Arg'unshoh o'z panohgohiga qaytgandan keyin yuz bergan edi. So'ngra Idiku Xorazmga yeti kelib, uni egalladi va otliqlari bilan Buxoroga qarab yurishini davom ettirib, uning atrofidagi joylarni g'orat etgach, Xorazmga qaytdi. U chig'atoyliklar o'rtasida nahb-u g'oratni kuchaytirib, ularni bosib-yanchgan hamda Xorazm va uning viloyatlariga o'zi tomonidan Anko deb ataladigan kishini hokim qilib qo'ygan edi[1152]. Xalil Sulton o'ziga ozor yetkazgan har bir kimsani ehson bilan qarshi olib, har

bir darg'azabni muruvvatiga erishtirib, o'z karomatlari bilan b... bir yiroqdagi (yot)ni o'ziga yaqin tuta boshlagani sababli, key... chalik o'sha joylar ham tartibga tushib, (har bir) ko'chmanchi v... o'troq osoyishta bo'lgandi. U odamlar ko'nglini nafis buyumlar b... lan ovlab, (ular) sherlarini esa (behisob) o'ljalar (ulashish) bil... tilka-pora qila boshladi. Natijada, unga g'arib-u begonalar (ham) muhabbat qo'yib, har bir keluvchi-yu ketuvchi uning qo'l ostig... kirishni marg'ub bildi. Faqatgina Shayx Nurudddn va Xudoyd... fasodni davom ettirib, o'jarlik bilan inodlik ko'rsatar va ikki ta... o'rtasida mavjud yerlarni xarob etardilar.

**Temurning nabirasi va vorisi Pirmuhammad bayoni; u bilan Xalili va valiysi o'rtasida bo'lib o'tgan mojaro**

Keyin Xalil Sulton amakisi (Jahongir)ning o'g'li Pirmuhammad – Temur uni birodari Muhammad Sulton vafotidan keyin o'ziga vali ahd qilib tayinlagan edi – behisob askar bilan Qandahordan chiqib, Samarqandga qarab jo'nadi. U Xalil Sultonga va vaziru a'yonlardan iborat boshqa akobirlarga elchi yuborib, o'zining valiahd va bobo si Temurdan keyin xalifa ekanligini xabar qildi. Taxt uning haqi-ku, qanday qilib uni zo'rlik bilan olishadi? Podshohlik uning mulki-ku, qanday qilib uni yulib olishadi?[1153].

Ulardan (akobirlardan) har biri unga loyiq javob berib, muxot... ba qilishdi. Ammo Xalil Sulton teskari bo'lib olib, uning xitobidagi har bir masalani aksincha va xiloflik bilan qarshi oldi va «bu zamon... da, ey falon! Mulk (ishi) ikki narsadan biridan xoli bo'lmaydi. U yo nasab yo'li bilan, yoinki uning uchush kurashib, kasb etish (yo'li) bilan bo'ladi! Agar (buning) birinchisi bo'lsa, bunda biz ikkimizdan kim haqli-yu, kim avlo? U holda mulk mening otam Amiranshoh va amakim Shohruh, ya'ni uning (Amiranshohning) birodarinikidir. Shu sababli mulk ular ikkalasi o'rtasida teng ikkiga bo'linmog'i lozim. Bu ikkalasi mavjudligida senga so'z yo'q. Men mulkning sohibi bo'lish... da eng avlo (kipshi) man, chunki men uni hamma tomondan saqlab, uning (to'g'ri) yo'llaridan yuraman; yoinki ular ikkalasidan har biri men bilan janjallashishni to'xtatadi va o'ziga tegishlisidan menga matlub viloyatni qoldiradi. Ularning har biri o'z mamlakatida ega





...lgan (narsasi) bilan qanoatlanib, o'z tarafini muhofaza etadi; yo... o'z saltanatida meni xalifa qilib tayinlaydiki, men uning voliysi va noibi (sifatida) bo'laman. Agar ikkinchisi bo'lsa, u vaqtda (sening) ...ping to'g'ri emas, chunki ta'kidlashlaricha, mulk farzandsizdir (qi...dir). Men va sendan oldin xalq o'rtasida aytilgan mashhur gaplarda aytilganidek:

> Otlaringizni sozlab, qurollaringizii tozalang,
> Etagingizni shimaringki, bu dunyo kim g'olib kelsa, o'shaniki.

Agar bobongning seni valiahd qilganini va o'z vasiyatida yolg'iz senga tayanganini tasdiqlasang, u vaqtda uning o'zi g'alaba yo'li bilan (mulkga) ega bo'lmay qanday ish tutdi? Mulku mamlakat unga zo'ravonlik bilan olish va kurashish (yo'li) bilan hosil bo'lmay qanday (yo'l bilan) hosil bo'ldi? Basharti, sening da'vongni qabul etib, uning vasiyati haqidagi gapni to'g'ri deb bilsak, u (Temur) hayot vaqtida yerlarini taqsimlab, ular ustiga o'z o'g'il va nabiralarini (tarqatib) qo'ygan edi-ku! Natijada, otamni Ozarbaijon yerlariga hokim qilib, amakim (Shohruh)ni Xuroson viloyatlarida, amakimning o'g'li Pir Umarni esa Ajm Iroqiyu o'sha diyorlarda qaror toptirdi. Shu jumladan, seni esa Qandahorga hokim qilib buyurib, ko'rsatganidek (seni) merosxo'ri qildi. Keyin u (barcha) nohaqlikni orqalab (bu dunyodan) ko'chib ketdi. Ammo bu ulashishdan mening nasibam qani? Bundan mening hissamni ko'rsatinglarki, men unga egalik qilay. Sizlardan har biringiz o'zi qaror topib, o'ziga topshirilgan (joy) bilan qanoatlansin. Shu bilan birga, agar otam va amakim sen aytganga amal qilsalar, men ham o'shanga amal qilay, yoki ularikkalasi Temurning) senga vasiyatiga muvofiq bo'lib, sen bilan bay'at qilsalar, men ham sen bilan bay'at qilay. Agarki, biz bu masalada haqiqat yo'lidan yurmoqchi bo'lsak, u vaqtda mulk – bu bir ovdir. Kimki agar shu ov poygasida peshqadamlikni egallasa, o'sha unga sazovordir. Darhaqiqat, tangri meni bu mulkga qaror topdirgan vaqtda undagi barcha illatlarni ketkazib, mulkni menga pok-pokiza holda muyassar ko'rdi. Kimda-kim pokiza (narsa)ga qo'lini birinchi uzatsa, u o'sha narsaga eng loyiq kishidir.

Yana gap shuki, mulk fiqhi (ilmi) mudarrislarining hammasi

menga tobe bo'lib, saltanat tugunlariga sherikligi bo'lgan kishi raqiblikni tark etib, menga bo'yin egib, mening hokimlik marjonimni foydali sanadi. O'sha (kishi)lar mening xulq atvorimdan voqif bo'lgach, menga «salom»ni[1154] topshirib qasamyod qildilar.

Ammo vazirlaru a'yonlarga kelsak, ular Pirmuhammadga tinglovchining qulog'iga yoqimsizlikdan bo'lak foydasi yo'q behuda gaplar bilan javob qildilar. Lekin Xoja Abdullavval – u ulamolar boshlig'ining boshlig'i, sayyidlar va ulug'lardan iborat Movarounnahr boshliqlari ustida tasarruf yurgizuvchi (ulug' amir-u zaimlarga o'z hukmlari o'qini tegizuvchi (ulug' kishi) edi – o'z javobida yaxshi gapirib, to'g'ri va foydali so'zladi. U so'zni qisqa va muxtasar qildi, Pirmuhammadni qoralab. Xalil Sultonni g'olib hisobladi. U o'z javobi va xitobi jarayonida (shunday) dedi: «To'g'ri, sen Amir[1155] Temurning valiahdi va minba'd xalifasi eding. Lekin sening toleing baxtga to'g'ri kelmadi, agar baxting kulib boqqanda edi, sen taxtga yaqin bo'lar ding. Shu tufayli sening (hozirgi) ahvolingda eng avlo narsa shuki, o'zingga tekkanu, o'zing egallagan (narsa) bilan qanoatlanib, (mavjud) ot va odamlaringni saqlab qolish va qo'lingda bo'lgan yerlarni tutib turishdir. Agar sen (bulardan) yuz o'girib, ziyoda mulk talabida bo'lsang va tangri o'zingga qismat qilib, hukm etgan narsa bilan qanoatlanmay o'z mamlakatingdan bu bo'shliqqa tomon chiqsang, u vaqtda sen azob-uqubatga tushasan va viloyating qo'lingdan chiqib, o'zing esa «na u yoqlig-u na bu yoqlik bo'lib tentirab qolasan»[1156].

### Xalil Sultonning Pirmuhammadga qarshi Sulton Husaynni jo'natishi; uning Xalil Sulton izmidan chiqib, Amirlarini qabz qilib, muxolifat bildirishi bayoni

Keyin Xalil Sulton bu gaplarning nozik tafsilotlari bilan qanoatlanib qolmasdan, asl maqsadga o'tib qo'ya qoldi va safarbar turgan qo'shiniga Pirmuhammad istiqboliga otlanishni amr qildi. Ularni (o'z) otasi ammasining o'g'li Sulton Xusaynga qo'shib, ular ustiga chig'atoy amirlaridan kerakli bosh-u ko'zni, bir qancha orqa-tayanch va bilaklarni biriktirdi. Shular (jumlasidan Kachuk, Arg'unshoh va Ollohdod bor edi). Natijada, ular qurol-yarog'lari mukammal, adadlari bekam-u ko'st holda yo'lga tushdilar. Bu (voqea) 807-yilning zu-





...'da oyining o'rtasida (1405-yil may) bo'lgan edi. Ular Jayhunni ...chib, Balxga tomon o'tdilar va shahar etaklariga chodirlarini o'rnatib[1157] uning tevarak-atroflariga yoyilib ketdilar. Ular shu tarzda kay...iyatlari rafohatda, ko'ngillari farog'atda bo'lib, shod-xurram ekan...arida Sulton Husayn (yolg'ondan) o'zini betoblikka soldi. So'ngra ...u amirlarni chaqirib, ular bilan o'z murodlari xususida fikrlashib, bir ...qarorga kelmoq istadi. U ularga hufyona pistirma o'rnatib, o'ng-u ...chapga yashirin odamlar qo'ygan edi. Qachonki amirlar u hozirlagan ...joylarga tushib, uning domiga kirganlarida, u ular ustiga o'z o'ljasi...ga otilgan sherdek otilib, ular ustlariga o'z arslonlarini yo'lladi. Ular go'yo halim (taom)ga tashlangan och kishilardek ularga tashlandilar.

Shunda Sulton Husayn yonida birga bo'lgan hamrohlariga: «boshlarini kesib, ularni uzil-kesil mag'lub etib, asir tushganlarini mahkam bog'lang»[1158], – deb nido qildi.

Avval zikr qilinganidek, Sulton Husayn yengil tabiatli, shijoat...li, hovliqma, kam aqlli, savlatli va javlonli bo'lib, (qiladigan) ishi (harakati) (so'zlaydigan) so'zidan oldin yurardi. Natijada, o'sha ...damning o'zidayoq ushbu jamoadan bittasini, ya'ni Xoja Yusufning qoni oqizildi[1159]. U Temur hayot vaqtida Samarqandda (Temur yo'g'ida) g'oyiblik noibi bo'lib, mashhur amir edi. U darhol o'ldirilib, dor ul-oxiratga ko'chirildi.

Keyin Sulton Husayn mustaqil saltanat da'vo qilib, u yoq bu yoqdan xaloyiqni da'vat etdi. Natijada, o'sha boshlar dahshatga tushib, ustilariga intiqomu kulfat kelganligini bildilar.

### Ollohdodning Sulton Husaynga (ko'rsatgan) firibi va makr-u hiyla bilan o'limdan qutulishi bayoni

Ammo Ollohdod ehtiyotkor yuragini dadil tutib, o'sha ondayoq yo'qolayozgan aqlini yig'ib oldi. Natijada, u hammadan avval Sulton Husayn (madadi)ga nido qilib, uni o'z ishlarida haqiqiy sirdosh hisoblab, unga fasohatli ibora bilan: «Senga mening (bir) nasihatim bor, – dedi va uni xilvatga olib: Bu harakatni men sendan kutardim va sen niyat qilgan ishni izhor etishingni (orziqib) poylardim. Qayyoqdan Xalil Sulton tanho o'zi mulkga egalik qiladi? Aksincha, Mavlono Sultonimizning haybati kengroq hamda u (Xalil Sulton) bilan

(o'zga) podshohlar o'rtasida bemalol vosita bo'lmagan. Agar men da shu xususda zarracha shuur bo'lsa edi, u vaqtda men bu ishlarni va masalalarni albatta (sening) karomatli amrlaring taqozosiga muvofiq tartibga solar edim. Darhaqiqat, (Mavlononing) karim xotirlari bu so'zimning sidqidilligiga guvoh bo'ladi; axir men azaldan sening qulingman. Xudoydod asorati iskanjasida bo'lgan o'z qul va qo'shinlaringdan so'raginchi, ularni uning asirlik to'rlaridan kim xalos qilgan ekan? Uning zarari ziromidan ularni kim qutqargan ekan? Ular u-tida alangalanib yonib turgan uning yomonlik cho'g'ini kim o'chirgan ekan? Agar men bo'lmaganimda, albatta Xudoydod ularni halok etib, bolalarini yetim qilar, ularning nasab orqali va o'zlari kasb etgan mulklariga rushno solardi. Agar sen ulardan so'rasang, ular bu ish haqiqatini hikoya qilib, (o'sha) vaziyatni senga ochiq-oydin izhor etishadi. Ehtimol, ular kelgan vaqtlarida bu haqda senga xabar yetkazishib, bu bilan qalbingni pora-pora qilishgandir».

U o'zining turli-tuman uydirmalari suvi bilan Sulton Husaynning lovullab yonayotgan takabburlik olovi-yu alangasini o'chirishda davom etar va uning kaltafahmlik dimog'lariga o'zining hiyla-nayrang anbarini mushk va xushbo'y (riyha) bilan qo'shib tutar hamda firibgarlik yoyidan uning kam aqlli qalbiga makr o'qlarini otardiki, ular qazo va qadar qilichlari kabi sanchilib, maqsadga bexato borib tegardi. Natijada Sulton Xusayn uning makri (sharobi)dan tuyib ichib, izmidan yurdi u Ollohdodni o'ziga orqa (tayanch) qilib, o'z ishlarida uning fikridan uchqun oldi. So'ngra uni (o'ldirmay) qoldirib, unga muruvvat ato qilgandan keyin hamrohlarini o'ldirish xususida Sulton Husayn undan maslahat so'raganda Ollohdod: «Shubhasiz, Xalil Sulton in'om-ehson yordamida odamlarni qo'lga kiritdi. Garchi, u shijoatda qo'li qisqa, mol-dunyosi kam bo'lsa-da, lekin o'zining chiroyli xulqi va (bor) mol-dunyoni (ayamay) sarflashi bilan odamlar botirlarini o'ziga qul qilib oldi. Lekin mol-dunyo fano va zavolga yuz tutadigan (narsa)dir. Xudoga shukurki, sening jasorating (barchaga) mashhur, botirlar botirlariga qarshi ko'rsatgan jang-u jadal manzillarining ma'mur, tengdoshlaring shoxlarini sindirgan bayroqlaring qo'chqorlar (jangchilar) peshanasiga yoyilgan, jang ho'kizlaring suzuvchilarining boshlari zamon asrlar osha (xudo tomonidan) abadiy madadda». Men dedim:





Qancha botirni jangda majruh qilding,
Shundan beri orqalaridan bod chiqarib, orqa o'girib qochadi.
(Urushda) men bosh-u ko'z bo'lganimdan beri ko'ramanki,
sening boshingda fath, balki ko'zingda zafar (mavjud).

«Bilishimcha, qo'shinlarning aksariyati sening siymongdan ...dlanib, sening harakating tufayli xotirjamlik hosil bo'lgani uchun ...vinchdan ular raqsga tushadi. Chunki odamlarga ularni boshqar...ligan «bosh», hamiyatli zobit (kishi) bo'lmog'i lozimki, uning tad...bi bilan (xalqning) nafis narsalariyu o'zlari saqlanadi va (yana) u ...ngal solishga tayyor turgan sherdek, hayqirgan sel emas, balki ...'lib toshgan dengizdek (kishi bo'lmog'i) darkor. U chaqirganda ...mma unga yordamchi bo'lsin, agar u chaqirilsa, u (ham) odam...rga madadkor bo'lsin. U (kishi) shoirning ushbu so'zidagi tavsifga ...ga bo'lsin:

Tadbirga shijoat fazilatini qo'shgan bo'lsin,
(Qat'iy) fikr faqat tadbirli botirda bo'ladi.

Va u yana bir shoirning mana bu so'zi bilan ham tavsiflangan bo'lsin:

Hur (ayol) o'g'lidan boshqa g'am-g'ussani ocha olmaydi,
U o'lim talvasalarini ko'rib, keyin o'limga beriladi.

Shu zamonda ushbu sifatlar bilan tavsiflangan sendan o'zga biron kimsa bormi? Shijoat, karam, e'tiborli nasab (bular hammasi) sen qayerga ko'chsang (sen bilan) ko'chadi, sen maskan tutgan joyda ular ham maskan tutadi.

Agar Shoh Malik va Shayx Nuruddinning orqasida senday kuchli qo'rg'on mavjud bo'lsa, bu narsadan mustahkam tayanch hosil bo'lishini ko'rib, u ikkalasi albatta senga tayanadi va ular sening oliy dargohingdan iborat mustahkam bir rukndan zinhor boshpana izlaydilar. Gapning xulosasi shuki, hammalarining mavlosi sen bo'lib, ular sening qulingdirlar. Basharti, masala shu zaylda ekan, sen ularga ega-

lik qilding. Ularni o'z huzuringda (tirik) qoldirish yoki halok etish [illegible] uchun bab-baravardir. Lekin (tirik) qoldirish avloroq. (Chunki) [illegible] hamisha o'z mavlolari marhamatlaridan umidvordir. Agar [illegible] fikrlari hammamizning kishanga bog'lanishimizni, bunga ziyoda [illegible] tiq qasamlarga zanjirband bo'lishimizni taqozo qilsalar ham (shun[illegible] day) qilaylik. Chunki (o'zlarining) ra'ylari (hamma narsadan) [illegible] fikrlariga ergashish eng sazovar va avlo (ish)dir», – dedi. Natijada Sulton Husayn Ollohdod ra'yidan yurib, uning (ra'yini) o'z fikr [illegible] ishlarida bayroq qilib oldi. Natijada, Sulton Husayn hech ikkilanmas[illegible] dan unga ergashib: «Men uning orqasidan boraman», – dedi.

**Sulton Husaynning amirlardan ahdu paymon olishi va ularni o'z huzurida kishanda tutib, Xalil Sultonga qarshi yurishi bayoni**

Keyin Sulton Husayn amirlarni hozir qilib – ular esa uning qudrat qabzida asir bo'lib, ularga mansub kishilardan har biri o'z tomoniga qarab yuz qo'ygan va (amirlardan) har birining uyiga xabar berilib ular ustiga yig'lovchi xotinlar va (o'limga) aza tutuvchilar (azaga) turgan edi – shodligi-yu g'amginligida o'zi bilan birga bo'lib, Xalil Sultonga qarshi bo'lishlarini ta'kidlab, ularni kishan-u qasamlar zanjirlari bilan mustahkam bog'ladi. Shunda ulardan har biri kishanga oyog'ini, qasamga qo'lini cho'zgan holda u ixtiyor qilgan (narsa)ga ahd qilib, uning uchun o'z jonini, ahlini, mol-dunyosi-yu bolalarini fido qilishga va'da berdi. Qachonki Sulton Husayn ularning sado[illegible] qatiga ta'kid hosil qilgach, ishonch bilan (endi) amirlardan yomon[illegible] lik kelishini (o'zidan) ketkizdi. U amirlarni bandda tutgan holda Samarqandni ko'zlab orqasiga qaytdi va o'zining (bu) harakatining asta-sekin emaklab, yuqorilab ketganini, endi uni o'zi bilan kura[illegible] shishga hozirlik ko'rishini; mana o'zini Jayxunni kechib (qirg'oqda) chiqqanini; tog'asi mulkidan u ham o'z hissasining talabgori (ekani[illegible] ni) va taxtdan o'z o'rnini olish uchun u bilan raqobatga bel bog'la[illegible] ganini xabar qilib, Xalil Sultonga elchi yubordi.





**Sulton Husayn muloqoti uchun Xalil Sultonning o'z qo'shin toifalari bilan Samarqaiddan chiqishi va Sulton Husaynning o'z murodidan hech narsaga erisholmay quruq o'zi qaytishi[1161] bayoni**

Natijada, Xalil Sulton, Sulton Husaynga qarshi tayyorgarlik ko'rib, tez fursat ichida Samarqanddan uning istiqboliga chiqdi. Keyin Sulton Husayn Ollohdodning va u bilan birga «zanjirlarda kishanlangan»[1162] shaytonlarni huzuriga keltirib, ularga o'z ahdlarini (qaytadan) takrorlatib, ahdu paymon qaydlarini mustahkamladi va ulardan har birini o'z o'rniga qo'yib, ijozat berib, undan o'z bandini yechdi. Ulardan har biriga xil'at kiygizib, hadya taqdim qildi va uning «haqiqati» va «majozi» haramiga ehtirom ko'rsatdi. Shuningdek, o'z in'omlari bilan ularga mansub (odam)larga ham muruvvat armug'on qildi va ular bilan birga to Kesh shahriga yetib kelguncha yurdi. Bu (ish)dan bir muddat oldin Ollohdod Xalil Sultonga xat yuborib, ushbu tashvishning voqe bo'lishini, o'zlari ustiga Sulton Husayn yomonliklaridan qanday mojarolar bo'lib, nima bilan tugaganini xabar qilib, unga:

«Sening foling saodatli, ishing maqtovlidir. Idrokli fikring, o'tkir azming, metindek yuraging bilan (o'rningdan) qo'zg'ol, chunki raqibing (tayyor) ov bo'lib, uzoqmas, yaqin kunda tangri taolo seni (uning ustidan) zafarga muyassar ko'radi. «Firibgarning firibidan»[1163] qo'rqma, agar sen (oldin) yosh (bola) bo'lsang, endi yigit bo'lib, odamlar qalblaridagi zavq-shavqlar sening muhabbating nasimlari bilan yoshardi. Endi sen saltanat shayxi bo'lib, barcha xalq sening muridingdir» – degandi.

Keyin Xalil Sulton (aka) o'sha joyga (Keshga) yetib keldi. Sulton Husayn esa qo'shinini safarbar etib o'z kaltafahmligi va yengiltakligini (yana) namoyish qilib, Ollohdodni o'ng (qanot)ga, rafiqlarini chap (qanot)ga qo'ydi. Qachonki ikki lashkar ro'para bo'lib, qo'shinlar bir-biriga yaqinlashib, ularga haqiqat haq bo'lib, tor yo'llar to'silgach va sheru quzg'unlar bir-biriga tashlangach, o'lardan har biri o'z joyidan shoshilib Ollohdod va uning tengqurlari Xalil Sulton askarlari tomon yo'l oldi[1164]. Shunda Sulton Husayn askarlari sarosimaga

tushib, uning izzat libosi shilib olindi va o'z gumonlaridan (faqat) ... midlik va aldanish kiyimiga o'ranib, yalang'och holda qoldi. ... maganda uning ustiga (shunday) bir balo keldiki, bu unga o'z o'li... unuttirdi. Natijada, u quruq o'zi qaytib, uchragan sahro to'siqla... o'tib, nihoyat Hirot sohibi, tog'asining o'g'li Shohruh huzuriga k... di. Lekin uning huzurida uzoq muddat turish nasib bo'lmadi. Y... Shohruh unga zahar ichirib uldirdi, yoinki uning huzurida u o'z ... bilan o'ldi[1165].

Bu Sulton Husayn bilan oxirgi uchrashuv bo'lib, Xalil Sulton ... poytaxtiga dili xushnud holda qaytdi.

**Pirmuhammad niyat qilganidan voqe bo'lgan g'am-u shodlik tamomi; qanday qilib bu (niyat) uni zahmat-u g'ussaga olib kelib, keyin uni qulatgani**

Shuningdek, Pirmuhammad ham o'z xurujida qaysarlik qil... (mulk) talabi bo'stoni va chamanzorida miriqib o'tlashni davom e... tirdi.

Ular ikkovlari (Xalil Sulton va Pirmuhammad) o'rtasida munos... darslari takrorlanib, gap-so'zlar cho'zilgandan keyin, ular masalala... munozala manzillariga tushib, muqobala va muqotala burjlari... qo'nishlariga tahrir topdi.

Pirmuhammad devoni ishlarining mutavalliysi, mulki va saltana... ti qoidalarining asoschisi Pir Ali Toz degan shaxs edi. U podshohli... eshigi haqiqatining homiysi, majozining posboni bo'lib, Pirmuham... mad mamlakati vodiylarining markazi, doirasi samosining qutbi, um... mati ulamolarining muqtadosi, askarlarining oldingi va keyingi (qo... not)larining quvvati edi. Keyin u Qandahor askarlaridan har bir tog'ni jo'natdiki, agar (ular) azim tog'ga hamla qilsalar ham uni yakson qilardi. U qilichdan ham kesgir azm, nayzadan ham o'tkir jazm bilan bu o'shqirgan ummon, suronli sel va to'xtovsiz quyayotgan bulutning rahbari sifatida otlanib, nihoyat Jayhunga yetib keldiki, (go'yo) ular dan daryo oqimi to'xtab qoldi. Keyin u (Pir Ali Toz) ushbu suronli dengizga, daryo girdobiga sho'ng'ib, to'lqinlar to'dalari bilan bel... lashishlarini amr qildi. Shunda (go'yo) tangri «ikki dengizni bir-biri... ga aralashtirib tashladi, bittasi ichish mumkin bo'lgan shirin, mazali





...i, ikkinchisi (esa) g'oyatda achchiq, sho'r suvlidir»[1166]. Keyin ular ...i Isroil (qizil) dengizdan o'tganidek, o'z kemalari bilan daryo to... ...'ini kesib o'tdilar.

Ushbu ulkan toqqa o'xshagan askar (to'dalari) bilan u to Naxshab ...liga langar tashlaguncha yurdi.

**...lil Sulton askarlarining Qandahor qo'shinlarini «sodiq niyat» bilan uchratib, ularni eng dahshatli baloga giriftor qilib mag'lubiyatga uchratishi bayoni**

Xalil Sulton bundan oldin o'z ishini hamishagiday (qilib) saran...lagan va o'zini ezgulik in'om-ehson xushbo'yliklarini (el ustiga) ...kagan va to'xtovsiz keladigan to'lovlar daraxtlari va kirimlar me...laridan Qandahor shaytonlarining muloqotida hozirlanishga yeta...gan miqdorda yig'ib olsin deb, podshohlarni o'z huzuriga chaqir...ib, qat'iyatini oshirgan edi. Natijada, uning da'vatiga xosu avom, ...o'shinlar devlaridan «har bir quruvchi va g'avvos»[1167] «labbay» deb ...avob berdi. Shunda yordamchilar a'yonlaridan har bir itoatkor-u ush...u bo'ston in'om-ehson mevasini tergan har bir ins-u jon jam bo'ldi. Har tomondan ushbu dengizga askar to'dalarining mavjlari keldi. Ular Chig'atoy va Jato boshlari, Turkiston yerlaridan har bir kibrli va mag'rur fir'avn sifatlik Fors, Iroq va Rustamdor suvoriylari, Xuroson, Hind va totor Joni qurboniylari va har xil ishlar tangliklariga qarshi Temur tayyorlab, undan na safar-u na xadarda bir qadam ham arimaydigan har qanday xayrli va yomon ishga hozir turgan (kishi)lar edilar. She'r:

Dahshatli urush tegirmoni aylanib turgandagi
otliqlarki, ular o'limdan qo'rqmaydilar.

Natijada, ularga fathlar kashflari qaytadan ochilib, unga (Xalil Sultonga) kulfat kelganda har bir do'st-u nasihatgo'y «meni tanlab ol», dedi.

Xalil Sulton ular ustiga o'zining cheksiz sovutlarini kiygizdi va ular orzulari qomatlariga o'z in'omi xil'atlaridan ikki barobar ko'p ulashdiki, bamisoli yer ularga o'z xazinalarini ochib, (o'z) kon va ma'danlaridan zohiru yashirin boyliklarini ular ustiga to'kdi. Natija-

da, ulardan har bir piyodayu suvoriy o‘sha nafisliklardan o‘zi ko‘rgan ziynatlarga bezanib, jilvalanib, o‘z husndor surati bilan dada turgan go‘zal kelinchaklarga iltifotsizlik qilardi. Yurganlari ular nafaslaridan g‘alaba nasimi anqigan, zafar jilolari ular lari nurlaridan yashnagan (Qur’on) Fotiha surasi najoh va g‘alaba eshiklarini yuzlariga ochgan bo‘lib, shu bosh(liq) ular bilan davom etib, Qarshi etagiga kelib to‘xtamaguncha yuraverdi. U (Qarshi) zikr qilib o‘tilgan shahar bo‘lib, ushbu tangri yor bo‘lgan askar (shu joyda) qaror topdilar. Bu (voqea) 808-yil ramazon oyining da, (1406-yil 20-fevral) yakshanba kunida (bo‘lgan) edi. Keyin ikki dengizning har biri tun og‘ushiga kirdi. Ulardan har qaysisi etagini shimargan, (o‘z) selini parchalanib tarqalishidan tiyib, lari-yu otlarini g‘ayrilardan qo‘riqlab, benihoya sinchkovlik bilan zatuvida bo‘lib, tong otguncha tunni (uxlamay) o‘tkazdi, dedim:

Ko‘kimtir (mag‘zava) pardasidan suv mavji ko‘ringandek,
kecha qorong‘ilig‘ida ziyo nuri ko‘ringuncha ular tongni ottirdi.

Qachonki fajr kumushsimon shamshirini yalang‘ochlab, (rang) qalqonini ko‘rsatib, borliq lavhasi ustiga kecha qoralovchisi naqshi tutuni (bug‘i)dan yog‘dirganini surtgach, o‘sha tog‘lardan biri to‘qnashuvga tayyorlanib, ushbu qabilalar qalbida hamiyat olovi qizishib, alangalana boshladi. Shunda ulardan har qaysisi o‘z askari o‘ng-u chapga, orqayu oldinga (tartiblab) safga tortdi. So‘ngra ular bir-birlariga yaqinlashib, bir-birlariga laqab qo‘ydilar, (bir-birlariga) yordam berib, g‘amxo‘rlik qildilar, bir-birlariga suyandilar, bir-birlariga qo‘shiq aytdilar, bir-birlariga ro‘para bo‘lib, talpindilar; chang to‘zon zulmati nayzalar uchlariga ko‘tarilib, ular peshin namozi vaqtida tungi yulduzlarni ko‘rdilar. Shu jang g‘ubori ichida har bir soydan sel buloqlari oqdi. Keyin uning yarmida «Kandahor tog‘i yiqildi» (degan ibora ustidan) g‘ubor ketdi[1168] va u kiborlarning baxti (orzusi) puchga chiqdi, ular ustiga mag‘lubiyat g‘ubori yog‘ilib, yengilish xabari sayr qildi.

Halil Sultonning shuhrati har tarafga tarqalib, ufqlarga uning g‘alabasi (xabari) yoyildi. Pirmuhammad esa boshida zavollik dengizi chayqalgan, qalbida halokat olovi uchqun olgan holda orqasini o‘gi-





(shunday) qochdiki, go‘yo uning qalbida gado va g‘or (da-raxti) cho‘g‘i chuqur o‘rnashib, jigarida «marx» va «ifor»ning[1169] alangasi olovi jo‘sh urdi.

Pirmuhammadning odamlari yer tishlab, botirlari yanchildi, uning qimmatbaho boyliklari talandi, hol-ahvoli o‘zgarib, haramiyu qullari asira olindi; (uning) meros olganu uzi kasib etgan mol-dunyolari shi-... O‘zi esa qochish etaklariga yopishib olib, o‘zining eson-omon qaytishini yarim g‘animat bildi, go‘yo aytilgandek:

Eson-omon qaytishing yarim g‘animat,[1170]
(chunki) barcha ulja sog‘lom tandadir.

Xalil Sulton (orqaga) qaytdi, – undan (butun) borlig-u makon nurlanib, ravshan bo‘lgan, davlatining dong‘i ketib, savlati har tomonga tarqalgan edi. U (barcha) mulklar egasi tangriga shukrona qilib, Jigdalik[1171] deb ataladigan bir joyda ramazon ro‘zasini tamomiga yetkazdi.

### Iroq askarnning Xalil Sultonga qarshi chiqishi va xurujda jidd-u jahd ko‘rsatib, o‘z vatanlariga yo‘l olishi bayoni

Keyin shavvol (oyi)ning boshlari (1406-yil 22-mart) dushanba kechasi iroqliklardan boshliqlaru botirlar o‘z xotin-xalajlari va tobelari, bolalari va guruhlari bilan (Samarqanddan) chiqdilar[1172].

Boshchilari Hoji Poshsha deb ataladigan kishi bo‘lib, ular uning amri ostida u qanday xohlasa, shunday yurardilar, Ular (iroqliklar) savlatli va javlon uradigan (odamlar) bo‘lib, Sulton Ahmad Bag‘dodiyning pushti kamaridan bo‘lgan o‘g‘li Sulton Alouddavla ularga hamroh edi. U Temur asoratiga tushgan bo‘lib[1173], Temur uni o‘z ofatiyu kulfati hibsiga solgandi. So‘ngra Xalil Sulton uni ozod etib, o‘z huzurida martabayu makonga ega qilgandi. Qachonki odamlar (ramazon) hayiti ishlari bilan mashg‘ul bo‘lib turganlarida ushbu botirlar (Xalil Sultonga itoatdan) qo‘llarini tortdilar: aftidan, ular oralarida oldindan bu xususda ittifoq voqe bo‘lgan. Natijada, ular tun qanoti ostida chiqib, Iroq kelinchaklari tomon etaklarini shimarib, Movarounnahrning (pardali) xotinlarini taloq qildilar va ulardan butunlay yuz o‘girdilar. Chunki ular Iroq poytaxti o‘z asoschisining (ba-

jonidil) qabul qilganini va uning saltanati anhorlari suvlari o'z o... yo'llariga (avvalgidek) qaytganini eshitgandilar[1174]. Biron ki... ularning oldini to'smadi, orqasidan ham bormadi hamda yurishdan... ularning oyoqlari-yu qo'llarini bog'lashga qudrati ham yetma... Ular Jayhunni kechib o'tib, Xurosonga yetib keldilar. Yo'l-yo'laka... ular tovushini eshitgan har kimsa ularga aks sado berdi (qo'shildi)... So'ngra esa o'rtalarida ittifoq yo'qligidan ularning nizomlari tar... lib, natijada ular Iroqlariga yetmasdanoq turli tomonlarga bo'linib... to'zib ketdilar[1176]. Eron qayoqda-yu Turon qayoqda? Qani Dajla-yu qani Jayxun? Xalil Sulton Jigdolikda (ramazon) hayitini nishonla... o'z Vatani (Samarqand)ga qaytishga ishorat qildi.

## Mag'lubiyatidan so'ng o'z Qandahoriga yetgandan keyin Pirmuhammad qilgan ishlari bayoni

Pirmuhammad Qandahorga yetib, o'z taxtida qaror topgach, uning ishlari saronjomlanib, qasrlari atrofida lochinlari uchgach, hamda askar sayyoralaridan o'z navbati bilan to'lin oylari aylangach, uning harorati va jazirama olovi alangalanib, uchqunlari-yu cho'g'lari har tarafga sochiladi. Natijada, uyqusi qochib, oromi buzildi, qalbi g'am-g'ussa taassufi bilan kuyib-yonib, pora-pora bo'ldi, g'azabidan terisi yirtilib parchalandi.

Pirmuhammad hamoqatli va layoqatsiz (kishi) edi. So'ngra u (o'z) farmonlari qanotlarini (o'z) iqlimlari ahllari tomon uchirdi va har bir sodiq do'sti va to'g'ri suhbatdoshini Xalil (Sulton)ga qarshi qo'zg'adi. O'zining qalbi jarohati uchun har bir ta'na va zarba (dan) jarohatlangandan va har bir qalbi yaralangan-u sog'lomidan (ularni tabib bilib) davo izladi. Shunda ular uning da'vatiga itoat bilan «labbay» deb, nidosiga tinglash va bo'ysunish bilan javob berdilar. Keyin vodiylar va tog'lar otlaru odamlar bilan oqdi. Pirmuhammad Xalil Sultonga elchi bilan quyidagi mazmunda xat yuborib:

– «Bizning avvalgi to'qnashuvimiz behosdan bo'lib, u tugab o'tib ketdi, go'yo u bir uchqun ediki, o'chirish yengil fahmlandi-yu, lekin u alangalanib (lovullab) ketdi. Agar men o'zim yuz o'girgan (narsam)ga istiqbol qilsam, haqir hisoblangan narsamdan hazar qilib, arzimas deb bilgan (narsam)ni katta bilsam, unda men albatta





...olib chiqib, mag'lub bo'lmasdim va murodu maqsadimga so'zsiz ...shib, qoqilmasdim. Lekin men azmu jazmimni bo'shatib, oqibat... ...moyishtalikdan mahrum bo'ldim; sening ishingga barmoq uchi... ...qarab, natijada nodomatdan qo'limni tishladim. Shu bilan birga, ...shining salobati, beling va bilaging quvvati, yoylaring asilligi, ...ading kelganligi, g'azabing o'tkirligi, idrokingning nayzadekli... ...qilichingning tezligi, tig'ingning shiddatliligi (bular hammasi) ...chonki iroqliklar boshlarini sen bilan bo'lib, o'rtalaringda itti... ...q mavjudligidan edi. Biroq endi (esa) ulardan senga nifoq tush... ...i, noittifoqchilik hosil bo'lib, o'rtalaringda yiroqlig-u tarqoqlik ...hir bo'ldi. Shu tufayli sening jigaring pora-pora bo'lib, fikring ...a qo'shiningga xalallik yetdi. Mana (endi) men boshqacha jidd-u ...hd, o'tkir tig' va qilich bilan sening ustinga keldim. Endi muloqot... ...a tayyorlik ko'rib, bu dunyodan ketishingni muqarrar bil! Chunki, ...rush, o'zing bilganingdek, bu galma-gal keladigan bir omaddir. Kecha seni bizdan g'olib qilgan bo'lsa, ertaga bizni sendan g'olib qiladi», – deb yozdi.

## Pirmuhammadning Xalil Sulton bilan to'qnashuvga ikkinchi marta otlanishi; (shunda) to'xtovsiz hujumdan unga nima bo'lgani va birinchi galdagidek orqasini o'girib qochishi bayoni

Keyin Pirmuhammad o'sha qo'shin va yordamchilar bilan yo'lga chiqib, Jayxunni kechib o'tdi va Hisori Shodmon deb ataladigan joyga yetib keldi. Shunda Xalil Sulton unga qarshi otlandiki, u bilan piyoda va suvoriylar, askar chigirtkalari, bitlari va qurbaqalaridan qondan tufon bo'lib oqadigan (behisob) darajada bor edi. U ana shu (qo'shin) tog'lari va dengizlari bilan qo'zg'alib, ular ichida go'yo bosh misoli bo'lib, tunda ham yurib, nihoyat Qandahor qo'shinlariga yetib keldi. Avval zikr qilinganidek, Qandahor askarlari ichaklarining piliklari Xalil olovi xavfidan uchqun olib, alanga chiqargan edi. Natijada, ular ilon chaqqan kishilardek bo'ldilar, chunonchi ilon chaqqan kishi (yotgan) arqopdan qo'rqadi. Shu sababli karnay chalinishi va nog'ora uri- lishidan oldin «ular guruhlaridan to'da-to'da (ajralib) qochishga

boshladi»[1177] va bir-birlariga: «Qiyomat qoyim bo'ldi, Allohdan ... qa uni daf qiluvchi yo'q»[1178], – deb nido qildilar.

Pirmuhammad (joy bo'shatish xil'atini kiyib, bu bilan (ham) ... qilib turmadi va sug'urilish qal'asiga kirishga moyil bo'ldi. U ... vozalarga posbon qo'yib, devorlarni mustahkamladi va Hisori ... monda hisorga tayyorlandi. Uning chor atrofini jarohatlantiruvchi ... sindiruvchi askarlar o'rab oldi. Uning atrofida Yafis[1179] bolalari ... har bir (qomati) balandi va himoya qiluvchisi[1180] uni doira qilib ... tirib oldi. Ulardan har bir ta'na va zarba beruvchi-yu o'q otuvchi ... muhosarada jiddiyat ko'rsatadi. Shunda Pirmuhammad bu ... o'zi ko'zda tutgan va ishongan (umid)idan nadomat chekib, ... Xoja Abdulavval aytganini esladi.

Lekin u qazo va qadarni ro'kach qilib, o'zini ma'zur topdi. ... jada, qazo uni shunday bir javob o'qi bilan otib, uning haqiga ... va to'g'ri ish qilib, dedi:

> Fikri ojiz o'z fursatini yo'qotguvchidir,
> Hatto uni qo'ldan chiqargach taqdirini koyiydi.

Uni butun fikriyu foli teskari natija berib, har bir ishi va holi ... unga qarshi o'zgardi. Ixtiyorida bo'lgan mol-u mulk undan yuz o'gi... rib ketdi; har qanday himoyachi va savlatliga qarshi jang uchun shid... datli o't ochadigan har bir haqiqiy sher undan uzoqlashdi. Tadbirining yomonligidan undan har bir yaqin kishisi – chunonchi, unga har bi... sarob va jilvador yolg'on va'dalarni berganligi sababli – undan yuz o'girdi. Tadbiri darzlari uning tafkiri dastgohiga binoan shabnam va et parchasi kabi tilka-pora bo'lib yirtilib ketdi. Natijada, Pirmuham... madga xudodan boshqa madad beruvchi biron kimsa qolmadi.

## Pirmuhammad ishlatgan bir hiyla bayoni: yaramasligi va foydasizligi sababli ushbu (hiyla)ning uning o'ziga qaytishi

Pirmuhammadda (yetarli) kuch-quvvat bo'lmagach, u makr-hiyla ishlatishga kirishdi. U turli-tuman bo'yoqlarga bo'yalib, yo'l-yo'l chizilgan toza (yaxshi) oshlangan terilardan bir qanchasini keltirib, ularni kesdirib, har bir xatarga qarshi (kiyiladigan) kiyim misoli bich-





... Ularning ustiga sayqallangan oynalar va yarqiratib ishlangan ... buyumlarni yopishtirib o'rnatdi hamda kishini chalg'itadigan ... keltirib, mixlar bilan mustahkamladi. Keyin o'z shahri sayoq ...laridan ko'pchilik olomonni hozirlatib, qora xalq va nodon... to'dalari adadlarini ko'paytirdi. Keyin bu yaltiroq buyumlar va ...larni hozir qilib, ushbu teridan ishlangan (narsa)larni o'sha (olo...) boshlari va orqalariga (afzallariga) tarqatdi. Quyosh (chiqib) ...rilgan damda ular devorlarga ko'tarilardilar va ustlariga ushbu ... «sovutlarni» kiyib, ushbu «sherlar» shahar tashqarisiga chiqar... Agar biron kishi uzoqdan qarasa, ularni (mard) kishilar deb ...nlab, (shunchaki) bayramda otiladigan o'q ekanliklarini bilmas... Mabodo sarob kabi tovlanib, fazoni to'ldirib turgan bu chang va ...yunni ko'rsa, tashna kishi uni suv deb gumon qilardi[1181].

Pirmuhammad (bu) shiddatu tanglikka qarshi kuch va qudrat ko'rsatmoqchi bo'lib, shu alfozda bir muddat davom etdi. Bu oshkora ...makrga uni undagan kishi Pirmuhammad mamlakatining bosh vaziri, ya'ni Pir Ali (Toz) edi. Vaholanki, bu hiyla unga foyda keltirmay, ...yaramas fikri-yu xatarli vasvasasi uning o'ziga zarar qildi. Uning ...siri oshkora bo'lib, sitrasi yirtildi. Natijada, u kuch-quvvatini yo'qo...tib, majolsiz, qudratsiz qoldi. Adadi-yu aslahasini kamaytirish bilan ko'mak bergan zamon unga g'am-u kulfatni ziyoda qildi.

## Pirmuhammad o'z nohaqligini e'tirof etishi va Xalil Sultondan sulh so'rab, u bilan murosa qilishi bayoni

Kekin Pirmuhammad tavba-tazarru bisotini yoyib, (Xalil Sultondan) shafoat so'rash vositalarini izladi va tangri hukmidan o'ziga rahm qiluvchi (tangri)dan bo'lak saqlovchi yo'qligini[1182] bildi. Tangri va qarindoshlikni o'rtaga qo'yib, Xalil Sultonga yolvordi va men aytgan bayt ma'nosini aytdi:

> Karim kishi ato qiladi, atosi unga malol kelmaydi,
> Agar zamon qancha cho'zilsa ham yaxshilik qolaveradi.

Natijada, Xalil Sulton uning tilagiga rozi bo'lib, ikki tarafdan ham ahdu paymon ittifoqi ta'kidlandi: «ulardan biri ikkinchisining yeri-

ga ko'z tikmaydi, agarki tangri-taolo ulardan birovining martabasini oshirsa, ikkinchisi uni quyi tushirishga harakat qilmaydi va (aksincha), qo'lida bor mulklarni unga topshirib, do'stlik va sadoqatda ha-qachon davom etaveradi». Keyin ular bir-birovlariga xilof yurmaslikka qasamyod qilib, bir-birlari bilan muvofiq bo'lishda bitim tuzdilar va bir-birlari bilan sadoqatli bo'lish uchun sidq-u dildan ahdlashib, bir-birlariga rafiq bo'lishlikka kelishib ajraldilar va (bir-birlariga) munofiqlik qilmaslikka muvofiq bo'ldilar. Ular nasab yaqinligi va zimmaga olganga amal qilib, qarindoshlik va hurmatni saqlashga (qat'iy) rioya qildilar. Ulardan har qaysisi o'zi bilan birga guruhlarini olib, tezda o'z sohibidan yiroqlashdi. Bu (voqea) 809 (1406–1407)-yilda (bo'lgan) edi.

**Pir Ali va Pirmuhammad o'rtasida voqe bo'lgan muxolifat va adolatning ular ikkisidan ham hayot libosini yechib, muxoliflariga orom berishi bayoni**

Pirmuhammad o'z Vataniga yetib kelib, raiyalari va xizmatkorlari o'rtasida qaror topgach, unga qarshi Pir Ali Toz xuruj qilib, mustaqil mulk da'vo qilib, ajralib ketdi. So'ngra u Pirmuhammadni tutib olib, uni kishanga soldi. Keyin uni xo'rlab, yer parchin qildi[1183] hamda saltanat to'kib, javlon urib, shunday deb xitob qildi: «(Bu) dunyo ishlari beqaror, «qiyomat shartlari»[1184] yaqindir. Bu (dunyo) dajjollar davlati bo'lib, yoki unda aldovchi va hiylakorlar g'olib bo'ladi; (Mana) Temur o'tdi, u cho'loq dajjol edi. Bu zamon (esa) kal dajjol zamonidir. Bundan keyin g'ilay ko'z dajjol keladi. Agar biror kishi saltanat eshigini taqillatishdan hayiqqan bo'lsa, men (uni) taqillataman».

Bosh va dumlardan (katta-kichiklardan) birontasi ham uning savoliga javob qilmay, uning ko'zini shodlantirib, qalbiga orom beradigan biron (ma'qul) narsa deyishmadi. Chunki bu mahzur savdoga qo'l urishini unga muhob biluvchi kishi yo'q bo'lib, mulk (egallash) qimorida ushbu manfurga «manih» va «safih»[1185] o'qlaridan boshqa hech narsa bo'lmadi. Keyin u Balx yerlari egalarini tazarru bilan qo'rqib-pisib (o'z yoniga) da'vat etdi. Shunda ulardan har qaysisi unga qoziq tishini iljaytirib ko'rsatdi va bu iflos luqmani har kim o'z tomoniga qaratib tortdiki, unda na qaroru, na sabot qoldi. So'ngra Pir





Ali Hirot sohibi (Shohruh)ga qarab qo'lini cho'zib, oyog'ini uzatdi. U o'z sayd to'rlariga tushgan zahotiyoq, Hirot sohibi uni tutib olib, unga qasos hukmlarini joriy qildi. Natijada Qandahor yerlari hech bir raqibsiz va ziyonkorsiz sof uning o'ziniki bo'lib qoldi[1186]. Xalil Sulton ham dilozorlig-u zararlardan orom topdi.

**Xalil Sulton g'oyibligida zamon hodisalaridan voqe bo'lgan ishlar bayoni**

Shu yil (1407-yil) Rum totorlari bosh ko'tarib, azm-u qaror bilan oyoqda Xorazm tomondan muzlagan Jayxunni kechib o'tdilar va o'z yerlari tomon yo'l oldilar. Shunda ularni to'zitib, qirg'in solgan kishilar har tomondan mutasaddi bo'ldilar. Natijada, Iroq askarlari o'rtasida hosil bo'lgan noittifoqchilik ular o'rtasida ham hosil bo'ldi. Shuningdek, Xalil Sulton g'oyib bo'lib, u bu uzoq safar bilan mashg'ul bo'lib turgan vaqtida Xudoydod va Shayx Nuruddin fursatni g'animat bilib, xotirjamlik bilan Samarqandga qarab yuzlandilar. Ular shaharga qasovat ko'rsatib, uning atrofidagi joylarni g'orat qildilar. Shahar (ahli) ulardan o'zini qo'riqlab, ularga mensimay, kibrona qaradi. Natijada, ular shahar xorijini talagach, orqalariga qaytib, o'z yerlariga qarab burilib ketdilar.

**Xalil Sultonning qo'shin to'plab Shayx Nuruddin va Xudoydodga qarab yuzlanishi bayoni**

Xalil Sulton Samarqandga qaytgach, askar va qo'shin toifalariga dam berdi. Keyin o'z sohiblarini chaqirib, (otlari) tizginini ular ikkovlari (Shayx Nuruddin va Xudoydod) tomon yo'naltirdi hamda o'z yordamchi va talablarini muhayyo etdi. U yonib turgan ushbu qabilalar, azamat sherlar, o'ynoqlagan otlar bilan yurdi. Bu tayanchli tog' goh harakat, goh sukunatda davom etib, nihoyat Sayxunga yetdi. Qachonki ushbu tog'[1187] va nurlik olov Sayxun daryosidan o'ta boshlaganda bamisoli «toshayotgan dengiz»[1188] kabi bo'ldi. Shu orada Xalil Sultonga Shohruxiya va Xo'jand bo'ysunib, Toshkand undan o'zini himoya qildi. U Toshkand hisoriga otlanib, uning toshlarini vayron etishga azm etdi. Bir muddat uni hisor etib, shaharga ochlik va shid-

dat kiyimlarini kiygizgach, shahar (ahli) omonlik tilashga iltijo qilib iz'on jilovini unga tutqazdi. Ular so'rog'iga Xalil Sulton rozi bo'lib sulh bilan shahar holini tuzatdi. Keyin esa Shayx Nuruddin va Xudoydodni (er bilan) yaksonlash talabida ularning iziga tushdi.

### Shayx Nuruddin va Xudoydodning Xalil (Sulton)ni kuydirish uchun olov yoqishi; Tangri taolo u (olov)ni o'chirib, Xalilni saqlagani bayoni

Xudoydod va Shayx Nuruddin majol yetmaydigan (orzu) umidida tentirashar va «zora» «koshki edi» ma'nolarida nahbu g'orat fursatlarini poylardilar. Shu payt Xalil Sulton ular orqasidan yo'lga tushib, (ularni) uchratishni istadi. Ular esa ko'rinadigan va (gapi) eshitiladigan masofada yurib, unga nisbatan orzu umid va ta'magirlik joylarida qo'nardilar. Xalil Sulton esa har bir manzilda ularni ta'qib qilib, ular yursalar, orqasidan yurar, (qo'nsalar) ko'nardi. Xalil Sulton o'z askarlariga tayangan va o'z g'alaba-yu zafarining kelishiga to'la ishonib, go'yo kechalarning birida u ehtiyotkorlikdan g'aflatda qoldi. Xalil qo'shini ichida ularni faqat ishi zimdan kuzatib josuslik qiluvchi kishisi bo'lar edi. So'ngra go'moni uni (Xalil Sultonni) umidsiz qilib, xiyonat qildi va u o'z qo'shinidan ilgarilab ketib, Sharopxona deb ataladigan bir joy yonida to'xtadi. Shunda ular (ikkalasi)ning josusi Xalil Sultonning bu (qilgan) ishi haqida ularga uchib borib xabar berdi. Natijada, ular (ikkovlari) sel kabi kelib, tun og'ushida Xalil Sulton ustiga yopirildilar. Xalil askarlaridan bir jamoa ularga qarshi chiqib[1189] go'yoki shu damda qiyomat qoyim (zohir) bo'ldi. Keyin ular Xalil Sultonni qoldirib, (orqalariga) qaytdilar, unga chap berib[1190] qochib, cho'l-u biyobonda to'zib ketdilarki, (Xalil) Sulton bu haromilarni qayerdan ham to'tsin? Keyin Xalil Sulton ularni izlash jilovini tortdi va sog'-salomat o'z diyoriga ravona bo'lib, orqasiga qaytdi[1191].

### Shayx Nuruddinning Xudoydoddan ajralishi va o'sha yerlarni taqsimlab olishlari bayoni

Xudoydod va Shayx Nuruddin o'rtasidagi mehr-muhabbat go'yo loydan yasalgan ko'zadek[1192] ular o'rtasidagi sadoqat negizi esa vuju-





di asosi qoya labiga qurilgan bino kabi yemirilgan»ligidan[1193] (o'rtalarida) ixtilof chiqib, kelisha olmadilar. Har biri judolik darzini o'zi tomon tortib, ular oldi-sotdilarida nifoq buyumlari chaqqon savdo bo'ldi. (Bu borada) «kim afsungar ekanligini (ulardan) hech biri bilmadi va bu, firoqlik deb gumon qildi»[1194]. Natijada, Shayx Nuruddin Sig'noqga tomon qaytib, o'sha tevarak-atroflarga egalik qildi.

### Shayx Nuruddinning uzr so'rashga tutinishi va Xalil Sulton huzurida yuz bergan ishlardan o'zini oqlashi bayoni

Keyin Shayx Nuruddin Xalil Sultonga xat-xabar yuborib, o'zi (tomoni)dan sodir bo'lgan isyon uchun uzr so'radi va u keltirgan yomonlikni yaxshilik bilan qarshi olishini, hamishagidek unga o'z in'om-ehsoni muruvvatlariii qaytarishini so'radi. Shunda Xalil Sulton uning tilagiga rozi bo'lib, uning jismi qabohatiga unutish etagini yopdi hamda bobosi (Temur)ning xotini Tumanni unga yubordi.

### Bo'lim

Toki Xalil Sulton tuzoqqa tushib, Samarqand mulki xolis Shohruxniki bo'lib qolmaguncha Shayx Nuruddin inoqlikda davom etib, tarqoqlik uyini yaksonlab, do'stlik halqasini bo'yniga solib turishda davom etdi. Shunda Shoh Malik zohiran sulh, botinan nifoqni o'ylagan holda Shayx Nuruddinga tomon ravona bo'ldi. Ikkovlari ahdu paymonni mahkamlab, o'rtalarida ittifoq voqe bo'lgach, hamda salom-alik qilinib, apoq-chapoq bo'lishgach, otliqlar bir-birlari bilan ko'rishib, ular bir-birlariga zavqu shavqlarini ochishi uchun Shoh Malik makr bilan Shayx Nuruddinni Sig'noq qal'asidan (pastga) tushishini so'radi. Shoh Malik jamoasi (ichi)da Arg'udoq deb ataladigan bir kishi bor edi. Keyin Shoh Malik o'z jamoasi bilan (qal'aga) yaqin kelgach, Shayx Nuruddin undan pastga tushdi. Shoh Malik yolg'iz o'zi hech bir odamsizu qurolsiz (unga) borib, ushbu mag'rur kishi bilan quchoqlashib ko'rishdi va uning g'oyibligida o'z boshiga qanday shodligu g'amliklar kelganligini xabar berdi. Keyin Shoh Malik unga o'z ahd-u paymonini (qaytadan) ta'kidladi va har qaysilari bir-birlariga bundan keyin nima qilishini maslahat qildi. Keyin Shoh Malik u bilan xayrlashib, qaytib borib, o'z jamoasiga qo'shilib turdi. Uning jamoasi-

ixtiyorlari bilan o'sha ko'chib ketganlar ketidan ergashtirdi. Sh... Ollohdod ulardan har bir katta-yu kichikning ahvoliga loyiq (... ni ulashib, o'z amrlari taqozosiga ko'ra (ular) ishlari qoidalarini ... toptirdi. Keyin u o'z qo'shinboshlarini to'plab, Samarqandga qa... qaytdi.

## Xalil Sulton kirishgan (ish)ga muqobala tarzda Xuroson tomondan Shohrux qilgan harakat bayoni

Xalil Sulton boshlagan bu ish xabari Shohruxga yetgach, u ha... Xuroson askarlaridan bir toifani otlantirib, ushbu yoyilgan bulut (... soli qo'shin)ga Mizrob[1200] nomli amir amri dengizi orqali madad be... boshladi. U (Mizrob) Temur Damashq qal'asi muhosarasiga bo... liq qilib tayinlangan Jahonshohning birodari edi. Shohrux Xuroso... askarboshilariga Hisn ul-Hunud (Hindlar qo'rg'oni) deb ataladiga... bir qal'ani tuzatishlarini buyurdi[1201]. Bu (Hisn ul-Hunud) Xuroso... yerlarining eng (uzoq) chekkasida bo'lib, u qal'a bilan Termizni Jay... xun daryosi ikkiga ajratib turadi. Natijada, Xuroson askarlari ham Xa... lil Sulton askarlari (ajoyib qilib) ishlagan binoga o'xshatib, bir bin... soldilar. Binolar qurilishi jarayonida Ollohdod va Mizrob o'zaro xat... xabar yozishib bir-birlari bilan sidqidil bo'ldilar, hurmat va ehtirom (vositalari) bilan bog'lanib, sovg'a-salom almashdilar.

## Eron[1202] iqlimlarida sodir bo'lgan hodisa va ushbu to'fonning kelishida oqqan qon sellariga bir ishora

Keyin Sulton Ahmad va Qora Yusuf Iroqqa qaytib[1203] mulk siyo... satida ular (ikkovlari) o'rtasida ittifoq voqe bo'ldi. Sulton Ahmad Bag'dodda qaror topib, Qora Yusuf esa chig'atoyliklar egallagan (yer)larni ulardan xolis qilib olish uchun o'jarlik bilan ular ustiga tashlandi. Shunda fath uning bayroqlariga «yordam tangridan»[1204] oyatlarini namoyon qildi. Ular (askar) toifalarini yakson qilib, Ami... ranshohni qatlga yetkazgandan keyin Qora Yusuf Ozarbayjon yer... larini xolis (o'ziniki) qildi[1205]. Bu voqealar tafsilotida so'z jilovini cho'zishlik bizni istagan asl maqsudimizdan xorij tutadiki, «nihoyat, ular ikkovlari o'rtasida nizo voqe bo'lib, Ozarbayjon va Iroq mushkul ahvolda qoldi. So'ngra Qora Yusuf Bistom[1206] ishorasi bilan Sulton





...madni o'ldirdi[1207]. Bu (voqea) payg'ambar allaihissalom hijratidan ...3 yilning miyonlarida (1410–1411) bo'ldi»[1208]. Ammo Ajam Iroqi ... g'oyatda mustahkam qo'rg'on (misoli) edi. Keyin uning mutaval... ...i Pir Umar[1209] mustaqil podshohlik da'vo qilib chiqqach, unga qarshi ...fandiyor[1210] deb ataladigan (o'z) qarindoshi qo'zg'oldi. Natijada, Pir ...mar bilan jang qilib, uni mag'lubiyatga uchratdi hamda (uni) tutib ...lib, parcha-parcha qildi va mulk da'vosida mustaqil bo'ldi. So'ngra ...nga qarshi Hirot sohibi Shohrux otlanib, uni qo'lga oldi va yakson ...ildi; bu bilan uning ahli-yu avlodlariga qayg'u alam solib, (uning) ...erlarini xolis o'ziniki qilib oldi. Natijada, jami Ajam yerlari xolis Shohruxning (o'zi)niki bo'lib, uning xazinasiga (Ajam) mol-dunyosi, ...iyasi va hosillari hech bir azob uqubatsiz yoki ularni qo'lga kiritish... ...da hech bir charchoq va qulfat sezmasdan oqib kela boshladi. Uning mulki benihoya keng bo'lishiga qaramasdan, biron kimsa yomon... ...lik bilan unga yo'l topa olmadi. Uning qo'shnichiligi yaxshi bo'lib, (zararli) harakati kam edi. Otasi Ajam podshohlarini qatlga yetkazishi bilan undan har qanday[1211] yomonlik moddalarini kesib, urug'ini qu... ...ritgan edi. Natijada, Shohrux balandparvoz (dahshatli) sherlar orasida o'z makonida (o'z o'rnida) barqaror bo'ldi va o'z g'animlarini mav... ...jud do'stlari yordamida tor-mor qilib, o'rnashib oldi. Natijada, davla... ...tining yerlari barqarorlik nabototlari bilan tebranib, rivoj topdi. Go'yo baxt-saodat ko'zlari uni kuzatar va mulk kelinchaklari munojot bilan ushbu she'rni nashida etib, xitob qilardilar:

Yuragingni bizdan o'zgadan pok tutib, biz bilan bo'l,
Bizning dargohimiz har bir (yuragi) pok uchun makondir.
Sabr visolimiz xazinasiga yetish uchun bir tilsim bo'lib,
Bu tilsimga qo'l urgan kishi uning xazinasiga yetishadi.

## Odamlarning qurshovdan chiqishi va o'z vatanlarini qo'msab Movarounnahrdan jo'nashi bayoni

Shu holatlar asnosida (ba'zi) odamlar Samarqanddan tarqalish va to'zishga yuz qo'yib, har bir g'arib o'z Vatanini qo'msadi, o'z kulbasi va oilasini qidirib, ba'zilar ijozat bilan panoh tilab, ba'zilar qochib, hufyona holda (ketish) harakatiga tushdilar. Shom ahli ichidan (Samarqanddan) ketishni istab, ijozat so'raganlarning dastlabgisi shahid vazirn-

ing o‘g‘li Shihobuddin Ahmad bo‘ldi. Keyin arablaru ajamlar [illegible] to‘da-to‘da bo‘linib, sharqu g‘arb taraflarga to‘zib ketdilar. Samarqand[illegible] da qahatchilik va narxu navo qimmatchiligi voqe bo‘lib, odamlar [illegible] sida tillo va kumushdan qadrsiz narsa bo‘lmadi. So‘ngra, shundan [illegible] farovonlik hosil bo‘lib, odamlarda to‘qchilik va orzu havaslar [illegible] bo‘ldi. Zamon yaxshi, omonlik davron surdi, nafrat ko‘tarilib, [illegible] bo‘ldi. Misra: «Tun qanchalik sof bo‘lsa, kudurat shunchalik zohir[illegible]

**Bevafo zamon qanday vayronalik va halokat keltirib, Xalil (Sulton)ni olovga uloqtirishi bayoni**

Xalil Sulton Amir Sayfuddinning xotini Shodmulkka uylan[illegible] edi[1212]. U (xotin)ning ishqi Xalilni (batamom) egallab olgan bo‘l[illegible] go‘yo u shu ishqda asirdek edi. Xalil o‘zining butun vujudi qanot[illegible] bilan unga talpinib, nazari-e’tibori yolg‘iz unga qaragan edi. Un[illegible] muhabbati kundan kunga ziyoda bo‘lib, qissasi Qays (Majnun) [illegible] Layli, Shirin va Farhod[1213] hikoyasini unuttirgan edi. U go‘yo [illegible] she’rda aytilgandek bo‘ldi:

U mening quchog‘imda, baribir nafs unga shovqlanur,
Quchoqlashishdan keyin pasayarmidi?
Sevgim ketsin deb uning og‘zidan o‘paman,
Ammo unga bo‘lgan sevgi yana kuchayadi.
Go‘yo qalbim ikki ruhning birga bo‘lganini,
Ko‘rishga to‘g‘ri yo‘l topa olmaydi.

Bu (ahvol) uning muhabbati Xalil Sulton qalbini butunlay qam[illegible] rab olib, aqlini maftun qilguncha davom etdi. Uning a’zoyi-badanini bog‘lab, yuragiga o‘t tushirdi. Ular go‘yo keng bir ko‘ylak tikib, (uni) ikkovlari kiyardilar va birlashardilar. Natijada, Xalil Sulton xotin tili bilan so‘zlab, xotini esa Xalil Sulton tili bilan so‘zlay boshladi. Ular (ikkovlari) nashida etishib, o‘z hollariga ishora qila boshladilar:

Oshiq mening o‘zim, ma’shuq ham mening o‘zimman,
Bizlar ikkimiz bir tanda joylashgan ikki ruhmiz.
Balki masala aksincha edi. Men dedim:
To u ruhni rabbi ikki tanda yaratgandan beri,
Bu ikkovi puflangan bir ruh bilan tirik edi.





Natijada, Shodmulkning ra’yisiz Xalil Sultondan biron farmon [illegible] bo‘lmay, podshohlik siyosati uning zakosi nurisiz[1214] yorug‘lik [illegible] qoldi. Shunday qilib, Xalil Sulton unga o‘z jilovini topshirib, [illegible] o‘z murodini tobe qildi. Bu (nara) g‘oyatda kam aqllilik [illegible] devonalikdandir. Qanday kilib o‘z (podshohlik) jilovini xotiniga [illegible] podshohning omadi yurishsin?

Uning (Shodmulkning) ilgaridan bir xizmatkori bo‘lib, u na hurlar [illegible]lardanu, na karim kishilar (toifasi)dan bo‘lmay, balki fuqaro-[illegible] quyi tabaqasidan bo‘lib, oldinlari bo‘z va kanop (kiyimlik) sotar [illegible]. U Bobo Tarmish deb atalib, uning ko‘zi shilpiq, yuzi sepkilli, [illegible] qabohatli, xulqi atvori yoqimsiz edi. U Shodmulk zaruratlarini [illegible] etib, Xalil Sulton uning visoliga yetishmasdan oldin ham uning [illegible]uriga kirib turar edi. Qachonki maxdumasi yetishgan (bu) marta-[illegible] yetishib, undan bo‘lak kimsaga nasib bo‘lmagan bu daraja [illegible] nasib etgach, uning xizmatkorlarining ham mavqei oshib, ma-[illegible]larining ham hishmati ziyoda bo‘ldi. Bobo Tarmish Shodmulk naz-[illegible] o‘z hurmatining ortiqligidan istifoda qildi. Zero, maxdumi karo-[illegible] hisobiga xizmatkoriga izzat-ikrom hosil bo‘lur. Natijada, Bobo Tarmish Shodmulk jamoasiga peshvolik qilib, ular ustidan (istagani-[illegible]) siyosat yurgiza boshladi. U Shodmulkning mujolasasida «bular [illegible]unday qavmlarkim, ular o‘z suhbatdoshiga shaqovat ko‘rsatmay-[illegible]», deydigan xil’at (misrasi)ni kiyib yasanib oldi. So‘ngra, uning ishi [illegible]voj topib, Shodmulkning barcha yumushlari gardanida bo‘lib qoldi. Keyinroq u o‘z qadamini mulk asboblari va undan boshqa masalalar xususida xitob yuritishga ham bosdi. Keyin, asta-sekin o‘sib, devon muhokamalarini yechish hamda saltanat masalalari ijrosiga ham ara-lashish darajasigacha ko‘tarildi. Keyin u yanada ko‘tarilib, (voliy) tayin etish va azl qilish huquqiga ega bo‘lib, bu masala hazilsiz[1215], jiddiy tus olib, ana shunda nihoyasiga yetdi. Natijada, Bobo Tarmish mamlakat bosh vaziri (dasturi) bo‘lib, maxdumasining qudrati tufayli shavkatining keskinligidan biron kishi uning so‘zini rad etishga qodir bo‘lmadi. U o‘z ixtiyor qilganicha qo‘liniyu tilini cho‘zdi. Har bir kimsa u buyurib, ko‘rsatgan ishoraga amal qildi. U Ollohdod bilan Arg‘unshohga (ko‘p) nohaqliklar ko‘rsatib ular yechgan (narsa)ni tugib, (ular) tukkan (narsa)ni yecha boshladi. Adabsizlikda shu dara-

jaga borib yetdiki, hatto ular huzurida oyog'ini uzatib o'tirar va ul zarracha ham hurmat vojibini ko'rsatmas edi. Keyin Bobo Tarm o'zining mashvaratisiz bironta ham masalaning hal bo'lishini man di; agar u g'oyib bo'lsa, uning kelishini kutsinlar yoki uning huzu borsinlar (dedi). U yuzaga chiqib, erishgan martabasiga erishgun oradan uch yil chamasi muddat o'tdi[1216]. Chig'atoy shaytonlari (ular) jinlari uning dastidan «xo'rlovchi azobda»[1217] qoldilar. Tarmish darajasining bu o'sishidan Ollohdod va Arg'unshohda beh zahmat-u benihoya tanglik hosil bo'ldi. Ular tahqirlik va intiqom achchiq alamlarini tatib, dardlari (shunday) kuchaydiki, uning lajasidan ojiz bo'ldilar, hamda shu tarzdagi hayotdan ko'ra dunyo o'tib, zavol topishni lazzatli bildilar.

## Ollohdod Xudoydodga yozgan maktubida nimani o'ylab, nimaning tadbirini ko'rgani bayoni

Keyin Ollohdod (bu haqda) o'z fikrini ishlatdi – lekin asosi xato qilib, chuqurga tushdi; (go'yo) u bir qozon (osh) pishirdiki, o'zining ustiga ag'darildi va ipak qurti singari o'z qo'li bilan (o'z) o'limiga to'r to'qidi. Men dedam:

Agar zamon aqlli (kishi)ga akslik qilsa,
Uning ra'yiga yomonni yaxshi qilib ko'rsatadi.
U istamagan xar bir ishni unga marg'ub ko'rsatib,
Odamlar ma'qul bilgan (narsa)ni yaroqsiz sanaydi.

So'ngra ular (ikkovlari) dardu alamlariga taskin izlab, Xudoydod- ga xat yozishdan bo'lak chora topmadilar. Ular (Ollohdod va Arg'un- shoh) bu masala suratini ochiq-oydin ko'rsatib, bu (yaramas) ishni aniq va ravon tarzda unga xabar qildilar va cheksiz orzu umidlar bilan xotirini jam qilgan holda unga o'z askarlari bilan Samarqandga qa- rab yurishni maslahat berdilar. Xudoydod o'sha zahotiyoq qo'zg'olib, o'z qo'shiniyu jamoasi bilan otlandi va chigirtka bolasidek o'rmalab yurib, O'ratepa deb ataladigan joyga yetib keldi. Xalil Sulton bu xa- bardan voqif bo'lgach o'z askarlariyu yordamchilariga chopar yubor- di va Xudoydodning bezbetligidan taajjubga tushib, uning orsiz- ligidan (xudodan) panoh tiladi. So'ngra Xudoydod muloqoti uchun u





llohdod va Arg'unshohni ko'p sonli[1218] qo'shin bilan jo'natdi. Ular udoydodga yaqinlashdilar va (unga) ro'para bo'ldilaru, lekin u bilan uqotala qilmadilar. Keyin Ollohdod va Arg'unshoh, Xalil Sultonga -xabar yuborib, undan madad so'rab, dedilar: «Bu odam (Xudoy- od) qaysarlik, beadablik va telbalikda haddidan oshgan. U o'z qaror- hidan (andak ham) qo'zg'alish tugul, bizning haybatimiz shamoli ning dimog'iga ham dohil qila olmaydi».

Natijada, Xalil Sulton boshqa askarlar yuborib, ularga madad ber- di va (endi) qanday xabar bo'lishini sabrsizlik bilan kuta boshladi. Keyin ular yana xabar yuborib, Xudoydodni o'zlariga aziyat berib, asodni oshirayotganini, o'z g'alvasida Samud va Od (qabilalari) bi- lan raqobat qilayotganini bildirib:

– «Bizga o'zing kelib yordam ber, o'zingning ziyrakliging va shuuring bilan (tezda) yetib kel. Chunki sening haybating quvvatli- roq, qiyofang kuchliroq. Xudoydod, dilida katta bir shumlikni bekitib, ichida qoralikni yashirib, bu surbetlikni qilib, bu yurishga botingan. Qolgan jangchilar bilan (tezda) yetib kel, chunki bu martagi (jang) hal qiluvchi jang bo'ladi», – dedilar.

Natijada, Xalil Sulton biron hodisa ro'y berishidan qalbi orom-u xotirjam, orzu umidlari cheksiz va to'yib nafas olgan holda (Samar- qanddan) chiqdi. U o'z yigitligiga maftun, (o'z) hamrohlariga mah- bub, o'z do'stlari orasida (quvonib) tebrangan, o'z tengqurlari orasida chayqalgan holda ko'p bo'lmagan bir guruh va saralangan bir toifa orasida, o'zida bor narsalarga kulfat tushishini uzoq va o'z bisotida- gi mavjud narsalar ichiga g'am-g'ussa kelishini eng yiroq hisoblar edi. Kamol unga «men sening fidoingman» deb, jamol tili[1219] esa unga ushbu so'zi bilan nido qilardi:

G'urur bilan yo'l ko'rsataver, chunki sen bunga munosibsan,
Sen hukm yuritaver, chunki husn senga uni ato qilgan.

Keyin u (o'zining) o'sha sulton sifat to'dasi bilan Sultoniya[1220] deb ataladigan qasabaga yetib keldi[1221]. Ollohdod esa Xudoydodga xat yuborib, (Xalil) Sulton karvoni falon kuni Samarqanddan chiqdi va falon soatda Sultoniya qishlog'iga keladi, deb xabar bergandi.

## Xudoydod o'ylagan aldov va Xalil Sultonning ov tuzog'iga tushuvi bayoni

Xudoydod aldovni ko'zda tutib, o'z lashkarini jang muqobilasiga tashladi va askarini beli orqasida qoldirib[1222], o'z uchquni yomonligini qo'ltiqlab, nafrati cho'qmorini (qo'liga) oldi. U jang botirlaridan qitol va nizol mardi maydonlaridan xavf-xatarni bilmaydigan jasur bir toifani o'z hamrohligiga oldi. Ular mana bu aytilgan (she'rda) ko'zda tutilgan (kishi)lar edi.

Ko'rinishlari vazmin-u og'ir, chaqirilsalar chaqqon,
kuch-quvvat ularda ko'p,
sanoqqa kelganda ularning sonlari kam.

U (Xudoydod) tun etagiga o'ralib, ot beliga yopishdi va o'z matlubiga qing'ir yo'ldan yurib, maqsudiga qorong'ilik qo'mondonlarini yo'lboshchi qildi, go'yo ushbu aytilganidek:

Bir maqsudga yetishmoqchi bo'lsang faqat
kechasi unga yetish, (chunki kunduzi) quyosh
chaqimchi bo'lsa, kecha esa yo'l boshlovchidir.

Nihoyat, Xudoydod Sultoniyaga borib yetdiki, u Temur bunyod qilgan bir qasaba edi. Uning kelganini biron kishi ham shuur etmay, faqat balo mavjlari har tomondan ustiga yopirilgandan keyingina Xalil Sulton uni sezdi. U bilan bo'lgan barcha hamrohlari qo'zg'olib, jang-u jadal va zarb-u ta'naga boshladilar va hayot-mamot urushini qilib, ajalu poymonlari to'lganligiga aniq ishondilar. Ustlariga qattiq tishlovchi jang tish qayrab, ularning qay birini mayda, qay birini yiqitib, qay birini burdalab tashladi. Natijada, ulardan faqiri-yu azizi o'ldirilib, dushmanlari o'tiga ular habiblari va Xalil (sevimli) lari tushdi[1223]. Xudoydod esa muvaffaqiyat qozonib, zafar topganidan sevingan holda o'z lashkargohiga qaytdi.





### Bo'lim

Keyin Xudoydod Xalil Sultonga g'oyatda shiddatli qasamlar qilib va turli-tuman yaminlar keltirib: (o'zining) unga hech bir yomon ishni ravo ko'rmasligini, uning (shirin) hayoti ko'ziga cho'p suqishni hatto xayoliga ham keltirmasligini, uni na so'zdayu na amalda (aslo) ranjitmasligini, unga makru daxl bilan aziyat yetkazishga hech kimga yo'l qo'ymasligini hamda o'z qasami natijasini kelajakda u ko'rishi-ni, zotan, tangri taolo «o'tgan (ishlar)ni afv etishini»[1224] ta'kidladi.

### Bo'lim

Keyin u (Xudoydod) Xalil Sultondan Ollohdodga va undan boshqa sipohlarga ularni (o'ziga) Xudoydodga taslim bo'lishlari haqida ishora etishni talab qildi. Shuningdek, Xudoydodning o'zi ham odamlarga xat-xabar yuborib: «Men sizlar boshingiz[1225] ustidan voliylikka ega bo'ldim. Agar siz menga itoat bildirsangiz, men ham unga (Xalil Sultonga) itoat izhor etay, agar sizlar menga silov-rahm qilmasalaring, men ham undan silov-rahmni uzaman», – deb yozdi. Qachonki Xalil Sulton bu qulfatga tushganda, uni otuvchisi noma'lum (daydi) o'q deb tasavvur qildi[1226]. So'ngra unga bu yashirin (qo'ra) makoni zohir bo'lib, bu ishonchli joyda qanday qo'lga tushganligi haqiqatini bildi va ustiga bu baloning qayerdan quyulganligini fahmlab, xavf-xatarsiz degan tomonidan qanday qilib qo'lga olinganligini angladi va o'z holi tili bilan (ushbuni) nashida etdi:

Biz bilan uning o'rtasida na do'stlig-u na tanishligi
(bor) bo'lmagan kishiga Tangri yaxshi mukofot ato qilsin,
chunki biz o'zimiz do'st tutib bilgan kishilardan o'zga
hech kim bizga yomonlik ravo ko'rib, aziyat yetkizmadi.

Keyin Xalil Sulton qolgan amirlariga, lashkar boshliqlari-yu vazirlariga xat yuborib, Xudoydodga bo'ysunib, u bilan nizo chiqarmasliklarini, u istagan murodga qarshilik ko'rsatib monelik qilmasliklarini ma'lum qildi. Natijada, ular hammalari, Xudoydodga bo'ysunib, taslim bo'ldilar va uning homiyligini qabul qildilar. U safarbar etilgan qo'shinga ega bo'lib, firib balolaridan nishonga yetuvchi nayzalaru

hind qilichlari bilan (qo'rg'ondek) mustahkamlanib olgach, Jand va Xo'jand qo'shinlari, Turkistonning gapga no'noqlarini-yu O'zjand avomlarini muqaddam qo'yib, – ulardan boshqalarni orqada qoldirib – Samarqandga qarab ilgarilab yurdi. U Ollohdodga va boshqalarga iltifot qilmadiki, u (Ollohdod) bu ish jarayonida qilmishining aldanganligiga amin bo'ldi. Natijada zamon o'zi kiygizgan izzat libosini ustidan sidirib, shilib oldiki, qo'lida bor bo'lgan qudrat, mol-dunyo va boylik undan uchib ketdi. Bu qiyomat qoyim 812-yil (1409–1410 yil)da bo'lgan edi.

### Xudoydod kelganda Samarqandda yuz bergan fasod (ishlar) bayoni

Xudoydod Samarqandga yetib kelib, unga kirdi. Natijada, mavjud rasm-rusumlar va qismatlar alg'ov-dalg'ov bo'lib, go'yo turli-tuman xalqlar va diyonatlar ixtilofi zohir bo'ldi. Xudoydodning Ollohdod deb ataladigan (bir) o'g'li bo'lib, otasi ochiq-oydin xaloyiq o'rtasida uni sulton deb nomladi va yashirin xazinalarni qidirib, ular tog'larida konlaru ma'danlar izladi, ko'milgan boyliklar va bekitilib, yashirilgan dafinalar talabida bo'ldi. Vaziyat o'zgarib, muloyimlik qo'pollikka badal bo'ldi va ular (Samarqand ahli) go'yo shu aytilgandek bo'lib qoldilar. Misra:

> Chodirlari esa o'z chodirlariga o'xshaydi-yu,
> ammo u jamoa xotinlari u xotinlar emas.

Sifatlar tanimaydigan darajada o'zgardiki, hatto go'yo zotlar (mazmunlar) boshqasiga aylandi, yoinki yer (bu yerdan) o'zga yeru osmonga almashib ketdi. Misra:

> Unumli yer o'zgarib, u barakatli joy bo'lmadi.
> Bu joy endi u toza joy bo'lmadi.

### Bu ishlar Temurning o'g'li Shohrux (qulog'i)ga yetishi va uning bu hodisalarni yo'lga solib, buzuqliklar maddasini bartaraf etishi bayoni

Bu xabar Shohruxga yetgach, «U qahrlanib, g'azabi keldi»[1226a], iztirob chekib, alamzada bo'ldi; tevarak-atrofga o'zini urib, sabr kosasi





limmo-lim to'ldi, betoqatlanib, qovog'i solindi, uning yuzi o'zgarib, qizardi, u faryod solib, bezovta bo'ldi va tangridan rijo tilab[1227] «lo havlo»ni[1228] o'qidi; u ich-ichidan kuyib-yonib, qayg'u alamga botdi va oh-voh chekib, ushbuni nashida etdi:

> U (xotin) ozdi, hatto uning ozg'inligidan
> buyraklari ko'rinib, nihoyat uni har bir
> qashshoq kamsitib xo'rladi.

Keyin o'zining farmonlari yorliqlari bilan o'z yerlari atroflariga har bir uchqurni askar to'plash (xabari) bilan uchirdi va Shoh Malikka hech bir ikkilanmasdan yo'lga chiqishni, sira dam olmasdan sayrini davom ettirib, o'z zotdor otlari bilan qushdan ham tez uchib kelishini buyurdi. Chunki u (Shohrux) tarqalgan nizomni tuzatib, mamlakat atirgulidan nodon guruhlarni ta'qib qiladi. Shu sababli ularning boshlovchisining joylashuviga yo'l qo'ymay, o'z kuchu qudratlari bilan imillamasdan tez sur'atda kelishini buyurdi. Natijada, Shoh Malik o'sha zahotiyoq tog'dek madadli, qumdek adadli askar bilan (yo'lga) chiqdi. Keyin uning izidan boshqa suvoriylar, xusravona qirg'iylar bilan Shohrux chiqib, hech bir kimsaga qaramasdan va o'z harakatida tolei rasadga tayanmasdan yurdi. Qachonki ular Jayhunga yetib[1229], undan o'tayotganlarida daryoning yuzini bekitdilarki, natijada bu sel[1230] suv yuziga yoyilib ketdi. Go'yo bu dengiz (Jayxun) ustma-ust uyulib ketgan bulutlar bilan qoplanib, hayo dengiziga g'arq bo'lgan edi.

### Bo'lim

Qachonki (bu) dengiz ushbu tog'larni kesib o'tib, (bu) xabar Xudoydod (qulog'iga) yetgach, o'zining pashshalari-yu maymunlarini Shohrux bo'rilari-yu sherlariga yarasha quvvati yo'qligiga, aksar askarining o'zidan qochib, unga taslim bo'lishiga hamda u (Xudoydod) ning o'zini tutib, Shohruxga topshirishlariga ishonchi komil bo'ldi. Natijada, u o'z orzu havaslarini takomiliga yetkazishga[1231] shoshilib, o'z matlablarini tayyorlashga oshiqdi. Qo'li yetgancha mol-dunyoni olib o'z imkoni qadricha nafis buyumlarniyu yuklarni yukladi va Xalil Sultonni o'z suhbatiga olib, Andikon[1232] qarab yuzlandi. Ollohdod, Arg'unshoh va Bobo Tarmishni qal'ada qoldirib,

ulardan birovini ham o'z suhbatiga olishdan Xudoydod hazar qil... O'z Xalili firoqiga garov bo'lib, o'zidagi bor (bo'lgan) izzati shikast... xor bo'lgan Shodmulkni ham shaharda qoldirdi.

**Jand qo'shinlari chiqqanidan va Shohrux qirg'iylarining yetib kelishidan oldin Samarqandda yuz bergan mojaro bayoni**

Xudoydod (Samarqanddan) uzoqlashgan va Shohruh tomonidan (hali) hech kim kelib yetmagan hamda fuqaroga hali na orqa (tayanch) na bosh bo'lmagan (bir vaqtda), Ollohdod va Arg'unshoh Shohrux tomon yuzlanib, uning istaqboliga chiqishni iroda qildilar. Shunda Xoja Abdulavval ularga qarshi qo'l ko'tarib, (ularning) qal'adan chiqishlarini man etish uchun o'z posbonlarini qo'ydi. Ularga qarshi u shahar shu... torlaridan ko'mak so'radi. Bundan oldin Ollohdod unga ozor yetkazib qahrini qo'zg'agan ediki, bu Xoja Abdulavvalda Ollohdodga qarshi nafrat uyg'otgandi. Go'yo bu misrada aytilganidek: «Tikon ekkan kishi undan uzum (hosili) ola olmaydi». Xoja Abdulavvlning riyosati (payti)da ikki odam orasida ixtilof chiqmadi va raiya ustida hukm yuritishida «ikki serka suzishmadi»[1233]; uning ishorati amr-u nahiy bilinib, farmonlari ariqlari xalq orasida to'xtovsiz oqib, o'sha o'tgan kunlarda uning amrlari itoatda bo'ldi. Misra: «Har bir (martabasi) oshmagan (past) kishining ilm martabasini oshiradi[1234].

Xoja Abdulavval raiyalar ustidan siyosat yurgizib, Ollohdod va uning sherigi (Arg'unshoh) hamda ular bilan birga bo'lgan kishilar ustiga posbonlar tayinlab, Shoh Malik qo'shinlarining old qismi Samarqandda tulu' qilib, ular orqasidan Shohrux askarlari kelmagunlaricha ushbu masala tangligini (tobora) shiddatli qilaverdi.

**Xalil davrining quyoshi g'urubidan keyin Movarounnahr osmonida Shohrux davlati to'lin oyining (porlab) chiqishi bayoni**

Shunda shahar ahli Shohrux istiqboliga chiqib, uning hiloli peshanasi ruiyatidan sevindilar. So'ngra u har kimsani o'z o'rniga o'rnashtirib, odamlardan har birini o'z martabasiga (muvofiq maqomga) qo'ydi. Keyin Ollohdod va uning sherigini qo'lga olib, ularni turli uqubatlar bilan qiynab, xilma-xil azob berdi va turli-tuman aziyatlar qo'llab, mol-dunyolarini xolis qilib oldi. Keyin, Bobo Tarmish-





...ing boshqasini shafqatsiz itoblar bilan o'ldirib, ularni bu dunyodan ...iratga ko'chirdi. Ammo Bobo Tarmishni esa azob-uqubatga solib, xilma-xil jazoga tortdilar. Kunlardan birida – bu vaqt azob alamlari Bobo Tarmishning tinkasini quritgan edi – unga mutasaddi (bo'lgan) kishilar uning o'zlariga bir masalani voqif qilishi yoki ularni sirli bir narsaga olib borishi uchun uni olib, – u mustahkam kishanda edi – keng va chuqur bir suv hovuzi yonidan o'tdilar. Shunda Bobo Tarmish ular qo'llari g'ilofidan o'zining sirg'anoq qilichdek qo'lini chiqarib oldi va g'aflat topib, o'zini ushbu suvga tashlab g'arq bo'lib ketdi.

**Bo'lim**

Keyin Shohrux o'z padari (qabri)ni ziyorat etib, aza shartlarini ado qildi. Qabrga mutasaddiy qorilar tartibi va qorovullarni yangiladi. Bu xususda moyana oluvchilar va xizmatkorlar haqlarini boshqatdan belgiladi. Otasi qabri ustida bo'lgan anjomlar, matolar va qurol-aslahalarning aksar qismini o'z xazinalariga ko'chirib, xazinalar xirmonlarini yig'dirdi va o'sha yashirilgan boyliklar makonlarini kavladi. U qonun-qoidalarni to'g'rilab, uzoq-yaqin kishilar martabalarini tartibga solishga kirishdi.

**Bo'lim**

Ular Shodmulkni qo'lga olib xo'rladilar, uni himoya qilgan kishilarni tahqirlab, sha'nini pastga urdilar. Uni go'yo tikonli daraxt bilan bog'lagandek azob bilan o'radilar hamda undagi mol-dunyoni olishda zolim amaldorlar qo'llaydigan qiynoqlarni qo'lladilar. Shu zaylda xo'rlab, turli-tuman boyliklarni undan olgach, uni mahkamlab arqon bilan qattiq bog'ladilar va bozorlarda jarchi chaqirtirib, (uni) xaloyiqqa sazoyi qildilar. Shunday qilib, ishlar Shohrux (hukmi)ga qaror topib, ko'kraklar to'lib nafas olib, odamlar bellari (unga) bukildi. Birov ko'tarilib, birov quyi bo'ldi. (Tasbih): Hamisha o'z martabasida (bir zaylda) turuvchi faqat ollohki, uning martabasi azizu, saltanati oliydir. U davlatlarni o'zgartiradi, holatlarni aylantiradi-yu, lekin uning saltanatiga beqarorlik va qazo (aslo) yo'l topa olmaydi.

## Xudoydodning (bu) kulfat-u fasodni tugatish uchun nimalarni ko'zda tutgani va to unga o'lim kelgunicha qayerlarga borib yotgani bayoni

Ammo Xudoydod qachonki o'z makoniga joylashib, Xalil Sulton bilan (o'z) Andikonida xilvatga chiqqach, uning bilan o'z ahd-u paymonlarini qaytadan takrorlab, Xalil Sultonni o'z makru aldovlariga ishontirdi. U uning (Xalil Sultonning) Arg'unshoh va Ollohdodga nisbatan qilgan xayru ehsoniga va ular ustiga o'z in'omi etaklarini yopganiga qaramasdan, ularning o'ziga qilgan bu kulfatu ofatlarini, ularning unga «timsoh mukofoti»ni berib, ezguligiga o'z fasodliklarini muqobala qo'yganlarini esladi. Keyin unga dedi: «Dastavval, men bilan zohirona qilgan ishingni esla-da, sen bilan (keyinchalik) oxirida botinan qiladigan ishimni ko'r. Men sen bilan sofdillilik va sidqi niyat taqozosi bilan ish tutamanki, natijada, (o'rtadagi) kudurat ketib, safolik boqiy bo'ladi, jafo yo'q bo'lib, vafo qaror topadi va biz boqiy umrimizni o'zaro sadoqatda, farovonlik bo'stonlarida bir-birimizga vafodor va xayrixoh bo'lib yashaymiz. Bo'ynida marjonli kabutar bo'ida yozilgan afsonalar satrlarini sadrlarimiz lavhalarida yoziladigan muhabbat va shafqat bilan o'chiramiz»[1235]. Insho ollohi taolo seni o'z shuhrating martabasiga o'tqazib, (senga) shodu xurramlikni qaytaradigan (ish)ni hosil qilishda jidd-u jahd ko'rsataman.

So'ngra Andikonda uning nomiga xutba o'qitib, Turkiston atroflarida ham shu tartibda (ish tutishni) amr qildi.

## Xalil (Sulton) bilan Xudoydodga o'lim (etib) kelguncha ular o'rtasida bo'lgan bitim, ahd-u paymon va do'stlik ta'kidlanishining bayoni

Ular ikkovlari o'rtasida qasamlar vasiqalari ta'kidlangach, Xudoydod Xalil Sultonni Andikonda qoldirib, o'zi uning uchun madad tilab, mo'g'ullarga qarab ketdi. Qachonki xo'rlangan Temur vafoti (xabari) ularga yetganda mo'g'ullarning avval zikr qilinganidek, qarorlari qolmagan, diyorlari huvillagan, ular qo'rg'onlardan boshpana izlab, jon saqlaydigan har bir g'or etaklariga yopishgan edilar. Temur o'limiga ishonib, uning bu dunyodan ketganligiga isbot hosil bo'lgach, ular





«tinchlik va omonlik» deb jar soldilar va o'sha makonning o'zidayoq Xudoydod bilan qo'shnichilik qilib, Xalil Sultonga edchi yuborib uni umuborakbod qildilar va unga qimmatbaho sovg'alar, nihoyatda dabdabali, shohona tuhfalar yubordilarki, shular jumlasidan tillodan ishlangan bir kursiy bo'lib, uning ustasi ajab qolibida yasagan edi. Natijada, Xalil Sulton mo'g'ullar elchilariga izzat-ikrom ko'rsatib, ular vakillarini hurmatlab ulug'lagandi. Ular bilan yaxshi qo'shnichilik qilib, mukofot berib, ehsonlar ato qilgandi va ularning har bir muruvvati evaziga o'n barobar muruvvat ko'rsatgandi. Men dedim:

Agar zamon qancha cho'zilsa ham yaxshilik qolaveradi,
Idishda qoladigan yo'l anjomining eng iflosi qabihlikdir.

Toki Xalil Sulton boshiga kelgan (bu) kulfat kelib, qazo va qadar dengizidan oqqan narsa uning ustida oqmaguncha, ular (Xalil Sulton va mo'g'ullar) o'rtasida do'stlik xil'atlari to'qilib, hurmat va hashamat yuzlari bir-birlari tomon kundan kunga sevinib boqishda davom etaverdi. Shu sababli Xudoydod ularga yetib kelgan zahotiyoq uni tutib olib, uning holi suratini ko'rsatgan holda Xalil Sultonga xabar yuborib, dedilar: – «Sen bilan biz o'rtamizda xolis do'stlik borligini bilasan; sen bilan Xudoydod o'rtasida nima voqe bo'lganini ham biz bilamiz. Darhaqiqat, sening inqirozga uchrab, qo'lingdan mulkingning chiqishiga yolg'iz u sabab bo'ldi. (Hozir esa) u sen uchun bizdan madad so'rab keldi. Shu sababli u haqiga o'zingga ma'qul (bo'lgan) amrni bizga buyur. Agar sen (uning qatlini) buyursang, biz uni qatl qilamiz, agar maslahat ko'rsang, biz unga madad ko'rsatamiz. Xullasi kalom, sen bizga qay tarzda amr qilsang, biz o'shanga rioya qilamiz». Shunda Xalil Sulton ularga elchi yuborib: «U menga qanday ozor berganini, qanday qilib izzatu sha'nimni parchalab, meni o'sal qilganini, qanday qilib meni o'z mulk-u saltanatimdan chiqarganini, o'z ahliyu birodarlarimdan g'arib etganini, meni xo'rlab o'z sevgilim va Vatanimdan judo qilganini sizlar (yaxshi) bilasizlar. Endi bo'lsa u meni qalqon qilib, (shu bilan) yomon hodisalar-u kulfatlardan o'zini saqlamoqchi. Uning qanday tasarrufni iroda qilayotganini sizlar bildingiz. Har holda (hamma ishni) biluvchiga ta'riflashning hojati yo'q. Shu bilan birga, bu xususda sizlar nimani foydalik topsalaring

o‘shani qilinglar», – dedi. Natijada, mo‘g‘ullar darhol Hudoydodning boshini kesib Xalil Sultonga yubordilar[1236].

**Xalil Sultonning Andikon yerlaridan qaytib, amakisi Shohrux huzuriga borishi va jonini tikib, u ruh bilan o‘ynashi bayoni**

Xalil Sulton o‘sha joyda (Andikonda) va Turkiston atroflarida turib, forscha firoqlik nashidalarini yuborishda davom etib, o‘z mahbubasi haqida Zaydun qasidalarini[1237] ham unuttiradigan qasidalar insho etar, boshiga tushgan g‘urbat hamda o‘zi bilan yuz bergan firoq-u kulfatni (faryod chekib) zikr qilar edi. Bu bilan u qalblarni parchalab[1238], jigarlarni pora-pora qildiki, nihoyat u yerlarda turish malol kelib qoldi. Natijada, u Andikondan etagini qoqib, odamu otlarini to‘plab, o‘z amakisi Shohruxga qarab yuzlandi. Yo‘lning beliga minib, uning huzuriga keldi. Amakisi (Shohruh) uni shod-u xurramlik bilan qarshi olib, u qilgan ishlar tafsiloti xususida bir so‘z ham demadi va uni o‘z mahbubasi (Shodmulk)ga qo‘shib, Xalilga o‘z xalilasini (sevgilisini) biriktirdi. (Shu orada) u o‘sha iqlim (ishlari) asosini barqaror qilib, mustahkamlab, o‘g‘li Ulug‘bekni unda hokim qilib tayinladi. Keyin Xalil Sultonni o‘z suhbatiga olib, Xurosonga qarab qaytdi[1239]. So‘ngra u Xalil Sultonni Ray yerlariga hokim qildi. Biroq Xalil Sulton Rayda ozgina muddat turib, xudoning rahmatiga ko‘chdi[1240]. Go‘yoki amakisi (Shohruh) unga sezdirmasdan bir narsa berganki, u uni ichgan. U Ray shahrida dafn qilindi. U (Shohrux) bu ish oqibati tarqalishini jon-jahddan sir saqladi. Qachonki Shodmulk bu cheksiz musibatga tushib, ichaklari Xalil Sulton muhabbati bilan alangalanib o‘rtangach: – «Men judolingingni totib sendan keyin yashamasam edi», – dedi va oh-voy chekib ingranib (bu she’rni) marsiya qilib aytdi:

Ko‘zim qorasi eding-u (ko‘zim qorasi) senga qaragancha qoldi,
Sendan keyin yashagan kishi o‘lsin,
Sen uchun doim men qo‘rquvda edim.

Keyin u bir xanjar olib ko‘kragiga qo‘ydi va bor kuchi bilan unga tayandiki, xanjar uning orqasidan (teshib) chiqdi. Bu holatni ko‘rgan





har bir kishi uning olovidan o‘t olib, kuyib yondi. Ikkovlari bir qabrga dafn qilinib, ular hollari mana shu nashidani kuylay boshladi:

Ey, qo‘shnilarimiz, biz bu yerda g‘aribmiz,
Har bir g‘arib, g‘aribga xeshdir.

Shunday qilib, Movarounnahr, Xuroson, Xorazm, Jurjon, Ajam Iroqi, Mozandaron, Qandahor, Hind, Kermon va Ozarbayjon chegarasigacha bo‘lgan barcha Ajam yerlari mana shu kunlarimizgacha, ya’ni 850-yil (1436–1437-yil)gacha xolis Shohruxniki bo‘ldi. Tangri taolodan o‘z muruvvat va lutfi bilan oxirini baxayr qilishini iltijo qilamiz. Barcha olamlar egasi tangriga hamdlar bo‘lsin, sayyidimiz Muhammad, uning urug‘-aymog‘i va saxobalariga tangri rahmatu salomini (abadiy) qilgay!

**Temurning badoatli sifatlari va unga ato qilingan tug‘ma xislatlari va tabiati haqida bo‘lim**

Temur baland qadli, uzun bo‘yli, tik qomatli, go‘yo u qadimiy pahlavonlar[1241] avlodlaridan bo‘lib, keng peshanali, katta boshli, g‘oyatda kuchli va salobatli, ajoyib bo‘lalik, rangi oq-u qizil yuzli, lekin dog‘siz, bug‘doy rang emas, qo‘l-oyoqlari baquvvat, yelkalari keng, barmoqlari yo‘g‘on, poychalari semiz, qaddi-qomati kamoliga yetgan, sersoqol, o‘ng oyoq-qo‘li cho‘loq va shol, ikki ko‘zi bamisoli ikki sham bo‘lsa-da, shodligi bilinmas, yo‘g‘on ovozli edi; u o‘limdan qo‘rqmas, yoshi saksonga[1242] yetgan bo‘lsa-da, iztirobsiz, vazmin, badani to‘la va pishiq, xuddi zich (qalin) tosh misoli qattiq edi. U hazil-mazax va yolg‘onni yoqtirmas, o‘yin-kulgi-yu ko‘ngil xushlikka maylsiz, garchi (so‘zda) o‘ziga ozor yetadigan biron narsa bo‘lsa hamki, sadoqat unga yoqar edi; «u (bo‘lib) o‘tgan ishga aziyat chekmas»[1243] va o‘ziga hosil bo‘ladigan (yutuq)dan shodlanmas edi. Temur tamg‘asining naqshi «rosti rasti» bo‘lib, bu «haqgo‘y bo‘lsang, najot topasan» demakdir. Uning otlaridagi tamg‘a, tanga-yu tillolariga zarb beriladigan (asosiy) belgi ham mana shunday ∴ uch halqadan iborat edi. Ko‘pincha uning majlisida uyatsiz so‘zlar, qon to‘kish, asir olish, nahb-u g‘orat qilish va haram (haqi)ga haqorat gaplar bo‘lmasdi. Temur qo‘rqmas, shijoatli, botir kishilarni itoat qildiruvchan bo‘lib,

jasoratli (kishi)larni, dovyurak va mardlarni yoqtirar edi. U ular yordamida dahshatli joylar qulflarini fath etib, odamlar sherlarini o'lja qilar, ular zarbalari bilan baland tog'lar cho'qqilarini vayron qilardi. U bexato (nishonga uruvchi) fikrli, ajoyib farosatli, mislsiz (darajada) baxtli, ulug'vorligi (o'ziga) muvofiq, qat'iy azm bilan so'zlovchi (boshiga) kulfat tushganda ham haqgo'y (kishi) edi: Men dedim:

Uning fikrlari fitna olovini qancha kovlamasin,
Kulfat chog'ida uni himoya qilib, (o'zga) qabilalarni kuydirdi.

U (birovdan) bir gap eshitganda dalil talab qiladigan, zimdan qarash va ko'z ishoratlarini sezadigan idrokli kishi edi. U sinchkov bo'lib, har bir ishoratdan ogoh kishi bo'lib, yuz beradigan barcha ishni ko'rib-bilib turar edi. Uning nazaridan aldovchining aldovi yashirinib qolmas va firibgarning firibi o'tmas, o'z farosati bilan haqgo'y va yolg'onchini ajratar edi. O'z ziyrakligi tajribasi bilan chin (haq) nasihatgo'ydan soxta (nasihatgo'yni) idrok etar; o'z afkori bilan sal bo'lmasa «uchar yulduz»ni[1244] to'g'ri yo'lga boshqarar, o'z farosati mulohazalari bilan har bir bexato sayyora o'qini o'z orqasidan ergashtirar edi. Men dedim: «Go'yo qarovchi ko'rganini o'z ko'zi bilan mushohida etgani kabi».

U aql ko'zi bilan barcha ishlar oqibatining mushohididir.

Agar u biror narsani amr qilsa yoki bir narsaga ishorat qilsa, u undan aslo qaytmasdi yoki u biror narsaga qasdlansa beqarorlik, yengiltaklik va sustkashlikka mansub bo'lmaslik uchun o'z qat'iyati jilovini u narsadan sira burmasdi. Men dedim:

Agar u bir so'z aytsa yoki bir narsaga ishorat qilsa,
Uning amrini shu (ish) xususida uzil-kesil farmon deb bilaver.

Uning laqablarini qo'shganlarida Temurni yetti iqlim sohibqironi, yeru suvni idora qiladigan (zot), podshohlar-u sultonlar jahongiri deb atardilar.

Hikoya qilishlaricha, qozilar qozisi Valiuddin Abdurrahmon Ibn Xaldun molikiy mazhabi bo'yicha Misrda qozilar qozisi bo'lib, ajoyib tarix muallifi edi. Bilimdon zakiylar va rostgo'y adiblardan hi-





soblanib, ushbu tarix lafzi-yu ma'nosidan voqif bo'lganlardan birining menga zikr qilishicha, bu tarix tasnifida Ibn Xaldun g'aroyib (bir) uslubdan yurgan, ammo men o'zim bu (kitob)ni ko'rmaganman[1245].

Ibn Xaldun islom askarlari bilan birga Shomga kelgan bo'lib, (lekin) askarlar orqalarini o'girib qochganlarida taqdir uni Temur changaliga ilintirgan edi. Temur suhbatida bo'lib, sinashga bo'lgach, Ibn Xaldun majlislarning birida unga:

– Azbaroyi xudo, ey Mavlono Amir! Dunyo fathlarining kaliti bo'lgan qo'lingni (menga) bergin, men uni o'pish sharafiga muyassar bo'lay, – dedi. Temur uni o'z suhbatiga olishni iroda etganda u arab podshohlari tarixidan bir hikoyani Temurga naql qilgan bo'lib – Temur esa tarixlarni o'qitib eshitishga nihoyatda ishqiboz edi – bu narsa uni g'oyat darajada ajablantirib, (shu tufayli) Temur Ibn Xaldunning o'z suhbatida bo'lishini rag'bat etgandi[1246] – u (yana) Temurga: «Ey Mavlono Amir! Misr sendan o'zga noib hukmidan yoinki unda,faqat sening amringdan boshqa amr joriy bo'lishidan xorijdur. Senga barobar keladigan (kimsa) mening nasl-u nasabim, ahli-yu avlodim, vatan-u mamlakatim, do'st-u birodarlarim, xesh-u aqrabolarim, odamlar podshohlari tugul barcha orqayu bosh, balki butun insoniyat orasida ham yo'qdir. Chunki ular hammalari bo'htonlik qornida (ov bo'lib) tutilib qolganlar. Men faqat o'z umrimning (behuda) o'tib, o'z davrimning (befayz) ketganiga achinib, afsuslanaman. (O'tgan umrim) qanday qilib sening xizmatingdan o'zganing xizmatida o'tdi? Nega mening ko'zlarim sening siymong nurlarini o'ziga surma qilib surmadi? Lekin qazo o'tkinchidir. Endi men xaqiqatni majozga almashtiraman. Shoirning ushbu so'zlarini tilimda takrorlash meni qanchalik zavqlantiradi:

Bu harakating evaziga tangri senga yaxshi siylov ato qilsin.
Lekin sen (mening) oxirgi paytimga to'g'ri kelib qolding.

Mayli, sening panohingda qaytadan ikkinchi umrimni boshlayman, sening ko'lankangdan meni uzoqlashtirishga zamonga tajovuz qildirmayman. Boqiy umrimni (sening) xizmatingga bag'ishlab, zoye ketgan umrimni topib, sening quyushqoningga mahkam yopishib olaman. Ushbu vaqtni hayotimning eng azizi, (erishgan) martabamning

eng oliysi, holatimning eng sharaflisi deb hisoblayman. Lekin ... meni – ular yo'lida umrimni xazon qilgan, (ular) tasnifida o'z ... larim javharini sarf etgan, ularni tartib bilan bitishda kechani ... likda, kunduzni tashnalikda o'tkazgan narsalarim – kitoblarim ... dimni bukmoqdalar. Men ularda dunyo tarixining ibtidosidan ... aylab, sharqu g'arb podshohlari siyratlari (tula-to'kis) bayon qildi... Agar men ularni qo'lga kiritsam (men seni u (podshoh)lar shoh... ning injusi qilib, ular javharining sarasi o'rniga qo'yardim. Sening siyratlaring bilan ular davri xil'atlarini bezab, ular asrlari peshanasi... (sening) davlatingni to'lin oy misoli tasvirlardim. «Chunki sen mard... maydonlar otasi, jangu jadal zulmatli maydonlaridan sharqu-g'arb... o'z zafar oyini porlatuvchisan; har bir vali tilida kashf qilinuvchisan, amiral-mo'minin Aliga mansub qilingan jafr va zij ilmlarida ishor... qilingan kishi hamda oxir zamonda muntazir bo'linadigan sohibqiron ham sensan»[1247]. U (kitob)lar Qohirada bo'lib, agar men ularni qo'lga kiritsam, sening uzangingdan aslo ajralmayman va ostonangdan (bir qadam ham) jilmayman. Tangriga hamd bo'lsinki, mening qiymatim... ni biladigan, xizmatimni qadrlaydigan va hurmatimni o'rniga qo'ya... digan kishini menga ato qildi», – deb (yana) qalblarni titratuvchi fa... sohatli, chiroyli, balog'atli, kishini maftun etib, aqlini oluvchi qalbaki gaplar qildi.

Shunda quvonchdan Temurning a'zoyi-badani titrab, shodligidan butun vujudi o'ynoqladi. Bu gaplar Temurga yoqib, tarixlar va pod... shohlar siyratlari haqidagi kitoblarga ishqibozligini qo'zg'adi. Ibn Xaldun, zikr qilgan podshohlar ahvollarini bilishga Temurni mah... liyo etib, nihoyat ushbu ajoyib bayon sehridan u maftun bo'lib, lol qotib qoldi. So'ngra Temur o'z odati-yu fe'liga ko'ra Ibn Xaldun-dan Mag'rib shaharlari va yerlari vasfini so'rab, uning mavzelariyu yo'llari, qishloqlari-yu so'qmoqlari, qabilayu xalqlarini (batafsil), aniq bayonlab berishini so'radi. Bundan maqsad Ibn Xaldunni imti-hon qilish bo'lib, Temur bu narsalarga muhtoj emas edi, chunki uning tasavvuri xazinalarida butun mamlakatlar suratlari mavjud edi. Bu bilan Temur Ibn Xaldun ilmi miqdorini bilib, uning o'ziga nisbatan muomalasining samimiy yoki qalbakiligini taxqiq etmoqni istadi; Shunda Ibn Xaldun buning hammasini tili uchida turgandek, go'yo





...rgan joyida ko'rib, mushohida etayotgandek, (birma-bir) hikoya ...lib berdi. Bu masalalarni boshdan-oxir u xuddi Temur xotiridagidek ...arhladi.

Keyin Temur unga:

– Qanday qilib meni va Buxtannasrni ulug' podshohlar qatorida ...kr qilasan? Holbuki, biz nasabda u faxrli o'rinlarga erishganimiz ...'q, – dedi.– Biz arilar rahbarlariday emasmiz-ku, nega endi sen biz...ni ulug' zotlar bilan barobar ko'rasan[1248]?

Ibn Xaldun unga:

– Badoatli ishlaringiz sizlarni o'sha yuqori martabalarga loyiq ko'radi, – dedi.

Temurga bu so'zlar yoqib qolib, u o'z jamoasiga:

– Unga iqtido qilinglar, u (sizga) imom – dedi.

So'ngra Temur qozi mamlakatida bo'lgan voqealarni va arab[1249] podshohlari va ular qo'shinlari o'rtasida bo'lgan mojaroni hikoya qila boshladi. Keyin unga odamlar haqidagi xabarlarni gapirishda davom etib, hatto qoziga mansub kishilar va uning avlodlari xabarlarini ham zikr qildi. Shunda qozi Temur bayonidan hayratga tushib: «Shayton o'z do'stlariga albatta vahiy keltirar ekan-da»[1250], – dedi. Keyin Temur Ibn Xaldun bilan uni Qohiraga borib, o'z ahliyu bolalari hamda ajoyib kitoblarini olib, faqat yo'l masofasidan boshqa narsaga vaqt sarflamasdan, cheksiz orzu umidlar, oliyjanob, ishonchli va'da-ga amin bo'lgan holda uning huzuriga qaytishi to'g'risida ahdlashdi. Natijada, Ibn Xaldun Safad tomon ravona bo'lib, o'sha mashaqqatdan orom topdi.

### Bo'lim

Temur olimlarga mehribon bo'lib, sayyid-u shariflarni o'ziga ya-qin tutardi. Ulamolar va fozillarga to'la-to'kis izzat ko'rsatib, ularni har qanday kimsadan batamom muqaddam ko'rardi. Ularning har bi-rini o'z martabasiga qo'yib, o'z ikrom-u hurmatini unga izhor etardi. Ularga nisbatan o'z muruvvati bisotini yoyardiki, bu muruvvati uning haybati bilan aralash edi. Ular bilan mazmunli bahs ham yuritar ediki, bu bahsida insof-u hishmat bo'lardi. Uning lutfi qahri ichiga qorilgan bo'lib, qo'rsligi ezguligi orasiga qo'shilgan edi. She'r:

Qudratni jam qilgan ikki xil tam unda bo'lib,
Go'yo u, xursandchilik ham, xafachilik ham edi.

Yana aytilgan:

Dushmanlariga nisbatan achchiq yuzli, qabih,
Do'stlari uchun asal singari shirin (so'z) u, xushta'b edi.

Temur har qanday hunar va kasb bo'lmasin, agar unda biron fa- lat va sharofat bo'lsa, shu kasb egalariga g'oyatda mehr qo'ygan ed- U tabiatan masxaraboz va shoirlarni yoqtirmas, munajjim-u tabi- blarni (o'ziga) yaqin tutib, ular gaplariga e'tibor qilar va so'zlarini tinglardi. O'z fikrini peshlash maqsadida u muttasil shatranj o'ynar- di. Uning himmati kichik shatranj (o'ynash)dan oliy bo'lib, u katta shatranj o'ynardi. Bu shatranj taxtasining eni o'n bir (xona), bo'yi o'n (xona)dan iborat edi. Unda ortiqcha ikki tuya, ikki jiraf, ikki taliy'a (oldingi), ikki zubaba (chivin), vazir va bulardan boshqa tosh- lar bo'lib, uning (aniq) surati keyinroq keladi. Kichik shatranj katta shatranjga nisbatan arzimas narsadir. Temur tarix (kitob)lari, Xudo- ning rahmati va salomi bo'lg'ur anbiyolar qissalarini, podshohlar siy- ratlari va o'tgan salaflar haqidagi hikoyalarni doimo – safarda ham, xadarda ham – o'qitib, qunt bilan tinglar edi. Bularning hammasi fors tilida edi. Ushbu hikoyatlarning qayta-qayta takrorlanib o'qilishi, ular nag'malarining uning qulog'iga muttasil chalinishi natijasida Temur u (hikoyat)lar jilovini qo'liga olib, batamom o'zlashtirib, go'yo o'z mulki misoli qilib olgan edi. Bu shu darajaga borib yetgandiki, agar o'qiyotgan kishi biror xatoga yo'l qo'ysa, Temur uning xatosini tuza- tib,savolga solar edi, chunonchi (ortiqcha) takror eshakni ham faqih qilib yuboradi.

Temur savodsiz bo'lib, hech narsa o'qimas va yozmasdi; arab tilini mutlaqo bilmasdi; fors, turk va mo'g'ul tillaridan o'ziga yara- sha bilardi. Temur Chingizxon qoidalariga e'tiqodli bo'lib, (uning nazmida) ushbu qoidalar islom dinidagi fiqh furu'lari kabi edi. U Chingizxon qoidalaridan yurib, uni Muhammad shariatidan[1251] ustun tutardi. Shuningdek, har bir chig'atoylik, Dasht, Xitoy va Turkiston ahli va o'sha avomlarning hammalari tangri la'natlagan Chingizxon qoidalarini islom qoidalaridan ustun qo'yardilar. Mana shu jihatdan





...shuningdek, boshqa jihatlardan mavlono shayximiz, xudo rahmat qilg'ur Hofizuddin Muhammad al-Bazzoziy va mavlono sayyidimiz, ...do umrini uzoq qilg'ur Alouddin Muhammad Al-Buxoriy va islom (dini)ning ulug' va mashhur ulamo-yu imomlaridan, bulardan bosh- ...lar, Temur va Chingizxon qoidalarini islom shariatidan muqaddam qo'ygan har bir qimsa kufri haqida fatvo berganlar.

Aytishlaricha, Shohruh Tavrot va Chingizxon qoidalarini bekor qilib, o'zlarining siyosatini islom shariati anhorlaridan joriy bo'lishi- ni amr qilgan. Buni to'g'ri deb uylamayman, chunki Chingiz qoida- lari ular nazdida muayyan bir din shakliga kirib, chinakam e'tiqodga aylanib qolgan. Shunday bir tasodif ro'y bersaki, Temur barcha amal- dor va qonunshunoslarini bir saroyga to'plab, saroy eshiklarini qulf- lansa, keyin ularga Temurning (shu joyga) kelganligi xabar qilinib, shu (yopilgan) eshiklardan ozgina ochilsa, ular hammalari go'yo «eshak yugurish» qilib, o'zlarini eshik tomon urardilar.

## Bo'lim

Temur tengi yo'q fe'l-atvorli, chuqur mulohazali kishi bo'lib, uning tafakkur dengizining qa'ri yo'q va (uning) tadbiri tog'iga na tekislig-u na g'adir-budir orqali yo'l topilardi. U yerlarining barcha tomonlarida o'z ayg'oqchilarini tarqatib, qolgan mulklarida esa josuslar qo'ygan edi. Ular (josuslar) jumlasidan, uning amaldorlaridan biri amir Otla- mish bo'lsa, yana biri faqir faqih Mas'ud al-Kuhjoniy[1252] – u Temur devoni as'hoblarining ko'zi edi. (Josuslarning) bunisi Qohirada, Muiziyada bo'lsa, unisi Damashqda, Shamiysoiyadagi sufiylardan biri edi. Ulardan biri chakanafurush bo'lsa, ikkinchisi yirik savdogar, badxulq polvon va buzuqi dorboz, jafokor va hunarmand, munajjim va o'z tabiaticha ish qiladiganlar, gapchinoz qalandarlar-u sayoq darveshlar, dengizchi mallohlar-u quruqlik(er)dagi sayyohlar, zaro- fatli meshkoblar, latofatli etikdo'zlar, alvasti va hiylakor Dalla misoli firibgar kampirlar, tajribasi bo'lib, ilm talabida mag'rib-u mashriqni kezgan, payiga tushgan maqsad yo'lida makr-xiyla makonida kamoli- ga yetgan, o'zining nozik firibi va dahosi bilan suv bilan olov, to'g'ri- lik bilan egrilik o'rtasida unib-o'sgan, makr-u hiylada Soson va Abu

Zayddan ham o‘tib ketgan, o‘z hikmati va bahsida Ibn Sinonihan mulzam qilgan, (qachonki o‘ylagan) ishlari o‘zlariga teskari natija bergach, ular o‘z so‘zamolliklari bilan yunonliklarni sukutga solgan, ikki muxolifni bir-biriga biriktirib, ikki dushmanni birbiriga qo‘shgan (uddaburor) kishilar edilar. Men she’r aytdim:

Adovat uchun har qanday qo‘shin surgandan ustun chiqdi,
So‘z bilan uzoqni yaqin qildi.
Qo‘mondonlikda aql va naqlni birga qo‘shdi,
Oshiqqa yo‘l ko‘rsatib, ma’shuqni (to‘g‘ri) izga yo‘lladi.

Natijada, u (josus)lar chor-atrofda bo‘layotgan hodisalar va ularning xabarlarini Temurga yetkazib, o‘zlari afzal ko‘rgan ishlarini unga bayon etardilar. Ular vaznlari, narx-u navolari to‘g‘risida unga zikr qilib, manzilu shaharlarni tavsiflardilar. Ularning tekis va notekis joylarining suratini keltirib, uylari va diyorlari o‘rinlarini chizib ko‘rsatardilar, shular orasida u joylarning yaqin yoki uzoq, tor yoki kengligini, ularning qaysi tevarak-atrofda, g‘arb yoki sharqdami (ekanligini), shaharlar va qishloqlarning ismlarini, manzil va panohjoylar nomlarini, har bir joyning ahli-yu boshliqlari, amirlari, ulug‘lari, fozillari, shariflari, boylari-yu faqirlarini, ularning har birining ismi va laqabini, shuhrati va nasabini, ularning hunari va (ega bo‘lgan) vositalarini (to‘la-to‘kis) bayon qilardilar. Natijada, Temur o‘z fikri bilan shu (narsa)larni yaqqol ko‘rib, tafakkuri vositasida o‘z yerlaridan xorij joylar ustidan ham tasarruf yuritardi. Moabodo u biror shaharda qo‘nib, shu shahar a’yonlaridan biri bilan suhbatlashsa, u darhol falon-u fulon to‘g‘risida, falon kishi bilan falon vaqti sodir bo‘lgan hodisaning qay tarzda bo‘lganini va o‘sha voqeaning nimaga borib taqalganligini, falon bilan fulon o‘rtasida nizo tushganda, ular qanday ish tutganligini surishtira boshlardi. Shunda o‘sha suhbatdoshining nazarini shu voqealar yuz bergan paytda Temur hozir (bo‘lgan) ekanda, degan fikr qamrab olardi. Ko‘pincha Temur o‘z suhbatdoshiga chalkash masalalarni tashlar, (ularga) oralarida bo‘lib o‘tgan munozaralar-u mukotabalar tafsilotini (o‘z asliday) hikoya qilardi. Ular go‘yo Temur o‘sha bo‘lib o‘tgan voqealardan oldindan voqif yoki bo‘lmasa, bu xabarlarning hammasini o‘z olimlari orqali





biladi, deb tasavvur qilardilar. Shu sababli ham ba’zi kishilar Temurni Solariyada istiqomat qilgan deb o‘ylasa, ba’zi lofchilar hatto uni Shamiysoiya faqirlari orasida ko‘rganligini hikoya qilardilar.

## Bo‘lim

Temurning idrokliligi to‘g‘risida hikoya qilganlaridan: qachonki u Sivos yaqiniga kelib tushganda – u (Sivos)ni botir va shiddatli qo‘shinlar mustahkam qo‘riqlab turgandilar – o‘z askariga: «Hiyla ishlatinglar, biz bu (qal’a)ni o‘n sakkiz kechada fath qilamiz dedi. Natijada, mana shu tarzda bo‘ldi. Shuningdek, hech shubha yo‘qki bu cho‘loq (tangri tomonidan) ilhomlangan va asta-sekin darajasi oshagan (kishi) edi. U (odamlarni) chalg‘itish qobiliyatiga ega bo‘lib, harakatlarida shiddatlik (asari) bor edi. Agar uning boshiga bexosdan bir (mushkul) ish tushsa, u o‘zini go‘yo ushbu ishkalga marg‘ub ko‘rsatib, (aslida) uni daf qilishga kirishardi. Ko‘pincha u biror narsani qo‘lga kiritishni bajonidil istasa xam o‘z rag‘batini tiyib, izhor qilardi. Bularning hammasiga qanchadan-qancha misollar (ilgari) o‘tdi. Uning (odamlarni) chalkashtirishidan (bir misol) shuki, agar unda biror makonga nisbatan xohish tug‘ilsa yoki biron qavm maydoniga tushishni istab qolsa, xufyalik va bekinishga yuz qo‘yib, qalbaki xarakat va o‘zini go‘llikka solishni talab etardi. Uning askar dengizi esa josuslik qiluvchi timsoh yoki sezgir chigirtkadan xoli bo‘lmasdi. Agar uning askari ichida bironta «ko‘z» bo‘lmasa, (unda) quyoshning chiqishi ko‘zlik kishiga sir emasdir.– U o‘z davlati arkonlarini, mamlakati a’yonlarini, o‘z mulohaza va mashvarat egasi bo‘lgan kishilarining birortasini ham qoldirmasdan to‘plardiki, bola otaning, ota esa bolaning o‘rnini bosolmasdi. So‘ngra ularga maxfiy tutgan masalasini zohir qilib, qaysi tomonga yurish haqida (ulardan) maslahat so‘rar hamda gap jilovini ularga tashlab qo‘yib: «Xalqning xos qismi bu masalaga chuqur qarab, bir kun bilan bir yil orasidagi ishlar oqibatini ko‘zlab gapirsa uning gunohi yo‘q. Mayli, har kimsa xatoning eng quyisigacha yiqilsa ham yoki savobning cho‘qqisiga ko‘tarilsa ham – farqi yo‘q, hech bir tortinmasdan gapiraversin. Chunki agar xato qilsa, bu nuqson emas, agar maqsadga muvofiq bo‘lsa, unga ikki hissa mukofot», – deyardi. Shunda har kim o‘z jidd-u jahdini sarf-

lab, bu masalada maqsadi va mehnatini ko'rsatib, o'z ijtihodi bergan natijasini namoyon qilar, o'ylagan fikri Temur murodiga muvofiq deb tasavvur etardi. Shu tarzda hamma fikrlar to'planib, bir tomonga qarab yurishga ittifoq bo'lgach, ushbu majlis (ahli) tarqalardi. (Bundan keyin) u o'zining Sulaymonshoh, Qamariy, Sayfuddin, Ollohdod, Shoh Malik va Shayx Nuruddin kabi yaqin kishilari bilan majlis qurib, masalani qaytadan har tomonlama bag'oyat puxta o'ylardilar va hamma yo'llarni diqqat bilan muhokama qilardilar. Nihoyat, bir tomonga yurish qilish to'g'risida ittifoq voqe bo'lardi. Keyin Temur bu masalada o'zining yo'lyuoshlovchisi, rahbaru boshliqlarini chaqirib, o'sha (avval) kelishylgan tomonga qarab yo'l olib, (faqat) boshqa tarafga qarab tarqalishlarini amr qilardi. Qachonki zulmat o'z chodirini buzib, subh boshlovchisi o'z bayroqlarini yoygach va jo'nash uchun nog'ora chalinib, odamlar o'z yuklarini ortib borishga kelishilib, amr qilingan tomonga ravona bo'lganlarida, Temur o'z hoshiyalarini chaqirib ular ham o'z yuklarini ortib, jo'nay boshlaganlaridan keyin – (odamlardan) ajralishlarini va boshqa tomonga qarab yurishlarini amr qilardi. Masalaning oydinligi (qaysi tomonga yurishlik) jamoaga faqat shu onda ayon bo'lar edi. Agar zarurat bo'lmasa, boriladigan joyni sir ham oshkor qilmas va o'z dilidagi (fikr)ni birontaga ham bildirmasdi. Odamlar u tomonga ketsa, Temur bu tomonga, askarlar g'arbga yursa, Temur sharqqa yurardi. Natijada, o'sha tog'lar (askarlar) iztirobga tushib, parokandalik bo'lar, ular nizomlari tuguni tarqab, sal bo'lmasa tartibi to'zib ketardi. Ular ulovlarining oyoqlar yurishdan bo'shashib, bog'lanib qolardi. Odamlardan ba'zilari boshqa, ba'zilari ustiga mavj urib, ular osmonni yerda, enini bo'yida qilib teskari tushunardilar. Har kimsa idrokini yo'qotib, aqldan ozar va qayerga borishini bilmay qolardi. Agar uning askari ichida (dushmanning) xabarchisi yoki askarning borish-kelishini kuzatib yuruvchi kishi bo'lsa, u darhol askarlarning yuklarini ortib qo'zg'alib, yura boshlaganini ko'rgan zahotiyoq o'z maxdumiga qarab (qushday) uchib borib, unga o'ziga ma'lum bo'lgan xabarni – ya'ni ittifoq bo'lgan tomonga qarab Temur askarlarining otlanib jo'naganini o'z ko'zi bilan mushohada etganligini izhor qilardi. Shunda askarlar jo'nagan tomon ahli o'z ehti-





yutkorligini ko'rib, boshqa tomonlar esa har xil kulfatlardan o'zlarini bexatar sezardilar. Ular faqatgina Temur (keyin) qasd qilgan tomonni yaksonlab, vayron qilgandan va ular ustiga yonayotgan olov azobidan alanga-yu cho'g'lar tashlagandan keyingina voqif bo'lardilar.

Temur qanchadan-qancha daho va hufyona fikr-u[1253] zakovatga ega edi! Shular jumlasidan: Temur Shomda bo'lib, islom askarlari unga qarshi turganda, u o'z qo'shini; halqasini bo'shashdi, deb ishoat tarqatib, ozroq orqaga surilib chekindi hamda otlariyu odamlarining yemishga muhtojligi uchun o'zini endi Bag'dod tomonga jo'naydi, degan xabarni yoydi. So'ngra bu ishning natijasi Misr askarlarining mag'lubiyati bilan tugadi. Bundan uning maqsadi, raqiblar xotirlarini jamlash, boshliqlari-yu avomlarini (bir joyga) barqaror etish, ulardan har birining o'zi tutgan (makoni)ida bo'lib, (o'z) joyida turib, qochmasdan hammalari uning domiga o'ralib, barchalari uning saydiga aylanishi uchun edi.

Uning azm-u qarorining shiddatidan, o'zi qasd qilganiga nisbatan sabotining qat'iyatidan hamda unga qarshilik bildirgan va u buyurganga teskari, zidlik ko'rsatgan (kishi)lar ustiga qasosi tushishi haqida hikoya qilganlaridan

Qachonki u o'z qo'shini bilan Hindlar mamlakatiga otlanganda, u baland bir qal'aga yetib bordiki, qal'a darvozalari quloqlariga dur sirg'alari osilgan, bexato nishonga yetuvchi uchar yulduzlar qal'a latofatli o'qlarining to'g'ri otilishidan ta'lim olgan; go'yo Bahrom havoga uchishidan uning xanjaridan biri, Qayvon o'z sayrida u qal'a posbonlari xodimi (misoli) edi. (Go'yo) Quyosh o'z Cho'qqisiga ko'tarilganda qal'a manglayidagi bir g'urradek, bulut qatralari qal'a bulog'i qa'ridan suzilib, tozalanib quyilayotgandek, (go'yo) qizil shafaq qal'a darvozalari quloqlaridayu uning badanlari burunlarida chodirlar (kabi), yashil qubba yulduzlari parchalari qal'a ko'z surmadonlari va undagi to'plar og'izlari uchun tarasha (cho'qmor) va miltiqlardir; Qal'ada bir toifa dovyurak, qo'rqmas hindlar bo'lib, ular qal'a ahlini va xavflangan narsalarini jamlab, manoatli joylarga jo'natib, o'zlari o'sha qal'aning ichida turib, uni saqlab turaverdilar. Ushbu toifa ozchilik va arzimas to'da bo'lish bilan bir qatorda, ular-

da na boylig-u, na oziq-ovqat bor bo'lib, balki ziyon-u zahmatlardan bo'lak hech qanday «foyda» yo'q edi. Na jang qilish uchun qal'a (ya-qini)ga yo'l, na uning atroflarida ular uchun na tunda uxlaydigan, na kunduzi orom oladigan joyi bo'lmay, faqat ushbu qal'a jangchilari boshidagi (yakka-yu yagona) soyabon edi. Natijada, Temur qal'ani qurshab, urush qilib uni olmay o'tib ketishdan voz kechdi. «Rostdan ham aql-idrokli kishi o'z orqasida raqibiga qo'rg'on qoldirmaydi». (Hindlar) guruhi uzoqdan jang qilib, to'qnashishni boshlab, qal'a ah-lidan har biri o'z xohishicha va qay tarzda istaganicha Temur odam-lari ustiga o'lim vositalarini to'kardilarki, har kuni Temur askarlari-dan behisob darajada qatlga yetkazilardi.

Bu bilan qal'a o'z qarshiligi va isyonini ziyoda etar, Temur esa undan o'z niyatiga erishmay ketishni rad qilardi. So'ngra, muhosara kunlarining birida yomg'ir quyib, bu yomg'ir tufayli Temur askarlari nari yura olmay qoldilar. Temur ularni jangga da'vat etib, shu damda askari nima bilan mashg'ul ekanini (shaxsan) ko'rmoq uchun otlan-di. Shunda ular harakatida sezilgan qo'rqish va jur'atsizlikdan Temur norozi bo'ldi. Natijada, amirlar boshliqlarini, askar zaimlarini-yu ako-birlarini (o'z huzuriga) keltirib, ular ismati terisini o'z so'kish xanjari bilan parchalab, hurmat pardalarini esa o'z la'natiyu koyishi chan-gallari bilan yirta boshladi. Shayton uning dimog'iga (nogoh) dam urib, Temur o'z qahr-u g'azabi olovlarini ular ustida alangalatib, dedi: – «Ey pastkash xaromxo'rlar! Siz mening ne'matlarimni unutib, g'a-nimlarimga nisbatan sabotsizlik ko'rsatyapsiz! Ne'matlarimni tangri sizga uvol qilib, (o'sha) ne'matlar noshukurligiga jafo-yu jazo bilan sizning ta'ziringizni bersin! Ey vijdonsiz, gunohkor-u noz-u ne'matga noshukurlar, himmati past-u intiqomga sazovorlar! Mening shijoatim qadamlari yordamida siz podshohlar bo'yinlarini toptamaganmidin-giz? Mening ehson-u ikromlarim qanotlari bilan dunyo ufqlari tomon uchmaganmidingiz? Yoki (mening) savlatim shamshiri bilan bekik qo'rg'onlarni fath etib, davlatim panohida sizning hukmingiz podalari barcha iqlimlar bo'stonlarida bemalol o'tlamaganmidi? Men tufayli dunyoning mashriqi-yu mag'ribiga ega bo'lib, u joylarning muzla-ganini eritib, eriganini muzlatdingiz.





She'r:

Men dushmaningizni kuydiradigan olov emasmanmi?
Sizlar sig'inadigan tepaliklardan bir qo'rg'on emasmanmi?
O'ng qo'li bilan sizga xayrini yoyib, chap qo'li bilan sizdan
yomonlikni qaytargan men emasmanmi?

(Shu zaylda) u valdirab, shu ming'irlash, vaysash-u vijirlashda (to'xtamasdan) davom etar, ular esa sukutga tolib, javob berishga ham-da uning «so'zini bo'lib, xitob qilishga ham botina olmasdilar»[1255]. Uning g'azabi kuchayib, shiddatidan bo'g'ilib o'layozardi. So'ngra chap qo'li bilan qilichini o'ynatib, o'sha asirlar boshiga qarab havo-la qildi, ular bo'yinlarini o'z qilichiga g'ilof qilib, qilichi tig'ini ular qonlaridan sug'orishni istadi. Ular esa shu tarzdagi xo'rlig-u tubanlik-ka o'zlarini fido aylab, «boshlarini quyi egib»[1256] turardilar. Shundan keyin (Temur) bir oz hovuridan tushib, o'zini tutdi, birqadar bosilib, xotirini jamladi va ularni so'yish fikridan qaytib, qilichini qiniga sol-di. O'z amrida na oldinga yurish, na orqaga qaytish: na o'ngga bu-rish, na chapga haydash haqida hech narsa aytmasdan otidan tushib, o'ynash uchun katta shatranj chaqirtirdi.

Temurning yonida Muhammad Qovchin isml bir, shaxs bo'lib, uning huzurida mustahkam o'rinu ishonchli maqomga ega edi. U barcha vazirlardan muqaddam qo'yilgan, boshqa amirlarga nisbatan hurmati yuqori, gapi tinglanadigan, fikri qabul bo'ladigan, g'oyatda muloyim, shakl ko'rinishi sevimli edi. Natijada, u (miskin)lar Mu-hammad Qovchindan shafoat so'rab, bu ishkalni hal qilishda unga tayandilar. Ular: «o'z so'zing bilanmi, yoinki (mehrli) boqishing bi-lanmi, bizga ko'maklashib, biz bilan mana shu ma'noda ish tutgin», – dedilar:

Men dedim:

O'z mavqeing bilan senga muhtoj kishiga yordam qil,
Chunki mavqe muruvvati mol-dunyo muruvvatidan ustundir.

Yana aytilgan:

Do'stning do'stga eng yaxshi xayr-ehsoni,
yengil va oson narsadan bir-biriga (tortinmay) so'zlashi.

Yana aytilgan: «Agar kishi menga so'z bilan beradi...
ga baxillik qilib, do'stligiga g'ov bo'lsa, albatta u baxil...
da, Muhammad Qovchin ular iltimosiga rozi bo'lib, ush...
olishdek) mushkul masaladan Temurni qaytarishni o'...
deb bilib, bu ishga bel bog'ladi va bu fikrni Temurga ayt...
munosib maqom kutib, qulay fursat poyladi. Temurning fik...
ni esa qal'a masalasi javlon urib, chulg'ab oldiki, u askar...
rini nurlantirib, (qal'ani olish fikri bilan) ular fikrlarini al...
ra boshladi. Askarlardan har birini uning ra'yi ma'qul topib...
deb hisoblagan fikrni qabul qilishdan boshqa iloji bo'lmadi...
paytlarning birida Muhammad Qovchin ittifoqo dedi – dar...
taqdir uni (yo'lidan) adashtirib, har tomondan uni musibat...
o'rab olgan edi – «Tangri mavlono Amirning umrini boqiy...
uning mulohazalari va bayroqlari kalitlari bilan har bir mushk...
sala qo'rg'oni ochilg'ay! Faraz qilaylik, birmuncha botir-u ...
rimizni qurbon bergach, (biz) bu qal'ani fath etamiz. Bu (qal'a)...
(qurbon)ni qoplaydimi? Yoki bo'lmasa, bundan oladigan foyda...
(undan) chekkan aziyatimizga barobar keladimi?»

Uning xitobiga Temur e'tibor qilmadi va javob ham, rad ham...
madi, balki Marqadoriyadan Hiromalik degan manzari qabih, ...
holatda bo'lgan bir kimsani chaqirtirib keltirdi. U sassiq terli...
qorakuyadek qora, oshxonadagi kishidan ko'ra ham iflos, qush...
nadagidan ham ko'ra battar badxo'y hidli, itning so'lagi uning...
dan tozaroq, qatron sharbati uning (ichadigan) sho'rvasiga nisba...
sutdek (oq) edi. Qachonki u Temur huzuriga kelib, nazari Hiro...
likka tushgach, Muhammad Qovchinning kiyimlarini yechishga ...
qildiki, darhol uning kiyimlari yechildi. (shuningdek) Hiromalikning...
ham juldur kiyimlarini yechirishga buyurdi. So'ngra ular (ikkovlari)...
ga bir-birining kiyimlarini (almashtirib) kiygizdi va Muhammad...
Qovchinning belini Hiromalik ayili bilan tortib bog'latdi. (Keyin)...
Muhammadning devonlariyu muboshirlarini, uning jonliyu jonsiz...
(mol-dunyo)sini zabt etuvchilari va kotiblarini chaqirdi. Ular orqali...
uning mavjud chorvasiyu o'lik mollari, suyuq va qattiq (ya'ni tillo...





... va latta-putta), yer-suv va mulki, ahli-yu diyori, arab ka ajam... bo'lmasin, xizmatkoru malaylari, vaqf va iqto'lari, bog'-rog'lari... yaylovlari, qul va tobelari, ot-u tuyalari, yuk va qimmatbaho ...yumlari, hattoki xotinlari-yu kanizaklari, qullari va joriyalarining ...mmasini) surishtirib, aniqladi va mana shu iflos (Hiromalik)ga ...'om qildi.

Natijada, Muhammad Qovchin vujudining kunduzi tunga aylanib, ...ushbu ne'mat kechasidan (ham) to'la-to'kis mahrum bo'ldi. Keyin Temur:

– Tangri nomi (bilan), uning oyatlari, kalimalari, sifatlari, yer-u ...molari, har bir payg'ambar-u uning mo'jizalari, har bir vali-yu (uning) karomatlari va u kimsaning boshi-yu joni bilan qasamyod qilamanki, agar kimda-kim Muhammad Qovchin bilan birga ovqatlansa yoki birgalashib suv ichib, u bilan (birga) yursa yoinki u bilan do'stlashib, unga sadoqat izhor qilsa yoinki undan boshpana izlasa, yoki unga panohgoh bersa, yoinki uning xususida menga murojaat qilsa, yoinki mendan u haqida shafoat so'rab, uni ma'zur ko'rish bilan mashg'ul bo'lsa, darhol men u (kishi)ni xuddi unga o'xshatib, uning ko'yiga solaman, – dedi. So'ngra uni haydab chiqartirdi va (butun) ezguliklarini shilib olib; uni tang ahvolga soldi. Natijada, Muhammad Qovchinning (butun) ne'matlari talanib, u Temur intiqomi balolariga giriftor bo'ldi. Uning bo'ynidan sudrab tortdilar, u (Muhammad Qovchin) o'z boyliklarini xaloyiqning eng arzimagani (Hiromalik) ustida ko'rdi; o'zidan boshqa boyligiga ega bo'lib, undan mol-dunyo yiroqlashib natijada, uning yurak-bag'ri pora-pora bo'ldi.

Muhammad Qovchin shu zaylda achchiq hayotu qatrondek qora umrda davom etdi. Magaram, uning qissasi ham Qaab ibn Molikning qissasiga o'xshab ketdi. U (bunaqa hayotdan) o'lim alamini afzal ko'rib, bu dunyodan ketish ishorasini sabrsizlik bilan kutardi. Bu g'amg'inlikning har bir lahzasi uning uchun mingta qilich zarbasidan ham og'ir edi. Qachonki Temur o'lgach, Xalil Sulton Muhammad Qovchinni (qaytadan) tiriltirib, bobosi shilib olgan (narsa)larni uning o'ziga qaytardi.

## Bo'lim

Temurning mag'rurligi va ulug'vorligidan, takabburlik, ... mog'dorlik va hurmatining shiddatidan shu ediki, tevarak-atrof pod-shohlari va sultonlari garchi xutbada mustaqil va pul zarb etishda mustabid, riyosat va boshqaruvda yagona, idora (qilish) va siyosat ishlari bilan (o'zlaricha) mashg'ul bo'la turib, xuddi Shirvon yerlari-ning podshohi Shayx Ibrohim, Xuroson viloyatlari sultoni Xoja Ali Ibn Muayyad at-Tusiy, Isfandiyor, ar-Rumiy va Ibn Qaramon, Karmon hokimi Yaqub Ibn Ali Shoh, u ham Mantasho hokimi, Arzinjon amiri Taharton, Fors va Ozarbayjon sultonlari, Dasht, Xitoy va Turkiston podshohlari, Badaxshon marozibalari va Mozandaron marojihalari, xullasi kalom, Eron va Turon podshohlaridan (Temurga) itoat qilgan-lar uning huzuriga kelib, hadya va tuhfalar taqdim etsalar, xizmatkor va qullik ostonalarida uning chodirlaridan ko'zga chalinadigan joy-da adab va hurmat shartlarini ado etib o'tirardilar. Basharti, Temur ulardan birontasini (ko'rishni) yroda etsa, farroshlardan birini unga yuborar yoki ular tarafiga choparini jo'natar edi. Shunda o'sha chopar turib, go'yo baridga o'xshab chopib borar va uzoqroq joydan o'sha (matlub) kimsaning otini tutib: «Ey falon!» – deb nido qilardi. Darhol o'sha chaqirilgan kishi xabarchining nidosiga «labbay» degan holda o'rnidan turar va o'z etaklariga qoqila-qoqila, o'ziga sodir bo'lgan farmonlarga qabulu iqbol keltirib, itoat va qulliq bildirib boshini eggan, tinglash va quloq solish quloqlarini tutgan holda (Temur) uni yaqin tutib, unga iltifot qilib, huzuriga chaqirganligidan o'z tengdosh-lari oldida faxrlangan tarzda Temur tomonga yugurar edi.

Aytishlaricha, kunlardan bir kun Temur jamoasidan bir guruh odamlar nard o'ynardilar. Ular ikki guruhga bo'lingan bo'lib, ikki to'piq naqshi ustida o'rtalarida ixtilof chiqqan. Shunda o'yinchilar-dan biri: «Amir Temur boshi bilan qasamyod qilamanki, to'piqlar-ning naqshi mana shunday tarzda edi», – dedi. Shu zahoti uning raqibi qo'lini ko'tarib, uni bir shapaloq urdi va uni koyib la'natlab so'kdi. (Qasam ichgan) kishi raqibining nazdida, go'yo Yah'yoni so'yib, Zakariyoni[1257] arralagandek, yoki Muhammadni kofir aylab, odam Otadan Musoni muqaddam qo'ygandek bo'ldiki, u dedi: «Ey gunoh-





...ning bolasi-yu kirchi (xotin)ning o'g'li kirchi! Sening hurmatsiz-...ng Amir Temurni zikr qilib uning nomini og'izga olish darajasi-...ga (borib) yetdi. Temur boshi bilan qasam ichish u yoqda tursin, ...ing chorig'i tovoniga lunjingni qo'yishga ham senga yo'l bo'lsin! ... u, senu menga o'xshaganlar uchun uning ismini tilga olish ...i uning chizgan chizig'i-yu ko'rsatmasi haqida bir lafz aytishdan ...ayatda yuqori turadi. U Mag'rib-u Mashriqqa egalik qilgan Kay-...av, Kaykovus va Kaykuboddan ulug'vor, Buxtannasr va Shad-...ddan ko'ra ham savlatlidir».

Aytishlaricha, kunlarning birida Temur sayd qilmoqni istab, o'z ...atiga ko'ra o'ng-u chap (tomon)ga qo'shini va askar to'dalari-...i yuborib, piyodalarining ana u maydonlarga, otliqlarining mana ...u qishloqlar-u adirlarga chiqishlarini hamda jilg'a-yu tekisliklar-...ga cho'zilib, yoyilishlarini buyurgan. Qachonki (u dalalardagi) vahshiylarni firib halqasi siqib (o'rab) olib, ramo (otmoq) va asmo (o'ldirmoq) «fe'l»lari uchun Amru Zayd o'zaro nizo chiqarishi du-...st bo'ladigan paytda, hech bir kishi ovga qarab na zarba, na ta'na, ...a otishga ishorat bermaydi, balki ular ushbu sahro hayvonlarini ...hu o'lim o'chog'iga qaytarib turadilar. Har kim o'ziga farmon qi-...lingan (amr)ga amal qiladi. Qachonki o'sha to'dalar va guruhlar safi ...bir-biriga jipslashgan binolar kabi terilib, bu parchalovchi (askar)lar ...saflari u hayvonlarni go'yo oyni (o'rtaga) o'rab olgan yulduzlar mi-...soli o'rab olgach, hayvonlar dengizlari ushbu (quruqlik) joyda mavj ...urdiki, bu toshqin sellar girdobidan u (hayvon)lar uchun na chiqadi-...gan, na o'tadigan joy topildi. Natijada, hayvonlar aylanib qo'zg'oldi-...lar, hayratlanib bezovtalandilar, ma'rashib talpindilar va vag'illashib ...fig'on qildilar, dod-faryod qilganlaridan keyin tinchidilar hamda doi-...mo ularga keng bo'lgan yerlarda siqildilar. O'sha yer bayroqlarining ...xil'atlari shu «hayvonlar yig'ilganda»[1258] ular qatorlari bilan tikildi. Qachonki u vahshiylar shu ahvolda g'oyat dahshatli vaziyatda ekan-larida, Temur, har tarafdan nog'oralarnn urishga nay va karnaylarni chalishga amr qildi. Shundan keyin kosalar urilib, surnaylar ovozi ham ko'tarilib, butun olam shovqin-suron, dod-voyga to'lib ketdi; «yer-u dunyo titrab»[1259], atrof alg'ov-dalg'ov bo'ldi.

Hayvonlar nog'oralar ovozini eshitib, vahshiylar bu dahshatli ho-latni ko'rganda holdan toyib, o'takasi yorildi, sulayib, qimir etmay qoldilar. So'ngra bir-birining pinjiga kirib (bir-birlariga) yopishib-lar va qiyomat-qoyim bo'ldi, deb tasavvur qildilar; ba'zilari ba'zila-rining bo'ynidan quchoqlab uxladilar, ho'kizlar (urg'ochi) sherlar quchoqladi, sher esa kiyik bilan (birga) yotdi, bo'ri esa ohular orasiga yashirindi, tulki quyon bolalariga qo'shildi, yovvoyi echki tuyaqush-dan panoh tilasa, quyon qirg'iydan yordam so'radi, kaltakesak katta baliqdan, qo'shoyoq qarg'adan madad istadi. Ana; shu damda Temur o'z avlodi va amirlarining bolalari-yu nabiralariga hech bir ikkilan-masdan istagani-yu (u hayvonlardan) otishni, shilishni, o'ldirishni buyurib, o'zi esa ularga nazar solib, (ularning ishlarini) tomosha qila boshladi. Ularning harakat-u holatlarini ko'rib, qahqaha otib kulardi, ularni olg'a undab, kurashga chorlar, bu bilan go'yo botirlarni ov qi-lishga jur'atlantirardi. Askar hoshiyalari ular o'ldirgan ovlarni tuga-tib, ko'paytirgan o'ljalarini yig'ishtira boshladilar.

Temur tarannum qilib (ushbuni) nashida etardi:

(O'zga) podshohlar quyon-u tulkilarni ovlashadi,
agar men otlansam, ovim (dushman) botirlaridir.

## Bo'lim

Temurga Balaxshondan balxash[1260], feruza Nishopur, Kozirun[1261] Xuroson ma'danlaridan, Hinddan yoqut, undan (Hinddan) va Sinddan olmos, Hurmuzdan[1262] marvarid, Xitoydan duxoba, baxmal, yashm, mushk va boshqa ashyolar, xolis kumush va sof oltin boshqa mam-lakatlardan olib kelinardi.

## Bo'lim

Temur Samarqandda ko'pdan-ko'p bo'stonlar barpo qilib, baland va mustahkam qasrlar bunyod etdi. Ularning har qaysisi g'aroyibli tartibda, ko'rkam va ajib suvratda edi. Bo'stonlar asosini mustahkam qilib, fahomatli mevali ko'chatlar bilan ularni bezadi. Ulardan birini Eram bog'i, ikkinchisini Dunyo ziynati, yana boshqasini Firdavs jan-nati, unisini Shimol bog'i, bunisini Oliy jannat deb atadi. Shuning-





k, ba'zi joylarni buzdirib, u bo'stonlardan har biri ichida bir qasr qurdirdi. Bu qasrlarning qay biriga o'z majlislarini, o'z suratini turli shakllarda: birida kulib turgan, ikkinchisida qahrlangan, o'zi qilgan janglar tasvirlarini, rasmiy tantanalardagi suratlarini; podshohlar, amirlar, sayyidlar, ulamolar va ulug'lar bilan suhbat qurgan majlis-larini; sultonlarning uning huzurida qo'l qovushtirib turishlarini, xizmat yuzasidan boshqa mamlakatlardan huzuriga kelgan ularning podshoh-u sultonlarining vakillarini, o'zining ov xalqalari-yu yashi-tin xaydlarini, Hind, Dashti (Kipchok) va Ajam janglari-yu o'z za-farlari suratini, dushmanlarnning qay ahvolda yengilib qochganini; o'z avlodlari, nabiralari, amirlari, qo'shinlari suratlarini; aysh-u ishrat majlislari va sharoblari qadahlari-yu qadahlari soqiylarini, o'z ulfa-ti qo'shiqchilarining, turli maqomdagi g'azalxonlik kuychilarining, huzuridagi sevgililari-yu (nikohidagi) pok xonimlarning va bulardan boshqa uning bir-biriga o'xshab, ulanib ketgan, uning butun umri mo-haynida o'zga mamlakatlarda voqe bo'lgan hodisalar suratlarini tas-virlatdi. Bular hammasi hech bir noqissiz va ziyodasiz, qay tarzda yuz bergan bo'lsa, shundayligicha aks ettirildi. Bundan maqsadi: o'zining ishlaridan g'oyibona xabardor bo'lib, ularni o'z ko'zi bilan mushoha-da etmaganlarga yaqqol namoyon qilib ko'rsatish edi.

Agar Temur biror tomonga otlanib, Samarqand, (uning) qo'shin-lari-yu yordamchilaridan xoli bo'lib, o'sha bo'stonlar bo'sh qolsa, shahar ahlidan badavlat-u miskinlar u (bo'ston)larga qarab yo'l olar-dilar. Chunki bu bog'lardan ko'ra yaxshi va ajoyib dam oladigan, bulardan ko'ra rohatlanishga muvofiqroq va osoyishtaroq joy yo'q edi. Bog'lardagi shirin, mazali, mevalar esa barchaga bab-baravar (tekin) edi. Chunki mevalardan bir qintori ham arzimagan bahoga bo'lsa-da, sotilmasdi. Shuningdek, Temur Samarqandning atroflari va etaklarida bir necha qasabalar bunyod qilib, ularni shaharlar kelin-chaklari bo'lgan Misr, (Qohira) Dimashq, Bag'dod, Sultoniya, She-roz kabi azim va markaziy shaharlar nomi bilan atadi[1263]. Samarqand bilan Kesh (Shahrisabz) o'rtasida bir bo'ston barpo etib, unda bir qasr qurdirdi va uni Taxta Qoracha[1264] deb atadi. Hikoya qiladilarki, qasr quruvchilaridan birovining biyasi yo'qolib, olti oy shu bo'stonda o'tlab yurgandan keyin uni topib olgan.

nazm etardi, – No'monuddin Xorazmiyni – u zikr qilingan Abdul jabborning otasi bo'lib, uni Nu'mon ikkinchi[1273] ham derdilar, uning ko'zi ojiz edi va mavlono Abdulmalikning amakivachchasi Xoja Ali dulavval – o'z amakisining o'g'lidan keyin[1274] Movarounnahrda ri yosat unga kelib yetgandi va amakivachchasi Abdulavvaldan keyin shu kunlarda riyosat kelib yetgan mavlono Isomuddiy ibn Abdulma likni hosil etgan edi. (Temurning) muhaqqiq (olim)laridan mavlono Sa'duddin at-Taftazoniy – u 791-yilning muharram (1389-yil yan var) oyida Samarqandda vafot etdi[1275] va Sayyid Sharif Muhammad Jurjoniy[1276] u Sherozda vafot etdi. Muhaddis (olim)laridan Shayx Shamsuddin Muhammad ibn al-Jazoriy[1277], Temur uni Rumdan olib kelgan bo'lib, u fitnadan[1278] oldin o'z vatani Shomdan Misrga kel gan, undan (Misrdan) esa Rumga qochib o'tgan edi. U Sherozda va fot topdi. (Yana) Xoja Muhammad az-Zohid Buxoriy, ulug' tafsirchi, xadischi, hofiz bo'lib, Qur'on ul-karimni yuz jildda tafsir qilgan. U payg'ambar – tangrining rahmati va salomi unga bo'lsin – shahari (Makka)da 822-yil (1419-yil)da vafot topdi. Qorilardan mana shu lar ikkalasi va (yana) mavlono Faxruddin bor edi. Qur'onni qiroatda ham, savtda ham tajvid bilan yod olgan kishilardan Abdullatif al-Domg'oniy, mavlono Asaduddin, Sharif Hofiz Husayniy, Mahmud Muhriq al-Xorazmiy va Jamoluddin Ahmad al-Xorazmiy va musiqa ilmida ustoz bo'lgan Abdulqodir al-Marog'iy edi; va'zxon va xatib lardan saroylik mavlono Ahmad ibn Shams ul-Aimma[1279] bo'lib, uni turkcha, forscha, arabchada malik ul-kalom deb atardilar. U o'z zamonining mo'jizasi edi; (yana) mavlono Ahmad at-Termiziy va mavlono Mansur al-Qog'oniydir. Mohir kotiblaridan hattot Ibn Band gir[1280] zikr qilingan Abdulqodir, Tojuddin as-Salmoniy va boshqalar; munajjimlardan bir guruh mohir kishilarki, men ularning ismlaridan faqat mavlono Ahmaddan boshqasini bilmayman. U tabib, misgar va yulduzga razm solib hisob oladigan (olim) edi. U menga: «Men yul duzlarga qarab ikki yuz yilga hukm (tolei) chiqardim», degandi. Bu gap (1405–1406) yilda bo'lgan edi. Zargarlardan al-Hoj Ali Sheroziy va al-Hoj Muhammad Hofiz Sheroziy va boshqalar; sangtadoshlardan katta bir guruhi bor bo'lib, ularning eng kuzga ko'ringani Oltun edi. U o'z hunarida bir mo'jiza bo'lib, qimmatbaho toshlarga naqsh solar,





...lmga, aqiqqa Yoqut (Musta'simiy)ning xatidan ham chiroylik xat ...lan o'yib yozardi. Shatranjchilardan Muhammad ibn Aqil al-Xaymi va Zayn al-Yazdiy va boshqalar. Shatranjchilarning allomasi fiqhchi, hadischi (olim) Alouddin at-Tabriziy[1281] edi. U Zayn al-Yazdiyga or-...qcha bir piyoda qo'yar va undan g'olib chiqar, Ibn Aqilga esa bitta ...t qo'yib, uning ustiga minib olardi (engardi). Temur sharq-u g'arb iqlimlarini alg'ov-dalg'ovga soldi. Uning jang-u jadalida har bir sul-...on yutqazib har bir shox jangda ham (shaxmat) o'yinda ham undan (engilib) mot bo'ldi.

Temur Alouddinga: «Go'yo men mulk siyosatida yagona bo'l-ganim kabi, sen ham shaxmat olamida tengi yo'qsan». (Shuningdek yana u) bizlardan, ya'ni men va mavlono Ali Shayxdan har qaysimiz o'z san'atida karomatlarga ega bo'lib, benazir kishilarmiz, – deyar-di. Shaxmat o'yini-yu mansubalari ilmida uning (o'ziga xos sharhi bo'lib, u bilan o'yinda chuqur o'ylamasdan (uning) fikri haddiga ye-tishga hech biron kimsa qodir emasdi. U shofi'y mazhabidan, fiqh il-mini yaxshi bilgan hadis olimi, xayr-saxovatli (kishi) bo'lib, chiroylik yuzli-yu haq so'zli edi. Menga hikoya qilishicha, u, Alloh yuzini karo-matli qilg'ur amirul mo'miniyn Alini tushida ko'rgan, Ali unga bir xaltada shaxmat tutqazgach, shundan keyin hechbir inson undan g'olib chiqmagan. Uning o'yin paytidagi sifatlaridan biri shu ediki, o'yin vaqtida u hech tafakkur qilmas, faqat (uning) raqibi uzoq o'ylab fikrga cho'mgandan keyin o'ynagach, u hech bir tadbir ko'rmasdan yurib qo'yardi. Bir vaqtning o'zida u ikki raqib bilan g'oyibona o'ynardi va hisoblashi natijasida o'z tomonida qanday donolar va raqiblari tomonida qanday donalar borligini bilardi. U va Amir (Temur) kat-ta shatranj o'ynardilar. Shuningdek, men unda davralik va uzunchoq shaxmatni ham ko'rgan edim. Katta shatranjda avval zikri o'tganidek, ortiqcha donalar bo'lib, mana bu uning bir tomonining suratidir.

1) Rux piyodasi. 2) Ot piyodasi. 3) Dabbaba piyodasi. 4) Ilg'or piyoda. 6) .... 5) Jirafa piyodasi. 7) Fil piyodasi. 8) Tuya piyodasi. 9) Vazir piyodasi. 10) Farzin piyodasi. 11) Piyoda piyodasi. 12) Rux. 13) Ot. 14) Dabboba. 15) Ilg'or. 16) Jirafa. 17) Shoh piyodasi. 18) Ji-rafa. 19) Ilg'or. 20) Dabboba. 21) Ot. 22) Rux. 23) Fil. 24) .... 25) Tuya. 26) .... 27) Vazir. 28) Shoh. 29) Farzin. 30) ... 31) Tuya. 32) .... 33) Fil.

Bu o'yinni o'rganish yo'li amalda osonroq bo'lib, uni so'zlar bilan sharhlash foydasizdir. Qo'shiqchilardan zikr Abdulqodir al-Marog'iy va uning o'g'li Safiuddin, kuyovi Qutb al-Mousiliy, Ardasher al-Changi va boshqalar. Uning lari ko'p, ularning eng ustuni Abdulhay al-Bag'dodiy bo'lib, san'atida mohir edi; bog'bonlardan[1282] Shihobuddin Ahmad kashiy; shisha va misga naqsh soladiganlar va ulardan boshqalar sobsizdirlar. Ularning har biri o'z asrining allomasi, o'z mo'jizakor (kishi)lari edilar. Agar alfozning qimmatbaho o'sha a'yonlar vasflari javharlari bilan bezatilsa, olam eng toshlar-u xolis tillo shodalari bilan (allaqachon) to'lib ketardi. shular men tanib, zikri-yu ismi xotirimga, kelgan kishilardir. men bilmagan yoinki bilgan-u biroq zikri-yu ismi xotirimda gan kishilar sonsiz-sanoqsiz bo'lib, hisob-kitobdan xorijdur. kalom, Temur har bir (foydali) jonni yig'ib, nimaiki narsa sarasini Samarqandga keltirdi. Natijada, Samarqandda har bir ajib ahli namoyandasidan va san'aktar g'aroyib uslubidan fazilati nasida nishona bo'lib, o'z tengqurlaridan ustun turgan o'z alloma kishilar yig'ilgan edi.

## Bo'lim

Samarqandda Shayx Uryon[1283] ismli ajib shaklli, oliy azmli bag'al adhamiy bir kishi bo'lib, aytishlaricha, shahar ahlining kichiklari o'rtasida tarqalgan ishoatga ko'ra uning yoshi uch yuz-u likda deb ovoza tarqalgandi. Shunga qaramasdan, uning qomati tik suvrati chiroyli edi. Samarqanddagi keksa mashoyixlar va uzoq ko'rgan akobirlar aytardilarki, biz yosh bolalar bo'lganimizda bu odamni shu holatda ko'rar edik. Bu kishi haqida bizning hurmatli otalarimiz va keksa mashoyixlarimiz ham shu tarzdagi rivoyatni otalari va keksa yoshli odamlari tilidan bizga naql qilib aytardilar. qorachadan kelib, kuch-quvvati bitmas-tuganmas, jo'shqin kishi edi. Uni ko'rgan kishi u hali «rosa ulg'ayib, balog'atga yetmagan»,[1284] deb tasavvur qilardi. Keksaligidan belgi bo'lgan yuzida na ajin, na asar bor edi. Amirlar, ulug'lar, a'yonlar, taqvodorlar, fozillar va boshliqlar





hujrasini ziyorat qilib, diydorini tabarruk bilar hamda duosi iltijo tilardilar.

Samarqandda masjid ar-Ribot[1285] deb ataladigan bir masjid bo'lib, har bir odamga sevinch va shodlik, tetik ruh va kuch-quvvat etardi. Aytishlaricha, masjid xodimlaridan biri Shayx Zakariyo ataluvchi vali kishi bo'lgan. U o'sha shahar ahli e'tiqod qiluvchi bo'lib, uning mozori baland tog'lardan birining cho'qqisida, bir joyda joylashgan edi. Uning qabri duo qilinib, (xudodan) tilanadigan qadam joy edi. Bu (qabr) Samarqanddan taxminan kunlik masofada (bo'lib), turli-tuman karomatlar bilan tavsifla- bu yuqori fazilatlar bilan sug'orilganligi (hammaga) ayon edi. (shayxning qabri) «barqaror bir tepa»[1286] ustida bo'lib, «etagidan joriy bo'lgan bo'stonlari[1287] ham bor edi. Qabr xayr-saxovat shod-xurramlikka burkangan, go'yo (u) jannat (zamini)dan kesib bir qit'a edi.

Hikoya qilishlaricha, kachonki bu (shayx) ushbu masjid quri- ishlayotgan vaqtida uning peshanasiga bir bo'lak loy tushgan. manzarani o'sha qurilish boshqaruvchilaridan birovi ko'rgan, peshanaga tushgan loy esa shu holatda uch kecha-kunduzgacha turavergan. Qachonki quruvchilar masjid mehrobini o'rnatishmoqchi bo'ltanlarida uning xato va savob (o'rnatilishi) haqida ular o'rtalarida ixtilof, voqe bo'lib, bu xususda ancha shovqin-suron-u iztirob sodir bo'lgan.

Oxiri Shayx Zakariyo «Mehrobni mana bu tomonga o'rnatib, undan na o'ng-u, na chapga burmanglar», – dedi: Shunda haligi boshliq shu joyda hozir bo'lganlarga:

– Ajoyib-u g'aroyib ishga qarang-a! Bu odam uch kunlab yuzini yuvmaydi-yu, odamlarga islom rasm-rusumlaridan yo'l ko'rsatadi, – dedi. Shunda u taqvodor, diyonatli kishi: «Tunini bedor o'tkazib, bitta tahorat bilan uch kunni kechiradigan odam yo'qmi? Bo'lmasa, beri kel-da, e munkir, joyingda tur va xotiringni jam qilib, o'zingni inkor etuvchiyu (dindan) yuz o'giruvchilarga o'xshatma-da, Ka'baning keliniga bir nazar tashla-chi, u qanday (senga) jilolanadi», – dedi. Shu payt ushbu munkir qarasa, muazzam Ka'ba uning ko'z ungida

ulug'vor turbdi. Keyin ular hammalari burilib, shayxga qarasalar, g'oyib bo'lib qolibdi, yeru ko'kni qidirib uni topa olmaganlar.

Bu masjidda ajib bir narsa bordir. Uning yog'ochdan ishlangan bir qancha ustunlari bo'lib, shular jumlasidan bitta ustun borki, balandlikda u (shu qadar) yuqori cho'zilganki, bo'yi o'n besh gazga yaqindir. Jismi va tanasining yo'g'onligidan u quchoqqa sig'maydi. Boshqa ustunlar uning atrofini o'rab olgan bo'lib, aytishlaricha, u paxta daraxti (dan) ekan. Uning ajib xosiyati va g'arib zarofati bo'lib, agar tishi og'rigan kishi shu paxta yog'ochidan bir bug'doy donasi miqdorini tishiga qo'ysa, u foyda qilib, shu zahotiyoq og'riqqa taskin berarkan. O'zim shuni sinab ko'rsam, u rost bo'lib chiqdi.

(Odatda) Samarqandni ko'rdim deb da'vo qilgan kishidan undagi ajoyib, g'aroyib va zarif alomatlardan nimalarni mushohida etib ko'rganligini so'raydilar. Agar so'ralgan kishi mana shu ajoyib ustunni ko'rganligini xabar qilsa, uning gapi rost (Samarqandni ko'rgan) deb, aks holda uni (Samarqandni) ko'rganligi «alag'-jalag' tush»[1288] deb bilinadi.

## Bo'lim

Samarqandda na sok, na qayla bo'lib, hisob talab narsalar jinsi qayla bilan hisoblanmasdi. Ularda o'lchov tarozi (yordami) bilan aniqlanar edi. Samarqand rattli (–0,5 g) qirq uvqiyadan iborat (bir uvqiya – 37,44 g), har bir uvqiyada yuz misqol (misqol – 4,68 g) bo'ladi. Demak, ularning bir rattli to'rt ming misqol bo'ladi. Har bir misqol hech zoidsiz-u noqissiz: (tortilsa) bir yarim dirhamdir. Shunga ko'ra, Samarqandliklarning har bir rattliga Damashqning o'n rattli (baravar keladi).

Menga Mavlono Mahmud Hofiz al-Muhriq al-Xorazmiy – uning al-Muhriq (kuydiruvchi) deb laqab olishiga sabab shuki, uning tovushi tarjiy'alari o'qlari otilganda zaif ruhlar nozik joylariga bexato tegar va (ular) torlarining jaranglagan ovozlari dillar quloqlariga ko'tarilib, ular (miyasi) qushlari o'ldirilib, unmasdi. Agar qalblar tosh misoli yorilsa, alangasidan ruhlarga uchqun uchib kelar va o'z jarangla-gan ovozlari bilan jonlarni kuydirib, nag'malari bilan tanalarni alangalatardi – menga shunday degandi: Safarlarining birida Temur meni





suhbatiga olgan ediki, kecha-yu kunduz men uning xizmatida bo'lib, yonidan jilmasdim. Uning askari bir qo'rg'on yaqiniga tushib, uning hisoriga kirishgandilar. Turgan joyidan jangga rahbarlik qilib (o'z) odamlarining mahoratini tamosha etmoq uchun Temur o'z cho-dirini baland bir joyga o'rnatgandi. Bir vaqt shu orada Temur huzurida men va yana ikki kishi qoldik. Shu payt Temurda isitma paydo bo'lib, ... g'am-g'ussa va qayg'uga solgan edi. Raqiblar to'qnashuv «osmoni yulduzlari esa chalkashib»,[1239] jang nayzalari biri-biri bilan aralashib chirmashib ketgan edi. Shunda Temur askarlari ahvolidan voqif bo'lib, ular harakatlarini mushohida etmoqni iroda etdi. Bu borada uning ishtiyoqi bulutlarga parvoz qilib, u: «Meni chodir eshigi (oldi)ga eltinglar», – dedi. Haligi ikki odam uning qo'ltig'iga kirib, eshik oldiga olib borib to'xtadilar, men esa uning oldida turardim. Temur askari muhorabasini ko'rib, ular zarbayu ta'nalarini ajrata boshladi. Keyin askariga bir narsani buyurishni istab, menga: «Ey Mahmud! Bu yoqqa kel!» – dedi. Men tezda uning yoniga borib, qo'ltig'iga kirdim. U o'zining ko'ngliga kelgan aji-buji amrlarini aytib, (haligi) ikki kishidan birini askari tomon jo'natdi. Go'yo uning buyrug'i shunday ediki, bu bilan u na bir bemorni tuzatdi, na bir tashnani qondirdi. So'ngra Temur bizga: «Meni o'z holimga qoldirib, yerga qo'yinglar», – dedi. Biz uni (erga) qo'ygan edikki, u go'yoqi: chirigan murda yoki bo'yradagi gusht kabi (gurs etib) yiqilib tushdi. Keyin u (haligi) ikkinchi odamni ham askarlari tomon yuborib, o'z ra'yi taqozo qilgan amrlarni buyurib, (o'z farmonlarini) ularga ta'kidladi. Yonimizda hech bir kimsa bo'lmasdan, biz ikkimiz yolg'iz qoldik. Shunda u menga: «Ey mavlono Mahmud! Jismimning zaifligiga, (ko'radigan) tadbirimning ozligiga qara, ushlay desam qo'l, chopay desam oyoq yo'q menda. Agar odamlar meni tashlab ketsalar, men halok bo'laman, agar meni shuholimda qoldirsalar, azoblanaman. O'z tanamni boshqarib «na zarari, na foydali»[1290] bir daf' qilaman, na yaxshilik keltiramanu na yomonlikni daf' etaman. Keyin u bir oz fikrga tolib: «Qanday qilib tangri taolo bandalarni menga muyassar ko'rdi? G'arb-u sharqni dahshatimga to'lg'izib, haybatimni ikki mag'rib-u ikki mashriqqa ovoza qildi? Podshohlaru pahlavonlarni menga bo'ysundirib, oldimda kisrovu qaysarlarni xor qildi? Bu harakatlar (hammasi) uning (tangri

taoloning) harakatlari bo'lib, bu ishlar (barchasi) uning ishlari mi? Men kimman? Men bir kasalmand, muhtoj kishiman, ishlar (uhdasi)ga kirish uchun menda na eshigu, na toqat bor?» Keyin u yig'lab (yuborib), meni ham (shunday) yig'latdiki, ko'z yoshlarimga to'ldi. Bu vaboga[1291] qarangki, shu so'zi bilan day qilib jabrga qoyil bo'lganlar maslagiga ega bo'lgan?»

Temur haqida forscha ikki bayt to'qiganlar, mana ular:

Yarim tanalik kishi jahon mulkiga ega bo'ldi.
Ko'zingni och-u xudoning qudratini ko'r.
Oyog'i yo'g'-u, ammo taxt uning oyog'i ostida.
Qo'li yo'g'-u, ammo butun mamlakat uning uzugida.

Men uni tarjima qilib, (yana) ikki bayt aytdim:

(Olloh) O'zining pinhona hukmi bilan qudrat ko'rsatdi.
Tanining bir qismi qurigan kishi dunyoga ega bo'ldi.
Qo'li yo'g'-u podshohlik uning uzugida,
Oyog'i yo'g'-u taxt uning qadami tagida.

**Bo'lim**

Uning askarlari va ular tutgan yo'llariga kelsak, o'z podshohlarining yo'lida bo'lib, o'zlariga ma'lum bo'lmagan vositalar orqali darajadan-darajaga ko'tarilar va gumon qilmagan tomonlaridan ularga rizq, kelib turardi. Ularga pinhona dafinalar musahhar, yashirin xazinalar ochiq, bekik matlabu ma'danlar (ularga) muyassar bo'lardi. Uning askari (qadami) barcha tomonlarda javlon urib, savlat to'kkan bo'lib, malomat yo'llarida[1292] qato (qushi)dan ko'ra ham to'g'ri yo'l boshlovchi bo'lib qoldi. Ular (oldindan) turli ishlar tadbiriga shaylangan, zamon (barcha) ahvollarini boshidan kechirgan, davr tangliklarini qiyoslab o'lchagan, turli tuzoqlarni boshdan o'tkazib, har qanday shiddatga iloj topgan, xilma-xil ishlarga duch bo'lib, turli-tuman odamlaru turmushni sinab ko'rgan, mushkul ishlar madxal-u mahrajlariga yo'l topib, (uning) zinapoyalaridan ko'tarilib, cho'qqisiga chiqishga idrok etgandilar. Garchi (ular) tez-tez cho'l-u biyobonlardan o'tib, dasht-u sahrolarni kezsalar ham, ularga hech qanaqa kulfat yopirilmas va hech qanday tug'yonchi nohaqlik ko'rsatmasdi. She'r:





«U (joylar) qo'rqinchlari quyonni qo'rqita olmaydi.
Kaltakesakning u yerda inga yashiringanini ko'rmaysan».

(Shu kezishlarida) ulardan qay biri birdan to'xtab, ko'rasanki, u o'sha joyning yeriyu tuprog'iga razm solib: «Mana bu tuproq bu yerniki emas», – deydi. Keyin u o'z o'lovidan tushib, o'sha joy tuprog'idan olib uni hidlaydi. Keyin to'rt tomoniga nazar soladi va (shulardan) bir tomonni ko'zlab jo'naydi. Shu alpozda yonidagi yordamchilari bilan bir joyga borib yetmaguncha yuraveradi, so'ngra, o'sha yerni kavlab, yashirin dafinalar va u joydagi boyliklaru xazinalarni chiqarib oladilar. Shuningdek, ular (aholi yashaydigan) imoratlarga kelsalar yoki maqbaralar yonidan o'tsalar ham xuddi o'z qo'llari bilan (oldindan) qo'yib qo'ygandek: yoki shaytonlari ularga shu haqda uqdirgandek, to'ppa-to'g'ri yashirin boyliklar bor joylarga yo'l oladilar. Ko'pincha ular ahli ancha zamondan buyon yashab, bir necha oy-u yillarni o'tkazib kelayotgan joyga kelsalar – u yerda o'z egalari va yashovchilari sezmagan biron boylik bo'lsa – ular kelishlari bilanoq (u boylik ularga) ochilib, (ular) undan voqif bo'ladilar. O'sha joyning (asl) yashovchilari bu holdan xabardor bo'lgach, hasrat-u nadomatdan barmoqlarini tishlab qoladilar. Ular (o'z) hayotlarida ajib ziyraklikka egz bo'lib, umr bo'yi fikrlari o'qlari nishonga bexato tegar edi. Ular ho'kizlarga yuk ortib (ustiga) minardilar, eshaklarga egar solib, yuganlab olardilar va shunga qaramay, arabi otlar sohiblari bilan o'ljayu g'animatlar makonlari tomon musobaqalashib, ulardan o'zib ketardilar. Ular tuyalarini it va qo'zichoq go'shti bilan boqardilar. Otlari arpalari evaziga bug'doy, guruch, tariq kishmish va yosmiq alishardilar. Bu narsaga ko'pincha ular safar (vaqti)da muhtoj bo'lib, o'z ulovlarini daraxt pustlog'i bilan ham boqardilar.

Tangri taolo rahmat qilg'ur, (avval) zikr qilingan xanafiy (mazhabli) qozi Burhonuddin Ibrohim ibn al-Kushaning menga hikoya qilishicha. Qozon[1293] (xon) va totorlar bu diyorlarga (Shomga) kelganda – go'yo Temur masalasida qilganlaridek – kimda kim qochishga madori bo'lsa, bu balodan tiraqaylab qochgan. Shular jumlasidan solihiyalik bir savdogar ham bo'lib, u bekam-u ko'st hayot kechirib, uning (o'ziga) kifoyatli mo'l-ko'l davlati bor edi. U o'zida bor til-

lo-kumushlarni jamlab, loviyaga o‘xshash bir ko‘zaga solib, novga bordi. Tashnovni qazib, ko‘zani uning ostiga qo‘yib, (tuproq bilan) ko‘mdi va tashnovni avvalgi holiga qaytarib, hamisha alpozdek qilib qo‘ydi. Qachonki alg‘ov-dalg‘ovlar tinchlanib, minishga taqdim qilingach, xotini savdogarga: «Bir juft sirg‘ani dimizdan chiqarib qoldiribmiz. Yo‘lda bir noxush hodisa ro‘y deb xavflanaman. Shularga bir joy topib yashirib, ko‘nglimiz sin», – dedi. Savdogar: «Biroq endi joy yo‘q» – dedi va sirg‘a ni olib, peshayvonning shiftiga nozik bir taxta ustiga bekitib qo‘ydi. So‘ngra ular otlanishib, uylarini tark etib yo‘lga tushdilar. Damashqqa kelgach, ulardan bir guruhi ushbu savdogarning qo‘ndilar. So‘ngra, ular ma’kulotu mashrubotga rujdu qo‘yib, «o‘yin kulgi va xursandchilikga cho‘mgan»[1294] paytlarning birida (bir) qon boyagi sirg‘alardan birini kemirganda sirg‘a marvaridi dumalab yerga tushdi. Haligi jamoa go‘yo Maryamning[1295] ikkita ziragiga gurgandek, dumalab ketayotgan marvarid orqasidan yugurdilar. varid jamoadan o‘tib borib, tashnovga tushib ketdi. Shunda ular (tash nov) yeri yuzidan sitra-yu pardasini ochib, boyagi ko‘zada yashirilgan mol-dunyolarni-yu (xaligi) marvaridni ham topib oldilar. Ikkinchi sirg‘ani ham izlab shiftdan uni ham topdilar va u (boylik)larni o‘zaro taqsim qildilar. Temur jamoasi ham aynan shulardan edi. Har qanday yechilishi qiyin mushkul masalalar ular (Temur odamlari) oldida oson edi. Ulardan har biri o‘z podshosi yo‘lida bo‘lib, o‘z san’ati (borasi-da) kamoliga yetgan edi.

Agar sen ular ahvollariyu axborlari xususida so‘zlamoqchi bo‘lsang, unda dengizdan so‘zla, zarracha mubolag‘asi bo‘lmaydi.

**Bo‘lim**

Hikoya qilishlaricha, ularning tadbirkor va firibgar kishilaridan biri qish faslida tanazzuh qilishni istab, ovga otlandi. O‘z ulovini chiqarib – ulovi bir ho‘kiz edi. Uning ustiga singan yog‘ochdan yasalgan egarini mahkam bog‘ladi. Uning uzangisi aylanali cho‘pdan, ayili esa kesilgan arqondan edi. U o‘z liboslarini kiyib, shaylandi. Uning kiyimi parcha-parcha qilingan mo‘yna terisidan edi. U uzunchoq, ti-





...gan namatdan ishlangan tojini kiyib, yasanib, yamoq-yamoq har ...teridan ishlanib ip bilan bog‘langan o‘qdonini tortdi. Uning ustida ...p bo‘linmali yopishtirilgan o‘qxonalar bo‘lib, undagi o‘qlar bir-bi... chalkashgan va egri-bugri joylari bir tekis bo‘lgan. Uning bilan ... qush o‘tqazadigan yog‘och, patlarini yulib olgan lochin bo‘lib, ...ning badani ekinzoridan giyohlaru o‘tlar yulib olingan edi. Shun...dan keyin u otiga mindi va lochinini (qo‘liga) olib, saydga jo‘nadi. So‘ngra kichik bir hovuz sohilida turgan bir to‘da o‘rdaklarni ko‘rib qoldi. Ushbu o‘rdaklarni ko‘rishi uchun bir muddat u lochin ushlagan qo‘lini. (baland) ko‘tardi. Keyin qo‘lini pastga tushirib, lochinni yer...ga qo‘yib yubordi. Shu payt lochin o‘rdaklarga nisbatan bir shumlikni o‘ylab, ohista-ohista lo‘killab ularga tomon boraverdi, chunki uchay desa unda na quvvat, tayaday desa na qanot bor edi. U sekin-asta qush...larga yetib kelib – o‘rdaklar esa yuz beradigan (hodisa)dan xavotir...siz edilar, chunki ular (keladigan) baloni faqat osmsndan kutardilar – ularning o‘rtasiga kirdi. O‘rdaklar (avvaliga) undan cho‘chib qoch...madilar. Faqat u ulardan birining ustiga tashlangach, o‘rdaklar (uni) sezib qoldilar. U qushni parcha-parcha qilib tashlagach, (lochin) egasi yetib kelib o‘ljani oldi. Qachonki Temur askarlari Damashqdan jo‘na...ganlarida – ular Damashq vujudi shoxlaridan uning ne’matlari bargla...rini hech qoldirmasdan (tozalab) yulib olgandilar – ulardan qay birida g‘oratda olingan bir ho‘kiz (bor) bo‘lib, unga o‘lja olgan mol-dun...yosini yuklab, ustiga asir ayolni ham o‘tqazgan edi. Shu ahvolda ancha muddat yurdi. Ikki-uch kun yo‘l yurganlaridan keyin ho‘kiz bezovtalanib, o‘z xoli tili bilan bu maqsad (odam ortib, yuk ko‘tarish) uchun yaratilmaganligi haqida nido qildi. Biroq shikoyatidan biron foyda topmagach, tangriga tayangan holda yerga yotib oldi. Ustida o‘tirgan ayolni tushirib, unga baqirdilar, ammo u o‘rnidan turmadi. Shunda ustidagi yuklarni yechib olib ho‘kizni kaltakladilar, lekin u qo‘zg‘olmadi. Keyin uni rosa kaltaklab, la’natlashu so‘kish bilan uni to‘yg‘izdilar. Yotgan joyida uraverib, uning butun badannni qonga beladilar, ura-ura qariyb uni o‘ldirayozdilar. Birlari oldidan ko‘tarsa (yana) birovi dumidan tortdi, biri shoxidan ushlasa, boshqa biri qulog‘iga yopishdi. Xo‘kiz esa Abraha fili singari qo‘zg‘olmasdan yotaverdi. Xullas, ular (uni qo‘zg‘atishdan) ojiz bo‘lib, umidlarini

uzdilar. Ular shu alpozda mushkul ahvolda g'amgin holatda turgan paytda baqlajon daraxtiga o'xshash bir soqoltoy chol paydo bo'lib mashriq-u mag'ribni kezgan, turli-tuman tajribalarni o'tkazgan, dunyoning issig'-u sovug'ini boshidan kechirib, hayotning achchiq-chuchugiyu xayr-u balolarini tatigan kishi edi – yonlaridan o'tib qoldi. Ushbu chol ularni ojizu hayron va mastlarga o'xshab – vaholanki ular mast emasdilar[1296] – turganlarini ko'rgach: «Undan (ho'kizdan) chetlaninglar, e jinlar!» – dedi va (jinlarga) kuf-suf qilib o'qiydigan azoyimxon jinga yaqinlashgani kabi o'zi ho'kizga yaqinlashdi hamda (erdan) bir changal tuproq oldi va ho'kizning shoxidan tutib: «...lik hayotini ber, – deb uning qulog'iga changalidagi tuproqni tiqdi. Keyin yotgan joyida ho'kiz boshini silkitdiki, nihoyat tuproq uning eshitish a'zolariga kirib, changning ta'siridan bezovtalanib, o'rnidan sakrab turdi va boshini silkita boshladi»[1297]. Ho'kizning sarkashligi va izgirobi ziyoda bo'lib, yurishni talab aylab shunday yurdiki, go'yo uchayozdi.

Uning ustiga yuklarini (qaytarib) ortib, og'irliklarni oshirdilar. Natijada, ho'kiz o'zini bilmay haddan ortiq, shiddat bilan chopib ketdiki, uni to'xtatishga qudrat bo'lmadi.

### Bo'lim

Temur askarlari ichida butparast turklar, olovga sajda qiluvchi majusiy ajamlar, kohinlaru, sehrgarlar, zolimlar-u munkirlar bor edi. Butparastlar (o'z) sanamlarini ko'tarib yurar, kohinlar esa kalomlarini saj' bilan ifoda qilardilar[1298]. U (kohin)lar murda va makruh qonlarni tanovul qilib, ular bo'g'ilib (xarom) o'lgan va (gardanidan) so'yilganlarni farq qilmasdilar. Uning askarlari ichida odam a'zolari-yu ajinlariga qarab fol ko'ruvchi odamlar va yolg'onchi zavojirlar ham bo'lib, ular qo'y kuraklariga qarab fol ochar va unda ko'rgan narsalari bilan dunyodagi turli hollar va yetti iqlimning har bir qarichida sodir bo'lgan omonligu xavf-xatar, adolat-u nohaqlik, arzonlig-u qimmatchilik, nohushlig-u shifo topishlik va keyinchalik yuz beradigan boshqa ishlar to'g'risida hukm chiqarardilar va (bu hukmida) kam-dan-kam xato qilardilar.





Ularda kunlar, oylar va yillar hisobi shundayki har qaysi yil bir hayvon (nomi)ga mansubdir. O'tgan yillarni shular bilan hisoblab, bu ...da na ziyodlig-u, na noqislik voqe bo'ladi.

Xitoyliklarning Dulbarjin deyiladigan yozuvi bo'lib, men uning ... bitta harfi (borligi)ni ko'rdim. Harflarning ziyodligiga sabab ...ki, ular hamma talaffuzlilar va «amalat»lar (qo'shimcha tovushlar), shuningdek, «bayin va bayinotlar» (yordamchi va ko'makchilar)ni ham harf hisoblaydilar. Shu sababdan ziyod va qo'shimcha harflar hosil bo'ladi. Ammo chig'atoyliklarning esa uyg'ur deb ataluvchi yozuvi bo'lib, u mo'g'ul yozuvi nomi bilan mashhurdir. U (yozuv) harflarining soni o'n to'rttadir. Mana bu ularning qit'a-qit'a kesimlari[1299]. Ular sonlarining kam va bu darajada mahdudlanganligiga sabab shuki, halqumdan talaffuz etiladigan harflarni ular bir xil ko'rinishda yozib, shu tariqa talaffuz qiladilar. Maxrajda bir-biriga yaqin bo'yidagi harflar singari, masalan: «bo»va «fo», yoki «zo» va «sin» va «sod» yoki «to» va «dol» va «to» kabilar; ular imzoyu farmonlar, buyrug'u maktublar, hisob-kitob daftariyu tamg'ali (narsa)lar, solnoma-yu nazmlar, qissayu xabarlar, ahdnoma va muqaddas kitoblardan parchalar hamda devon[1300] ishlari bilan bog'liq, jami xatlari-yu (hatto) Chingizxon tavrosini ham shu xat bilan bitadilar. Bu xatda mohir kishi ularda ochidan o'lmaydi, chunki bu (xatni bilish) ular nazdida rizq kaliti hisoblanadi.

### Bo'lim

Temur askari orasida tabiatan qo'pol, qo'rs va g'aliz kishilar, shuningdek rahmsiz, musulmonchiligi yo'q kishilar bo'lgani kabi, ular ichida (dinga) munkir, fojir, ovsar, pastkash, nodon, avom kishilar ham bo'lib, ular tangridan tashqari o'zlariga u (Temur)ni sardor va homiy deb qabul qilgandilar. Ular uning bilan o'zlaricha kibrlanib, «u bilan bag'oyat g'ururlanardilar»[1301]. Ularning kufurliklari va unga bo'lgan muhabbati shunchalik darajada ediki, basharti Temur payg'ambarlik yoki xudolikni da'vo qilsa, albatta ular uning da'vosini tasdiqlardilar. Ulardan har qaysisi unga (Temurga) bo'lgan muhabbatini vosita qilib, o'zlarini tangri taologa yaqin tutardilar. Agar ulardan biri qandaydir shiddatga uchrasa, unga (Temurga) nazir bag'ishlab,

o'z naziriga vafo qilardi. (Ular) Temur hayot vaqtida uning yangli e'tiqodi va kufurligidan davom etib, u vafotidan keyin esa o'z nas lari-yu atagan qurbonlarini uning qabriga keltirardilar. (Ulardan bi biri) uning musohabasida taraqqiy etib, hatto muroqaba[1302] maqomi yetdi.

Aytishlaricha, safarlaridan birida Temurning nazari bir askari tushganki, go'yo mudrash uning bo'ynini eggan yoki tungi sayr g dasini bukkan yoki u shunday bir holatda ediki, uni na so'kish, urish u yoqda tursin, hatto uni malomat qilib koyish ham o'rinsiz edi. Shunda Temur: – «Bu ishni qilgan, bu (kishi)ning boshini uzadig biron kimsa shu yerda mavjudmi?» – deb, bu gapdan ortiq hech nars demadi. Bu (xitob)ni o'sha yaramas munkirlardan biri eshitib – unin ismi Davlat Temur bo'lib, u mashhur, ulug' amir – tangri unga i tiqom libosini kiygizgan bo'lib, rahm-shafqatning xushbo'y hidida zarracha ham unga muyassar ko'rmagan edi – o'sha zahotiyoq u (sho'rlik)ning ikki kifti o'rtasidan boshini judo qildi va boshni Te murga keltirib, uning oldiga qo'ydi. Shunda Temur: – «Oh, bu qanaqa qabih ish», – dedi. U (kishi) javob berib: «Sen kesishga ishorat qilgan bosh shu-da!» – dedi. Bu ibora Temurni taajjubga solib, jindak shams bilan o'z amriga amal qilinishidan u shodlandi.

Ular orasida zarif, adib, zakiy va shoir kishilar bo'lib, ulardan fazilatda mashhurlaru ulamolar, ular ichida muhaqqiqlar, turli ilmlar da bahs yurituvchi mudaqqiqlar, ulardan ayrimlari barcha ilmlardan xabardor bo'lib, mantiq va mafhum (yo'li) bilan katta-katta bahslar yurituvchi, sufiya mazhabi va «Ihya al-ulum»ni[1303] tadqiq qilib, taqrir etuvchilar bor edi. Shu bilan birga, ularning ayrimlari o'z ilmi iqti zosi bilan ish tutardilar. Ular orasida «iymon keltiruvchilar va o'zaro sabru marhamatga nasihat qiluvchilar bor edi»[1304]. Ba'zilari bag'oyat xushsuxan, serlatofat, ilmi mukammal, nihoyatda zarif, ajib jamolli, chiroyi barkamol, so'zi ravon bo'la turib, qalbi toshdan ham qattiq, fe'li o'tkir qilichning zarbasidan ham xatarli edi. Ular payg'ambar dan rivoyat qilib gapirardilar-u, lekin otilgan o'q sur'atida (tezda) dindan[1305] yuz o'girardilar.

Agar bironta musulmon ular changallariga tushsa yoki biron g'a rib ular azobiga yo'liqsa, o'sha «haqiqatgo'y» olim va «tadqiqotchi»





alloma turli azoblar-u xilma-xil uqubatlar bilan uning mol-dunyosini shilib olishga har xil yo'llar topib, uni azoblash san'atida xilma-xil kitoblar-u masalalarni ro'kach qilardi; haqoratlash ilmlarida esa tur-li tuman xutbalaru risolalar keltirardi. Shunda o'sha miskin kuyib-yonib dod-faryod ko'tarib, o'zini har tomonga urar, tangri va uning oyatlarini vosita qilib panoh tilab, u (tangri)ning yer-u samodagi mav-jud (narsa)lari – farishta-yu payg'ambarlar, siddiqlar-u valilarni vosi-ta keltirib shafoat so'rardi. Unga haligi «yumshoq» malohatli kuladi, tavqlanadi, u yoq-bu yoqqa tebranib, u bilan lutfan muomala qiladi, latif she'rlar, qiziq va ajoyib, nodir tarixlarni nashida etib, misollar keltiradi. Ko'pincha u «kuyunadi va yig'laydi», uning haqiga qilin-gan azobdan «uh tortib, iztirob chekadi». Yetimlarning mol-dunyo-siga egalik qilgan ba'zi islom qozilari kabi unga nisbatan (nasihato-muz) xutba o'qib yig'laydi, ammo uning qilgan ishi esa musulmonlar dilini azoblaydi.

Qachonki ular Damashqda bo'lganlarida Zuqaq ul-Ajam deb ataladigan ko'chadagi a'yonlardan birining uyiga kirsalar, uy har xil nafis mollar, boyliklar va ne'matlarga to'liq ekan, she'r:

Bir qasrki, (barcha) taxiya va salom unga atalgan,
Kecha va kunduz o'z jamolini unga xil'at qilgan.

Ular uy sohibini tutib, uni bog'ladilar va har xil azob-ukubatlar bilan azobladilar. Keyin uning ikki oyog'idan tortib bog'lab, muallaq holda qo'ydilar. Nafis mollarni chiqarib, ular husndor kelinchaklari jilolar (ya'ni asllar)ini ajratib oldilar. Lazzatli ma'qulot va mashrubot-lar hozir qilib, o'z xohishlari miqdoricha ko'ngil xushlig-u kayf-u sa-foga sho'ng'idilar. Ular yeb-ichib, o'yin-kulgi-yu xursandchilik qila boshladilar. Shunda agar ulardan birining pastkashligi tutib qolsa yoki kayfi oshib, mastlik xarxashasi uning jazavasini qo'zg'asa, u haligi miskinning yoniga borar – u esa g'oyatda ayanchli ahvolda turardi – unga namakob ichirar burniga ohak va qum tiqib iskatar edi.

Ular bilan birga sharob tanovulidan o'zini tiyib tarki dunyo qilgan bir olim kishi bo'lib, u go'yo ushbu she'rda aytilgandek edi:

(Bu) shayximdan va uning tark-u dunyosidan,
U do‘zaxining zikriyu qo‘rqinchlaridan taajjubdaman.
U kumush idishda ichishni makruh biladi-yu,
Lekin kumush qo‘liga tushsa uni o‘g‘irlaydi.

Qachonki za'faronsimon qadah o‘rtalarida aylantirilgan paytda uni chaqmoq qand keltirib, uni sinadigan (nozik) chinni idishda uning ostiga qo‘yardilar va qand ustidan toza suv quyardilar. O‘zlari qadahdagi ichimliklardan mast bo‘lsa, u fosiqu mahrum (olim) esa uning ko‘didan mast bo‘lardi. Keyin u (olim) g‘oyatda alamli azobda turgan uning sohibining yoniga borib (uni) ustidan kular, uni masxaralab, masxara qilardi. So‘ngra dutor-u setorlar ohangiga tebranib, o‘sha ma'kulot va mashrubotlardan tanovul qilar va «baxilning moliga bir hodisa yoki merosxo‘r bilan bashorat ber» (zarbul masali)ni aytardi.

Temur askari ichida ayollar ham ko‘p bo‘lib, ular jang to‘s-to‘polonlari va shiddatli tuqnashuvlarda matonat ko‘rsatardilar. Ular (dushman) erkaklariga qarshi turib, mardonavor urush qilardilar, jangda nayza sanchishda, qilich bilan zarba berishda va kamondan otishda mohir erkaklardan ko‘ra ham ortiqroq ish qilardilar. Agar ulardan biri homilador bo‘lib, yo‘lda ketayotgan paytda uni dard tutsa, u o‘z jamoasidan ajralib, (yo‘ldan) chetga chiqardi va ulovidan tushardi.

Ko‘zi yorigach, chaqalog‘ini o‘rab olib, uloviga minardi va yana jamoasiga kelib qo‘shilardi. Uning askari ichida safarda tug‘ilib (shu holatda safarda) balog‘atga yetgan, uylanib bola-chaqalik bo‘lgan, lekin (sira) o‘troq turmush kechirmagan ko‘p kishilar bor edi.

Temur askari ichida oliyjanob, ibodatli, taqvodor, xudojo‘y, saxovatli, himmatli kishilar ham ko‘p bo‘lib, ular ezguliklarida (cheksiz) manbalar bo‘lib, bu (xayrlik)lar buloqlarining kirim va chiqimlari bor edi. Asirni ozod qilish, noqislikni to‘lg‘azish, yong‘inni o‘chirish, (suvga) g‘arq bo‘layotganni qutqazish, o‘zgalarga xayr-u ehson ko‘rsatish, boshiga qulfat tushganga (yordam) qo‘lini cho‘zish u (kishi)lar odatlaridan bo‘lib buni yohud quvvat yoki qo‘l (kuchi) bilan, yoxud biron xil makr-u firib bilan, yoxud tilash va shafoat so‘rash bilan, yoxud badal berish-u sotib olish yo‘li bilan imkonlari boricha-yu qudratlari yetguncha ado etardilar. Bu (kishi)larning Temur bilan bir-





...yurishlari zaruratdan bo‘lib, ushbu (zikri o‘tgan) ezguliklar atrofi... aylanishlari esa ixtiyoriy edi.

Qur'onning mashhur tajvidchilaridan biri mavlono Jamoluddin ...mad al-Xorazmiy – u (Temur nabirasi) Muhammad Sulton hayot ...ida uning imomi, u vafotidan keyii esa uning madrasasida imom... qilgan. Keyin u Brusada xatib bo‘lib, o‘sha yerda – tangri taolo uni ...mat qilsin – 831-yil (1427–1428-yil)da o‘z ajali bilan qazo qilgan ...menga shunday degandi: «Men Samarqandda Muhammad Sulton ...drasasida uning mamluklari va amirlari o‘g‘illariga Qur'ondan ...'lim berardim. Shunda unga zolim bobosi (Temur) chopar yuborib – ...(Temur) Rum yerlari tomon otlangan edi – uni va Amir Sayfuddinni yo‘lga chiqib, huzuriga kelishlarini xabar qildi. Muhammad Sulton ushbu farmonga amal qilib, safar anjomlarini hozirlashga kirishdi va menga: «Ishlaringni saranjomlab, bizga yo‘ldosh bo‘l, safar anjomlaringni ol. Bola-chaqang-u mol-dunyong foydasiga ish tutib bizga hamrohlikka muvofiq bo‘l, chunki ma'qul hamroh bilan safar qilish muvaffaqiyat asosidir», – dedi. Men bu safardan uzr so‘radim, o‘z oldimda bu safar eshigini bekitishda xilma-xil yo‘llar tutib, unga dedim:

«Ey mavlonom! Mening kasbim kur'on o‘qitish bo‘lib, o‘zim faqir kishiman. Safar eshigini ochishda menda toqat yo‘q. Chunki vujudim zaif, oyoq-qo‘llarim beholdir. Garchi mavlono amirning suhbatida barcha xayr-u barakalar mavjud bo‘lsa dam, harakat qilishga men qodir emasman. Xususan mana bu uzoq masofali sermashaqqat safarga chiqishga quvvat yo‘qligi ustiga (yana menda) safar mazgilida (almashtiradigan) na bironta tuya[1306] bor. Ammo sizlar uchun bu safar shubhasiz lozim va zarur vojibdir, uni paysalga solib, sustlik bildirish va keyinga surishning chorasi yo‘q, – dedim. Ammo u meni (safardan) ozod qilmay, shunday vaj-karsonlar keltirib, meni noxush qildiki, men ularga yarasha shifo topa olmadim. Natijada, (menga) safar hozirligini ko‘rib, (o‘zimga) yo‘ldosh va oziq-ovqat olishdan boshqa yo‘l qolmadi. Keyin biz yo‘l yurib, nihoyat bobosi (Temur)ga yetib keldik. U (bobosi) tamomi jiddiyat bilan otlangan bo‘lib, biz ushbu askarlardan na oxiri-yu na avvali bo‘lmagan dengizlarni ko‘rdik. Basharti ulardan biron kishi o‘z jamoasi ipidan uzilib qolsa yoki to‘g‘ri yo‘lidan chet-

lashib adashsa, ularga chiroq va sham bilan ham yetisha olmay, [illegible] qiyomatda o'z jamoasini topadi. Men ham ular bilan ketaver[illegible] kasr yegan suyagim holdan toyib meni charchatgan, tinkam[illegible] rib, noxushlik qamrab olgandiki, yurish menga malol kelib, bet[illegible] bo'ldim va yo'ldoshning bahridan o'tib, sezdirmasdan yo'ldan [illegible] ga chiqdim. Xilvatda qolgach, ohista ovoz bilan qur'on ul-azim[illegible] (o'qib) tilovat qildim. Keyin zavq-u shavq meni shunday qamrad[illegible] men tomog'im ovozining boricha balandlarga parvoz qildim – [illegible] ovozi mayin so'z ulanish ustida nozik to'xtalishdan ko'ra yoqim[illegible] roq, shimol nasimi bilan kasallangan, mahbub lubobi (so'lagi) bil[illegible] seroblangan kishining may kosasiga may to'ldirishdan ko'ra lazz[illegible] liroq edi. (Yana) u dedi: «Keyin to'satdan yonimda zaif, xivchin[illegible] quruq, oriq, sochlari to'zib rangi oqargan, changga belangan juld[illegible] kiyimli ikki kishi paydo bo'ldi. Ular meni begonalardan (deb) gum[illegible] qilib, chodir ipi qoziqqa (mahkam) bog'langandek menga bog'lani[illegible] tikilib qoldilar hamda mening holatimni kuzatib, so'zlarimga qul[illegible] tuta boshladilar. Qachonki men shivirlashimni to'xtatib, pichirla[illegible] shimni tugatganimda va (o'z) siynam xazinasiga kalimalarim javhar[illegible] larini bekitganimda hamda o'z duoim muhri bilan oyatlarim jilvala[illegible] rini xotima qilganimda munojotimdan ular yig'lab yuborib, duomga omin o'qidilar. Keyin men tomonimga yaqin kelib, salom berdilar. Mening tilovatimdan eshitganlari ularni to'lqinlantirib, ular tarannum etib: «Sen bizning qalbimizni yashnatganing singari tangri sening qalbingni yashnatsin! Ko'ksimiz lavhalariga satr etgan ajoyib tilovating bilan sen bizning gunohlarimizni mahv etding», – dedilar. Keyin ular menga xayrixohlik bilan xitob aylab, savol-javobda men bilan raqobat qilishib ketdilar. Ma'lum bo'lishicha, ular asl chig'atoylik va xolis Temur askarlari, totor baqiroqlari va fitnayu falokatlar negizidan ekanlar. So'ngra ular mening uy-joyim, nasabim va bu safardagi hamrohimu yo'ldoshim haqida so'radilar. Shunda men ularga mavlidimu naslim va tug'ilgan shahrim haqida hamda o'zimning qur'on ahlidan bo'lib, Muhammad Sulton bilan birga (kelgan)ligimni xabar berdim. Ular menga: «Ey sayyidimiz, shayx! Biz huzuringga sen (bizga) xayr ish qilasan deb keldik. Biz sendan bir narsa haqida so'raymizki, unga javobdan bo'yin tovlama», – dedilar. Men ularga: Meni malol ola-





[illegible] deb o'ylamanglar va so'raydiganlaringni tortinmasdan gapirave[illegible]nglar» – dedim. Ular «Ey mavlono! Garchi bu narsa bizni ilgari[illegible] bezovta qilgan bo'lsada, hozir ham u bizni tashvishga solmoqda. [illegible] o'ziga aloqasiz (narsa) bilan mashg'ul bo'lgan har bir kishi o'ziga [illegible]aloqali (narsa) ni tark qilib, o'ziga kulfat yetkazadigan narsaga ilinib [illegible]qolgan. She'r:

Kimki falokatdanxayrni ajrata bilmasa, (albatta) u balokatga yo'liqadi.

«Azbaroyi xudo, aytchi, ey sayyidimiz! Sen qayerdan ovqatlana[illegible]san?» – «Muhammad Sulton dasturxonidan», – dedim men. Shun[illegible]da ular: «Shu askarlar tanovul qiladigan ovqat halol yo harommi yo [illegible]gunohmi?» – dedilar. Men: «Ko'pchiligi haromdir, balki uning ham[illegible]masi, xudo haqi, haqsizligu jinoyatlardir. Chunki ular talon-toroj, [illegible]nahb-u g'orat, bosqinchilik, zo'ravonlik, o'g'irlig-u qaroqchilikdan (kelgandir)», – dedim.

Ular: – «Azbaroyi xudo, ey imom! Bu so'zlar bilan senga muro[illegible]jaat qilib biz odobdan chetga chiqdik. Lekin sizlar ilm ahlisiz, gunoh[illegible]korlarni afv qilish va (ular bilan) shirin suxan bo'lish xususiyatin[illegible]gizdir. Qasrni tuzatib, asirni ozod qilish hamda mushkul ishni oson qilishda siz avlo (kishilar)siz. Shu sababli bizning bu xiraligimizni afv bilan qabul etib, (bizning) tegajog'ligimizga zaharxandalik bi[illegible]lan muomala qilma», – dedilar. Men: «Birin-ketin hech tortinmasdan so'rayveringlar», – dedim. «O'z kalimalari xazinalariga seni ixtiyor aylagan, qaysiki uning kalimalariga butun bandalari ibodat qilib, u (kalima)larida ularga halol va harom belgilarini bayon qilgan tangri nomi bilan qasam ichib, sendan o'tinib so'raymizki, senga qo'qqisdan, nogahon kelganligimiz uchun bizni ma'zur tut, chunki (to'g'ri) yo'l ko'rsatuvchi shayx odobsizligi uchun o'z o'g'lini koyimaydigan shafqatli ota kabidir», – dedilar. Men: – «Aslo, o'zingiz xohlab irodat qilgan narsalaringni tortinmay so'rayveringlar», – dedim.

Ular: «Ey sayyidimiz! Ana u yaramaslarga hamroh bo'lish va haloldan yuz o'girib haromdan boylik orttirish senga (shunchalik) zarurmidi?» Men: «Men zaruratdan ular ichiga kirib qolib, majburan, istamagan holda ular bilan (safarga) chiqdim. Muhammad Sulton meni majbur qilib, taqdim etgan ehsonlari bilan menga mulozamat

qildi. Natijada, men ularga hamroh bo‘ldim-u, lekin bu safar ... surmasidan vujudim ko‘zi noxush bo‘ldi. Otim meni bu safarga ... ratdan olib kelib, shu yerga qo‘ydi», – dedim. Ular dedilar: «Agar ... (bu safarga) chiqishdan bosh tortsang, ular sening qoningni ... bolalaringni asir qilib, haramingni tahqirlarmidi?».

Men: «Azbaroyi xudo! Unday qilmasdilar, xudo saqlasin». ... «Bo‘lmasa, ular seni hibsga solib kaltaklab, musodara maqomiga ... zarmidilar? «Men, barcha azob-uqubat va tahqir etishlardan xoli... chunki men Qur’on hofizi bo‘lib, u (Qur’on) meni bu falokat... muhofaza etuvchidir», – dedim. Ular dedilar: «Ular senga qila... ishning eng so‘nggi haddi shuki, agar seni safardan voz kechib ... qilganingni bilsalar, ular seni so‘kib moyagingga yopishib, uni ... dilar, sendan nafratlanib, ko‘rsatadigan xayru ehsonlarini to‘xtatardi... lar». Men aytdim: «Hatto ular shunday ham qilmasdilar. Mening ... nazdida tutgan maqomimning mustahkamligi va barqarorligi ... aziyatlarga yo‘l qo‘ymaydi. Lekin ular mening ko‘nglimni ovladilar... men istihola qildim va ular pandlariga men aldandim. Qani edi (o‘sha vaqtda) men ularga rad javob qila olsam». «Bu (gaplar) sen uchun ... uzr, na vajga yaraydi. Sendek nodurust dalil ko‘rsatganlar Tangri ... huzurida haqiqiy kechirimga muyassar bo‘la olmaydi. Sen o‘z ... koningda o‘tirib qur’onning tilovati bilan mashg‘ul bo‘lsang, ilmingni mutolaa qilib, maslakdoshlaring bilan bahs yuritsang, badaningni (bu) mashaqqatdan forig‘ tutib, qorningni halol (taomlar)ga to‘ldirsang, diningni ana u yaramaslardan himoya qilib, harom tanovul zaruratidan rohat olsang bo‘lmasmidi? Shu bilan birga biz sizga o‘xshashlardan eshitganmiz – darhaqiqat, siz to‘g‘ringizda keltirilgan misollardan ma’lumki, qur’on ahli va uning maslakdoshlari tangri ahli va unga xos (kishi)lar hisoblanib, ular tangri bandalari o‘rtasida uning hur kishilaridir va ular barakatlari orqali bandalari ustiga bulutdek serob o‘z rizqini yog‘diradi, darhaqiqat, sultonlar butun odamlar ustidan maliklardir, ammo sizlar esa maliklar-u sultonlar ustidan (ham) maliksizlar. Chunki Alloh sizni hur qilib, odamlar (sizni) istisno ko‘rdilar. Natijada, Siz tangri bandalari uchun qalb, jigar va bosh maqomida bo‘ldingiz. Biron kimsaga siz ustingizdan hokimlik qolmadi. So‘ngra sizlar o‘z qo‘lingiz bilan o‘zingizni shu mushkul ahvolga tashlab, parvona o‘zini





...ga urgandek o‘zingizni halokatga urdingiz. Xalos bo‘lishga qodir ...la turib o‘zingiz zararu muztarlik etagiga yopishdingiz. Shunday ...n, qanday qilib bu uzr o‘rinli? Qay tariqa bu uzr al-Malik al-Jabbor (...ngri) azobidan sizni qutqazadi? Yoki sizlar ushbu shoir aytgandek ...lib qoldingizmi?

> Ey qorilar jamoasi! Ey shahar tuzi!
> Agar tuz buzilsa, uni nima tuzatadi?

«Ammo masalaga chuqur razm solsangiz hammamiz ham shu musibatga sherikmiz», – dedim men. Tanho misra: Ey kabutar! yig‘layver, senda bor narsa menda ham bor! Yana aytilgan:

> Tol daraxtidagi kabutar, senda bor narsa menda ham bor,
> Faqat men tanasida, sen esa shoxidasan.

Keyin ular yig‘lab fig‘on qildilar, oh-voh tortdilar va kuyib-yonib, chuqur xo‘rsinib dedilar: «Sening qissang bilan bizlarning qissamiz orasida qanchalar yiroq masofa bor?... Sharqu g‘arb rabbi nomi bilan qasam bo‘lsinki, ikkala qissa orasida sharq va g‘arb orasicha masofa bor. Lekin gapirishga majol bo‘lmay, har qanday ma’lum narsa gapirilavermaydi. Sir bilan oshkora (e’lon) qilingan (narsa)ning orasi qancha. Chunki «devorning ham qulog‘i bor». Men: «Bu (gapingiz) ham dalil emas, yaroqsiz dalil aytganingizni rad qilmang», – dedim. Ular aytdilar: «Bizlar jabr bilan majbur qilinib, qahr va zo‘ravonlik bilan olinganmiz va devonda qayd qilinib, yordamchi a’yonlardan biriga biriktirilganmiz. Agar, masalan, hayit yoki navro‘z kunidami, bizga (biron tomonga) chiqish xususida farmon bo‘lib, yurish (boshlanishi) peshin paytiga belgilanib, bizlardan birontamiz asrgacha kechiksak uni urish, so‘kish, tahqirlash yoki adolat yuritib shafoat qilish u yoqda tursin, uning bu qilgan «gunohi» uchun faqat salb etish yoki bo‘ynini uzishdan bo‘lak jazo ko‘rilmaydi. (Mana ko‘rdingmi), sen bilan biz o‘rtamizda hech qanday o‘xshashlik yo‘q. Shuningdek, (agar) biron-

ta orqada qolsa, yashirin etak ostida bekinib qolsa va to'xtasa ham (ushbu jazo qo'llaniladi). Shu sababli biz umr bo'yi shu kabi (tazyiq)larga tayyor turamiz va o'z tengqurlarimiz boshiga tushgan bu holdan ogohda bo'lib, sodir bo'ladigan ishorayu amrga har qachon itoat qilamiz. Tangri rahm qilgan, boshqadan ibrat olgan (kimsa) fikriga amal qilib ibratlanamiz. Uning (Temurning) mamlakatidan chiqib, uning viloyatiyu saltanati iqlimidan bosh olib ketish koshkiydi, bizga mumkin bo'lsa? Qanday qilib ham bu (ish) bizga mumkin bo'lsin? Axir, bu bizning ona yurtimiz, o'z qavmimiz mahali, do'stlik maskanimiz, muvofiqlik rihlamiz, maishatimiz qo'rg'onlari, ota-bobomiz unib-o'sgan, bola-chaqalarimiz tug'ilib, voyaga yetgan, qabila-yu urug'larimiz makonlari, bizning hozirgilarimiz-u o'tgan avlodlarimizning o'troq joylari-ku? Bulbul yoki popishak u yoqda tursin, agar qabilamiz hasharotlaridan hatto bironta qora chigirtka g'oyib bo'lsa ham albatta boshqalarni zulm va nohaqlik seli surib ketib, qolganlarimiz gardaniga qilich tutgan o'lim savlatchisi tasarruf yuritadi.

Ammo, agar biz u bilan bir tomonga chiqib, yurishga azm qilsak va tayyorgarlik ko'rsak: necha yil g'oyib bo'lamiz va bu shubhali (harakatga) iroda qiluvchi (kishi) qaysi tomonga (yurishni) xohlaydi? – deb so'raymiz va shunga binoan safar hozirligini g'amlaymiz. Bizlardan har birimiz boshqasining amakivachchasi va qo'shnisidir. Har birimizda alohida xalta bo'lib, unda talqoni va o'ziga yarasha oziq-ovqatu otiga kerakli ozig'i bo'ladi. Biz butun (safar) vaqti ro'za tutgandek bo'lib, faqat o'lib qolmaslik uchun ozroq ovqat tanovul qilib, ovratni bekitib turadigan ko'hna va juldur kiyimlar kiyardik. Bularning hammasi o'z qo'limiz bilan mehnatimiz evaziga yaratilgan narsalar bo'lib, ular yo'lida o'z peshana terimizni to'kib, topgan narsalarimiz edi. Chunki halollik bizning eng yuqori maqsadimiz bo'lib, biz o'zgalarning moliga ko'z olaytirib, izzat-u nomusiga tegmaymiz, birovning ishiga g'ov bo'lib yo'lida turmaymiz, hech bir kimsaning bizda haqi yo'q bo'lib, bizlar bilan boshqa birov orasida na aloqa-yu, na bog'lanish bor. Lekin, ey mavlono! Balo cheksiz va musibat umumiydir».





Keyin ular boshlarini o'ng-u chapga qimirlatib haybat va ulug'vorlikdan ularni titroq bosdi, lablari oqarib, peshanalari qoraydi. Ular uvvos tortib yig'lab, dod-faryod soldilar, cho'ziq va to'liq fig'on bilan ho'ngray boshladilar. Xudo haqi, rostdan ham ular huzurida nafsim erib (bo'shashib) ketib, ular oldida ulug' mashoyixlar ham menga arzimas bo'lib qoldilar. Shunda men ular boshiga tushgan shiddatli ish haqida fikr yuritdim va ularning yonib turgan cho'g'ni kaftlarida tutib turganliklarini bildim va so'ngra ketma-ket oh-voh qilib, ularga: «Azbaroyi xudo, e birodarlar? Siz zikr qilgan cheksiz balo va umumiy musibat nima?», – dedim.

Ular javob berdilar: «Bizning otlarimiz va chorvalarimiz, ko'rpa-yostig'-u to'shaklarimiz homillaridir. Yuk ortishda ularga rahmdillik qilib, faqatgina (yurishdan) madorimiz qurigan (vaqt)dagina biz ularni minamiz. U (hayvonlar) ishining shundayligi bizning belimizni bukib, holimizni ojiz bo'lib, musulmonlar qoni hamda ular mol-dunyolarida sho'ng'ishga majbur qildi. Bizlarga u (musulmon)lar ziroatlarida o'tlab, ular uvollarini ustimizga olishga zarurat tug'dirdi. Bundan qanday xalos bo'lib, bu tuzoqdan qaysi yo'l bilan najot topishimizni bilmaymiz. Azbaroyi xudo, e sayyidimiz shayx! Sen biz uchun bu bahosi qimmat ishni arzonlashtirish (yo'li)ni topasanmi? Yoki bu issiq haroratni o'chiradigan yoki bu hasrat g'ussasiga taskin beradigan bir qatra muzdek suv bormi?» Men dedim: «Azbaroyi xudo, yolg'iz tangri inoyatidan boshqa yo'l yo'q! Xudo haqi, sizlar, meni yomonlik (ovqati) bilan to'ydirib, achchiq va alamli (aloye yoki sabur) ichimliklar ichishga majbur qildingiz hamda azobu mashaqqatlar bilan yukimni og'irlatdingiz. Vaholanki, o'zimda bor bo'lgan g'am-g'ussa-yu azoblarim (men) kafanga kiradigan kungacha menga kifoya qilardi. Ammo, siz bo'lsangiz kulfatimga kulfat, azobimga azob qo'shdingiz. Azbaroyi xudo, siz kimsiz? Ismingiz nima? (Olamning) qaysi tarafida sizning yeringizu osmoningiz? Siz kim bilan birga kelgansiz? Siz o'zingizga berilib, ato qilingan yaxshi xususiyatlar bilan muboraklaning. Menga shularni xabar berib, (meni) hayratda qoldirib ketmangki, har vaqt men sizning oldingizga kelib, siz bilan salom-alikka sazovor bo'layin».

Ular dedilar: «Ey mavlono! Tangriga hamd bo'lsinki, u (zot) bizga sening ruiyatingni ato qildi. Ammo bizni tanishing sen uchun na biron foydayu, na biron barakat keltiradi va bizni (sen) tanimasligingdan na bir aziyat-u na bir zarar ko'rasan. Bizning aksar gumonimizcha, ey mavlono! Bugundan keyin sen bizni hech qachon ko'rmaysan. Agar sen bilan ko'rishish (tangridan) taqdir etilsa, bosh ustiga deb biz huzuringga yugurib kelamiz. Bizning xalifamiz – tangri(dir). Xayr, omon bo'ling!

Keyin ular to'xtamasdan men bilan xayrlashdilar va meni firoq alamida qoldirib, yiroqlashib ketdilar.

Bu (qissa) dengizdan bir qatra, tog'dan bir zarradir. Subhoni va tangri taolodan o'z muruvvati-yu xayr-u saxovati bilan so'zlarimizni xatolardan, ish va hollarimizni safsata va xalaldan saqlashini tilaymiz. Mana shu (qissa) oxiri.

Olamlar egasi bo'lgan tangriga hamd bo'lsin! Sayyidimiz Muhammadga, uning urug'-aymoqlari va sahobalariga Tangrining rahmati va salomi bo'lsin! Tangri biz uchun kifoya va (u) oliy yo'lboshchidir!





## IZOHLAR

1. Qur'on, 67-sura, 2-oyatdan.
2. Qur'on, 67-sura, 16-oyatning oxiriga ham ishora.
3. Qur'on, 3-sura, 103-oyatdan.
4. Qur'on, 33-sura, 40-oyat.
5. Qur'on, 23-sura, 100-oyat.
6. Qo'lyozma va nashrda xato berilgan, asli al-Masih ad-Dajjol – musulmonlar o'rtasida tarqalgan rivoyatga ko'ra oxir zamonda paydo bo'lib, Xudoning g'animi sifatida ish tutadigan soxta payg'ambar Antixrist (qarang: И. П. Петрушевский. Ислам в Иране, стр. 70–71).
7. Qo'lyozmada: siylov uyi.
8. Qur'on, 30-sura, 9-oyatdan.
9. Qo'lyozmada: taqdir qo'llari.
10. Matnda oyog'ida oq olasi va peshanasida oq qashqasi bor (zotdor) otlar ma'nosida keltirilgan.
11. Qur'on, 3-sura, 173-oyatdan.
12. **Ajam** – g'ayri arab. Bu haqda yana qarang: «Abdullanoma», 1-jild, 326-bet, 16-izoh.
13. Bu xususida Temurning rasmiy tarixchilari hech narsa yozmasalarda, lekin 1404-yilda Samarqandda bo'lgan kastiliya (Ispaniya)lik elchi Ryui Gonzales de Klavixo ham aynan ushbu fikrni takrorlaydi. Qarang: Дневник путешествия, стр, 24.
14. Sharafuddin Ali Yazdiy (Zafarnoma, v. 7[b]) Temur Ko'ragon ibn Amir Tarag'ay ibn Amir Barakal deb zikr qiladi.
15. V. V. Bartoldning yozishicha, Ibn Arabshoh asaridan boshqa hech bir manba'da Temur tug'ilgan joy nomi ko'rsatilmagan. (Соч., т. II. (2, стр. 39). Xo'ja ilg'or qishlog'i hozirgacha mavjud bo'lib, Shahrisabzdan 13 km janubi-g'arbiy tomonda – hozirgi Yakkabog' tumani hududida joylashgan. Qishloq ahli o'rtasida Amir Temur shu qishloqda tug'ilgan degan rivoyat bor.
16. **Kesh** – O'rta Osiyoning qadimiy shaharlaridan bo'lib, arab geografi Yoqubiyning yozishicha, u VII asrda bunyod etilgan. XIV asrdan esa Shahrisabz deb atala boshladi. Temurning tug'ilgan vatani bo'lganligi sa-

babli XIV–XV asrlarda shahar har tomonlama obod bir o‘lkaga aylantirildi (*Qarang*: В. В. Бартольд. Соч., т. I, стр. 188–189).

17. **Movarounnahr** – lug‘aviy ma’nosi «daryo orqasidagi narsa (yer)» bo‘lib Amudaryodan shimolga qarab cho‘zilgan O‘rta Osiyo yerlari arabcha shunday atalgan. Bu arabcha ibora qadimgi geograflarning Transoksiana Oksus (Amudaryoning orqasidagi) degan istilohning tarjimasidan iborat (Yoqut al-Hamaviy. «Mujam ul-buldon», VII jild, 370-bet).

18. Nashrda «O‘n uch oy» deb xato berilgan bo‘lsa kerak. Shu sababli biz «O‘n uch farsax» deb tuzatdik. Farsax – forscha «parsang» (yunoncha «parasang») so‘zining arabcha shaklidir. U masofa o‘lchovi bo‘lib, odatda 6–8 km ga tengdir. Samarqand bilan Shahrisabz o‘rtasi ham taxminan 13 farsaxdir.

19. **Shurta** (ko‘pligi shurat) – asosan shaharlarda bo‘lib, harbiy mirshab vazifasiga doir xizmatni ado etuvchi shaxs. (*Qarang*: И. П. Петрушевский. Ислам в Иране, стр. 197–198).

20. 1363-yilda Seiston hokimining da’vatiga binoan Temur uning dushmanlariga qarshi jangda qatnashib, o‘ng oyoq-qo‘lidan og‘ir yarador bo‘ladi. Uning o‘ng qo‘li deyarli quruq suyakka aylanib, o‘ng oyog‘i esa butun umri oqsoq bo‘lib qoladi. Temurlang («lang» forscha oqsoq demakdir) yoki yevropaliklar talaffuzicha, «Tamerlan» degan laqab ana shundan kelib chiqqan. Ibn Arabshohning o‘zi ham 76-betda bu haqda hikoya qiladi. Bu to‘g‘rida *yana qarang*: Л. В. Строева, Возникновение государства Тимура, стр. 70.

21. Temur ishlarining avvalidan uni qo‘llab-quvvatlab, keyinchalik esa uning e’tiborli amir va lashkarboshilaridan hisoblangan ushbu shaxslar haqida o‘sha davr tarixchilaridan Nizomuddin Shomiy, Sharafuddin Ali Yazdiy, Abdurazzoq Samarqandiylar birtalay ma’lumotlar keltirganlar.

22. Ibn Arabshoh ko‘p qo‘llagan harbiy istilohlardan biri «adad» va «udad» ya’ni qo‘shin soni va qurol aslahasi demakdir.

23. Shamsuddin al-Foxuriy – Sharafuddin Ali Yazdiyning tarixiy asarida ushbu shayx Shamsuddin Kulor (Zafarnoma, 254–287-betlar va hokazo) deb atalgan. Ehtimol turk va fors tillarini mukammal bilgan Ibn Arabshoh «kulol» so‘zini arabchaga tarjima qilib «foxuriy», ya’ni kulol deb atagandir. V. V. Bartoldda ham shunday taxmin keltiriladi. (Соч., т. Р/2, стр. 425, прим. 13).

24. **Saalaba** – islomgacha Xavaron, Sharqiy Iordaniya, Livan va Falastin yerlarida istiqomat qilgan yamanlik arab sulolasi G‘assoniylarning bir





amiri shunday atalgan. Bu o‘rinda uning hayotidan bir voqeaga ishora qilinib, hozircha uni aniqlay olmadik.

25. Movarounnahrda o‘n ikki yil (1346–1358) hukm yuritgan amir Qozog‘onning nabirasi amir Husayn ko‘zda tutilayotir. Bu paytda u Balxda turar edi.

26. Nashrda xato berilgan.

27. Ibn Arabshohning «Temurning xotini – Husaynning singlisi O‘ljoy Turkon og‘ani o‘zi o‘ldirdi» degan fikri haqiqatdan yiroqdir. Sharaffuddin Ali Yazdiy. (Zafarnoma, v. 155 a) yozishicha, O‘ljoy Turkon og‘a o‘limidan (1366-yil) keyin Temur va Husayn o‘rtasidagi yaqinlik batamom uzilgan. (В. В. Бартольд. Соч., т. II/2, стр. 42).

28. Amir Qozog‘onning nabirasi amir Husayn Balx va uning atrofidagi yerlar hokimi edi. Temur dastlab u bilan birga bo‘lib, mo‘g‘ullarga qarshi urushlar qilgan. Shuningdek, 1365-yilda Samarqand sarbadorlarini tugatishda ham ular ittifoq bo‘lganlar. Lekin ular o‘rtasidagi hamkorlik uzoqqa bormadi. Temur 1370-yili Balxni egallagach, amir Husayn qatl etildi. (Nizomuddin Shomiy. Zafarnoma, 60-bet).

29. Matnda «ikki so‘zni kesuvchi» deb berilsa-da, lekin biz matn taqozosiga ko‘ra «bir so‘zli» deb tarjima qildik.

30. **Taxt** – forscha so‘zdir.

31. **Balx** – qadimiy shahar bo‘lib VII asrda arablar tomonidan zabt etilgan. Keyin shahar turk-saljuqiylar (XI asr), mo‘g‘ullar (XIII asr) tomonidan istilo etilib, batamom vayron qilindi. Faqat XIV asrning ikkinchi yarmidagina Temur tomonidan qaytadan tiklandi. Hozir Afg‘oniston hududi bo‘lib, Vazirobod deb ataladi.

32. **Xuroson** – Eronning sharqi-shimolidagi viloyat bo‘lib, hozir Turkmaniston va Afg‘oniston bilan chegaradosh. Viloyat markazi hozirda Mashhad shahri.

33. **Turkiston** – «turklar mamlakati». Turkiston – Sharqiy va G‘arbiy qismlardan iborat bo‘lib, O‘rta Osiyo, Qozog‘iston va Xitoyning bir qismini o‘z ichiga oladi.

34. So‘zma-so‘z: yuz (kishi)ga amir.

35. Amir Husayn ko‘zda tutilayotir.

36. **Al-Muntaxab** – Temur saltanati oxirigacha bo‘lgan voqealarni o‘z ichiga olgan «Muntaxab at-tavorixi Muiniy nomli umumiy tarix nazarda tutilsa kerak. Bu asar haqida qarang: Ч. А. Стори. Персидская литература, ч. I, стр. 340–341.

37. V. V. Bartoldning yozishicha. (Соч., т. II/2, стр. 40), Temurning ona-si va Tarag'ayning boshqa xotini Kadak xotunning – u 1389-yilgacha yashagan (Sharafuddin Ali Yazdiy, Zafarnoma, v. 206 b) kelib chiqishi to'g'risida manbalarda hech-qanday ma'lumot uchratmadik.

38. Asli «muluk» so'zining «podshohlar», «qirollar», «maliklar» kabi ma'nolari bo'lsa-da, bu o'rinda «xonlar» deb tarjima qilish maqsadga muvofiqdir.

39. Mo'g'ul imperiyasining barcha tomonlarida Chingizxon nasabi bilan yaqinlik qilish afzal hisoblanardi. Hokimiyatga egalik qilgan amirlar xonlar qizlariga uylanishga harakat qilardilar. Bu bilan ular «ko'ragon» (mo'g'ulcha «kuragon» – xon kuyovi) laqabiga erishardilar. 1370-yilda Balxda amir Husaynni yengib, u o'ldirilgandan keyin Temur uning xotinlaridan to'rttasini o'ziga oldi. Ular orasida Qozonxonning qizi Saroy Mulk Xonim (xalq orasida Bibixonim nomi bilan mashhur)ning borligi Temurga «ko'ragon» laqabini olish imkonini berib, ushbu laqab bilan u umrining oxirigacha ataldi. Shuningdek, Temurning o'g'li va nabiralaridan ayrimlari ham shunday laqab bilan atalardilar.

40. Nashrda xato berilgan.

41. Qo'lyozmada suqut.

42. Sohibqiron haqida qarang, Abdullanoma, 1-jild, 327-bet. 32-izoh.

43.–44. Misr va Shom (Suriya)ga ham ishora.

45. Temurning Sulton(amir) Husaynga qarshi qurolli isyonga tayyorlanishi to'g'risida Nizomuddin Shomiy ham yozadi. Zafarnoma, 35-bet.

46. Qo'lyozmada: «odamlarni» deb keltirilgan.

47. Arab shoiri al-Mutanabbiy she'rlaridan.

48. S h a y x  Z a y n u d d i n  X a v o f i y – bu o'rinda Zaynuddin Abu Bakr Toyabodiy nazarda tutilayotir. Fikrimizcha, Ibn Arabshoh bu o'rinda xatoga yo'l qo'ygan. Bu haqda qarang: В. В. Бартольд, Соч., т. 11/2, стр. 44–45.

49. S a y y i d  B a r a k a – ushbu sayyidning kelib chiqishi haqida tarixchilar har xil fikr aytganlar. U 1404-yilning oxirlarida vafot etgan bo'lib, qabri Samarqanddadir. U haqda kengroq ma'lumot olish uchun qarang: В. В. Бартольд, Соч., т. II., ч. 2, стр. 448–450; М. Е. Массон, Мавзолей Гур-Эмир, стр. 19.

50. **Sajiston (Seiston)** – hozirgi vaqtda Eronning sharqi va Afg'oniston-ning g'arbida joylashgan viloyat. V. V. Bartoldning yozishicha, o'rta asrlar-da Sajiston viloyati bundan kengroq chegaralarni egallagan.





51. M u h a m m a d  a l - B u x o r i y (1377–1438) – Ajamda tug'ilib, yoshligi Buxoroda o'tgan. U keyinchalik bir qancha mamlakatlarda bo'lib, oxiri Damashqda to'xtaydi va shu yerda vafot etadi. U haqda yana qarang: Mu'jam ul-muallifiyn, II-jild, 294-bet.

52. Amir Husaynning o'limi 771-yil ramazon oyining 12-siga (1370-yil, 10-aprel) to'g'ri keladi.

53. Nashrda xato bo'lib, 86-yil deyilgan.

54. Fikrimizcha, bu gapdan Ibn Arabshoh quyidagi maqsadni ko'zda tutsa kerak: 1365-yilda mo'g'ul xoni Tug'luq Temurxon o'g'li Ilyosho'ja – u oldinroq Movarounnahrdan quvilgan edi – yangitdan ko'p qo'shin bilan Movarounnahrga hujum qildi. Temur va Husayn o'z tomonlaridan qo'shin yig'dilar. Ular orasida yuz bergan va tarixga «Loy jangi» nomi bilan kirgan jang Chinoz bilan Toshkent o'rtasida yuz berdi. Jang vaqtida qattq jala qo'yib, yerlar loy bo'lib qoldi. Temur va Husayn jangda mag'lubiyatga uchradilar. (Bu jang vasfi haqida qarang: Nizomuddin Shomiy, Zafarnoma, 28–30-betlar). Temur va Husayn urushni davom ettirish befoydaligini anglab, Amudaryoga qarab qochdilar va undan o'tib Balx qal'asida yashirindilar.

55. «Xuroson dashtlarida» qo'lyozmada suqut.

56. Bovard (Abivard)–hozirgi Pishtoq shaharchasining o'rnida, Turkmanistonning Kaaxka stansiyasidan 8 km masofada joylashgan.

57. **Moxon** (ilgarigi Moxuvop) – hozirgi Mari shahri o'rnida joylashgan qishloq shunday atalgan. 1362-yilda Temur o'z ittifoqdoshi bo'lgan amir Husayn bilan turkmon Alibek qo'liga asir tushib, 62 kunni Moxon qishlog'ida o'tkazishgan. (Nizomuddin Shomiy, Zafarnoma. 20–21-betlar).

58. Bu haqda to'liqroq ma'lumot olish uchun 20-izohga qarang.

59. M u i z i d d i n  H u s a y n – Kurtlar (kartlar) sulolasidan bo'lib, Hirot hokimi edi (1331–1370). U haqda qarang: В. В. Бартольд, Обзор, стр. 38.

60. M a l i k  G' i y o s u d d i n – otasidan keyin Hirot hokimi (1370–1389). U hokim bo'lib turgan vaqtda, ya'ni 1381-yilda Hirot Temur tomonidan ishg'ol qilinadi.

61. Ya'ni isyonga bel bog'ladi demoqchi. Bu o'rinda tashbeh qo'llanilgan.

62. «Qilich malomatdan o'zib ketgan». Arab masali bo'lib, bu o'rinda qofiya uchun so'zlar o'rinlari almashtirilib berilgan. Aslida bir ishni qo'ldan chiqarib, keyin nadomat chekkan kishiga nisbatan aytiladi.

63. «Yozda sut achib qolgan edi» – bu ham arab masali bo'lib, qulay fursatni qo'ldan chiqarib nadomat chekadigan kishiga nisbatan aytiladi.

64. Qo'lyozmada: yuzlangunlaricha.

65. Amir Husayn va Temur mo'g'ullardan yengilib Balx tomoniga o'tib ketgach mo'g'ullar Samarqandga qarab yurdilar. Shu paytda Samarqandda bor bo'lgan sarbadorlar xalq ommasini mo'g'ullarga qarshi kurashga chorladilar. Samarqand ahli shahar atroflarini mustahkamlab, to'la-to'kis tayyorgarlik bilan mo'g'ullarni Samarqanddan, quvib chiqardilar. Mo'g'ullar ustidan sarbadorlar erishgan g'alabani eshitgan Temur va Husayn yana Movarounnahrga qaytishga jur'at qildilar. Fikrimizcha, Ibn Arabshoh ushbu bobda Temurning Jayhun orqali Movarounnahrga mana shu qaytishini nazarda tutsa kerak.

66. Nashrda xato berilgan.

67. Abu Turob Naxshabiy – IX asrda yashagan qarshi (naxshab)lik mashhur shayx. Vafoti 850-yil.

68. **Naxshab** – Qarshi shahrining qadimgi nomi bo'lib, XIV asrdan Qarshi deb atala boshladi. Ushbu nom shahar yaqinida mo'g'ullar qurgan qasr («Qarshi» mug'ul tilida qasrni bildiradi) so'zidan kelib chiqqan. Hozir Qarshi Qashqadaryo viloyatining ma'muriy markazidir.

69–70. **Haqiqat** va **majoz** – balog'at ilmidagi istilohlar bo'lib, «majoz» so'zni o'z ma'nosida ishlatmasdan o'xshatish yo'li bilan ishlatish, «Haqiqat» esa uning aksidir.

71. Qur'on, 20-sura, 64-oyatdan.

72. Qo'lyozmada xato.

73. Nizomuddin Shomiyning yozishicha, Temur amri bilan Qarshida qisqa vaqt ichida qal'a devorlari qurilib bitkazilgan (Zafarnoma. 10-bet).

74. Qo'lyozmada xato.

75. **Badaxshon (Balaxshon)** – Amudaryoning yuqori oqimida, hozirgi Fayzobod o'rnida joylashgan shahar shunday atalgan. Badaxshon azaldan o'z la'li bilan mashhur bo'lib, u haqda Marko Polo ham yozgan. (Книга Марко Поло, стр. 74). Shuningdek, o'rta asr geograf va sayyohlarining vasficha, Badaxshon ajoyib ob-havosi, bepoyon va juda qulay yaylovlari bilan ham shuhrat topgan. Bu haqda yana qarang: В. В. Бартольд, Обзор, стр. 17.

76. Bu bilan Ibn Arabshoh 1365-yilda mo'g'ullarning Movarounnahrga qilgan uchinchi hujumini nazarda tutsa kerak. (O'zbekiston tarixi, 346-bet).

77. Qamaruddinxon – Mo'g'uliston hukmdori (1362–1389).





78. Temur bilan Amir Husayn o'rtasida kurash ketayotgan davrda yirik siyosiy kuch rolini mo'g'ullar o'ynadilar. Garchi 1365-yildan keyin ular Movarounnahrga bostirib kelgan bo'lmasalar-da, lekin mamlakatda bo'layotgan voqealarni diqqat bilan kuzatib turdilar va ba'zi feodallarni o'z tomonlariga tortishga intildilar. Shu sababdan 1368-yil bahorida Temur ulardan madad so'ragach, ular rozi bo'ldilar. Bu haqda yana qarang: Л. В. Строева, Возникновение государства Тимура, стр. 79.

79. **Qag'alg'ar** – qo'lyozmada «Qag'alg'a» deb berilgan.

80. «Osmongacha ko'tarilgan burun va suvga botirilgan tag». Mashhur arab masali. U haqda qarang: Munjid, 934-bet.

81. Qur'on, 9-sura, 118-oyatdan.

82. Nashrda xato.

83. Qur'on, 69-sura, 7-oyatdan.

84. **Javzo** – Yulduzlar turkumidan. Quyosh yilining uchinchi oyi ham Javzo deb atalib, 22-may – 21-iyunga to'g'ri keladi.

85. Bu o'rinda ham Ibn Arabshoh chalkashlikka yo'l qo'ygan. 1365-yilgi mo'g'ullar bilan bo'lgan jangdan keyin amir Husayn Balxga qarab qochgan edi.

86. Shaxsini aniqlashning iloji bo'lmadi.

87. Haqiqatdan ham Temur bilan Husaynning Balxdagi to'qnashuvi 771 (1370) yilda yuz berdi. Nizomuddin Shomiy ushbu to'qnashuvni batafsilroq yoritgan. *Qarang*: Zafarnoma, 59–60 betlar.

88. Nizomuddin Shomiy (Zafarnoma, 60-bet) va Sharafuddin Ali Yazdiyning yozishicha (Zafarnoma, Ye. 135 a b), amir Husayinni Temur emas, balki amir Husaynda hun qasdi bo'lgan Huttalon hokimi Kayxusrav va amir O'ljoytu o'ldirishgan. Temur garchi Husaynni o'ldirmaslikni va'da qilgan bo'lsa-da, lekin u bu ishga monelik ko'rsatmadi. Bu haqda *yana qarang*: А. Ю. Якубовский, Тимур, стр. 59.

89. Nizomuddin Shomiyning yozishicha, Temur Balxni olmasdan burun Suyurg'atmish o'g'lonni xon martabasiga ko'targan (Zafarnoma, 58, 199-betlar). Bu haqda *yana qarang*: Л. В. Строева, Возникновение государства Тимура, стр. 81.

90. Turk Qurayshlari – Muhammad payg'ambar (s. a. v.), umaviylar va abbosiylar sulolasi mansub bo'lgan qurayish qabilasi arablarda qanday yuqori maqomda tursa, Chingizxon zuryodi ham mo'g'ullarda shunday maqomda demoqchi bo'lsa kerak muallif.

91. Qo'lyozmada «asrida» deb keltirilgan.

92. **Dashti (Qipchoq)** – XV asrda Xorazmning G'arb-shimolidan to tib G'arbga, Dnepr daryosigacha bo'lgan yerlarni Dashti Qipchoq deb atal gan. Bu haqda yana qarang: Hindiston safarnomasi, 85-bet, 52-izoh.

94. Qo'lyozmada xato yozilgan. **Sig'noq** – Sirdaryoning o'ng sohilida joylashgan yirik o'rta asr shahri. Bir vaqtlar Oq O'rda (XIV–XV va XVI asr o'rtalarida ko'chmanchi o'zbeklar) davlatining poytaxti bo'lgan. Uning vayronalari hozir Qizil O'rda temir yo'l stansiyasiga yaqin. Sirnoq haqida batafsil ma'lumot olish uchun qarang: А. Ю. Якубовский, Развалины Сыгнака).

95. **O'tror** – Aris daryosining Sirdaryoga quyiladigan mavzeda joylashgan shahar. Xitoyga yurish qilgan Temur 1405-yilning fevralida shu joyda vafot etgan.

96. **Xo'jand daryosi** – Sirdaryo ko'zda tutilayotir.

97. «Temur unga qarshi Samarqanddan chiqdi va ular Xo'jand daryosi yaqinida, Turkiston atrofida to'qnashdilar». Ushbu jumla qo'lyozmada suqut. Temur bilan To'xtamish o'rtasidagi bu to'qnashuvni Ibn Arabshoh vaqt jihatidan ilgari keltirib, Sirdaryo atroflarida bo'ldi, deb noto'g'ri talqin qiladi. Aslida bu jang Temur bilan To'xtamishning birinchi to'qnashuvi bo'lib, u 1391-yil iyun oyida Uralning g'arbida, Qunduzcha degan mavzeda yuz bergan. Bu haqda *yana qarang*: В. В. Бартольд, Соч., т. II/2, стр. 449; B. Ahmedov. O'zbeklarning kelib chiqishi, 15-bet.

98. **Sayxun daryosi** – Sirdaryo arabcha shunday atalgan.

99. Sayyid Barakaning Temur bilan uchrashuvi 1370-yilda yuz bergan. Temurni To'xtamishga qarshi bu urushida Sayyid Baraka faqat jang oldidan Temur haqiga duo qilib omad tilagan. Bu haqda yana qarang: Sharafuddin Ali Yazdiy, Zafarnoma, v. 218 b.

100. **Yog'i qochdi** – turkcha yov (dushman) qochdi.

101. A b b o s  i b n  A b d u l m u t t a l l i b – Payg'ambarimiz Muhammad (s. a. v.)ning amakisi.

102. Arablarda tuyalarni suvga chaqirganda «jut» degan nido bilan chaqiriladi.

103. Qur'on, 27-sura, 10-oyatidagi ushbu jumlani Ibn Arabshoh ko'p o'rinlarda qo'llagan.

104. Sayyid Baraka haqida kengroq ma'lumot olish uchun qarang: Sharafuddin Ali Yazdiy, Zafarnoma, v. 136ᵃ; В. В. Бартольд. Soch. II, ч. 2, стр. 448–450.





105. **Andxoy (Andxud)** – Shimoliy Afg'onistonda joylashgan qadimiy shahar. U haqda *yana qarang*: Abdullanoma, II jild, 332-bet, 125-izoh.

106. **Shuttor** – «shotir»ning ko'pligi, lug'aviy ma'nosi buzuqilar, talovchilar, qaroqchilar. XIV asrning ikkinchi yarmida Samarqandda ham o'sha paytda Xurosonda keng yoyilgan sarbadorlar (forscha sarbadoron – «boshini dorga tikkanlar» arabcha – sarbadoliya) harakati rivojlandi. 1365-yilda mo'g'ul hokimi Ilyosxo'ja Samarqandga yana bostirib kelganda sarbadorlar boshchiligida shahar ahli matonat bilan kurashib, ularni shahardan haydagandilar. Sarbadorlarga munosabat turli-tuman bo'lgan. Bir qancha mualliflar qatori Ibn Arabshoh ham ularni, zikr qilganimizdek, «talovchilar», «buzuqilar» deb ataydi. XIV asrda yashagan mashhur arab sayyohi Ibn Battuta ham shu tarzda fikr yuritib, ularni Iroqda shuttor – talovchilar Mag'ribda – «suqura» – quzg'unlar deb atashlari haqida yozadi. Rihla, 2-qism, 248-bet.

107. Nashrda «urushqoqlar» deb berilgan.

108. Q a y s  v a  Y a m a n  q a b i l a l a r i – asli Arabiston yarim orolida paydo bo'lgan va oralarida azaldan nizo bo'lgan ikki arab qabilasining ismi. Ular haqida yana qarang: Munjid, 426, 577-betlar.

109. Qo'lyozmada xato bo'lib muallif bu o'rinda qofiya uchun forscha «ziyofat» so'zini ishlatgan.

110. A n u s h i r v o n  i b n  K a y q u b o d – Qadimiy Eronda hukmronlik qilgan Sosoniylar (226–651) sulolasidan bo'lgan yigirmanchi podshoh Xusrav I Anushirvondir. U xristianlarga nisbatan ancha shiddat ko'rsatgan. Sharq klassik adabiyotida ko'pincha «Anushirvoni odil» nomi bilan mashhurdir. U haqida qarang: Qomus ul-a'lom, 6-jild, 4621-bet; М. М. Дьяконов. Очерки истории древнего Ирана. стр. 309–315.

111. Temur va Amir Husaynning sarbadorlarga qilgan ushbu hiylasi 1366-yilda bo'lib, u payt Temur va Amir Husayn ittifoqdosh edilar. Tarixiy ma'lumotlarga qaraganda, Temur Husayndan shafoat tilab sarbadorlarning boshliqlaridan biri Mavlonozodani qutqazib qolgan. (O'zbekiston tarixi, 350-bet). Lekin sarbadorlar haqida Ibn Arabshoh keltirgan ushbu ma'lumotlar keyingi davrlarga (taxminan 1388-yilgacha) to'g'ri keladi. Bu haqda *yana qarang*: А. М. Гуревич, О классовой борьбе в Самарканде, стр. 5.

112. Tumon so'zining kelib chiqishi xaqida qarang: Н. Д. Миронов. ЗВОРАО, t. XIX, 1910, стр. 23.

113. **Andikon** – Andijon.

114. Garchi Ibn Arabshoh shunday fikr aytsa-da, har bir tumondan o'n ming jangchi chiqishi ham doim ham mumkin bo'lavermaydi. Umuman «Tumon» so'zi harbiy sohada o'n ming jangchini anglatsada, hisobotda o'n ming dinorni ham bildiradi. Bu haqda yana qarang: Ibn Duqmoq, Aqd al-Javohir, 245-bet; В. В. Бартольд. Соч., т. 11/2, стр. 34.

115. **Farsax** – Bu haqda 18-izohga qarang.

116. S u l t o n  J a l o l u d d i n – Xorazmshohlar davlatining so'nggi hukmdori (1220–1231)

117. **Damashq** – Samarqandning g'arbida, shaharning qadimiy devorlarining yonginasida joylashgan qasaba. U haqda yana qarang: В. Л. Вяткин, Материалы, стр. 44.

118. **Qadimgi Samarqand** – Afrosiyob shahri xarobasi.

119. **Marg'iynon (Marg'ilon)** –Movarounnahrning mashhur shaharlaridan bo'lib, azaldan shoyi savdosi bilan mashhurdir. Marg'ilondan ko'pgina fozil kishilar chiqqan bo'lib, ulardan eng mashhuri Burhonuddin al-Marg'iynoniydir.

120. I l i k x o n – Movarounnahrni dastlab (999-yilda) zabt etgan Qoraxoniylar (ular haqida qarang: В. В. Бартольд, Соч., т. II/1, стр. 41–47) sulolasidan bo'lgan xon Ilik Nasr ibn Ali (vafoti 1013-yil) ko'zda tutilayotir. To 1011-yilgacha Samarqand uning hukmi ostida bo'lgan.

121. S h a y x  B u r x o n u d d i n  a l - M a r g ' i y n o n i y – mashhur fiqh olimi. U Farg'ona vodiysining Marg'ilon shahrida tug'ilib, Buxoro madrasalarida ta'lim olgan. Vafoti 593 (1196) yil. Uning eng mashhur asari «Hidoya fi-l-furu'» (Furu') ilmiga kirish bo'lib, bir nechta qo'lyozmalari O'zbekiston Fanlar Akademiyasi Sharqshunoslik institutida saqlanmoqda. «Hidoya»ning ruscha tarjimasi Grodekov tahriri ostida bosilgan (Toshkent, 1893).

122. **Sag'oniyon (Chag'oniyon)** – tarkibiga Termiz shahri bilan Surxondaryo vodiysi kirgan viloyat shunday atalgan.

123. Nashrda xato berilgan.

124. **Turon** – XIV asrda Turkiston va Movarounnahr yerlari shu nom bilan atalgan hamda turklar mamlakati ma'nosida ishlatilgan.

125. K a y k o v u s – Qadimiy Eronning afsonaviy Kayoniylar sulolasidan bo'lgan ikkinchi hukmdori. Firdavsiyning «Shohnoma» dostoni qahramonlaridan biri (Шахнаме, стр. 350–455).

126. A f r o s i y o b – turonliklarning afsonaviy podshohi.

127. «Iroq (esa) Eron mag'ribidir». Qo'lyozmada suqut.





128. Nashrda xato berilgan.

129. Qo'lyozmada: «qudachilik», suqut.

130. Bu haqda 78-izohga qarang.

131. Temurning Xorazmga birinchi yurishi 1372–1373-yillarga to'g'ri keladi.

132. **Gurganj** – Gurgonning arabcha atalishi bo'lib, u Kaspiy dengizi sohillarining janubiy-sharqida joylashgan.

133. Abdulloh Maqdisiy o'zining «Ahsanu-t-taqosim fi ma'rifatil-aqolim» asarida Xorazm ahlining madaniy saviyasi yuksakligini ta'kidlasa, XIV asr mashhur arab sayyohi Ibn Battuta (1303–1378) «Rihla» asarida «dunyodagi hech bir o'lkada Xorazm elidan axloqi yaxshiroq, olijanobroq va musofirparvar elni ko'rmadim» – deydi. (A. Rustamov, Mahmud Zamaxshariy, 7-bet).

134. Nizomuddin Shomiyning yozishicha, Temur Xorazmga yurish qilib Urganch yo'lida bo'lgan Kot shahrini olgach, Husayn So'fi Temur talabiga rozi bo'lib, sulh tuzishga tayyor ekanligini bildirgan. Lekin Temur askari qo'mondonlaridan biri – Xuttalon hokimi Kayxusrav – u Temurning bunchalik darajada kuchayib ketishidan norozi edi – Husayn So'fini Temurga bo'ysunmaslikka undab, uning tomoniga o'tishni va'da qilgan. Husayn So'fi Kayhusravga ishonib Temurga qarshi urushga kirishdi. Lekin u jangda mag'lubiyatga uchradi. Shundan keyin u Urganch qal'asida yashirinib, tez orada shu yerda vafot etdi. Zafarnoma, 66–67-betlar; O'zbekiston tarixi, 353-bet.

135. Nizomuddin Shomiyning yozishicha, Temurning Xorazmga ikkinchi yurishigacha Husayn So'fi vafot etib, o'rniga ukasi Yusuf So'fi (1373–1380) hokimiyatga o'tirgan edi (Zafarnoma, 67-bet).

136. Ya'ni butun jidd-u jahdi bilan harakat qildi demoqchi bo'lsa kerak.

137. Qur'on, 10-sura, 2-oyatdan.

138. Qur'on, 35-surasidan «Hech bir yuk ko'taruvchi ikkinchi bir kishi yukini (gunohini) ko'tarmaydi» (degan) 18-oyatiga ishora:

139. Qo'lyozmada «ne'matlarim» suqut.

140. Qur'on, 26-sura, 18-oyatdan.

141. Qo'lyozmada suqut.

142. Shahardagi mustahkam, mashhur Ixtiyoriddin qal'asi ko'zda tutiladi.

143. Hirotning hisori va uning Temur tomonidan olinishi 783-yilning muharram oyida (1381-yil mart-aprel) tugagan. Temurning Hirotga yuri-

shi haqida Nizomuddin Shomiy (Zafarnoma, 82–84-betlar) batafsil hikoya qiladi. Shuningdek, yana qarang: Гиясаддин Али, Дневник похода, стр. 33–34.

144. Qo'lyozmada: «balo», «ofat» deb berilgan.

145. **Xavof** –Bushangning g'arbida joylashgan bir qasaba. Hozirgi xaritalarda Xof deb yoziladi.

146. Shayx Zaynuddin Abu Bakr Xavofiy – Xurosondagi Toyobod qishlog'ida Zaynuddin Abu Bakr Toyobodiy degan bir zohid kishi yashagan. Temur mana shu shaxs bilan uchrashgani to'g'risida tarixchi Hofizi Abro' hikoya qilgan.

147. **Quds** – Ierusalim (Quddus).

148. Shayxning ushbu xitobi V. V. Bartold tarjimasida birmuncha noaniqroq keltiriladi. Соч., т. 11/2, стр. 45.

149. Boyliklar bilan birga Hirotning e'tiborli (mashhur) kishilari, shuningdek, dong'i ketgan Hirot darvozalarining eshiklari ham Shahrisabzga jo'natilgandi. Sharafuddin Ali Yazdiy o'z «Zafarnoma»sini yozgan vaqtda, ya'ni 1425-yilda, ushbu eshiklar Shahrisabzda bo'lgan. Qarang: А. Якубовский, Тимур, стр. 64.

150. Hirotni istilo etgandan keyin Temur o'z qo'shinlari ilg'orini Jahonshoh qo'mondonligi ostida Sabzavorga jo'natib, o'zi esa asosiy kuchlar bilan Kalotga qarab yurish qilgan. Qarang: История Афганистана, стр. 325.

151. Qo'lyozmada: Me'zana deyilgan.

152. Temurning bu yurishi 1383-yilda bo'lib, U Sajistonda ko'p xarobaliklar qildi. Bu to'g'rida yana qarang: Sharafuddin Ali Yazdiy, Zafarnoma, v. 169 v. va davomi; В. В. Бартольд, Обзор, стр. 48.

153. Temurning Sajistonda qo'l va oyog'idan yarador bo'lganligiga ishora.

154. **Kermon** – Erondagi shu nomli viloyatning markazi. Yoqut Hamaviyning yozishicha, bu ma'mur va mashhur, shahar va qishloqlari ko'p bir viloyat bo'lib, sharqdan Mekron, g'arbdan Fors, shimoldan Xuroson va janubdan Fors dengizi bilan chegaralangan. Mu'jam ul-buldon, VII jild, 244-bet.

155. **Sabzavor** – Afg'onistonning g'arbida, Hirotdan janubda joylashgan mashhur shahar. Hozir u Isfizor deb ataladi.

156. Shu paytda Sabzavor hokimi bo'lib shahar sarbadorlarining boshlig'i Ali Muayyad (1364–1381) turar edi. Haqiqatda ham u Temurga itoat bildirgan edi. Bu haqda yana qarang: Nizomuddin Shomiy. Zafarnoma, 85-





bet; И. П. Петрушевский, Земледелие, стр. 462–463. Ibn Arabshohning Hasan Juriy Sabzavor hokimi edi, degan fikri haqiqatdan yiroqdir. Hasan Juriy tasavvufni targ'ib qilib, sunniylarga qarshi targ'ibot yurgizgan shayx bo'lib, u 1342-yilda Hirot maliki bilan bo'lgan jangda halok bo'lgan. Har holda u Ibn Arabshoh yozgandek, rofiziy bo'lgan. Bu o'rinda muallif masalani chalkashtirib yuborgan. Hasan Juriy haqida qarang: И. П. Петрушевский, Земледелие, стр. 430.

157. Rofiziy – yeretik, ya'ni din aqidalariga qarshi chiqqan kishi. Qarang: И. П. Петрушевский. Ислам в Иране, стр. 298.

158. Qo'lyozmada: «fikri» deb berilgan.

159. Qur'on, 22-sura, 27-oyatdan.

160. XIV asrning o'rtalarida Xurosonning ko'pchilik qismida paydo bo'lib, qariyb yarim asr davomida (1337–1381) to'xtamagan sarbadorlar harakati tarixda mashhurdir. Sarbador so'zi Forscha bo'lib, «boshini dorga tikkan» demakdir; arabcha birmuncha o'zgartirilib «sarbadol», ko'pligi «sarbadoliya» deyiladi.

161. Ma'mun (786–833) – Abbosiy xalifalaridan. Xalifa Horun ar-Rashidning o'g'li. «Ma'mun» so'zining lug'aviy ma'nosi «tinch, osoyishta» bo'lib, ehtimol shu so'zlarga ham ishoradir.

162. Iyas – Basra qozisi Iyas ibn Muoviyaga ishora.

163. So'zma-so'z: sharob, ichimlik.

164. Xoja Ali ibn Muayyad at-Tusiy – Sabzavor sarbadorlarining oxirgi hukmdori (1364–1381-yil).

165. **O'n ikki imom nomi bilan** – Muhammad payg'ambar qizi Fotimaning eri Ali tarafdorlari shiy'alar deb atalib, islom dinidagi bir yo'nalishni tashkil qilganlar. Ularning imomlari o'n ikki kishi bo'lib, birinchisi Ali Ibn Tolib (661-yilda qatl etilgan), oxirgisi Muhammad al-Mahdi (874 va 878-yillar oralig'ida g'oyib bo'lgan). Ular haqida batafsil ma'lumot olish uchun *qarang*: И. П. Петрушевский, Ислам в Иране, стр. 240–275.

166. Amir Muhammad – Bovard hokimi. Joni qurboniy qabilasining boshlig'i Arg'unshoh o'g'li. Otasi vafotidan keyin u hokimiyatga ega bo'lgan edi.

167. Qo'lyozmada Saxras hokimi «kazo» deyilgan. Nashrda keltirilgan «amir Abdullo» esa xatodir. Darhaqiqat, Temurning bu yurishi vaqtida Saxras hokimligida Hirot hokimi Malik G'iyosiddinning birodari Malik Muhammad hokimlik qilardi. U (Muhammad) Temurga itoat izhor qilgandi. *Qarang*: История Афганистана, т. I, стр. 325.

168. Abdullo emas, Muhammaddir. 167-izohga qarang.

169. **Ray** – Tehronning sharqida joylashgan qadimiy shahar bo'lib, XI–XII asrlarda g'oyatda gullab yashnagan bir makonga aylandi. Abbosiylarning mashhur xalifasi Horun ar-Rashid shu shaharda tug'ilgan.

170. S h o h  S h u j ' o  ( A b u - l - F a v o r i s ) – Jamoluddin ibn Muhammad ibn al-Muzaffar. U 1364-yildan Fors, Kermon, shuningdek Isfahonda hokimlik qilgan.

171. Bu o'rinda muallif voqelikni noto'g'ri talqin qilayotir. Sulton (amir) Husayn 1370-yili o'ldirilgan bo'lib, Xuroson yerlarining batamom Temurga bo'ysunishi XIV asrning 80-yillariga to'o'ri keladi. Bu haqda yana qarang: O'zbekiston tarixi, 356–357-betlar.

172. **Ajam Iroqi** – Qadimgi Midiya yerlari shunday atalgan.

173. **Sheroz** – Janubiy Erondagi shahar bo'lib, ayrim arab geograflarining fikricha, shahar qurilishiga VII asrda arablar asos solganlar. (H. Qazviniy, Nuzhat al-qulub, 113-bet). XIII–XV asrlarda Sheroz Erondagi eng yirik savdo markazlaridan biri bo'lgan.

174. Qo'lyozmada: «ikki yo'l oralig'ida» deyilgan.

175. **«Al-Kashshof»** – Qur'on tafsirida bir kitob. Xorazmlik olim Abulqosim az-Zamaxshariy (vafoti 1144-yil) ta'lif etgan.

176. **Yazd** – Nishopur, Sheroz va Isfahon o'rtasida joylashgan bir shahar. Yoqut, Mu'jam ul-buldon, VIII j. 506-bet.

177. **Abrakuh** – Fors xududida joylashgan mashhur bir shaharcha, Al-Istaxriyning fikricha, u bilan Yazd orasi 3–4 farsaxdir. Qarang: Yoqut, Mu'jam ul-buldon, 1 jild. 79–80-betlar.

178. Qur'on, 82-sura, 2-oyat.

179. Qur'on, 28-sura, 77-oyat.

180. Sulton deb bu o'rinda mo'g'ul xoni Abu Said nazarda tutilayotir. Chunki Muhammadning otasi Muzaffar mo'g'ullar xizmatida bo'lgan. *Qarang*: К. Э. Босворт, Мусульманские династии, стр. 213.

181. So'zma-so'z: cho'qib kavlaydigan.

182. Uning vafoti 1336-yil edi.

183. Qur'on, 28-sura, 31-oyatdan.

184. So'zma-so'z: qoziqlari mustahkam o'rnashgan.

185 Qur'on, 3-sura, 2b-oyat.

186. 1353-yilda.

187. Len Pulda (Мусульманские династии, стр. 210) Sharafuddin Muzaffar deb zikr qilingan.





188. Ular o'rtasidagi nizo 1359-yilda sodir bo'ldi. Лэн Пуль, Мусульманские династии, стр. 209.

189. **Jav ul-baqar** – «Sigir kasali», bu kasal bilan og'rigan kishining qorni ovqatga to'ymay, to'yganda ham tezda yana taom tanovul qilaveradi.

190. Shox Shuj'oning o'limi 1384-yilga to'g'ri keladi.

191. Shoh (yoki Len Pul bo'yicha, Sharafuddin) Muzaffarning.

192. «Abu Zavba'» kuchli to'zon, Nashrda: nayza deb keltirilgan, Bizningcha «shamol» to'g'ri bo'lsa kerak.

193. Shoh Mansur o'z amakivachchasi Zayn al-Obidinni azoblab nobino qildi. U (Zayn-al Obidin) Shoh Mansurga ota emas, amakivachchadir.

194. **Astrobod** – o'rta asrlarda Kaspiy dengizining janubi-sharqiy tomonida, Dehiston bilan Mozandaron oralig'ida joylashgan katta bir shahar. Hozir Shimoliy Eronning kichik bir shahri bo'lib, Gurgon deb ataladi.

195. Qur'on, 28-sura, 77-oyat.

196. Husayn So'fi nazarda tutilayotir.

197. Tekstda: zamon burniga deyilgan.

198. So'zma-so'z: ichki va tashqi liboslarini.

199. Nizomuddin Shomiyning yozishicha (Zafarnoma, 67-bet), Husayn So'fi Temurning Xorazmga qilgan birinchi yurishi vaqtida, ya'ni 1372–73-yilda vafot etgan. Temurning Xorazmga qilgan uchinchi yurishi haqida qarang: Zafarnoma, 71, 79–81 betlar. (МИТТ, стр. 517–519).

200. Yusuf So'fi Husayn So'fining o'g'li bo'lmay, balki birodaridir. *Qarang*: Sharafuddin Ali Yazdiy, Zafarnoma, Qo'lyozma: 1514, v. 119 a.

201. Temur Xorazmga birinchi marta yurish qilgan (1372–73 y.) paytida, K: Sharafuddin Ali Yazdiy, Zafarnoma, Qo'lyozma: 1514, v. 119 a, b.

202. Valloda (vafoti 1087-yil)–Ispaniyadagi Kordova amirligi al-Mustakfining qizi. U bag'oyat sohibjamolligi va she'riyatdagi talanti bilan dong taratgan.

203. X o n z o d a (xon qizi) – Xorazm hokimlari Husayn va Yusuf So'filarning birodari Oq So'fining qizi bo'lib (Xondamir, Habib us-siyar, 18-bet), Oltin O'rda xoni O'zbekxonning (1312–1340) nabirasi edi. Jahongir 1376-yilda o'lgandan keyin Xonzoda Temurning boshqa o'g'li Mironshohning xotini bo'ldi (Sharafuddin Ali Yazdiy, Zafarnoma, v. 150 a, b; 175a). Halil Mironshohdan tug'ilgan o'g'ildir. *Qarang*: Рюи Гонзалес де Клавихо, Дневник путешествия.., стр. 281.

204. **Rum** – XIII–XV asr musulmon tarixchilari Vizantiya (Qichik Osiyo)ni Rum deb ataganlar. Rum haqida kengroq ma'lumot olish uchun qarang: Hindiston safarnomasi, 84-bet, 49-izoh.

205. **Oqshahr** – Turkiyaning uncha katta bo'lmagan bir shahri bo'lib, turk sultoni Boyazid ham 1403-yilda shu joyda vafot etgandi.

206. Sharafuddin Ali Yazdiyning yozishicha, bu yurish 790 (1388)-yilda bo'lgan.

207. Qo'lyozmada xato bo'lib, 853-yil deyilgan.

208. Bu o'rinda ham Ibn Arabshoh voqeani noto'g'ri ko'rsatayotir. Xorazmga Temurning oxirgi yurishi va uni xarob etib, so'filar sulolasini tugatishi 1388-yilda bo'lgan edi. *Qarang*: Nizomuddin Shomiy, Zafarnoma, 108 bet, А. Якубовский, Тимур, стр. 62–63. B. Ahmedov, O'zbeklarning kelib chiqishi, 51–52-betlar.

209. **Mozondaron** – Kaspiy dengizining janubida joylashgan yerlar shunday atalib, 644 (1246–1247) yilda Tabaristonga qo'shilgandan keyin arablar uni Tabariston deb ataganlar.

210. S h o h  V a l i – Xuloquylar inqirozga uchragandan keyin Mozondaron va Xurosonning ba'zi qismlari hokimi (1353–1384). U haqda *qarang*: Лэн Пуль, Мусульманские династии, стр. 299.

211. Nizomuddin Shomiyning yozishicha (Zafarnoma, 84–86-betlar), Temur elchisi borganda amir Vali avvaliga uning itoatiga kirishga rozi bo'ladi, ammo so'ngra unga qarshi kurashga bel bog'laydi.

212. **Arab Iroqi** – Qadimgi Bobil yerlarini ishg'ol qilgan joylar shunday atalgan.

213. S u l t o n  A h m a d  i b n  S h a y x  U v a y s – Sulton Ahmad 1382-yilda otasi o'lgandan keyin Ozarbayjon va Iroqda hukm yuritdi. Temur kelganda (1393 y.) Sulton Ahmad Misr sultoni Barquq huzuriga qochib borib undan panoh topdi va o'sha vaqtdan to Temur vafotiga (1405 y.) qadar u o'z yerlaridan goh ajralib, goh ularni egallab turdi. 1406-yilda Bag'dod hukmida turganda turkman Qora Yusuf bilan uning orasida nizo chiqib, urush voqe bo'ladi. Bu urush 1410-yilda Sulton Ahmadning mag'lubiyati va o'limi bilan tugaydi.

214. Qo'lyozmada: chig'atoylik, sukut.

215. Mashhur arab masali.

216. M u t a n a b b i y  (A b u  T a y y i b) – X asr mashhur arab shoirlaridan.

217. Qur'on, 89-sura, 27-oyatdan.





218. Qur'on, 59-sura, 2-oyatdan.

219. «Majol yetmaydigan (narsa)dan qochish sunnati». Azaldan mashhur bir ibora.

220. Tarixchi Nizomuddin Shomiy Shoh (amir) Valining Rayga tomon qochib ketganini xabar qilib, uning o'limi haqida hech narsa demaydi. Zafarnoma, 96-bet.

221. Qo'lyozmada xato berilgan.

222. Manbalarda «Shosbon» emas «Shosmon» degan mavze uchraydi.

223. Bu o'rinda ham Ibn Arabshoh noaniqlikka yo'l qo'ygan. Bu shaxs Abu Bakr Shosmoniy nomi bilan uchrab, u Xuroson sarbadorlari boshliqlaridan biridir. U sarbadorlar guruhiga bosh bo'lib, Shoh Valiga qarshi urush qilgan, ammo mag'lubiyatga uchragan.

224. Temur askarlari ko'zda tutilayotir.

225. «Aytishlaricha», Mozondaron darbandlaridan birida chig'atoylik (Temur) Abu Bakrni har tomondan o'rab oldi» jumlasi qo'lyozmada suqut.

226. Nashrda xato berilgan.

227. Go'yo Tabbata Sharra qutulganidek qutuldi – Islomdan oldin yashagan arab shoirlaridan biri Sobit ibn Jobir Ibn Sufyon al-Fahmiy (vafoti 530-yil) bo'lib, u Taabbata Sharra («yomonlikni qo'ltiqlagan») nomi bilan mashhurdir. Bu o'rinda uning hayotidan bir voqeaga ishora qilingan, hozircha buni aniqlay olmadik.

228. «Keyin uning ishi nima bo'lgani va holi ne kechganini bilmayman» jumlasi qo'lyozmada suqut.

229. Nashrda Qorayoog' deb xato berilgan.

230. Amiranshoh (Mironshoh) Temurning 1366-yilda tug'ilgan o'g'li.

231. Giyosuddin Alining yozishicha, Shoh Mansur ixtiyorida uch mingga yaqin suvoriy bo'lgan. Ushbu jang tafsili haqida yana qarang: Дневник похода, стр. 48–53.

232. So'zma-so'z: oltinchi «kof»ida. «Kof»lar bilan boshlanadigan yettita so'zdan iborat ruboiydagi oltinchi «kof» ayollarning jinsiy a'zosiga to'g'ri keladi. Ushbu ruboiy Haririy maqomotlarida (25-maqomotda) keltirilgan. Bu haqda kengroq ma'lumot olish uchun yana 1062-izohga ham qarang.

233. So'zma-so'z: og'ir.

234. Qur'on, 8-sura, 60-oyatdan.

235. Qur'on, 7-sura, 142-oyatdan.

236. Qarang: Древнетюркский словарь, стр. 555. Turkcha «mijg'ov».

237. Fikrimizcha, Ibn Arabshoh nazdida Shoh Mansurning g'alat ish qilgani – Temur bilan urushishga bel bog'lagani bo'lsa kerak.

238. Qur'on, 3-sura, 26-oyatdan.

239. Qo'lyozmada: xato berilgan:

240. Nizomuddin Shomiy ushbu urushda Temurning nabirasi Muhammad Sulton zo'r jasorat ko'rsatganligi va birinchilar qatorida shahar qal'asiga kirganligi haqida yozadi.

241. Tarixchi Ibn Tag'riberdi (an-Nujum az-zohira, 260-bet) ushbu amirning ismini Muhammad ibn Aminuddin deb zikr qilgan.

242. Qo'lyozmada g'alat berilgan, asli nashrdagi so'z to'g'ridir.

243. Arabcha bir ibora.

244. Qur'on, 74-sura, 50–51-oyatlar.

245. **«Mir'ot ul-adab fi-l-maoniy va-l-bayon»** (Ma'no va bayonda adabiyot oynasi) – Ibn Arabshohning adabiyotga oid ikki ming baytdan iborat nazmiy bir asari shunday ataladi.

246. Movarounnahr (yoki Samarqand) Sherozga nisbatan shimolda bo'lganligi sababidan muallif bu o'rinda o'shanga ishora qilayotir.

247. Qo'lyozmada: ko'pincha boshqacha keltirilgan.

248. Bu haqda yana qarang: Гияс-ад-дин Али, Дневник похода, стр. 51–52.

249. Qo'lyozmada: qazo.

250. Qur'on, 93-sura, 2-oyat.

251. Qo'lyozmada: qo'shinlarim.

252. Tarixiy bir voqeaga ishora.

253. Shoh Mansur o'limini tarixchilar turlicha talqin qiladilar. G'iyosiddin Ali (Дневник похода, стр. 52) va Nizomuddin Shomiy (Zafarnoma, 134-bet) biroz farq bilan bo'lsa-da, bu voqeani Ibn Arabshoh fikriga yaqinroq tarzda yoritadilar. Lekin Sharafuddin Ali Yazdiy (Zafarnoma, v. 238[a]) ning Shoh Mansurning boshini shaxsan Temurning o'g'li, 17 yoshli Shohrux kesdi degan fikri haqiqatdan yiroqdir. Bu haqda *yana qarang*: A. Мюллер, История ислама, стр. 322.

254. **Bistom** – arab geograflarining yozishicha, azaldan Bistom katta bo'lmasa-da, gullab-yashnagan shahar bo'lgan. IX asrda Bistomda mashhur tasavvuf shayxlaridan Abu Yazid (Boyazid) Bistomiy yashagan.

255. Sulton Barquqqa.

256. Oxirgi abzats to'lig'icha qo'lyozmada suqut.





257. Hozirgi vaqtda bo'lganidek, o'sha paytda Sirjon deb Sherozdan sharq tomonda bo'lgan bir joyni atardilar. Sirjon haqida yana qarang: B. B. Бартольд, Обзор, стр. 95–97.

258. G'iyosiddin Alining yozishicha, Abu Is'hoq ham itoat bildirib, Temur huzuriga kelgan. Дневник похода.., стр. 53

259. So'zma-so'z: hassa sindirmadi.

260. Qo'lyozmada: omonlik molini.

261. **Javmak** (turk) – harbiy va ahliy davlat xodimlariga beriladigan moyana, maosh.

262. **Idror** – hokimlar tomonidan shu in'omga sazovor shaxsga tayin etiladigan yirik pul mablag'i. Idror haqida kengroq ma'lumot olish uchun qarang: И. П. Петрушевский, Земледелие, стр. 269–272.

263. I s f a h o n – Eronning qadimiy shaharlaridan bo'lib, har tomondan tog'lar bilan o'ralgan pasttekislikda joylashgandir. Hamdulloh Qazviniyning yozishicha unda deyarli barcha daraxtlar o'sgan. Isfahon Temurdan qattiq talafot ko'rgan bo'lsa-da, tezda yanada obod bo'lib, 1403-yildayoq Temur nabirasi Rustam mulkining markazi bo'lib qoldi. Isfahon haqida *yana qarang*: B. B. Бартольд, Обзор, стр. 114–119; Хождение за три моря, стр. 194, прим. 336.

264. Qur'on, 24-sura, 35-oyatdan.

265. A b u H u r a y r a – Muhammad payg'ambar (s. a. v.) sahobalaridan bo'lib, johiliyatda uning ismi Abdu Qays bo'lgan. U mushukni juda yoqtirgani uchun Muhammad (s. a. v.) unga Abu Xurayra (Mushuk otasi) degan kunya bergan. Vafoti taxminan 676-yillarga to'g'ri keladi. U haqda qarang: Qomus ul-a'lom, I jild, 767–768-betlar.

266. S h a y x U s m o n – Xulafo ur-Roshidin (chahoryorlar)ning uchinchisi (644–655).

267. Nashrda: mol-dunyo keltirish deb biroz farq bilan berilgan.

268. Nashrda: Qo'llari.

269. Nashrda xato berilgan.

270. Z i m m i y – Arab xalifaligida istilo qilingan yerlardagi g'ayri musulmonlar shunday atalganlar. Arablar bilan ular o'rtasidagi bitimga ko'ra, ular o'lpon to'lashi, islom askarlariga sarflanadigan xarajatlarini ko'tarishi, shuningdek, ular qurol-aslaha saqlashlari, yangi ibodatxonalar qurishlariga chek qo'yilgandi. Mana shular evaziga ular o'z dinlariga sig'inishga haqlari bor edi. Bu haqda kengroq ma'lumot olish uchun qarang: A. Массэ, Ислам, стр. 63.

271. Qur'on 26-sura, 88-oyatdan.

272. Y u n u s i b n M a t t a – yahudiylarning yetti payg'ambaridan biri Qur'on 37, – ya'ni «Sofot» surasining 147-oyatida aytilishicha, ushbu nabi (Yunus ibn Matta) yuz ming va undan ortiqroq ummatga payg'ambar qilib yuborilgan. Demak Ibn Arabshoh yozishicha, Isfahonda Temur tomonidan halok etilganlarning soni olti yuz mingdan ham ortiq ekan-da? Lekin tarixchilardan Sharafuddin Ali Yazdiy (Zafarnoma, v. 190[b]), Abdurazzoq Samarqandiy (Matlayi sa'dayn, v. 113[a]) yozishlaricha. Temur Isfahonda 70000 kalla yig'dirib, ulardan turli joylarda burjlar bunyod qilgan. Bu haqda yana qarang: В. В. Бартольд, Обзор, стр. 116. 273. Qo'lyozmada xato berilgan.

274. **Mo'g'uliston** – XIII–XVII asrlarda Qozog'istondan Qashg'argacha yeyilgan yerlar. «Chig'atoy ulusi»ning shimoli-sharqiy qismi. Ili, Yettisuv va Sharqiy Turkiston viloyatlari. Mo'g'ulistonning g'arbiy chegarasi qilib shimolda Ko'kchadengiz (Balxash), g'arbda Turkiston va Toshkent shaharlari ko'rsatilgan. Demak, hozirgi Qirg'izistonning shimoliy qismi Mo'g'uliston tushunchasiga kirgan. Mo'g'uliston va Mo'g'ul ulusi – bir ma'noda (H. Hasanov. O'rta Osiyo joy nomlari tarixidan, 70-bet).

275. **Jato** – tarixchilar nazmida ko'pincha Jato deb Mo'g'uliston nazarda tutilgan.

276. **Ashpara** – hozir Sirdaryo viloyati bilan Yettisuv o'rtasida chegara bo'lib turgan daryo va joy Ashpara (hozirgi Choldevor) deb atalgan.

277. K a t t a M a l i k a – Amir Husaynning sobiq xotini. Qozonxonning qizi Saroymulkxonim xon qizlaridan bo'lganidan Katta Malika deb atalardi.

278. K i c h i k M a l i k a – 1397-yilda Temur mo'g'ul xoni Xizrxojaning qizi Tukol xonumga uylandi. U Kichik malika deb atalib, Temur haramida ikkinchi malika sanaldi.

279. Nashrda xato berilgan.

280. Shohruxiyaning qoldiqlari Ohangaron daryosining Sirdaryoga quyulish joyidan 15 km yuqorida mavjuddir.

281. «Shohrux» deb shatranj o'yinida shunday holatga aytiladiki, bunda ruh shoh (malik)ga shiddatli hujum qiladi. Bu to'g'rida yana qarang: А. Мюллер, История ислама, стр. 341.

282. Shohruxning onasi Temur ma'shuqalaridan biri bo'lganligi to'g'risnda tarixchi Xondamir ham yozadi. Bu haqda yana qarang: В. В. Бартольд, Соч., т. II/2, стр. 47. прим. 82.

283. Qo'lyozmada ulug'lar deb berilgan.

284. Qo'lyozmada: Shoh Yah'yoga suqut.





285. Qur'on, 12-sura, 77-oyatdan.

286. Intiqom olish ramzi sifatida kiyiladigan kiyim bo'lsa kerak.

287. Nashrda xato berilgan.

288. Qur'on, 41-sura, 21-oyatdan.

289. Qur'on, 79-surasiga ham ishora.

290. Qur'on, 78-surasiga ham ishora.

291. Qur'on, 13-surasining nomi.

292. Qur'on, 71-surasining nomi.

293. Qur'op, 34-surasining nomi.

294. Qo'lyozmada: qo'li.

295. Qo'lyozmada: xato berilgan.

296. Sandersda xato bo'lib, «yigirma» deyilgan.

297. Qo'lyozmada: «shayton» deb berilgan.

298. Shoh Shuj'o o'limi oldidan (1384-yil) o'z viloyatlarini avlodlari va birodarlari o'rtasida taqsim qilganda birodari Sulton Ahmadga Kermon berilgan edi. 1393-yili Temur Shimoliy Eron hukmdorlarini tugatib hammalarini qatl etgandi.

299. Qo'lyozmada xato berilgan.

300. Qur'on, 37-sura, 63-oyat.

301. Qo'lyozmada ushbu jumla noaniqroq berilgan.

302. **Xamo** – G'arbiy Suriyadagi shu nomli muhofaza va uning markazi. Yoqut Hamaviyning yozishicha, u juda azim, obod va qadimiy shahar bo'lib, arab shoiri Imrul Qays ham o'z she'rlarida zikr qilgan.

303. Nashrda, «jamoa yo'li (sunnati)dan (chetga) chiqdi» deyilgan.

304. Bir tarixiy voqeaga ishora. Bu (ishorat) Haririy maqomlarida ham keltirilgan.

305 Payg'ambar alayhissalom hadislaridan.

306. Qo'lyozmada: bahona suqut.

307. **Sultoniya** – XIV asrda Eronda O'ljoytuxon tomonidan asos solingan mo'g'ul xonlari davlatining markazi bo'lib, hozir uning xarobalari Abxor bilan Zinjon o'rtasida mavjuddir. Sultoniya haqida kengroq ma'lumot olish uchun qarang: Хождение за три моря, стр. 198. прим. 340.

308. Qo'lyozmada: qolganlari.

309. **Miqna'** – ayollar boshiga o'raydigan durra (ro'mol).

310. Bu o'rinda Samarqandning boshqa shaharlarga nisbatan ulug'vorligini yaqqol ko'rsatish uchun Samarqand atroflarida Temur bino qilgan Sultoniya, Sheroz, Bag'dod, Dimashq va Misr kabi qasabalar ko'zda tutilayotir.

311. **Koshg'ar** – Xitoy shaharlaridan biri bo'lib, Yoqut Hamaviyning yozishicha, uning aholisi musulmonlardan iborat bo'lgan.

312. **Rustamdor** – Mozandarondagi bir mavze nomi bo'lib, Safidrudning irmog'i bo'lgan Shoxrud sohilida joylashgan. U haqida yana qarang: B. B. Бартольд, Обзор, стр. 159.

313. **Zobuliston** – Janubiy Afg'onistondagi tog'liq yerlardan iborat bir viloyat. U haqda yana qarang: Hudud ul-olam, 22-bet.

314. **Tabariston (Mozondaron)** – Shimoliy Erondagi bir viloyat.

315. **G'azna** – «Bu bir azim shahar va Xuroson tarafidagi keng bir viloyat bo'lib, Xuroson va Hind o'rtasidagi chegaradir», – deb yozgan Yoqut Hamaviy G'azna haqida («Mu'jam ul-buldon», VI jild, 289-bet).

316. **Qazvin** – obod bir shahar bo'lib, XVI asrda birmuncha vaqt Eronning poytaxti ham bo'lgan. XIV asr mashhur tarixchisi va geografi Hamdulloh Qazviniy shu shaharda tug'ilgan.

317. **G'ur** – hozirgi Afg'oniston hududidagi tog'lik bir viloyat.

318. **Lur** yoki **Luriston** – Isfahon va Huziston o'rtasida bo'lib, tog'larga to'liq keng yerlarni o'z ichiga olgan. Ibn Arabshohning yozishicha, Lur yerlari obod, boyliklari behisob va mevalarga to'liq joy bo'lgan.

319. **Ruha** (turkcha Urfa) – Jaziraning shimolida, Diyorbakrdan 190 km uzoqlikda joylashgan shahar. O'rta asrlarda g'oyatda mustahkam qal'asi bilan shuhrat qozongan.

320. **Hijoz** – Arabiston yarim orolida, Saudiya Arabistonidagi qadimiy viloyat. Makka va Madina Hijoz hududidadir. Bu o'rinda muallif tarixiy mubolag'a tarzida Hijozni ham keltirayotir.

321. **Jand** – «Turkiston yerlaridagi azim bir shaharning ismi. U bilan Xorazm o'rtasidagi masofa o'n kunlik yo'ldir», – deb yozadi Jand haqida Yoqut Hamaviy. «Mu'jam ul-buldon», III jild, 137-bet.

322. **Hamadon** – o'rta asrlarda ham, hozirgi vaqtda ham Eronning azim shaharlaridan biri hisoblanib, uning g'arbida joylashgan.

323. Arabcha bir ibora.

324. Qur'on, «Al-A'rof» surasi, 101–121 oyatlariga ham ishora.

325. Barcha manbalarda – Alinjak.

326. Qo'lyozmada «Temur haqida» deyilgan.

327. Nizomiddin Shomiy. Zafarnoma, 139–140 bet.

328. Abu Sayyid Barquq Malik az-Zohir – Misr mamluklar sultonlaridan (1382–1389 va 1390–1399).

329. 325-izohga qarang.





330. Qo'lyozmada to'g'ri keltirilgan.

331. Nashrda va Goliusda xato berilgan. Bu shaxsning ismi aslida Temur Qutlug'dir. Bu o'rinda qofiya uchun so'zlar o'rni almashtirilgan.

332. Nashrdagi «odamlar» so'zi ortiqcha.

333. Nashrda aynan shunday.

334. She'rni barcha o'rinlarda erkin tarjima qildik.

335. Laxyon – qadimgi ulug' arab qabilalaridan hisoblangan Huzayl qabilasining bir guruhi bo'lib, Habashiston hokimi Abraha fillar yordamida Makkaga hujum qilganida (570-yil) Ka'bani mudofaa etganlar.

336. Nashrda va Goliusda xato berilgan. Bu shaxsning ismi aslida Temur Qutlug'dir. Bu o'rinda qofiya uchun so'zlar o'rni almashtirilgan.

337. Qur'on, 93-sura, 2-oyatiga ham ishora.

338. (Turk) – qo'shin.

339. Bu haqda yana qarang: M. A. Сейфеддини, Монетное дело в Азербайджане, стр. 71.

340. Sandersda: hammaga.

341. Islomgacha bo'lgan mashhur bir masalga ishora.

342. Qur'on, 53-sura, 8-oyat.

343. Qur'on, 80-sura, 1-oyat.

344. «Har xil gumon – taxminlar qilib bosh qotirdi». Arabcha bir masal, qarang: Munjid, 959 bet.

345. **Marand** – Tabrizdan 82 km uzoqlikda joylashgan bir shahar bo'lib, hozir Eron Ozarbayjoniga mansubdir.

346. **Shirvon** – Darband tomonidagi bir shahar bo'lib, oralaridagi masofa yuz farsaxdir. Uni Anushirvon bunyod qilganligi uchun shu nom bilan atalgan. Yoqut Hamaviy, Mu'jam ul-buldon, V jild, 258 bet.

347. Nizomuddin Shomiyda (Zafarnoma, 139 bet): yigirmanchisida.

348. Nizomuddin Shomiyning yozishicha, shahar a'yonlari mol-dunyo evaziga Temurdan omonlik tilaganlar. Natijada, Temur lashkarlarining butun xarajatini Bag'dod ahli o'z ustiga olgan. Zafarnoma, 141 bet.

349. **Diyorbakr** – Arzirum va Bidlis viloyatlarining janubidagi viloyat shunday deb atalardi. Keyinroq Dajla daryosining chap sohilida joylashgan Omid shahri shu nom bilan nomlandi.

350. **Arzinjon** – Frot daryosining yuqori oqimida joylashgan shahar – Yoqut Hamaviy va Ibn Battutaning yozishlaricha, o'rta asrlarda shahar ahlining ko'pchiligini armanlar tashkil qilgan. XIII–XIV asrlarda shahar G'arb bilan Tabriz va umuman Sharq o'rtasida xalqaro savdo-sotiqni bog'lab tu-

radigan muhim punkt bo'lib xizmat qilgan. U haqida yana qarang. Yoqut, Mu'jam ul-buldon, 1-jild, 190-bet; Ibn Battuta, Rihla 1-qism, 190-bet.

351. Yana qarang: Босворт К. Э., Мусульманские династии, стр. 215.

352. Qur'on, 10-sura, 49-oyatdan va 7-sura, 34-oyatdan.

353. Qur'on, 18-sura, 29-oyatdan.

354. **Hilla** – Bag'dod va Kufa o'rtasida joylashgan katta bir shahar bo'lib, qadimgi Bobil shahri qoldiqlari o'rnida bunyod etilgandir. Hozir Hilla Bag'dod viloyatiga (livosiga) mansubdir.

355. Bu haqda yana qarang: Sharafuddin Ali Yazdiy, Zafarnoma, v. 243 b.

356. Imom Husayn (ibn Ali) shahid bo'lgan joy, ya'ni Karbalo (Iroq) shahri nazarda tutiladi.

357. Bu bo'lim to'lig'icha qo'lyozmada noqisdir. Sulton Ahmad va Temur jamoasi o'rtasida yuz bergan mojaro va Sulton Ahmadning Bag'doddan qochib, Hilla orqali Karbaloga yetguncha qilgan ishlari to'g'risida Nizomuddin Shomiy ham deyarli shu tartibda hikoya qiladi. Qarang: Zafarnoma, 139–140-betlar.

358. **Takriyt qal'asi** – Takriyt Bag'dod va Mosul o'rtasidagi mashhur bir shaharcha bo'lib, u bilan Bag'dod o'rtasi o'ttiz farsaxdir. Shaharda mustahkam qal'a bo'lib, uning atroflari benihoya balanddir. Qal'a Dajla daryosining g'arb tomonida joylashgan.

359. Qo'lyozmada: Yo'ltumur, Sandersda va Goliusda Bulimur; Nizomuddin Shomiy (Zafarnoma, 142 bet) qal'a voliysini amir Hasan deb yozsa, Sharafuddin Ali Yazdiy (Zafarnoma, v. 248[a, b], 249[a, b]) uni Husayn deb zikr qilgan.

360. Nizomuddin Shomiy yozishicha, Temur mol-dunyo evaziga Takriyt qal'asi ahliga omonlik berishga ahd qilgan. Lekin qal'a boshliqlari o'z so'zlarini ado etmagach, qal'ani hisor qilib, uni vayron etgan va undagi mavjud fasodchilarning boshlarini kesib to'p qilib tepganlar. Temur qal'ani batamom xarob etmasdan uning devorlaridan bir tomonini qoldirishlarini amr qildiki, go'yo keyingi avlodlarda u (Temur) shunday mustahkam qal'ani qanday qilib egalladi ekan, degan tasavvur bo'lsin uchun (Zafarnoma, 142–144-betlar).

361. Qo'lyozmada va Goliusda: yigirma birinchi.

362. **Mosul** – qadimiy shahar bo'lib, ilgari Iroqning darvozasi hisoblangan. Ko'pgina xorijiy mamlakatlarga Mosul orqali o'tilib, hatto u Xurosonning kaliti deb ham atalgan. Hozirgi vaqtda ham Mosul Iroqning katta shaharlaridan biri sanaladi. U haqda kengroq ma'lumot olish uchun qarang: Ibn Battuta, Rihla, 1-qism, 148–149-betlar.





363. Raas al-Ayn-Turkiyaning janubidagi bir shahar bo'lib, chashmalarining g'oyatda ko'pligi bilan shuhrat qozongan.

364. Nashrda: o'ninchisida.

365. S a m u d va O d – rivoyatlarga ko'ra, o'z tug'yonlari tufayli tangri tomonidan qironga mahkum etilgan qabilalar. Qur'onning ba'zi oyatlarida ular haqida zikr qilinadi.

366. M o r d i n – o'rta asrlarda taxminan Raas al-Ayn bilan Nasibiyn o'rtalig'ida, tog' qoyasi cho'qqisida qurilgan ulkan qal'a.

367. Safar oyining oxirlarida (1394-yil yanvar oyining boshlari (Temur Mordin yaqiniga yetib keldi). Nizomuddin Shomiy, Zafarnoma, 146-bet).

368. Nashrda: Tohir berilgan.

369. Arab masali.

370. Uning muddaosini bilaman ma'nosida bo'lsa kerak.

371. **Hiloliya** – ushbu mavze o'rnini hozircha aniqlay olmadik.

372. Nizomuddin Shomiyning yozishicha, (796-yil) rabi ul-avval oyining to'rtinchisida (1394-yil, 7-yanvar) Sulton Iso shahardan chiqib, Temur huzuriga kelgan. Temur unga xil'at in'om qilgan (Zafarnoma, 146-bet).

373. Nashrda suqut.

374. Yuz tumon kumush dirham (har bir tumon oltmish ming) – olti yuz ming kumush tanga.

375. Qur'on, 39-sura, 3-oyati va 34-sura, 37-oyatiga ham ishora.

376. **Firdavs** – Qazvinga qarashli bir qal'a.

377. **Rasmal** – ushbu mavze o'rnini hozircha aniqlay olmadik.

378. **Nasibiyn** – Mesopotamiyaning markazidagi bir obod shahar bo'lib, Mosuldan Shomga boradigan katta karvon yo'li Nasibiyn orqali o'tgan. Uning ahli zikr qilishlaricha, Nasibiyn va uning qishloqlarida qirq ming bo'ston bo'lgan. U haqda yana qarang: Yoqut, Mu'jam ul-buldon, VIII jild, 292–293-betlar; Hudud al-olam, 175-bet.

379. A l - K i n d i y – Yaqub ibn Is'hoq al-Kindiy (800-yillar atrofida Kufa (Iroq)da tug'ilgan – mashhur arab faylasufi. Mantiq, musiqa, handasa, tabiyot, falakiyot kabi turli fanlarga oid 240 dan ortiq asar yozgan.

380. Qo'lyozmada xato berilgan.

381. Nashrda suqut.

382. Qur'on, al-Baqara surasidagi muqotalaga oid 190–193-oyatlarga ishora bo'lsa kerak.

383. **Arbun** – ushbu mavze o'rnini hozircha aniqlay olmadik.
384. Qo'lyozmada: orzusi.
385. Qo'lyozmada: bildiriladi.
386. Nashrda: xato keltirilgan.
387. Bu o'rinda so'z o'yini ham bo'lib, «qaysar» so'zining «isyonkor», «monekor» kabi ma'nolariga ham ishora.
388. **Bashiriya** – Diyorbakrning etaklarida, Arzan bilan Batmonsuv o'rtaligidagi bir shahar.
389. **Omid** – 324-izohga qarang.
390. **Irjis qal'asi** – Tabriz yaqinidagi mustahkam qal'a.
391. **Avnik qal'asi** – O'rta asrlardagi ulug'vor qal'alardan bo'lib, Arzirum sharqida, Araks daryosi yaqinidagi bir tog' cho'qqisi ustida joylashgan edi.
392. Nashrda: Midr deb berilgan.
393. «Bu (voqea) 796-yilda, ramazon hayitidan keyin (1394-yil iyul) bo'lgan edi». Ushbu jumla qo'lyozmada suqut.
394. Nashrda: Astanbug'o.
395. Qur'on, 47-sura, 4-oyatdan.
396. Temurning katta xotini Bibixonim nazarda tutiladi.
397. Nashrda suqut.
398. Qo'lyozmada: o'n uchinchi.
399. **Vaston** – Hamdulloh Qazviniyning yozishicha, avvalgi zamonlarda azim shahar bo'lgan Vaston uning zamonida (XIV asr) o'rtacha shaharga aylangan (Nuzhat ul-qulub, 103-bet).
400. **Bidlis** – o'rta asrlarda Armaniston tarkibiga mansub shahar bo'lib, Van ko'lidan janubroqda joylashgan. Hozir Bidlis Turkiya tarkibiga kiradi.
401. **Arzan** – Hamdulloh Qazviniyning yozishicha, Arzan mustahkam qal'ali katta bir shahar bo'lgan (Nuzhat ul-qulub, 104-bet).
402. **Sur** – O'rta dengiz bo'yida joylashgan katta bir shahar.
403. Nashrda: yetib keldi suqut.
404. «Aytishlaricha»dan boshlab to ushbu «zikr»ning oxirigacha qo'lyozmada suqut.
405. Qur'on, 36-sura, 82-oyatdan.
406. Qo'lyozmada sarlavhaning ikkinchi qismi noqis.
407. Qo'lyozmada noo'rin ibora keltirilgan.
408. Bu xususda 97-izohga qarang.





409. Ushbu jumla V. G. Tizengauzenda noto'g'ri tarjima qilingan. *Qarang*: СМИЗО, Т. I. стр. 456.
410. «Dasht yerlari, Qipchoq yerlari yoki Dashti Baraka deb ataladi» – ushbu jumla qo'lyozmada suqut.
411. B a r k e x o n – Jo'jixonning uchinchi o'g'li bo'lib, Chingizxon nabirasidir. Uning Oltin O'rdada hukmronlik qilgan davri 1257–1266-yillarga to'g'ri keladi. Garchi Barakaning islom dinini yoyishdagi xizmati katta bo'lgan bo'lsa-da, Ibn Arabshoh uning hissasini birmuncha mubolag'a bilan ifodalaydi.
412. D a r b a n d – Ozarbayjonning qadimiy shaharlaridan bo'lib, arablar uni Bob ul-Abvob («Darvozalar darvozasi») deb ataganlar. Chunki Darband Kaspiy dengizi sohillari bo'ylab shimoldan janubga o'tadigan yo'lning tamomida joylashgan edi.
413. Bu haqda Sharafuddin Ali Yazdiy ham deyarli shunday yozadi. (Zafarnoma, v. 182 b).
414. Qo'lyozmada: yoki mang'it ortiqcha berilgan. Nashrdagi «Qubqumot» «Qo'ng'irot»ning g'alati yozilishidir. Amir Idiku Botuxonning Dashti Qipchoqqa qilgan yurishidan keyin bu joy (Dashti Qipchoq)da qolgan qabilalarning biri, ya'ni mang'it qabilasidan edi. Sharafuddin Ali Yazdiy ham amir Idikuning mang'it qabilasidan ekanligi to'g'risida yozadi. (Zafarnoma, v. 158 a).
415. Nashrda g'alat bo'lib, V. G. Tizengauzen ham o'z tarjimasida bu o'rinda xatoga yo'l qo'ygan. *Qarang*: СМИЗО, Т. I, стр. 457.
416. Ibn Arabshoh va qisman Nizomuddin Shomiyning (Zafarnoma, 125-bet) yozishicha, shuningdek, o'sha paytda Idiku haqida xalq o'rtasida tarqalgan rivoyatda ham shu zaylda gap yuritilsa-da, bu fikrlar g'alatdir. Aslida To'xtamishga qarshi isyon ko'targan Oltin O'rda xonlari tomonidan Idiku madad so'rash uchun Temur huzuriga yuborilgan edi. Bu haqda batafsil ma'lumot olish uchun qarang. В. В. Радлов, Ярлыки Тохтамыша, стр. 6. Ibn Arabshohning ushbu noto'g'ri fikri ba'zi tadqiqotchilarni chalg'itishga ham sabab bo'lgan edi. Masalan, Г. М. Мелиоранский, Сказание об Едигее.
417. Qo'lyozma va nashrda boshqacha berilgan.
418. Nashrda: (ularning) boylari deyilgan.
419. **Bahru Qulzum** – Kaspiy dengizi nazarda tutiladi. Bu haqda yana qarang: Manger, 369-bet, 48-izoh.
420. Qur'on, 55-sura, 19-oyat.

421. **Iybir** – Sibir nashrda suqut.

422. «Yaramas nasroniylar yerlari» – V. G. Tizengauzen tarjimasida suqut. СМИЗО, T. 1. стр. 459.

423. Qur'on, 31-sura, 27-oyatdan.

424. Nashrda «yo'lboshlovchi» suqut.

425. Ushbu bayt arab shoiri an-Nobig'a az-Zubyoniy (vafoti VII asr boshlariga to'g'ri keladi) qalamiga mansub.

426. Qo'lyozmada xato berilgan.

427. **Ukoz** – Makka bilan Toif o'rtasidagi bir mavzening ismi bo'lib, har yili u joyda bozor (yarmarka) uyushtiriladi. U haqda yana qarang: Qomus al-a'lom, 4-jild, 3166-bet.

428. **Iroor** – bolalar o'yinining nomi. Bir bola (ko'chaga) chiqib tengdoshlarini uchratmasa baland ovoz bilan «iroor»deb (boshqalarni chaqiradi. Natijada, bolalar (uylaridan) chiqib ushbu o'yinni o'ynaydilar. *Qarang*: Muhit-ul-muhit, P-j. 1377-bet.

429. Xoja Abdumalik Samarqandiy – mashhur shoir va ulamolardan bo'lib, Amir Temur zamonida Samarqandda shayx-ul-islom edi. U Isomiy taxallusi bilan she'rlar ham yozgan. U haqda qarang: Qomus al-a'lom, 4-jild, 3111-bet.

430. Astraxan.

431. Hofizuddin Muhammad ibn Nosiruddin Muhammad al-Qurdiy al-Bazzoviy al-Xorazmiy – mashhur olim va tarixchi, «al-Fatovi al-Bazzoviya» («al-Bazzoviy fatvolari») kitobining muallifi. Vafoti 827 (1423–1424) yil.

432. O'zbekxon – 1312–1341-yillarda hukmronlik qilgan.

433. Jonibekxon – O'zbekxonning o'g'li bo'lib, 1341–1357-yillarda hukmronlik qilgan.

434. Qutbuddin ar-Roziy – mashhur ulamolardan bo'lib, «Muhokamat bayn al-anom» nomli bir kitob ta'lif etgan. U Nosiruddin Tusiyning hayotiga doir ba'zi kitoblarni ham sharh etgan. U haqda qarang: Qomus al-a'lom, 3-jild, 2241-bet.

435. Sa'duddin Taftazoniy – Islom dunyosida juda mashhur bo'lgan bu olim 1322-yili Xurosonda, Niso shahri yaqinidagi Taftazon qishlog'ida tug'ilgan. U Temur xizmatida bo'lib, uning ikromu ehtiromiga sazovor bo'ldi. U tafsir, fiqh, mantiq, islom aqidalari va boshqa ilmlarda zamonasining yagona kishisi bo'lib, ko'pgina asarlar muallifidir. Taftazoniy 1389-yilda Samarqandda vafot etgan. U haqda kengroq ma'lumot olish uchun qarang: I. Abduldayev, H. Hikmatullayev, Samarqandlik olimlar, 44–47 betlar.





436. **Hojibiya** – Shayx Jamoluddin ibn al-Hojibning «al- Qofiya» ismli asari bo'lsa kerak. Shu asarga sharh yozganlar ko'p. Jumladan, Jaloluddin Ahmad ibn Ali ibn al-G'ijduvoniy (vafoti noma'lum) ham bor. Hoji Xalifa, Kashf az-Zunun, «Qofiya» moddasiga qarang.

437. Qo'lyozmadagi Ahmad al-Jandiy to'g'ridir. «Al-Osor» kitobining birinchi jildida ham Ibn Arabshoh bu olimni al-Xo'jandiy deb xato ko'rsatgani ta'kidlanadi. Asli uning to'liq ismi Ahmad ibn Mahmud al-Jandiy bo'lib, u 751 (1350–1351) yilda «al-Maqolid» ismida bir sharh yozgan. *Qarang*: al-Osor, birinchi jild. 24-bet.

438. Volga daryosi.

439. «Jonlarni olib (surib) ketadi» jumlasini V. G. Tizengauzen batamom noto'g'ri «jonlarni quvontiradi» deb tarjima qilgan. Qarang: СМИЗО, T. I. стр. 461.

440. Qo'lyozmada Sayxun daryosi ham deyilgan.

441. Itil (Volga) daryosi ko'zda tutilayotir.

442. Qo'limizdagi qo'lyozma va nashrda ushbu jumla yo'q. Lekin Sandersning yozishicha, bu jumla qo'lyozmalarda suqut. I. Yu. Krachkovskiy fikricha, Sanders «Ajoib al-maqdur»ning lotin tilidagi (Manger, 1. 383-bet) tarjimasidagi ushbu ortiqcha jumlani ko'chirib qo'yaqolgan. Holbuki bu so'zlar birorta qo'lyozmalarda uchramaydi. *Qarang*: Английский перевод Истории Тимура, стр. 294.

443. Qo'lyozmada g'alat.

444. So'zma-so'z: oziq (jag') tishlariga;

445. Qur'on 21-sura, 96-oyatdan.

446. Sual – merganlikda mashhur bo'lgan bir arab qabilasining nomi.

447. Qur'on, 22-sura, 11-oyatdan.

448. Qur'on, 15-sura, 94-oyatdan.

449. Qo'lyozmada xato bo'lib, «Aqboq» deyilgan. Bu ism «Aqtov» To'xtamish amirlaridan birining ismi bo'lib, Ibn Arabshoh almashtirib qabila nomi deb yozgan. Bu haqda *yana qarang*: Золотая Орда и её падение, стр. 366.

450. Sharafuddin Ali Yazdiyning yozishicha ham Aqtov ismli amir o'z odamlari bilan To'xtamish qo'shinidan ajralib, Rum yerlari tomon ketib, o'sha joylarda istiqomat qila boshlagan.

451. Temur va To'xtamish askarlari o'rtasida bo'lib o'tgan janglarda gi qo'shinlar tartibi, ular qo'llagan jang uslublari haqida tarixchilardan Ni- zomuddin Shomiy, Sharafuddin Ali Yazdiy va boshqalar batafsil yozadilar.

452. Sharafuddin Ali Yazdiyning yozishicha, To'xtamish va Temur o'rtasidagi hal qiluvchi bu jang 1395-yil 14-aprel chorshanba kunida Terek daryosi buyida yuz bergan (Zafarnoma, v. 273 b).

453. Qur'on, 67-sura, 5-oyatdan.

454. Bu xusumat-u ladad uch kunga yaqin davom etdi – ushbu jumla qo'lyozmada suqut.

455. Qur'onning ba'zi oyatlariga ham ishora qilingan.

456. Qo'lyozmada: ular qabilalarini.

457. Sharafuddin Ali Yazdiyning yozishicha, Temur Azovni batamom talagach, g'ayri musulmonlar bo'lgan shahar ahlini qirib tashlashni amr qilgan.

458. Nashrda: Sarabxuq deb xato berilgan. Bu o'rinda Saraychuq shahri ko'zda tutilayotir.

459. Qur'on, 61-sura, 12-oyat.

460. Kur'on, 59-sura, 16-oyatdan.

461. Qur'on, 38-sura, 3-oyatdan.

462. Qur'on, 25-sura, 27-oyat.

463. Qo'lyozmada: «quvvati».

464. Ikki sher va ikki kulfatdan Idiku va To'xtamish nazarda tutiladi.

465. Jabala (Ibn al-Ayham)–arab tarixchilari uni g'assoniylarning oxirgi podshohi deb hisoblaydilar. U xalifa Umar (634–643) davrida islom diniga kirgan. Vafoti 644-yil. (Munjid, 131 -bet.)

466. Bani G'asson (G'assoniylar)–asli yamanlik bir arab sulolasi. Ular islomgacha Xavaron, Sharqiy Iordaniya, Livan yerlarida yashaganlar. G'as- soniylar masixiylar bo'lib, keyinchalik ular islomni qabul qilganlar (Mun- jid, 371).

467. Qora Bug'don–bu haqda Manger nashridan (1-jild),413-betdagi, 30-izohga qarang.

468. Qo'lyozmada xato berilgan.

469. Nashrda: «Temur» so'zi ortiqcha.

470. To'xtamishning o'limi haqida har xil fikrlar mavjud. Tarixchi Muinuddin Natanziyning yozishicha, To'xtamish 800 hijriy yilida (24 (IX–1397–12) IX–1398 y.). Tulin (Tyumen) chegarasida o'z ajali bilan o'lgan. (В. Г. Тизенгаузен, СМИЗО, t. II, стр. 237). Ammo To'xtamish-





ning, 1405-yil yanvar oyida Xitoyga tomon yurish qilgan Temur O'trorda turganida unga elchi tariqasida o'z navkari Qoraxo'jani jo'natgani ham tar- ixdan ma'lum. (Sharafuddin Ali Yazdiy, Zafarnoma, v, 469-6). Umuman, bu to'g'rida kengroq ma'lumot olish uchun qarang: Золотая Орда и её падение, стр. 383–384.

471. Bu ism nashrda va qo'lyozmada ikki xil berilgan.

472. Nashrda xato: «Qublig'».

473. Mangerda boshqacha shaklida berilgan.

474. Uning hukmronlik yillari (1410–1412).

475. Bu haqda Abdurrazzoq Samarqandiy ham yozadi. *Qarang*: В. Г. Тизенгаузен, СМИЗО, t. II, стр. 193.

476. J a l o l – To'xtamishning o'g'li Jaloluddin nazarda tutiladi.

477. Bu to'g'rida yana qarang: Nikonovskaya letopis, стр. 125.

478. Nashrda xato. Temur(xon) o'z harbiy boshliqlaridan biri G'azon- ning amri bilan uning bir navkari tomonidan 1412-yilda o'ldirildi. Qarang: В. Г. Тизенгаузен, СМИЗО, t. II, стр. 253–254.

479. Idiku o'limi haqida kengroq ma'lumot olish uchun qarang: Золотая Орда и её падение, стр. 403–405; Б. А. Ахмедов, Государство кочевых узбеков, стр. 118.

480. Muallif bu o'rinda chalkashlikka yo'l qo'ygan. Saroychuq shahri Ural daryosining quyi oqimida joylashgan bo'lib, Sayxun bilan hech yaqin- ligi yo'qdir. Bu o'rinda Sayxun deb Yoyiq (Ural) daryosi ko'zda tutiladi.

481. Sal oldinroq bu haqda to'xtalgan edi.

482. Nizomuddin Shomiy Temurning Samarqandga qaytish tarixini 799 hijriy yili (5.X. 1396–23.IX. 1397) deb ko'rsatadi, (Zafarnoma, 167-bet).

483. Nashrda Ozarbayjon deb xato ko'rsatilgan.

484. Mangerda va Sandersda xato berilgan.

485. Bu to'g'rida birmuncha farq bilan Nizomuddin Shomiy (Zafarno- ma, 103–104-betlar) ham shu tariqa hikoya qiladi.

486. Nashrda g'alat berilgan.

487. Qo'lyozmada al-Kashk shaklida berilgan.

488. **Qaysariya** – Falastinda joylashgan bir shahar bo'lib, hozirgi vaqt- da undan faqat xarobalar qolgan.

489. **To'qot** – Turkiyadagi bir shahar bo'lib, azaldan mis va teri bilan tijorat yurgizishda mashhurdir.

490. **Sivos** – Turkiya hududidagi mustahkam bir shahar bo'lib, ajoiib tabiati, havosi va turli-tuman mevalari bilan shuhrat qozongan. Uning ahli

musulmon va xristianlardan tashkil topgan. (Ал-Бакуви, Талхис ал-асар, стр. 93).

491. Nashrda: filiklari.

492. Qur'on, 2-sura, 249-oyat.

493. Qur'on, 39-sura, 46-oyat.

494. Qur'on, 6-sura, 93-oyatdan.

495. Qur'on, 18-sura, 79-oyatdan.

496. Qur'on, 19-sura, 98-oyat.

497. Qo'lyozmada: al-Fozil Badruddin ibn Alouddin Fazlulloh.

498. Qur'on, 3-sura, 26-oyat

499. Qur'on, 109-sura, 1–2-oyatlar.

500. Qur'on, 2-sura, 89-oyatdan.

501. Qur'on, 82-sura, 1-oyat.

502. Qur'on, 3-sura, 169-oyat.

503. Qur'on, 2-sura, 249-oyat.

504. Qur'on, 5-sura, 56-oyat.

505. Qur'on, 19-sura, 90-oyat.

506. Qur'on, 19-sura, 79-oyat.

507. X u l o k u – Eronda saltanat yuritgan mo'g'ul hukmdorlaridan (1256–1265).

508. N o s i r u d d i n T u s i y (1201–1274)–Sharqning mashhur astronom va matematiklaridan. U haqda kengroq ma'lumot olish uchun qarang: Г. Д. Мамедбейли, Основатель марагинской обсерватории, стр. 23–33.

509. Boshqa manbalarda Shom noibi Tanamning Temurga qarshi yurishga otlanganligi xususida hech bir ma'lumot uchratmadik. Aksincha, o'z mavlosi Misr sultoniga isyon bildirib, u Damashqdan chiqib Halabga tomon yurib, uni egallagani va keyin Damashqqa qaytgani ma'lum. Ehtimol Ibn Arabshoh ushbu yurishni ko'zda tutayotgandir.

510. Qur'on, 33-sura, 25-oyatdan.

511. Qur'on, 24-sura, 35-oyatdan.

512. F e r u z s h o h – Dehli sultonligining Tug'loshlar sulolasi (1320–1413) dan bo'lgan hukmdor. Hukmronlik qilgan yillari 1351–1388.

513. Nashrda barcha o'rinlarda Shorangxon deb berilgan.

514. Temurning Hindistonga yurishi davrida Dehli sultonligida mavjud bo'lgan hokimiyat uchun kurash, tarqoqlik va parokandalik haqida kengroq





ma'lumot olish uchun qarang: Н. К. Синха, А. Ч. Банерджи. История Индии, стр. 121–185.

515. Qo'limizdagi qo'lyozma va nashrda «Temur» deb berilgan. Fikrimizcha bu g'alat, tekst taqozosi ham shuni tasdiqlaydi. Shu sababli biz uni Mallu deb tuzatib o'qidik. Manger (460-bet, 17-izoh) va Sandereda ham shu yo'sinda tuzatilgan.

516. Temurning Hindistonga yurishi va bu yurish paytida ikki tomon o'rtasida sodir bo'lgan urush va to'qnashuvlar haqida tarixchi G'iyosiddin Ali (Дневник похода, стр. 59–174) mufassal yozadi.

517. Nashrda: yo'q qilish, o'ldirish deb berilgan.

518. **Hind qilichi** – musulmon tarixchilari nazdida hind qilichi g'oyatda o'tkir qilich sifatida tasavvur qilinadi.

519. Sind olovi –nashrda xato berilgan, asli Sinddagi jazirama issiq e'tiborga olinib, Sind olovi deb keltirilayotgan bo'lsa kerak.

520. Nashrda: vasfida.

521. **Xatt nayzasi** – Xatt Omandagi bir mavzening nomi bo'lib, u o'zining nayzasi bilan mashhur bo'lgan. Yoqut Hamaviyning (Mu'jam ul-buldon, 3-jild, 449-bet) yozishicha, nayzalar Hindistondan keltirilgan va u yerda (Xattda) to'g'rilanib, keyin arablarga sotilgan.

522. **Xalanj (kamon) o'qi** – Xalanj, Hindiston va Siyn atroflarida bitadigan bir daraxtning ismi. Uning yog'ochi g'oyat qattiq bo'lib, undan asosan yog'och idishlar, shuningdek kamon yasaladi. Xalanj kamon o'qi deb o'shanga nisbatan beriladi.

523. Qo'lyozmada: «zarb» deb berilgan.

524. Bu haqda kengroq ma'lumot olish uchun «Muhit ul-muhit»dan (hisob faniga oid) «vafq» moddasiga qarang: 2-jild, 2272-bet.

525. Quyosh.

526. Qur'on, 8-sura, 48-oyatdan.

527. Qo'lyozmada yana qo'shimcha: «hamoqati mavjudligidan» ham deyilgan.

528. **Abraxa fili** – Yaman hokimi Abraxa 570-yilda Makka qurayshlariga qarshi urush boshlab, bu urushda u fillardan foydalangan. Shu sababli 570-yil Fil yili deb ataladi.

529. B a n i U q a y sh – ushbu qabila haqida boshqa manbalarda biror ma'lumot uchratmadik.

530. «O'z haydovchilarini ag'natib, ustlarida o'tirganlarni yiqitib bo'ynini sindirib» so'zlari. Qo'lyozmada suqut.

563. Qur'on, 9-sura, 40-oyatdan.

564. A l - B u r o q – Hadisda keltirilishicha, bu qanotli ulov Muhammad payg'ambar bilan Quddusdagi Masjid al-Aqsoga uchib kelgan.

565. **Masjid al-Harom** – Ka'ba (Makka)dagi masjid.

566. **Masjid al-Aqso** – lug'aviy ma'nosi – eng uzoq masjid. Quddusdagi katta bir jome.

567. Qur'on, 48-sura, 2-oyatdan.

568. Qur'on, 54-sura, 1-oyatdan.

569. Nashrda: unga tomon talpindi.

570. Qur'on, 41-sura, 42-oyat.

571. Qur'on, 93-sura, 4–5-oyatlar.

572. I k k i  U m a r – choryorlardan Abu Bakr va Umar ko'zda tutiladi.

573. Qur'on, 78-sura, 12-oyat.

574. **Iram zot ul-imod** – Qur'on, al-Fajr surasi 7-oyatida zikr qilingan bo'lib, lug'aviy ma'nosi «ko'p ustunli Eram» demakdir.

575. Arablarda mashhur bir ibora.

576. Q u t b  a l - M o u s i l i y – ushbu mashhur naychi boshqa manba va adabiyotlarda, jumladan Alisher Navoiyning «Majolisun-nafois» (168–169-betlar) asarida ham Qutb Noyi nomi bilan mashhur.

577. I s ' h o q – Is'hoq al-Mousiliy (767–850) Abbosiylar davrining eng mashhur qo'shiqchilaridan. Qo'shiq aytish va ud chalish borasida u tengi yo'q mohir bo'lgan.

578. A b d u l q o d i r  a l - M a r o g ' i y – forscha manbalarda Xoja Abdulqodir Go'yanda nomi bilan ataladigan mashhur musiqachi, hattot va musavvir.

579. Alisher Navoiyning («Majolisun-nafois», 168-bet), yozishicha, Amiranshohning yo'ldan og'ishida asosiy sababchi uning uch nadimi bo'lib, ulardan biri Xoja Abdulqodir edi. U Temur jazosidan qochib, qalandar bo'lib, o'zini devonalikka solib, mulkdan-mulkga o'tib yurgan va shu tariqa qutulib qolgan.

580. Sharafuddin Ali Yazdiyning (Zafarnoma, v. 352 a) bu to'g'rida yozishicha, Temur o'g'li Amiranshohni mansabidan ozod etib, uning maslahatgo'ylari va ayshu ishratdagi sheriklarini qatl qilgan.

581. Bu o'rinda ishlatilgan so'z bir diniy istiloh bo'lib, aslida Qur'onning hammaga ham ravon, tushunarli bo'lmaydigan suralari shunday deb ataladi.





582. Turkman qabilasi bo'lgan qoraquyunlilarning boshlig'i Qora Muhammad o'ldirilgandan keyin o'g'li Qora Yusuf otasi o'rnini egallab, uzoq yillar Temurga qarshilik kursatdi. Bu kurashda Sulton Ahmad unga ittifoqdosh bo'lib, ko'p yillar ular birgalashib harakat qildilar.

583. Qo'lyozmada: «bir kun» suqut.

584. **Madinat us-Salom** – Bag'dod shahrining nomlaridan.

585. 802-yilning oxirlarida (1399-yil iyul) Temurning Sivos tomoniga qarab otlanganligini bilgach, Sulton Ahmad Qora Yusuf bilan birga o'z ahli-avlodlari, mol-dunyo nafoislarini olib Rumga qarab ketdi. Bag'dodda esa Faraj ismli kishini valiy qilib qoldirdi.

586. Misr sultoni Abu Said Barquq, Ibn Hajar al-Asqaloniy (Inba ul-g'umr, 463 bet) yozishicha, 801-yil shavvol oyining to'qqizinchisi, shanba (1399-yil 14-iyul) kunida, Ibn Do'qmoq (Iqd al-javohir, 328-bet) yozishicha, mazkur yil va oyning o'ng beshinchisi (1399-yil 20-iyun), juma kunida vafot etgan.

587. Ibn Hajar al-Asqaloniy yozishicha. Oq quyunli turkmonlarining amiri Usmon Qorayluk bir necha marta Sivos ustiga g'orat qilib uni talagach, Sulton Burhonuddin unga qarshi chiqqan va o'rtalarida voqe bo'lgan jangda sulton qatl etilgan (Inba ul-gumr, 456-bet).

588. Turkmon Qora quyunlilarining amiri Qora Yusuf oq quyunlilar bilan bo'lgan jangda 1420-yilda o'ldirilgan edi. (К. Э. Босворт. Мусульманские династии, стр. 221–222).

589. Misr va Shom sultoni malik al-Muayyad Shayx Abu-l-Fath, G'iyosiddin 1421-yilda vafot etgan Munjid, 5178-bet.

590. Qo'lyozmada Aratna, nashrda Arasna. Sandersda Artata shaklida keltirilgan bo'lsada, aslida XIV asr o'rtalarida Kichik Osiyoda tashkil bo'lgan «Artana davlati» deb atalmish davlat ko'zda tutilayotir. Uning poytaxti Sivos bo'lgan. Qofiyaga rioya qilinib ushbu jumla bir qadar noaniq tuzilgan.

591 Qo'lyozmada: «sharafli» suqut.

592. Qo'lyozmada barcha o'rinlarda «Ji Keldi» shaklida berilgan.

593. Nashrda: boshqacha berilgan.

594. Qur'on, 21-sura, 22-oyatdan.

595. Hadisda keltirilishicha, bu, tangri o'zi xohlagan kishisining bo'yniga soladigan g'oyatda shiddatli azob bo'lib, undan faqat tangrigina xalos qilarmish.

596. **Amosiya** – Kichik Osiyo (Turkiya)dagi bir shahar.

597. Qo'lyozmada «nurlari» suqut.
598. **Huld** – Jannat (abadiyat) bog'i.
599. Q o z i  B u r h o n u d d i n.
600. Tammuz (iyul) oyidagi kuchli haroratga ishora.
601. Bu o'rinda oftob burjlaridan beshinchi, Asad (sher) burjiga ham ishora.
602. Qo'lyozmada: «turkmon» suqut.
603. Bu haqda batafsil ma'lumot olish uchun qarang: Ibn Hajar al-Asqaloniy. Inba ul-g'umr, 456-bet.
604. Nashrda keyingi so'z ortiqcha.
605. Makkadagi Ka'bani o'rab turgan masjid ul harom pardalari.
606. Qo'lyozmada: «saqla» deb berilgan
607. Bu o'rinda quyidagi tarixiy voqeaga ishora qilinayotir: Buvayhiy (ular haqida qarang: К. Э. Босворт. Мусульманские династии, стр. 137–140) hokimlaridan bo'lgan Adud-ud-Davla 980-yilda o'z inisi Ray hokimi Faxr ul-Davlaning mulkini bosib olgach, u qochib Jurjon hokimi Qobus ibn Vushmagir (vafoti 1012-yil) huzuriga kelganda, u unga izzat-ikrom ko'rsatib, boshpana beradi (Ibn al-Asir, Tarix ul-komil, VIII jild, 256–257-betlar). Ammo Qobusning bu ishi Faxr ud-Davlaning g'azabini qo'zgab, oqibatda Qobus o'z taxti Jurjondan badarg'a qilinadi. Adud ul-Davla vafotidan (982-yil) keyin yana o'z taxtiga o'tirgan Faxr ud-Davla Jurjonni Qobusga qaytarmoqni niyat qilganda vaziri as-Sohib ibn Abbod uni bu yo'ldan qaytaradi. Binobarin, yaxshilikka yaxshilik qaytmay, Qobus 998-yilgacha o'z mulkidan mahrum bo'lib, Nishopurda quvg'inda yashaydi.
608. Ushbu jumla qo'lyozmada noqis. Sulton Ahmadning qatli haqida yana qarang: Abdurazzoq Samarqandiy, Matlayi sa'dayn, 196–197-betlar.
609. Iroq olimi Abbos al-Azzaviyning (Tarix ul-Iroq, 237-bet) ko'rsatishicha, uning asl ismi Abdulaziz bo'lmay, balki Aziz bo'lgan. U haqida yana qarang: Ч. А. Стори, Персидская литература, ч. II, стр. 1253–1254.
610. Qo'lyozmada: «loydan» sukut.
611. Qur'on, 11-sura, 43-oyatdan.
612. Nashrda xato berilgan.
613. Qo'lyozmada: «Menga» so'zi noqis.
614. Qo'lyozmada: Muhammad ibn Sabuk taytin deb xato bergan.
615. Abu Nasr Muhammad ibn Abduljabbor Utbiyning (961–1036) Mahmud G'aznaviy (998–1030) uning laqabi «Yamin ad-davla va amin al-milla»)ga bag'ishlangan «Tarixi Yaminiy» kitobidir. Mazkur asarning bir





nusxasi (inv. № 3252) O'z FA Sharqshunoslik institutining qo'lyozmalar fondida saqlanmoqda.
616. So'zma-so'z: Ichimligi mazali.
617. **«As-Sihah» sohibi** – Abu Nasr Ismoil Javhariy, u Turkiyada tug'ilib, taxminan 1005-yilda Nishopurda vafot etgan. Javhariy mashhur qomus mualliflaridan hisoblanib, «as-Sihah» nomli qirq ming so'zni o'z ichiga olgan qomus ta'lif etgan. U melanxoliya (suvaydo) kasaliga mubtalo bo'lib, oqibatda o'zini tomdan tashlab halok bo'lgan. (Munjid, Javhahariy moddasi).
618. Bu o'rinda totorlar deb ilgaridan, ya'ni mo'g'ullarning birinchi yurishidan beri Kichik Osiyoda o'rnashib qolgan totor guruhlari ko'zda tutilayotir.
619. Qo'lyozmada xato berilgan.
620. So'zma-so'z: Temur ovratini qichitdi.
621. Bir tarixiy voqeaga ishora bo'lib, uni hozircha aniqlay olmadik.
622. Qo'lyozmada barcha o'rinlarda Abu Yazid shaklida kelib, Boyazid arabcha Abu Yazidning turkchaga aylantirilgan shaklidir.
623. Ibn Shihnaning (Ravzat ul-manozir, 208-bet) yozishicha, Qozi Burhonuddinning vafoti xabarini eshitgach, turk sultoni Boyazid qo'shin bilan kelib uni egallagan.
624. Ushbu bayt qo'lyozmada noqis.
625. Bu haqda kengroq ma'lumot olish uchun qarang: А. Д. Новичев, История Турции, стр. 34–37.
626. Nashrda g'alat berilgan.
627. Misr sultoni Malik az-Zohir Abu Said Barquq vafotidan (1399-yil) keyin uning o'rniga o'n yoshli o'g'li Nosir Faraj taxtga o'tirgach, Damashq noibi Tanam sultonga itoatdan bo'yin tovlab, isyon elon qildi va Shomning ayrim noiblari bilan ittifoq tuzib, sultonga qarshi urushga shaylandi. Lekin sulton Faraj bilan bo'lgan urushda u mag'lub bo'lib, Shom yana to'lig'icha Misr sultoni itoatiga qaytdi. (Ibn Tagriberdi, «An-Nujum az-zohira», 199–210-betlar).
628. Nashrda: Sha'bon so'zi noqisdir.
629 Qo'lyozmada: bu so'z noqisdir.
630. Misr sultoni Faraj Tanam ustidan g'alabaga erishib (bu haqda 627-izohga ham qarang), amirlari bilan birgalikda uni asirga oladi. So'ngra, Tanam va ko'pchilik amirlar 802-yilning sha'bon va ramazon oylarida

(1400-yil, mart-aprel) Damashqda qatl qilinadi (Badruddin al-Ayniy, Iqd al-jumon, 108-bet).

631. Qo'lyozmada: «biz fath qilamiz».

632. **Badr (qudug'i)** – Makka bilan Madina o'rtasida joylashgan bir suvloqning nomi bo'lib, islomning ilk davrida uning atrofida din yo'lida mashhur jang bo'lgan. Bu urushda islom tarafdorlaridan ko'p kishi halok bo'lgan.

633. Qur'on, 2-sura, 259-oyatdan.

634. Qur'on, 101-sura, 4-oyatdan.

635. **Hisori shodmon** – U haqda qarang: Sami, Tarix-i salatin-i mangitiya, стр. 134, прим. 38–39.

636. **Jabal** – Ray bilan Tabariston o'rtasida joylashgan torlik bir viloyatning nomi.

637. **Jibol**–lug'aviy ma'nosi: tog'lar, o'rta asrlarda Shimoliy Eronning (Hamadon, Kurdiston va hokazo) qator tog'li tumanlari shu nom bilan atalgan.

638 **Talqon** – Eronning g'arbida, Qazvin yaqinidagi viloyat.

639. **Xuz(iston)** – U haqda qarang: Ал-Бакуви, Талхис ал-асар, стр. 35.

640. Zaharli ilonlarning bir turi.

641. Nashrda: «chuvalchanglari» noqis.

642. **Tayolisa** – «Taylason»ning jami. Taylason, mashoyix va ulamolardan maxsus kishilar kiyadigan yashil (ko'k) rangdagi kiyim bo'lib, odatda uni ajamliklar kiygan. (Munjid, 469-bet). Shahrazur – Kurdistondagi chiroylik mavze bo'lib, Arbil va Hamadon o'rtasidagi tog'lar oralig'ida joylashgan.

643. Shahrazur – Qurdistondagi chiroyli mavze. Abril va Hamadon o'rtasidagi tog'lar oralig'ida joylashgan.

644. **Askar Mukram** – Huziston tomonlardagi shahar, unda X asrda pul zarb etilgan. Zamon o'tishi bilan u xarobaga aylangan. Jundiy Sabur – Huzistondagi bir shahar. Uni Sabur ibn Ardasher bunyod etganligi sababli unga nisbat berilib shunday ataladi. Ya'juk va Ma'juj – obod, ma'mur o'lkalarni vayron qilib, g'oyatda vahshiyliklari bilan kishilarni dahshatga solgan afsonaviy qabilalar.

645. Janubiy Sabur – Eronda Xuzison viloyatidagi shahar va kent.

646. Ya'juj va Ma'juj – Iudaizm, Xristianlik va Islom dinidagi ikkita yovvoyi xalq nomi.





647. Qo'lyozmada: «emiruvida» deb berilgan.

648. Ushbu jumla qo'lyozmada noqis.

649. Bu o'rinda garchi qo'lyozmada «etib keldilar», nashrda «ravona bo'ldilar» degan farq bilan berilsa ham, Saydi Sudunning askarlari bilan Damashqdan chiqishi va Halabga yetib kelishi 803-yil safar oyida (1400-yil sentyabr-oktyabr) yuz bergani boshqa manbalarda ham ta'kidlanadi.

650. **Bahasna** – Turkiyaning sharqidagi Malatiya sanjoqiga qarashli shahar bo'lib, Misr mamluklari (1250–1517-yillar) davrida sodir bo'lgan g'oratlarga qarshi turishda mustahkam qal'alardan biri hisoblangan.

651. **Malatiya** – o'rta asrlarda mustahkam qal'aga ega bo'lgan shahar. Hozirgi vaqtda Turkiyaning janubida, Frot daryosining yuqori oqimlaridagi shu nomli viloyatning bosh shahri.

652. **Qal'at ur-Rum** – Qal'at ul-muslimin (Musulmonlar qal'asi) nomi bilan ham ataladigan bu mustahkam qal'a Frot daryosining g'arbiy sohilida, Bira (Suriya) qishlog'ining muqobilida joylashgan. (Ibn Tag'riberdi, an-Nujum az-zohira, 265-bet, 4-izoh).

653. Hajjoj ibn Yusuf (661–714) – U avval Hijozda, so'ngroq Iroqda hokimlik qilgan (694–714). Iroqda Vosit shahrini bunyod etgan.

654. **Tabala** – Yamanda joylashgan bir shahar. Hajjojga Tabala arzimas masalining tarixi shuki, dastavval unga Hajjoj ibn Yusuf hokim, qilib tayinlanadi. Hajjoj kelib unga kirmasdan (uni) arzimas hisoblab orqasiga qaytib ketadi. Mana shundan ushbu masal naql qilinadi.

655. **Ayntob** – Turkiyadagi bir shahar bo'lib, Halabdan 132 km masofada joylashgan.

656. Nashrda: «Chiqib» deb berilgan.

657. Qo'lyozmada «Iljayish» deyilgan.

658. Turkmonlar – Mosul hokimi Qora Yusuf turkmonlari ko'zda tutilayotir. Bu haqda yana qarang: Abdurrazzoq Samarqandiy. Matlayi sa'dayn, 1-jild, v. 164 a.

659. Qo'lyozmada: «Sulton huzuriga» so'zi noqis.

660. O'sha davr tarixchilari Badruddin al-Ayniy (Iqd al-jumon 127-bet), Ibn Hajar al-Asqaloniy (Inba ul-g'umr, 528-bet). Temur maktubini bir qadar farq bilan keltiradilar.

661. Qo'lyozmada: talabgor bo'lib.

662. XIII asrning o'rtalaridan to XVI asrning boshlari (1517-yilgi turklar istilosi)gacha Misrda mamluklar hukmronlik qildilar. Mamluklar davrida asosan ikki xil sultonlar: baxriylar (1250–1390) va burjiylar (1382–1517)

(1400-yil, mart-aprel) Damashqda qatl qilinadi (Badruddin al-Ayniy, Iqd al-jumon, 108-bet).

631. Qo'lyozmada: «biz fath qilamiz».

632. **Badr (qudug'i)** – Makka bilan Madina o'rtasida joylashgan bir suvloqning nomi bo'lib, islomning ilk davrida uning atrofida din yo'lida mashhur jang bo'lgan. Bu urushda islom tarafdorlaridan ko'p kishi halok bo'lgan.

633. Qur'on, 2-sura, 259-oyatdan.

634. Qur'on, 101-sura, 4-oyatdan.

635. **Hisori shodmon** – U haqda qarang: Sami, Tarix-i salatin-i mangitiya, стр. 134, прим. 38–39.

636. **Jabal** – Ray bilan Tabariston o'rtasida joylashgan torlik bir viloyatning nomi.

637. **Jibol**–lug'aviy ma'nosi: tog'lar, o'rta asrlarda Shimoliy Eronning (Hamadon, Kurdiston va hokazo) qator tog'li tumanlari shu nom bilan atalgan.

638 **Talqon** – Eronning g'arbida, Qazvin yaqinidagi viloyat.

639. **Xuz(iston)** – U haqda qarang: Ал-Бакуви, Талхис ал-асар, стр. 35.

640. Zaharli ilonlarning bir turi.

641. Nashrda: «chuvalchanglari» noqis.

642. **Tayolisa** – «Taylason»ning jami. Taylason, mashoyix va ulamolardan maxsus kishilar kiyadigan yashil (ko'k) rangdagi kiyim bo'lib, odatda uni ajamliklar kiygan. (Munjid, 469-bet). Shahrazur – Kurdistondagi chiroylik mavze bo'lib, Arbil va Hamadon o'rtasidagi tog'lar oralig'ida joylashgan.

643. Shahrazur – Qurdistondagi chiroyli mavze. Abril va Hamadon o'rtasidagi tog'lar oralig'ida joylashgan.

644. **Askar Mukram** – Huziston tomonlardagi shahar, unda X asrda pul zarb etilgan. Zamon o'tishi bilan u xarobaga aylangan. Jundiy Sabur – Huzistondagi bir shahar. Uni Sabur ibn Ardasher bunyod etganligi sababli unga nisbat berilib shunday ataladi. Ya'juk va Ma'juj – obod, ma'mur o'lkalarni vayron qilib, g'oyatda vahshiyliklari bilan kishilarni dahshatga solgan afsonaviy qabilalar.

645. Janubiy Sabur – Eronda Xuzison viloyatidagi shahar va kent.

646. Ya'juj va Ma'juj – Iudaizm, Xristianlik va Islom dinidagi ikkita yovvoyi xalq nomi.





647. Qo'lyozmada: «emiruvida» deb berilgan.

648. Ushbu jumla qo'lyozmada noqis.

649. Bu o'rinda garchi qo'lyozmada «etib keldilar», nashrda «ravona bo'ldilar» degan farq bilan berilsa ham, Saydi Sudunning askarlari bilan Damashqdan chiqishi va Halabga yetib kelishi 803-yil safar oyida (1400-yil sentyabr-oktyabr) yuz bergani boshqa manbalarda ham ta'kidlanadi.

650. **Bahasna** – Turkiyaning sharqidagi Malatiya sanjoqiga qarashli shahar bo'lib, Misr mamluklari (1250–1517-yillar) davrida sodir bo'lgan g'oratlarga qarshi turishda mustahkam qal'alardan biri hisoblangan.

651. **Malatiya** – o'rta asrlarda mustahkam qal'aga ega bo'lgan shahar. Hozirgi vaqtda Turkiyaning janubida, Frot daryosining yuqori oqimlaridagi shu nomli viloyatning bosh shahri.

652. **Qal'at ur-Rum** – Qal'at ul-muslimin (Musulmonlar qal'asi) nomi bilan ham ataladigan bu mustahkam qal'a Frot daryosining g'arbiy sohilida, Bira (Suriya) qishlog'ining muqobilida joylashgan. (Ibn Tag'riberdi, an-Nujum az-zohira, 265-bet, 4-izoh).

653. H a j j o j  i b n  Y u s u f (661–714) – U avval Hijozda, so'ngroq Iroqda hokimlik qilgan (694–714). Iroqda Vosit shahrini bunyod etgan.

654. **Tabala** – Yamanda joylashgan bir shahar. Hajjojga Tabala arzimas masalining tarixi shuki, dastavval unga Hajjoj ibn Yusuf hokim, qilib tayinlanadi. Hajjoj kelib unga kirmasdan (uni) arzimas hisoblab orqasiga qaytib ketadi. Mana shundan ushbu masal naql qilinadi.

655. **Ayntob** – Turkiyadagi bir shahar bo'lib, Halabdan 132 km masofada joylashgan.

656. Nashrda: «Chiqib» deb berilgan.

657. Qo'lyozmada «Iljayish» deyilgan.

658. Turkmonlar – Mosul hokimi Qora Yusuf turkmonlari ko'zda tutilayotir. Bu haqda yana qarang: Abdurrazzoq Samarqandiy. Matlayi sa'dayn, 1-jild, v. 164 a.

659. Qo'lyozmada: «Sulton huzuriga» so'zi noqis.

660. O'sha davr tarixchilari Badruddin al-Ayniy (Iqd al-jumon 127-bet), Ibn Hajar al-Asqaloniy (Inba ul-g'umr, 528-bet). Temur maktubini bir qadar farq bilan keltiradilar.

661. Qo'lyozmada: talabgor bo'lib.

662. XIII asrning o'rtalaridan to XVI asrning boshlari (1517-yilgi turklar istilosi)gacha Misrda mamluklar hukmronlik qildilar. Mamluklar davrida asosan ikki xil sultonlar: baxriylar (1250–1390) va burjiylar (1382–1517)

hukm yurgizdilar. Burjiylarning nasabi Kavkaz cherkaslaridan kelib chiqqan bo‘lib, bu o‘rinda Arabshoh keltirgan maktubda Temur Misr sultoni Nosir Farajning nasabiga ishora qilayotir.

663. Temurning ushbu maktubini, tarixchi Badruddin al-Ayniy (Iqd al-jumon, 127-bet) to‘laroq bayon qilib, uning yozishicha, maktub faqat Halab noibi Temurdosh nomiga yuborilgan.

664. Ibn Hajar al-Asqaloniyning (Inba ul-g‘umr, 530-bet) yozishicha, Halab noibi Temurdosh Temur maktubidan Saydi Sudunni voqif etgach, o‘sha zahotiyoq u elchiga hamla qilib, uning boshini kesadi.

665. Qur’on, 72-sura, 9-oyatdan.

666. Ushbu jumla qo‘lyozmada noqis.

667. Nashrda bu so‘z tushirib qoldirilgan.

668. Nashrda «piyodalar» deb berilgan.

669. Bu o‘rinda so‘z o‘yini bo‘lib, Misr sultoni Farajga (lug‘aviy ma’nosi «erkinlik», «xotirjamlik»dir) ham ishora.

670. Qur’on, 8-sura, 46-oyatdan.

671. Qur’on, 3-sura, 200-oyatdan.

672. Shayx Jaloluddin Umar ibn Muhammad al-Xaboziy al-Xo‘jandiyning (vafoti 1272-yil) fiqh, usuliga oid **«Mug‘ni»** nomli kitobiga ham ishora.

673. Abu-l-fazl Majduddin Abdulloh ibn Mahmud ibn Mavdud al-Mousiliyning (vafoti 1281-yil) «Muxtor fi furu’ al-hanafiya» nomli kitobiga ham ishora.

674. Hofizuddin an-Nasafiy nomi bilan tanilgan shayx Imom Abu-l-Barakot Abdulloh, ibn Ahmadning (vafoti 1310-yil) qalamiga mansub, «Manor ul-anvor» nomli fihq usuliga oid mashhur asariga ham ishora.

675. «Kifoya» nomi bilan boshlanadigan (yoki ataladigan) kitoblar ko‘p bo‘lib, ehtimol bu o‘rinda muallif nazarda tutayotgan «Kifoya» Abu Homid Muhammad ibn Ibrohim as-Suhayliy al-Jojramiyning (vafoti 1226-yil) «Kifoya» nomli asaridir.

676. Marg‘ilonlik taniqli olim Burhonuddin Ali ibn Abu Bakr al-Marg‘inoniyning (vafoti 1197-yil) «Hidoya fi-l-furu’» nomli mashhur asariga ham ishora.

677. «Nihoya» nomi bilan boshlanadigan har xil asarlar ko‘p bo‘lib, bu o‘rinda muallif adib Abu Mansur Abdulmalik as-Saolibiy an-Niysopuriyning 1204-yilda Niysopurda ta’lif etgan «Nihoya fi-l-kifoya» asarini ko‘zda tutsa kerak.





678. Burhonuddin Ali ibn Abu Bakr al-Marg‘inoniyning «Bidoyat ul-mubtado fi-l-furu’» asariga ham ishora.

679. Hofizuddin an Nasafiyning (u haqda 674-izohga qarang) «Kanz ul-daqoiq fi furu’ al-hanafiya» nomli kitobiga ham ishora.

680. Imom al-Hofiz Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriyning (vafoti 870-yil) «Sahiyh al-Buxoriy» nomli hadislarga bag‘ishlangan «Jome’ as-saxiyx» asariga ham ishora.

681. Imom Burxon Mahmud ibn Ubaydulloh al-Xamuliyning «Viqoyat ur-rivoya fi masoil ul-hidoya» nomli asariga ham ishora.

682. Nahviy olim ibn Molik Muhammad ibn Abdullohning (vafoti 1273–1274-yillar) «al-Kofiyat ash-shofiyat fi-i-nahvi» nomli asariga ham ishora.

683. Arab tilida mavjud bo‘lgan «kasal (illatli) fe’l» deb atalmish grammatik istilohga ham ishora.

684. Arab tili grammatikasidagi maxsus istiloh hisoblangan «ikkala» «ikki» marta ko‘paytirishga ham ishora.

685. Arab tilida grammatik istiloh hisoblangan «turlash», «tuslashga ham ishora.

686. Shayx ibn al-Hojibning (vafoti 1248-yil) sarf ilmiga oid «Shofiya» nomli asariga ham ishora.

687. Shayx ibn al-Hajibning nahv ilmiga oid «Kofiya» nomli asariga ham ishora.

688. Qur’on, 8-sura, 15-oyatdan.

689. Bu o‘rinda forscha so‘z ishlatilgan.

690. Qo‘lyozmada: «qo‘rqoqligi va makri» so‘zlari noqis.

691. Qo‘lyozmada: bekitdilar.

692. Qo‘lyozmada: og‘irlashtirib.

693. Lashkarni «beshlik» deyilishidan murod, u besh qismdan, xususan: old qism (muqaddima), markaziy qism (qalb), o‘ng qanot (maymana), chap qanot (maysara) va orqa qism (soqa)dan iboratdir.

694. Temur shu kuni Halab yaqinidagi Gaylon qishlog‘iga kelib tushgan.

695. Qur’on, 93-sura, 2-oyatdan.

696. Qur’on, 30-sura, 5-oyatga ham ishora.

697. Nashrda: «dushmanlarini» so‘zi noqis.

698. Qur’on, 7-sura, 17-oyatdan.

699. **Haylon (Gaylon)** – Halab shahri yaqinidagi bir qishloq.

700. Qur'on, 46-sura, 35-oyatdan.
701. Qo'lyozmada xato berilgan.
702. Temur qo'shinlari ko'zda tutilayotir.
703. **Antioxiya darvozasi** – Halab shahri darvozalaridan biri.
704. Qur'on, 9-sura, 25-oyatdan
705. Tarixchi Badruddin al-Ayniyning (Iqd al-jumon, 128–129-betlar) yozishicha, Temur fasohatli iboralar bilan bitilgan xat-xabar yuborib, noiblarni qal'adan huzuriga keltiradi va avval ularga xil'at kiydirib, so'ng azob-uqubatga soladi.
706. Bu haqda 664-izohga qarang.
707. Ibn ash-Shihna – uning to'liq ismi Muhibuddin Abu-l-Fazl Muhammad ibn Abu-l-Valid Muhammad ibn ash-Shihna (1402–1485) bo'lib, u Halabda tug'ilgan, Qohirada hanafiy mazhabidan qozi va shayx ul-islom bo'lgan.
708. Muhammad ibn ash-Shihnaning «Ravzat ul-manozir fi axbor al-avoil va-l-avoxir» nomli tarixiy asariga ishora. Mazkur asar Ibn al-Asirning «Tarix ul-komil» asari nashrining 9 jildi hoshiyasida keltirilgan bo'lib, bir nusxasi O'z FA Sharqshunoslik institutida (inv. № 6820) mavjuddir.
709. Qal'at ul-muslimiyn (Musulmonlar qal'asi) – bu haqda 652-izohga qarang.
710. Nashrda xato berilgan.
711. Sanders tarjimasida «ming» deb tarjima qilingan, aslida «tumon» o'n mingni anglatadi.
712. Qur'on, 27-sura, 34-oyat.
713. Qo'lyozmada: «maktubiga» tarzida berilgan.
714. Manger nashrida (1-jild. 620-bet) «bir xizmatkor» deb keltirilgan.
715. Doziy qomusida «oliy hazratlari» tarzida tarjima qilingan.
716. Qo'lyozmada: «dushmanni qarshi olinglar» so'zi noqis.
717. Nashrda: qabilasi deb berilgan.
718. Nashrda: o'n to'rtinchi (2-noyabr) deb berilgan.
719. Qur'on, 12-sura, 18-oyatdan.
720. Nashrda xato berilgan.
721. Qo'lyozmada: «o'yladim» noqis.
722. Forscha: yaxshi, yaxshi!
723. M u o v i y a – Umaviylar sulolasidan birinchi xalifa (661–680).
724. Y a z i d – Umaviylar xalifasi Muoviyaning o'g'li (642–683).
725. Nashrda g'alat berilgan.





726. **Mujtahid** – u haqda qarang: Кабус-намэ, стр. 284. прим. 7.
727. H u s a y n – xalifa Ali o'g'li. U Muoviya tarafdorlari bilan bo'lgan jangda (680 y.) Karbaloda qatl etilgan.
728. Qo'lyozmada: qozi Sharafuddindan so'zi noqis.
729. Haqiqatda Temur o'sha paytda 65 yoshda edi.
730. Qo'lyozmada: tumonlar deb berilgan.
731. «Al-Hidoya fi-l-furu'» kitobining muallifi Burhonuddin al-Marg'inoniyga ishora.
732. Qo'lyozma: ularga qo'shilgan kishilarga so'zi noqis.
733. Qo'lyozmada: Temurning Yasoqidan deb berilgan. Yasoq haqida karang: Л. З. Будагов, Сравнительный словарь, II, стр. 329–330.
734. Qur'on, 50-sura, 5-oyatdan.
735. Qo'lyozmada: «Qasddan» so'zi noqis.
736. Nashrda: «shoshmay turinglar» so'zi noqis.
737 **Jabbul** – Halab yaqinidagi katta bir qishloq.
738. Iroqdagi Karbalo shahri ko'zda tutilayotir.
739. **Hajun** – Makkaning yuqorisida joylashgan bir tog' bo'lib, unda Makka ahli dafn qilinadigan qabriston mavjuddir.
740. **Safo** – Makka vodiysida, Abu Qubays tog'i yonida joylashgan baland bir joy. U bilan Masjid ul-Harom o'rtalig'ida keng vodiy bo'lib, u yo'l va bozor (joy) vazifasini ham o'taydi.
741. Ushbu bayt arab shoiri al-Horis ibn Maddod al-Jarhamiy qalamiga mansubdir (Ibn Battuta, Rihla, 87-bet).
742. **Yalbug'a qubbasi** – Ibn Tagriberdining «an-Nujum az-zohira» (233-bet) kitobiga yozilgan izohga ko'ra, al-Qadam qishlog'i etagida Yalbug'a qubbasi deb ataladigan bir qubba bo'lib, agar Misr sultoni yoki noibi Damashqqa kelsa, u qubbadan to shahargacha, agar Damashqdan Misrga tomon chiqsa, shahardan to u qubbagacha uni rasmiy mavkablar kuzatib borar ekanlar.
743. Nashrda: Astanbug'a deb xato berilgan.
744. **Davodor** – sultonning maxsus kotibi vazifasiga barobar keladigan mansab.
745. Boshqa manbalarda (masalan, an-Nujum az-zohira, 218-bet). Abdul Qassorning nomi ko'rsatilmay, faqat Asanbug'a Davodorning yolg'iz o'zi zikr qilinadi.
746. **Jilliq** – Yoqut Hamaviyning yozishicha, ayrimlarning fikricha Jilliqdan aynan Damashq tushunilsa, yana ba'zilarning fikricha Damashq

qishloqlaridan bir qishloq yaqinidagi joy tushiniladi (Mu'jam ul-buldon, 3-jild, 126-bet). Bu o'rinda matn taqozosicha, Jilliqdan murod Damashq dir.

747. Qo'lyozmada: «Muborak» ham deyilgan.

748. Qo'lyozmada: Fayj.

749. Arab masali.

750. Misr sultoni Nosir Farajga ishora, u, Temur Halabni egallaganini eshitib, o'z askari bilan Qohiradan chiqib, Shom tomoniga yuzlangan edi.

751. Qo'lyozmada: «Mukammal» so'zi suqut.

752. Qur'on, 12-sura, 81-oyatdan.

753. Qo'lyozmada: xato keltirilgan.

754. Qur'on, 7-sura, 79-oyatdan.

755. Ibn Hajar al-Asqaloniy (Inba ul-g'umr, 531-bet) ham Temurning rabi ul-oxir oyining avvalida Halabdan jo'nab Damashq tomoniga ravona bo'lganini zikr qiladi.

756. Qo'lyozmada: ortiqcha va yerlarni.

757. Ushbu yozuv birqadar qisqartirilgan holatda Ibn Hajar al-Asqaloniy (Inba lu-g'umr, 535-bet) tarixida ham keltirilgan. U «Ishonchli kishining zikr qilishicha» deb yozib, Ibn Arabshohga ishora qilayotir.

758. **Xoms** – Shomning qadimiy, mashhur va devor bilan o'ralgan istehkomli shahri bo'lib, qibla tarafida, baland bir tepalik ustida mustahkam va azim qal'asi bo'lgan. Xoms Damashq va Halabning qoq o'rtasidadir. Hozirgi vaqtda muhofaza markazidir.

759. X o l i d  i b n  V a l i d – Muhammad payg'ambar (s. a. v.)ning sahobalaridan. U islom qo'shinlarining bosh amirlaridan bo'lib, Muhammad (s. a. v.) uni «Sayfulloh» (Ollohning qilichi) deb atagan edilar. Xolid ibn Valid 648-yilda vafot etib, qabri Xomsdadir.

760. Ibn Do'qmoqning (Iqd al-javohir, 252-bet) yozishicha u safar (1400-yil sentyabr–oktyabr)da vafot etgan.

761. Bu to'g'rida tarixchi Badruddin al-Ayniy (Iqd al-jumon, 146-bet) ham shu yo'sinda yozadi.

762. **Qora** – Suriyadagi bir qishloq bo'lib, Xomsdan Damashqqa boradigan yo'lovchi uchun dasglabki manzilgohdir.

763. **Baalbek**–hozirgi Livan hududida joylashgan qadimiy shahar. Yoqut Hamaviyning yozishicha, unda ajoyib imoratlar, azim obidalar va dunyoda tengi yo'q marmar ustunlarga qurilgan qasrlar bo'lgan. U bilan Damashq o'rtasi uch kunlik yo'ldir.





764. Ko'pgina tarixchilar sultonning Damashqqa yetib kelishini jumodu-l-uvlo oyining oltinchisi, payshanba (1400-yil 23-dekabr) kuni deb zikr qilganlar. (Iqd al-jumon, 131-bet; Inba ul-g'umr, 532-bet; an-Nujum az-zohira, 232-bet).

764[a]. Qur'on, 37-sura, 164-oyat.

765. Temur askari ko'zda tutilayotir.

766. **Daroyo** – Damashq muhofazasiga qarashli bir qishloq.

767. **Al-Huvla** – Damashq yaqinidagi bir qishloq.

768. Nashrda: Qatanagacha so'zi noqisdir. **Qatana** – Damashq yaqinida joylashgan qishloq.

769. Qo'lyozmada: erlar so'zi noqisdir.

770. Nashrda: tog'lar deb berilgan.

771. Qo'lyozmada: at-Toziliy deb xato berilgan.

772. Badruddin al-Ayniyning yozishicha, (Iqd al-jumon, 132-bet). Bu hamla jumodu-l-uvlo oyining to'qqizinchisi (1400-yil 26-dekabr). Shanba kunida yuz bergan.

773. Qur'on, 24-sura, 43-oyatdan,

774. Nashrda xato berilgan.

775. Ushbu baytlar to'lig'icha nashrda noqis.

776. Qur'on, 33-sura, «al-Ahzobga» ham ishora (22-oyatdan).

777. Bu ibora mohiyatini aniqlay olmadik.

778. Qavs ichida keltirilgan so'zlar aruz va balog'at ilmidagi maxsus istilohlar bo'lib, bu o'rinda lug'aviy ma'nosi jihatidan ham tekstga moslab keltirilgan. Shuningdek, ushbu so'zlar istiloh sifatida ham o'z ma'nolariga ega. M: sadr – birinchi bayt: ajaz – ikkinchi misra: zarub-aruz ilmida ikkinchi misraning oxirgi qismi va hokazo.

779. Nashrda noqis bo'lgan ushbu misralar arab shoiri al-Mutanabbiy qalamiga mansubdir.

780. Muallif bu o'rinda xatoga yo'l qo'ygan. Sulton Husayn Temur singlisining o'g'li, ya'ni uning jiyani bo'lmay, balki uning nabirasi edi. Bu haqda yana qarang: Sharafuddin Ali Yazdiy, Zafarnoma, v. 229[a].

781. Qo'lyozmada: shubhalangan.

782. Bu haqda yana qarang: Abdurazzoq Samarqandiy, Matlai sa'dayn, 82-bet.

783. Badruddin al-Ayniy (Iqd al-jumon, 133-bet) ham Sulton Husaynni o'z hoshiyalari bilan (ular 1000 dan oshiq kishi edi). Misr sultoni tomoniga

qochib o'tgach, sulton unga xil'atlar kiygizib, in'om-ehsonlar ko'rsatgani[illegible] yozadi.

784. Buning bayoni shuki...dan boshlab, to shu o'ringacha qo'lyozmada noqis.

785. Nashrda xato bo'lib, «Boshbek» deyilgan. U haqda yana qarang: Sharafuddin Ali Yazdiy, Zafarnoma, v. 381[b].

786. Qur'on, 30-sura, 22-oyatiga ishora.

787. Badruddin al-Ayniyning yozishicha, sultonni tashlab Qohira[illegible]ga qochgan amirlarning boshliqlari amir Qanboy al-Aloy va amir [illegible] Tayyor bo'lgan (Iqd al-jumon, 134-bet).

788. Qur'on, 2-sura, 166-oyatdan.

789. At-Taym vodiysi – hozirgi Livan hududida joylashgan bir vodiy.

790. Qur'on, 21-sura, 96-oyatdan.

791. Shaksiz o'lim.

792. Qo'lyozmada «al-Xusboniy» deb berilgan.

793. Qur'on, 37-sura, 140-oyatdan. Bundan murod o'z hoshiyasi[illegible] atrofidagi kishilari.

794. Temurdan omonlik tilash masalasida.

795. Abu Said Abdulmalik ibn Qarib ibn Osim ibn Abdumalik ibn Asmai al-Bohiliyga nisbat qilinib, Asmai, ya'ni rivoyatlarni ko'p biluvchi arablar tarixi va xabarlaridan mukammal voqif kishiga aytiladi. Ibn Xaldun ham shu toifadagi kishilardan hisoblangan.

796. **Burnus** – Islomning ilk davrlarida darveshlar kiyadigan [illegible] choq bosh kiyimi (Muhit ul-muhit, «burnus» moddasi).

797. Qo'lyozmada: «G'arb» deb berilgan.

798. Qo'lyozmada: «G'arbning» deb berilgan.

799. Qo'lyozmada va Sandersda: «G'arb».

800. Shom a'yonlarining Temurdan omonlik tilashlarida, Ibn Arabshohning yozishicha, asosiy rolni Ibn Xaldun o'ynagan. Ko'pchilik arab tarixchilarining ta'kidlashlaricha Temur bilan muzokarani Ibn Muflah olib borgan. Bu masala bir qadar bahslarga sabab bo'lgan. Lekin Temur bilan Ibn Xaldun (1401-yilning fevral-mart oylarida) uchrashganligi aniq ma'lum. Lekin Ibn Arabshoh bu uchrashuv vaqtida yuz bergan suhbatga g'oyatda badiiy tus berib, afsonaviy tafsilotlar bilan tavsif etadi. Bu haqda kengroq ma'lumot olish uchun qarang: Курьер, 1966, № 6, 5–8-betlar; V. Fishel, Ibn Xaldun va Temurlang, 52–79-betlar:





801. **Maysalun** – Damashqdan g'arb tomondagi bir mavzening nomi.

802. Nashrda: yuklab.

803. Qur'on, 40-sura, 33-oyatdan.

804. Ibn Do'qmoqning (Iqd al-javohir, 246-bet) zikr qilishicha, shahar ahli Temurga yig'ib bergan ot, xachir, tuya va eshaklarning soni o'n ikki mingtacha bo'lgan.

805. Badruddin al-Ayniy (Iqd al-jumon, 137-bet) va Sharafuddin Ali Yazdiy (Zafarnoma, qo'lyozma № 1514, v. 397[a]) amir Yazdor deb zikr qiladi.

806. Qur'on, 14-sura, 15-oyatdan.

807. Bu haqda yana qarang: Sharafuddin Ali Yazdiy (Zafarnoma, v. 384[b]) Yazdiy uni Butxos deb keltirgan.

808. Lug'aviy ma'nosi «yaxshining otasi» demakdir.

809. Ummatim ko'pchiligi yanglishmaydi – Hadis.

810. Ushbu voqealarning guvohi bo'lgan tarixchi Badruddin al-Ayniyning ishonchli bir kishining so'ziga asoslanib, ushbu Abduljabbor haqida: «U, Abduljabbor Temur huzurida mushir va fikr-mulohaza sohibi bo'lib, kecha-yu kunduz, Temurdan ajralmasdi».– deb yozadi. (Iqd al-jumon, 137-bet).

811. «U furu'da o'z zamonining buyuk allomalaridan ediki, hatto» qo'lyozmada noqis.

812. N u ' m o n I deb hanafiylar mazhabining asoschisi Imom A'zam Nu'mon ibn Sobit (699–767) ko'zda tutilayotir.

813. Nashrda xato berilgan.

814. Qo'lyozmada: al-Jobiy.

815 Sumaqa – anorga o'xshandigan bir daraxt va uning mevasi. (Muhit ul-muhit, «samaqa» moddasi).

816. Badruddin al-Ayniyning (Iqd al-jumon, 138-bet) yozishicha, Temur huzuridagi to'rt faqihning biri bo'lgan Umar kotib ul-xizana (xazina kotibi) hisoblanib, keltirilgan barcha mol-dunyolarni qayd qilib hisobga olish uning zimmasida bo'lgan.

817. Qo'lyozmada Shom, Sandersda esa batamom xato tarjima qilinib «Suriya va Arab tomonidan deyilgan».

818. Bu ko'rsatilgan muddatlar Temurning Halabdan chiqib Damashqni olish uchun sulton askarlari bilan qilgan jang va undan keyin shaharni, shuningdek qal'ani hisor etib, ishg'ol qilishi hamda Damashqdan ketguncha unda istiqomat qilgan vaqtlarini o'z ichiga oladi.

819. Ibn Do'qmoqning (Iqd al-javohir, 236-bet) yozishicha, 39 kunlik Hisordan keyin qal'a Temurga topshirilgan.

820. Ibn Do'qmoq (Iqd al-javohir, 245-bet) ham payg'ambar xotinlaridan biri bo'lgan Umm al-Habiba qabrining xaroba holga tushganligini ko'rgan Temur ushbu sag'ana ustiga bir qubba bunyod etganligi haqida yozadi. Bu haqda Nizomuddin Shomiy (Zafarnoma, 236-bet). Sharafuddin Ali Yazdiy (Zafarnoma, v. 3846) ham zikr qiladilar.

821. Bu mashhur arab masali bo'lib, qachonki biror ishga avvaliga qudrat yetmay, oxirida shunga erishilsa keltiriladi.

822. **Ud** – chekiladigan va xushbo'y hid taratadigan cho'p.

823. Safad noibi Altunbug'o al-Usmoniy va G'azza noibi Ibn Taldiqning Temur asoratidan ozod qilinib, o'z yurtlariga qaytarilishi haqida – garchi sababini ko'rsatmasa-da – Ibn Do'qmoq (Iqd al-javohir, 253-bet) va Ibn Hajar al-Asqaloniy (Inba ul-g'umr 581-bet) ham yozadilar.

824. Bu haqda 787-izohga qarang.

825. Qur'on, 38-sura, 3-oyatdan.

826. Qur'on, 8-sura, 60-oyatdan.

827. Misr sultoni Nosir Farajning Damashqdan qochib ketayotib Temurga yo'llagan maktubi to'g'risida boshqa manbalardan hech qanday ma'lumot uchratmadik. Lekin Baysaq ismli amirning Nosir Faraj otxonasining amiroxuri (miroxur) bo'lganligi ma'lum Badruddin al-Ayniy, Iqd al-jumon, 102-bet).

828. Nashrda: amirlar.

829. Qur'on, 22-sura, 2-oyatdan.

830. Qur'on, 80-sura, 34–36-oyatlari.

831. Qur'on, 80-sura, 37-oyatdan.

832. Qur'on, 22-sura, 29-oyatiga ham ishora.

833–834. «Tavof», «say'» – haj marosimidagi istilohlar.

835. Qur'on, 88-sura, 11-oyatdan.

836. Qur'on, 10-sura, 24-oyatdan.

837. Qur'on, 20-sura, 87-oyatdan.

838. Fikrimizcha, qo'lyozmadagi ushbu jumla oxiridagi «itlardan» so'zi ortiqcha bo'lsa kerak.

839. Qur'on, 22-sura, 2-oyatdan.

840. Qur'on, 75-sura, 25-oyat.

841. Tarixchi Badruddin al-Ayniyning (Iqd al-jumon, 138-bet) yozishicha, Temur Damashqni batamom egallagandan keyin o'zi shaharga





qozilar, hojiblar va valiylar tayinlagan. Natijada Temur kelishidan oldin shaharda hanafiy mazhabi bo'yicha bosh qozi bo'lib turgan Muhuddin Mahmudni o'z mansabida qaror toptirgan va hanafiylarni shofi'ylardan ustun qo'ygan.

842. Nashrda xato, «at-Tarob» deb berilgan. Az-Zob Iroqdagi bir daryo bo'lib, Dajla (Tigr) daryosinnng irmoqlaridandir.

843. Ibn Do'qmoqning yozishicha. (Iqd al-javohir, 257-bet), al-Munoviy Temur asoratida ekanida 803-yilning ramazon (1401-yil aprel) oyida Ali Poshsho ko'prigi yonida Frot daryosiga g'arq bo'lib o'lgan.

844. Qo'lyozmada «Tall al-Jayn» deb xato berilgan.

845. **Sayram** – o'rta asrlarda katta shahar bo'lgan. Hozirgi vaqtda esa Chimkent shahridan 12 km uzoqlikda joylashgan katta bir qishloqdir. Sayram haqida kengroq ma'lumot olish uchun qarang: П. П. Иванов. Сайрам, стр. 45–56.

846. Nashrda «Yangi Balas» deb xato berilgan

847. **Damashq ratli** – ratl og'irlik o'lchovi bo'lib, Damashq ratli 600 dirhamga, ya'ni 1,65 kg ga tengdir.

848. Bu xususda tarixchilardan Ibn Hajar al-Asqaloniy (Inba ul-g'umr, 534–535-betlar) va Badruddin al-Ayniy (Iqd al-jumon, 139-bet) ham shu tarzda yozadilar.

849. Nashrda: «Mordin suvi» deyilgan.

850. **Dunaysir** – Mordinning janubida joylashgan shaharcha.

851. Qur'on, 2-sura, 25-oyatdan.

852. Qur'on, 51-sura, 22-oyat.

853. So'zma-so'z: tillar va boshlar.

854. Nashrda xato berilgan.

855. Temurning Mordin qal'asiga hamlasi va undan o'z maqsadiga erisha olmay shaharni vayron qilishi haqida yana qarang: Nizomuddin Shomiy, Zafarnoma, 238–239-betlar: Badruddin al-Ayniy, Iqd al jumon, 139–140-betlar.

856. Nashrda xato bo'lib, «So'z» deb berilgan. **Sur** – O'rta dengiz bo'yida joylashgan katta shahar.

857. **Axlot** – nashrda «Xalot» deb berilgan. Axlot – Van ko'lining g'arbiy sohilida, Bidlis shahridan 40 km shimoli-sharqda joylashgan shahar (Шарафхан Бидлиси, Шарафname, стр. 237).

858. **I'yd al-Javz** – hozircha ushbu mavze o'rnini aniqlay olmadik.

860. Qur'on, 10-sura, 24-oyatdan.

861. Qur'on, 30-sura, 50-oyatdan.

862. **Nishopur** – mo'g'ullar istilosigacha (1220-yil) yirik shahar bo'lib Xurosonning markazi edi. Hozirgi vaqtda esa uncha katta bo'lmagan shahar hisoblanib, Mashhadning g'arbida joylashgan.

863. **Jom** – qo'lyozmada «Xom» deb berilgan. Jom–Halab mintaqasida joylashgan bir mavze bo'lib, unda kurdlar istiqomat qilganlar.

864. Nashrda xato bo'lib, «ad-Daxva» deb berilgan.

864. Qur'on, 86-sura, 3-oyat.

865. Qur'onning sura va oyatlariga ham ishora.

866. Qantara – Suriyadagi bir qishloq.

867. Nohiya kichik ma'muriy bo'linma.

868. Qo'lyozmada: Ahmad so'zi noqis.

869. Ushbu o'rindagi Damashq, Mordin va Bardod so'zlari qofiya uchun fe'lga aylantirilib berilgan.

870. Ba'zi manbalarda, jumladan, Mirxondning «Ravzat us-safo» (114–115 betlar) asarida u «Farrux» deb zikr qilinadi.

871. Nashrda: al-Balbaqiy deb berilgan.

872. Bu haqda tarixchi Xondamir (Habib us-siyar, 41-bet) ham shunday hikoya qiladi.

873. G'iyosiy Temurning Bag'dodga ikkinchi marta kirishi 803-yil zu-l-qa'da oyining yigirma oltinchisi (1401-yil 8-iyul) deb ko'rsatgan (Tarix ul-Iroq, 238-bet). Lekin Badruddin al-Ayniy (Iqd al-jumon, 157-bet) shavvol oyining oxirlarida (1401-yil 12-iyun) deb yozadi. Ibn Hajar al-Asqaloniy ham xuddi shu tarixni zikr qiladi (Inba ul-g'umr, 542-bet). Fikrimizcha, Badruddin al-Ayniy va Ibn Hajar al-Asqaloniy ko'rsatgan tarix to'g'ridir. Chunki Nizomuddin Shomiyning yozishicha (Zafarnoma, 241-bet), qirq kunlik hisordan keyin Temur o'z askarlariga qat'iy hujumga o'tishga ruxsat bergan. Bu ruxsat 803-yil zu-l-qada oyining 27-kuni (1401-yil 9-iyul) bo'lgan edi. Demak Temur Bag'dodga shavvol oyining 20 larida (3-iyun) yetib kelgan.

874. Qur'on, 16-sura, 112-oyatdan.

875. **Haj oylari** – shavvol, zul-qada, zu-l-hijja oylari.

876. **Qurbon hayiti kuni** – zul-l-hijja oyining o'ninchi (22-iyul) kuni. Ammo Mirxondning «Ravzat us-safo» asarida (116-bet) Temur 803-yil zul-qada oyining yettinchisi (1401-yil 19-iyun), yakshanba kuni Bag'dodni fath etib, undan zu-l-xijja oyining o'ninchisida (1401-yil 22-iyul) chiqib ketdi deyilgan.





877. Yazak forscha so'z bo'lib, avangard, razvedka bilan shug'ullanadigan guruhni anglatadi.

878. Ibn Hajar al-Asqaloniy (Inba ul-g'umr, 542–543 betlar) va Badruddin al-Ayniyning (Iqd al-jumon, 157-bet) yozishicha, Temur o'z askaridan har bir suvoriyga bittadan bosh kesib kelishni, bag'dodlik boshini keltirishni buyurgan. Natijada, ular yuz ming bosh keltirib, ulardan qirqta mezana bunyod etgan.

879. Qur'on, 2-sura, 48[illegible]-oyatdan.

880. Qur'on, 11-sura, [illegible]2-oyatdan.

881. Qulyozmada xato berilgan.

882. Qur'on, 34-sura, [illegible]5-oyatdan.

883. Qur'on, 34-sura, [illegible]9-oyatdan.

884. Qur'on, 46-sura, [illegible]5-oyatdan.

885. Bu haqda kengroq ma'lumot olish uchun qarang: Yoqut, Mujam ul-buldon, 2-jild, 236–237–betlar.

886. Nizomuddin Shomiyning (Zafarnoma, 243 bet) yozishicha, Temur Qorabog'ga 804-yil, rabi ul-oxirning yigirma ikkinchi (1401-yil 29-noyabr) kunida kelib tushgan.

887. Qo'lyozmada barcha o'rinlarda «Aba Yazid» shaklida keltirilgan. Aslida Boyazid arabcha Abu Yazidning bir qadar o'zgartirilgan shaklidir.

888. Nashrda xato berilgan.

889. Qur'on, 28-sura, [illegible]8-oyatdan.

890. Qo'lyozmada bir qadar o'zgartirib berilgan.

891. Qur'on, 4-sura, 8[illegible]9-oyatdan.

892. Nashrda: «Manshano» deb xato berilgan.

893. **Saruxon** – o'sha davrda Turkiyada mavjud bo'lgan mustaqil o'n ikki beylikning biri bo'lib, markazi Manisa shahri hisoblangan.

894. **Kermiyan** – Turkiya beyliklaridan eng kattalaridan biri hisoblanib, Kutahiya uning bosh shahri bo'lgan.

895. Bu haqda kengroq ma'lumot olish uchun qarang: Лэн Пуль, Мусульманские династии, стр. 158–159.

896. Qo'lyozmada xato berilgan.

897. Qo'lyozmada: ko'p qismi noqis.

898. Misr davlati ko'zda tutilayotir.

899. Qur'on, 59-sura, 14-oyatdan.

900. Qur'on, 5-sura, 2[illegible]4-oyatdan.

901. Qur'on, 75-sura, 22–23-oyatlaridan.

902. Qur'on, 5-sura, [illegible]4-oyatdan.

903. Qur'on, 81-sura, 5-oyat.
904. Qur'on, 82-sura, 2-oyat.
905. Qur'on, 81-sura, 3-oyat.
906. Qur'on, 82-sura, 4-oyat.
907. **Kamox** – Frot daryosining g'arbiy sohilida joylashgan mustahkam bir qal'a bo'lib, Arzinjondan 38 km uzoqlikda joylashgan.
908. Qur'on, 38-sura, 5-oyatdan.
909. **Borud** (turk) – maxsus tuz, oltingugurt va ko'mir birikmasidan tashkil topgan murakkab modda (miltiq dori) bo'lib, o'q otishda ishlatiladi.
910. Qur'on, 89-sura, 9-oyatdan.
911. Qur'on, 50-sura, 30-oyatdan.
912. Qur'on, 15-sura, 46-oyat va 50-sura, 34-oyatlariga ham ishora.
913. Qur'on, 22-sura, 13-oyatdan.
914. Bir tarixiy voqeaga ishora bo'lib, hozircha aniqlay olmadik.
915. Ushbu jumla qo'lyozmada noqis. Turkiya sultoni Boyazid I (1389–1402) Vizantiyaning poytaxti Konstantinopolni muhosara etib, uning atroflarini vayron qilib, kuchli qal'asi bo'lgan bu shaharni olishga muvaffaq bo'laolmagan edi. Lekin u qamalni davom ettirib, bu o'rinda ana shu qamal ko'zda tutilayotir.
917. **Batriq** (turk) – ixtiyorida o'n ming odami bo'lgan Rum qo'mondonlari shunday atalgan.
918. Nashrda: Kermon deb noto'g'ri berilgan.
919. Sulton Urxan (1324–1359) hukmronligi davrida birinchi marta Turkiyada ma'muriy-hududiy bo'linish tatbiq qilinib, mamlakat uch viloyatga – poshsholikka bo'lindiki, o'z navbatida bu poshsholiklar okruglarga – sanjoq (ko'pligi sanajuq)larga bo'lingan bo'lib, ularni sanjoqboylar idora qilardi. Bu haqda yana qarang: А. Д. Новичев, История Турции, стр. 35.
920. **Ikki poytaxt** (Brusa va Adirna – Adrianapolning turkcha atalishi) – sulton Orxan davrida turklar o'z chegaralarini kengaytira borib, 1326-yilda kichik Osiyodagi yirik shahar – Brusani egalladi va shu yili poytaxt Yangi shahardan Brusaga ko'chirildi. 1362-yilda esa, Orxanning o'g'li Murod I (1359–1389) Adrianopolni ishg'ol qilgach, poytaxt Brusadan u joyga ko'chirildi. Bu o'rinda muallif shunga ishora qilayotir.
921. Mo'g'uliston xoni Munkexon ilgari mo'g'ullar hukmi ostida bo'lib, so'ngra ular hukmidan chiqib ketgan G'arbiy Osiyo yerlarini qaytadan birlashtirish uchun o'z birodarlari Xulotuxonni (1256–1265) Eronga jo'natganda (Rashid ad-Din, Сборник летописей, том I, стр. 279) o'z lash-





kari bilan turkiy totor qabilalaridan ham anchasini jo'natgan edi. Keyin Xulokuxon ularga Rum va Shom yerlaridan joy berib, ular shu atroflarda vatan tutib qolgandilar. 1398-yili turk Sultoni Boyazid Sivos va uning atroflarini egallagach, shu yerlarda yashovchi totorlarni Rum lashkarlariga qo'shib o'z yerlaridan ularga joy bergandi. Bu o'rinda mana shu totorlar (forscha manbalarda ular qora totorlar deb atalganlar) ko'zda tutilayotir.
922. Qur'on, 74-sura, 31-oyatdan.
923. Qur'on, 74-sura, 31-oyatdan.
924. Abdurazzoq Samarqandiy (Matlayi sa'dayn, v. 191a) ular qirq ming xonadon edilar, deb zikr qilgan.
925. **Ertena** – XIII asrning ikkinchi yarmida Kichik Osiyo Eron mo'g'ullarining vassaliga aylanib Qaysariya, Arzinjon, Sivos va boshqa ba'zi shaharlarni o'z ichiga olgan Sharqiy Rumda esa mo'g'ul noibi Ertena hokimlik qilardi. Ibn Arabshoh yozganidek, u mo'g'ullarning oxirgi hokimi bo'lmay, balki undan keyin o'g'li Muhammad va uning o'g'li Alouddin ham hukm yuritib, u 782 1380–1381) yilda vafot etgach, u sulolaning hokimligi batamom tugagan edi. Bu haqda yana qarang: Лэн Пуль, Мусульманские династии, стр. 158, прим. 1.
926. XI–XIII asrlarda Kichik Osiyoda hukm yuritgan (markazi Ko'nya) Saljuqiylar avlodidan bo'lgan Sulton Alouddin o'z mulkining shimoliy-g'arbiy tomonlarini qo'riqlab turish sharti bilan usmoniy turklar davlatining asoschisi Usmonning (1258–1324) otasi Erto'g'rulga (vafoti 1288-yil) Anqara yaqinidan bir qadar yer bergan edi. 1289-yili saljuqiy sulton Alouddin Kaykubod III otasi vafotidan keyin uning o'rnida qaror topgan Usmonga bey (amir) unvonini berdi. (А. Ф. Мюллер, Краткая история Турции, стр. 9.). Mo'g'ullar istilosidan keyin saljuqiylar hokimiyatining batamom inqirozga yuz tutishi tufayli 1299-yili Usmon o'zini mustaqil hokim deb e'lon qilib, natijada, Usmoniylar imperiyasi vujudga keldi. Turk sultoni Boyazid ham shular avlodlaridan bo'lib, bu o'rinda saljuqiylarning ana shu ehsoniga ishora qilinayotir.
927. Asvad ibn Ya'afar – mashhur arab shoiri bo'lib, Abu Jarroh degan kunya olgan. U g'oyatda saxovati hamda fasohatli iboralari bilan shuhrat qozongan. Vafoti taxminan 600-yil.
928. Forscha manbalarda totorlarning amiri va Temurning u qavmni Boyaziddan qaytarish borasidagi urinishlari hamda ularga yo'llagan maktubi xususida hech bir ma'lumot uchratmadik. Lekin ba'zi adabiyotlarda (А. Мюллер, История ислама, стр. 333–334) bu haqda zikr qilinadi.

929. Qo'lyozmada noto'g'ri berilgan.

930. Basusdan ko'ra ham shumroq – Basus, johiliya shoirasi bo'lib, tag'allub qabilasiga mansub edi. Rivoyatga ko'ra, u o'z qabilasini Bani Bakr qabilasi bilan muhorabaga gijgijlagan. Bu muhoraba qirq yilcha davom etib, «Basus muhorabasi» nomi bilan atalgan. Shundan boshlab, u haqda masal naql qilganlar.

931. Xuddi shu tarzda hukm yuritish boshqa hukmdorlar bilan ham bo'lib o'tgan. Qarang: Ibn Battuta, Rihla, 38-bet.

932. **Visol ro'zasi** – saharlik qilmasdan ro'za tutish. Bu bilan kecha-yu kunduz to'xtamasdan yo'l yurdi demoqchi.

933. Muallif o'zi oldinroq qayd qilgani – Boyazidni o'z qo'shini bilan sahro va chekka yerlarga tomon yo'l olganiga ishora.

934. Qur'on, 77-sura, 41–42-oyatlaridan.

935. Qur'on, 56-sura, 28, 29, 30, 31-oyatlar.

936. Islomning ilk davrida (624-yil) Muhammad payg'ambar (s. a. v.) boshchiligida Madina musulmonlari Shomdan qaytib kelayotgan Makka qurayshlari karvoniga xujum qilib, bu rasmana jangga aylanib ketgan. Bu to'qnashuv Badr qudugi yonida yuz berib, Madina musulmonlarining g'a-labasi bilan tugagan edi. Mana shu jang paytidagi voqealarga ishora bo'lsa kerak.

937. Bu o'rinda muallif voqealarni bir qadar bo'rttirib tasvirlayotir.

938. Nizomuddin Shomiyning (Zafarnoma, 255–256-betlar) yozishicha, Boyazid katta o'g'li Sulaymonni («Ajoib al-maqdur») qo'lyozmasidagi bar-cha o'rinlarda Salmon shaklida berilgan) o'ng qanotda, qolganlari – Muso, Iso va Mustafoni esa orqa tomonda himoyasiga qo'ygan.

939. Qur'on. 38-sura, 23-oyatdan.

940. A n t a r a (1131–1218) – Johiliya davrining mashhur shoirlaridan bo'lib, janglarda o'z jasorati va mohir suvoriyligi bilan shuhrat qozongan.

941. **Misqol** – qimmatbaho toshlar uchun vazn o'lchovi bo'lib, 24 qiy-ratga yoki 4,68 grammga teng.

942. **Qiyrat** – misqolning 1/24 qismi bo'lib, 0,195 grammga teng.

943. Qur'on, 39-surasining nomi.

944. Qur'on, 93-surasining nomi.

945. Qur'on, 103-surasining nomi.

946. Qur'on, 57-surasining nomi.

947. Qur'on, 48-surasining nomi.

948. Qur'on, 110-surasining nomi.





949. Marmar dengizi nazarda tutilayotir.

950. Qora dengiz ko'zda tutilsa kerak.

951. Qur'on, 30-sura, 1-2 oyatlar.

952. Bu arab masali bo'lib, qachonki biron ish haddidan oshib ketganda keltiriladi.

953. Yomonlik va aziyatning haddidan oshib ketishidan mubolag'a tariqasida naql qilinadigan arab masali.

954. Aslida Bolqon yarim orolida yashovchi slavyanlar hamda kato-liklar bilan pravoslavlar o'rtasida voqe bo'lgan diniy adovatdan foydal-angan turklar, tez fursatda Bolqon yarim orolining aksar yerlarini egallab oldilar. Bu haqda kengroq ma'lumot olish uchun qarang: К. Е. Босворт, Мусульманские династии, стр. 187; А. Д. Новичев, История Турции. стр. 34–36.

955. **Barru salomat va islom** – lug'aviy ma'nosi «salomatlik va islom yeri» bo'lib, bu ibora salomatlik (tinchlik) mavjud bo'lib, islom qonun-qoi-dalari joriy bo'ladigan mamlakat va shaharga nisbatan aytilgan.

956. **Dorul-harb** – lug'aviy ma'nosi «urush uyi» bo'lib, islom dinida bo'lmagan mamlakat va shaharga nisbatan aytilgan.

957 Qur'on, 36-sura, 50-oyat.

958. **«Kalila va Dimna»** – Sharq va G'arb adabiyotida juda mashhur bo'lgan masallar to'plami, milodning 300-yillarida Hindiston (Kashmir)da noma'lum muallif tomonidan tuzilgan bu asar ko'p tillarga tarjima qilinib, dunyo adabiyoti merosiga aylangan.

958 Nashrda xato berilgan.

960 Ayrim adabiyotlarda (А. Д. Новичев, История Турции, стр. 37). Boyazidning oltita o'g'li borligi qayd qilingan.

961. **Xarshana** – Rum yerlarida joylashgan Malotiya yaqinidagi bir shahar.

962. Keyingi bayt qo'lyozmada noqis.

963. M a l i k  M u a y y a d – Misr va Shomda saltanat yuritgan mamluk-lar hokimlaridan (1412–1421).

964. **Murod II** – Usmoniylar sulolasidan oltinchi hukmdor (1421–1451).

965. Abdurazzoq Samarqandiyning yozishicha (Matlayi sa'dayn, v. 183a), Brusaga amirzoda Muhammad Sulton boshchiligida ko'pgina amir-lar jo'natilib, shahar boyliklariyu xazinalarini zabt qilish Shayx Nuruddin zimmasiga yuklatilgan.

966. Ko'pgina tarixchilar, jumladan, Nizomuddin Shomiy (Zafarnoma, 259-bet), Abdurazzoq Samarqandiy (Matlayi sa'dayn, v. 183a), Mirxondning (Ravzat us-safo, 124-bet) yozishicha, Temur Boyazidni afv etib, unga shohona izzat-ikrom ko'rsatib, ehtirom bildirgan.

967. Boyazidning ko'nglidagi g'amginlikni yengillatish va siyib bo'lgan dilini ravshan qilish uchun Temur uni xursandchilik majlislaridan biriga taklif qilib, unga bag'oyat iltifot ko'rsatganligi haqida Nizomuddin Shomiy (Zafarnoma, 262-bet), Abdurazzoq Samarqandiy (Matlayi sa'dayn, v. 185a), Mirxond (Ravzat us-safo, 126-bet) ham yozib, Ibn Usmon haramlarining ushbu o'tirishida soqiy bo'lganlari xususida zikr qilmaydilar.

968. Q a r a m o n i y l a r – Anatoliyada hukm surgan (1256–1483) eng kuchli turk sulolasi. Ular usmoniy turklar bilan bir vaqtda kuchayib, keyinchalik usmoniylar tomonidan bartaraf qilindilar.

969. Bu haqda yana qarang: А. Д. Новичев, История Турции, стр. 34, К. Э. Босворт, Мусульманские династии, стр. 183–184.

970. Sharafuddin Ali Yazdiy (Zafarnoma, v. 418 b), Abdurazzoq Samarqandiy (Matlayi sa'dayn, v. 184 b), Mirxond (Ravzat us-safo, 126-bet)ning yozishicha, o'n ikki yil Boyazid bandida bo'lgan Qaramon o'g'li Muhammadni Temur ozod qilib, Qaramon viloyatiga qarashli Oqshahar, Qoniya, Antoniya, Alaya va shunga o'xshash shaharlarni unga suyurg'ol tariqasida in'om qilgan.

971. Qo'lyozmada oy va yili yozilmasdan, «sakkiz yuz falon yilning oylarida» deb tarixi aniq ko'rsatilmagan. Sandersda esa 840 (1436) yil deb xato berilgan. Nashrda keltirilgan mazkur 821 (1418) yil ham to'g'ri emas. Chunki amir Muhammad ozgina uzilish bilan to 1424-yilgacha hukm yuritgan. Qarang: К. Э. Босворт. Мусульманские династии, стр. 183.

972. **Sinop** – Turkiyadagi bir shaharcha. U Qora dengiz sohiliga joylashgan bo'lib, mamlakatning port shaharlaridan hisoblanadi.

973. **Qastamoniya** – Kichik Osiyo (Turkiya)ning shimoli-g'arbida joylashgan shahar bo'lib, shu nomli viloyatning markazidir.

974. **Samsun** – Turkiyadagi bir shahar bo'lib, Qora dengiz sohilida joylashgan va azaldan g'alla va yung mahsulotlari tijorati bilan mashhurdir.

975. Bu haqda yana qarang: Sharafuddin Ali Yazdiy (Zafarnoma, v. 421[a]), Abdurazzoq Samarqandiy (Matlayi sa'dayn, v. 186[a]), Mirxond (Ravzat us-safo, 127-bet). Ularning yozishlaricha, Isfandiyor bilan bir qatorda Mantosho avlodlaridan amir Muhammad ham kelgan.





976. Zikr qilingan Isfandiyor...dan boshlab, to shu o'ringacha qo'lyozmada noqis.

977. Mantosho viloyatini Temur qo'shinlari talon-toroj etib, vayron qilganligi haqida Sharafuddin Ali Yazdiy (Zafarnoma, v. 420a) ham hikoya qiladi.

978. Muallif bu o'rinda xatoga yo'l qo'ygan. 805-yil jumod ul-oxirning o'ninchi kuni Rum yili hisobida 1403-yil, qonun ul-avval (dekabr) emas, balki qonun us-soniy (yanvar) oyiga to'g'ri keladi.

979. J o n i Q u r b o n i y – bu toifaga mansub guruhlar haqida mufassal ma'lumotni boshqa mtnbalarda uchratmadik. (Alibek Joniqurboniy qavmi)

980. Qo'lyozmada: «yasoq» deb berilgan

981. Temurning sevimli nabirasi Muhammad Sulton 805-yil, sha'bon oyining o'n sakkizinchisida (1403-yil, 13 mart) Qorahisordan sharqqa tomon uch marhalada (Sharafuddin Ali Yazdiy, Zafarnoma, v. 428 a; Mirxond, Ravzat us-safo, 69; Abdurazzoq Samarqandiyning (Matlayi sa'dayn, 191-b) yozishicha, Suri yaqinida) vafot etdi.

982. Muhammad Sulton avvaliga (1403-yil, mart) vaqtinchalik Sultoniya atrofida dafn qilingan edi. Bir yil o'tgach, ya'ni (1404-yilning mart oyida uning jasadi Sultoniyadan Samarqandga keltirilib, shu joyda dafn qilingan. Demak, Ibn Arabshoh bu o'rinda voqeani bir qadar umumlashtirib tasvirlayotir.

983. Temur amir Ollohdodni Samarqandga jo'natib, undan Ashparaga tomon yo'l olishni buyurgani haqida Sharafuddin Ali Yazdiy (Zafarnoma, v. 389[b]) ham yozadi. Lekin, Ibn Arabshoh yozganidek, u amir Sayfuddinning birodari bo'lmay, Temurning mashhur amirlaridan biri edi.

984. Qo'shtirnoq ichiga olingan «Qo'shimcha so'zlar», «cho'ziq iboralar», «mubolag'alar», «dilola» kabi so'zlar bayon ilmidagi maxsus istilohlardir.

985. Yildirim Boyazid, Abdurazzoq Samarqandiyning (Matlayi sa'dayn, v. 189 a) yozishicha, 805-yil, 13 sha'bon, chorshanba (1403-yil, 8-mart) kunida, Sharafuddin Ali Yazdiyning (Zafarnoma, v. 427[a-b]) yozishicha esa, 14 sha'bon, payshanba (9-mart) kechasi vafot etgan.

986. Qo'lyozmada: kishanlangan so'zi noqis; forscha manbalarning birontasida ham Boyazid Temurning huzurida ekanida qafasda bo'lganligi haqida hech narsa yozilmaydi. Aksincha, Temur Boyazidga hurmat-ehtirom ko'rsatib, unga izzatu e'tibor bilan muomala qilgani zikr qilinadi.

987. Qo'lyozmadagi ibora xato.

988. Nashrda: «niyat qilgan» so'zi suqut.

989. Ba'zi adabiyotlarda (А. Д. Новичев, История Турции, стр. 17) Boyazid, Temur uni Movarounnahrga olib ketmoq niyatidaligini bilgach zahar ichib o'lganligi zikr qilinadi.

990. Qur'on, 26-sura, 63-oyatdan.

991. **Simoq ar-romiq** – lug'aviy ma'nosi «nayza ushlagan simoq» bo'lib, Azro burjidagi ikkita yulduzdir.

992. **Sa'd uz-zobih** – lug'aviy ma'nosi «so'yuvchining baxti» bo'lib, Jady burjidagi ikkita yulduz.

993. **Al-Ayuq** – Kapella yulduzi (Звездный каталог аль-Бируни, стр. 185, № 38).

994. Rum yerlarida yashovchi qora totorlarni Movarounnahrga ko'chirish xususida Temur tomonidan farmon bo'lganligi haqida Nizomuddin Shomiy (Zafarnoma, 275-bet) ham yozadi. Shuningdek, totorlar bilan Temur o'rtasida bo'lib o'tgan munoqashalar tafsiloti haqida Abdurazzoq Samarqandiy ham (Matlayi sa'dayn, v. 190[b], 191[a]) talaygina ma'lumotlar keltiradi. Lekin Ibn Arabshoh bu voqeani o'ziga xos tarzda bo'yoqli tafsilotlar bilan bezab, bo'rttirib tasvirlaydi.

995. Qur'on, 8-sura, 73-oyatdan.

996. Qur'on, 71-sura, 27-oyagiga ham ishora.

997. Boshqa manbalarda Boyazidning Temurga aytgan mazkur uch nasihati haqida hech narsa deyilmay, asir tushgach, u Temurdan jangdan qatnashgan o'z o'g'illari Muso va Mustafoni qidirib ko'rishlarini iltimos qilganda, Temur amri bilan tavochilar Boyazid o'g'li Musoni topib keladilar. Temur uni otasiga baxsh etib, unga inoyatlar ko'rsatgani haqida yoziladi. (Nizomuddin Shomiy, Zafarnoma, 259–260-betlar; Xondamir, Habib us-siyar, 67-bet).

998. Qur'on, 31-sura, 26-oyatiga ishora.

999. Tarabzun–Qora dengiz sohiliga joylashgan Turkiyadagi shahar.

1000. **Abxos** – Bob ul-Abvob (Darband)ga yondosh joylashgan tog'lik bir nohiya shunday atalgan. O'rta asrlarda aholisi asosan kurjlardan iborat bo'lgan. Hozirgi Abxaziya muxtor respulikasi.

1001. **Laylat ul-qadr** – lug'aviy ma'nosi «tole' kechasi». Ramazon oyining yigirma oltisidan yigirma yettisiga o'tar kechasi.

1002. **Dabboba** – hisor vaqtida qo'llaniladigan uch yoki to'rt qavatli ko'chma minora (Словарь Гиргась, стр. 242), Tarixchi Sharafuddin Ali





Yazdiy (Zafarnoma, v. 440[a, b]) sandiqlar yasalib, ularga bir-ikkitadan jur'atli kishi solinib, mag'ora og'zigacha ko'tarilib, g'alaba qozongani haqida yozadi.

1003. Qur'on, 16-sura, 79-oyatdan.

1004. Kurjlarning g'oyatda mustahkam va baland qal'asi bo'lgan Kartin nazarda tutilayotgan bo'lsa kerak. Ushbu qal'a haqida qarang: Sharafuddin Ali Yazdiy, Zafarnoma, v. 436 b.

1005. Maoz ibn Jabal–lug'aviy ma'nosi «tog' o'g'li boshpanoh» Muhammad paygambar (s. a. v.) sahobalari – ansoriylardan bo'lib, Muhammad (s. a. v.) uni Yamanga yuborib, u orqali Yaman ahlini islomga da'vat etganlar. Vafoti 640-yil.

1006. Qo'lyozmada: ularga.

1007. Qo'lyozmada xato.

1008. Nashrda xato.

1009. Qur'on, 19-sura, 83-oyat.

1010. Do'st hayron, dushman vayron so'zlari nashrda noqis.

1011. Nashrda g'alat berilgan.

1011a. «Tard» va «aks» ritorika ilmidagi gapni haddan ortik, darajada cho'zishda ishlatiladigan usullardandir. Bu haqda yana «Muhit ul-muhit»dan «Tard» moddasiga qarang.

1012. Qur'on, 20-sura, 20-oyatdan.

1013. **Rand** – Najdda o'sadigan va yoqimli hid taratadigan dafna daraxti.

1014. **Aror** – Najdda o'sadigan xushbo'y hidli o'simlik.

1015. **Marziba** (birligi – marzubon) – forslarda boshliqni shunday atashadi.

1016. Qur'on, 20-sura, 107-oyatdan.

1017. **Qadariya** – inson o'z xatti-harakatining ustidan hokim deb fikr yurituvchi diniy guruh vakillari shunday atalgan.

1018. **Murjiy** – gunoh qilgan mo'minning imoni sof bo'lsa, u musulmonligida qolaveradi, degan fikrni ma'qullovchi diniy guruh shunday atalgan.

1019. Sharafuddin Ali Yazdiy (Zafarnoma, v. 430-6) va Abdurazzoq Samarqandiyning (Matlayi sa'dayn, v. 191 a) yozishlaricha, Rum yerlaridan Movarounnahrga ko'chirib keltirilgan totorlar 30 ming xonadonni tashkil qilganlar.

1020. Matnda Isiqko'l shaklida berilsada, asli Mo'g'uliston hududidagi Issiqko'l nazarda tutilayotir. U haqda kengroq ma'lumot olish uchun qarang: В. В. Бартольд, Соч., т. IV, стр. 63–76

1021. **Duvayra** – Issiqko'l o'rtasidagi bir orol. V. V. Bartoldning (Соч., т. IV, стр. 66) Temur o'z yurishlarida qo'lga tushirgan asirlarini shu joyga jo'natardi, degan fikri bir qadar ishonchsizroq. Matn taqozosi ham bu fikrdan yiroqdir. Duvayra bizningcha, geografik nom bo'lib, V. V. Bartold (Соч., т. 11 (2), стр. 301, прим. 268) ko'rsatganidek, turdosh ot bo'lmasa kerak. Bu haqda yana qarang: Мангер, т. II. 393-bet.

1022. **Ikki Iroq** – Ajam va Arab Iroqi ko'zda tutilayotir.

1022[a]. Bu o'rinda davlat idorasi, harbiy qonun-qoidalarni o'z ichiga olgan Chingizxon Yasosini ko'zda tutyapti.

1023. Bu o'rinda muallif yanglishayotir. Yetti yillik (1399–1404) yurish deb nom olgan yurishdan Temur omon-eson g'alaba bilan qaytganiga bag'ishlanib 1404-yilning kuzida Konigilda o'tkazilgan tantanalar bilan birgalikda Temur o'z nevara-chevaralaridan oltitasining nikoh to'yini ham nishonlagan bo'lib, shular jumlasidan 10 yashar Ulug'bek ham bor edi. Bu tantanalar haqida Sharafuddin Ali Yazdiy (Zafarnoma, v. 460[a] va davomi) mufassal yozadi.

1024. Bu haqda kengroq ma'lumot olish uchun qarang: Б. А. Ахмедов, Улугбек и политическая жизнь Мавераннахра, стр. 30–66.

1025. **Surodiqa** (fors) – chodir atrofini o'rab turadigan matodan ishlangan to'siq.

1026. Qur'on, 43-sura, 33–34-oyatlaridan.

1027. **Temir gaz** – uzunlik o'lchovi bo'lib 58, 187 sm ga tengdir.

1028. Qur'on, 15-sura, 18-oyatiga ham ishora.

1029. Qur'on, 10-sura, 24-oyatdan.

1030. Ma'mun – Abbosiylar sulolasidan bo'lgan yettinchi xalifa (813–833). U ilm-u fan ahllariga homiylik ko'rsatib, o'z atrofiga IX asrda yashagan ko'pgina mashhur olimlarni to'plagan.

1031. A b u  N u v o s (762–813) – abbosiylar davridagi mashhur shoirlardan, hayotining aksar qismi Bag'dodda o'tgan xalifa Horun ar-Rashid va uning o'g'illari Amin va Ma'munga yaqin kishilar toifasidan.

1032. Nashrda: «qudratli» noqis.

1033. Bu o'rinda shu payt Ispaniya (Kastiliya) dan Samarqandga kelgan elchilar ko'zda tutilayotir. Bu haqda yana qarang: Sharafuddin Ali Yazdiy, Zafarnoma, qo'lyozma № 1514, v. 483[b]. Shu elchilar, jumlasidan, Klavixo





ham bo'lib, o'zining bu safari vaqtida olgan taassurotlarini «Samarqandda Temur saroyiga sayohat kundaligi (1403–1406-yillar)» degan maxsus kitobida bayon qilgan.

1034. Qo'lyozmada: «O'z hisobiga ko'ra» deyilgan.

1035. **Sitra** – nohina bilan chalinadigan musiqa asbobi.

1036. **Urg'un** – bir necha klaviaturadan va havo kirib-chiqib turadigan naychalardan iborat muzika asbobi.

1037. Nashrda: kechasi, tuni.

1038. Nashrda: unga muhlat bermadi.

1039. Nashrda: «askariga» deyilgan.

1040. Ayrim mualliflar, masalan, o'sha davr tarixchisi Fasixiy (Mujmal, 2-jild, 151-bet) va Sharafuddin Ali Yazdiyning (Zafarnoma, v. 482[b], 483[a]) yozishicha, Temur jome ishini Muhammad Jald va Xoja Mahmud Dovud degan ikki shaxs zimmasiga yuklagan va ularning ishidan norozi bo'lib, ikkovini ham qatlga tortgan.

1041. Temurning Eron, Suriya, Iroq, Turkiyaga qilgan yurishidan keyin 1404-yili qaytishi nazarda tutilayotir.

1042. Qur'on, 82-sura, 1-oyatiga ishora.

1043. Qur'on, 2-sura, 74-oyatdan.

1044. Qur'on, 7-sura, 171-oyatiga ishora.

1045. Qur'on, 62-sura, 11-oyatiga ham ishora.

1046. **Masjid ul-Harom** – Makkadagi mashhur masjid bo'lib, unda Ka'ba mavjuddir. Bu o'rinda shu masjidga ham ishora.

1047. **Salot ul-xavf** – lug'aviy ma'nosi «qo'rquv (xavf) namozi» bo'lib, xatarli damlarda, xususan, jang paytida o'qiladigan namoz. Bir necha guruh, bo'lib-bo'lib bir (martalik) namozni o'qiydilar.

1048. Qo'lyozmada: «jinoyat» deb berilgan.

1049. Bosh Xumra (qal'a) – Ibn Arabshohning yozishicha, Ashparadan o'n kunlik yo'lda, mo'g'ullar bilan Temur yerlari hududida joylashgan qal'a. Boshqa manbalarda u haqda hech bir ma'lumot uchratmadik.

1050. **Rustoq** (fors) – qishloq va uning atrofidagi yerlar. Munjid, 257-bet.

1051. Qur'on, 50-sura, 19-oyatdan.

1052–1061. Klassik astronomiyada osmondagi o'n ikki burjdan o'n bittasining nomlari bo'lib, muallif ulardan foydalanib jumlalar tuzgan. O'n ikki burj haqida qarang: G'iyos ul-lug'at, 76–77-betlar.

1062. Abbosiylar davrida (750–1258) yashab ijod qilgan shoir Ibn Sukkara qattiq sovuq va yomg'ir natijasida uydan tashqariga chiqishning

iloji bo'lmay qolganda menga «kof» harflari bilan boshlanadigan yetti xil zarur vositalar bo'lsa bas, degan. Bu o'rinda ana shu «kof»li so'zlarga ishora qilinayotir. Ushbu ruboiy Haririyning (u haqida qarang: Ханна ал-Фахури, История арабской литературы, т. 2, стр. 201–203) maqomatlarida (25-maqomatda) zikr qilinib, Haririy Kurjistonda yashaganida u joyning qattiq sovug'ini vasf etib, Ibn Sukkaraning ushbu nashidasini keltirgan. Maqomat al-Haririy, 181–187-betlar.

1063. Qur'on, 2-sura, 231-oyatdan.

1064. Qur'on, 18-sura, 45-oyatdan.

1064. **Bargustvon** (fors) – u haqda yana qarang: Abdullanoma, 1-jild, 355-bet, 543-izoh.

1065. **Jubba** – chakmonga o'xshash ustki kiyim.

106. **Mubattana** – astarli ustki kiyimning bir turi.

1067. **Darak** –jild (teri)dan ishlangan qalqon.

1068. **Zarad** – sovut, zirhli kiyim.

1069. Ibrohim Xalilullohni Nimrud olovga tashlaganda go'yo xudo olovga qarab: «Ey olov, Ibrohimga sovuq va salomatlik bo'lgin», degan (Qur'on, 21-sura, 69-oyat) so'zlari bilan xitob qilgan.

1070. Sharafuddin Ali Yazdiy (Zafarnoma, v. 467[a]) Temurning Samarqanddan Xitoy tomoniga chiqishi 807-yil 27-jumod ul-avval (1404-yil, 28-noyabr)da bo'lgan edi deb yozsa, Abdurazzoq Samarqandiyda (Matlayi sa'dayn, v. 205[b]) ham shu tarix zikr qilingan.

1070[a]. Matnda: Sof Nasiym.

1071. Qur'on, 27-sura, 44-oyatdan.

1072. Qur'on, 2-sura, 266-oyatdan.

1073. **Ikki nahs yulduzi** – Mars (Mirrix) va Saturn (Zuhal) yulduzlari.

1074. Qur'on, 51-sura, 41–42-oyatdan.

1075. Qur'on, 71-sura, 25-oyat.

1076. Nashrda: yuz ming deb berilgan. Albatta, bu xato bo'lsa kerak.

1077. Qo'lyozmada: «shafqatli» deb berilgan.

1078. Ushbu jumla qo'lyozmada noqis.

1079. Qur'on, 22-surasidan, 73-oyatning oxiri.

1080. Nashrda barcha o'rinlarda «Unzor» deb xato berilgan.

1081. **Ibrida** (kasali) – burudat (sovuq) va rutubat g'alabasidan paydo bo'ladigan va jimoni zaiflashtiradigan bir kasallik. Muhit ul-muhit, «barada» moddasi).

1082. Qur'on, 47-sura, 15-oyatdan.





1083. Qur'on, 26-sura, 88-oyat.

1084. Qur'on, 40-sura, 85-oyatdan.

1085. Ushbuni aniqlay olmadik.

1086. Qur'on, 8-sura, 50-oyatdan.

1087. Ushbuni aniqlab olmadik.

1088. Qur'on, 6-sura, 92-oyatdan.

1089. Sharafuddin Ali Yazdiy (Zafarnoma, v. 473[a]) ham Temurning 807-yil 17-sha'bon kechasi (1405-yil 18-fevral) vafot etganini zikr qiladi.

1090. Qur'on, 6-sura, 45-oyat.

1091. Qur'on, 42-sura, 31-oyatdan.

1092. Ushbu misra qo'lyozmada noqis.

1093. Ushbu misra qo'lyozmada noqis.

1094. Qur'on, 42-sura, 31-oyatdan.

1095. Ushbuni aniqlay olmadik.

1096. Qur'on, 8-sura, 50-oyatdan.

1097. Uning qatli 1408-yil aprel oyida yuz berib, bu to'g'rida Abdurazzoq Samarqandiy (Matlayi sa'dayn, 116-bet) kengroq ma'lumot keltirgan.

1098. **Al-Kavsar** – jannatdagi bir daryo havzasining nomi, Salsabil-jannat bulog'ining nomi. U haqda Qur'onda ham zikr qilinadi,

1099. Xalil deyishdan murod, Xalil Sultonga ham ishora qilingan.

1100. Ushbu jumlalardagi so'zlarda arab tili abjadidagi harflar tartibli ravishda ma'no jihatidan muvofiq holda joylashtirilgan. Masalan: alif, bo, dol, jim va hokazo.

1101. **Tur** – Qur'on 52-surasining nomi. Axqof – Qur'oni karimning 46-surasi nomi.

1102. Qur'on, 42-sura, 1–2-oyatlar.

1103. **Yosin, Toho** (payg'ambarning nomlari degan rivoyat bor): Yosin – Qur'oni karimning 36-surasi, Toho – 20-surasi nomi.

1104. Xalili (ya'ni sevgilisi) deyishdan murod, Xalil Sultonga ham ishora.

1105. Sharafuddin Ali Yazdiyning (Zafarnoma, v. 476[b]) yozishicha, Temur tobutini Samarqandga amir Xoja Yusuf, Ali Qovchin va maxsus qo'shinlar olib qaytganlar. Xalil Sulton esa Samarqandga 807-yil, 16-ramazon (1405-yil, 18-mart) kuni kirgan (Abdurazzoq Samarqandiy, Matlayi sa'dayn, v. 210[b]).

1106. Nashrda xato berilgan.

1107. Qur'on, 81-sura, 1-oyatiga ham ishora qilingan.

1108. Qur'on, 82-sura, 2-oyatiga ham ishora qilingan.

1109. **Zuhal** – Saturn (Baxtsizlik yulduzi).

1110. **Mirrix** – Mars sayyorasi. **Mushtariy** – Yupiter (baxt) sayyorasi.

1111. A b d u l l o i b n U b a y y i n i b n S a l u l – ushbu shaxsni va mazkur voqeani hozircha aniqlay olmadik.

1112. Nashrda: «Buzunduk» deb xato berilgan.

1113. Shu vaqtda yuz bergan voqealar xususida Sharafuddin Ali Yazdiy (Zafarnoma, v. 380ª va davomi) kengroq ma'lumot beradi.

1114. Nashrda: «ularga» deb xato berilgan.

1115. **Obnus** – issiq mamlakatlarda o'sadigan daraxtning bir turi, uning yog'ochi qattiq va qora rangda bo'lib, g'oyat qimmatbaho sanaladi.

1116. **Taqvim** – bir mamlakat yerining kengligi-yu uzunligi va yerlaridan keladigan foydalari hammasi bir bo'lib, taqvimni tashkil qiladi.

1117. Qur'on, 23-sura, 41-oyatiga ham ishora.

1118. «Bo'stonlar jomelarida» qo'lyozmada noqis.

1119. R u d a y n i y – nayza tayyorlash bilan mashg'ul bo'lgan bahraynlik bir ayolning ismi. Unga nisbatan berilib shunday deyiladi (Munjid, 256-bet).

1120. Qur'on, 50-sura, 42-oyatiga ham ishora.

1121. Xalil Sultonga muxolifat bildirgan amirlar haqida Sharafuddin Ali Yazdiy Zafarnoma, v. 482 a va davomi) mufassalroq bayon qiladi. Bu haqda yana qarang: В. В. Бартольд, соч. т. II (2), стр. 72–76.

1121ª. **Ma'sum** – ushbu so'zning lug'aviy ma'nosi «begunoh», «bezarar» bo'lganligi sababli bu o'rinda so'z o'yini sifatida keltirilgan.

1122. Qur'on, 34-sura, 9-oyati va 26-sura, 187-oyatiga ham ishora.

1123. **Qulonchuq** – Qirg'izistondagi marki (hozirgi Lugovaya) stansiyasi o'rnidagi qishloq o'rta asrlarda Qulon nomi bilan atalardi. Shu joy nazarda tutilsa kerak.

1124. **Sevimli hayit** – qo'lyozmada xato berilgan asli ramazon hayiti ko'zda tutilayotir.

1125. **Od shamoli** – Od qavmining qirilishiga sabab bo'lgan sovuq shamol. Bu haqida Qur'onda ham zikr qilinadi.

1126. Qur'on, 74-sura, 18-oyat.

1127. Qur'on, 74-sura, 19-oyat.

1128. **Suad** – oti bor-u o'zi yo'q bir mahbubaning ismi.

1129. Nashrda: «sohib» deb keltirilgan.

1130. T a y z a k – xozirgi Jizzax nazarda tutilayotir.





1131. Qur'on, 27-sura, 48-oyatiga ham ishora.

1132. Bu o'rinda arab mutafakkiri Abu Alo al-Maariyning (979–1058) she'riy devoniga ham ishora. Bu devon uch mingdan ortiq baytdan iboratdir.

1133. Qur'on, 19-sura, 37-oyatiga ham ishora.

1134. Qur'on, 2-sura, 256-oyatiga ham ishora.

1135. Qur'on, 79-sura, 46-oyatidan.

1136. Qur'on, 2-sura, 231-oyatidan.

1137. «Turkiston yerlarida» (Sharafuddin Ali Yazdiy, Zafarnoma, v. 459ᵇ).

1138. Qo'lyozmada: «tartiboti» deb keltirilgan.

1139. «U undan najot topdi» – qo'lyozmada noqis.

1140. Qur'on, 69-sura, 27-oyat.

1141. Nashrda: «ularning lashkargohi» deyilgan.

1142. Qo'lyozmada: «Shohruxdan deyilgan.

1143. **Barid** – masofa o'lchovi bo'lib, to'rt farsax, ya'ni o'rtacha yigirma to'rt km ga teng yo'ldir.

1144. Qo'lyozmada: «kulfatini» deyilgan.

1145. Qur'on, 86-sura, 3-oyat.

1146. Qur'on, 25-sura, 27-oyatdan.

1147. In'om-ehsonlar ato qilish va o'lpon-u to'lovlar (jarimalar) yig'ish.

1148. Nashrda va Sandersda xato bo'lib, «Noshkand» deyilgan.

1149. Qo'lyozmada: «vafoti» so'zi noqis.

1150. Qur'on, 9-sura, 57-oyat.

1151. Ushbu baytlar shoir Abul-Alo al-Maariy qalamiga Mansub (Manger, 2-jild, 604-bet).

1152. Bu to'g'rida yana qarang: Abdurazzoq Samarqandiy, (Matlayi sa'dayn, 179–180 betlar).

1153. Bu haqda Abdurazzoq Samarqandiy (Matlayi sa'dayn, 35–87-betlar) ham shu yo'sinda hikoya qiladi.

1154. Menga inon-ixtiyorlarini topshirdilar ma'nosida.

1155. Nashrda: xato berilgan.

1156. Qur'on, 4-sura, 143-oyatdan.

1157. Nashrda xato berilgan.

1158. Qur'on, 47-sura, 4-oyatdan.

1159. Bu voqealar xususida Abdurazzoq Samarqandiy (Matlayi sa'dayn, 82-bet), shuningdek, Mirxond (Ravzat us-safo, 158-bet) keltirgan ma'lumotlar Ibn Arabshoh yozganidan ko'p farq qilmasa-da, lekin ayrim faktlar bir oz

boshqacha talqin etiladi. Jumladan, Xoja Yusuf bilan birga Temirxoja ham qatl qilinadi.

1160 Mazkur bayt arab shoiri Ja'far ibn al-Xorisiyning qalamiga mansubdir. (Manger, 2-jild, 630–631-betlar).

1161. Biron maqsadga erisha olmay quruq o'zi qaytganda naql qilinadigan mashhur arab masali.

3162. Qur'on, 38-sura, 38-oyatdan.

1163. «Firibgarning firibidan» qo'lyozmada suqut.

1164. Abdurazzoq Samarqandiyning (Matlayi sa'dayn, 83-bet) yozishicha, bu voqea 808-yil muharram oyining sakkizinchisida (1405-yil 6-iyul), Mirxondning «Ravzat us-safo» (158-bet) asarida esa muharram (1405-yil iyul) oyida sodir bo'lganligi qayd qilingan.

1165. Sulton Husaynning o'limi haqida Abdurazzoq Samarqandiy (Matlayi sa'dayn, 83-bet) mufassal va aniqroq yozadi. Bu haqda yana qarang: Mirxond, Ravzat us-safo, 158-bet.

1166. Qur'on, 25-sura, 53-oyatdan va 35-sura, 12-oyatdan.

1167. Qur'on, 38-sura, 37-oyatdan.

1168. Ya'ni, qandahorliklar mag'lubiyatga uchradi. Bu haqda yana qarang: Abdurazzoq Samarqandiy, Matlayi sa'dayn, 87-bet.

1169. **Marx va ifor** – bu ikkisi daraxt bo'lib, agar marx yog'ochi iforga ishqalansa suv chiqib, undan olov paydo bo'ladi. Ifor Arabistonda ko'p uchraydi.

1170. Ushbu bayt arab shoiri Imru-l-Qays qalamiga mansub (Manger, 2-jild, 656-bet, 35-izoh).

1171. **Jigdolik** – Shahrisabzdan janubda joylashgan bir mavze.

1172. Abdurazzoq Samarqandiy (Matlayi sa'dayn, 180-bet) ham aynan shu tarixni zikr qiladi.

1173. Bu haqda qarang: Sharafuddin Ali Yazdiy, Zafarnoma, v. 245[b], 246[a].

1174. Bu o'rinda Temur vafotidan keyin Iroq hokimi Sulton Ahmadning Misr sultoni Faraj asirligidan ozod bo'lib, Bag'dodga qaytib kelib o'z hokimligida qaror topgani ko'zda tutilayotir.

1175. Qo'lyozmada: «oqishdan» deb berilgan.

1176. Abdurazzoq Samarqandiy (Matlayi sa'dayn, 116-bet). sulton Alouddavlaning 809-yilning oxirlarida (1407-yil may) Bag'dodga yetib kelganligi haqida yozadi.

1177. Qur'on, 9-sura, 122-oyatdan.





1178. Qur'on, 53-sura, 57-58-oyatlar.

1179. **Yafas, Yofas** – Nuh (payg'ambarning) uchinchi o'g'li.

1180. **Som va Xom** – Nuh payg'ambarning o'g'illariga ham ishora.

1181. Qur'on, 24-sura, 39-oyatdan.

1182. Qur'on, 11-sura, 43-oyatdan

1183. Bu voqea 809-yil, ramazon oyining o'n to'rtinchi kuni (1407-yil 22-fevral) yuz bergan (Abdurazzoq Samarqandiy, Matlayi sa'dayn, 99-bet).

1184. Qur'on, 47-sura, 18-oyatiga ham ishora.

1185. **Manih va Safih** – qadimgi arablarda bo'lgan «miysar» degan qimor o'yinidagi toshlar (o'qlar) bo'lib, ular yutishga qodir emas passiv toshlar hisoblangan.

1186. Pir Ali Tozning qatl etilishi xususida Abdurazzoq Samarqandiy (Matlayi sa'dayn, 112-bet) mufassal yozadi.

1187. Nashrda ortiqcha.

1188. Qur'on, 52-sura, 6-oyat.

1189. Qo'lyozmada: jarohatlandi.

1190. Qo'lyozmada: noto'g'ri.

1191. Boshqa manbalarda Xalil Sultonning Xudoydod va Shayx Nuruddin bilan bu to'qnashuvi haqida ma'lumot uchratmadik.

1192. Nashrda «ko'za» so'zi noqis.

1193. Qur'on, 9-sura, 109-oyatdan.

1194. Qur'on, 75-sura, 27–28-oyatlari qo'lyozmada noqis.

1195. Qo'lyozmada: «bordi, yurdi».

1196. Bu haqda Abdurazzoq Samarqandiy (Matlayi sa'dayn, 165–166-betlar) ham deyarli shu tarzda hikoya qilib, ushbu shaxsning ismini Hurqadoq shaklida keltiradi.

1197. Abdurazzoq Samarqandiyda (Matlayi sa'dayn, 109-bet) Mansur Humoriy deb zikr qilingan.

1198. Qur'on, 26-sura, 128-oyat.

1199. Qur'on, 4-sura, 66-oyatdan.

1200. Nashrda va Sandersda xato, «Mirzob» shaklida berilgan.

1201. Bu o'rinda gap Balxning Hinduvon qal'asi to'g'risida borayotir. Bu qal'a 1370-yil aprel oyida Temur tomonidan xarob etilgan edi.

1202. Sandersda «Iroq» deb xato berilgan.

1203. Tarixchi Mirxondning yozishicha, Sulton Ahmad va Qora Yusuf Iroqqa 1406-yil o'rtalarida qaytganlar. Ravzat us-safo 165-bet.

1204. Qur'on, 61-sura, 13-oyatdan.

1205. Temur vafotidan keyin Bag'dodga qaytgan Sulton Ahmad va Qora Yusuf Ozarbayjonga yurish qilib, Tabrizda Amiranshohni va o'g'li Umarni tor-mor qildilar. Amiranshoh 1408-yilda o'ldirilib, o'g'li Umar qochib ketdi.

1206. B i s t o m (J o g ' i r) – o'sha paytda u Janubiy Ozarbayjonda joylashgan Ardabil shahrining hokimi edi.

1207. Ular ikkalasi o'rtasida voqe bo'lgan adovat urush bilan tugab, Sulton Ahmad asir tushib, Qora Yusufning o'g'li Isfandiyor tomonidan Tabrizda qatl etildi. (А. Бакиханов. Гюлистан-Ирам, стр. 67).

1208. Nihoyat... dan boshlab to shu joygacha qo'lyozmada noqis.

1209. Pir Umar – Temurning o'g'li Shohruxning farzandi.

1210. 1207-izohga qarang.

1211. Nashrda: har qanday so'zi noqis.

1212. Forscha manbalarda (Sharafuddin Ali Yazdiy, Zafarnoma, v. 467[b], 489[a]; Abdurazzoq Samarqandiy. Matlayi sa'dayn, v. 212[a]; Xondamir, Xabib us-siyar, 92-bet) yozilishicha, Shodmulk amir Sayfuddinning kanizaklaridan bo'lib, keyinchalik uni Xalil Sulton o'z nikohiga olgan.

1213. Qo'lyozmada: Qarhod deb xato berilgan.

1214. Qo'lyozmada: uning ra'ylarisiz.

1215. Nashrda: noqis.

1216. Xalil Sulton saltanati davrida Shodmulkning mulk va davlat ishlariga aralashishi natijasida mamlakat ahvoli tushkunlikka yuz tutgani haqida Sharafuddin Ali Yazdiy (Zafarnoma, v. 488[a] – 490[a]) ham yozadi.

1217. Qur'on, 2-sura, 90-oyatdan.

1218. Abdurazzoq Samarqandiyning (Matlayi sa'dayn, 124-bet) yozishicha, Xalil Sulton jo'natgan lashkar uch ming otliqdan iborat bo'lgan.

1219. Qo'lyozmada: holi tili.

1220. **Sultoniya** – Temur tomonidan bino qilingan qasaba bo'lib, Ibn Arabshohning fikricha, Samarqanddan shimolda joylashgan.

1221. Abdurazzoq Samarqandiyning (Matlayi sa'dayn, 130-bet) hikoya qilishicha, Xalil Sulton to'rt ming otliq bilan Samarqanddan chiqib, Sheroz qishlog'iga kelib tushgan.

1222. Qur'on, 84-sura, 10-oyatdan.

1223. Abdurazzoq Samarqandiyning (Matlayi sa'dayn, 130-bet) yozishicha bu voqea 811-yil zu-l-qa'da oyining o'n uchinchisida (30 mart, 1409-yil) yuz bergan.

1224. Qur'on, 5-sura, 95-oyatdan.





1225 Xalil Sulton nazarda tutilayotir.

1226. Qur'on, tasodifan shunday ahvol yuz berdi, deb o'yladi.

1226[a]. Qur'on, 74-sura, 22-oyat.

1227. Qur'on, 2-sura, 156-oyatdan. Bu musibat tushganda «Xudo asrasin» ma'nosida aytiladigan ibora bo'lib, lug'aviy ma'nosi «biz Ollohga mansub bo'lib, unga qaytuvchimiz», demakdir.

1228. Qo'lyozmada xato berilgan, asli xudodan rijo tilagan paytda xitob qilinadigan, tangridan bo'lak hech kimsada kuch va qudrat yo'q, degan iboraning qisqartirilgan shaklidir.

1229. Abdurazzoq Samarqandiyning (Matlayi sa'dayn, 125-bet) yozishicha, Shohrux Jayhunga 811-yil zu-l-hijja oyining oltinchisida (1409-yil 22-aprel) yetib kelgan.

1230. Nashrda: bu sayyid, deb xato berilgan.

1231. Qo'lyozmada ham, nashrda ham xato berilgan.

1232. Nashrda: «Aydkon» deb xato berilgan.

1233. Arabcha bir maqol.

1234. Ushbu misra tarjimasi qo'lyozmaga asosan bo'ldi. Lekin nashrda aynan shu mazmun bir qadar o'zgartirilib «ilm (hech bir) ustunsiz u bino qiladi», shaklida berilgan.

1235. Ushbu jumla qo'lyozmada noqis.

1236. Abdurazzoq Samarqandiy (Matlayi sa'dayn, 142-bet) mo'g'ullar Xudoydodning boshini kesib, Shohmalikka jo'natganini hikoya qiladi.

1237. Zaydun qasidalari – Kordova (Ispaniya)da tug'ilib, shu yerda ijod qilgan arab shoiri Ibn Zaydun (1003–1071) ko'zda tutilayotir. U Kordova amirining qizi Valloda (u haqda 202-izohga qarang) ishqiga tushib, oqibatda hibsga solingan edi. Ibn Zaydun hibsda turib o'z sevgisini izhor qilgan ko'pdan-ko'p qasida va maktublar yozgan.

1238. Nashrda xato keltirilgan.

1239. Shohrux Samarqanddan 812-yil rajab (1409-yil noyabr) oyida chiqib, shu yil 16-sha'bonda (1409-yil 24-dekabr) Hirotga qaytib keldi. (Abdurazzoq Samarqandiy, Matlayi sa'dayn, 137-bet)

1240. Abdurazzoq Samarqandiyning yozishicha, Xalil Sulton 814-yil o'n oltinchi rajabda (1411-yil 3-noyabr) ikki-uch kunlik betoblikdan so'ng vafot etgan (Matlayi sa'dayn, 169 bet).

1241. **Amolika** – qadimda jussali pahlavon odamlar shunday deb atalganlar.

1242. Haqiqatda yetmishga.

1243. Qur'on, 57-sura, 23-oyatiga ham ishora.

1244. Qur'on, 86-sura, 3-oyat.

1245. Bu o'rinda Ibn Xaldunning «Muqaddima» nomi bilan mashhur «Kitob ul-ibar va devon ul-mubtada va-l-xabar fi ayyomi-l-arab va v-l-ajam va-l-berber va man o'sarahum min zaviy sulton ul-akbar» tarixiy asari nazarda tutilsa kerak.

1246. Qo'lyozmada: «Temur Ibn Xaldunning o'z suhbatida bo'lishini rag'bat etgandi» noqis.

1247. Chunki sen... dan boshlab, to shu o'ringacha qo'lyozmada noqisdir.

1248. Arilar o'z boshliqlariga g'oyatda hurmat bilan qarab, ularga qattiq bog'langan bo'ladi. Ehtimol, bu o'rinda shunga ishorat qilinayotir.

1249. Nashrda: G'arb.

1250. Qur'on, 6-sura, 112-oyatiga ham ishora.

1251. Nashrda: yo'lidan, tariqatidan.

1252. Qo'lyozmada: Kujujoniy.

1253. Nashrla: makr.

1254. Ushbu jumla qo'lyozmada noqis.

1255. Qur'on, 78-sura, 37-oyatdan.

1256. Qur'on, 32-sura, 12-oyatdan.

1257. Z a k a r i y o – Quddusda yashagan mashhur kohin. Yaxyo esa uning o'g'lidir.

1258. Qur'on ,81-sura, 5-oyat.

1259. Qur'on, 56-sura, 4-oyat.

1260. **Balxash** – «Muhit ul-muhit»da balxash, nabototning bir turi deb berilgan. Uning asl mohiyatini aniqlay olmadik.

1261. Nashrda: «Korun» deb xato berilgan. **Kozirun** – Erondagi bir shahar.

1262. **Hurmuz** – Ajamda, Fors qo'ltig'iga kirishda joylashgan bir port shahardir. H. Hasanov, O'rta Osiyo joy nomlari, 80-bet.

1263. Damashq, Sheroz, Misr qasabalarining joylashgan o'rni haqida qarang: В. Л. Вяткин, Материалы, стр. 44.

1264. Bu haqda tarixchi Fasihiy (Mujmal, 141-bet) ham zikr qilib uning 800 (1397–1398) yilda bunyod etilganini yozadi.

1265. Temur o'z xotini Cho'lponni o'ldirishi va Shodmulk tomonidan Temurning ikki xotinining zaharlanishi haqida boshqa tarixchilar hech narsa





yozmaganlar. Bu haqda yana qarang: В. В. Бартольд, Соч., т. II (2), стр. 54, 87.

1266. Bu xususda tarixchi Abdurazzoq Samarqandiy aniqroq yozadi. Uning ta'kidlashicha, Mirzo Boysunqur 836-yil jumod ul-avval oyining sakkizinchisida (1434-yil 10-dekabr) vafot etgan.

1267. Amiru vazirlardan... boshlab, to shu o'ringacha qo'lyozmada noqis.

1268. Qo'lyozmada xato berilgan.

1269. Nashrda ushbu shaxs Xoja Mahmud ibn Shihob ash-Shahraviy deb berilgan.

1270. Qo'lyozmada: Ma'sud ash-Shimnoniy deb keltirilgan. Sharafuddin Ali Yazdiy (Zafarnoma, v. 378[a], 383[a]) ham ushbu shaxsni Xoja Ma'sud Simnoniy deb zikr qilgan.

1271. Nashrda: Muhammad ash-Shog'irjiy.

1272. Temur devoni arboblaridan biri Tojuddin as-Salmoniy bo'lib, u yaratgan va uzoq vaqtlar V. V. Bartold tomonidan «Shohrux anonimi» deb atalib kelgan asar Salmoniyniki ekanligi V. Xins tomonidan aniqlangan. (В. В. Бартольд, Соч., т. II (2), стр. 72, прим. 73; стр. 443, прим. 134) U Toj ul-Salmoniy nomi bilan ham mashhur.

1273. Islom dini hanafiya mazhabining asoschisi mashhur fiqhchi Abu Hanifa Nu'mondan (699–767) keyin (fiqh ilmida) ikkinchi deb atalgan. Mazkur nisbatga fiqh ilmida g'oyatda bilimdon boshqa ba'zi olimlar ham sazovor bo'lganlar.

1274. Qo'lyozmaning hoshiyasida (xattotning qo'li bilan) «(8) 38-yilda vafot topgan» deb Xoja Abdulavvalga ishorat qilingan (ehtimol Xoja Abdulmalikkadir)

1275. Sa'duddin Taftazoniyning vafotini Fasixiy (Mujmal, 124-bet) 787 (1386) yil, Xondamir (Habib us-siyar, 88-bet) 797 (1394–1395) yil deb ko'rsatsalar-da, hozirgi adabiyotlarda Ibn Arabshoh yozganidek, 1389-yil deb keltiriladi.

1276. S a y y i d  S h a r i f  M u h a m m a d  J u r j o n i y (1339–1413) – U Sherozda tug'ilgan bo'lib, mashhur faylasuf olimlardan hisoblangan. 790 (1388) yilda Sherozni zabt etganda Temur Jurjoniyni Samarqandga keltiradi (Fasihiy, Mujmal, 129-bet). Uning falsafaga oid arabcha va forscha risolalari, shuningdek fiqh, falsafa va ilm ul-hay'at masalalariga bag'ishlangan ba'zi kitoblarga yozgan sharhlari mavjuddir.

1277. Nashrda: al-Javzi deb xato berilgan. Shayx Shamsuddin Muhammad ibn al-Jazariy 1350-yilda Damashqda tug'ilgan bo'lib, keyin Rumga

kelgan edi. Temur Boyazidni yenggach, al-Jazariyni Samarqandga olib ketadi. (Fasihiy, Mujmal, 146-bet). U Samarqandda ham ancha muddat yashadi.

1278. «Fitna» deb bu o'rinda Temurning Shomga yurishi va shu asnoda Shomda yuz bergan alg'ov-dalg'ovlar nazarda tutilayotir.

1279. Bu o'rinda Temur huzurida xizmatda bo'lgan mashhur dabir (kotib) Mavlono Shamsuddin Munshiy (Sharafuddin Ali Yazdiy, Zafarnoma, v. 363[v], 415[a]) ko'zda tutilayotir.

1280. Sharafuddin Ali Yazdiy (Zafarnoma, v. 465[b]) bu mashhur xattot haqida yozib, uning ismini «Mavlono shayx Muhammad pesari Hoji Bandgir Tabriziy» deb to'lig'icha keltiradi.

1281. Xondamir (Habib us-siyar, 91 –92-betlar) Xoja Ali Tabriziy ash-Shatranjiy deb, Hofizi Abru (Zafarnoma, P-jild, 202-bet) Xoja Ali Shatranjiy at-Tabriziy deb zikr qilgan. Ushbu shatranjchi ko'zda tutilayotir. Darhaqiqat, u Ibn Arabshoh yozganidek, fiqh va hadis olimi bo'lgan.

1282. Ushbu so'zni (bog'bon, bog'dorchilik bilan shug'ullanuvchi) deb tuzatib o'qidik. Sanders tarjimasida ham shu ma'noda keltirilgan.

1283. Ibn Arabshoh Samarqandda ekanida 803 (1406) yilda Shayx Uryon Adhamiy bilan uchrashib, fors va mo'g'ul tillardan o'z bilimini oshirgani ma'lum.

1284. Qur'on, 46-sura, 15-oyati va 12-sura, 22-oyatiga ham ishora qilingan.

1285. **Masjid ar-Ribot** – boshqa manbalarda shu nomli masjid borligi haqida biror ma'lumot uchratmadik.

1286. Qur'on, 23-sura, 50-oyatdan.

1287. Qur'onning bir qancha suralarida ko'p uchrayditan oyatlardagi shu so'zlarga ham ishora.

1268. Qur'on, 12-sura, 44-oyatdan.

1289. Qur'on, 51-sura, 7-oyat.

1290. Qur'onning bir qancha suralarida ko'p uchraydigan oyatlardagi shu so'zlarga ham ishora.

1291. **Vabr** – mushuksimon bir jonivor bo'lib, u faqat nabotot bilan hayot kechiradi. Uning go'shti shirin, tiviti qimmatli hisoblanib, omma orasida «tabsun» nomi bilan mashhurdir. (Munjid, 884-bet).

1292. Nashrda xato berilgan.

1293 G'ozonxon – Eronda saltanat yuritgan mo'g'ul hukmdori (1295–1304). U bir qancha muddat Damashqni ham egallab turgan.

1294. Qur'on, 52-sura, 12-oyat.





1295. Bu o'rinda xalifa Horun ar-Rashidga rafiqasi Zubaydat tomonidan hadya qilingan sohibjamol joriya Maryam nazarda tutilayotgan bo'lsa kerak.

1296. Qur'on, 22-sura, 2-oyatdan.

1297. Qur'on, 17-sura, 51-oyatiga ham ishora.

1298. Nashrda bir qadar noaniq keltirilgan.

1299. Qo'lyozmada harflar surati keltirilib, ularning alohida va qo'shilib yozilgandagi ko'rinishi tasvirlangan.

1300. Nashrda: «dunyoviy» deb xato berilgan.

1301. Qur'on, 25-sura, 21-oyatdan.

1302. Tasavvuf (sufizm) ilmidagi «muroqaba» istilohining ma'nosi shuki, biron narsa yoki kimsa (bu o'rinda Temur) haqida haddan ortiq o'ylab, unga berilib ketib, boshqa hamma narsadan voz kechishdir.

1303. Buyuk arab faylasuflaridan biri Abu Homid Muhammad al-G'azzoliyning (1009–1111) «Ihya-l-ulum ad-din» nomli tasavvufga oid asari.

1304. Qur'on, 103-sura, 3-oyatiga ham ishora.

1305. Nashrda: xato berilgan.

1300. Matnda: «na erkak, na urg'ochi tuya bor».

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
TOSHKENT VILOYATI CHIRCHIQ
DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
AXBOROT RESURS MARKAZI

**Ibn Arabshoh**

**AMIR TEMUR TARIXI**

Ajoib al-maqdur fi tarixi Taymur

I–II QISM

«Fan» nashriyoti Toshkent–2019

Muharrir
*Anvar Zulfiqorov*

Badiiy muharrir
*Umid Sapayev*

Sahifalovchi
*Oloviddin Sobir o'g'li*

Musahhih
*Elbek Erkin*

Nashriyot litsenziyasi AI № 266, 15.07.2015-y.
10.12.2019-yilda bosishga ruxsat etildi.
Qog'oz bichimi 84 × 108 $^{1}/_{32}$. «Times New Roman» garniturasi.
Shartli bosma tabog'i 26,1. Nashriyot hisob tabog'i 29. Adadi 2500.
Bahosi shartnoma asosida.

«Fan» nashriyotida nashrga tayyorlandi.
100047, Toshkent sh., Yahyo G'ulomov ko'chasi, 70-uy.

«Print Line Group» XK bosmaxonasida chop etildi.
100097, Toshkent sh., Bunyodkor shohko'chasi, 44,
Tel:. (+998) 71-276-37-00. Buyurtma № 437.

17000 z

FAN NASHRIYOTI

ISBN 978-9943-19-426-7
9 789943 194267